First, teachers should start the lesson with an interesting warm-up activity. It can be a question, picture, short video, or simple game. A good beginning helps students become interested in the topic.

Second, teachers should use pair work and group work regularly. These activities give students more opportunities to speak and share ideas. They are especially useful for shy students.

Third, teachers should use games carefully and purposefully. Games should not be only for fun; they should be connected with the lesson aim. For example, vocabulary games can help students remember new words, and grammar games can help them practise sentence structures.

Fourth, technology should be used to support learning. Videos, presentations, pictures, and audio materials can make lessons more interesting and understandable. However, technology should not replace the teacher. It should help students learn better.

Fifth, teachers should give positive feedback. Students need to feel that their efforts are valued. Even if their answer is not perfect, the teacher should encourage them and guide them to improve.

Finally, teachers should create a safe and friendly classroom environment. Students should not be afraid of making mistakes. When they feel respected and supported, they become more confident and active[5].

Conclusion. In conclusion, student engagement plays a very important role in successful learning. This research showed that students learn better when they are actively involved in the lesson. Only explaining the topic is not enough, especially in English lessons where students need practice and communication.

The results of my teaching practice at School No. 53 showed that group work, pair work, games, and technology can make lessons more interesting and effective. These methods helped students become more confident, motivated, and active. They also helped shy students participate more easily.

The research also showed that the teacher's role is very important. A teacher should not only explain the lesson, but also guide, support, motivate, and encourage students. A friendly classroom atmosphere helps students feel comfortable and ready to speak. When students are not afraid of making mistakes, they become more active learners.

To sum up, an engaging classroom is a place where students think, speak, cooperate, ask questions, and enjoy learning. If teachers use interactive methods and support students emotionally, lessons become more effective and meaningful. Therefore, engaging students in the classroom should be one of the main goals of every teacher.

REFERENCES

1. Fredricks, J. A. (2004). School Engagement: Potential of the Concept. Review of Educational Research.
2. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Longman.
3. Scrivener, J. (2011). Learning Teaching. Macmillan.
4. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
5. Ur, P. (1996). A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge: Cambridge University Press.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM TALABALARINING IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Mahmudov Sobitjon Abdurashid o'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Tayanch so'zlar: Ijtimoiy-madaniy kompetensiya, pedagogik oliy ta'lim, ta'lim samaradorligi, aksiologik yondashuv, madaniyatlararo muloqot, innovatsion klaster.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri – bo'lajak pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirish, ularni globallashuv sharoitida raqobatbardosh mutaxassislar qilib tayyorlashdan iborat. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish **ularning** kasbiy faoliyatida ijtimoiy muhitni to'g'ri boshqarish va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, talabalarni kasbga tayyorlash nafaqat tor sohadagi bilimlar, balki jamiyatlardagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tushunish va ularga moslashish ko'nikmalarini ham talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, madaniyatlararo muloqotni kengaytirish va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoni o'rganish doirasida 2 ta ilmiy maqola va 2 ta tezis nashr etilgan bo'lib, ular tadqiqotning amaliy natijalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot maqsadi. Pedagogik oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy qism. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning ijtimoiy munosabatlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etishi, tolerantlik madaniyatiga ega bo'lishi hamda turli madaniy guruhlar bilan samarali hamkorlik qila olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Pedagogik oliy ta'limda ushbu kompetensiyani tizimli shakllantirish quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar asosida amalga oshiriladi:

Axiologik komponent: milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, kasbiy axloq me'yorlarini anglash;

Kommunikativ komponent: turli madaniy va ijtimoiy qatlam vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalari;

Refleksiv komponent: shaxsning o'z ijtimoiy-madaniy xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash qobiliyati.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan pedagogik diagnostika va tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayoniga keys-stadi (case-study) texnologiyalari, loyihaviy yondashuv hamda interfaol metodlarni tatbiq etish talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samara beradi.

Xulosa. Pedagogik oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlab, ta'lim tizimida yuqori samaradorlikka erishishning muhim poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H. va b. *"Innovatsion ta'lim texnologiyalari"*. – Toshkent: "Sano-standart", 2015.
2. Inoyatov U.I. *"Pedagogik ta'lim sifatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari"*. – Toshkent: TDPU, 2011.
3. Zimnyaya I.A. *"Klyuchevyye kompetentsii – novaya paradigma rezultata sovremennogo obrazovaniya"*. // Ekologiya obrazovaniya. – 2003.
4. Abdullaeva Sh.A. *"Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009.

AUTENTIK MATNLAR ASOSIDA INTERFAOL MASHG'ULOTLAR TASHKIL ETISH VA ULARNING NUTQ RIVOJIGA TA'SIRI

Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li

Namangan State Institute of Foreign Languages
3rd year of basic doctoral studies

Annotatsiya. Mazkur maqolada autentik matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etishning nazariy-metodik asoslari, ularning o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi

ahamiyati ilmiy manbalar asosida keng tahlil qilinadi. Xorijiy va o'zbek olimlarining mazkur yo'nalishdagi ilmiy qarashlari umumlantirilib, autentik materiallardan foydalanishning psixologik, lingvodidaktik va kommunikativ jihatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari autentik matnlar bilan interfaol faoliyat olib borish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, so'z boyligi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri hamda muloqot madaniyatini sezilarli rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *autentik matn, interfaol metod, nutq rivoji, kommunikativ kompetensiya, lingvodidaktika, pedagogik texnologiya, muloqot, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: В данной статье на основе научных источников всесторонне анализируются теоретико-методические основы организации интерактивных занятий на базе аутентичных текстов, их роль в развитии речевой компетенции учащихся и значимость в современной системе образования. Обобщаются научные взгляды зарубежных и узбекских ученых в данном направлении, раскрываются психологические, лингводидактические и коммуникативные аспекты использования аутентичных материалов. Результаты исследования показывают, что интерактивная деятельность с аутентичными текстами значительно развивает устную и письменную речь учащихся, их словарный запас, самостоятельное и критическое мышление, а также культуру общения.

Ключевые слова: *аутентичный текст, интерактивный метод, развитие речи, коммуникативная компетенция, лингводидактика, педагогическая технология, общение, эффективность обучения.*

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of organizing interactive lessons based on authentic texts, their role in developing students' speech competence, and their significance in the modern education system. The scientific perspectives of foreign and Uzbek scholars in this field are synthesized, revealing the psychological, linguodidactic, and communicative aspects of using authentic materials. The research findings indicate that interactive activities with authentic texts significantly enhance students' oral and written speech, vocabulary, independent and critical thinking, and communication culture.

Keywords: *authentic text, interactive method, speech development, communicative competence, linguodidactics, pedagogical technology, communication, educational efficiency.*

KIRISH. Hozirgi globallashgan, axborotlashgan jamiyatda ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi sharoitida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogika va til o'qitish metodikasining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Zamonaviy jamiyatda shaxsdan faqat ma'lum qoidalarni yod olish yoki nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'z fikrini aniq, mantiqiy, ta'sirchan va vaziyatga mos tarzda ifodalay olish, muloqotga erkin kirisha bilish, axborotni tahlil qilish, baholash va qayta ishlab chiqish kabi amaliy ko'nikmalarni talab etilmoqda. Shu ma'noda ta'lim jarayonida nutq rivojini ta'minlashga xizmat qiladigan samarali didaktik vositalarni yaratish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

Ayniqsa, til ta'limida an'anaviy, qoliplashgan va sun'iy tuzilgan matnlar asosida ishlash ko'p holatlarda o'quvchini real muloqot muhitiga to'liq tayyorlay olmayotgani kuzatilmoqda. Bunday sharoitda o'quvchi grammatik qoidalarni bilishi mumkin, ammo ularni hayotiy vaziyatda qo'llashda, mustaqil fikr bildirishda, o'z munosabatini asoslashda yoki erkin muloqot qilishda qiynaladi. Bu esa ta'lim jarayonida nutqning faqat shakliy tomoniga emas, balki uning funksional, kommunikativ va ijtimoiy jihatlariga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, autentik matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etish masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Autentik matnlar o'quvchini tilning tabiiy yashash muhiti bilan bog'laydi. Ular orqali ta'lim oluvchi sun'iy ravishda soddalashtirilgan emas, balki jamiyatda amalda qo'llanilayotgan tirik til, haqiqiy muloqot birliklari, uslubiy rang-baranglik, madaniy konnotatsiyalar va pragmatik ma'nolar bilan tanishadi. Bu esa, bir tomondan, nutqni real vaziyatlarda to'g'ri qo'llashga o'rgatsa, ikkinchi tomondan, o'quvchining tilga nisbatan qiziqishi va ichki ehtiyojini kuchaytiradi. Chunki u o'rganayotgan materialining hayot bilan bog'liq ekanini his qiladi. Bugungi ta'limda aynan shu jihat, ya'ni bilimning hayotiyliigi va amaliyligi eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ushbu mavzuning dolzarbligi yana shu bilan izohlanadiki, zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'rishni talab qilmoqda. Interfaol metodlar ana shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini hamkorlik, bahs-munozara, muloqot, ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlash asosida tashkil etish imkonini beradi. Agar ushbu metodlar autentik matnlar bilan uyg'unlashtirilsa, dars jarayoni yanada mazmunli, hayotiy va samarali kechadi. Chunki o'quvchi tayyor javobni qabul qilmay, matnni o'qiydi, anglaydi, tahlil qiladi, baholaydi, taqqoslaydi va shu asosda o'z nutqiy faoliyatini amalga oshiradi. Natijada nutq faqat takrorlash ob'yekti bo'lib qolmay, balki tafakkur va muloqot vositasi sifatida shakllanadi.

Bugungi raqamli axborot muhitida inson turli matnlar oqimi ichida yashamoqda: internet xabarlar, intervyular, bloglar, ijtimoiy tarmoq materiallari, reklama matnlari, ommaviy axborot vositalari chiqishlari, turli rasmiy va norasmiy murojaatlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Demak, ta'lim jarayoni ham o'quvchini aynan shunday axborot muhitida faol va ongli harakat qilishga tayyorlashi kerak. Autentik matnlar asosida ishlash o'quvchini turli uslub va janrdagi matnlarni anglash, saralash, tahlil qilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish hamda ular asosida og'zaki va yozma fikr yuritishga o'rgatadi. Bu esa nafaqat nutq rivoji, balki mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur va axborot madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan ham o'ta muhimdir.

Shu bilan birga, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirishi, so'zlarning kontekstual ma'nolarini chuqurroq anglatishi, erkin fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishi, muloqotga kirishishdagi psixologik to'siqlarni kamaytirishi qayd etilgan. Biroq bu masalaning nazariy va amaliy jihatlar, ayniqsa, autentik matnlarni interfaol mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish orqali nutq rivojiga ta'sirini kompleks o'rganish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Demak, ushbu mavzu faqat metodik jihatdan emas, balki

psixolingvistik, lingvodidaktik va ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan ham muhim hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, nutq rivoji bugungi kunda shaxsning akademik muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy omillardan biriga aylangan. Chunki o'quvchi fikrni tushunishi, tahlil qilishi va ifodalay olishi orqali boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham yuqori natijaga erishadi. Demak, autentik matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etish faqat til ta'limi doirasida emas, balki umumiy ta'lim sifati va o'quvchining intellektual rivoji nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

ASOSIY QISM. Mazkur masala ayniqsa til ta'limida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tilni bilish grammatik qoidalarni yodlash emas, balki real muloqot sharoitida undan foydalana olishdir. Shu nuqtai nazardan, autentik matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etish o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Autentik matnlar tabiiy kommunikativ ehtiyoj natijasida yaratilgan, real til muhiti mahsuli bo'lgan matnlardir. Ular gazeta maqolalari, internet xabarlar, suhbatlar, reklama matnlari, badiiy parchalar, intervyular, blog yozuvlari, ilmiy-ommabop materiallar, audio va video transkriptlar shaklida uchrashi mumkin. Bunday materiallarning asosiy afzalligi shundaki, ular sun'iy ravishda soddalashtirilmagan bo'lib, tilning tabiiy funksional imkoniyatlarini aks ettiradi [1].

An'anaviy ta'limda ko'pincha darslik matnlari maxsus didaktik maqsadda qayta ishlanadi, leksik va grammatik jihatdan soddalashtiriladi. Natijada o'quvchi real nutq muhiti bilan to'qnash kelganda qiyinchilikka duch keladi. Autentik matnlar esa tilning tabiiy tezligi, uslubiy bo'yoqdorligi, kontekstual ma'nolari va madaniy qatlamini saqlagan holda taqdim etiladi. Bu esa o'quvchini real kommunikatsiyaga tayyorlaydi. Interfaol mashg'ulotlar esa o'quvchini faol fikrlashga, bahslashishga, tinglashga, munosabat bildirishga va hamkorlikda ishlashga undaydi. Demak, autentik matn va interfaol metod uyg'unligi nutq rivojining eng samarali modeli sifatida qaralishi mumkin.

Til o'qitish metodikasida autentiklik masalasi XX asrning ikkinchi yarmida kommunikativ yondashuv shakllanishi bilan ilmiy muhokama markaziga aylandi. Henry Widdowson o'z tadqiqotlarida autentik materiallarni tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishda asosiy resurs deb hisoblaydi. Olimning ta'kidlashicha, o'quvchi til birliklarini faqat grammatik struktura sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyatda ma'no ifodalovchi vosita sifatida anglamog'i zarur [2]. Ushbu qarash til o'rgatishda funksional yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi.

David Nunan esa autentik matnlarning motivasion imkoniyatlarini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, real hayotdan olingan materiallar o'quvchida "men haqiqiy tilni o'rganayapman" degan ichki ishonchni shakllantiradi va bu o'quv jarayoniga ijobiy psixologik ta'sir ko'rsatadi [3]. Motivatsiya yuqori bo'lgan ta'lim jarayonida esa nutqiy faoliyat tabiiy ravishda faollashadi.

Jeremy Harmer autentik materiallar yordamida o'quvchilar tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini tezroq egallashini qayd etadi. Chunki real matnlarda nutqiy qoliplar, emosional birliklar, kundalik iboralar va pragmatik ma'nolar mujassam bo'ladi [4]. Masalan, oddiy darslik matnida "How are you?" shakli uchrasa,

autentik suhbatda "How's it going?", "What's up?", "You alright?" kabi variantlar mavjud bo'ladi. Bu esa tilning tirik tabiatini ochib beradi.

Autentik matnlarning nutq rivojiga ta'sirini psixologik nazariyalar ham tasdiqlaydi. Lev Vygotskiy inson tafakkuri va nutqi ijtimoiy hamkorlik jarayonida rivojlanishini asoslagan. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, o'quvchi murakkab vazifalarni kattalar yoki tengdoshlar yordami bilan bajarish orqali yuqori bosqichga ko'tariladi [5]. Interfaol mashg'ulotlarda aynan shu jarayon kuzatiladi: guruhli muhokama, juftlikda ishlash, rolli o'yin va debatlar davomida o'quvchilar bir-birining nutqiy tajribasidan foydalanadi. Natijada nutqiy kompetensiya bosqichma-bosqich rivojlanadi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi ham bu masalaga muhim tushuntirish beradi. Piaget bilim tayyor holda berilmasligini, balki shaxsning faol bilish jarayonida qurilishini ta'kidlaydi [6]. Autentik matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi ma'lumotni tahlil qiladi, solishtiradi, umumlashtiradi va o'z fikrini bayon etadi. Bu jarayon nutqiy tafakkurni kuchaytiradi.

Lingvodidaktik nuqtai nazardan, autentik matnlar lug'at boyligini oshirishda katta imkoniyatga ega. A. Hojiyev o'zbek tilshunosligida so'z ma'nosining to'liq anglanishi uning kontekstual qo'llanishi bilan bog'liqligini qayd etadi [7]. Darhaqiqat, alohida so'z yodlashdan ko'ra uni matn tarkibida o'rganish samaraliroqdir. Masalan, "qaror" so'zi rasmiy uslubda, badiiy matnda yoki kundalik suhbatda turlicha semantik soyalar kasb etadi. O'quvchi autentik matn orqali ana shu nozikliklarni tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Sh. Rahmatullayevning frazeologiya bo'yicha tadqiqotlari til birliklarining xalq tafakkuri va madaniyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi [8]. Shu ma'noda autentik matnlar milliy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda ham muhimdir. Chunki unda maqollar, iboralar, metaforalar, milliy realliyalar, mentalitetga xos birliklar tabiiy holda uchraydi. Bu esa nafaqat tilni, balki madaniyatni ham o'rgatadi.

O'zbek olimi N. Mahmudov til va tafakkur birligini sharhlar ekan, nutq rivoji uchun mazmunli, mantiqiy va boy til muhiti zarurligini ta'kidlaydi [9]. Autentik matnlar aynan shunday muhitni yaratadi. O'quvchi mazmunli matn ustida ishlash orqali fikrni tahlil qiladi, sabab-oqibat bog'liqligini anglaydi, muallif pozitsiyasini baholaydi va o'z nuqtai nazarini ifodalaydi. Autentik matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etishning metodik modellari xilma-xildir. Masalan, "Aqliy hujum" metodida matn sarlavhasi yoki muammosi asosida o'quvchilar taxminlar bildiradilar. Bu usul oldindan nutqiy faollikni uyg'otadi. "Klaster" metodida asosiy tushuncha atrofida g'oyalar tizimlashtiriladi, natijada mantiqiy fikrlash va terminologik nutq rivojlanadi. "Debat" metodida o'quvchilar muammoga turli pozitsiyadan yondashib, dalillash ko'nikmalarini egallaydilar. "Rolli o'yin" esa vaziyatli muloqotni kuchaytirib, spontan nutqni rivojlantiradi.

Masalan, ekologiya mavzusidagi autentik maqola o'qilgach, bir guruh sanoat rivojlanishini, ikkinchi guruh esa ekologik xavfsizlikni himoya qilishi mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar argument tanlaydi, qarshi fikr bildiradi, savol beradi va javob qaytaradi. Natijada real kommunikativ muhit yuzaga keladi. Yozma nutqni rivojlantirishda ham autentik matnlar samarali vosita hisoblanadi. O'quvchilarga matn asosida annotatsiya yozish, reja tuzish, esse yaratish, muallif fikriga munosabat

bildirish, xulosa yozish, rasmiy xat tayyorlash kabi topshiriqlar berilganda yozma nutq madaniyati shakllanadi. Bunda matn mantiqiyligi, uslubiy aniqlik, dalillilik va grammatik to'g'rilik rivojlanadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ham autentik materiallarning samaradorligi tasdiqlangan. Richards va Rodgers kommunikativ metodlar bo'yicha olib borgan tahlillarida real materiallar bilan ishlagan o'quvchilarda tilni qo'llash tezligi va ishonchliligi yuqori bo'lishini ko'rsatadilar [10]. Krashenning input nazariyasiga ko'ra esa o'quvchi tushuniladigan, ammo biroz murakkabroq real til materiallari orqali samarali rivojlanadi [11].

O'zbekiston ta'lim amaliyotida ham kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi autentik matnlardan foydalanish zaruratini kuchaytirdi. Ona tili, adabiyot va xorijiy tillar darslarida gazeta maqolalari, internet materiallari, videolavhalar transkriptlari, ijtimoiy hayotga oid matnlar, hujjatlar va suhbat namunalari qo'llanilishi o'quvchilar nutqiy faoliyatini sezilarli faollashtirmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida multimodal autentik materiallardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Biroq autentik matnlardan foydalanishda ayrim metodik shartlarga rioya qilish lozim. Avvalo, matn o'quvchilarning yosh xususiyati va til darajasiga mos bo'lishi kerak. Juda murakkab material motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Ikkinchidan, topshiriqlar faqat matn mazmunini qayta aytirish bilan cheklanmasligi, balki tahlil, baholash, muammoli fikrlash va ijodiy yondashuvga yo'naltirilishi zarur. Uchinchidan, o'qituvchi nazoratchi emas, fasilitator sifatida jarayonni boshqarishi lozim. Shundagina interfaol ta'lim mohiyati ro'yobga chiqadi.

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, autentik matnlar bilan tizimli ishlagan o'quvchilarda so'z boyligi kengayadi, nutq ravonlashadi, muloqotga kirishish qo'rquvi kamayadi, yozma fikr bayoni yaxshilanadi va tanqidiy tafakkur kuchayadi. Bu esa mazkur metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA. Autentik matnlar asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etish bugungi ta'lim tizimida nutq rivojini ta'minlovchi eng samarali metodik yondashuvlardan biridir. Mazkur yondashuv tilni sun'iy qoidalar majmui sifatida emas, balki real hayotiy muloqot vositasi sifatida o'rgatadi. Xorijiy va o'zbek olimlarining ilmiy qarashlari autentik materiallarning kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash, lug'at boyligi va madaniy tafakkurni rivojlantirishdagi rolini tasdiqlaydi. Shu bois ta'lim amaliyotida autentik matnlardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda interfaol texnologiyalarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. Oxford: Oxford University Press, 1978. – 24, 56-betlar.
2. Nunan D. Designing Tasks for the Communicative Classroom. Cambridge: CUP, 1989. – 78-bet.
3. Harmer J. The Practicye of English Language Teaching. London: Pearson, 2007. – 145-bet.
4. Vygotsky L.S. Mind in Sociyety. Harvard University Press, 1978. – 86-bet.

5. Piaget J. The Psychology of Intelligencye. London: Routledge, 1950. – 32-bet.
6. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 91-bet.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, 1992. – 18-bet.
8. Mahmudov N. Til va tafakkur. Toshkent: Fan, 2010. – 44-bet.
9. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2001. – 172-bet.
10. Krashen S. Principles and Practicye in Second Language Acquisition. Oxford, 1982. – 21-bet.

MONTESSORI METODIKASINING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI: "SHIMUVCHI ONG" VA "SENSOR-MOTOR" O'RGANISH ORQALI TIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Quchqarova Guljahon Shuhratjon qizi

Fargo'ona viloyati, Uchko'prik tumani

4- umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Maria Montessori tomonidan ilgari surilgan "Shimuvchi ong" nazariyasining zamonaviy psixolingvistika va neyropedagogika nuqtayi nazaridan ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalik davrida til o'zlashtirish jarayonining sensor-motor mexanizmlari, xususan, taktil, vizual va audial tajribaning neyron aloqalar shakllanishidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Montessori metodikasidagi qumli harflar, harakatlanuvchi alifbo va uch qismli kartalar kabi didaktik vositalarning lingvistik kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada Lev Vygotsky ning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi hamda Noam Chomsky ning tug'ma til qobiliyati konsepsiyasi bilan integratsiya asosida zamonaviy ta'lim yondashuvlari tahlil qilinadi. O'zbekiston ta'lim tizimida joriy etilgan CLIL va vizual storytelling metodlarining psixolingvistik samaradorligi empirik kuzatuvlar asosida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *Montessori metodikasi, shimuvchi ong, psixolingvistika, neyropedagogika, sensor-motor o'rganish, CLIL, vizual storytelling, uch qismli kartalar, harakatlanuvchi alifbo, til kompetensiyasi*

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные основы теории «поглощающего разума», предложенной Maria Montessori, с позиции современной психолингвистики и нейрopedagogики. Особое внимание уделяется сенсомоторным механизмам усвоения языка в раннем детстве, а также роли тактильного, визуального и аудиального опыта в формировании нейронных связей. Анализируются дидактические материалы метода Монтеessori, такие как шершавые буквы, подвижный алфавит и трёхчастные карточки, как эффективные инструменты развития языковой компетенции. В статье также рассматривается интеграция теории «зоны ближайшего развития» Lev Vygotsky и концепции врождённой языковой способности Noam Chomsky. На примере образовательной системы Узбекистана обосновывается эффективность методов CLIL и визуального сторителлинга.

Ключевые слова: метод Монтеessori, поглощающий разум, психолингвистика, нейропедагогика, сенсомоторное обучение, CLIL, визуальный сторителлинг, трёхчастные карточки, подвижный алфавит, языковая компетенция

Abstract: This article examines the scientific foundations of the "Absorbent Mind" theory proposed by Maria Montessori from the perspective of modern psycholinguistics and neuro pedagogy. The study focuses on sensorimotor mechanisms of language acquisition in early childhood, highlighting the role of tactile, visual, and auditory experiences in the formation of neural connections. It further analyzes key Montessori materials such as sandpaper letters, the movable alphabet, and three-part cards as effective tools for developing linguistic competence. The paper also integrates Lev Vygotsky's Zone of Proximal Development and Noam Chomsky's theory of innate language ability. The effectiveness of CLIL and visual storytelling methods is substantiated through observations within the educational reforms of Uzbekistan.

Keywords: *Montessori method, absorbent mind, psycholinguistics, neuro pedagogy, sensorimotor learning, CLIL, visual storytelling, three-part cards, movable alphabet, language competence*

Zamonaviy psixolingvistika va neyropedagogika sohasining eng dolzarb masalalardan biri - bu axborotning neyronlarda muhrlanish mexanizmidir. Mariya Montessori tomonidan kashf etilgan va o'z davri uchun inqilobiy bo'lgan "The Absorbent Mind" (Shimuvchi ong) nazariyasi, bugungi kun neyrobiologiyasi nuqtayi nazaridan o'ta aniq asoslangan. Montessori ta'kidlaganidek, 0 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bola atrof-muhitdagi barcha hodisalarni, xususan tilni ham, ongli tahlilsiz, "shimgich" kabi o'zlashtiradi. U atrofidagi hamma narsalarni - tovushlarni, intonatsiyani, so'z tuzilishini shimgich kabi filtrsiz qabul qiladi. Bola tilni "o'rganmaydi", u tilda yashaydi". Bu davrda miyasida til uchun mas'ullangan neyron aloqalari eng yuqori tezlikda shakllanadi. Agar bu davr boy berilsa, foydali til o'rganish ancha murakkab kechadi.

Barmoq uchi bilan o'rganish - Montessori psixolingvistikasining eng fundamental kuzatuvi, bu tilni abstraktlikdan konkret shaklga o'tkazishdir. Bola so'zni ishlatishdan oldin uning manbasini ushlab ko'rishi, his qilishi kerak.

"Inson qo'li bilan nimanidir bajarmas ekan, uning ongi to'liq rivojlanmaydi" - M. Montessori.

Masalan, bola "olma" so'zini organayotganda, u olmaning shaklini ushlaydi (taktil), uning rangini ko'radi (vizual), hidini sezadi (olfaktor). Shunda "olma" so'zi uning xotirasida tovush emas, balki yaxlit sensor obraz bo'lib qoladi.

Montessori metodikasida til o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari va qurollari bor:

Qumli harflar - bola harfning shaklini barmoqlari bilan silaydi. Bu yerda mushak xotirasi ishga tushadi, yozishni boshlaganida esa miya bu shaklni allaqachon tanish deb qabul qiladi.

Harakatlanuvchi alifbo- bu Montessori metodikasidagi eng muhim til materiallaridan biri bo'lib, u bolaning yozishga bo'lgan intellektual tayyorgarligi bilan qo'lining jismoniy tayyorgarligi o'rtasidagi farqni yopuvchi "ko'prik"

hisoblanadi. Oddiyroq til bilan aytganda, bu - har bir harfi alohida kesilgan va maxsus qutida tartib bilan saqlanadigan harflar to'plamidir. 3,5–4 yoshli bolaning miyasida allaqachon so'zlarni tuzish, o'z fikrini bildirish istagi paydo bo'ladi. Biroq, uning qo'l mushaklari hali qalamni mahkam ushlab, qog'ozda chiroyli harf chizish darajasida rivojlanmagan bo'ladi. Ushbu jarayonda bola qalam bilan qiynalib o'tirmaydi, u qutidan kerakli harflarni oladi va gilamcha ustiga yonma-yon qo'yib, so'zlar yasay boshlaydi. Masalan, "M-O-T-H-E-R" harflarini bir-biriga ulab, hayotidagi eng muhim so'zni "yozadi". Odatda, bu alifboda unli harflar ko'pincha ko'k va undosh harflar qizil ranglar bilan ajratilgan bo'ladi. Bu bolaga so'zning strukturasini ongsiz ravishda vizual tarzda o'rganishga yordam berishi bilan muhimdir.

Psixologik ahamiyati jihatidan - bola o'z miyasidagi mavhum tovushlarni jismoniy narsaga harfga aylantiradi. Bu unga "Men o'z fikrimni boshqalarga ko'rsata olaman!" degan ishonchni beradi. Harakatlanuvchi alifbo - bu bola hali qo'li bilan yoza olmasa ham, miyasi bilan "yozishni" boshlashi uchun berilgan imkoniyatdir. Bu uning savodxonlik dunyosiga qo'ygan ilk mustaqil qadamidir.

Uch qismli kartalar: - bu bolaning lug'at boyligini oshirish, tushunchalarni tizimlashtirish va o'qish ko'nikmasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi klassik Montessori materialidir. Uning ilmiy mohiyati vizual-semantik bog'liqlik hamda avtodidaktika tamoyillariga tayanadi va ular uchta komponentdan iborat:

Faqat rasm: Obyektning vizual obrazini ta'minlaydi.

Faqat nom : Obyektning ramziy, grafik ifodasini ya'ni so'zni ko'rsatadi.

Nazorat kartasi. Rasm + Nom: Bu bolaning "o'qituvchisi" bo'lib, to'g'ri javob variantini o'zida mujassam etadi.

Avtodidaktika: O'z-o'zini korreksiya qilish mexanizmi

Montessori metodikasining eng kuchli tomoni – "xatoni nazorat qilish" funksiyasining materialning ichiga joylanganligidir.

Jarayonda bola rasmga mos keluvchi nomni mustaqil tanlaydi va yonma-yon qo'yadi. So'ngra nazorat kartasini olib, o'zining natijasi bilan solishtiradi.

Ilmiy natija: Agar xato qilgan bo'lsa, bola buni kattalarning yordamisiz, tanbehisiz va dars bahosisiz o'zi payqaydi. Bu jarayon kognitiv psixologiyada ichki motivatsiyani shakllantirish va mustaqil fikrlash deb ataladi.

Neyrolingvistik ahamiyati jihatidan uch qismli kartalar miyaning chap (mantiqiy-til) va o'ng (vizual-obrazli) yarim sharlari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiradi. Bola rasmni ko'rganda tushunchani anglaydi, yozuvni ko'rganda esa uni grafik ramz sifatida qabul qiladi. Ularni birlashtirish orqali miyada vizual-semantik assotsiatsiya hosil bo'ladi.

Bu usul bolaga so'zlarni mexanik yodlash emas, balki ularni mantiqiy guruhlariga, masalan, "Uy hayvonlari", "Geometrik shakllar", "O'simlik qismlari" ajratgan holda tizimli o'rganish imkonini beradi. Uch qismli kartalar — bu bolaga tashqi yordamsiz o'z bilimni tekshirish imkonini beruvchi intellektual vositadir. U bolada nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini tarbiyalaydi. Montessori metodologiyasi bolani "o'qitish" emas, balki uning tabiiy "o'rganuvchi mexanizm"ga to'g'ri keladigan sharoit yaratib berishdir.

Montessori nuqtayi nazaridan, til o'rganish - bu faqatgina eshitish jarayoni emas, balki sensor-motor faoliyatdir. Masalan, "Guess What" darsliklaridagi har bir mavzu vizual obrazlar bilan boshlanishi bejiz emas. Agar Chomskiy tilning ichki strukturasiga urg'u bergan bo'lsa, Montessori ushbu strukturaning shakllanishi uchun "taktil tajriba" zarurligini ta'kidlaydi. Montessori materiallari masalan, qum qog'ozli harflar orqali bola tilning fizik shaklini sezadi. Bu jarayonda miya yarim sharlaridagi nutq ishlab chiqarish va motorika uchun mas'ul bo'lgan markazlar o'rtasida bog'lanishlar kuchayadi.

L.Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" va Montessori materiallari integratsiyasi

Pedagogik psixologiya giganti Lev Vigotskiy o'zining "Sotsial-madaniy nazariyasi"da "Zone of Proximal Development" (ZPD - Yaqin rivojlanish zonasi) tushunchasini kiritgan. Bu tushuncha Montessori materiallari va "Visual Storytelling" metodikasi uchun fundamental ahamiyatga ega. ZPD - bu bolaning mustaqil bajara oladigan ishi va kattalar yordamida bajara olishi mumkin bo'lgan masofa o'rtasidagi farqdir. Montessori materiallari va "Prepare" darsligidagi loyiha ishlari aynan shu vazifani bajaradi:

Material orqali yo'naltirish: O'quvchi yangi grammatik strukturani masalan, Present Continuous ni vizual hikoya orqali ko'radi.

Mustaqil kashfiyot: Montessori tamoyiliga ko'ra, material shunday tuziladiki, u bolani xatosini o'zi topishga majbur qiladi.

Lingvistik transfer: Vigotskiy ta'kidlaganidek, ijtimoiy muloqotda bu bilimlar shaxsiy tajribaga aylanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi tubdan isloh qilindi. Xususan, Milliy o'quv dasturining joriy etilishi va Cambridge University Press bilan hamkorlikda hamda "Prepare" darsliklarining adaptatsiya qilinishi psixolingvistik yondashuvning amaliy ko'rinishi xisoblanadi. Avvalgi "grammatik-tarjima" metodikasida til o'rganuvchi passiv sub'ekt edi. Montessori prinsiplari asosida yaratilgan zamonaviy darsliklarda esa o'quvchi "Faol tadqiqotchi" rolini bajaradi. O'zbek mentalitetida bolalarning jamoaviy ishlashga moyilligi va vizual obrazlarni tez qabul qilishi "Visual Storytelling" metodikasining samaradorligini oshiradi. 2017-2024 yillardagi islohotlar doirasida "maktabgacha ta'lim - maktab - oliy ta'lim" uzviyligi aynan Montessori taklif qilgan "uzluksiz rivojlanish" g'oyasiga tayanadi. "Guess What" darsliklaridagi CLIL-fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish sahifalari bolaning dunyoqarashini kengaytirib, tilni sun'iy o'quv predmeti emas, balki real dunyoni anglash vositasi sifatida taqdim etadi. Shu nuqtayi nazardan, "Prepare" darsligidagi harakatli o'yinlar va "Visual Storytelling" mashqlari o'quvchi miyasida neyroplastik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu esa tilni uzoq muddatli xotirada saqlanishini an'anaviy yodlash usuliga qaraganda 40-50% ga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda chet tillarini o'qitish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar bevosita Montessori tamoyillariga yaqin bo'lgan kognitiv yondashuvlarga asoslanmoqda.

O'zbekiston umumta'lim maktablarida ingliz tili o'qitish metodologiyasining evolyutsion va qiyosiy tahlili 2017–2024 yillar.

1-jadval

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2024-yilga kelib ta'lim tizimi passiv o'zlashtirishdan faol muloqotga va visual sensorika orqali o'rganishga o'tgan. Bu bevosita siz yuqorida ta'kidlagan "Shimuvchi ong" va "Sensor intellekraxt" tamoyillarining zamonaviy ta'lim darsliklarida (masalan, CLIL va yuqori vizualizatsiyaga ega darsliklar) aks etishidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yildan boshlab joriy etilgan Milliy o'quv dasturi doirasida va "Prepare" darsliklarining qo'llanilishi o'quvchilarning CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlari bo'yicha natijalarini sezilarli darajada yaxshilagan. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Montessori elementlari individual yondashuv, vizual materiallar bilan mustaqil ishlash qo'llanilgan eksperimental sinflarda o'quvchilarning tilni o'zlashtirish tezligi nazorat sinflariga nisbatan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, o'zbek maktablarida "Visual Storytelling" metodi orqali o'quvchilarning og'aki nutqiy to'siqlari 30% ga kamayganida namoyon bo'ladi.

O'zbek pedagogikasi tarixida ham "ko'rib o'rganish" va "hunar orqali tarbiya" har doim ustuvor bo'lgan. Montessori metodologiyasidagi "tayyorlangan muhit" tushunchasi o'zbek maktablaridagi "zamonaviy xona" tushunchasiga transformatsiya qilindi. Bugungi kunda ingliz tili darsligidagi rasmlar shunchaki bezak emas, balki psixolingvistik langar vazifasini o'taydi. O'quvchi rasmni ko'radi (visual), unga tegishli realiyani ushlaydi (montessori tactile) va u haqida hikoya tuzadi (storytelling). Ushbu uchlik o'zbek tilidagi mantiqiy fikrlash tizimini ingliz tili strukturasi bilan oson integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Montessori metodologiyasining psixolingvistik asosi - bu tilni inson tajribasidan ajratilmagan holda, sensor organlar orqali o'zlashtirilishidir. Noam Chomskiyning tug'ma qobiliyatlari va Allan Paivioning vizual kodlash nazariyalari o'rtasidagi sintez "Guess What" va "Prepare" darsliklari misolida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun eng samarali model ekanligini isbotlamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Монтессори М. Поглощающий разум. – М.: АСТ, 2009. – 320 с.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. –251p
4. Pinker S. The Language Instinct: How the Mind Creates Language. – New York: HarperCollins, 1994. – 494 p.
5. Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach. – Oxford: Oxford University Press, 1986. – 322 p.

THE IMPACT OF MUSIC ON VOCABULARY RETENTION IN EFL LEARNERS

Qurbonbayeva Sojidabonu Muxtar qizi
Teacher of Urgench State Pedagogical Institute

Abstract: Vocabulary retention represents a significant challenge in English as a Foreign Language (EFL) learning, particularly in contexts with limited exposure to authentic language use. Conventional memorization strategies often prove insufficient for ensuring long-term retention and effective lexical application. Contemporary pedagogical research identifies music as a powerful instructional tool for enhancing vocabulary acquisition. Drawing upon both international and Uzbek scholarly sources, this study demonstrates that music facilitates memory retention, enhances learner motivation, and promotes intercultural competence through cognitive and affective mechanisms.

Keywords: vocabulary retention, EFL learning, music in language learning, vocabulary acquisition, memory enhancement, learner motivation, intercultural competence, cognitive processes, affective factors

Annotatsiya: Soʻz boyligini eslab qolish ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) oʻrganishda, ayniqsa, autentik til muhitiga taʼsir cheklangan sharoitlarda, muhim muammolardan biri hisoblanadi. Anʼanaviy yodlash usullari koʻpincha uzoq muddatli saqlash va leksik birliklardan samarali foydalanishni taʼminlay olmaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar musiqani soʻz boyligini oʻzlashtirishni kuchaytiruvchi samarali oʻquv vositasi sifatida eʼtirof etadi. Xalqaro va oʻzbek olimlari tadqiqotlariga tayangan holda, ushbu ish musiqa kognitiv va affektiv mexanizmlar orqali xotirani mustahkamlashi, oʻquvchilarning motivatsiyasini oshirishi hamda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: soʻz boyligini eslab qolish, EFL taʼlimi, til oʻrganishda musiqa, soʻz boyligini oʻzlashtirish, xotirani mustahkamlash, oʻquvchi motivatsiyasi, madaniyatlararo kompetensiya, kognitiv jarayonlar, affektiv omillar

Аннотация: Запоминание словарного запаса представляет собой одну из ключевых трудностей при изучении английского языка как иностранного (EFL), особенно в условиях ограниченного контакта с аутентичной языковой средой. Традиционные методы заучивания часто оказываются недостаточно эффективными для обеспечения долговременного сохранения и практического использования лексических единиц. Современные педагогические исследования рассматривают музыку как действенный инструмент, способствующий усвоению словарного запаса. На основе международных и узбекских научных работ в данной статье показано, что музыка способствует укреплению памяти, повышает мотивацию обучающихся и развивает межкультурную компетенцию через когнитивные и аффективные механизмы.

Ключевые слова: запоминание словарного запаса, обучение английскому как иностранному (EFL), музыка в обучении языку, усвоение лексики, улучшение памяти, мотивация обучающихся, межкультурная компетенция, когнитивные процессы, аффективные факторы

Vocabulary plays a central role in language learning, as it forms the foundation of communication. Without sufficient lexical knowledge, learners struggle to express

ideas and understand input. As scholars such as Nation and Schmitt emphasize, vocabulary acquisition is one of the most essential yet difficult components of second language learning. In EFL contexts, including Uzbekistan, this challenge is even more pronounced due to limited opportunities for real-life language use.

Uzbek researcher M. Akbarova highlights that modern language teaching requires innovative and interdisciplinary approaches, where music can serve as a bridge between linguistic knowledge and communicative practice. Her research shows that integrating rhythm, melody, and lyrics into language instruction significantly enhances learners' vocabulary development and pronunciation. This perspective aligns with global trends emphasizing learner-centered and engaging teaching methods. The effectiveness of music in vocabulary learning can be explained through well-established cognitive and linguistic theories. One of the most relevant frameworks is the idea that vocabulary acquisition improves when learners engage in deeper cognitive processing. Music naturally supports such engagement by combining listening, repetition, and emotional involvement.

Furthermore, songs provide repeated exposure to lexical items, which is essential for transferring information into long-term memory. Studies on incidental vocabulary learning confirm that repeated listening significantly improves lexical acquisition, especially when learners encounter words multiple times in meaningful contexts. Melody and rhythm act as mnemonic devices, making it easier for learners to recall vocabulary. From an affective perspective, music reduces anxiety and increases motivation. This is supported by research showing that music-based instruction enhances learners' engagement and positive attitudes toward language learning. For example, Iranpour's study found that music significantly improves students' motivation and learning outcomes in EFL classrooms. These findings reinforce the idea that emotional factors play a crucial role in language acquisition.

A growing body of empirical research supports the effectiveness of music in vocabulary learning. A study by Karim et al. (2022) found that the majority of EFL learners perceive songs as an effective tool for improving vocabulary. More than 90% of participants reported that songs help them learn new words and remember meanings more easily. Learners also indicated that they actively search for the meanings of lyrics, which promotes autonomous learning. Similarly, research by Zamin and colleagues (2020) demonstrated that using songs in English classes significantly improves students' vocabulary knowledge, particularly verbs. The study showed measurable gains between pre-test and post-test results, confirming the effectiveness of music as a teaching tool. These findings highlight that music is not only engaging but also pedagogically effective.

In the Uzbek educational context, the integration of music into language teaching is gaining increasing attention. Akbarova's research emphasizes that music-based instruction enhances not only vocabulary retention but also pronunciation and communicative competence. She argues that music creates a natural learning environment where students can internalize language patterns through rhythm and repetition. Additionally, Uzbek scholars in linguacultural studies point out that language learning should not be separated from cultural context. Songs, as cultural artifacts, reflect the values, traditions, and worldview of a language community.

Therefore, learning vocabulary through songs allows Uzbek EFL learners to develop both linguistic and cultural awareness simultaneously. This aligns with the broader goals of modern language education in Uzbekistan, which emphasize intercultural competence.

From a linguacultural perspective, music serves as a powerful medium for transmitting cultural knowledge. Songs contain idiomatic expressions, metaphors, and culturally specific references that enrich learners' understanding of language. Unlike textbook examples, songs present language in authentic and emotionally meaningful contexts. For Uzbek learners, exposure to English songs provides insight into different cultural norms and ways of thinking. This not only enhances vocabulary retention but also helps learners interpret language more accurately in real-life situations. As a result, music contributes to the development of a more holistic linguistic competence that integrates language, culture, and communication. Despite its advantages, the use of music in language teaching also presents certain challenges. Songs may include slang, informal expressions, or non-standard grammar, which can confuse learners if not properly explained. Additionally, fast tempo and unclear pronunciation may hinder comprehension, especially for beginners.

To maximize the benefits of music, teachers should carefully select songs that match learners' proficiency levels and learning objectives. Structured activities such as pre-listening vocabulary tasks, guided listening, and post-listening discussions can help learners focus on key lexical items. In this way, music becomes not just an entertaining addition but a purposeful instructional strategy.

In conclusion, both international and Uzbek research clearly demonstrate that music has a significant positive impact on vocabulary retention in EFL learners. By combining cognitive, emotional, and cultural elements, music creates an effective and engaging learning environment. It enhances memory through repetition and melody, increases motivation, and provides meaningful context for vocabulary use. For EFL learners in Uzbekistan, music offers a valuable opportunity to connect language learning with cultural understanding. However, its effectiveness depends on thoughtful implementation and pedagogical planning. Future research should continue to explore how music can be integrated into language teaching to support not only vocabulary acquisition but also broader communicative competence.

REFERENCES

1. Nation, I. S. P. (2013). *Learning vocabulary in another language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
2. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in language teaching*. Cambridge University Press.
3. Schmitt, N. (2008). Review article: Instructed second language vocabulary learning. *Language Teaching Research*, 12(3), 329–363.
4. Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon Press.
5. Medina, S. L. (1993). The effect of music on second language vocabulary acquisition. *National Network for Early Language Learning*, 6(3), 1–8.
6. Murphey, T. (1992). *Music and song*. Oxford University Press.

7. Ludke, K. M., Ferreira, F., & Overy, K. (2014). Singing can facilitate foreign language learning. *Memory & Cognition*, 42(1), 41–52.
8. Rukholm, E. (2011). Using songs in the English classroom to improve vocabulary. *English Teaching Forum*, 49(3), 14–17.
9. Akbarova, M. (2021). The role of innovative methods in teaching foreign languages in Uzbekistan. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 4(2), 45–49.
10. Jalolov, J. J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
11. Nazarova, G. (2019). Modern approaches in teaching English vocabulary in Uzbek classrooms. *Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi*, 3(1), 23–27.

COMMUNITY LANGUAGE LEARNING METODINING CHET TILINI O'QITISHDAGI O'RNI VA XUSUSIYATLARI

Ro'zmetova Hilola Shonazar qizi

*Guliston davlat pedagogika instituti,
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi
ruzmetovahilola27@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Community Language Learning (CLL) metodining chet tilini o'qitishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada mazkur metodning nazariy asoslari, o'qituvchi va o'quvchi roli hamda o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning psixologik holatini hisobga olishning muhimligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida ushbu metodning chet tilini samarali o'rgatishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *psixologik holat, ijtimoiy hayot, xalqaro aloqalar, axborot almashinuvi, madaniyatlararo muloqot, "butun shaxs", CLL, Counseling-Learning, kommunikativ yondashuv, zamonaviy ta'lim.*

Abstract: This article discusses the role and importance of Community Language Learning (CLL) in teaching foreign languages. The paper analyzes the theoretical foundations of this method, as well as the roles of teachers and students and the specific features of the teaching and learning process. Particular attention is paid to the importance of considering learners' psychological factors in language learning. The study concludes that this method plays a significant role in improving the effectiveness of foreign language teaching.

Keywords: *psychological state, social life, international relations, information exchange, intercultural communication, "whole person", CLL, Counseling-Learning, communicative approach, modern education.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение метода Community Language Learning (CLL) в обучении иностранным языкам. Анализируются теоретические основы данного метода, роль учителя и учащегося, а также специфические особенности процесса обучения. Показана важность учета психологического состояния учащихся. В результате исследования установлено, что данный метод имеет важное значение для эффективного обучения иностранному языку.

Ключевые слова: *психологическое состояние, социальная жизнь, международные связи, обмен информацией, межкультурная коммуникация, «целостная личность», CLL, Counseling-Learning, коммуникативный подход, современное образование.*

Kirish

Hozirgi zamonaviy davrda chet tillarini bilish nafaqat ta'limiy ehtiyoj, balki kasbiy va ijtimoiy hayotning muhim talabi hisoblanadi. Xalqaro aloqalarning kengayishi, axborot almashinuvining tezlashishi hamda turli madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya chet tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda [5]. Yangi ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish metodikasi kundan-kunga rivojlanib, natijada innovatsion yondashuvlar ko'paymoqda. An'anaviy o'qitish usullarida asosan grammatik qoidalarni o'zlashtirish va tarjimaga urg'u berilgan bo'lsa, bugungi kunda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, uning ruhiy holati va ehtiyojlari markaziy o'ringa chiqdi [1].

Shu nuqtai nazardan, Community Language Learning (CLL) metodi o'qitish metodikasida alohida mavqega ega. Ushbu metod amerikalik olim Charlz A. Kurran (Charles A. Curran) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u "Counseling-Learning" (maslahat asosida o'rganish) yondashuviga tayanadi [3]. Kurraning fikricha, til o'rganish jarayonida o'quvchilarni faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki "butun shaxs" (whole person) sifatida ko'rish lozim. Bu esa o'quvchining nafaqat intellektual salohiyatini, balki uning hissiy, ijtimoiy va psixologik holatini ham inobatga olishni talab etadi [2].

CLL metodida dars jarayoni o'quvchilarning ehtiyojlari va hissiy holatiga mos ravishda tashkil etiladi. O'quvchilar odatda doira shaklida o'tiradilar, bu esa guruhda tenglik va erkin muloqot muhitini yaratadi. Dars davomida o'quvchilar o'z ona tilida fikr bildiradilar, o'qituvchi esa bu fikrlarni chet tiliga tarjima qilib beradi. Shundan so'ng o'quvchilar ushbu gaplarni takrorlab, asta-sekin mustaqil nutq hosil qila boshlaydilar. Bu usul o'quvchiga tilni bosqichma-bosqich va ortiqcha ruhiy bosimsiz o'zlashtirish imkonini beradi [4].

Asosiy qism

Community Language Learning metodi chet tilini o'qitishda o'quvchining shaxsiyati va psixologik holatini markazga qo'yadigan gumanistik yondashuvlardan biridir. Dars davomida o'quvchilar o'z fikrlarini dastlab ona tilida ifodalaydilar, o'qituvchi (maslahatchi) esa bu fikrlarni chet tiliga tarjima qilib, kichik bo'laklar (chunks) orqali yetkazadi. Shu tariqa o'quvchilar yangi tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradilar. Metodning eng muhim jihatlaridan biri — o'quvchilarda psixologik qulaylik yaratishi va xato qilishdan qo'rqish (language anxiety) hissini kamaytirishidir [3].

An'anaviy darslarda ko'pincha o'quvchilar xato qilishdan cho'chib, muloqotda faol ishtirok etmaydilar. CLL metodida esa bu to'siq asta-sekin bartaraf etiladi, chunki o'qituvchi ularni qo'llab-quvvatlaydi va xatolarni tanqid qilmaydi. Natijada o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladilar va dars jarayonida subyekt sifatida qatnashadilar [2]. Bundan tashqari, bu metod muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda juda samaralidir. O'quvchilar real hayotiy suhbatlar orqali til o'rganadilar, bu esa ularning gapirish va tinglash qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

CLL metodiga asoslangan darslar bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, o'quvchilar erkin suhbatga kirishadilar va o'z fikrlarini bildiradilar. O'qituvchi esa tarjimon va yo'naltiruvchi sifatida qatnashib, ularning fikrlarini chet tilida ifodalashga ko'maklashadi. Mazkur suhbat audioyozuv qilib olinadi [1]. Keyinchalik yozuv qayta eshitaladi va til tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Shundan so'ng o'quvchilar o'z nutqlarini qayta ko'rib chiqadilar, leksik va grammatik xatolar ustida ishlaydilar. Bu jarayon o'quvchining o'z xatosini o'zi tushunib yetishiga yordam beradi [3].

Shu bilan birga, Community Language Learning metodining ayrim cheklavlari ham mavjud. Avvalo, ushbu metod asosida tashkil etilgan darslar ko'proq vaqt talab qiladi, chunki har bir o'quvchiga individual yondashuv zarur bo'ladi. Bundan tashqari, boshlang'ich bosqichda o'qituvchiga ulkan mas'uliyat yuklanadi, chunki u nafaqat filolog, balki psixolog sifatida ham harakat qilishi kerak [4]. Yana bir muhim jihat shundaki, bu metod har doim ham katta auditoriyalarda kutilgan natijani bermasligi mumkin, chunki barcha o'quvchilarga birdek e'tibor qaratish texnik jihatdan qiyinlashadi.

CLL metodini boshqa o'qitish metodlari bilan solishtirganda, uning o'ziga xosligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, "Grammar-Translation Method" asosan grammatik qoidalarni yodlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda o'quvchi passiv obyekt hisoblanadi. "Audio-Lingual Method" esa mexanik takrorlashga asoslanadi [1]. CLL metodida esa asosiy e'tibor o'quvchilarning hissiy holatiga va o'zaro hamkorligiga qaratiladi. Bu metod o'quvchini faol ishtirokchi sifatida ko'radi va uni zamonaviy kommunikativ yondashuvlarga yaqinlashtiradi.

Amaliy jihatdan CLL metodi tilni tabiiy va bosqichma-bosqich o'zlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tili darsida o'quvchi "Men bugun maktabga bordim" deb o'z fikrini bildirs, o'qituvchi uni "I went to school today" deb tarjima qiladi. O'quvchi bu gapni takrorlash orqali kontekstli ma'noni va grammatik tuzilmani bir vaqtda tushunib yetadi. Bu jarayon tilni shunchaki yodlash emas, balki uni o'z shaxsiy tajribasi bilan bog'lash imkonini beradi [2].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Community Language Learning metodi chet tilini o'qitishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan (student-centered) eng samarali yondashuvlardan biridir. Bu metod orqali til o'rganish jarayoni shunchaki axborot olishdan kengroq mazmun kasb etib, o'quvchilarning psixologik holati va hissiyotlari bilan chambarchas bog'lanadi. Tadqiqot davomida shuni angladimki, til o'rganishda faqat grammatik bilimlar yetarli emas; eng asosiysi — o'quvchining ruhiy erkinligi va muloqotga tayyorligidir.

CLL metodida o'qituvchi nafaqat bilim manbayi, balki yo'naltiruvchi va ruhlantiruvchi shaxs bo'lishi kerakligi o'z isbotini topdi. Bu esa ta'lim jarayonining sifatini tubdan oshiradi. Umuman olganda, zamonaviy ta'limda o'quvchi shaxsi markazda bo'lishi va o'quv jarayonida psixologik omillar inobatga olinishi zarur. Community Language Learning (CLL) metodidan foydalanish orqali darslarni har bir o'quvchi uchun qiziqarli va individual foydali qilib tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jack C. Richards, Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
2. Diane Larsen-Freeman. Techniques and Principles in Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 2000.
3. H. Douglas Brown. Principles of Language Learning and Teaching. — New York: Pearson Education, 2007.
4. Wikipedia. Community Language Learning. [Elektron resurs]. URL: (Murojaat sanasi: 2026.05.03).
5. Chet tillarini o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar. — Toshkent, 2020.

PROFESSIONAL TA'LIM - PROFESSIONAL KELAJAK POYDEVORI

Tohirjonova Sevinch

Namangan Davlat Chet tillari Instituti talabasi

Annotasiya: Professional ta'lim-innovatsion ta'lim tizimining asosidir. Mazkur maqolada so'nggi yillarda professional ta'limga qaratilayotgan e'tibor va uning natijalari, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va islohotlar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, axborot texnologiyalari, keng ko'lamli islohotlar, xalqaro standartlar, ta'lim tizimi, yo'nalishlar strategiyasi, malakali kadrlar, yangicha investitsiyalar, xorijiy metodlar

Abstract: Professional education is the basis of innovative education system. This article gives information about the attention paid to professional education in recent years and its results, changes and reforms in the field of education.

Key words: professional education, information technology, large-scale reforms, international standards, education system, direction strategy, qualified personnel, new investments, foreign methods

Аннотация: Профессиональное образование является основой инновационной системы образования. В данной статье представлена информация о внимании, уделяемом профессиональному образованию в последние годы, а также о результатах, изменениях и реформах в этой сфере.

Ключевые слова: профессиональное образование, информационные технологии, масштабные реформы, международные стандарты, система образования, стратегия направления, квалифицированные кадры, новые инвестиции, зарубежные методы.

Barchamizga ma'lumki, bugungi globallashuv asrida axborot texnologiyalari bilan bir qatorda professional ta'limga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Nafaqat butun dunyoda, balki O'zbekistonda ham yoshlarni salohiyatli va bilimli qilib tarbiyalash maqsadida ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek: "Dunyo binolari ichida eng buyugi maktab bo'lsa, kasblarning orasida eng sharaflisi o'qituvchi va murabbiylikdir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 6-sentyabrda qabul qilingan "Professional ta'lim tizimini yanada

takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon ushbu islohotlarning yorqin dalilidir. Mazkur hujjatga muvofiq, professional ta'lim tizimi uchta toifaga ajratildi:

- Birinchi toifa: Xalqaro standart tasniflagichlarining 3-darajasiga mos keluvchi dastur asosida 9-sinf bitiruvchilarining professional ta'lim olishini ta'minlaydigan 340 ta kasb-hunar maktabi;
- Ikkinchi toifa: Xalqaro standart tasniflagichlarining 4-darajasiga mos keluvchi dasturlar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan vazirlik va idoralar tizimidagi 147 ta kollej;
- Uchinchi toifa: Xalqaro standart tasniflagichlarining 5-darajasiga mos keluvchi, oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan 143 ta texnikum.

2022-yil 26-yanvarda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) ko'magida "O'zbekistonda professional ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish" loyihasi bo'yicha strategik seminar o'tkazildi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi bilan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha qator shartnomalar imzolandi. Yaponiya tajribasini milliy mentalitetimiz va qadriyatlarimizni hisobga olgan holda tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 170 taga yetdi. Jumladan, 2022-yil 9-avgustdagi PQ-347-sonli (matnda 275-sonli deb ko'rsatilgan, ammo rasmiy raqami 347-sonli) qarorga muvofiq tashkil etilgan Is'hoqxon To'ra Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti bugungi kunda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Muassasada ta'lim o'zbek va rus tillarida olib borilib, 9 ta xorijiy til bo'yicha 1 500 dan ziyod talabalar tahsil olmoqda.

Yaqinda ushbu dargohga AQSh elchixonasining "Regional English Language Office" dasturi direktori Kevin McCaughey va xodimi Umida Boltayeva tashrif buyurib, o'qituvchilar uchun mahorat darslari o'tkazdilar. Institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektori P. Lutfullayev va Kevin McCaughey o'rtasida kelajakda ingliz tili mutaxassislarini o'quv jarayoniga ko'proq jalb etish bo'yicha kelishuvga erishildi. Professional ta'limning asosiy maqsadi — mehnat bozori, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyilini hayotga tatbiq etishdir. Bu sa'y-harakatlar yuksak axloqiy sifatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarni tayyorlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi " farmoni. Ma'rifat gazetasi 18.09.19y
- 2.O'zbekiston Respublikasi prezidenti "Ta'lim to'g'risida"gi 637- qonuni 2020-yil 23-sentabr
- 3.<https://advice.uz/oz/document>
- 4.<https://yuz.uz/uz/news/professional-talim-tizimi-va-xalqaro-andozalar>
- 5.<https://cyberleninka.ru/journal/n/academic-research-in-educational-sciences>

6. <https://cyberleninka.ru/article/n/professional-ta-lim-innovatsion-ta-lim-tizimini-asosi>

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2002-yil 8-avgustdagi "Yaponiya bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 285-son qarori <http://nrm.uz/>

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi referendumi 2023-yil 30-aprel

MAKTABLARDA MUSIQA TA'LIMINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI: INNOVATSION VA INTEGRATSION YONDASHUVLAR

Toshkanboyev Azizbek G'anisher o'g'li
*Yangiqo'rg'on tumani 8-umumta'lim
maktabi musiqa o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning zamonaviy metodikasi, innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga tatbiqi va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqiy savodxonlikni oshirishda raqamli vositalar, o'yin texnologiyalari hamda integratsiyalashgan darslarning ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va musiqiy idrokni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *musiqa ta'limi, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, musiqiy idrok, pedagogik mahorat, integratsiya, SMART-texnologiyalar.*

Abstract: This article analyzes modern methods of teaching music in secondary schools, the application of innovative technologies in the educational process, and international experiences. The research scientifically explores the importance of digital tools, game technologies, and integrated lessons in enhancing musical literacy. Furthermore, the effectiveness of modern approaches in developing students' creative abilities and forming musical perception is analyzed.

Keywords: *music education, innovative methods, digital technologies, musical perception, pedagogical skill, integration, SMART-technologies.*

Аннотация: В данной статье анализируются современные методики преподавания музыки в общеобразовательных школах, внедрение инновационных технологий в учебный процесс и международный опыт. В исследовании научно обоснована важность цифровых инструментов, игровых технологий и интегрированных уроков в повышении музыкальной грамотности. Также анализируется эффективность современных подходов в развитии творческих способностей учащихся и формировании музыкального восприятия.

Ключевые слова: *музыкальное образование, инновационные методы, цифровые технологии, музыкальное восприятие, педагогическое мастерство, интеграция, SMART-технологии.*

Kirish

Musiqa ta'limi umumiy o'rta ta'lim tizimining uzviy qismi bo'lib, u yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va estetik didini shakllantirishda

muhim o'rin tutadi. Bugungi jadal rivojlanayotgan axborot asrida an'anaviy o'qitish usullari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini to'liq qondira olmaydi [1]. Shu sababli, musiqa darslarida pedagogik texnologiyalarni yangilash, xalqaro ta'lim standartlarini milliy mentalitetga moslashtirgan holda tatbiq etish dolzarb masalaga aylandi. Zamonaviy musiqa ta'limi nafaqat o'quvchiga nazariy bilim berish, balki unda musiqiy tafakkur va ijodiy kreativlikni uyg'otishni maqsad qiladi [2].

Hozirgi kunda musiqa fanini o'qitishda "insonparvarlik" va "shaxsga yo'naltirilgan" ta'lim tamoyillari ustuvorlik qilmoqda. Bu jarayonda o'qituvchi shunchaki ma'lumot beruvchi emas, balki o'quvchini go'zallik dunyosiga yetaklovchi moderator sifatida namoyon bo'ladi [3]. Musiqa darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiribgina qolmay, ularning psixofizik rivojlanishiga, xotirasi va nutqi boyishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada maktablarda musiqa o'qitishning eng samarali va zamonaviy uslublari tahlil etiladi.

Asosiy qism

Musiqa ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash dars samaradorligini oshirishning eng asosiy omillaridan biridir. Kompyuter dasturlari, interaktiv doskalar va musiqiy sintezatorlar yordamida o'quvchilar tovushlar olamini vizual tasvirlar orqali yaxshiroq anglaydilar [4]. Masalan, SMART-doskalardan foydalanib o'tkazilgan darslarda o'quvchi musiqiy asarni nafaqat eshitishi, balki uning partiturasini ko'rishi va interaktiv tarzda asar tuzilishini tahlil qilishi mumkin. Bu usul o'quvchining audiovizual xotirasini kuchaytiradi va murakkab nazariy tushunchalarni sodda tarzda o'zlashtirishga yordam beradi [5].

Xalqaro miqyosda e'tirof etilgan Orf-shulverk (Karl Orff), Kodali va Dalcroze metodikalarining o'zbek maktablarida qo'llanilishi musiqa darslarini yanada boyitadi. Orf metodikasi o'quvchining tabiiy harakatlari va nutqi orqali musiqiy ritmni o'rgatishni nazarda tutsa, Kodali usuli solfedjioni qo'l harakatlari yordamida o'zlashtirishni taklif etadi [6]. Ushbu metodlar o'quvchining erkin ijod qilishiga, improvizatsiya qobiliyatini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi. O'zbekiston sharoitida ushbu uslublarni milliy cholg'u asboblari va xalq kuylari bilan uyg'unlashtirish o'quvchida vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Musiqa darslarida "O'yin orqali o'qitish" texnologiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng samarali metod hisoblanadi. Musiqiy viktorinalar, didaktik o'yinlar va rolli o'yinlar orqali bolalar dars jarayoniga bevosita jalb etiladi. Bu jarayonda o'quvchi charchoqni his qilmaydi, aksincha, quvnoq muhitda musiqiy asar tarixini yoki kompozitorlar hayotini o'rganadi [8]. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin elementi bor darslarda materialni o'zlashtirish koeffitsiyenti an'anaviy darsga nisbatan 40-50% ga yuqori bo'ladi.

Integratsiyalashgan darslar, ya'ni musiqani adabiyot, tasviriy san'at va tarix fanlari bilan bog'lab o'qitish o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, biror tarixiy operani o'rganishda o'sha davr tarixiy sharoiti, liboslar madaniyati va adabiy asar tahlili birga olib boriladi [9]. Bunday yondashuv o'quvchida san'atning turli turlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqida tasavvur uyg'otadi va uning tahliliy

fikrlashini rivojlantiradi. Mazkur metodlar bugungi kunda "Musika madaniyati" fanining mazmunini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda [10].

Xulosa

Umumta'lim maktablarida musika o'qitishning zamonaviy metodlari o'quvchini passiv tinglovchidan faol ijodkorga aylantirish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar va jahon pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning milliy ta'lim tizimiga integratsiyasi nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki yoshlarning umumiy madaniy darajasini ham yuksaltiradi. Shu bilan birga, zamonaviy metodlarni qo'llash o'qituvchidan doimiy o'z ustida ishlashni va yuksak texnologik ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, musika ta'limida qo'llanilayotgan har bir yangi metod o'quvchining ma'naviy olamini boyitishga va uning intellektual salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Kelajakda raqamli ta'lim resurslari va jonli ijro uyg'unligini ta'minlash musika darslarining jozibadorligini yanada oshiradi. Bu esa yosh avlodning san'atga bo'lgan mehri va dunyoga estetik munosabatini to'g'ri shakllantirishda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibrohimov O. Musika o'qitish metodikasi. — Toshkent: G. G'ulom, 2012.
2. Hasanov A. Maktabda musika tarbiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. Sharipova G. Musika o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
4. Panjiyev Q. Musika o'qitishda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
5. Ismoilov A. Musika psixologiyasi. — Toshkent: Navro'z, 2018.
6. Kodály Z. Selected Writings. — London: Boosey & Hawkes, 1974.
7. Orff K. Schulwerk: Music for Children. — Mainz: Schott Music, 1950.
8. Gordon E.E. Learning Sequences in Music. — Chicago: GIA Publications, 1997.
9. Swanwick K. Teaching Music Musically. — London: Routledge, 1999.
10. G'afurbekov T. Musika madaniyati darslari. — Toshkent: Sharq, 2015.

CHET TILINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA INTERFAOL METODLAR

Toxirjonova Muslimaxon Zarifbek qizi

Namangan davlat chet tillar instituti talabasi

Nurali Boqiyev

Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tilini o'qitish metodikasining nazariy asoslarini chuqurroq tahlil qiladi, undagi asosiy metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Ta'lim jarayonida kommunikativ, grammatik-tarjima, audiolingval va interfaol metodlarning ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchining roli va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki,

an'anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg'unlashtirilganda, chet tilini o'qitish samaraliroq bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Chet tilini o'qitish metodikasi, kommunikativ metod, grammatik-tarjima metodi, audiolingval metod, interfaol ta'lim, zamonaviy yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, til o'qitish, kompetensiya.*

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the theoretical foundations of foreign language teaching methodology and examines its main methods as well as modern pedagogical approaches. It highlights the importance of communicative, grammar-translation, audiolingual, and interactive methods in the educational process. Special attention is also given to the role of the teacher in the modern learning environment and the integration of digital technologies. The research findings indicate that combining traditional and innovative approaches leads to more effective foreign language instruction.

Keywords: *Foreign language teaching methodology, communicative method, grammar-translation method, audiolingual method, interactive learning, modern approaches, pedagogical technologies, language teaching, competence.*

Аннотация: В данной статье проводится углублённый анализ теоретических основ методики преподавания иностранных языков, а также рассматриваются её основные методы и современные педагогические подходы. Освещается значение коммуникативного, грамматико-переводного, аудиолингвального и интерактивного методов в образовательном процессе. Особое внимание уделяется роли учителя в современной образовательной среде и интеграции цифровых технологий. Результаты исследования показывают, что сочетание традиционных и инновационных подходов делает обучение иностранным языкам более эффективным.

Ключевые слова: *методика преподавания иностранных языков, коммуникативный метод, грамматико-переводной метод, аудиолингвальный метод, интерактивное обучение, современные подходы, педагогические технологии, обучение языку, компетенция.*

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini bilish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki professional faoliyat uchun ham muhim omilga aylangan. Shu sababli ta'lim tizimida chet tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolada chet tilini o'qitishning nazariy asoslari, asosiy metodlari hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — chet tili o'qitish metodikasining asosiy tamoyillari, metodlari va zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yoritib berishdir.

Chet tili o'qitish metodikasi mazmun-mohiyatiga ko'ra shunchaki dars o'tish emas, balki tilni o'rgatishning maqsadi va usullarini tahlil qiladigan pedagogik soha hisoblanadi. Bu yo'nalish lingvistika va psixologiya hamda didaktika bilan hamisha yonma-yon yuradi. Umuman olganda, chet tilini o'qitish metodikalari va dars o'tish usullari o'quvchida tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qitish metodlari deganda o'qituvchi o'z bilimini o'quvchilarga yetkazishda foydalanadigan faoliyatlar yig'indisini tushunish kerak. Tabiiyki, har bir uslubning o'zining yaxshi va yomon tomonlari bor. Masalan, an'anaviy sanalgan grammatik-tarjima metodi asosan qoidalarni yodlashga va matnlarni tarjima qilishga tayanadi. Bu yondashuv o'quvchining yozma nutqini mustahkamlaydi, ammo boshqa tarafdin og'zaki nutq deyarli e'tibordan chetda qoladi va darslar ko'pincha nazariya tufayli zerikarli bo'lib qoladi. Eng yomoni, o'quvchi qoidani bilsa ham, jonli muloqotga tayyor bo'lmaydi.

Audiolingval metod esa ko'proq eshitish va doimiy takrorlashga asoslanadi. To'g'ri, bu usul talaffuzni to'g'irlashi va nutqda o'ziga xos avtomatizmni hosil qilishi bilan foydalidir. Lekin hozir bu uslubga ko'proq yordamchi vosita sifatida qaralyapti. Nimaga degan savol tug'ilishi mumkin. Chunki faqat mexanik yodlash bilan ijodiy fikrlashni shakllantirib bo'lmaydi va o'rganilgan narsalar ba'zan yoddan ko'tarilishi oson kechadi.

Hozirgi davrda kommunikativ metod eng ommabop yondashuv bo'lib qolmoqda. Bu metodning asosiy maqsadi — o'quvchini darsdan tashqaridagi real vaziyatlarga tayyorlash. Nutq amaliyoti hamma narsadan ustun turadi. Shuni eslatish joizki, bunda hatto savodxonlik ham ikkinchi darajaga tushib qoladi. Albatta, bu metod ayrim sharoitlarda ancha mushkul bo'lishi mumkin. O'qituvchidan doimo dars jarayonini samarali boshqarish va yuqri darajadagi ijodkorlik hamda puxta tayyorgarlik talab etiladi.

Interfaol usullar ham anchagina samarali bo'lishi mumkin. Guruh darslari va kutilmagan rolli o'yinlar orqali o'quvchi faollashadi. Ammo bunday uslub bilan dars o'tish ancha vaqtni oladi va sinfda tartib-intizomni saqlash birmuncha qiyinlashishi ham bor gap. Ba'zida mavzudan juda uzoqlashib ketish xavfi ham yuzaga keladi. Mening nazarimda, me'yorni topish qiyinlashadi.

Kompetensiya degan tushunchaga to'xtaladigan bo'lsak, bu asosan bilim va malaka va ko'nikmalar yig'indisidir. Masalan, grammatikani tushunshingiz shunchaki bilim bo'lsa, uni amalga qo'llab erkin gapirishingiz asl kompetensiya ekanini ko'rsatadi. Quyida kompetensiyalar turlari va ularning o'qitish metodlariga aloqadoligini ko'rsatuvchi jadval keltirilgan.

Zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy yondashuvlar haqida gap ketganda, sun'iy intellekt va multimedia vositalari ta'limning uzviy qismiga aylanib borayotganini inobatga olish joiz. Onlayn platformalar ham bu jarayonda sezyilarli rol ijro etmoqda. O'qituvchining vazifasi esa bugun o'zgargan — u endi faqat ma'lumot uzatuvchi emas, balki oddiy bir ko'rsatma beruvchi, ya'ni facilitator. Demak, o'qituvchi innovatsion metodlardan foydalana oladigan, o'quvchilarni rag'batlantiradigan va ularning individual xususiyatlarini hisobga oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. U dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning faolligini oshirish, motivatsiya berish ,texnologiyalardan to'g'ri foydalanish va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitish jarayonida an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ, interfaol va texnologiyaga asoslangan yondashuvlar o'quvchilarning tilni amaliy

jihatdan o'zlashtirishiga yordam beradi. Shu bois, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Ta'lim standartlari va o'quv dasturlari. — Toshkent, 2020.
5. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2012.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge University Press, 2014.
7. Harmer J. How to Teach English. — Pearson Education Limited, 2015.
8. Passov E.I. Kommunikativ metodika osnov obucheniya inostrannym yazykam. — Moskva, 2010.
9. Jumaev N. Pedagogika va o'qitish metodikasi asoslari. — Toshkent, 2018.
10. Passov E. I. Kommunikativ metod o'qitishning asoslari. — Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
11. Harmer J. How to Teach English. — London: Longman, 2007.
12. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. — New York: Pearson Education, 2007.
13. Scrivener J. Learning Teaching. — Oxford: Macmillan, 2011.
14. Nunan D. Language Teaching Methodology. — London: Prentice Hall, 1991.
15. Muslimov, N. A. va boshqalar. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari". — Toshkent, 2015. — 208 b.
16. Sayidahmedov, N. "Yangi pedagogik texnologiyalar". — Toshkent: "Moliya", 2003.
17. Azizxo'jayeva, N. N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat". — Toshkent, 2006.
18. Zimnyaya, I. A. "Klyuchevie kompetensii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya". — Moskva: Visshaya shkola, 2003.
19. Canale, M., & Swain, M. "Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing". — Applied Linguistics, 1980.

KICHIK YOSHLI CHET TIL O'RGANUVCHILARIGA YOZISH KO'NIKMASINI O'YINLAR YORDAMIDA O'RGATISH

Usmonxodjayeva Moxiraxon Abdumalikxodjayevna
CHDPU mustaqil tadqiqotchisi
Tel: +99897 7059906

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatishda samarali bo'lgan yozish ko'nikmasini shakllantirish masalasi, uni o'qitishning didaktik asoslari hamda o'yin texnologiyalari orqali samarali amalga oshirish yo'llari yoritilgan. Maqolada boshlang'ich ta'limda chet tilini o'rgatishda yozish ko'nikmasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Turli ta'lim tizimlaridagi yondashuvlar tahlil qilinib, yozishni erta bosqichda o'rgatishning didaktik asoslari asoslab berilgan. Shuningdek, yozish ko'nikmasini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining samaradorligi interfaol o'yinlar misolida ko'rsatib berilgan.

Kalit soʻzlar. *boshlangʻich taʼlim, yozish, koʻnikma, oʻyin, didaktik mashqlar, topshiriqlar, interaktiv metod.*

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования навыков письма как эффективного средства обучения иностранному языку учащихся начальных классов, а также дидактические основы обучения письму и пути их эффективной реализации посредством игровых технологий. Исследуются вопросы формирования письменных навыков в процессе обучения иностранному языку на уровне начального образования. Проанализированы подходы, применяемые в различных образовательных системах, и обоснованы дидактические основы раннего обучения письму. Кроме того, на примере интерактивных игр раскрыта эффективность игровых технологий в развитии письменных навыков учащихся.

Ключевые слова: *начальное образование, письмо, навык, игра, дидактические упражнения, задания, интерактивный метод.*

Annotation. The article examines the problem of developing writing skills as an effective means of teaching foreign languages to primary school students, as well as the didactic foundations of writing instruction and the ways of their effective implementation through game-based technologies. The issues of forming writing skills in the process of foreign language teaching at the primary education level are explored. Approaches applied in various educational systems are analyzed, and the didactic foundations of early writing instruction are substantiated. Furthermore, the effectiveness of game-based technologies in the development of students' writing skills is demonstrated through the example of interactive games.

Keywords: *primary education, writing, skill, game, didactic exercises, tasks, interactive method.*

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarni oʻrganishga boʻlgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodni xalqaro muloqotga tayyorlash, ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish taʼlim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois chet tillarini oʻqitish metodikasini takomillashtirish, taʼlim jarayoniga zamonaviy didaktik yondashuv va innovatsion metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlangʻich taʼlim bosqichi chet tilini oʻrganishda poydevor vazifasini bajaradi. Aynan ushbu bosqichda oʻquvchilarda tilga boʻlgan qiziqish, motivatsiya hamda dastlabki nutqiy koʻnikmalar shakllanadi. Chet tilini oʻrgatish jarayonida tinglab tushunish va gapirish koʻnikmalariga ustuvor ahamiyat berilgan boʻlsa-da, yozish koʻnikmasini shakllantirish masalasi alohida eʼtibor talab etadi. Xususan, yozishni qaysi yoshdan, qaysi sinfdan va qaysi bosqichdan boshlab oʻrgatish lozimligi masalasi soʻnggi oʻn yillikda chet tillar didaktikasida qizgʻin muhokama qilinmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur masalaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ayrim xorijiy taʼlim tizimlarida, jumladan Germaniyada, chet tilda yozishni oʻrgatish ona tilida toʻliq savod chiqarilgandan soʻng, yaʼni 3-sinfdan boshlab maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Boshqa bir qator Yevropa mamlakatlarida esa chet tilini oʻqitishning ilk bosqichlaridanoq yozuv elementlari ogʻzaki nutq bilan uygʻun holda

o'rgatiladi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida ham yozish ko'nikmasi chet til darslari boshidanoq, masalan, rasm ostida so'zning yozma shakli berilishi orqali o'rgatiladi.

Demakki, bolalar boshdanoq yozishni o'rgana boshlaydilar. Buni qo'llab-quvvatlovchi qator ilmiy va umumdidaktik asoslar ham ko'zga tashlanadi:

- bolalar bilishga qiziquvchan bo'lishadi, ular yangi so'zlar qanday yozilishiga ham qiziqishadi;

- bolalar vizual o'rganishadi, ular boshdanoq ona tilidagi unli va undoshlarning tipik ketma-ketliklariga ko'nika borishadi;

- bolalar ona tiliga qiyoslab, farqli va o'xshash tomonlarini tushunishadi;

- bolalar o'z "yozuv til"larini kashf etishadi: agar yozuv ta'lim jarayoniga kiritilmasa, bu keyinchalik o'quv jarayonida tushunmovchilik va asabiy holatga sabab bo'lishi mumkin.

Nemis olimi H.Ro'yshning ilmiy tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, kichkinaligidan lisoniy-moyil muhitda (masalan, ko'p kitob o'qib berilgan) bolalar maktabda ham muvafaqqiyatliroq bo'lishadi, ya'ni darslarni yaxshi o'zlashtirishadi

Boshlang'ich ta'lim chet til metodikasida o'quvchilarning o'qish va yozuv savodini chiqarish bo'yicha ko'plab tavsiyalarni uchratamiz. Jumladan, ovoz chiqarib o'qish, talaffuz va tushunishdan so'ng yozish, o'qish va yozishdan oldin yozuvni anglash, dastlab past ovozda, so'ngra baland ovozda o'qish hamda yozish kabi o'quv-metodik mashqlar bunda qo'l keladi. Misol uchun, "dastlab past ovozda, so'ngra baland ovozda o'qish" mashqlarini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi:

- 1) o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan yakka so'zlar yoki jummalarni o'zlari uchun past ovozda o'qishadi;

- 2) o'quvchilar so'zlarni mos rasmlarga to'g'ri qo'yishadi yoki matn tartibini to'g'ri tuzishadi;

- 3) shundan so'nggina o'quvchilar so'z va jumlar, matnchalarni ovoz chiqarib o'qishadi.

Kichik yoshli chet til o'rganuvchilari, odatda, yozishni o'rganishda muayyan so'z va kichik matnlarni ko'chirib olish bilan chegaralanadilar. Bunda o'quvchilar yozuv (grafik) shakl ularga chet tilni o'rganishda yordam berishini anglab etishadi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasiga ko'ra kichik yoshli chet til o'rganuvchilarga yozish ko'nikmasini o'yinlar yordamida o'rgatish juda samarali sanaladi. Bunda imkon qadar ko'proq idrok etish (hissiy) organlar ishtiroki talab etilib, o'quvchilar harakatli faoliyati ta'minlanishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga yozish ko'nikmasini shakllantirishda **"Bo'g'inli sakrash" (Silbenhüpfen)** o'yinini samarali qo'llash mexanizmini takomillashtirildi:

Bir necha o'quvchi devor yonida yonma-yon qator bo'lib saflanishadi. O'qituvchi tomonidan mavzu doirasida tayyorlangan kartochkaga yozilgan so'z bo'g'inlari soniga qarab o'quvchilar sakrashadi (bir bo'g'in bo'lsa, bir marta; ikki bo'g'in bo'lsa, ikki marta va shu k.). Kim birinchi bo'lib, qarama-qarshi devorga etib borsa, o'sha g'olib bo'ladi. So'z yozilgan kartochkani tortgan o'quvchi (agar u o'qishni bilsa) yoki o'qituvchi ushbu so'zni bug'inlab o'qiydi, boshqa ishtirokchilar

ham buni takrorlaydilar va shunga mos harakat qiladilar. O'qituvchi umumiy nazoratni olib boradi. Shu tarzda o'quvchilar ketma-ket kartochka tortadilar.

Ushbu o'yinni turli variantlarda qo'llash mumkin, masalan, sinf xonasida o'tirgan holda sakramasdan, balki qarsak chalinadi: necha bo'g'inli so'z bo'lsa, shuncha marta qarsak chalinadi.

"So'zlarni top" nomli o'yinda muayyan so'z yoki jumla stol ustiga harflarga ajratib, kesib tayyorlangan holda yoyib qo'yiladi hamda u qog'oz yoki boshqa material bilan yopib qo'yiladi. Biror o'quvchi harflarni ketma-ketlikda ocha boshlaydi, ikkinchi o'quvchi esa ushbu so'z yoki jumlaning topishi kerak bo'ladi.

"Yozuv mashinasi" nomli o'yinda har bir a'zosi qo'lida bir harf ushlab turgan ikki guruh sinfning ikki tomonida saflanadi. O'qituvchi o'quvchilarda mavjud harflardan iborat biror so'zni aytadi. Qaysi guruh birinchi bo'lib ushbu so'zni to'g'ri tartibda yozsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

"Xaridlar ro'yxatini yozish" deb ataladigan o'yinda sinfning bir burchagida xaridlar ro'yxati bilan ikki o'quvchi turib, sotib olinishi kerak bo'lgan narsalarni berin-ketin o'qiydi. Boshqa burchakda turgan guruh a'zolari ushbu narsa nomlarini yozishadi. Ularning o'rtasida esa bir necha o'quvchi (boshqa xaridorlar ro'lidagi) o'zaro suhbatlashib turishadi.

"Harakatdagi diktant" deb nomlanuvchi o'yinda sinf xonasi istalgan ikki joyiga ikkita matnni devorga osib yopishtirib qo'yiladi. "A" o'quvchi yugurib borib, matnni (undan biror so'z yoki jumlaning) o'qib, esda saqlab uni "B" o'quvchiga etkazadi. "B" o'quvchi uni yozadi va endi o'zi matnni o'qish uchun yuguradi. O'yin matn to'liq yozilgunga qadar daom etadi. Ushbu o'yinni ikki guruhga bo'lgan holda o'tkazish, yanada qiziqarli o'tadi. O'qituvchi matnni to'g'ri yoki noto'g'ri yozilganligini nazorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim bosqichida chet tilini o'rgatishda yozish ko'nikmasini shakllantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari yozuvni erta bosqichdan o'rgatish bolalarning kognitiv rivoji, vizual idroki va chet tilni samarali o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yozish ko'nikmasini o'yin texnologiyalari asosida shakllantirish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning qiziqishini kuchaytiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Ta'riflangan interfaol o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, chet tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaripova R. A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, —T.: O'qituvchi, 1986. — 184 b
2. Haydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. Ped.fan. nomz...diss. — Toshkent, 2004. — 182 b
3. Bohn R. Probleme der Wortschatzarbeit. Fernstudieneinheit 22. — München: Langenscheidt. 2000
4. Goethe-Institut (Hrsg.). Handreichungen zum Qualitätsrahmen für Kindergarten und Vorschule. — München: Goethe-Institut. 2014. —P.30.
5. Rösch H. Deutsch als Zweitsprache: Grundlagen, Übungsideen, Kopiervorlagen zur Sprachförderung. — Braunschweig: Schroedel. 2003.

MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'RGANISHNING SAMARADORLIGI

Xoshimova Moxinur Abdurasul qizi

Namangan davlat chet tillari instituti Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili

yo'nalishi 2-bosqich talabasi

moxinur20062006@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mobil ilovalar yordamida ingliz tilini o'rganish jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy etilishi til o'rganish jarayonini yanada qulay, tezkor va interaktiv shaklga olib kelmoqda. Mobil ilovalar o'quvchilarga istalgan joy va vaqtda mustaqil ravishda bilim olish, lug'at boyligini oshirish hamda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada mobil ilovalarning motivatsiyani oshirishdagi roli va an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashuvi ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mobil texnologiyalar ingliz tilini o'rganish samaradorligini sezilarli darajaga oshirdi.

Kalit so'zlar: mobil ilovalar, ingliz tili o'rganish, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, raqamli ta'lim, mustaqil ta'lim, interaktiv o'qitish, til ko'nikmalari, masofaviy ta'lim.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность процесса изучения английского языка с помощью мобильных приложений. Внедрение современных информационных технологий в систему образования делает процесс изучения языка более удобным, быстрым и интерактивным. Мобильные приложения позволяют учащимся самостоятельно получать знания, расширять словарный запас и развивать навыки аудирования, чтения, письма и речи в любом месте и в любое время. Также в статье освещается роль мобильных приложений в повышении мотивации и их интеграция с традиционными методами обучения. Результаты исследования показывают, что мобильные технологии значительно повысили эффективность изучения английского языка.

Ключевые слова: мобильные приложения, изучение английского языка, современные технологии, эффективность образования, цифровое образование, самостоятельное обучение, интерактивное обучение, языковые навыки, дистанционное обучение.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of the English language learning process using mobile applications. The integration of modern information technologies into the education system is transforming language learning into a more convenient, rapid, and interactive process. Mobile applications allow students to acquire knowledge independently, increase their vocabulary, and develop listening, reading, writing, and speaking skills at any time and in any place. The article also highlights the role of mobile applications in increasing motivation and their harmonization with traditional teaching methods. The research results indicate that mobile technologies have significantly improved the efficiency of English language learning.

Keywords: *mobile applications, English language learning, modern technologies, educational efficiency, digital education, independent learning, interactive teaching, language skills, distance education.*

Kirish. Bugungi globallashtirish va axborotlashuv davrida an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda yangi pedagogik texnologiyalar, xususan mobil ilovalar, elektron platformalar va masofaviy ta'lim vositalari keng qo'llanila boshladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish nafaqat bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki o'quvchilarning mustaqil ishlash, izlanish va o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mobil ilovalar yordamida ingliz tilini o'rganish jarayoni zamonaviy ta'limning samarali yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning o'quvchilarga mustaqil, qulay va interaktiv tarzda bilim olish imkonini beradi. Shuningdek, mobil ilovalar til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilib, o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ularning motivatsiyani oshirishdagi roli hamda an'anaviy ta'lim usullari bilan uyg'unlashuv imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijalar mobil texnologiyalar ingliz tilini o'rganish sifatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Tadqiqot tahlili. Tadqiqotchilar mobil ilovalar ayniqsa so'z boyligini, o'qish va yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmasini yanada rivojlantirishda samarali ekanini ta'kidlaydilar. Chunki aksariyat ilovalarda yangi so'zlarni talaffuz va misollar bilan birga o'rganish mumkin. Bunday usul so'zlarni tezroq eslab qolishga yordam beradi. Bundan tashqari, ilovalar orqali foydalanuvchi bir xil so'zni bir necha marta takrorlaydi, bu esa mustahkam xotira hosil qiladi.

1. O'quv materiallari: audio, video va testlarning birgalikda qo'llanishi

Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar grammatik qoidalarni oddiy yodlashdan ko'ra, mobil ilovalar orqali testlar, video darslar va interaktiv mashqlar yordamida o'rganishni afzal ko'radilar. Bunday usul ularga qoidalarni amalda qo'llash imkonini beradi va mavzuni tezroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ilovalarda beriladigan kunlik ballar, bosqichlar va mukofotlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda ularni har kuni muntazam shug'ullanishga undaydi.

Bundan tashqari, mobil ilovalar foydalanuvchining xatolarini darhol ko'rsatadi va to'g'ri javobni tushuntiradi. Natijada o'quvchi o'z kamchiliklarini tezroq anglaydi va ularni tuzatishga harakat qiladi. Audio va video materiallar esa tinglab tushunish hamda talaffuz ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi yangi so'zlarni nafaqat yozilishi, balki talaffuzi va qo'llanilishi bilan birga o'rganadi.

2. Darsdan tashqari paytda ham mustaqil shug'ullanish imkoniyati. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning Duolingo, Jeopardy va Memrise kabi zamonaviy mobil ilovalardan foydalanishi ularning olgan bilimlarini yanada chuqurroq mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, Memrise ilovasida so'zlar jonli kontekstlarda, videolar orqali taqdim etilishi ularni eslab qolishni osonlashtiradi. Shuningdek, bu usul semantik xotirani faollashtirib, tilni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishga xizmat qiladi [4, 126-132]. Ushbu ilovalar orqali o'quvchilar nafaqat mavzularni takrorlaydi, balki turli nuammoli vaziyatlar, tezkor savollar va mantiqiy topshiriqlar asosida fikrlashga o'rganadi. Natijada ularda tanqidiy va mantiqiy

fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, tezkor tahlil qilish hamda xotirada saqlash ko'nikmalari shakllanadi va ularni muntazam izlanishga undaydi. Tadqiqot natijasi. Ingliz tilini o'qitishda faqat an'anaviy usullarga tayanish bugungi ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Zamonaviy mobil ilovalar o'quvchilarning qiziqishini oshirishi, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirishi hamda tilni tezroq o'zlashtirishga yordam berishi aniqlandi. Shu sababli o'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda oddiy metodlar bilan cheklanib qolmasdan, mobil ilovalardan to'g'ri va maqsadli foydalanishni bilishlari zarur. Ular o'quvchilarga nafaqat ingliz tilini ilovalar orqali o'rgatishi, balki ushbu ilovalardan qanday foydalanish, ularni kundalik hayotda va amaliy vaziyatlarda qanday qo'llash mumkinligini ham tushuntirishi kerak. Bu esa o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirib, ingliz tilini real muloqot jarayonida samarali ishlatishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Demak, mobil ilovalar til o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Ularning interaktivligi, tezkorligi va istalgan joyda foydalanish imkoniyati ingliz tilini o'zlashtirishni osonlashtiradi. Biroq yuqori natijaga erishish ilovalarning o'ziga emas, balki ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayonida texnologiya va o'qituvchi hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. H. Douglas Brown. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 4th ed. New York: Pearson Longman, 2015.
3. Maxkamov, Ashurov va J. Jalolov "English language teaching methodology"
4. Nation, I. S., & Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language (Vol. 10, pp. 126-132). Cambridge: Cambridge university press.
5. Gavin Dudeney va Nicky Hockly. How to Teach English with Technology. Harlow: Pearson Longman, 2007.

DEVELOPING INDEPENDENT THINKING IN ESL LEARNERS THROUGH DIGITAL PEDAGOGY

Khamidova Irodakhon Bobir kizi

Doctoral Student

Namangan State University

ORCID: 0009-0004-4701-0254

E-mail: irodaxonbobirqizi@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

Abstract: In the context of globalization and digital transformation, fostering independent thinking is essential in English as a Second Language (ESL) instruction. This study examines how integrating digital pedagogy, Socratic questioning, case studies, and Project-Based Learning (PBL) enhances independent thinking skills among secondary school learners (grades 7–8). Using a mixed-method research design, including pre- and post-tests, classroom observations, and performance evaluations, the research found that interactive, student-centered strategies

significantly improved learners' analytical, critical, and creative thinking. Students exhibited enhanced independent reasoning and problem-solving abilities, while digital tools increased engagement and collaborative learning. This study contributes to ESL pedagogy by providing a model for integrating cognitive skill development with language learning and teaching.

Keywords: *independent thinking, ESL learners, digital learning, project-based learning, case study, critical thinking.*

One of the primary findings in the discussion of mixed-ability teaching is the profound impact on learner motivation. In a traditional setting, weaker students often suffer from "learned helplessness," a psychological state where they stop trying because the material is consistently beyond their reach. Conversely, advanced students may develop "academic complacency." By adopting tiered tasks, we effectively neutralize these risks. When a student completes a task designed for their specific "Zone of Proximal Development," it triggers a sense of achievement. This psychological victory is crucial for long-term language acquisition, as it fosters a positive affective filter, which Stephen Krashen argues is essential for successful input processing.

A critical point of discussion is the efficacy of cross-ability grouping. Some critics argue that pairing a strong student with a weaker one might hold the advanced learner back. However, pedagogical research suggests the opposite through the "Protege Effect." When advanced learners explain a grammatical concept or a vocabulary nuance to a peer, they are forced to cognitively reorganize their own knowledge. This meta-cognitive process leads to a deeper, more permanent mastery of the language. Furthermore, this social dynamic builds a collaborative classroom culture rather than a competitive one, reducing the social stigma often associated with being a "slower" learner.

A significant hurdle discussed by educators is the perceived increase in workload. Creating three versions of every worksheet is often unsustainable for teachers with heavy schedules. Therefore, the discussion must shift toward **"Low-Prep, High-Impact"** differentiation. This includes using open-ended prompts and "invisible differentiation," where the teacher provides different levels of support (scaffolding) during the task rather than different physical materials. For example, giving the same reading passage to everyone but providing a glossary only to those who need it is an efficient way to manage resources while maintaining inclusivity.

The discussion must also address the conflict between standardized testing and differentiated learning. While we adapt activities to help every student grow, institutional requirements often demand a uniform exam. This creates a paradox. The solution discussed in modern pedagogy is the use of formative assessment. By focusing on continuous feedback and "ipsative assessment" (comparing a student's current performance to their own past performance), teachers can maintain motivation throughout the semester, even if the final high-stakes exam remains standardized.

Finally, it is essential to acknowledge that the success of these adapted activities is contingent upon the teacher's professional training. Differentiation requires high levels of "noticing"—the ability to monitor the classroom and pivot strategies in real-time. Without adequate training in classroom management, tiered activities can lead to chaos. Therefore, the adoption of these activities must be supported by ongoing professional development and a shift in institutional mindsets toward recognizing diversity as an asset rather than a problem.

CONCLUSION

Adopting activities for mixed-ability students is an art that requires patience and strategic planning. By moving away from rigid, uniform instructions and embracing tiered tasks, open-ended prompts, and flexible grouping, English teachers can create a dynamic classroom environment. When every student feels that the task is "achievable yet challenging," the barriers to language acquisition are lowered, and the classroom becomes a space for collective and individual success.

REFERENCES

1. Tomlinson, C. A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. Alexandria, VA: ASCD.
2. Ur, P. (1996). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Hedge, T. (2000). *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford: Oxford University Press.
4. Bremner, S. (2008). *Some Strategies for Coping with Mixed-Ability Classes*. English Teaching Professional.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARGA SOHAVIY MATNLARNI TARJIMA QILISH MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Xujanazarova Nozima Omonjonovna

*Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
+998932652158*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim platformalari va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda talabalarning sohaviy (professional) matnlarni tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritiladi. Maqolada sun'iy intellekt, elektron lug'atlar va tarjima xotirasi (CAT-tools) tizimlarining o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, sohaviy tarjima, kognitiv kompetensiya, CAT-tizimlari, mashina tarjimasi, terminologiya, sun'iy intellekt, masofaviy ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования навыков перевода специализированных (профессиональных) текстов у студентов с использованием цифровых образовательных платформ и современных технологий. В статье анализируется роль искусственного интеллекта, электронных словарей и систем переводческой памяти (CAT-tools) в учебном процессе.

Ключевые слова: цифровое образование, специализированный перевод, когнитивная компетенция, CAT-системы, машинный перевод, терминология, искусственный интеллект, дистанционное обучение.

Abstract: This article examines the issues of developing students' skills in translating specialized (professional) texts through the use of digital educational platforms and modern technologies. The role of artificial intelligence, electronic dictionaries, and translation memory (CAT tools) systems in the educational process is analyzed.

Keywords: digital education, specialized translation, cognitive competence, CAT systems, machine translation, terminology, artificial intelligence, distance learning.

Kirish

Jahonda fan, texnologiya va axborot almashinuvining globallasuvi natijasida ilmiy-texnikaviy bilimlarning asosiy tili sifatida ingliz tilining mavqeyi tobora mustahkamlanib bormoqda. Ilg'or ilmiy tadqiqotlar, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar haqidagi eng so'nggi ma'lumotlar dastlab aynan ingliz tilida paydo bo'lmoqda. Shu sababli, jahon miqyosida turli sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlashda ularning xorijiy tildagi sohaviy adabiyotlarni tushunishi, tahlil qilishi va eng muhimi, o'z ona tiliga sifatli tarjima qilish kompetensiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda[1]. Raqamli texnologiyalar tarjima jarayonini sezilarli darajada o'zgartirib, uni o'qitishda yangi metodik yondashuvlarni talab qilmoqda. Dunyo amaliyotida sun'iy intellekt (AI) asosidagi avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari tobora keng qo'llanilayotganiga qaramay, inson tarjimonlarining o'rni hamon muhimligicha saqlanib qolmoqda. Bu, ayniqsa, diplomatik hujjatlar va muzokaralar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bunday vaziyatlarda tarjimon nutqning konteksti va kommunikativ sharoitiga mos nozik ma'no va xususiyatlarni to'g'ri talqin qila olishi zarur. Shu sababli, bo'lajak tarjimonlarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Sohaga Yo'naltirilgan Tarjima va Raqamli Kompetensiya

Sohaviy matnlar (tibbiyot, yurisprudensiya, IT, muhandislik, iqtisodiyot) o'ziga xos murakkab terminologik qatlam, qat'iy stilistik qoliplar va mantiqiy izchillik bilan xarakterlanadi. Raqamli ta'lim muhitida ushbu matnlar bilan ishlash nafaqat ikki tilni bilishni, balki "tarjimonning raqamli ekotizimi"da erkin harakatlanishni talab etadi. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu jarayonda uchta asosiy ustuvor yo'nalishni ajratib ko'rsatadi:

1-rasm. Sohaviy matnlarni tarjima qilishning 3 asosiy yo'nalishlari

1. Lisoniy va diskursiv kompetensiya

Bu kompetensiya nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosini, balki uning tor doiradagi professional kontekstda qanday "yashashi"ni tushunishni anglatadi. Masalan, "equity" atamasi iqtisodiyotda "xususiy capital", huquqda esa "adolat tamoyili" ma'nosida kelishi mumkin [2]. Raqamli muhitda lisoniy kompetensiya talabadan matnning janriy xususiyatlarini (masalan, iqtisodiy statistika yoki IT-texnik topshirig'i) tanishni va ularni maqsadli tilda qayta yarata olishni talab qiladi [3].

2. Texnologik va instrumental kompetensiya

Bugungi kunda professional tarjimon faoliyatini maxsus dasturiy ta'minotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu yo'nalish talabalarning **CAT (Computer-Assisted Translation)** asboblari, tarjima xotirasi (TM) va terminologik ma'lumotlar bazalari (TermBase), kata til tizimlari-**LLM** bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi [4]. Texnologik kompetensiya, shuningdek, mashina tarjimasi (MT) natijalarini tanqidiy tahlil qilish va ularni tahrirlash (post-editing) mahoratini ham qamrab oladi, bu esa tarjima jarayonini 40% gacha tezlashtirish imkonini beradi [5].

3. Axborot-qidiruv va kognitiv kompetensiya

Raqamli axborotning haddan tashqari ko'pligi (information overload) sharoitida ishonchli manbalarni saralash strategik ahamiyatga ega. Tarjimon professional korpuslar, sohaviy lug'atlar (masalan, *IATE*, *UNTERM*) va akademik ma'lumotlar bazalaridan unumli foydalana olishi kerak [6]. Bu kompetensiya talabada "axborot filtri"ni shakllantiradi: u topilgan ma'lumotning verifikatsiyasini amalga oshirish, ekspert xulosalari va rasmiy glossariylarni o'zaro solishtirish orqali eng aniq ekvivalentni tanlaydi [7].

Raqamli Vositalardan Foydalanish Metodikasi

Raqamli ta'lim muhitida sohaviy matnlarni tarjima qilishga o'rgatish metodikasi an'anaviy lisoniy tahlilni texnologik vositalar bilan integratsiya qilishga asoslanadi. Ushbu metodika talabalarda "texnologik qo'llab-quvvatlanadigan tarjima" (Technology-mediated translation) ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi bosqichma-bosqich yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

2-rasm. Raqamli Vositalardan Metodikasi Foydalanish bosqichma-bosqich yondashuvi

CAT-tizimlarining o'quv jarayoniga tatbiqi

Metodikaning markaziy qismi CAT (Computer-Assisted Translation) asboblari bilan ishlash hisoblanadi. Talabalarga tarjima xotirasi (Translation Memory) tizimidan foydalanish, segmentatsiya qoidalarini tushunish va takrorlanuvchi segmentlar bilan ishlash metodikasi o'rgatiladi [8]. Bu nafaqat tarjima tezligini oshiradi, balki yirik hajmli sohaviy matnlarda terminologik bir xillikni (consistency) ta'minlash ko'nikmasini shakllantiradi [9]. Translation Memory (TM) — Tarjima xotirasi: Avval qilingan tarjimalarni ma'lumotlar bazasida saqlaydi. Agar matnda o'xshash jumlar qaytarilsa, dastur tayyor tarjimani taklif qiladi. TermBase (TB) — Terminologik baza- sohaviy atamalarining tasdiqlangan lug'ati bo'lib bu iqtisodiyot, tibbiyot yoki huquq kabi aniqlik talab qilinadigan sohalarida xatolarning oldini oladi. Quality Assurance (QA) — Sifat nazorati: Imlo xatolari, raqamlar mosligi va terminlarning noto'g'ri qo'llanilishini avtomatik tekshiradi. SDL Trados Studio — bu sohadagi "oltin standart" hisoblanadi va ta'limda talabalarga yirik tarjima kompaniyalari talab qiladigan eng asosiy dasturiy ko'nikmalarni beradi. Phrase (sobiq Memsources) — dasturni kompyuterga o'rnatish shart emas, brauzer orqali ishlaydi. Sun'iy intellekt (AI) bilan integratsiyasi juda yuqori bo'lib ta'limda o'qituvchi va talabalar real vaqt rejimida bitta loyiha ustida birgalikda ishlashi uchun juda qulay. Smartcat talabalar va frilanserlar uchun eng ommabop va ko'p hollarda bepul vosita sifatida ta'lim sohasida o'quv jarayoniga CAT vositalarini ilk bor kiritayotgan talabalar uchun o'rganishga eng oson dastur. MemoQ — turli formatdagi fayllar bilan ishlash imkoniyati yuqori va terminologiyani boshqarish tizimi juda mukammal.

2. Terminologik menejment va korpus tahlili

Sohaviy tarjimaning birinchi bosqichida talabalar terminologik ma'lumotlar bazasini (TermBase) yaratishni o'rganishlari lozim. Bunda korpus lingvistikasi vositalaridan (masalan, Sketch Engine yoki AntConc) foydalanish metodikasi muhim o'rin tutadi [10]. COCA (Corpus of Contemporary American English) dunyodagi eng katta va ochiq korpuslardan biri hisoblanib unda matnlar Academic, Medical, Business kabi janrlarga ajratilgan. Masalan, "solution" so'zi kimyoda (eritma) va iqtisodiyotda (yechim) qanday so'zlar bilan qo'llanilishini solishtirish mumkin.

Talaba tibbiyotga oid 'culture' so'zini tarjima qilishda COCA korpusiga murojaat qilsa, ushbu so'zning 'madaniyat' emas, balki "bakterologik ekma" (bacterial culture) ma'nosida kelishini uning atrofidagi "growth", "laboratory", "cells" kabi so'zlar (kontekst) orqali aniq ko'ra oladi. BNC (British National Corpus)- Britaniya ingliz tilining namunaviy korpusi bo'lib, lisoniy tadqiqotlar uchun klassik manba hisoblanadi. Uzbek Corpus (O'zbek tili milliy korpusi) - o'zbek tilidagi so'zlarning qo'llanilish bazasi va hozirda o'zbek tarjimashunosligi uchun muhim manbaga aylanmoqda. OPUS (Open Source Parallel Corpus)-turli tillardagi ulkan matnlar bazasi. Bu yerda iqtisodiyot (ECON), tibbiyot (EMEA), texnika (KDE, Ubuntu) va qonunchilikka oid matnlarning tarjima variantlarini topish mumkin. Ushbu vositalar yordamida talabalar atamalarning sohaviy kontekstda qo'llanilish chastotasi va kollokatsiyalarini (so'z birikishlarini) tahlil qiladilar. Bu jarayon tarjimada lisoniy aniqlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi [11].

3. Mashina tarjimasi, Suniy intellekt (AI) va MTPE (Post-editing) metodikasi

Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellekt va mashina tarjimasini (MT) inkor etish emas, balki ularni boshqarish metodikasini o'rgatish ustuvor vazifadir. MTPE (Machine Translation Post-Editing) — mashina tarjimasidan keyingi tahrir metodikasi talabalardan yuqori darajadagi tanqidiy fikrlashni talab etadi [12]. Bunda asosiy e'tibor mashina tomonidan yo'l qo'yilgan terminologik xatolar, mantiqiy uzilishlar va stilistik mos kelmasliklarni tuzatishga qaratiladi [13]. DeepL Translator- hozirgi kunda dunyodagi eng aniq va kontekstni yaxshi tushunadigan mashina tarjimoni hisoblanadi. Ayniqsa, Yevropa tillari va sohaviy terminlar bilan ishlashda kuchli. Google Translate- eng keng tarqalgan va ko'p tillarni qo'llab-quvvatlaydigan servis. Oxirgi yillarda "Neural Machine Translation" (NMT) texnologiyasi hisobiga aniqlik darajasi keskin oshgan. Microsoft Translator (Bing)- texnik va korporativ hujjatlarni tarjima qilishda keng qo'llaniladi. ChatGPT (OpenAI)- matnni tahrirlash (proofreading), sohaviy atamalarni tushuntirish va tarjima variantlarini taklif qilishda tengsiz yordamchi. Grammarly- ingliz tilidagi matnlarning grammatik va stilistik xatolarini real vaqt rejimida aniqlaydi. QuillBot- matnni qayta tahrirlash (paraphrasing) orqali uning o'qilishini yaxshilash va plagiatsiz variantlarni yaratish uchun xizmat qiladi. Bu vositalar tarjima qilingan matnni grammatik, stilistik va mantiqiy jihatdan tekshirish uchun ishlatiladi.

Talabalarning tarjima mahoratini oshirishda quyidagi texnologik yechimlar samarali hisoblanadi:

1-jadval: An'anaviy va Raqamli Tarjima Ta'limi Solishtirmasi

Raqamli muhitda tarjima darslarini tashkil etishda quyidagi bosqichlarni qo'llash tavsiya etiladi:

- **Tayyorgarlik:** Talabalarga sohaviy glossariylarni (elektron shaklda) shakllantirishni o'rgatish.
- **Jarayon:** Tarjimani bulutli platformalarda amalga oshirish va guruh bo'lib muhokama qilish.
- **Tahlil:** Mashina tarjimasi yo'l qo'ygan xatolarni aniqlash va ularni stilistik jihatdan tuzatish.

Xulosa

Raqamli ta'lim muhitida sohaviy matnlarni tarjima qilishni o'rgatish — bu shunchaki bir tildagi lug'at birligini boshqa tildagi muqobili bilan almashtirish jarayoni emas, balki talabani texnologik va intellektual salohiyatini yagona tizimga birlashtirishni ko'zda tutuvchi murakkab kognitiv faoliyatdir.

Bugungi kunda tarjima ta'limiga bunday yondashuv quyidagi strategik natijalarni kafolatlaydi:

Texnologik adaptatsiya: Talaba nafaqat tilni, balki tarjima jarayonini optimallashtiruvchi raqamli ekotizimni (CAT-tools, AI, korpus vositalari) boshqarishni o'rganadi. Bu esa uni zamonaviy "tarjima muhandisi" darajasiga ko'taradi.

Intellektual tahlil: Sohaviy matnlar bilan ishlash jarayonida talabada tanqidiy fikrlash rivojlanadi. U sun'iy intellekt taqdim etgan natijani ko'r-ko'rona qabul qilmay, uni terminologik va stilistik jihatdan verifikatsiya qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Mehnat bozoridagi ustunlik: Zamonaviy mehnat bozori faqatgina "so'zma-so'z" tarjima qiluvchi mutaxassisga emas, balki yirik hajmli ma'lumotlarni raqamli vositalar yordamida tez va sifatli qayta ishlay oladigan, lokalizatsiya va tahrir (post-editing) mahoratiga ega kadrlarga ehtiyoj sezmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish bo'lajak mutaxassislarning professional dunyoqarashini kengaytirib, ularning xalqaro mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini va barqarorlik koeffitsientini tubdan oshiradi. Bu esa o'z navbatida, oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi bo'lgan — davr talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni.
2. Pym, A. (2014). *Exploring Translation Theories*. Routledge.
3. Gotti, M. (2011). *Investigating Specialized Discourse*. Peter Lang.
4. Bowker, L. (2002). *Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction*. University of Ottawa Press.
5. O'Hagan, M. (2019). *The Routledge Handbook of Translation and Technology*. Routledge.
6. Austermühl, F. (2001). *Electronic Tools for Translators*. St. Jerome Publishing.
7. Kelly, D. (2005). *A Handbook for Translator Trainers*. St. Jerome Publishing.
8. O'Brien, S. (2011). Introduction to Post-Editing: Who, What, How and Where to Next?. AMTA.
9. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
10. O'Hagan, M. (2019). *The Routledge Handbook of Translation and Technology*.
11. Sinclair, J. (2004). *How to Use Corpora in Language Teaching*. John Benjamins Publishing.
12. Zanettin, F. (2012). *Translation-Driven Corpora: Corpus Resources for University-Level Translation Teaching*. Routledge.

13. Esselink, B. (2000). A Practical Guide to Localization. John Benjamins Publishing Company.
14. Muegge, U. (2014). The Case for Using CAT Tools in the Translation Classroom. Teaching and Extracting Terminology.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING LEKSIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

Xudoyberdiyeva Sarvinoz Mirzarahmon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili, 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini (ingliz tili) o'rgatishda leksik kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada didaktik o'yinlarning lug'at boyligini oshirishdagi samaradorligi va bolalarning yosh xususiyatlariga mos keluvchi metodik usullar tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida o'yinlar orqali til o'rganish motivatsiyasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, leksik kompetensiya, didaktik o'yinlar, chet tili metodikasi, lug'at boyligi, kommunikativ yondashuv.

Аннотация. В данной тезисе рассматриваются вопросы формирования лексической компетенции при обучении иностранному языку (английскому) детей дошкольного возраста. В статье анализируется эффективность дидактических игр в расширении словарного запаса и методические приемы, соответствующие возрастным особенностям детей. По результатам исследования даны рекомендации по повышению мотивации к изучению языка через игровую деятельность.

Ключевые слова: дошкольное образование, лексическая компетенция, дидактические игры, методика иностранного языка, словарный запас, коммуникативный подход.

Abstract. This thesis examines the formation of lexical competence in teaching a foreign language (English) to preschool children. The article analyzes the effectiveness of didactic games in expanding vocabulary and methodological techniques suitable for the age characteristics of children. Based on the research results, recommendations are given for increasing the motivation to learn a language through play activities.

Keywords: preschool education, lexical competence, didactic games, foreign language methodology, vocabulary, communicative approach.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida chet tillarini egallash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim sifatini oshirish, xususan, chet tillarini o'qitishni tubdan isloh qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Maktabgacha ta'lim bosqichi esa chet tilini o'zlashtirish uchun eng qulay "sezgir davr" (sensitive period) hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari ularga tushuntirish yoki yodlatish kabi an'anaviy

usullar bilan dars o'tish samarali emasligini ko'rsatmoqda. Bolalarning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, ularning leksik kompetensiyasini, ya'ni lug'at boyligini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish zaruriyati tug'ilmoqda [1].

Maktabgacha yoshdagi (3-7 yosh) bolalar dunyoni obrazlar va harakatlar orqali idrok etadilar. Bu davrda ixtiyoriy diqqat hali to'liq shakllanmagan bo'ladi, ya'ni bola o'zi uchun qiziq bo'lmagan narsaga diqqatini 5-10 daqiqadan ortiq jamlay olmaydi. L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, "Bola o'yin o'ynayotganda o'z yoshidan bir pog'ona baland harakat qiladi va o'zini kundalik hayotdagi darajasidan yuqoriroq namoyon etadi" [2]. Chet tili lug'atini o'rgatishda aynan shu xususiyatdan foydalaniladi. Leksik kompetensiya deganda, nafaqat so'zlarni bilish, balki ularni muloqot vaziyatiga mos ravishda to'g'ri qo'llash tushuniladi. Didaktik o'yinlar bu jarayonda "sun'iy muloqot muhiti"ni yaratib beradi.

Metodik adabiyotlarda didaktik o'yinlar bir necha guruhga bo'linadi va ularning har biri lug'at o'rgatishda o'ziga xos funksiyani bajaradi. Leksik o'yinlar bevosita yangi so'zlarni tanishtirish va ularni mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, "Magic Bag" (Sehrli xaltacha) o'yinida bola xaltacha ichidagi buyumni ushlab ko'rib, uni ingliz tilida nomlashi kerak. Bu yerda taktil (ushlab ko'rish) sezgisi leksikani mustahkamlashga yordam beradi [3]. Fonetik-leksik o'yinlarda esa so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bilan birga ularning ma'nosini eslab qolishga xizmat qiladi. "Echo" (Aks-sado) o'yinida o'qituvchi so'zni baland, bola esa past ovozda takrorlashi orqali ohang va talaffuz. Harakatli o'yinlar (Kinestetik metodlar): J.Asherning "Total Physical Response" (TPR) metodikasi asosida qurilgan o'yinlar. Bunda "Run", "Jump", "Eat" kabi fe'llar harakat bilan birga o'rgatiladi. Bolalar harakat qilganlarida miya neyronlari faolroq ishlaydi va so'zlar uzoq muddatli xotiraga o'tadi [4].

O'yin kutilgan natijani berishi uchun o'qituvchi quyidagi metodik talablarga rioya qilishi lozim. Birinchi navbatda izchillik, ya'ni, avval oson va qisqa so'zlar (dog, cat), keyin esa murakkabroq tushunchalar o'rgatiladi. Ko'rgazmalilikda esa bolalar uchun vizual materiallar (rasmlar, o'yinchoqlar, videolar) o'ta muhimdir. Dars jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, elektron o'yinlar yoki multfilmlar asosidagi interaktiv topshiriqlar bolaning diqqatini uzoqroq ushlab turishga yordam beradi [5].

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasasida haftasiga 3 marta 20 daqiqalik darslar davomida didaktik o'yinlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini 40-50% ga tezroq oshirishga xizmat qiladi.

Tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi taqqoslash natijasida, nazorat guruhida (o'yinlarsiz, faqat takrorlash): bolalar 1 oyda o'rtacha 15-20 ta yangi so'zni o'zlashtirgan bo'lsa, ularning faol nutqda qo'llanishi 30% ni tashkil etdi. Tajriba guruhida esa (didaktik o'yinlar bilan): bolalar 30-35 ta yangi so'zni o'zlashtirdilar va ularning faol nutqda qo'llanishi 75% ga yetdi. Bu shuni anglatadiki, o'yin jarayonida bola so'zni shunchaki yodlamaydi, balki uni hayotiy vaziyat bilan bog'laydi va nutqiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarning leksik kompetensiyasini shakllantirishda didaktik o'yinlar eng samarali va tabiiy vositadir. Tadqiqot natijalari

shuni ko'rsatadiki, o'yinlar bolalarda til o'rganishga nisbatan barqaror motivatsiyani yaratadi. Leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi. Bolalarning kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Metodik tavsiya sifatida shuni aytish mumkinki, har bir chet tili darsida kamida 2-3 xil turdagi o'yinlardan (harakatli, stolda o'ynaladigan, musiqiy) foydalanish darsning samaradorligini bir necha barobar oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Vigotskiy L.S. O'yin va uning bola psixologik rivojlanishidagi roli. – Fan va texnologiya, 2010. – 112 b.
3. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – O'qituvchi, 2012. – 432 b.
4. Hoshimov K., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Sharq, 2003. – 280 b.
5. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge: CUP, 2001. – 274 p.

O'ZBEKISTONDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISH USULLARI

Aliyorova Mumtoza Zayniddinxon qizi

Namangan davlat chet tillari institute 2-kurs talabasi

mumtozaaliyorova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning samarali usullarini o'rganadi. Unda xorijiy tillarni erta yoshdan o'rgatishni rivojlantirishga qaratilgan davlat tashabbuslari va ta'lim islohotlari ko'rib chiqiladi. Maqola yosh o'quvchilarning psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratib, mahalliy sinf sharoitlariga mos amaliy o'qitish strategiyalarini yoritadi. Kommunikativ til o'qitish, vazifaga asoslangan o'qitish va faoliyatga asoslangan metodlarga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, katta sinf hajmi va resurslarning cheklanganligi kabi muammolar ham ko'rib chiqilib, moslashuvchan va real yechimlar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv va o'quvchi markazidagi yondashuvlar o'quvchilarning motivatsiyasi va til o'zlashtirishini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: yosh o'quvchilar, O'zbekiston, ingliz tilini o'qitish, kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan o'qitish, motivatsiya, boshlang'ich ta'lim, interaktiv metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методы обучения английскому языку учащихся начальных классов в Узбекистане. В ней анализируются государственные инициативы и образовательные реформы, направленные на развитие преподавания иностранных языков с раннего возраста. Особое внимание уделяется психологическим особенностям младших школьников, а также практическим стратегиям обучения, адаптированным к условиям местных классов. Отдельно рассматриваются коммуникативный подход, обучение на основе заданий и деятельность-ориентированные методы.

Также освещаются такие проблемы, как большая наполняемость классов и ограниченность ресурсов, и предлагаются гибкие и реалистичные решения. Результаты исследования показывают, что интерактивные и ориентированные на ученика подходы значительно повышают мотивацию учащихся и эффективность усвоения языка.

Ключевые слова: младшие школьники, Узбекистан, обучение английскому языку, коммуникативный подход, обучение на основе заданий, мотивация, начальное образование, интерактивные методы.

Annotation: This article examines effective methods of teaching English to primary school students in Uzbekistan. It analyzes government initiatives and educational reforms aimed at developing foreign language teaching from an early age. The article pays special attention to the psychological characteristics of young learners and highlights practical teaching strategies adapted to local classroom conditions. Particular focus is given to communicative language teaching, task-based learning, and activity-based methods. It also addresses challenges such as large class sizes and limited resources, offering flexible and realistic solutions. The findings of the study show that interactive and student-centered approaches significantly increase students' motivation and improve language acquisition.

Key words: young learners, Uzbekistan, English language teaching, communicative approach, task-based learning, motivation, primary education, interactive methods

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon ta'lim tizimidagi milliy islohotlar va mamlakatning global hamjamiyatga integratsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq. Bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi farmoni bo'ldi. Unda barcha ta'lim bosqichlarida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda til o'qitishni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ingliz tilini o'qitish sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada maktablarda zamonaviy o'qitish usullari, yangilangan darsliklar va yangi ta'lim standartlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu islohotlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularni real hayotda ingliz tilida muloqot qilishga tayyorlashni maqsad qiladi.

Shunga qaramay, O'zbekistonda yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'qitish hali ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ko'plab sinflar katta, o'quv resurslari cheklangan bo'lishi mumkin, hamda o'quvchilarning maktabdan tashqarida ingliz tiliga duch kelishi kam. Shu sababli mahalliy sharoitlarga moslashgan amaliy va moslashuvchan metodlarni qo'llash muhim hisoblanadi.

Yosh o'quvchilar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Ular faol, qiziquvchan va hissiy jihatdan sezgir bo'lib, eng yaxshi tarzda muloqot, harakat va vizual vositalar orqali o'rganadilar. Yodlash va uzoq tushuntirishlarga asoslangan an'anaviy metodlar bu yosh guruh uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Shu sababli qiziqarli va o'quvchi markazidagi strategiyalar zarur.

O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilari odatda 6–7 yoshda ingliz tilini o'rganishni boshlaydilar. Bu davrda ularning aqliy va hissiy rivojlanishi o'rganish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bolalar ko'proq kuzatish, taqlid qilish va faol ishtirok etish orqali o'rganadilar. Ular juda serharakat va tez chalg'iydi, shuning uchun darslar diqqatni ushlab turadigan tarzda tuzilishi kerak.

Eng samarali yondashuvlardan biri — kommunikativ til o'qitish usuli. Bu usul tilni qoidalar tizimi sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rgatishga qaratilgan. O'zbek sinflarida bu oddiy dialoglar, savol-javob mashg'ulotlari va kundalik iboralar orqali amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchilar salomlashish, oila haqida gapirish yoki kundalik faoliyatni tasvirlashni mashq qilishlari mumkin. Hatto katta sinflarda ham juftlikda va kichik guruhlarda ishlash faol ishtirokni oshiradi va muloqot imkonini yaratadi. Bu usul o'quvchilarning ishonchini oshiradi va xato qilishdan qo'rqishni kamaytiradi. Yana bir muhim yondashuv — vazifaga asoslangan o'qitishdir. Bu metod mazmunli vazifalar orqali o'rganishga asoslanadi. O'zbekistonda bu usulni rasmni so'z bilan moslashtirish, tasvirni tasvirlash yoki qisqa dialoglarni guruhda to'ldirish kabi oddiy topshiriqlar orqali amalga oshirish mumkin. Bu faoliyatlar o'quvchilarning faol ishlashini ta'minlaydi va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu vazifalar qimmat resurslarni talab qilmagani uchun ham samarali.

Total Physical Response (TPR) metodi ham juda samarali. Bu usul tilni harakat bilan birlashtiradi. Masalan, o'qituvchi "tur", "kitobni och", "boshingga teg" desa, o'quvchilar shu harakatni bajaradi. Bu metod o'quvchilarni faol ushlab turadi va yangi so'zlarni oson eslab qolishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'yinlar ham muhim rol o'ynaydi. O'yinlar darsda erkin va qiziqarli muhit yaratadi. Masalan, topishmoq o'yinlari, so'z moslashtirish yoki "Simon Says" kabi o'yinlar samarali qo'llaniladi. Bu usullar motivatsiyani oshiradi va so'z boyligini mustahkamlaydi.

Vizual vositalar ham juda muhim. Bolalar ko'proq ko'rish orqali o'rganadi, shuning uchun rasmlar, kartochkalar va doskada chizilgan rasmlar tushunishni osonlashtiradi. Hatto texnologiya bo'lmagan sinflarda ham oddiy rasmlar katta yordam beradi.

Takrorlash ham muhim omil hisoblanadi. Ammo u zerikarli bo'lmasligi kerak. O'yinlar, qisqa suhbatlar yoki tezkor takrorlash mashqlari orqali amalga oshirilsa, yanada samarali bo'ladi.

O'qituvchining roli faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U tashkilotchi, motivator va yo'naltiruvchi bo'lishi kerak. Ijobiy muhit yaratish o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Maqtov va rag'batlantirish bolalarning ishonchini oshiradi. Darslarni o'quvchilarning kundalik hayoti bilan bog'lash ham muhim. Oila, maktab, ovqat yoki milliy an'analar kabi mavzular orqali o'rganish yanada mazmunli bo'ladi. Qiyinchiliklarga qaramay, samarali o'qitish mumkin. Moslashuvchan va ijodiy yondashuvlar yordamida bu muammolarni yengib o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish zamonaviy metodlar va mahalliy sharoitga moslashuvni talab qiladi. Yosh o'quvchilar uchun qiziqarli, interaktiv va qo'llab-quvvatlovchi muhit zarur.

Kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan o'qitish va TPR metodlari samarali hisoblanadi. O'yinlar, vizual vositalar va mazmunli faoliyatlar motivatsiyani oshiradi va natijani yaxshilaydi.

Oxir-oqibat, muvaffaqiyat o'qituvchining ijobiy muhit yaratish va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash qobiliyatiga bog'liq.

Adabiyotlar

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Longman.
2. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.
3. Phillips, S. (1996). Young Learners. Oxford University Press.
4. Larsen-Freeman, D. (2000). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford.
5. Avezova, N. B. (2022). Methods of Teaching English to Young Learners.

INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Kimsanova Shahnoza Ro'ziboy qizi

Namangan davlat chet tillari insituti talabasi

Vahhobova Muxlisa Isroiljon qizi

Namangan davlat chet tillari insituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Telegram, YouTube, Instagram va Facebook kabi platformalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni, ularning afzallik va kamchiliklari yoritiladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, ingliz tili, raqamli pedagogika, mustaqil ta'lim, kommunikativ kompetensiya, innovatsion texnologiyalar

Annotation: This article analyzes the pedagogical importance of using social media in the process of learning English. It highlights the role of platforms such as Telegram, YouTube, Instagram, and TikTok in developing language skills, as well as their advantages and disadvantages. The research results show that the purposeful use of social media increases the effectiveness of education.

Keywords: social media, English language, digital pedagogy, independent learning, communicative competence, innovative technologies

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое значение использования социальных сетей в процессе изучения английского языка. Рассматривается роль таких платформ, как Telegram, YouTube, Instagram и TikTok, в развитии языковых навыков, а также их преимущества и недостатки. Результаты исследования показывают, что целенаправленное использование социальных сетей повышает эффективность обучения.

Ключевые слова: социальные сети, английский язык, цифровая педагогика, самостоятельное обучение, коммуникативная компетенция, инновационные технологии

Kirish

Globalashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rganish zamonaviy jamiyatda muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlar til o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi innovatsion vosita sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda [1]. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarning xotira jarayoniga (yodda saqlash qobiliyatiga) ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Vizual, audio va qisqa formatdagi kontentlar yangi so'z va iboralarni tezroq eslab qolishga yordam beradi. Ayniqsa, takroriy ko'rish va eshitish orqali ma'lumotlar uzoq muddatli xotirada mustahkamlanadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Qiziqarli videolar, real hayotga yaqin muloqotlar hamda interaktiv kontentlar til o'rganish jarayonini zerikarli emas, balki qiziqarli va davomli faoliyatga aylantiradi. Bu esa o'quvchining mustaqil o'rganishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi.

Asosiy qism

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy raqamli ta'lim muhitining muhim qismi bo'lib, ular talabalarga autentik til materiallari bilan ishlash imkonini beradi. Bugungi kunda til o'rganish jarayoni faqat an'anaviy darsliklar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli platformalar orqali ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa o'quvchilarga real til muhitiga yaqin sharoitda bilim olish imkonini yaratadi [1].

Ingliz tili darslarini tashkil etishda bir qator ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish mumkin va bular quyidagilar: *(1-rasmga qarang)*

1-rasm: chet tili darslarida foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar

Telegram platformasi orqali grammatika, lug'at va test materiallari muntazam ravishda taqdim etiladi. Ushbu platformada mavjud o'quv kanallari va guruhlar yordamida talabalar yangi so'zlarni o'rganish, grammatik qoidalarni mustahkamlash hamda o'z bilimlarini sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi [2].

YouTube esa tinglab tushunish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi video darslar bilan boyitilgan. Platformada professional o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan darslar, real dialoglar va subtitrlar videolar mavjud bo'lib, ular autentik talaffuzni o'rganishga yordam beradi. Video materiallarni qayta-qayta ko'rish esa bilimning xotirada mustahkamlanishiga xizmat qiladi [2]. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar talabalarda mustaqil o'qish ko'nikmasi va o'z-o'zini boshqarish (self-learning) qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar turli kontentlarni o'z ehtiyojiga qarab tanlab o'rganish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa individual ta'lim jarayonini shakllantiradi [1].

Instagram va Facebook kabi platformalar qisqa va vizual kontent orqali yangi so'z va iboralarni tez o'zlashtirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtiradi. Shuningdek,

vizual va audio materiallarning birgalikda berilishi xotirada saqlash (memory retention) jarayonini kuchaytiradi [3].

Biroq ijtimoiy tarmoqlarning salbiy jihatlari ham mavjud. Chalg'ituvchi kontent, noto'g'ri ma'lumotlar va vaqtni samarasiz sarflash kabi omillar ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ulardan maqsadli va nazorat ostida foydalanish zarur [4].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganishda samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish va mustaqil o'qish kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ulardan oqilona foydalanish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi [1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Education, 2018.
3. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge University Press, 2019.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2017.

GLOBALIZATSIYA DAVRIDA MADANIYATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI O'QITISH

Madmusayev Jaxongir Muxtorali o'g'li

PhD, v.b. dots

Raimova Dilnoza Husniddin qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globalizatsiya sharoitida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari, uning zamonaviy ta'limdagi o'rnini hamda samarali o'qitish metodlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining ushbu kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kommunikatsiya, globalizatsiya, kompetensiya, til o'qitish, madaniy ong, sun'iy intellekt

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы формирования межкультурной коммуникативной компетенции в условиях глобализации, её роль в образовании и современные методы обучения. Особое внимание уделяется роли искусственного интеллекта.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, глобализация, компетенция, обучение языкам, культурное сознание, искусственный интеллект

Abstract: This article examines the theoretical foundations of intercultural communicative competence in globalization, its role in education, and modern teaching methods, including the impact of artificial intelligence.

Keywords: intercultural communication, globalization, competence, language teaching, cultural awareness, artificial intelligence

KIRISH

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida globalizatsiya jarayoni keskin jadallashdi. Ayniqsa, 1990-yillardan boshlab xalqaro integratsiya, iqtisodiy hamkorlik va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida dunyo "global qishloq"ga aylandi.

Masalan, 1995-yilda Jahon savdo tashkiloti (WTO) tashkil etilishi global iqtisodiy aloqalarni kuchaytirgan bo'lsa, 2000-yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi madaniyatlararo muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda Toshkent, London, Tokio yoki Nyu-York kabi shaharlar o'rtasidagi kommunikatsiya deyarli real vaqt rejimida amalga oshirilmoqda.

Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimi oldida faqat bilim berish emas, balki global muhitda samarali muloqot qila oladigan shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning mohiyati

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya - bu shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali va moslashuvchan muloqot qila olish qobiliyatidir.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

bilim (knowledge) – boshqa madaniyat haqida ma'lumot;

ko'nikma (skills) – muloqot qilish qobiliyati;

munosabat (attitude) – ochiqlik va bag'rikenglik;

madaniy ong (awareness) – farqlarni tushunish.

1997-yilda M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan model bugungi kungacha asosiy nazariy poydevor hisoblanadi. Keyinchalik 2009-yilda D. Deardorff ushbu modelni rivojlantirib, jarayonli yondashuvni taklif etgan.

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA AHAMIYATI

Globalizatsiya quyidagi jarayonlar orqali madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyatini oshirdi: Migratsiya: 2020-yillarga kelib dunyo bo'yicha 280 milliondan ortiq migrant mavjud; Ta'lim mobiliteti: har yili millionlab talabalar xorijda tahsil oladi; Xalqaro biznes: kompaniyalar ko'p millatli jamoalarda ishlaydi.

Masalan, Seul, Dubay va Berlin kabi shaharlarda ishchi kuchining katta qismi turli millatlardan iborat. Bu esa kommunikativ kompetensiyani zaruratga aylantiradi.

AFZALLIKLARI

Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi quyidagi natijalarga olib keladi: global tafakkur shakllanadi;

SUN'IY INTELLEKTNING ROLI

XXI asrning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri sun'iy intellekt hisoblanadi. U madaniyatlararo kommunikatsiyada quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: real vaqt tarjima tizimlari (Google Translate, AI translatorlar); virtual suhbat muhitlari; individual o'quv platformalari; madaniy kontekstni tushuntiruvchi

tizimlar. Masalan, 2023-yildan boshlab AI asosidagi ta'lim platformalari talabaga uning darajasiga mos materiallar taqdim eta boshladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt insoniy empatiya, hissiy sezgirlik va madaniy noziklikni to'liq o'rnini bosa olmaydi.

ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI

Quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: rol o'ynash (real vaziyatlarni modellashtirish); case-study (amaliy holatlarni tahlil qilish); interaktiv muhokamalar; virtual almashinuv dasturlari; madaniy refleksiya (o'zini tahlil qilish). Masalan, 2010-yillardan boshlab Yevropa universitetlarida "virtual exchange" dasturlari keng qo'llanilmoqda.

MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Muammolar: madaniy komponent yetarli darajada o'qitilmaydi; o'qituvchilarning tayyorgarligi past; amaliy mashg'ulotlar kam. Yechimlar: innovatsion metodlarni joriy etish; o'qituvchilar malakasini oshirish; xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya davrida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu kompetensiya shaxsning nafaqat til bilish darajasini, balki turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qila olish, ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri tahlil qilish va moslashish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, global jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun faqat lingvistik bilim yetarli emas, balki madaniy ong, empatiya va kommunikativ moslashuvchanlik ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ushbu kompetensiya zamonaviy mutaxassislar tayyorlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, madaniyatlararo kommunikatsiyani o'rganish va amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq texnologiyalar insoniy hissiyot, madaniy sezgirlik va empatiyani to'liq almashtira olmaydi.

Umuman olganda, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish global jamiyatda raqobatbardosh, ochiq fikrli va madaniy jihatdan ongli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
2. Deardorff, D. K. (2009). The SAGE Handbook of Intercultural Competence. SAGE Publications.
3. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford University Press.
4. Risager, K. (2007). Language and Culture Pedagogy. Multilingual Matters.
5. Fantini, A. (2000). Intercultural Competence Development. SIT Publications.
6. Liddicoat, A. J. (2004). Intercultural Language Teaching: Principles for Practice.
7. Sercu, L. (2005). Foreign Language Teachers and Intercultural Competence. Multilingual Matters.

8. 10.Baker, W. (2011). Intercultural Awareness in English as a Lingua Franca.

O'QUVCHILARNI INGLIZ TILI DARSLARIGA JALB QILISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Qodirova Ruxshona Baxtiyor qizi
Undergraduate student of NamSIFL

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarni ingliz tili darslariga jalb qilishning zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Xususan, interaktiv yondashuvlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, kommunikativ metod, differensial yondashuv hamda loyihaviy ta'lim usullarining ahamiyati yoritilgan. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, zamonaviy metodlar, interaktiv ta'lim, kommunikativ yondashuv, axborot texnologiyalari, motivatsiya, loyihaviy ta'lim, differensial yondashuv, o'quvchi faolligi

Abstract: This article analyzes modern methods of involving students in English lessons. In particular, the importance of interactive approaches, the use of information technologies, the communicative method, the differential approach and project-based learning methods is highlighted. It is substantiated that these methods can increase students' interest in the lesson, develop their independent thinking and communication skills.

Keywords: English, modern methods, interactive education, communicative approach, information technologies, motivation, project-based learning, differential approach, student activity

Аннотация: В данной статье анализируются современные методы вовлечения студентов в уроки английского языка. В частности, подчеркивается важность интерактивных подходов, использования информационных технологий, коммуникативного метода, дифференцированного подхода и методов проектного обучения. Обосновывается, что эти методы могут повысить интерес студентов к уроку, развить их самостоятельное мышление и коммуникативные навыки.

Ключевые слова: английский язык, современные методы, интерактивное образование, коммуникативный подход, информационные технологии, мотивация, проектное обучение, дифференцированный подход, студенческая активность

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini o'rganish nafaqat zarurat, balki muvaffaqiyat kalitiga aylangan. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ingliz tili darslariga qiziqishini oshirish va ularni faol jalb etish muhim vazifa hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy metodlardan foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

1. Interaktiv metodlardan foydalanish

Interaktiv metodlar o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. "Brainstorming" (fikrlar hujumi), "Role play" (rolli o'yinlar), "Debate"

(bahs-munozara) kabi usullar o'quvchilarning erkin fikrlashini va ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni tasavvur qilib, tilni amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy darslarni texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Multimediali taqdimotlar, interaktiv doskalar, mobil ilovalar va onlayn platformalar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Masalan, video darslar, animatsiyalar va interaktiv mashqlar orqali murakkab mavzularni oson tushuntirish mumkin. Shuningdek, o'yin asosidagi ilovalar (gamification) o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

3. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ metodning asosiy maqsadi — o'quvchilarni ingliz tilida erkin muloqot qilishga o'rgatishdir. Bu usulda grammatik qoidalarni yodlashdan ko'ra, ularni nutq jarayonida qo'llashga urg'u beriladi. Juftlikda va guruhda ishlash orqali o'quvchilar bir-biri bilan faol muloqotga kirishadi.

4. Differensial yondashuv

Har bir o'quvchining bilim darajasi va qiziqishi turlicha bo'lganligi sababli, ularga individual yondashuv zarur. Kuchli o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar, boshlang'ich darajadagilar uchun esa soddaroq mashqlar berilishi samarali natija beradi. Bu usul barcha o'quvchilarni dars jarayoniga jalb etishga yordam beradi.

5. Loyihaviy ishlar (Project-based learning)

Loyihalar ustida ishlash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, "My dream city", "My favorite book" kabi mavzularda taqdimot tayyorlash orqali ular ingliz tilini ijodiy tarzda qo'llaydilar. Bu jarayon o'quvchilarning nutq, yozish va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

6. Rag'batlantirish va motivatsiya

O'quvchilarni rag'batlantirish — ularning darsga qiziqishini oshirishning eng samarali vositalaridan biridir. Baholashning turli shakllari, kichik sovrinlar, maqtov va ijobiy fikrlar o'quvchilarning ishonchini oshiradi va ularni faol bo'lishga undaydi. Xulosa

O'quvchilarni ingliz tili darslariga jalb qilishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi. Interaktivlik, texnologiya, kommunikativ yondashuv va individual ishlash kabi usullar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. O'qituvchi zamonaviy yondashuvlarni to'g'ri tanlab, ularni samarali qo'llay olsa, dars jarayoni nafaqat foydali, balki qiziqarli ham bo'ladi.

Bugungi kunda maktablarda zamonaviy kompyuterlar, elektron manbalar, Internetga kirish imkoniyati mavjud. Axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat maktab o'quvchilarining mashg'ulotlarining turli bosqichlarida, balki odatiy ingliz tili darslarida ham mumkin. An'anaviy darsning sxemasidagi kompyuter texnologiyalarini joriy etish o'qituvchiga o'quv jarayonini kompyuterdagi ishining bir qismini kompyuterda ishlashni, o'quv jarayonini yanada qiziqarli, rang-barang, qizg'in. Kompyuter o'rnini bosa olmaydi, lekin faqat o'qituvchilarni to'ldiradi. Kompyuterni jalb qilish sizga har qanday darsni jozibali va haqiqatan ham

zamonaviylashtirishga imkon beradi. Har qanday vazifani bajarish, kompyuterdan foydalanib, darsdan foydalanib, darsning intensivligini oshirish imkoniyatini yaratadi. O'zgaruvchan materiallardan foydalanish va operatsion rejalar o'qishni individuallashtirishga yordam beradi. Kompyuterda o'qitishning barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin: yangi materiallar, birlashtirish, takrorlash, bilimlarni boshqarish, ko'nikma va ko'nikmalarni tushuntirishda qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, bola uchun u turli xil funktsiyalarni bajaradi: o'qituvchilar, ishchi vositalari, o'quv qurollari, o'qish ob'ekti, hamkorlik qilish guruhi, o'yin muhiti, o'yin-kulgi. Bu yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi, masalan: ma'lumotlar va kommunikativ, kompyuter va multimedia texnologiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Amalga oshirish axborot texnologiyalari Maktab o'quv jarayonini faollashtirish uchun zaruriy shartlarni yaratadi. Kompyuter texnologiyasi talabalarning shaxsiy fazilatlarini oshkor etish, saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Maktablarda har bir fan dars jarayonida shu bilan birga ingliz tilli ularning faoliyatida har doim axborot texnologiyalaridan (ma'lumotni saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalari) ishlatgan; Ularning takomilini oshirish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun kompyuterdan eng mukammal axborot manbai sifatida, kitob, favvora, televizor, kalkulyator, videomagnitori va boshqalar yordamida kompyuterdan foydalanish. Tabiiyki, o'quv jarayonini takomillashtirishga olib keladi. Kompyuterlar va dasturiy ta'minotning rivojlanishi ularning rivojlanmagan foydalanuvchilari, shu jumladan ham maktabgacha bolalarni o'zlashtirishning eng soddaligiga olib keldi. So'nggi yillarda Maktablarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda. Bunafaqat yangi texnik vositalar, balki o'quv jarayonlari va o'qitish usullari, o'quv jarayoniga yangi yondashuvdir. O'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish Chet tillarini ehtiyojlarga nisbatan chet tillarini o'rganish jarayonida ta'lim va ta'lim usullarini takomillashtirish bilan bog'liq. Chet tillarida o'qitishning asosiy maqsadi - bu maktab o'quvchilarining kommunikatori madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilida amaliy mahoratni o'rganish. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi uchun til bilan amaliy mahoratni yaratish, har bir o'quvchi faoliyatini, ijodini ko'rsatishga imkon beradigan bunday o'quv usullarini tanlash kerak. Hamkorlik, loyihaning metodologiyasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet-resurslarni bolalarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning ta'lim darajasi, ularni individuallashtirish bilim darajasini oshirishda yordam beradi. Aloqaviy yondashuv -bu muloqotni uyg'otadigan strategiya bo'lib, ular bilan aloqa qilishning moddiy va usullarini ongli ravishda tushunishga qaratilgan. Foydalanuvchi Internetdagi kommunikativ yondashuvni amalga oshirish uchun bu juda qiyin emas. Kommunal vazifa muammoni yoki munozara uchun savol tug'ilishi kerak va o'quvchilar shunchaki ma'lumot almashish, balki uni baholash ham mumkin. Ushbu yondashuvning boshqa turdagi faoliyat turlaridan farqlashga imkon beradigan asosiy mezon shundan iboratki, o'quvchilar o'z fikrlarini bildirish uchun til birligini tanlaydilar. Internativ yondashuvda Internetdan foydalanish yaxshiroq emas: uning maqsadi chet tilni o'rganishda va ularning bilim va tajribasini kengaytirish orqali chet tilini o'rganishda

manfaatdor. Internet resurslaridan foydalangan holda chet tillarini o'rganish uchun asosiy talablardan biri bu interaktivlik usulida odatiy deb nomlanadigan darsda o'zaro ta'sir yaratishdir. Interaktivlik "o'zaro maqsadga erishish va nutq mablag'lari natijasini" uyushtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirishdir. Haqiqiy til bilan mashg'ulotlar, Internet ko'nikmalar va ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi, shuningdek, lug'at va grammatika o'rganishda haqiqiy qiziqish va, shuning uchun samarali hisoblanadi.[1] Interaktivlik nafaqat hayotdan haqiqiy vaziyatlarni yaratmaydi, balki o'quvchilarni chet tillari orqali etarli darajada javob berishga majbur qiladi. Shaxsiy dars berishni taklif qiluvchi texnologiyalardan biri bu loyihalar usuli ijodkorlik, kognitiv faoliyat, mustaqillikni rivojlantirish yo'lidir.

O'quvchilarni ingliz tili darslariga jalb qilishning zamonaviy metodlaridan foydalanish

Mavzu: "Daily Routines" (Kundalik faoliyat)

Darsning maqsadi:

O'quvchilarni kundalik faoliyatni ingliz tilida ifodalashga o'rgatish, Present Simple zamonidan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

1. Interaktiv metod (Brainstorming)

Dars boshida o'qituvchi o'quvchilarga savol beradi:

"What do you do every day?"

O'quvchilar o'z fikrlarini aytadilar (wake up, go to school, eat breakfast). Bu usul o'quvchilarni darsga jalb qiladi va mavjud bilimlarini faollashtiradi.

2. Kommunikativ metod (Pair work)

O'quvchilar juftliklarga bo'linadi va bir-biriga savollar beradi:

What time do you wake up?

What do you do after school?

Bu orqali o'quvchilar real muloqotga kirishadi va nutq ko'nikmalari rivojlanadi.

3. Axborot texnologiyalari (Multimedia)

Qisqa video yoki animatsiya namoyish etiladi (masalan, bir bolaning kun tartibi).

O'quvchilar videoni ko'rib, yangi so'z va iboralarni o'rganadilar. Bu usul vizual xotirani kuchaytiradi.

4. Rolli o'yin (Role play)

O'quvchilar "A day in my life" mavzusida chiqish qilishadi.

Masalan: biri o'quvchi, biri jurnalist rolida bo'lib, savol-javob qiladi.

Bu metod o'quvchilarning ishonchini va erkin gapirish qobiliyatini oshiradi.

5. Loyihaviy metod (Project work)

O'quvchilarga "My daily routine" mavzusida kichik poster yoki taqdimot tayyorlash topshiriladi.

Ular rasm chizish, yozish va gapirish orqali bilimlarini mustahkamlaydilar.

6. Differensial yondashuv

Kuchli o'quvchilar: murakkab gaplar tuzadi (I usually wake up at 6 a.m. and then I go jogging).

Boshlovchilar: oddiy gaplar tuzadi (I wake up at 7).

Xulosa: O'quvchilarni ingliz tili darslariga jalb qilishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi. Interaktivlik, texnologiya, kommunikativ yondashuv va individual ishlash kabi usullar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. O'qituvchi zamonaviy yondashuvlarni to'g'ri tanlab, ularni samarali qo'llay olsa, dars jarayoni nafaqat foydali, balki qiziqarli ham bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2022 yil [1]
2. Mehri Norova. Tarjimada leksik birlik va leksik transformatsiyaning qo'llanilishi 2024.[2]
3. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2024, 40 bet.[3]
4. www.ziyounet.uz. [4]

THE ROLE OF MEMORIZATION AND USAGE IN VOCABULARY LEARNING

Tairova Shahnoza Bahromovna

*(English language teacher at Uzbek State World Languages University;
tshb3004@gmail.com)*

Annotation. This article examines the roles of memorization and usage in second language (L2) vocabulary learning. While memorization has often been criticized as a superficial learning strategy, recent research suggests that it plays a crucial role in the initial acquisition and retention of lexical items. At the same time, usage-based approaches contribute to deeper understanding, contextual awareness, and communicative competence. Drawing on cognitive psychology and second language acquisition theories, the paper explores memory systems, cognitive strategies, and instructional approaches that support vocabulary development. It argues that memorization and usage are not competing methods but complementary processes that should be integrated in language teaching. The study highlights the importance of repetition, retrieval, spacing, and meaningful use, and provides pedagogical implications for balancing explicit and implicit vocabulary instruction.

Key words: vocabulary learning, memorization, usage, cognitive strategies, semantic mapping, second language acquisition, memory systems

Annotatsiya. Ushbu maqola ikkinchi til (L2) lug'atini o'rganishda yodlash va qo'llashning o'rnini tahlil qiladi. Yodlash ko'pincha yuzaki o'rganish strategiyasi sifatida tanqid qilinsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uning leksik birliklarni dastlabki o'zlashtirish va eslab qolishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qo'llashga asoslangan yondashuvlar chuqurroq tushunish, kontekstni anglash va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Maqolada kognitiv psixologiya va ikkinchi tilni o'rganish nazariyalariga asoslanib, xotira tizimlari, kognitiv strategiyalar va o'qitish yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Unda yodlash va qo'llash qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar ekanligi ta'kidlanadi hamda ularni integratsiya qilish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: lug'at o'rganish, yodlash, qo'llash, kognitiv strategiyalar, semantik xaritalash, ikkinchi tilni o'rganish, xotira tizimlari

Аннотация. Данная статья рассматривает роль запоминания и использования в процессе усвоения лексики второго языка (L2). Несмотря на то что запоминание часто критикуется как поверхностная стратегия обучения, современные исследования подтверждают его важную роль в первоначальном усвоении и сохранении словарного запаса. В то же время использование слов в контексте способствует более глубокому пониманию, развитию коммуникативной компетенции и осознанию языковых особенностей. В статье на основе когнитивной психологии и теории усвоения второго языка анализируются системы памяти, когнитивные стратегии и методы обучения. Делается вывод о том, что запоминание и использование являются взаимодополняющими процессами, которые необходимо интегрировать в преподавании языка.

Ключевые слова: изучение лексики, запоминание, использование, когнитивные стратегии, семантическое картирование, усвоение второго языка, системы памяти

Introduction. Vocabulary is a fundamental component of language proficiency and forms the basis of effective communication. The extent to which learners can express ideas, comprehend input, and participate in interaction largely depends on the size and depth of their lexical knowledge. Consequently, acquiring and retaining a substantial amount of vocabulary remains one of the most demanding aspects of second language (L2) learning. Language teachers have long sought the most efficient strategies to help learners expand their vocabulary in a systematic and sustainable way (Nation, 2001).

Over the past three decades, memorization as a language learning strategy has been widely criticized in favor of more communicative, constructivist, and cognitively engaging approaches. Critics argue that memorization is mechanical, superficial, and does not promote deep understanding. As a result, alternative strategies that require deeper levels of processing—such as semantic mapping, contextual inference, and communicative usage—have gained prominence in language pedagogy (Oxford, 1990). However, empirical evidence suggests that dismissing memorization entirely may be misguided (Laufer, 2003).

This article examines the roles of memorization and usage in vocabulary learning, arguing that they are not opposing but complementary processes. By integrating insights from cognitive psychology, memory theory, and second language acquisition research, the paper explores how these approaches contribute to vocabulary development and how they can be effectively combined in pedagogical practice.

Main Part. Vocabulary learning can be broadly categorized into implicit (incidental) and explicit (intentional) processes. Implicit learning occurs unconsciously when learners are exposed to language through reading, listening, or interaction. In such cases, vocabulary is acquired without deliberate effort, and learning is largely driven by context and repeated exposure (Krashen, 1989).

In contrast, explicit vocabulary learning involves conscious attention to lexical items. Learners actively notice new words, analyze their meanings, and apply strategies such as memorization, inference, and categorization. Research suggests that while incidental exposure is essential for deepening understanding, it is often insufficient on its own. Effective vocabulary acquisition requires a balanced approach that combines explicit instruction with opportunities for contextualized use (Nation, 2001).

Word-focused instruction, an extension of form-focused instruction, plays a crucial role in vocabulary development. It can take two forms: Focus on Forms (FonFs), which involves explicit teaching of discrete lexical items, and Focus on Form (FonF), which integrates vocabulary learning into communicative activities (Ellis, 2001).

The effectiveness of vocabulary learning depends largely on the degree of cognitive involvement. According to the Involvement Load Hypothesis, retention is influenced by the extent to which learners engage in processes such as need, search, and evaluation (Hulstijn & Laufer, 2001). Tasks that require learners to manipulate, analyze, and use words more intensively lead to stronger retention in long-term memory.

Furthermore, incidental and intentional learning conditions both contribute to vocabulary development. While incidental learning occurs without prior awareness of testing, intentional learning involves conscious effort and expectation of recall, often associated with explicit instruction (Laufer, 2003).

Memory plays a central role in vocabulary acquisition. Learning vocabulary is essentially a process of remembering, as lexical knowledge consists largely of accumulated individual items rather than rule-based systems (Schmitt, 2000). Understanding how memory functions can therefore inform more effective teaching strategies.

Three main memory systems are involved in learning: short-term memory, working memory, and long-term memory. Short-term memory temporarily holds information, while working memory processes and organizes it. However, working memory has limited capacity, typically handling only a small number of items at a time (Baddeley, 2003). For vocabulary to be retained, it must be transferred into long-term memory, which has a much larger capacity and stores information over extended periods.

This transfer requires active cognitive engagement. Several principles facilitate this process:

- Repetition strengthens memory traces but is most effective when combined with meaningful processing (Nation, 2001).
- Retrieval practice enhances retention by reinforcing access pathways (Schmitt, 2000).
- Spacing improves long-term retention through distributed practice (Baddeley, 2003).
- Use ensures deeper learning, often summarized as “use it or lose it” (Nation, 2001).

- Cognitive depth increases retention when learners engage in complex processing (Craik & Lockhart, 1972).
- Imagery and personalization enhance memorability by linking words to mental representations (Oxford, 1990).

These principles demonstrate that both memorization and usage contribute to vocabulary learning through interconnected cognitive mechanisms.

Cognitive strategies are deliberate mental processes that learners use to acquire and retain information. These include repetition, grouping, imagery, contextualization, and elaboration (Oxford, 1990). Among these, two contrasting strategies—rote memorization and semantic mapping—illustrate different levels of cognitive engagement.

Rote memorization relies on repetition and rehearsal to store information. Although often criticized, research indicates that it can be highly effective, particularly for initial vocabulary acquisition. For example, studies have shown that memorization of L1–L2 word pairs can lead to strong retention, sometimes outperforming contextual inference methods (Laufer, 2003).

Semantic mapping, on the other hand, involves organizing words into meaningful categories and visual networks. This strategy promotes deeper processing by highlighting relationships between words and integrating new knowledge with existing schemas (Novak, 1998). Research suggests that strategies requiring deeper processing, such as semantic mapping and keyword techniques, often result in better long-term retention (Brown & Perry, 1991; Sagarra & Alba, 2006).

Interestingly, it is usually indicated that the effectiveness of strategies depends on task demands. While deeper processing strategies are generally advantageous, rote memorization can be equally or more effective in certain contexts, particularly when learning discrete vocabulary items (Sagarra & Alba, 2006).

The debate between memorization and usage reflects a false dichotomy. Memorization provides the necessary foundation for vocabulary knowledge, while usage ensures that this knowledge becomes functional and accessible.

Memorization supports the initial encoding of vocabulary, allowing learners to recognize and recall words. Usage, in turn, reinforces and expands this knowledge through contextual application. Without memorization, learners may lack sufficient lexical resources; without usage, their knowledge may remain passive (Nation, 2001). Therefore, effective vocabulary learning requires the integration of both approaches. Repetition and retrieval strengthen memory, while meaningful use promotes fluency and adaptability.

The complementary roles of memorization and usage have significant implications for language teaching. Instruction should aim to balance deliberate learning with communicative practice. Teachers can begin by introducing vocabulary through explicit instruction and memorization techniques, such as word lists or flashcards. This can be followed by activities that encourage active use, including discussions, role-plays, and writing tasks (Schmitt, 2000). Spaced repetition systems can further enhance retention by systematically reviewing vocabulary over time (Nation, 2001). At the same time, contextualization is essential; words should be

presented within meaningful texts and situations rather than in isolation. Learners should also be encouraged to engage in productive use of vocabulary, as this facilitates deeper processing and long-term retention. Promoting learner autonomy through strategy training—such as the use of mnemonics, imagery, and personal organization—can further support vocabulary development (Oxford, 1990). Finally, assessment should reflect both memorization and usage by evaluating not only knowledge of word meanings but also the ability to use vocabulary appropriately in context.

Conclusion. Vocabulary acquisition is a complex process that involves both memorization and usage. While memorization has often been criticized as a superficial learning strategy, research demonstrates its essential role in establishing a lexical foundation (Laufer, 2003). At the same time, usage-based approaches enable learners to deepen their understanding, develop fluency, and integrate vocabulary into meaningful communication (Nation, 2001). Rather than viewing these approaches as competing, they should be understood as complementary components of an effective learning process. Memory principles such as repetition, retrieval, spacing, and cognitive depth highlight the importance of combining deliberate practice with contextualized use. Ultimately, successful vocabulary learning depends on the dynamic interaction between memorization and usage. By integrating these approaches, educators can create more effective instructional practices, and learners can achieve a more durable and functional command of vocabulary.

REFERENCES.

1. Krashen, S. D. (1989). We acquire vocabulary and spelling by reading: Additional evidence for the input hypothesis. *The Modern Language Journal*, 73(4), 440–464.
2. Laufer, B. (2003). Vocabulary acquisition in a second language: Do learners really acquire most vocabulary by reading? *The Canadian Modern Language Review*, 59(4), 567–587.
3. Nation, I. S. P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.
4. Novak, J. D. (1998). *Learning, creating, and using knowledge: Concept maps as facilitative tools in schools and corporations*. Lawrence Erlbaum Associates.
5. Oxford, R. L. (1990). *Language learning strategies: What every teacher should know*. Newbury House.
6. Sagarra, N., & Alba, M. (2006). The key is in the keyword: L2 vocabulary learning methods with beginning learners of Spanish. *The Modern Language Journal*, 90(2), 228–243.
7. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in language teaching*. Cambridge University Press.

TALABALARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI BAHOLASH ME'ZONLARI

Dadaboyev Dilshodjon G'aybulla o'g'li

Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

Email: dilshod121@mail.ru

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim muassalari tomonidan talabalarning pragmatik kompetensiyasini baholash me'zonlarini aniqlashtirish va ushbu me'zonlardan samarali foydalanish talab etilmoqda. Ushbu maqolada talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlanganligini baholashda uning asosiy kasbiy bilimlari, ko'nikma va malakalar qo'yiladigan talablar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: pragmatik, kompetensiya, me'zon, baholash, texnologiya, kasbiy, malaka.

Аннотация: Современные образовательные учреждения сталкиваются с необходимостью уточнения критериев оценки прагматической компетенции студентов и эффективного использования данных критериев. В данной статье рассматриваются требования к основным профессиональным знаниям, умениям и навыкам при оценке уровня развития прагматической компетенции студентов.

Ключевые слова: прагматический, компетенция, критерий, оценка, технология, профессиональный, квалификация.

Abstract: Modern educational institutions face the need to clarify the criteria for assessing students' pragmatic competence and to use these criteria effectively. This article discusses the requirements for core professional knowledge, abilities, and skills in evaluating the level of development of students' pragmatic competence.

Keywords: pragmatic, competence, criterion, assessment, technology, professional, qualification.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida talabani faqat nazariy bilimga ega bo'lishi yetarli emas. Zamonaviy mehnat bozori mutaxassisidan o'z bilimini amaliyotda qo'llash, muammolarni hal qilish, jamoa bilan ishlash va to'g'ri muloqot olib borish kabi ko'nikmalarni talab etadi. Shu sababli pragmatik kompetensiyani shakllantirish va uni adolatli baholash dolzarb masalaga aylandi. Pragmatik kompetensiya bu talabani mavjud bilim, ko'nikma va malakalaridan muayyan vaziyatda to'g'ri foydalanish qobiliyatidir. U nafaqat nimani biladi, balki qanday qo'llay oladi degan savolga javob beradi.

Talabani pragmatik kompetensiyasi bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Bular nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kommunikativ malaka, muammo yechish qobiliyati va mustaqil fikrlashdir. Nazariy bilimlar fan bo'yicha tushuncha va qoidalarni bilishni anglatadi, amaliy ko'nikmalar olingan bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llay olishni bildiradi. Kommunikativ malaka esa fikrni aniq va ravon ifodalashda namoyon bo'ladi.

Talabalarning pragmatik kompetensiyasini baholashda birinchi mezon bilimni amaliyotga tatbiq eta olishdir. Talaba nazariy bilimini real vaziyatlarda qo'llay olishi

kerak. Masalan, pedagogika yo'nalishidagi talaba interfaol metodlar mavzusini o'rganganidan so'ng undan dars ishlanmasi tuzish va ushbu metodlardan foydalanib mini-dars o'tish talab etiladi. Bunda metodni to'g'ri tanlashi, maqsadga mos qo'llashi va natijadorlikka erishishi asosiy ko'rsatkich bo'ladi.

Ikkinchi mezon muloqot va nutq madaniyatidir. Talaba o'z fikrini aniq, ravon va mantiqan ifodalay olishi zarur. Masalan, chet tili darsida talaba mehmonxonada xona band qilish bo'yicha dialog tuzadi. Ushbu jarayonda nutqning ravonligi, vaziyatga mos so'z tanlovi va odob-axloq qoidalariga rioya qilishi baholanadi.

Uchinchi mezon muammoli vaziyatni hal qilish qobiliyatidir. Talaba murakkab yoki kutilmagan holatlarda to'g'ri yechim topa olishi lozim. Misol uchun, axborot texnologiyalari yo'nalishidagi talaba dasturdagi xatoni aniqlab, uni tuzatish yo'lini ko'rsatishi kerak. Bu yerda muammoni aniqlashi, tahlil qilishi va samarali yechim taklif etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi mezon mustaqil va tanqidiy fikrlashdir. Talaba tayyor ma'lumotni takrorlamasdan, o'z xulosasini bera olishi kerak. Masalan, iqtisodiyot fanidan inflyatsiyaning aholi turmushiga ta'siri mavzusida esse yozishda talabaning mustaqil fikri, dalillar bilan asoslay olishi va tahliliy yondashuvi e'tiborga olinadi.

Beshinchi mezon jamoada ishlash ko'nikmasidir. Hozirgi davrda ko'plab kasblarda jamoaviy faoliyat muhim o'rin tutadi. Shu bois talaba boshqalar bilan hamkorlikda ishlay olishi zarur. Masalan, talabalar guruh bo'lib loyiha tayyorlaganda har bir a'zo o'z vazifasini bajarishi, mas'uliyatli bo'lishi va vazifani o'z vaqtida bajarishi baholanadi.

Talabalarning pragmatik kompetensiyasini aniqlashda turli baholash usullaridan foydalanish mumkin. Jumladan, test sinovlari, keys-stadi, amaliy topshiriqlar, portfolio, prezentatsiya, kuzatish, suhbat va loyiha ishlari samarali vositalar hisoblanadi. Ayniqsa, amaliy topshiriqlar talabaning bilimni real vaziyatda qo'llash imkoniyatini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pragmatik kompetensiyani baholashda faqat test usullaridan foydalanish yetarli emas. Chunki test ko'proq nazariy bilimni aniqlaydi. Amaliy vazifalar esa talabaning kasbiy tayyorgarligi, ijodiy yondashuvi va muammolarni hal qilish salohiyatini yuzaga chiqaradi. Shu sababli zamonaviy ta'limda kompleks baholash tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

CEFR tizimida pragmatik kompetensiyani baholash til egasining grammatik qoidalarni bilishi bilangina emas, balki til birliklaridan muloqot jarayonida maqsadga muvofiq, vaziyatga mos va samarali foydalana olish qobiliyati orqali amalga oshiriladi. Ya'ni baholash jarayonida o'quvchi yoki talabaning tilni real kommunikativ vaziyatlarda qanday qo'llashi asosiy mezon sifatida olinadi.

CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) ga ko'ra, pragmatik kompetensiya kommunikativ til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi[1]. U asosan uch yo'nalishda baholanadi:

1. Diskurs kompetensiyasi

Bu fikrlarni mantiqan bog'lash, matn yoki nutqni izchil tuzish qobiliyatidir. Talabaning gaplarni o'zaro bog'lay olishi, mavzuni davom ettirishi, suhbatni boshlashi va yakunlay olishi tekshiriladi.

Talabaga "Mening kelajak kasbi" mavzusida 2 daqiqalik nutq so'zlash topshiriladi. Baholashda nutqning kirish, asosiy qism va xulosadan iboratligi, gaplarning bog'liqligi va izchilligi hisobga olinadi.

2. Funktsional kompetensiya

Bu til yordamida muayyan vazifalarni bajarish qobiliyatidir. Masalan, iltimos qilish, taklif berish, rad etish, uzr so'rash, maslahat berish kabi kommunikativ funksiyalarni to'g'ri ishlata olish baholanadi[2].

Talabaga restoranda buyurtma berish yoki mehmondan uzr so'rash bo'yicha dialog vazifasi beriladi. U vaziyatga mos iboralarni tanlay olishi kerak.

3. Sxematik dizayn kompetensiyasi

Bu nutqni tashkil qilish strategiyalari, muloqot ketma-ketligini to'g'ri qurish va vaziyatga mos uslub tanlash qobiliyatidir.

Rasmiy xat yozish topshirig'ida talaba salomlashish, murojaat, asosiy mazmun va xayrlashuv qismlarini to'g'ri joylashtirishi lozim.

Pragmatik kompetensiya A1 dan C2 gacha bosqichma-bosqich rivojlanib boradi:

A1–A2: Oddiy kundalik vaziyatlarda sodda iboralarni ishlata oladi.

B1–B2: Suhbatni davom ettira oladi, fikrini asoslaydi, turli vaziyatlarga moslashadi.

C1–C2: Murakkab va nozik kommunikativ vaziyatlarda ham tilni erkin, tabiiy va ta'sirchan qo'llaydi.

Baholash vositalari

CEFR tizimida pragmatik kompetensiyani baholash quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

og'zaki suhbat; rolli o'yinlar; dialog va monolog; esse va xat yozish;

tinglab javob qaytarish; juftlik yoki guruhli topshiriqlar; real hayotiy vaziyatlarga asoslangan vazifalar[3].

Xulosa qilib aytganda, talabalarning pragmatik kompetensiyasini baholash zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismidir. Bunda faqat nazariy bilim emas, balki uni amalda qo'llash, muloqot qilish, muammoni hal etish, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash kabi ko'nikmalar ham inobatga olinishi lozim. To'g'ri tanlangan baholash mezonlari ta'lim sifatini oshiradi hamda raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Language Policy Unit. Strasbourg. 2010. –274 p. Electron Resource: www.coe.int/lang-CEFR
2. Austin, J. L. 1989. How to do things with words. Edited by J. O. Urmson and Marina Sbisa. Oxford: Oxford University Press;
3. Grice, H. P. (1975) 'Logic and conversation'. In P. Cole and J. Morgan (eds) Studies in Syntax and Semantics III: Speech Acts, New York: Academic Press, pp.183-98;
4. Brown, G and G. Yule. 1983. Discourse Analysis. Cambridge: Cambridge University Press;

5. Ellis, R. 1998. Teaching and research: Options in grammar teaching. TESOL Quarterly, 32, 139-60. Международный научный журнал «ВЕСТНИК НАУКИ» № 12 (81) Том 3. ДЕКАБРЬ 2024 г.
6. Дерешко Б.Ю. Классификация информационно-коммуникационных образовательных технологий и их использование в учебном процессе вуза. // Телекоммуникации и информатизация образования, № 6, 2005. – С. 92-103.
7. Захарова К.А. Комплекс методических средств для формирования социолингвистической компетенции бакалавров. // Известия ВГПУ, № 9 (122), 2017. – С. 11-14.
8. Isaeva A. Influence of newspaper headlines on readers // The Sixth European Conference on Languages, Literature and Linguistics. Proceedings of the Conference (April 26, 2015). – Vienna, OR: «East West» Association for Advanced Studies and Higher Education GmbH. – 2015. – P. 12–15.
9. Исаева А.Ю. Переводческие трансформации в процессе перевода газетных заголовков // Апробация: ежемесячный научно-практический журнал: Материалы X Международной научно-практической конференции «Проблемы филологии, культурологии и искусствоведения в свете современных исследований». – 2015. – № 2 (29). – С. 102–103.

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Jo'rayeva Sarvinoz

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi. Interaktiv metodlar, xususan, "aqliy hujum", "rolli o'yinlar", "kichik guruhlarda ishlash" va "munozara" usullari o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilar nafaqat til qoidalarini o'rganadi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Maqolada interaktiv yondashuvning afzalliklari, uning o'quvchilarning nutq faoliyatiga ijobiy ta'siri hamda motivatsiyani oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilarga darslarni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning ingliz tilini o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, mazkur metodlarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: interaktiv metodlar, ingliz tili, ta'lim jarayoni, o'quvchilar faolligi, kommunikativ yondashuv, rolli o'yinlar, guruh ishlari, innovatsion ta'lim

Аннотация: В современной системе образования важным является повышение активности учащихся, развитие их самостоятельного мышления и практических навыков. Интерактивные методы, такие как «мозговой штурм», «ролевые игры», «работа в малых группах» и «дискуссии», способствуют

активному участию учащихся в учебном процессе. С их помощью учащиеся не только усваивают языковые правила, но и учатся применять их в реальных жизненных ситуациях. В статье анализируются преимущества интерактивного подхода, его влияние на развитие речевой деятельности и повышение мотивации учащихся. Также даны рекомендации для преподавателей по эффективной организации занятий. Результаты исследования показывают, что использование интерактивных методов значительно повышает уровень владения английским языком.

Ключевые слова: интерактивные методы, английский язык, образовательный процесс, активность учащихся, коммуникативный подход, ролевые игры, групповая работа, инновационное обучение

Abstract: In modern education, increasing students' engagement, encouraging independent thinking, and developing practical skills are key priorities. Interactive methods such as brainstorming, role-playing, group work, and discussions enhance students' active participation in the learning process. These approaches allow learners not only to understand language rules but also to apply them in real-life situations. The article analyzes the advantages of interactive teaching, its positive impact on students' speaking skills, and its role in increasing motivation. Additionally, practical recommendations are provided for teachers to effectively organize their lessons. The findings indicate that the use of interactive methods significantly improves students' English language proficiency.

Keywords: interactive methods, English language teaching, educational process, student engagement, communicative approach, role-playing, group work, innovative learning

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv jarayoni tezlashib borayotgan bir sharoitda ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va biznes sohalarida asosiy vositalardan biriga aylangan. Shu sababli ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. An'anaviy o'qitish usullari ko'proq grammatik qoidalarni yod oldirishga asoslangan bo'lib, ular o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda har doim ham yetarli samara bermaydi. Shu bois zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlar o'quv jarayonida o'quvchini faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu metodlar orqali o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki fikr bildiruvchi, tahlil qiluvchi va muammolarni hal qiluvchi shaxsga aylanadi. Natijada ularning mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodiy yondashuvi hamda kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, interaktiv metodlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Masalan, rolli o'yinlar, guruh bo'lib ishlash, munozara va "aqliy hujum" kabi usullar o'quvchilarga tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Bu esa ularning nutq faoliyatini yanada rivojlantiradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish hamda ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari interaktiv yondashuvning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rnini ochib beradi. Shu bilan birga,

o'qituvchilar uchun samarali dars tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ASOSIY QISM

Interaktiv metodlar zamonaviy ta'lim jarayonining eng samarali yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Ular o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimni mustaqil o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ingliz tilini o'qitishda bunday metodlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. "Aqliy hujum" metodi o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu usulda o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha tezkor fikrlar bildiradi va g'oyalar ishlab chiqadi. Natijada ular muammoga turli nuqtai nazardan yondashishni o'rganadi. "Rolli o'yinlar" metodi esa o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni tasvirlash imkonini beradi. Masalan, do'konda xarid qilish, mehmonxonada ro'yxatdan o'tish yoki intervyu jarayonini sahnalashtirish orqali o'quvchilar tilni amaliy qo'llashni o'rganadi. Bu ularning og'zaki nutqini rivojlantiradi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi ham juda samarali hisoblanadi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, berilgan topshiriqlarni birgalikda bajaradi. Bu jarayonda ular hamkorlik qilish, fikr almashish va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmalarini egallaydi. "Munozara" metodi esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Ular mavzu yuzasidan o'z fikrlarini asoslab, boshqalarning fikrini tinglashni o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish masalasi pedagogika va metodika sohasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv yondashuv til o'qitish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Kommunikativ yondashuv nazariyasi asoschilari tilni o'rganish faqat grammatik qoidalarni yodlash emas, balki real muloqot jarayonida amaliy qo'llash orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi tilni faqat bilim sifatida emas, balki kommunikatsiya vositasi sifatida o'zlashtirishi kerak. Shu jihatdan interaktiv metodlar kommunikativ yondashuvning amaliy ifodasi hisoblanadi.

J. Harmer o'z asarlarida ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning faolligini oshirish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, dars jarayonida o'quvchilar ko'proq gapirish, fikr bildirish va muhokamada ishtirok etish imkoniga ega bo'lishi kerak. Bu esa interaktiv metodlar orqali samarali amalga oshiriladi. J. Richards va T. Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarda ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish asosiy maqsad sifatida ko'rsatilgan. Ularning fikriga ko'ra, til o'rganish jarayoni real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lishi lozim. Shu sababli rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlash kabi interaktiv usullar katta ahamiyatga ega. Mahalliy olimlardan J. Jalolov o'z tadqiqotlarida chet tillarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini yoritib bergan. U interaktiv metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Interaktiv metodlar nafaqat til o'rganish jarayonini faollashtiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ular o'quvchilarda hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarining interaktiv metodlar bilan uyg'unligi ham alohida o'rin tutadi. Elektron ta'lim platformalari, onlayn testlar va virtual sinflar o'quvchilarning mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa interaktiv yondashuvning samaradorligini yanada oshiradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlardan kompleks foydalanildi. Nazariy metodlar tarkibiga ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik manbalarni o'rganish, qiyosiy tahlil va umumlashtirish kiradi. Ushbu metodlar orqali interaktiv metodlarning ilmiy asoslari va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganildi.

Amaliy metodlar sifatida esa kuzatish, tajriba-sinov va so'rovnoma o'tkazish usullari qo'llanildi. Tajriba jarayonida ingliz tili darslarida interaktiv metodlar (rolli o'yinlar, guruhli ish, "aqliy hujum", munozara) qo'llanildi va ularning o'quvchilar faolligiga ta'siri kuzatildi. Kuzatish natijalariga ko'ra, interaktiv metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshganligi aniqlandi. Ular darsda ko'proq ishtirok etib, fikr bildirish va muloqot qilishga intildi.

So'rovnoma natijalari esa o'quvchilarning interaktiv metodlarga ijobiy munosabatda ekanligini ko'rsatdi. Ko'pchilik o'quvchilar bunday darslar qiziqarli va tushunarli ekanligini ta'kidladi. Tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalar interaktiv metodlar ingliz tilini o'qitishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Shu sababli ularni ta'lim jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy o'qitish usullari asosan nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lsa, interaktiv metodlar o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida shuni aniqlash mumkinki, "aqliy hujum", "rolli o'yinlar", "kichik guruhlarda ishlash" va "munozara" kabi interaktiv usullar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, interaktiv metodlar o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Qiziqarli va amaliy dars jarayoni ularda tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi hamda o'rganish jarayonini yengillashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslar an'anaviy darslarga qaraganda samaraliroq hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv metodlardan keng foydalanish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. – *Chet tilini o'qitish metodikasi*. Toshkent.
2. Harmer J. – *How to Teach English*. Pearson Education.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. – *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Scrivener J. – *Learning Teaching*. Macmillan.

5. Brown H.D. – *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*.
6. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga oid me'yoriy hujjatlar va dasturlar.
7. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTELLEKTUAL TIZIM SUN'IY INTELLEKTNING ROLI

I.U. Tojiboyev

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent, Namangan davlat universiteti
Egamberdiyeva Xusnida Sodikjon qizi
Namangan davlat universiteti
Jahon tillari fakulteti, 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda intellektual tizimlarning roli keng qamrovli tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sun'iy intellektning talabalar uchun shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini yaratish, xorijiy tillarni o'rganishdagi simulyatorlar va o'qituvchilarning ish yuklamasini optimallashtirishdagi imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada texnologik rivojlanishning axloqiy jihatlariga alohida e'tibor qaratilib, taniqli ekspert Metyu Linchning ehtiyotkorlik va nazorat borasidagi qarashlari tahlil etilgan. Maqola yakunida sun'iy intellekt va inson omili o'rtasidagi muvozanatni saqlash ta'lim kelajagining asosi ekanligi haqida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim samaradorligi, intellektual tizimlar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, raqamli pedagogika, Metyu Linch, adaptiv o'qitish, o'qituvchi yordamchisi.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ процессов цифровой трансформации, происходящих в современной системе образования, и роли интеллектуальных систем в повышении эффективности учебного процесса. В ходе исследования освещаются возможности искусственного интеллекта в создании персонализированной среды обучения для студентов, использовании тренажеров при изучении иностранных языков и оптимизации рабочей нагрузки преподавателей. Также особое внимание в статье уделяется этическим аспектам технологического развития и анализируются взгляды известного эксперта Мэтью Линча относительно осторожности и контроля. В завершение статьи сделаны выводы о том, что поддержание баланса между искусственным интеллектом и человеческим фактором является основой будущего образования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, эффективность образования, интеллектуальные системы, персонализированное обучение, цифровая педагогика, Мэтью Линч, адаптивное обучение, помощник учителя.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the processes of digital transformation occurring in today's education system and the role of intelligent systems in improving the efficiency of the educational process. The research highlights

the potential of artificial intelligence in creating a personalized learning environment for students, simulators for learning foreign languages, and optimizing the workload of teachers. Furthermore, the article pays special attention to the ethical aspects of technological development and analyzes the views of the renowned expert Matthew Lynch regarding caution and control. The article concludes that maintaining a balance between artificial intelligence and the human factor is the foundation for the future of education.

Keywords: artificial intelligence, educational efficiency, intelligent systems, personalized learning, digital pedagogy, Matthew Lynch, adaptive learning, teacher assistant

XXI-asrga kelib ilm-fan shu darajada rivojlanib ketdiki, bugungi hayotimizni texnologiya yutuqlarisiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, raqamli transformatsiya davrida "Sun'iy intellekt" (SI) tushunchasi hayotimizning har bir jabhasiga, jumladan, ta'lim sohasiga ham shiddat bilan kirib keldi. Biroq, ushbu zamonaviy mo'jizaning mohiyatini tushunish uchun, avvalo, uning nimaligini va qayerdan paydo bo'lganini anglab olishimiz kerak.

Soddaroq aytganda, sun'iy intellekt - bu kompyuter tizimlarining inson kabi fikrlash, o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir. Garchi biz bugun u haqida yangi texnologiya sifatida gapirayotgan bo'lsak-da, uning poydevori o'tgan asrning o'rtalarida qo'yilgan. "Sun'iy intellekt" atamasi rasman 1956-yilda paydo bo'ldi. Shu yilning yozida AQSHning Dartmut universitetida sun'iy tafakkur masalalari bo'yicha tarixiy anjuman bo'lib o'tdi. Unda Klod Shennon (Bell Laboratories), Nataniel Rochester (IBM), Gerbert Saymon (Karnegi universiteti), Trenchard Mur (Prinston universiteti), Jon Makkarti (Dartmut universiteti) va Marvin Minski (Garvard universiteti) kabi o'z davrining eng yetuk olimlari ishtirok etishgan. Ushbu anjumanda ma'ruza qilgan amerikalik informatika sohasidagi olim Jon Makkarti (1927–2011) ilk bor "Artificial Intelligence" (Sun'iy tafakkur) atamasini qo'lladi va bu tushunchaning muallifi sifatida tarixda nom qoldirdi [1]. O'sha paytda shunchaki ilmiy g'oya bo'lgan bu tushuncha, bugun ta'lim tizimini tubdan isloh qiluvchi asosiy drayverga aylandi.

Sun'iy intellekt bo'yicha dunyodagi eng mashhur darsliklardan biri - "Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv" mualliflari Styuart Jonatan Russell va Piter Norvigning ta'kidlashicha, ushbu soha aqlli mavjudotlarni tushunishga va yangi aqlli shaxslarni yaratishga harakat qilmoqda. Mualliflar o'z kitoblari shunday yozadilar: "Hech kim kelajakni batafsil bashorat qila olmasa-da, inson darajasidagi (yoki undan yuqori) aql-zakovatga ega kompyuterlar bizning kundalik hayotimizga va sivilizatsiyaning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi aniq".

Ushbu bashorat bugun ta'lim tizimida o'z isbotini topmoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt ta'limda tub burilish yasab, izlanuvchilar uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochmoqda. An'anaviy ta'lim usullaridan farqli o'laroq, SI tizimlari charchoq bilmaydi va bilim oluvchilarga sutkaning istalgan vaqtida hamda dunyoning internet mavjud bo'lgan har qanday nuqtasida ko'mak bera oladi. Bu esa talaba-yoshlarga o'zini qiynayotgan murakkab savollarga soniyalar ichida javob topish va o'quv materiallarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Ayniqsa, til o'rganish jarayonida SI mutlaqo yangicha yondashuvni taqdim etmoqda. Endilikda o'rganuvchilar xorijiy tillarni faqat kitoblardan emas, balki real vaqt

rejimida ishlaydigan nutq simulyatorlari bilan jonli muloqot qilish orqali o'rganmoqdalar. Tizim xatolarni darhol tuzatib, talaffuzni tekshiradi va foydalanuvchining qiziqishlariga mos terminologiyani tanlab beradi. Bunday individual yondashuv ta'limning shaxsiylashtirilgan bo'lishini ta'minlaydi: tizim har bir shaxsning axborotni qabul qilish tezligiga moslashadi, agar mavzu murakkablik qilsa, uni sodda misollar va qo'shimcha materiallar bilan tushuntirib beradi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt yosh avlodni yangi kashfiyotlar va kreativlikka undovchi kuchli vositadir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish orqali ilmiy izlanishlar uchun yangi g'oyalar berishi, laboratoriya tajribalarini virtual modellashtirishda ko'maklashishi va bo'lajak mutaxassislarga innovatsion yechimlar topishda yordam berishi mumkin.

Ko'pincha sun'iy intellekt rivojlanishi bilan "kelajakda o'qituvchi kasbi yo'qolib ketadimi?" degan savol yuzaga keladi. Aslida esa, sun'iy intellekt o'qituvchini almashtiruvchi emas, balki uning faoliyatini yengillashtiruvchi samarali yordamchi vosita hisoblanadi.

O'qituvchilar kundalik faoliyatida ko'p vaqtni testlarni tekshirish, uy vazifalarini baholash hamda dars rejalari tuzishga sarflashadi. Sun'iy intellekt ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish orqali vaqtni tejash imkonini beradi. Natijada, o'qituvchi o'z e'tiborini o'quvchilar bilan bevosita ishlashga va darslarni yanada ijodiy hamda samarali tashkil etishga qaratishi mumkin bo'ladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt dars materiallarini vizuallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Murakkab mavzularni 3D modellar, animatsiyalar yoki virtual laboratoriyalar yordamida tushuntirish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'quvchilarning xatolarini tahlil qilib, o'qituvchiga aniq va tizimli ma'lumot taqdim etadi. Bu esa individual yondashuvni kuchaytirib, ayniqsa muayyan mavzularda qiynalayotgan o'quvchilar bilan samarali ishlash imkonini yaratadi.

Sun'iy intellekt ta'limda ulkan imkoniyatlar ochib berishi bilan birga, mutaxassislar bu jarayonga o'ta hushyorlik bilan yondashishni tavsiya etadilar. Xususan, ta'limda SI afzalliklari bo'yicha yetakchi yozuvchilardan biri Metyu Linch o'zining "Ta'limda sun'iy intellektning kelajagiga bo'lgan qarashlarim" asarida ushbu texnologiyaning ehtimoliy "tuzoq"lari haqida ogohlantiradi.

Linchning fikricha, sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim sifati uchun juda qimmatli bo'lishi mumkin, biroq biz uning rivojlanishini va umumiy hayotimizdagi rolini doimiy nazorat qilishimiz shart. Bu texnologiya o'qituvchini butkul almashtirishi yoki insoniy muloqot elementini ta'limdan chiqarib tashlashi haqidagi ilmiy-fantastik ssenariylarni chetlab o'tgan holda, uning amaliy va axloqiy jihatlariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Shuningdek, intellektual tizimlar o'quvchilarga o'rganish uchun zarur bo'lgan xatolarni qilish va o'z vaqtida fikr-mulohazalar olish imkonini beradi. Bu esa ta'lim markazlarida o'qituvchilarning zerikarli va takrorlanuvchi ishlarga sarflaydigan vaqtini qisqartirib, ularni yanada mazmunli va ijodiy faoliyatga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt ta'limda faqat yordamchi vosita emas, balki ta'lim sifatini oshiruvchi strategik omilga aylangan. SI har bir talabaning individual

qobiliyatlari va tezligiga mos shaxsiylashtirilgan o'quv yo'nalishini yaratadi hamda o'qituvchilarning zerikarli rutin ishlarini yengillashtiradi. Bu pedagoglarga o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, motivatsiya berish va ijodiy yondashuv orqali murakkab mavzularni tushuntirish imkonini beradi. Shu bilan birga, Metyu Linch ta'kidlaganidek, ta'limda hushyorlik va nazoratni saqlash, axloqiy muvozanatni himoya qilish hamda o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Natijada, intellektual tizimlarni tizimli joriy etish raqamli avlodni tayyorlash, xalqaro standartlarga integratsiyalashuv va ta'lim samaradorligini yangi bosqichga ko'tarishda poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kelajak ta'limi - insoniy tuyg'ular, pedagogik mahorat va sun'iy intellekt imkoniyatlarining oqilona va xavfsiz uyg'unligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Userbayeva, F. I. Ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning samaradorligini oshirish // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – 2023. – № 5. – B. 171-177.
2. Russell, S. J., & Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach (Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv). – 4-nashr. – Pearson, 2020.
3. Lynch, M. My views on the future of artificial intelligence in education (Ta'limda sun'iy intellektning kelajagiga bo'lgan qarashlarim). [Elektron resurs].
4. Marr, B. 10 Ways Artificial Intelligence Is Revolutionizing Education (Sun'iy intellekt ta'limda inqilob qilayotgan 10 ta usul) // Forbes. – 2019.
5. Ayupov, R. H., & Tursunov, S. Q. Raqamli texnologiyalar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Lesson Press", 2023. – 464 b.
6. Filipova, I. A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: Ma'ruza kursi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashri, 2022. – B. 7.
7. G'afforov, Ya. X. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. – Toshkent: "Shafoat Nur Fayz" nashriyoti, 2021.
8. Shermuxamedova, N. A. Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2014. – B. 403-407.

ISPAN TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI OSHIRISH HAMDA UNING TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xamrakulova Barchinoy Abduraxmatovna

Katta o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

barchbabulabduraxmatovna@gmail.com, 903268381

Annotatsiya: maqolada ispan tili darsida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish talabalarga tilni samarali va to'g'ri ishlatish, ya'ni muloqotda tilni nafaqat grammatik jihatdan balki madaniy va ijtimoiy nuqtai nazardan ham o'zaro tushunishni ta'minlashni o'rgatish jarayoni ekanligi to'g'risida gap boradi. Kommunikativ kompetentsiya til o'rganishda nafaqat tilning grammatik jihatlari, balki uning madaniy, ijtimoiy va emotsional o'lchovlarini ham qamrab olishi

bo'yicha fikr yuritiladi. Ispan tilini o'rgatish jarayonida bu o'zaro bog'liq bo'lib, til o'rganuvchilarni faollik va samarali muloqotga o'rgatishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: kommunikativ, kompetensiya, lingvistik, pragmatic, sotsial, strategik, xorijiy til, ko'nikma

Abstract: In the article, the development of communicative competence in the Spanish language lesson is the process of teaching students to use the language effectively and correctly, that is, to ensure mutual understanding of the language in communication not only from a grammatical point of view, but also from a cultural and social point of view. It is believed that communicative competence in language learning covers not only the grammatical aspects of the language, but also its cultural, social and emotional aspects.

Key words: communicative, competence, linguistic, pragmatic, social, strategic, foreign language, skills

Аннотация: В статье развитие коммуникативной компетенции на уроке испанского языка – это процесс обучения учащихся эффективно и правильно использовать язык, то есть обеспечивать взаимопонимание языка в общении не только с грамматической точки зрения, но и с культурной и социальной точки зрения. Считается, что коммуникативная компетентность при изучении языка охватывает не только грамматические аспекты языка, но также его культурные, социальные и эмоциональные аспекты. В процессе преподавания испанского языка это взаимно и помогает обучать изучающих язык быть активными и эффективно общаться.

Ключевые слова: коммуникатив, компетентность, лингвистический, прагматический, социальный, стратегический, иностранный язык, умение

Kirish: Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, xorijiy tillarni boshlang'ich sinflarda va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishi nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan iborat chet til o'qitish mazmunini modernizatsiyalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. (Byram, M. (2008). Ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarning til o'rganishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kembrij, Oksford, Aston va York universitetlarida chet til bo'yicha darajalar uchun ta'lim mazmuni, talablari va vositalarini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, til o'rganish usul va strategiyalarini hisobga olib takomillashtirish Zamonaviy tillar Yevropa markazi, Varshava universiteti, Gyote universitetida boshlang'ich sinflarda chet tilini madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida o'qitish, Oslo Akershus va Joyensu universitetlarida boshlang'ich sinflarda ayrim fanlarni chet tilida o'qitish (CLIL), Inchon, Beyjing, Leshan, Linton, Xankuang universitetlarida o'quvchilarga chet tilini tabiiy nutqqa taxminiy yaqinlashish va og'ziki nutqning ilgarilashi tamoyillari asosida nutq namunalari va muloqot modellarini o'qitish ilgari surildi. Kommunikativ kompetensiya - bu tilni

samarali va to'g'ri muloqotda ishlatish qobiliyati, ya'ni til o'rganuvchi shaxsning tilni faqat grammatik jihatdan to'g'ri qo'llash emas, balki maqsadli va muhitga mos ravishda foydalana olish qobiliyati. (Baxronova, D., & Turamuratova, I. 2024, May). Bu tushuncha, asosan, tilshunoslik va til o'rgatish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'rganilayotgan tilning faqat texnik jihatlarini (grammatika, lug'at) emas, balki kommunikatsion vaziyatni, kontekstni va ijtimoiy normativlarni ham hisobga olishni talab qiladi.

Ispan tili darsida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish, o'quvchilarda tilni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri ishlatish, balki turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda samarali va mantiqiy muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishni anglatadi. Kommunikativ kompetensiya nafaqat tilni bilishni, balki uni turli vaziyatlarda va maqsadlarga muvofiq ishlata olishni ham o'z ichiga oladi. (Canale, M., & Swain, M. 1980).

Kommunikativ kompetensiya, umuman olganda, Hymes tomonidan ilgari surilgan va asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'lgan kontsepsiya sifatida qaraladi:

Kommunikativ kompetensiya, umuman olganda, Hymes tomonidan ilgari surilgan va asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'lgan kontsepsiya sifatida qaraladi:

- **Lingvistik kompetensiya (til kompetensiyasi):**

- Tilning grammatik va leksik qoidalarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish qobiliyati (masalan, sintaksis, morfologiya).

- Grammatika: Ispan tilining grammatik qoidalarini bilish va ularni to'g'ri qo'llay olish.

- Leksika: So'z boyligini oshirish va so'zlarni to'g'ri tanlash.

- Fonologiya: To'g'ri talaffuz va intonatsiya.

- **2. Sotsial-kommunikativ kompetensiya:**

- Ijtimoiy kontekstni tushunish: Tilni qanday vaziyatda va kim bilan ishlatishni bilish, muloqotning ijtimoiy va madaniy kontekstini tushunish.

- Vaziyatga moslashuvchanlik: Formal va informal muloqot turlarini farqlay olish, ijtimoiy maqomga mos ravishda nutq shakllarini tanlash. (Kramsch, C. 1993)

- **3. Diskursiv kompetensiya:**

- Muloqotning tuzilishi: O'quvchi nafaqat so'zlashuvda, balki muloqotning lojiq tuzilishiga e'tibor berib, jummalarni mantiqiy bog'lashni, fikrlarni ravon ifodalashni o'rganadi.

- Tahrir qilish va muvofiqlashtirish: Muloqot davomida nutqni yaxshilash, savollar berish, fikrni aniqroq qilish.

- **4. Strategik kompetensiya:**

- Muammolarni hal qilish: Til o'rganuvchisi muloqotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun turli strategiyalarni (masalan, so'zlarni o'zgartirish, gapni takrorlash yoki qayta so'rash) qo'llay olishi kerak.

- Noaniqliklarni bartaraf etish: Tilni bilmaydigan yoki noaniq bo'lgan holatlarda so'zlashuvni davom ettirish uchun kontekstga asoslanib fikrni tushuntirish yoki so'rovlar qilish.

- **5. Pragmatik kompetensiya:**

- Ma'no va xulq-atvor: Tilni to'g'ri va madaniyatga mos tarzda ishlatish; turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni hisobga olish.

- Kontekstual ma'no: O'zaro muloqotda tushunishni o'z ichiga olgan muloqot qoidalariga amal qilish (masalan, hazilni, o'zaro hurmatni, yoki rasmiylikni bilish).

Ispan tili o'qitishida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati katta.

Kommunikativ kompetensiya - bu nafaqat tilni grammatik jihatdan to'g'ri ishlatish, balki uni to'g'ri va samarali tarzda muloqot qilish, fikrlarni aniq va o'zaro tushunishga erishish qobiliyatidir. [Hymes, D. 1972]. Ispan tilini o'qitishda bu kompetensiyaning ahamiyati quyidagicha tushuntirilishi mumkin:

Tilni faol qo'llash imkoniyati: Kommunikativ kompetensiya tilni nafaqat akademik tarzda o'rganish, balki real hayotda ham muloqot qilish imkonini beradi. O'quvchilar tilni kundalik vaziyatlarda ishlatish, suhbatlar, muhokamalar, bahslar o'tkazish orqali o'rganadilar.

Kognitiv rivojlanish: Til o'rganish jarayonida o'quvchilar boshqa madaniyatni anglash, boshqa fikrlar va nuqtai nazarlarni tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'z navbatida ularning fikrlash va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

O'zaro tushunishni oshirish: Kommunikativ kompetensiya o'quvchilarga nafaqat tilni to'g'ri ishlatishni, balki turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni hurmat qilish va ularga moslashishni ham o'rgatadi. Bu, ayniqsa, ispan tilini o'rganishda muhim, chunki ispan tili turli mamlakatlar va madaniyatlarni o'z ichiga oladi.

Motivatsiyani oshirish: O'quvchilarni tilni o'rganish jarayonida faollashtiradi va ularga til o'rganishning amaliy foydasini ko'rsatadi. Muloqot qilish uchun o'rgatilgan til, o'quvchilarga o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va tildan foydalanishga rag'batlantiradi.

Tilni o'rganishda har tomonlama yondashuv: Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki nutqni tushunish, nutqni shakllantirish, tinglash va gapirish kabi turli til ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarga tilni kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. (Sabirova, N. A. 2022).

Shu tariqa, kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati ispan tili o'qitishida shunchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Bu kompetensiya o'quvchilarga tilni faqat nazariy jihatdan bilish emas, balki uni real hayotda samarali va ishonchli tarzda ishlatish imkoniyatini taqdim etadi. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish metodlari:

- Rol o'ynash: Turli kommunikativ vaziyatlar, masalan, restoranda buyurtma berish, do'stlar bilan suhbatlashish, ish suhbatlari o'rnatish kabi rollarda ishtirok etish.

- Gruppaviy ishlar: O'quvchilarni guruhlariga bo'lib, jamoaviy ishlash va o'z fikrlarini ravon ifodalashga undash.

- Debatlar va munozaralar: Fikrlarni dalillar bilan ta'minlash, qarama-qarshi fikrlarni hurmat bilan baholash va ifodalash.

- Real hayotdan misollar: Yangi tilni o'rganayotgan shaxslarni real hayotdagi vaziyatlarda tilni qo'llashga undash, masalan, kundalik suhbatlar, videolar orqali tilni o'rganish. [Sabirova Nilufar Kamiljonovna. (2024).]

Komunikativ kompetentsiyaning darsda amaliyotga tatbiqi:

- Interaktiv metodlar: O'qituvchi va o'quvchilar orasidagi muloqotni rag'batlantiradigan metodlar, masalan, "kommunikativ o'yinlar" yoki "problemsizlik sinflari"ni qo'llash.

- Tahliliy yondoshuv: O'quvchilarni matnlarni o'qib, tahlil qilib, savollarni muhokama qilishga jalb qilish.

- Video va audio materiallar: Ispan tilidagi dialoglarni tinglash va ularga javob berish, shuningdek, o'quvchilarni auditoriya va video materiallarga asoslangan faoliyatlarga jalb qilish.

Ispan tilini chet tili sifatida o'rgatishda kommunikativ kompetentsiyaning rivojlantirish - bu talabalar tilni faqat grammatik jihatdan o'rganish emas, balki ularni real hayotda, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilishga tayyorlashdir. [Салахова, Д.С. 2020]. Kommunikativ kompetentsiyaning rivojlantirishda asosiy maqsad - tilni to'g'ri va oqilona ishlatish, til o'rganuvchilarining real muloqotda o'zini ifoda etish qobiliyatini oshirishdir.

Kommunikativ kompetentsiyaning rivojlantirish uchun darslarda o'quvchilarga qiziqarli va samarali o'yinlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bunday o'yinlar talabalarga ispan tilida muloqot qilishni rag'batlantiradi, ularning tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini oshiradi va o'rganilgan materialni yanada mustahkamlashga yordam beradi. [Xamrakulova, B.A. 2024]. Kommunikativ kompetentsiyaning ahamiyati shundaki, bu o'quvchilarga tilni faqat yozma va og'zaki kommunikatsiyada muvaffaqiyatli qo'llashni emas, balki madaniyatlararo aloqalarda ham samarali muloqot qilishni o'rgatadi. Shuningdek, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Ispan tili o'qitishidagi kommunikativ kompetentsiyaning ahamiyati haqida quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

Kommunikativ kompetensiya tilni nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri ishlatish, balki real hayotdagi muloqotlarda samarali qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ispan tili o'qitishida kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarga tilni faqat akademik nuqtai nazardan emas, balki kundalik hayotda muloqot qilishda ham mustahkam bilim va ko'nikmalarni beradi.

Bu kompetensiya o'quvchilarga:

- Tilni to'g'ri va samarali ishlatish,
- Madaniyatlararo farqlarni tushunish va ularga moslashish,
- Muloqotda o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalash,
- Boshqalarni tinglash va ularning fikrlarini to'g'ri tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shu tariqa, ispan tili o'qitishida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati - bu kompetensiya o'quvchilarni nafaqat til bilimlari bilan ta'minlabgina qolmay, balki ularni real hayotda muvaffaqiyatli muloqot qilishga tayyorlaydi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, ularni tilni erkin va mustaqil qo'llashga rag'batlantiradi, shuningdek, ularga global madaniyatlararo aloqalarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlasha oladi. Jahonda globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlarga o'tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag'batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya'ni chet tillarni mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirdi. Chet til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish/o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib, xalqaro fenomen tusini oldi.

Kommunikativ kompetensiya - bu insonning til orqali samarali va o'zaro tushunish asosida muloqot qilish, axborot almashish va ijtimoiy munosabatlarni qurish qobiliyatidir. Ilmiy ishda keltirilgan tahlillar, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ta'lim tizimida, shuningdek, kundalik hayotda insonlar o'rtasidagi muloqotning sifatini oshirish uchun ahamiyatini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Byram, M. From Foreign Language Education to Education for Intercultural Citizenship. Clevedon: Multilingual Matters. (2008).
2. Baxronova, D., & Turamuratova, I. Xorijiy tillarni o'qitishning inson shaxsiy va ijtimoiy kamolotidagi ahamiyati. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 208-212). (2024, May).
3. Canale, M., & Swain, M. *Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing*. Applied Linguistics, 1(1), 1-47. (1980).
4. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
5. Hymes, D. On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269-293). Harmondsworth: Penguin. (1972).
6. Sabirova, N. A. Lingvisticheskie i universal'nie tipologii na urokax E/LE. Universum: psixologiya i obrazovanie, (2 (92)), 7-9. (2022).
7. Sabirova Nilufar Kamiljonovna. Factores cognitivos que influyen en la adquisición del español como segunda lengua. European scholar journal, 5(2), 47-48. Retrieved from. (2024).
8. Салахова, Д. С. Использование изобразительной наглядности для обучения письменной речи на уроке иностранного языка. Интернаука, (37-1), 34-36. (2020).
9. Tashpulatova, F.S. (2024). Ispan tili leksikasini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatishning maqsad va vazifalari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 43(3), 108-112.
10. Xamrakulova, B.A. Texnologiya razvitiya kommunikativno-pragmaticheskoy kompetentnosti budushix prepodavateley (na primere ispanskogo yazika). Jurnal gumanitarnix i yestestvennix nauk, (1), 13-18. (2023).
11. Xamrakulova, B. A. Sifrovie instrumenti i ix effektivnost' v sovershenstvovanii kommunikativnix navikov studentov. Jurnal gumanitarnix i yestestvennix nauk, (14 [2]), 81-89. (2024).

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

2. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <http://natlib.uz> - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet

STRATEGIES AND METHODS FOR ENHANCING VOCABULARY ACQUISITION IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING: A HOLISTIC PERSPECTIVE

Mahmudjonova Maftuna Po'latboy qizi

Student of Namangan State institute of foreign languages

Phone number: (998)-94-023-18-23

E-mail: xamrahojaubayev@gmail.com

Annotation: Vocabulary development represents a fundamental dimension of second language learning, shaping both communicative ability and academic achievement. This study offers a comprehensive examination of effective techniques for vocabulary instruction in English Language Teaching (ELT), drawing on established theoretical insights and contemporary pedagogical practices. The analysis focuses on three interconnected domains: instructional techniques, learner-driven strategies, and educational contexts. The findings indicate that combining intentional instruction with contextual exposure, encouraging strategic learning behavior, and incorporating digital tools significantly improves vocabulary retention and usage. The study proposes an integrative framework that can be applied across diverse learning environments.

Keywords: vocabulary development, ELT methodology, lexical knowledge, learning strategies, language instruction

Аннотация: Развитие словарного запаса является ключевым аспектом изучения второго языка, определяющим как коммуникативные способности, так и академическую успешность обучающихся. В данной статье представлен всесторонний анализ эффективных методов обучения лексике в преподавании английского языка с опорой на современные педагогические подходы и теоретические концепции.

Исследование охватывает три взаимосвязанных направления: методы преподавания, стратегии обучающихся и образовательные условия. Результаты показывают, что сочетание целенаправленного обучения с контекстуальным усвоением, развитие стратегического мышления и использование цифровых технологий существенно повышают эффективность усвоения лексики.

Предложенная модель обучения может быть применена в различных образовательных условиях.

Ключевые слова: развитие словарного запаса, методика преподавания, лексическая компетенция, стратегии обучения, педагогика

Annotatsiya: Lug'at boyligini rivojlantirish ikkinchi tilni o'rganishning asosiy omillaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning kommunikativ qobiliyati hamda akademik natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida

lugʻatni samarali oʻrgatish usullari zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida batafsil tahlil qilinadi.

Tadqiqot uchta oʻzaro bogʻliq yoʻnalishni qamrab oladi: oʻqitish metodlari, oʻquvchi strategiyalari va taʼlim muhiti. Natijalar shuni koʻrsatadiki, maqsadli oʻqitish va kontekstual oʻrganishni uygʻunlashtirish, strategik yondashuvni rivojlantirish hamda raqamli vositalardan foydalanish lugʻatni samarali oʻzlashtirishni taʼminlaydi. Tadqiqot natijasida taklif etilgan model turli taʼlim sharoitlarida qoʻllanishi mumkin.

Kalit soʻzlar: lugʻat rivoji, ingliz tili metodikasi, leksik bilim, oʻrganish strategiyalari, pedagogika

Introduction

A well-developed vocabulary base is essential for successful communication in a second language. Learners with limited lexical knowledge often struggle to understand input and express their ideas effectively. According to Krashen, exposure to meaningful and understandable language input plays a crucial role in natural language acquisition [1].

In earlier teaching traditions, vocabulary was frequently treated as a secondary component compared to grammar. However, recent research emphasizes that lexical knowledge is central to language proficiency and involves not only recognizing words but also understanding their usage in context [2][5]. Thornbury further highlights that vocabulary forms the core of communication, reinforcing its importance in language education [6].

This study seeks to identify and analyze effective approaches to vocabulary instruction by synthesizing theoretical and practical perspectives.

Methods

The study is organized around three primary dimensions: instructional techniques, learner strategies, and learning environments.

•Instructional Approaches (Explicit and Implicit Learning)

Intentional teaching methods focus on presenting word meanings, forms, and usage directly, which supports initial comprehension [2][5]. In contrast, incidental learning takes place through exposure to language in meaningful contexts, such as reading or listening activities, aligning with input-based theories [1]. Evidence suggests that combining both approaches produces more effective outcomes [7].

•Learner Strategies

Learners employ a range of strategies to enhance vocabulary acquisition. Cognitive strategies include repetition and note-taking, while metacognitive strategies involve planning and self-evaluation. Social interaction also supports learning through communication and collaboration [4]. The use of multiple strategies contributes to deeper understanding and long-term retention.

•Learning Environments

Traditional classroom instruction provides structure and guidance, whereas digital environments offer flexible and personalized learning opportunities. Tools such as spaced repetition systems and mobile applications enhance retention by promoting repeated exposure [7]. A blended approach that combines both environments is considered highly effective.

Results

The analysis demonstrates that vocabulary learning is most successful when different methods are combined. Direct instruction helps establish initial understanding, while contextual exposure strengthens long-term retention [2][7].

Frequent encounters with vocabulary items play a key role in memory development. Additionally, learners who actively use strategies tend to achieve better results [4].

Technology-based learning environments increase engagement and provide opportunities for individualized practice, further improving learning outcomes.

Discussion

The findings suggest that vocabulary acquisition should be approached as a dynamic and multifaceted process. Integrating various teaching methods ensures both immediate comprehension and sustained retention.

Learner autonomy is another critical factor, as students who take responsibility for their learning process tend to achieve higher levels of proficiency [4].

Technological tools create interactive and adaptive learning experiences, making vocabulary learning more efficient and accessible. These results highlight the need for a balanced and learner-centered approach in ELT.

Conclusion

This study confirms that effective vocabulary instruction requires a combination of teaching methods, learner strategies, and supportive learning environments. A holistic approach that integrates traditional and modern techniques leads to improved lexical competence.

Future research should further investigate how emerging technologies, including artificial intelligence, can contribute to vocabulary acquisition in diverse educational contexts.

References:

1. Krashen, S. D. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.
2. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
3. Nation, I. S. P., & Webb, S. (2011). *Researching and Analyzing Vocabulary*. Heinle.
4. Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Newbury House.
5. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Thornbury, S. (2002). *How to Teach Vocabulary*. Longman.
7. Webb, S., & Nation, I. S. P. (2017). *How Vocabulary is Learned*. Oxford University Press.

TURLI YOSH GURUHLARIGA CHET TILINI O'QITISHNING SAMARALI METODLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Kamalova Mohinur Rustamjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Tel: (94) 258 13 39

E-mail: kamalovamohinur3@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada turli yosh guruhlariga chet tilini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritiladi. Boshlang'ich, o'rta va katta yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari tahlil qilinib, ularga mos metod va yondashuvlar tavsiya etiladi. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, o'yin texnologiyalari, interaktiv metodlar hamda raqamli vositalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganiladi[2], [4].

Kalit so'zlar: chet tili, metodika, yosh xususiyatlari, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, motivatsiya, pedagogika

Аннотация: В статье подробно рассматриваются теоретические и практические аспекты обучения иностранным языкам для разных возрастных групп. Анализируются психологические особенности учащихся и предлагаются соответствующие методы обучения. Особое внимание уделяется коммуникативному подходу, игровым технологиям и цифровым средствам обучения.

Ключевые слова: иностранный язык, методика, возрастные особенности, коммуникативный подход, интерактивные методы, мотивация

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of theoretical and practical aspects of teaching foreign languages to different age groups. It examines learners' psychological characteristics and suggests appropriate teaching methods. Special attention is given to communicative approach, game-based learning, interactive methods, and digital tools in improving learning outcomes.

Keywords: foreign language, methodology, age characteristics, communicative approach, interactive methods, motivation, teaching

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida chet tillarini o'rganish nafaqat ehtiyoj, balki zaruratga aylanmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni samarali o'qitish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhimdir[2]. Turli yosh guruhlarida o'quvchilarning qabul qilish darajasi, psixologik holati va o'rganish uslublari farqlanadi. Shu sababli, o'qituvchi har bir yosh toifasiga mos metodlarni tanlashi lozim[7].

Nazariy asoslar

Chet tilini o'qitishda bir qator pedagogik nazariyalar muhim o'rin tutadi. Jumladan, kommunikativ yondashuv (CLT), konstruktivizm, hamda differensial o'qitish tamoyillari. Ushbu nazariyalar o'quvchilarning faolligini oshirish va bilimni mustaqil egallashga yordam beradi[3].

1. Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar (6–10 yosh)

Bu yoshdagi bolalar uchun o'qitish jarayoni qiziqarli va o'yin asosida tashkil etilishi zarur. Ularning diqqatini uzoq vaqt ushlab turish qiyin bo'lganligi sababli, darslar dinamik bo'lishi kerak[2].

Samarali metodlar:

O'yin texnologiyalari (didaktik o'yinlar)

Qo'shiqlar va she'rlar orqali o'rganish

Vizual materiallar (rasmlar, kartochkalar)

Total Physical Response (TPR) metodi

Bu metodlar orqali o'quvchilar eshitish va ko'rish orqali tezroq o'zlashtiradi.

2. O'rta yoshdagi o'quvchilar (11–16 yosh)

Bu bosqichda o'quvchilar mantiqiy fikrlashga o'ta boshlaydi va mustaqil fikr bildirishga intiladi.

Samarali metodlar:

Kommunikativ yondashuv (dialoglar, rolli o'yinlar)

Guruhli ishlar va muhokamalar

Problem-based learning (muammoli vazifalar)

Interaktiv topshiriqlar

Bu metodlar o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi va darsga bo'lgan qiziqishni oshiradi[4].

3. Katta yoshdagi o'quvchilar (17+ va kattalar)

Katta yoshdagilar ko'proq maqsadli o'rganadi (ish, o'qish uchun).

Samarali metodlar:

Analitik yondashuv (grammatika va tahlil)

Akademik yozuv mashqlari

Mustaqil ta'lim va tadqiqot

Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar

Bu bosqichda o'quvchilar o'z-o'zini nazorat qilish va mustaqil ishlashga moyil bo'ladi[1], [3].

Zamonaviy texnologiyalarning o'rni

Bugungi kunda axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, video darslar va interaktiv dasturlar orqali o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengaydi. Bu vositalar ayniqsa motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi[6].

Amaliy tavsiyalar

Har bir yosh guruhiga mos metodni tanlash.

Darslarni interaktiv va qiziqarli tashkil etish[4].

Texnologiyalardan samarali foydalanish.

O'quvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Individual yondashuvni qo'llash[7].

Bugungi globallashtirish sharoitida chet tillarini o'rganish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Turli yosh guruhlariga til o'rgatishda yagona metoddan foydalanish yetarli natija bermaydi. Har bir yosh davri o'ziga xos psixologik, ijtimoiy va intellektual xususiyatlarga ega bo'lib, o'qitish jarayonida aynan shu jihatlarni inobatga olish muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatish jarayoni asosan o'yin faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar tilni tabiiy muhitda, majburiyatsiz va qiziqarli mashg'ulotlar orqali tez o'zlashtiradi. Shu sababli o'qitishda o'yin asosidagi metodlar, qo'shiq va she'rlar, vizual vositalar hamda takrorlash va taqlid muhim o'rin tutadi. Bunda harakat orqali o'rganishga asoslangan yondashuvlar bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishda esa o'yin bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda hikoya asosida o'qitish, rolly o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar va multimedia vositalaridan foydalanish samarali natija beradi. O'quvchilarni guruhda ishlashga jalb qilish va fan bilan tilni integratsiyalash orqali ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

O'smirlar uchun chet tilini o'qitish jarayonida ularning mustaqil fikrlashga intilishi va ijtimoiy faolligi inobatga olinishi zarur. Bu yoshda o'quvchilar real hayotga yaqin vaziyatlar orqali yaxshiroq o'rganadi. Shu bois munozaralar, debatlar, loyiha asosida o'qitish va media materiallardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarning erkin fikr bildirish, muloqot qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kattalar uchun chet tilini o'qitish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular odatda aniq maqsad asosida til o'rganadi. Kattalar uchun muammo asosida o'rganish, real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, grammatik tahlil va mustaqil ta'lim muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va onlayn platformalar bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Kattalarda tajriba asosida o'rganish va o'z-o'zini nazorat qilish yuqori darajada bo'ladi.

Xulosa. Turli yosh guruhlariga chet tilini o'qitish murakkab, ammo qiziqarli jarayondir. Har bir yosh bosqichi uchun mos metodlarni tanlash orqali o'qitish samaradorligini oshirish mumkin[1],[4]. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson, 2000.
2. Harmer J. How to Teach English. – London, 2007.
3. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford, 1982.
4. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2001.
5. Scrivener J. Learning Teaching. – Oxford, 2011.
6. Ur P. A Course in Language Teaching. – Cambridge, 1996.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.

INGLIZ TILI FANINI O'QITISH JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Yuldasheva Mahliyo Ibrohim qizi

Namangan davlat universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativ fikrlash tushunchasi, uning asosiy komponentlari hamda uni rivojlantirishda innovatsion metodlarning samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, zamonaviy texnologiyalar, ingliz tilini o'qitish, interfaol metodlar, innovatsiya, pedagogika

Аннотация. В статье рассматривается роль современных педагогических технологий в развитии креативного мышления учащихся в процессе обучения английскому языку. Анализируются понятие креативности, её основные компоненты, а также эффективность инновационных методов обучения. Особое внимание уделяется применению цифровых технологий, интерактивных методов и интегративного подхода в формировании творческого потенциала учащихся.

Ключевые слова: креативное мышление, современные технологии, обучение английскому языку, интерактивные методы, инновации, педагогика

Abstract. This article examines the role of modern pedagogical technologies in developing students' creative thinking in the process of teaching English. It analyzes the concept of creativity, its main components, and the effectiveness of innovative teaching methods. Special attention is given to the use of digital technologies, interactive methods, and an integrative approach in enhancing students' creative potential.

Keywords: creative thinking, modern technologies, English language teaching, interactive methods, innovation, pedagogy

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Zamonaviy jamiyatda nafaqat bilimga ega bo'lgan, balki mustaqil fikrlay oladigan, innovatsion yondashuvga ega va kreativ qarorlar qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kreativ fikrlashni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan [1].

Ingliz tilini o'qitish jarayoni o'zining kommunikativ va interfaol xususiyati bilan o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha reproduktiv bilimlarga asoslanib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishga to'sqinlik qiladi.

Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda [2].

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning samaradorligini asoslab berishdan iborat

ASOSIY QISM

Kreativ fikrlash bu yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni noodatiy usullar orqali hal qilish hamda mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi. J. Guilford tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga yondashadigan bo'lsak kreativlik fikrlar ravonligi, moslashuvchanlik, originallik va batafsillik kabi asosiy komponentlardan tashkil topadi [3]. Ushbu komponentlar o'quvchilarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi va ularni ta'lim jarayonida shakllantirish zarur hisoblanadi.

L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilimlar ijtimoiy muhitda, ya'ni muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanadi [4]. Shu bois ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlar va kommunikativ yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ular qatoriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, gamifikatsiya va multimedia vositalari kiradi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarni faollikka undaydi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi [5].

Interfaol metodlar, xususan, "brainstorming", "debat", "case-study" kabi usullar o'quvchilarning fikr almashish, muhokama qilish va o'z nuqtai nazarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida tanqidiy va kreativ fikrlashning shakllanishiga olib keladi [6]. Ayniqsa, "brainstorming" usuli orqali o'quvchilar erkin ravishda turli g'oyalarni ilgari suradi va ularning originalligi rag'batlantiriladi.

Raqamli texnologiyalar ham ingliz tilini o'qitishda muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimedia vositalari yordamida o'quvchilar o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Bu esa ularning qiziqishini oshirib, kreativ fikrlashini rivojlantiradi [7].

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish bilan birga, ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali o'quvchilar muayyan muammoni hal qilish jarayonida yangi g'oyalar ishlab chiqadi, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llaydi va yakunda o'z natijalarini taqdim etadi [8].

Shuningdek, storytelling va kreativ yozuv metodlari o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. O'quvchilarga yangi hikoya yaratish yoki mavjud voqealarni qayta talqin qilish topshiriqlari berilganda, ular o'z ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Bu esa ularning til kompetensiyasi bilan bir qatorda kreativ tafakkurini ham rivojlantiradi [9].

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ijodiy fikrlash ko'nikmalari ham sezilarli darajada rivojlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlash o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni innovatsion yo'l bilan hal etish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – interfaol metodlar, raqamli vositalar, loyiha asosida o'qitish va kreativ yozuv usullari – o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o'quv jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bois, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni tizimli ravishda qo'llash zarur hisoblanadi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, ijodkor va intellektual salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J.C. Key Issues in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 320 p.
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014. – 410 p.
3. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
5. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2010. – 288 p.
6. Dudeney G., Hockly N. How to Teach English with Technology. – London: Pearson Education, 2007. – 192 p.
7. Warschauer M. Learning in the Cloud: How (and Why) to Transform Schools with Digital Media. – New York: Teachers College Press, 2011. – 256 p.
8. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael: Autodesk Foundation, 2000. – 45 p.
9. Wright A. Storytelling with Children. – Oxford: Oxford University Press, 1995. – 160 p.
10. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Oxford: Capstone Publishing, 2011. – 320 p.

CLASSROOM ORGANIZATION AND COMMUNICATION IN EFL LEARNING: INTERACTION PATTERNS AND PEDAGOGICAL IMPLICATIONS

Alimova Aziza Orifjon qizi¹, Muxammadiyeva Xalimaxon²

¹ Master's student,

Ishoqkhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

² Associate professor,

Namangan State University

Abstract. This article examines how classroom organization and communication patterns shape English as a Foreign Language (EFL) learning. The review synthesizes seminal studies on participant organization, learner-centered instruction, group work, cooperative learning, questioning techniques, and wait-time. The analysis shows that small-group and pair-work formats generally increase learner talk, expand opportunities for negotiation of meaning, and support more sustained oral production than exclusively teacher-fronted instruction. The review also indicates that open referential questions and extended wait-time improve the quality and length of learner responses. At the same time, the findings suggest that teacher-fronted instruction remains pedagogically valuable when it is used strategically for modeling, scaffolding, feedback, and discourse management. The article concludes that effective EFL teaching requires a principled balance between teacher guidance and learner autonomy, especially in contexts where classroom interaction is a major source of target-language exposure.

Keywords: EFL classroom, classroom organization, interaction patterns, group work, cooperative learning, questioning strategies, wait-time, learner-centered instruction.

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini xorijiy til sifatida (EFL) o'qitish jarayonida sinf tashkiloti va kommunikativ o'zaro ta'sir shakllarining ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Unda sinf ishtirokchilari tashkiloti, o'quvchi-markazli ta'lim, guruhli ish, kooperativ o'qitish, savol berish strategiyalari va kutish vaqti bo'yicha muhim ilmiy manbalar umumlashtirildi. Tahlil natijalari kichik guruh va juftlikdagi faoliyatlar o'quvchi nutqini ko'paytirishi, ma'no bo'yicha muzokara imkoniyatini kengaytirishi va og'zaki nutqning davomiyligini oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, ochiq referensial savollar hamda kutish vaqtining uzaytirilishi o'quvchi javoblarining sifati va hajmini yaxshilashi aniqlandi. Shu bilan birga, o'qituvchi-markazli faoliyat til namunalari berish, tayanch ko'rsatish, baholash va diskursni boshqarishda o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Xulosa sifatida, ayniqsa dars jarayoni maqsadli til bilan muloqotning asosiy manbai bo'lgan EFL sharoitida, samarali ta'lim o'qituvchi rahbarligi va o'quvchi mustaqilligi o'rtasidagi ilmiy asoslangan muvozanatni talab qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: EFL sinfi, sinf tashkiloti, o'zaro ta'sir modellari, guruhli ish, kooperativ o'qitish, savol berish strategiyalari, kutish vaqti, o'quvchi-markazli ta'lim.

Аннотация. В статье анализируется влияние организации класса и коммуникативных моделей взаимодействия на обучение английскому языку

как иностранному (EFL). В работе обобщаются ключевые исследования по организации участников урока, обучению, ориентированному на учащегося, групповой работе, кооперативному обучению, стратегиям постановки вопросов и времени ожидания. Анализ показывает, что работа в парах и малых группах увеличивает объем речевой практики учащихся, расширяет возможности для согласования значения и способствует более развернутой устной речи по сравнению с исключительно фронтальным обучением. Кроме того, открытые референтные вопросы и увеличение времени ожидания повышают качество и объем ответов учащихся. В то же время фронтальное обучение сохраняет педагогическую значимость, если используется целенаправленно для моделирования языка, педагогической поддержки, обратной связи и управления дискурсом. Делается вывод о том, что эффективное обучение в условиях EFL требует научно обоснованного баланса между руководящей ролью преподавателя и автономией учащихся, особенно там, где класс является главным источником общения на изучаемом языке.

Ключевые слова: EFL-класс, организация класса, модели взаимодействия, групповая работа, кооперативное обучение, стратегии вопросов, время ожидания, обучение, ориентированное на учащегося.

INTRODUCTION

4. Halimova Nafisa Murodovna. Maktabda ingliz tili fanini o'qitishda interfaol metodlardan samarali foydalanish.
5. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education Limited.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni. (2020). "Chet tillarni o'rganishni ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). *Umumta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi*.
8. Richards, Jack C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.
9. TESOL International Association. (2021). *Standards for English Language Teaching*.

MONITORING THE DEVELOPMENT OF READING AND WRITING SKILLS OF GRADE 10–11 STUDENTS THROUGH FORMATIVE AND SUMMATIVE ASSESSMENT

Nazarova Shoirakhon Abdumomin qizi

Doctoral Candidate, National Pedagogical University of Uzbekistan

ABSTRACT: Monitoring the development of reading and writing skills among Grade 10–11 students has become an essential issue in modern foreign language education. These two skills are considered fundamental for academic success and effective communication, particularly in English as a Foreign Language (EFL) contexts. In recent years, the role of assessment has shifted from merely evaluating students' performance to supporting and guiding their learning process. In this regard, formative and summative assessment have gained increasing attention as

complementary approaches that can ensure both continuous development and objective evaluation.

Keywords: *formative assessment, summative assessment, reading skills, writing skills, EFL learners, learning monitoring, student progress, feedback, self-assessment, peer assessment, secondary education, language learning, academic achievement, classroom assessment, skill development.*

АННОТАЦИЯ: Мониторинг развития навыков чтения и письма у учащихся 10–11 классов стал одной из актуальных проблем в современной методике преподавания иностранных языков. Данные навыки являются ключевыми для академической успеваемости и эффективной коммуникации, особенно в условиях изучения английского языка как иностранного (EFL). В последние годы роль оценивания изменилась: оно перестало быть лишь инструментом контроля знаний и стало средством поддержки и направления учебного процесса. В этом контексте формативное и суммативное оценивание рассматриваются как взаимодополняющие подходы, обеспечивающие как непрерывное развитие учащихся, так и объективную оценку их достижений.

Ключевые слова: *формативное оценивание, суммативное оценивание, навыки чтения, навыки письма, учащиеся EFL, мониторинг обучения, прогресс учащихся, обратная связь, самооценка, взаимооценка, среднее образование, изучение языка, академическая успеваемость, оценивание в классе, развитие навыков.*

ANNOTATSIYA: 10–11-sinf o'quvchilarining o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishni monitoring qilish zamonaviy chet tilini o'qitish tizimida muhim masalalardan biriga aylangan. Ushbu ikki ko'nikma, ayniqsa ingliz tilini chet til sifatida o'rganish (EFL) jarayonida, akademik muvaffaqiyat va samarali muloqot uchun asosiy omil hisoblanadi. So'nggi yillarda baholashning roli faqatgina o'quvchilarning natijalarini aniqlashdan ularning o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlash va yo'naltirishga o'zgardi. Shu nuqtai nazardan, formativ va summativ baholash o'zaro uyg'unlashgan yondashuvlar sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda, chunki ular uzluksiz rivojlanishni ta'minlash va obyektiv baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: *formativ baholash, summativ baholash, o'qish ko'nikmalari, yozish ko'nikmalari, EFL o'quvchilari, o'quv jarayonini monitoring qilish, o'quvchi rivoji, fikr-mulohaza (feedback), o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, o'rta ta'lim, til o'rganish, akademik yutuq, sinfda baholash, ko'nikmalarni rivojlantirish.*

Traditionally, summative assessment has been the dominant form of evaluation in many educational systems. It focuses on measuring students' achievement at the end of a specific period, such as a unit, term, or academic year. While it provides clear and standardized results, it often fails to capture the learning process and does not offer timely feedback for improvement. On the other hand, formative assessment is an ongoing process that takes place during learning. It involves various techniques such as peer assessment, self-assessment, teacher feedback, and reflective activities. These strategies help students identify their strengths and weaknesses and make necessary adjustments in their learning.

Recent pedagogical research emphasizes that formative assessment plays a crucial role in developing higher-order thinking skills, learner autonomy, and

motivation. Continuous feedback allows students to engage more actively in the learning process and take responsibility for their progress. In contrast, summative assessment ensures accountability and provides measurable evidence of learning outcomes. Therefore, integrating both approaches creates a balanced assessment system that supports both learning and evaluation.

Several scholars have highlighted the effectiveness of formative assessment in improving academic performance. Feedback, in particular, has been identified as one of the most influential factors in learning. It not only helps students understand their mistakes but also guides them towards better performance. Self-assessment and peer assessment are also important components, as they encourage reflection and critical thinking. At the same time, summative assessment remains important for certification and comparison purposes. It allows teachers and institutions to evaluate the overall effectiveness of instruction.

The present study adopts a mixed-method research design to explore how formative and summative assessment can be used to monitor the development of reading and writing skills. This approach combines quantitative and qualitative data to provide a comprehensive understanding of the issue. Quantitative data were collected through pre-tests and post-tests, while qualitative data were obtained from classroom observations, student reflections, and teacher feedback.

The participants of the study included 60 students from Grade 10–11 in secondary schools. They were divided into two groups: an experimental group and a control group. The experimental group was exposed to formative assessment strategies, while the control group followed traditional teaching methods with limited feedback. This division allowed for a comparative analysis of the effectiveness of different assessment approaches.

Various instruments were used to collect data. These included reading comprehension tests, writing tasks, observation checklists, student portfolios, and reflective journals. The use of multiple tools ensured the reliability and validity of the findings. Portfolios, in particular, provided valuable insights into students' progress over time, as they contained samples of their work and teacher feedback.

The study was conducted over a period of 12 weeks. During this time, the experimental group engaged in activities such as peer review, self-assessment, and regular feedback sessions. Students were encouraged to reflect on their learning and identify areas for improvement. Teachers played an active role in guiding students and providing constructive feedback. At the end of the study, both groups completed summative assessments to measure their performance.

The results of the study revealed significant differences between the experimental and control groups. Students who were exposed to formative assessment strategies showed greater improvement in both reading and writing skills. In reading tasks, they demonstrated better comprehension, including the ability to identify main ideas, infer meaning, and analyze texts critically. In writing tasks, they showed improvements in organization, coherence, vocabulary use, and grammatical accuracy.

One of the key findings of the study is that formative assessment enhances student engagement and motivation. Continuous feedback helps students stay

focused and actively participate in the learning process. It also increases their confidence, as they receive regular support and guidance. Furthermore, formative assessment promotes self-regulated learning, as students become more aware of their learning strategies and outcomes.

At the same time, summative assessment provided clear evidence of students' achievement. The results of the final tests confirmed the progress observed during the study. Summative assessment also allowed for comparison between the two groups, highlighting the effectiveness of formative strategies. However, it is important to note that summative assessment alone would not have been sufficient to achieve these results. It is the combination of both approaches that creates a comprehensive monitoring system.

The integration of formative and summative assessment offers several advantages. It ensures continuous monitoring of student progress, provides timely feedback, and allows for objective evaluation. This approach also supports differentiated instruction, as teachers can adapt their methods based on students' needs. Moreover, it aligns with modern educational principles that emphasize student-centered learning and active participation.

Despite its benefits, the implementation of formative assessment may face certain challenges. These include time constraints, lack of teacher training, and large class sizes. Teachers need to be equipped with the necessary skills and resources to effectively use formative assessment strategies. Professional development programs can play a crucial role in addressing these challenges.

In conclusion, the study demonstrates that the integration of formative and summative assessment significantly improves the monitoring of reading and writing skills among Grade 10–11 students. Formative assessment supports the learning process by providing continuous feedback and promoting engagement, while summative assessment ensures reliable evaluation of outcomes. Together, they create an effective system that enhances student achievement and supports long-term development. Therefore, educators are encouraged to adopt a balanced assessment approach in their teaching practices.

References

- 1) Black, P., & Wiliam, D. (1998). *Assessment and classroom learning*. London: Routledge.
- 2) Brookhart, S. M. (2017). *How to Give Effective Feedback to Your Students*. 2nd Edition. Alexandria, VA: ASCD.
- 3) Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81–112.
- 4) Wiliam, D. (2011). *Embedded Formative Assessment*. Bloomington, IN: Solution Tree Press.
- 5) Panadero, E. (2017). A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research. *Frontiers in Psychology*, 8, 422.
- 6) Tseng, W. T., & Yeh, H. T. (2021). Formative assessment in EFL writing classrooms: A systematic review. *Language Teaching Research*, 25(3), 412–436.

- 7) Li, J., & Zhang, X. (2022). Blended learning and formative assessment in secondary English education. *Journal of Language Teaching and Research*, 13(2), 245–258.
- 8) Chen, P. Y., & Chen, W. H. (2019). Using formative assessment to improve high school students' reading comprehension. *TESOL Journal*, 10(3), e00410.
- 9) Lee, I. (2017). Classroom-based assessment for young learners of English. *ELT Journal*, 71(4), 399–408.
- 10) Boud, D., & Molloy, E. (2018). *Feedback in higher and professional education: Understanding it and doing it well*. London: Routledge.

PEDAGOGIK MULOQOTNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Xudayberdiyeva Ozoda Hojiakbar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Norquvvatova Mehribon To'yli qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Choriyeva Soliha Shuhrat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Mengliyeva Dildora Anvar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Turg'unpo'latov Diyorjon Ro'zmamat o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqot tushunchasining tavsifi, ta'lim jarayonidagi pedagogik muloqot va uning bugungi kundagi ko'rinishlari, pedagogik muloqotning muammo va kamchiliklari chuqur tahlil qilinadi. Pedagog va o'quvchilar orasidagi dolzarb masala bo'lgan pedagogik muloqotning o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Pedagogik muloqotning psixologiya bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: muloqot, pedagog, psixologiya, ta'lim jarayoni, muammo va kamchiliklar, pedagogik mahorat.

Annotation. This article provides a description of the concept of communication, pedagogical communication in the educational process, and its modern forms. The problems and shortcomings of pedagogical communication are deeply analyzed. The role and significance of pedagogical communication, which is an actual issue between teachers and students, are revealed. The direct connection between pedagogical communication and psychology is demonstrated.

Keywords: communication, pedagogy, psychology, educational process, problems and shortcomings, pedagogical skills.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие общения, педагогическое общение в образовательном процессе и его современные

формы. Глубоко анализируются проблемы и недостатки педагогического общения. Раскрывается роль и значение педагогического общения как актуальной проблемы во взаимоотношениях между учителем и учащимися. Показана прямая связь педагогического общения с психологией.

Ключевые слова: общение, педагогика, психология, образовательный процесс, проблемы и недостатки, педагогическое мастерство.

Insonning yashashi, rivojlanishi, shaxs bo'lib shakllanishi uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz tasavvur qilish juda qiyin. Muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari, ta'sirlari, ma'lumot hamda axborot almashishiga doir ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Taniqli psixolog S. L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: “Kundalik hayotga, odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq - atvoriga mo'ljallanmiz. Negaki biz ularning tanqidiy ma'lumotlariga, ma'lumotlari mohiyatini go'yo o'qib, ya'ni mag'zini chaqib chiqamiz va shu yo'sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz”. Bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalarimiz ma'lum darajada ancha qiyin hamda murakkabdir. Zero, oldimizda turgan vazifani ado etish faoliyatida ancha keng bilim va tafakkurni talab etadi. Bugun kishining ichki xohish-irodasi, shaxsiy qarorigina bunday majburiyat hissini uyg'ota oladi. Shuning uchun ham muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Muloqotsiz ijtimoiy tajribani ta'lim oluvchilarga taqdim etish imkonsizdir. O'qituvchidan esa nutq va muloqot madaniyatini, notiqlik san'atini puxta egallashi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Yoshlarning bilim olishlari, intilishlarini, o'qituvchiga yoki tengdoshlarining ichki olamiga yaqinlashtirish uchun atrofida qilargalari uning nazari bilan qarash, yondashish, ularni tinglash va tushunish ular uchun muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida muloqotini shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi ham muhim o'rin egallaydi. Ta'lim berish jarayonida yoshlarga kuchli ta'sir etadigan so'zlarni qo'llasangiz ham u qabul qilmasligi, o'qituvchining bergan ko'rsatmalarigizga amal qilmasligi mumkin. Chunki bolada yoshligidan muomala madaniyatini shakllantirib borishda maqsad to'g'ri qo'yilishi lozim bo'ladi. Muloqot nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, avvalo oilada, mahallada, jamoada, guruhda shakllanib boradi. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofida qilargalari bilan nizolarga borishi mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar nafaqat bilimlarni o'rganishga jalb etiladilar, balki ularning muloqotga bo'lgan ehtiyojlari ham qondiriladi. Shu asosda o'quvchilarda o'z-o'zini namoyon etish, ijod qilish, o'zliklarining yaxshi jihatlarini ko'rsatish ko'nikmalari ham shakllantiriladi. Shaxsda ko'nikma, bilim, malakalarning hosil bo'lishida esa muloqotning o'rni beqiyos. Shu sababli ham o'qituvchi mehnatining natijasi sifatida uning o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlashni to'g'ri tashkil etishi, ular bilan muloqotga kirishishi, ular faoliyatiga rahbarlik qilishini ko'rsatish mumkin. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi muomala va muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi ularning o'zaro bir-birlarini tushunmasligi ular orasida qiyinchilikni vujudga keltiradi, hamda o'quv-tarbiya jarayonini murakkablashtiradi,

ijtimoiy tajribasini ta'lim oluvchilarga yetkazilishini qiyinlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning yangi xarakterdagi shaxsiy tajribani hosil qilishlariga to'sqinlik qiladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayoni kasbiy pedagogik faoliyatning mazmuni va muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, shaxslararo muloqotning boshqa shakllariga nisbatan pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti va hamkorligidagi o'ziga xoslik o'quvchilarning rivojlanishlariga xizmat qilishidadir. Pedagogik muloqot o'qituvchining shunday muloqotiki, uning yordamida o'quvchilarning istak va hohishlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratiladi, o'quv faoliyatining ijodiy xarakterga ega bo'lishini ta'minlanadi, ularning shaxsiyatini samarali shakllantirish imkoniyatlarini vujudga keltiriladi, o'quv jarayonida qulay hissiy muhit yaratiladi, jamoada ijtimoiy-psixologik jarayonning boshqarilishi ta'minlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonida o'qituvchining shaxsiy xususiyatlaridan yuqori darajada foydalanish imkoniyati tug'iladi. Samarali pedagogik muloqotni yo'lga qo'yish uchun o'qituvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi:

o'z xulq - atvorini boshqara bilishi;

diqqatning sifatini ta'minlashi;

ijtimoiy persepsiyaga ega bo'lishi va o'quvchining qiyofasidan uning kechinmalarini o'qiy olishi;

o'quvchi shaxsiyatini mos tarzda modellashtirish, tashqi belgilar asosida uning ruhiy holatini anglash;

nutq orqali muloqotni o'rnatish;

o'quvchilar bilan nutq yordamida hamda nigohlar orqali aloqaga kirishish va shu kabi ko'nikmalar. Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadining barcha jihatlarini amalga oshirishda turli ta'lim metodlarini birgalikda qo'llash zarur. Yuqorida ta'kidlangan bir qator ijobiy fikrlarga qaramay, bugungi kunda pedagog va o'quvchilar orasidagi muloqot eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chunki, mazkur muloqotning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda muammo va kamchiliklari ham yetarlicha uchrab turibdi. Ziddiyat-(lot. conflictus – qarama-qarshilik, konflikt) – tomonlarning yoki hamkorlikdagi sub'ektlarning qarama-qarshi yo'nalishdagi manfaatlari, maqsadlari, pozitsiyalari, fikr va qarashlari to'qnashuvidir. Ziddiyat har doim ham yuzaga kelgan nizolarni hal etishning samarali usuli bo'lib hisoblanmaydi, chunki nizo jarayonida paydo bo'ladigan kuchli emotsiyalar oqibatida tafakkur jarayonlari sekinlashadi, uning doirasi torayadi, psixikaning eng sodda qatlamlari (instinktlar, impulsiv xatti-harakatlar) ishga tushadi. Ammo ziddiyatlarni hal qilishning yagona yo'li ziddiyatga kirish bo'lsa, bu jarayondagi tashabbuskorlikni o'z qo'lingizga olishingiz lozim. Chunki konfliktga ongli tarzda kirish orqali uni boshqarish mumkin. Shuni esda tutish lozimki, doimiy tarzda ko'p martalab ziddiyatga kirish sog'liq uchun zararlidir. Konfliktni qanday qilib boshqarish mumkin? Buning uchun kishidan o'z emotsiyalarini nazorat qilish, qalbaki sabablardan haqiqiy sabablarni ajratib olish, ziddiyatni lokallashtirish, faqat himoyaga diqqatni qaratishdan qochish, tashabbuskorlikni o'z qo'lida ushlab turish talab etiladi. Ziddiyatni hal etishning

to'rtta yo'li mavjud: bo'ysundirish, kompromiss, qochish va integratsiya. Oxirgi yo'l eng qiyin, lekin uni amalga oshirish mumkin. Ziddiyatli vaziyatlardan chiqishni bilmaslik, har qanday kishi uchun muomala jarayonida paydo bo'ladigan ko'plab kundalik qiyinchiliklarni yengib o'tish, jismoniy va psixik sog'liqqa putur etkazuvchi emotsional stresslarga olib keladi. Bu holatni psixologlar shaxslararo muomaladagi to'siqlar, deb atashadi. Muomaladagi to'siqlar – bu ziddiyatlar paydo bo'lishiga imkon yaratuvchi juda ko'p omillardir. Bu to'siqlar muomalaga kirishuvchi shaxslarning maqsadlari va ehtiyojlari birbiriga mos kelmasligi oqibatida yuzaga keladi. Insonni asabiylilik va jizzakilikka olib keladigan yana bir omil – bu o'z ishiga qiziqishning so'nishi yoki qiziqishning umuman yo'qligidir. O'z ishiga nisbatan negativ munosabat insonda salbiy emotsiyalarni, zo'riqishni, agressivlikni keltirib chiqaradi. Qarama-qarshi istaklar kurashi to'sig'idan tashqari ko'pincha xarakterlar nomutanosibligi to'sig'i ham muomala jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Ko'pincha, oilaviy mojarolarda, qo'shnilar, hamkasblar o'rtasidagi bir-birini yoqtirmaslik holati sababini «xarakterimiz to'g'ri kelmadi», deb tushuntirishadi.

Mashhur psixiatr Karl Leongard «20-25% kishilarda xarakter yoki temperamentning ma'lum qirralari shunday kuchli namoyon bo'lgan bo'ladiki, ma'lum sharoitlarda ziddiyatlarga, asab zo'riqishlariga olib keladi», deydi. Shuni yodda tutish kerakki, har qanday kishining o'z «nozik joy»lari, ojiz tomonlari bo'ladiki, muomalada xuddi shu tomonlarni tanqid ostiga olish yaramaydi. Yana bir to'siq nevroz xastaligi bilan bog'liqdir. Nevrozning asosiy sababi – kuchli emotsional stress, chiqib ketish mumkin bo'lmaydigan psixik jarohatlovchi vaziyatdir. Amalda qisqa muddatli nevroz holati hammada ham bo'lishi mumkin. Nevrozga duchor bo'lgan kishilarda ziddiyatlar tez-tez yuzaga keladi va ular chuqurroq va og'irroq kechadi. G'am-qayg'u oqibatida yuzaga keladigan to'siqlar bilan har bir inson to'qnash keladi. Qayg'u inson ruhiyatini shu darajada zanjirband etadiki, kishining boshqa odamlarga diqqat e'tibor qaratishiga umid qilmasa ham bo'ladi. Bu holat fojeali voqealar, o'z ahvolidan qoniqmaslik, og'ir jismoniy his-tuyg'ular oqibatida yuzaga keladi. Har qanday vaziyatda ham, inson g'am-qayg'usining qay darajaligidan qat'iy nazar uni tinch qo'yish lozim. Azoblanish doimiy davom etmaydi, vaqt hamma narsani davolaydi. G'azab tufayli paydo bo'ladigan muomala to'siqlarini engib o'tish juda qiyin, shuning uchun bunday paytda kishining sabr-toqatini sinash kerak emas. Chunki g'azab jismoniy va psixik energiyani ikki barobar oshiradi va so'zlarda yoki agressiv xatti-harakatlarda bu energiyani «to'kib-solish» ehtiyojini paydo qiladi. Xarakterning ma'lum qirralari hazar qilish to'sig'ini keltirib chiqarishi mumkin, ammo bu gohida sinfiy va milliy aqidalar natijasida yuzaga kelib, uni yengib o'tish juda qiyin yoki umuman iloji yo'q. Shaxslararo munosabatlarda qo'rquv to'sig'i – engib o'tish eng qiyin bo'lgan to'siqlardan biri sanaladi. Qo'rquv sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Muomaladagi sherikning qo'rquv to'sig'ini engib o'tish, ushbu sabablarni qay darajada to'g'ri topishingizga bog'liq bo'ladi. Uyat va ayb to'sig'i o'zining yoki boshqa birovning o'rinsiz xatti-harakati tufayli yuzaga keladi. Uyat hissi kishida ko'pincha tanqid yoki haddan ziyod maqto'v natijasida paydo bo'ladi. Haddan tashqari uyatchan yoki umuman uyatdan begona odamlar bo'ladi. Bunday o'quvchilar bilan ishlash alohida pedagogik mahoratni talab qiladi. Uyatga berilmaydigan

kishilar o'zlari uchun psixologik himoya usulini ishlab chiqishgan: ular ko'p hollarda hamma shunday xatti-harakat qilishi mumkinligiga o'zlarini ishontirishadi, tanqidni eshitishmaydi, o'zlarini oqlaydigan motivlarni topishadi. Aybni his etishning yuqori va quyi darajalari bir xilda odamlar orasidagi psixologik aloqaga ziyon etkazadi. Idrok etish to'siqlari suhbatda fikrlarni aniq ifodalay olmaslik asosida paydo bo'ladi. Nutq toni uning ma'nosi kabi muhimdir. Emotsional qashshoq nutqning qalbga va yurakka yo'l topishi qiyin. Noo'rin anglashilmovchiliklarning oldini olish uchun qo'llanilayotgan so'zlarning aniq ma'nosini yetkaza olish lozim. Bunday ko'nikmani o'zida mujassamlashtirhan pedagog faoliyati davomida qiyinchilikka uchramaydi. Inson haqidagi ilk tasavvurning to'la bo'lishi uchun uni idrok qilishga ijobiy yondashishga harakat qilish, nafaqat uning tashqi ko'rinishiga, balki mimika, jestlari va tana holatlariga ham e'tibor qaratish talab etiladi. To'siqlarning yana bir guruhi muomala texnikasi va ko'nikmalari bilan bog'liqdir. Gohida muomala usullaridan o'z g'arazli maqsadlarida foydalanadigan shaxslar uchraydi. Bunday kishilarning xatti-harakatini aniqlashga o'rganish uchun «muomaladagi manipulyasiya», «pozitsiya», «rol», «niqob» kabi tushunchalar ma'nosini o'zlashtirish talab etiladi.

Taniqli psixolog A.A. Dobrovich muomaladagi manipulyasiyalarni tizimlashtirgan. Ularning asosiy mazmuni quyidagilardir: manipulyasiyadan foydalanuvchi shaxslar suhbatdoshning asoslangan ayblovidan qutulish maqsadida, har qanday arziyas xatoni «yuzga solishadi», o'z aybini boshqaga to'nkaydilar, izzat nafsga teguvchi gaplar bilan kishini muvozanatdan chiqarishga, u bilan ma'lum vaqtga aloqani uzishga harakat qilishadi, topshiriq va majburiyatlarni bajarishdan qochish maqsadida o'zini yomon his etayotganligini bahona qilishadi. Rollarni niqoblardan ajrata olish lozim. Niqob suhbatdoshga bo'lgan haqiqiy munosabatni va haqiqiy emotsiyalarni yashirishga imkon yaratadigan yuz ifodalari, jestlar, standart iboralar yig'indisidir. Bugungi zamon talabi shuni ko'rsatadiki, pedagog nafaqat o'qituvchi, balki, psixolog, notiq, qisman manipulyatur ham bo'lishi lozim.

Bulardan biri o'qituvchining auditoriyani to'liq qamrab ololmasligidir. Buning asosiy sababi pedagogning bilimsizligi deyish to'g'ri emas. Ba'zida yuqori salohiyatli kadrlarning faoliyatida ham bunday muammolar ko'zga tashlanib turadi. Shubhasizki, buning tag zamirida pedagogik muloqotning yetishmasligi yoki me'yoridan ortiqchiligidir. Bundan xulosa qilish mumkinki, o'qituvchi nafaqat bilimli bo'lishi, shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning e'tiborini torta bilishi, auditoriyani boshqara olishi kerak. Bunday ko'nikmalar pedagogik muloqotda o'rgatiladi. Yana bir tez-tez uchrab turgan eng katta muammolardan biri bu-o'qituvchining o'quvchilar yoki ularning ota-onalari tomonidan hurmatsizlanishi. Bu faqat o'qituvchining obro'yiga putur yetkazib qolmasdan, balki, pedagogik kasbning ham qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday muammoning sabablari bir nechta bo'lishi mumkin. Birinchidan, pedagogning o'ziga bo'lgan ishonchining pastligi. Mavzuni yetkazib berishda qiynalishi va boshqalar. Buni o'quvchilar juda tez payqashadi. So'ng o'qituvchiga va uning bilimiga bo'lgan hurmati pasayadi. Buning oqibatida, ustozni kamsitish, obro'yiga putur yetkazish kabi nojo'ya harakatlar sodir bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ota-onalarning o'qituvchi bilan munosabati. Ko'pchilik ota-onalar farzandlarini ortiqcha erkalatib, ustoziga bo'lgan muomalani o'rgatmaslidir.

Shuning uchun o'quvchi maktabda ham ustoziga erkalik qilishi mumkin. Buning oqibatida, pedagogik muloqot buziladi. Bunday muammolarni umumlashtirib aytganda, tadqiqotlar jarayoni shuni ko'rsatadiki, pedagogning o'z shaxsiy chegarasi yo'qligi. O'quvchi bilan o'ta yaqin bo'lishi yoki o'ta uzoq bo'lishi. Yana bir holatda esa o'qituvchi va o'quvchining muloqotiga boshqa uchinchi shaxs aralashuvi bo'lishi mumkin. Har qanday holatda ham pedagogik muloqotda asosiy rolni o'qituvchi bajaradi. O'qituvchining bilim salohiyati, psixologik holati, notiqlik san'ati va yana bir qator pedagogik mahoratlari uning har tomonlama yetuk kadr bo'lishida tayanch vazifa bajaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot muammolarining asosiy sabablari yetarlicha rivojlanmagan kommunikativ kompetensiya, hissiy stress, empatiya va mulohazaning yo'qligi va avtoritar muloqot uslublarining keng tarqalganligidir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar nafaqat professional bilimga, balki yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik tayyorgarlikka ham ega bo'lishlari kerak. Talabaga yo'naltirilgan yondashuv, hamkorlikdagi muloqot va ijobiy psixologik muhitni rivojlantirish pedagogik muloqot samaradorligini oshirishning muhim shartlari sifatida aniqlandi. Albatta ta'lim jarayonidagi pedagogik muloqotning sifatiga pedagogning psixologiyasi ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Xususan, S.B. Abdullaeva o'zining "Pedagogik muloqot asoslari" asarida pedagogik muloqotni ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida baholaydi va muloqotga psixologik to'siqlar va noto'g'ri muloqot usullarining salbiy oqibatlarini asoslaydi.[2; 95]

G.M. Karimova o'zining ta'lim psixologiyasi doirasidagi tadqiqotida muloqot muammolarini o'qituvchining hissiy holati va empatiya darajasi bilan bog'laydi va ularni bartaraf etishda refleksning muhimligini ta'kidlaydi. R.G. Joraev pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali ta'lim muhitida ijobiy psixologik muhit yaratish imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.[3; 70]

Ushbu tadqiqotning maqsadi pedagogik muloqotda yuzaga keladigan muammolarni ilmiy va pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish va ularni hal qilishning samarali usullarini aniqlash edi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pedagogik muloqot ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning sifati o'qituvchi-talaba munosabatlarining samaradorligini belgilaydi. Muloqotdagi kamchiliklar o'rganish sifatining pasayishiga, psixologik muhitning yomonlashishiga va talabalarning faolligining pasayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot muammolarining asosiy sabablari yetarlicha rivojlanmagan kommunikativ kompetensiya, hissiy stress, empatiya va mulohazaning yo'qligi va avtoritar muloqot uslublarining keng tarqalganligidir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o'qituvchilar nafaqat professional bilimga, balki yuqori darajadagi kommunikativ va psixologik tayyorgarlikka ham ega bo'lishlari kerak. Talabaga yo'naltirilgan yondashuv, hamkorlikdagi muloqot va ijobiy psixologik muhitni rivojlantirish pedagogik muloqot samaradorligini oshirishning muhim shartlari sifatida aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik muloqotni takomillashtirish o'qituvchilardan o'zlarini doimiy ravishda takomillashtirishni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni va ta'lim jarayonida ochiq va samarali muloqot muhitini yaratishni talab qiladigan doimiy jarayon ekanligini ta'kidlash kerak. Ushbu

tadqiqot natijalari ilmiy va amaliy ahamiyatga ega, chunki ular o'qitish amaliyotida muloqot madaniyatini rivojlantirishga va ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell Publishing Ltd, 2003. - 515 p.
2. FarrepS. Who's Running UoigSageeg? Creating stable work in unstable times. Austin (TX). 2012.
3. "TUSHKUN KAYFIYATNING BILIMLARNI PUXTA EGALLASHGA SALBIY TA'SIRI", Ma'murova F., Abdullayeva N., Talaba Abdumalikova M., Materials of the X international scientific conference on December 1–2, Prague, 2019
4. A.K.Xamidov davlat tilida ish yuritish. Toshkent "metodist nashriyoti" 2023
5. psixologiya.T.2010
6. **Internet saytlari:**
7. www.ziyonet.uz
8. www.ziyouz.com kutubxonasi
9. www.pedagog.uz
10. www.inter-pedagogika.ru

TANQIDIY FIKRLASHNI FAOLLASHTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR, MASHQLAR VA MUAMMOLI VAZIYATLAR TAHLILI

Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li

Associate Professor, NamSIFL

Namangan, To'raqo'rg'on, Uzbekistan

+99893 913 76 16

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni faollashtirishning pedagogik asoslarini, amaliy usullarini va muammoli topshiriqlar tizimini ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tanqidiy fikrlashning asosiy tarkibiy komponentlari, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar va mashqlar turlari, muammoli vaziyatlarni yaratish va tahlil qilish metodologiyasi ko'rib chiqiladi. Amaliy tavsiyalar va pedagoglarga mo'ljallangan usuliy ko'rsatmalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lim, kognitiv faollik, topshiriqlar tizimi, mashqlar, muammoli vaziyat, pedagogik texnologiya, metakognitiv ko'nikmalar, tahlil va sintez, ta'lim strategiyasi, divergent fikrlash.*

АННОТАЦИЯ: Данная статья посвящена научному анализу педагогических основ активизации критического мышления в образовательном процессе, практических методов и системы проблемных заданий. В исследовании рассматриваются основные структурные компоненты критического мышления, виды заданий и упражнений, направленных на его развитие, а также методология создания и анализа проблемных ситуаций. Представлены практические рекомендации и методические указания для педагогов.

Ключевые слова: критическое мышление, проблемное обучение, когнитивная активность, система заданий, упражнения, проблемная ситуация, педагогическая технология, метакогнитивные навыки, анализ и синтез, стратегия обучения, дивергентное мышление.

ANNOTATION: This article is devoted to the scientific analysis of pedagogical foundations for activating critical thinking in the educational process, practical methods, and a system of problem-based tasks. The study examines the main structural components of critical thinking, types of tasks and exercises aimed at its development, and the methodology for creating and analyzing problem situations. Practical recommendations and methodological guidelines for educators are presented.

Keywords: *critical thinking, problem-based learning, cognitive activity, task system, exercises, problem situation, pedagogical technology, metacognitive skills, analysis and synthesis, learning strategy, divergent thinking.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim paradigmasi shaxsning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida belgilab olgan. XXI asr talab qilayotgan kompetensiyalar ro'yxatida tanqidiy fikrlash muammoni hal etish, qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlar bilan birga etakchi o'rinni egallaydi [1]. O'zbekiston Respublikasida ta'limni isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan ushbu yo'nalishda ta'lim mazmuni va metodlarini yangilashni ko'zda tutadi.

Biroq pedagogik amaliyotda tanqidiy fikrlashni maqsadli ravishda faollashtiruvchi topshiriqlar tizimining ishlab chiqilishi, muammoli vaziyatlarni didaktik jihatdan asoslangan holda qurish, hamda ularning samaradorligini baholash masalalari hali etarli darajada tahlil etilmagan. Ko'pgina o'qituvchilar tanqidiy fikrlashni "tabiiy ravishda shakllanadigan" qobiliyat deb hisoblab, uni maxsus pedagogik qurollar orqali rivojlantirish imkoniyatidan foydalanmaydilar [2].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi topshiriqlar, mashqlar va muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali pedagoglarning metodik arsenalini boyitish mumkin.

Tanqidiy fikrlashning pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilishi

Tanqidiy fikrlash - bu muammoga nisbatan haqqoniy, puxta asoslangan yondashuv bo'lib, u faqat savol berish emas, balki javoblarni tekshirish, taqqoslash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi [3]. Bloom taksonomiyasiga ko'ra, bilish jarayonining yuqori darajalari - tahlil, sintez va baholash - tanqidiy fikrlashning asosini tashkil etadi.

1-rasm. Bloom taksonomiyasi va tanqidiy fikrlash faollik zonasi.

Paul va Elder (2006) modeliga ko'ra, tanqidiy fikrlash quyidagi sakkiz intellektual standartni qamrab oladi: aniqlik, to'liqlik, tegishlilik, mantiqiylik, chuqurlik, kenglik, haqqoniylik va ahamiyat [4]. Ushbu standartlar ta'lim muassasalarida o'quv topshiriqlarini loyihalashda mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

Tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi topshiriqlar tasnifi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: tahliliy, baholovchi va ijodiy topshiriqlar. Har bir guruh o'ziga xos kognitiv operatsiyalarni talab etadi.

1-jadval.

Tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi topshiriqlar tasnifi.

3. Amaliy Mashqlar Tizimi

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar tizimi uzluksiz va progressiv tarzda qurilishi lozim. Quyida eng samarali deb topilgan mashqlar strategik tartibda keltiriladi:

2-rasm. Tanqidiy fikrlash mashqlari tizimining bosqichli modeli.

Suqrotcha suhbat usuli: Sokrat suhbat - tanqidiy fikrlashni uyg'otishning eng qadimiy, ammo bugungi kunda ham dolzarbligi yo'qolmagan usuli. Bu usulning mohiyati savollar zanjiri orqali o'quvchini o'z xulosalari haqiqatini tekshirishga majburlashdan iborat [1]. Usulning texnologik ketma-ketligi:

- **Ochiq savol bilan boshlash** - "Sizningcha, nima uchun...?"
- **Javobni kengaytirish** - "Fikringizni misol bilan izohlang"
- **Taxminni sinovdan o'tkazish** - "Agar ... bo'lsa, nima o'zgaradi?"
- **Qarama-qarshi nuqtai nazar** - "Bu fikrga kim qo'shilmaydi va nima uchun?"
- **Metakognitiv savol** - "Siz bu xulosaga qanday keldingiz?"

3.2. KWL Texnikasi (Know – Want – Learned)

KWL jadvali o'quvchining bilim oldi bilimlarini faollashtirib, yangi ma'lumotni tanqidiy o'zlashtirish uchun zamin hozirlaydi:

2-jadval.

KWL jadvali namunasi.

De Bononing "Olti Shlyapa" Texnikasi

Edward de Bononing "Olti rangli shlyapa" texnikasi parallel fikrlashni, ya'ni bir muammoni bir vaqtning o'zida turli perspektivalardan ko'rib chiqishni ta'minlaydi [3]:

3-rasm. De Bononing "Olti rangli shlyapa" parallel fikrlash texnikasi.

Muammoli vaziyatlarning didaktik tasnifi va yaratish metodologiyasi

Muammoli ta'lim nazariyasi M.I.Maxmutov va A.M.Matyushkin tadqiqotlarida ilmiy asoslab berilgan [2]. Muammoli vaziyat — o'quvchi o'zining mavjud bilimlari bilan yangi masalani hal etolmasligini anglaydigan, lekin uni hal etish uchun zarur aqliy salohiyatga ega bo'lgan pedagogik vaziyatdir.

Muammoli vaziyatlar quyidagi to'rt turga bo'linadi:

3-jadval.

Muammoli vaziyatlar tasnifi (Maxmutov, 1975 asosida takomillashtirilgan).

Muammoli Vaziyat Yaratishning Algoritmik Tartibi

Pedagog muammoli vaziyatni yaratishda quyidagi algoritmik ketma-ketlikka amal qilishi lozim:

4-rasm. Muammoli vaziyat yaratishning algoritmik sxemasi.

Tanqidiy Fikrlashni Baholash Ko'rsatkichlari

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholashda bir qator xalqaro reyting shkalalaridan foydalaniladi. Quyida keng qo'llaniladigan baholash matritsasi keltirilmokda:

4-jadval.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini baholash rubriki.

Samaradorlik Tahlili: Empirik Ma'lumotlar

Tadqiqot jarayonida 120 nafar talaba va 45 nafar pedagog ishtirokida o'tkazilgan kuzatuv va so'rovnoma natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni berdi:

5-rasm. Tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasi (tajriba va nazorat guruhlar solishtirmasi).

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, muammoli o'qitish texnologiyalaridan tizimli foydalanilgan tajriba guruhida argumentatsiya ko'nikmasi 41% ga, tahlil qilish ko'nikmasi esa 38% ga oshgan. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 16% va 14% ni tashkil etgan. Farq statistik jihatdan muhim ($p < 0,05$) [4].

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR.

Amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi xulosalar chiqarishga imkon berdi:

Tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi — u maqsadli pedagogik ta'sir ostida, tizimli mashqlar, muammoli topshiriqlar va refleksiv muhit orqali rivojlanadi.

Eng samarali pedagogik texnologiyalar sifatida kejs-stadi, Sokrat suhbat, "Olti shlyapa" va muammoli loyihalash metodlari ishonchli natijalari bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatlar yaratishda pedagog uchun muhim shartlar: real hayotiy kontekst, ziddiyat elementining mavjudligi, va o'quvchi uchun hal etish imkoniyatining borligi.

Tanqidiy fikrlashni baholashda faqat mahsulot (to'g'ri javob) emas, balki jarayon (qanday fikrladi) ham asosiy mezon bo'lishi kerak.

Pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar:

Har bir darsda kamida bitta ochiq yoki muammoli savol qo'llanish;

O'quvchilarga javob berish uchun "kutish vaqti" (wait-time) berish — kamida 5-7 soniya;

"Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?" savolini tizimli qo'llash;

Haftalik tanqidiy fikrlash topshiriqlarini o'quv rejaga kiritish;

Guruh muhokamalarida barcha nuqtai nazarlarni tenglik asosida ko'rib chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction*. The California Academic Press. — 112 b.
2. Mahmud, M. I. (1975). *Problemnoye obucheniye: osnovnyye voprosy teorii*. Moskva: Pedagogika. — 367 b.
3. De Bono, E. (1985). *Six Thinking Hats: An Essential Approach to Business Management*. Little, Brown and Company. — 196 b.
4. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. Prentice Hall. — 288 b.
5. Halpern, D. F. (1998). Teaching critical thinking for transfer across domains. *American Psychologist*, 53(4), 449–455.

CHET TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR

Atamirzayeva E'zoza Bekmirzayevna

Namangan davlat chet tillari instituti

Nemis va fransuz tillari kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

+998993911984

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada talabalarga fransuz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metod, ta'limiy o'yinlar va interaktiv mashq turlari xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Og'zaki nutq, metod, interfaol darslar, innovatsion texnologiyalar, kichik dialog, rolli o'yinlar, juft nutq, yakka nutq.*

ANNOTATION. This article discusses methods, educational games, and types of interactive exercises that help develop students' oral communication skills in French language.

Keywords: *Oral speech, oral communication, method, interactive lessons, innovative technologies, short dialogue, role play, pair speaking, individual speaking.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются методы, обучающие игры и виды интерактивных упражнений, способствующие развитию у студентов навыков устной речи на французском языке.

Ключевые слова: *Устная речь, метод, интерактивные занятия, инновационные технологии, короткий диалог, ролевая игра, парная речь, индивидуальная речь.*

O'qitishning interfaol usullarini bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga faol jalb qilingan bo'ladilar, ular o'rganayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rnini qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Bugungi kunda til ta'limiga innovatsion texnologiyalarni keng miqyosida joriy etish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Xususan, D.Bespalko, L.Kamenskiy, I.Pestalossi, J.Yo'ldoshevlarning ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsiya, axborot texnologiyasining va unda inson omili munosabat qo'yilgan talablar usul va uslublari pedagogik tizimning natijasini ozgina bo'lsa ham samarali tomonga siljishga qaratilgan bo'lib, hozirgi 50-60% dan (pedagogik tizimning maksimal natijasi) hech bo'lmaganda 5 - 10% ga o'stirishga olib kelishidan iborat (4; 13-b).

Ma'lumki chet tilini o'rganish jarayoni boshqa fanlarga nisbatan ancha murakkab hisoblanib, chet tili darsi kichik guruhlarda olib borilishi talab etiladi. Buning asosiy sababi har bir talabaga alohida yondashish zarurligi, talabalar o'zga til qoidalarini anglab, o'zlashtirishlariga ko'proq vaqt sarflanishidir. Mezon bo'yicha chet tili o'rganuvchi guruhda maksimal 12-15 ta talaba bo'lishi nazarda tutiladi, shuningdek til o'rganishda qo'llaniladigan metodlar, mashq va vazifalar ham asosan o'rtacha 12 ta talabaga mo'ljallangan bo'ladi (1; 37-b).

Fransuz tili darsida talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda avval taqlidiy mashqlardan boshlash, so'z va iboralarni yodlatish maqsadga muvofiq. Bu mashqlar ma'lum vaqt davomida kichik dialoglar, rolli o'yinlar bilan almashtirilishi, mavzular oldindan berilishi kerak. Shundagina talabalar qadam-baqadam chet tilida gapirishni o'rganadilar. Eng so'nggi bosqichda talabalar o'zlari fransuz tilida erkin so'zlashlari, muloqot vaziyatlarida ifoda vositalari, jumla va iboralarni o'zlari tanlashlari mumkin bo'ladi.

Bunday natijaga erishish uchun chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuv zarurdir. Hozirgi kunning talabi chet tili darslarida kommunikativ metoddan foydalanish, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish. Fransuz tili darslarida talabalarning og'zaki nutq yaxshi rivojlanmaslik sabablarini quyidagilar bilan izohlash mumkin.

1. Guruhda talabalarning gapirishda xato qilishidan qo'rqishi;
2. Talabalarda so'z boyligining kamligi;
3. Darsda har bir talaba gapirishi uchun vaqtning yetarli emasligi.

Shuningdek, talabalar og'zaki nutqini yaxshi rivojlanmaganligi ulardagi so'z boyligini kamligida ham ko'rinadi. Og'zaki nutqda so'z va jumlarlar tashqi nutqqa chiqariladi, agar talabada yetarlicha so'z boyligi bo'lmasa, samarali muloqot tashkil qilish mushkul. (7; 112-b). Shu bois fransuz tili darsida muntazam ravishda so'z boyligi ustida ishlash maqsadga muvofiqdir, darsdan tashqari vaqtlarda ham talabalar so'z va nutq birliklarini yod olishlari kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'z yoki jumalarni yodlashda ular ma'lum mavzuga oid bo'lishi, shu so'z va jumalarni albatta og'zaki nutqda qo'llash yaxshi natija berishini e'tiborga olish kerak.

Amaliyotda axborot kommunikatsiya vositalari ishtirok etgan metodlardan foydalanilganda og'zaki nutqning rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi kuzatildi. Quyida biz talabalar og'zaki nutqini rivojlantirishga hizmat qiladigan metodlarni taklif etamiz:

1. Do'stinga qo'ng'iroq. (5 daqiqa)

Talabalarga muloqot mavzusi aks etgan kartochkalar beriladi, ushbu kartochkalarda nutq birliklari, muloqotning qisqacha mazmuni aks ettirilgan. Talabalar avvaliga o'z sheriklarini topib oladilar va telefon orqali suhbat qurishga juftlikda tayyorgarlik ko'radilar. Tayyorgarlik uchun 5 minut vaqt beriladi. Metoddan ko'zlangan maqsad talabalarda juftnutqni rivojlantirish, fransuz tilida telefon orqali suhbat qurish qoidalari, me'yorlar va suhbatda qo'llaniladigan nutq birliklari o'rgatish, o'rganilayotgan til madaniyati shakllantirishdir.

Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, ushbu metod yordamida talabalar rasmiy va norasmiy telefon suhbatlari jarayoni qanday kechishini o'zlarida sinab ko'radilar. Metodning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, talabalar o'z do'stlari bilan darsdan tashqari vaqtlarda ham telefon orqali fransuz tilida suhbat qurish orqali gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga erishishlari mumkin.

1. Videolavha

Bu loyiha metodining bir ko'rinishi bo'lib, bu metodning maqsadi talabalarning turli muloqot vaziyatlarida o'zlarini tutishlari, fransuz tilida kundalik muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirishdir.

Talabalar tomonidan ma'lum bir mavzu yuzasidan kichik videolavha tayyorlanadi (ovqatlanish joylarida (restoran, kafe, universitet oshxonasi), aptekada, supermarketda, oziq-ovqat magazinida, kiyim-kechak do'konida).

Videolavhalarda voqea-hodisalarning real tarzda kechishi talabalarning fransuz tilida to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishishini, darslarda o'rgangan so'z va iboralarni, grammatik qoidalarni jonli til muhiti orqali amaliy qo'llashni ta'minlaydi.

3. Kichik video orqali mavzuni tushintirib berish.

Talabalarga turli mavzular beriladi ular mavzuni fransuz tilida yoritib beradilar. Buning uchun ular ma'lum bir mavzuda 1-3 minutlik kichik video tayyorlaydi. Ushbu video orqali ular mavzuni tushintirib beradi. Mavzuni yoritishda talaba istagan usulini tanlashi mumkin, ya'ni animatsion usulda videomaterial tayyorlash, ko'rgazmali material (rasm yopishtirish, chizish) yordamida, tayyor videomaterialdan foydalanishi mumkin. Tayyorlangan videolar dars rejasiga qarab namoyish etiladi, takliflar, yutuq va kamchiliklar dars oxirida aytilishi mumkin. Mazkur metodning maqsadi talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish, gapirish jarayonida mazmunan to'g'ri jumla va gaplarni qo'llay olish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishdir.

4. Ovozli xabar

Talabalar o'tilgan mavzu haqidagi fikrlari, berilgan uyga vazifa muhokamasi, mavzuni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar haqida telefondagi telegram programmasi yordamida o'z guruhlariga yoki do'stlariga fransuz tilida ovozli xabar jo'nata dilar (2,87-b).

Bu metoddan asosan bir modul yakunida takrorlash darsida foydalanish tavsiya etiladi. Ya'ni, modul yakunida talabalar qanday bilimlarga erishganliklari, qaysi mavzu ularga qiyinchilik tug'dirganligini ovozli xabar orqali og'zaki ifodalaydilar. Dars davomida talabalarning xabarlarini eshittiriladi va butun guruhda muhokama qilinadi. Metoddan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarda fransuz tilidagi yakka nutqni o'stirish, o'tilgan mavzuni qanchalik darajada o'zlashtirganligini aniqlash va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini darsga noan'anaviy yondashgan holda orttirishdir.

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, chet tilida og'zaki nutqni rivojlantirishda talaba shaxsining ham alohida o'rni bor. Eng asosiysi talabaning o'zida gapirish uchun motivatsiya bo'lishi shart. Og'zaki nutqni amalga oshishi talabaning xarakteri, ijtimoiy faolligi, hamkorlikda ishlash qobiliyatiga bevosita bog'liq bo'lib, o'qituvchi tajribali va yetarli bilim egasi bo'lishiga qaramay, aksari talabalarda gapirish ko'nikmasi yaxshi rivojlanmasligi kuzatiladi.

Chunki, fransuz tili darslarida talabalar o'qituvchining murojaatini kutadi va faqat o'qituvchi tomonidan so'ralgan talabalargina gapiradi, qolganlar esa faqat tinglaydi. Aynan shu vaqtda faqat tinglovchiga aylangan talabalarda gapirishga bo'lgan ishtiyoq tushib ketadi.

Tadqiqot ishimiz jarayonida fransuz tili mashg'ulotlarida ushbu metod va usullardan foydalanish fransuz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda samarali natijalar berishi aniqlandi.

1) Jamoada bilim, ko'nikma, malakalarni birga guruh bo'lib o'zlashtirish imkoniyati bo'ldi;

2) Talabalarning darslarda faolligi oshdi;

3) Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasi rivojlantirildi.

Chet tilni mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalar fransuz shu tilda iloji boricha erkin, ravon, aniq gapirishni va tinglovchilar ularni to'liq tushinishini xohlaydilar. Shuning uchun ham til o'rganishning asosiy maqsadi ular uchun chet tilda erkin muloqot hisoblanadi. Fransuz tilida erkin muloqot qilishga erishish uchun talaba nafaqat grammatik, leksik, fonetik bilimlariga ega bo'lishi, balki tilning psixologik, lingvistik mexanizmlarini bilishi, o'z o'rganish uslubiga ega bo'lishi, kundalik hayotda ishlatiladigan so'z va iboralarni o'rganishi, fransuz madaniyatidan boxabar bo'lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Jalolov J.J Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri.- Toshkent.: -2012.-432 b.
2. Avlayev O., Jo'rayeva S. Mirzayeva S. Ta'lim metodlari. T.: Navro'z nashriyoti. -2017-yil. 207-b.
3. Tursunov H. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kommunikativ kompetensiyalarini didaktik o'yinlar vositasida shakllantirish. ped.fan.bo'yicha fals. dok. (PhD) diss.-Namangan, 2022.-167 b.
4. Ёўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш.-Т.: "Fan va texnologiya", 2008. - 132 б.
5. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. - Т.: Ўқитувчи, 2009. Б-6.
6. Рахманов И. Некоторые теоритические вопросы методики обучения иностранным языкам в среднем школе.-Изд.3-е перебр.М.1991 187.стр.
7. Мерганова. N "Nemis tilini mutaxassislik sifatida o'rganuvchi talabalarda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi". ped.fan.bo'yicha fals. dok. (PhD) diss.-Fargona-2021.-146 b.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI LEKSIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

ANOTATSIYA. Bu maqolada ingliz tili o'qituvchilarining o'quvchilarning so'zlar zaxirasini rivojlantirish metodikasini muhokama qilib o'tamiz. Mavzuni o'rganishda, o'qituvchilar o'quvchilarga leksik ma'lumotlarini o'rgatishda qanday usullarni ishlatishlari, o'quvchilarning lug'atdan foydalangan holda so'zlar va ifodalar ustida ishlovchi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola metodikasining afzalliklarini, muammolarni va yechimlarni ta'riflash, tahlil qilish va takomillashtirishni o'rgatish bo'yicha tushunchalarni ko'rsatish hamda amaliy dasturlash usullari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *Leksik tushuncha, takomillashtirish, metodika, kompetensiya.*

ABSTRACT. In this article, we will discuss the methodology of English language teachers to develop students' vocabulary. In the study of the topic, what methods teachers use to teach students lexical information, the characteristics of

students working on words and expressions using the dictionary are important. The advantages of the article methodology, the definition of problems and solutions, the analysis and improvement of teaching concepts, and practical programming methods are shown.

Key words: *Lexical understanding, improvement, methodology, competence.*

АННОТАЦИЯ. В этой статье мы обсудим методику учителей английского языка по развитию словарного запаса учащихся. При изучении темы, какие методы используют преподаватели для преподавания учащимся лексической информации, важны особенности работы учащихся над словами и выражениями с использованием словаря. Показаны преимущества методологии статьи, определения проблем и решений, анализа и совершенствования концепций обучения, методов практического программирования.

Ключевые слова: *Лексическое понимание, совершенствование, методика, компетентность.*

KIRISH

Ingliz tili o'qitishida leksik kompetensiyani takomillashtirishning metodikalari va muhimligi O'zbekistonda ta'lim sohasining taraqqiyot yo'lidagi katta vazifalardan biri hisoblanadi. Leksik kompetensiya, o'quvchining so'zlar zaxirasini tushunish, foydalanish va o'z ifodalarini shakllantirishda ishtirok etishga asoslangan bo'lib, maqsadga mos usullar va dasturlash bilan rivojlantirilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qituvchilar o'quvchilarga tayyorlaydigan so'z va til haqidagi darsda o'quvchilar o'qituvchi yordamida so'zlardan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar. Ular yangi so'zlarni o'rganishga va ularni jumalalarda qanday ishlatishga e'tibor berishadi. Olimlar so'zlarni qanday o'rganishimiz va ishlatishimizni o'rganishdi va ular buni "leksik mahorat" deb atashadi. Bu ko'nikma biz gapirganda va yozganda so'zlardan to'g'ri foydalanishni o'z ichiga oladi. So'zlarni va tilni o'rganish orqali biz ularni kundalik muloqotimizda yaxshiroq qo'llashimiz mumkin.

Chet tilida yangi so'zlarni o'rganishdan asosiy maqsad nutq ko'nikmalarini oshirishdir. Lug'atni o'rganishning uch bosqichi mavjud. Birinchi bosqich - yangi so'zlarni bilish, ikkinchi bosqich - ularni nutqda qo'llash, uchinchi bosqich - turli xil nutq ko'nikmalarini o'zlashtirish. Ushbu bosqichlarni o'rganish, mashq qilish va so'zlarni haqiqiy suhbatlarda ishlatish bilan solishtirish mumkin. [3.160-bet]

Ta'lim maqsadlaridan ko'zlanadigan vazifa chet til leksikasini o'rgatish jarayonining ko'nikmalar hosil qilish pallasida yakuniy ish hisoblanmish leksikaning qo'llanilish darajasiga erishishdan iborat. Ushbu kichik mavzu nomida ishlatilgan „Qo'llanilish“ termini (ruscha adabiyotlarda „употребление“, „оперирование“, „функционирование“) so'zning reproduktiv va retseptiv nutqda kelishi ma'nosini ifodalaydi. „Qo'llash“ deyilsa, „fikir bayon etish“ nazarda tutiladi, „tanib olish“ tushunchasi esa „o'zga shaxs nutqini idrok etish“ bilan bog'liq. Qisqasi, „qo'llanilish“ deganda, til birligi (mas. leksik birlik)ning nutq faoliyatining to'rtala turida ham ishlatilishi tushuniladi (rus „оперирование“).[5.123-bet]Leksikaning qo'llanilishi ko'nikma hosil

qilishda oxirgi bosqich bo'lib, ma'nosi ochilgan va nutqda ishlatila boshlagan

so'zning nutq jarayonida erkin ishlatilishi — ko'nikmalardan malakaga o'tish davriga to'g'ri keladi. Mashq qilishdan nutq amaliyotiga qadam qo'yish — fikr bayon qilishda ong ishtirokisiz leksikani ishlatish tushuniladi.

NATIJALAR

Nutqni idrok qilish va uni sodir etish jarayonlarida leksikani qo'llash operatsiyalari turlicha bo'lishi metodik asoslangan. Undan tashqari xufiya lug'at boyligining ham o'ziga xosligi aniqlandi. Ushbu leksika o'quvchilar til tajribasida ilgari uchramagan, ular ilk bor duch kelayotgan leksik birliklarni maxsus tasnif qilish zarur.

Nutqiy leksik operatsiyalarning gapirishga oid turini bu birliklarning birikishi (so'z birikmalari) va ulaming jumla tarkibida qo'llanishi (gap tuzish) tarzida ta'riflash mumkin. Nutqni idrok etish chog'ida esa boshqa amal bajariladi: og'zaki/ yozma nutq idroki paytida o'quvchilarda hosil qilingan eshitish/ko'ruv timsollarini tanlay olish, akustik/grafik tayanchlarni eshitganda^rganda ajrata olish kabilar. Ulami mashqlarda ishlatish uchun mayda operatsiyalarga ajratish darkor. So'zning reproduktiv nutqda qo'llanishiga xos ishlar quyida tahlil etiladi.

Birinchi operatsiya: zarur so'zning tovush shakli eslanadi, ya'ni tanish leksik birlik ishga tushadi. Ushbu birlik uzoq muddatli (doimiy) xotiradan qisqa muddatli (operativ) xotiraga o'tkaziladi (ma'lumki, o'zlashtirilgan so'z doimiy xotirada saqlanadi, nutq esa qisqa muddatli xotira ishtirokida sodir bo'ladi). So'zni eslash chog'ida uni paradigmatic tartibdan sintagmatic holatga o'tkazishdek murakkab jarayon kuzatiladi. Mas. gapirmoq, gapirish, gap, gapiraman, gapiradi kabilar xotirada „qatlam“ shaklida saqlanadi. Jumlagi kiritish yonma- yon keladigan so'zga bog'lab joylashtirish demakdir (Men inglizcha gapiraman, u ispancha gapiradi va h/k.). So'zning oson qiyinligini uning ko'p ma'noliligi, ona tili va chet tilda ma'no doirasi tor/kengligi, ma'nodosh (sinonim)lari bor/ yo'qligi belgilab beradi.

Ikkinchi operatsiya: so'zning sintaktik va leksik birikish darajasini aniqlash. Leksik birikish deganda ma'noviy munosabatga kirish, sintaktik birikish esa muayyan so'z tartibining taqozo etilishidir. Ikkala holat ona tiliga mos kelsa, amal osonlashadi. So'zning birikishi farq qilganda, amal qiyin kechadi.

Uchinchi operatsiya: jumladagi bo'sh joyni to'ldirish. Bemalol birika oladigan so'zni ishlatish erkinroq kechadi, birikish imkoniyati chegaralangan so'zni ishlatishda qiyinchilik seziladi. Nutqni idrok etish operatsiyalari passiv lug'at materialida bajariladi. O'qish (so'zning grafik timsoli)ni idrok etish operatsiyalari quyidagilardan iborat: Birinchi operatsiya leksik birlikning yozma (grafik) timsolini idrok etish. Bunda so'zning qisqa/uzunligi (qisqa so'z oson idrok qilinadi), grafema (harf, harf birikmalari)ning tanish/notanishligi, ona tilidagi so'z shakliga

o'xshash/noo'xshashligi kabilar muhim ahamiyatga molikdir. Ikkinchi operatsiya: leksik birlik belgilarini aniqlash. Bunda yozuv (grafik) belgilari (harf birikmasi) va tuzilish — ma'no belgilari (o'zak, yasama so'z) nazarda tutiladi. So'zdagi morfemalarning tanishligi qiyinchilikni bartaraf etish omillaridandir. Ko'p bo'g'inli so'zni idrok etish qiyinchilik bilan kechadi. Uchinchi operatsiya: leksik birliklarni farqlash va o'xshatish. Morfema (o'zak, affiks) yaxshi tanish bo'lsa, o'quvchi oson idrok etib tushunadi. So'z tarkibi ma'nolarini ochish oson bo'lsa, uni tanib olish yengillashadi, agar o'zak yoki affiks ma'nosini ochish murakkablik qilsa, tanib olish, ya'ni farqlash yoki o'xshatish qiyinlashadi.

To'rtinchi operatsiya: idrok qilinadigan shaklni ma'nosi bilan bog'lash (fahmiga yetish, tushunib olish), o'z navbatida, butun jumlaning (yoki jumladan katta matnni) tushunib yetish. So'zning ko'p ma'noliligi tushunishga xalal yetkazish ehtimoli bor. Tub yoki majoziy ma'no tufayli so'zni tanib olish qiyinchiligi turlicha bo'ladi. Shakl va ma'noning o'quvchi ongida aloqada bo'ladigan tillarda o'xshash yoki tafovutli bo'lishi oson/qiyin tanib olishga sabab bo'ladi.[6.78-bet]

MUHOKAMA

Chet til leksikasi tasnifida ona tili bilan bir qatorda ikkinchi tilga oid o'quvchi tajribasi hisobga olinmog'i zarur. Leksikaning metodik tasnifi ilmiy manbalarda bir tekis ta'riflangan emas. Birmuncha chalkash va ziddiyatlarga mo'ljallan metodik tadqiqotlar ham yo'q emas. Binobarin, aniq bir chet tilni o'rganish uchun tayyorlanadigan til materialini tasnifi, jumladan, leksika tasnifi, odatda, darslik mualliflari vakolatiga havola etiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek o'quvchisi uchun inglizcha leksika tasnifi yoki ispancha, nemischa, fransuzcha leksika tasnifi rus, tojik va boshqa o'quvchilarinikidan batamom farq qiladi. Demak, metodik tasnif xususiy metodika fanining vazifasiga kiradi. Metodik tasniflangan leksik birliklar til o'rgatish jarayonini tashkil qilishda, bajariladigan mashqlar sistemasida hisobga olinadi. Leksik ko'nikmalarni shakllantirishning samaradorligi tasnif sifatiga bog'liq bo'ladi.

XULOSA

Takidlash joizki bu maqolada leksik kompetensiyani takomillashtirishning metodikalari va muhimligi muhokama qilingan. Mavzu haqida amaliy va nazariy adabiyotlar, metodlar, darsliklar va onlayn resurslar ko'rsatilgan. Ushbu maqola o'quvchilarning so'zlar zaxirasini oshirish va rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan eng samarali usullar va dasturlar haqida ma'lumotlar beradi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning leksik ko'nikmalarini oshirishda muhim o'zgarishlarni ko'rsatadi. Dars jarayonida o'quvchilarning leksik kompetensiyasini takomillashtirish uchun amaliy usullar va dasturlarning samarali bo'lishini baholash maqsadida muhokama va baholashning muhimligi yoritilgan.

ADABIYOTLAR RO'XATI

1. Душеина Т.В. "Проектная методика на уроках иностранного языка". ИЯШ, 2003, № 5.2. В.Б. Попов "Интернет-технологии и развитие образования" Воронеж, ВГПУ, 2001.
3. Кирягина, М. Е. (2012). Педагогические инновации в образовании. Вестник Казанского технологического университета, 15(18).
4. Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития. / В сб. материалов научно-практической конференции «Актуальные вопросы профессионального воспитания молодежи». – АлмаАта: Респ. издат. каб. казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. –С. 235-240.
5. Потапова Р.К. Новые информационные технологии и филология. СПб., 2004.
6. Ибрагимова, Г. Н. (2015). Педагогик инновациялар ёрдамида талабаларнинг креатив қобилиятларини шакллантириш. Современное образование (Узбекистан), (3)
7. O'zbek tilining izoxli lug'ati. "Moskva", 1981y.

USE OF HEDGING AND BOOSTING DEVICES IN EFL STUDENTS' RESEARCH WRITING: A CORPUS-BASED STUDY

Najmidinova Shaxnoza Abdullajon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet Tillari Instituti stajyor-o'qituvchisi

ABSTRACT. This study investigates the use of hedging and boosting devices in research writing produced by EFL university students through a corpus-based approach. Hedging and boosting are important rhetorical strategies that help writers express appropriate levels of certainty and caution in academic discourse. A learner corpus consisting of 60 research papers written by undergraduate EFL students was compiled and analyzed using both quantitative and qualitative methods. The frequency and types of hedges and boosters were identified and compared with patterns reported in expert academic writing. The findings reveal that students tend to overuse boosters while underusing hedging devices, indicating limited awareness of academic stance-taking conventions. The study suggests the need for explicit instruction in academic discourse features to improve students' research writing competence.

Keywords: *hedging, boosting, academic writing, EFL students, learner corpus, corpus-based analysis, stance-taking, academic discourse, metadiscourse.*

АННОТАЦИЯ. В данном исследовании анализируется использование средств хеджирования и усиления в научных работах студентов, изучающих английский язык как иностранный, на основе корпусного подхода. Эти риторические средства позволяют авторам выражать степень уверенности и осторожности в академическом дискурсе. Был создан учебный корпус из 60 исследовательских работ студентов бакалавриата, который был проанализирован с применением количественных и качественных методов.

Результаты показывают, что студенты чаще используют усилители и редко применяют средства хеджирования, что свидетельствует о недостаточном понимании норм академического письма. Исследование подчеркивает необходимость целенаправленного обучения академическим дискурсивным стратегиям.

Ключевые слова: *хеджирование, усиление, академическое письмо, студенты EFL, учебный корпус, корпусный анализ, выражение авторской позиции, академический дискурс, метадискурс.*

ANNOTATSIYA. Mazkur tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan universitet talabalari tomonidan yozilgan ilmiy ishlarida ehtiyotkorlik (hedging) va kuchaytirish (boosting) vositalaridan foydalanishni korpusga asoslangan yondashuv orqali o'rganadi. Ushbu vositalar akademik nutqda fikrning aniqlik va ehtiyotkorlik darajasini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot uchun 60 ta bakalavr talabalarining ilmiy ishlari asosida o'quvchi korpusi tuzildi va miqdoriy hamda sifat tahlili amalga oshirildi. Natijalar talabalar kuchaytiruvchi vositalarni ko'p, ehtiyotkorlik vositalarini esa kam ishlatishini ko'rsatdi. Bu esa akademik yozuv konventsionalarining yetarli darajada shakllanmaganligini anglatadi. Tadqiqot akademik yozuvda diskursiv strategiyalarni aniq o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *ehtiyotkorlik vositalari, kuchaytirish vositalari, akademik yozuv, EFL talabalari, o'quvchi korpusi, korpusga asoslangan tahlil, pozitsiya bildirish / muallif pozitsiyasini ifodalash, akademik diskurs, metadiskurs.*

Introduction.

Academic writing requires not only grammatical accuracy but also appropriate rhetorical strategies to express stance and evaluation. Among these strategies, hedging and boosting devices play a crucial role in managing the strength of claims. Hedging allows writers to present statements cautiously, while boosting enables them to express certainty and confidence. For EFL students, mastering these devices is particularly challenging due to limited exposure to authentic academic discourse. Previous studies suggest that novice writers often struggle to balance certainty and caution, which affects the perceived credibility of their research writing. Therefore, this study aims to explore how EFL students use hedging and boosting devices in their research papers and to identify potential gaps in their academic discourse competence.

Literature Review

Hedging has been defined as linguistic devices that reduce the strength of statements, such as modal verbs, adverbs, and epistemic verbs (Hyland, 1998). Boosters, on the other hand, express certainty and emphasize claims, often through adverbs, adjectives, and assertive verbs (Hyland, 2005). Academic writing norms encourage cautious claims, especially in empirical research, to acknowledge alternative interpretations and maintain scholarly politeness. Corpus-based studies have shown that expert writers use hedges more frequently than student writers, reflecting a more sophisticated control of academic stance (Hyland & Milton, 1997). Learner corpus research also indicates that EFL students tend to rely heavily on strong assertions, which may appear overly confident or subjective (Ädel & Erman, 2012). Moreover, cultural and educational backgrounds influence how students

express certainty and doubt in writing (Vassileva, 2001). Despite growing interest in stance markers, limited research has focused on EFL students in Central Asian contexts, making it necessary to explore how local learners employ these rhetorical features.

Methodology

This study employed a corpus-based descriptive and comparative research design, integrating both quantitative and qualitative analytical procedures. The quantitative component focused on identifying the frequency and distribution of hedging and boosting devices across the learner corpus, while the qualitative component examined the contextual and functional appropriateness of these devices within argumentative and interpretive sections of research papers. This mixed analytical approach enabled a more comprehensive understanding of students' stance-taking behavior in academic writing.

The participants were 60 undergraduate EFL students enrolled in an English language and literature program at a public university in Uzbekistan. The students were in their third and fourth academic years and had previously completed courses in academic writing and research methodology. The corpus consisted of final versions of research papers submitted as part of course requirements. Papers ranged from 1,800 to 2,500 words, resulting in a total corpus size of approximately 120,000 words. To ensure ethical compliance, all personal identifiers were removed, and students provided informed consent for their texts to be used for research purposes. The corpus was compiled following standard learner corpus construction principles, including representativeness, authenticity, and consistency of genre.

A list of hedging and boosting devices was developed based on Hyland's (2005) interpersonal model of metadiscourse. Hedging devices included modal verbs (may, might, could), epistemic verbs (seem, appear, suggest), adverbs (possibly, likely), and adjectives (probable). Boosting devices included emphatic adverbs (clearly, definitely), adjectives (obvious, certain), and assertive verbs (prove, demonstrate, show). To enhance reliability, the taxonomy was cross-checked with previous corpus-based studies, and ambiguous items were excluded to avoid misclassification. Only items functioning as stance markers were counted, excluding cases where words served non-epistemic grammatical functions. The corpus was processed using corpus analysis software to generate frequency lists and concordance lines. Frequencies were normalized per 1,000 words to allow for comparison with findings from previous studies. After initial automatic retrieval, concordance lines were manually examined to verify whether each item functioned as a hedge or booster in context.

For qualitative analysis, samples of sentences containing stance markers were coded according to their rhetorical function (e.g., presenting results, interpreting findings, making claims, acknowledging limitations). Misuse, overgeneralization, and pragmatic inappropriateness were also identified and categorized. To ensure analytical reliability, a second trained rater independently coded 20% of the corpus data. Inter-rater agreement reached 0.87 using Cohen's Kappa, indicating high reliability. Discrepancies were discussed and resolved through consensus.

Results

The quantitative analysis revealed that boosting devices occurred at a rate of 14.6 per 1,000 words, whereas hedging devices appeared at only 6.2 per 1,000 words. This imbalance suggests a strong preference for certainty and emphasis in students' academic writing. Compared to expert academic corpora reported in prior studies, where hedging typically exceeds boosting, the learners' writing demonstrates a reversed pattern. Among hedging devices, modal verbs such as *may* and *might* accounted for nearly 45% of all hedges, while epistemic verbs and adverbs were underrepresented. Devices such as *it seems that* and *it is likely that* appeared rarely. Regarding boosters, emphatic adverbs (*clearly, definitely*) and assertive reporting verbs (*prove, show*) were dominant. The limited lexical variety suggests reliance on a narrow range of formulaic expressions, indicating restricted pragmatic and lexical repertoire.

Boosters were most frequently used in the Results and Conclusion sections, where students often made strong generalizations based on limited data. Hedging devices were more commonly found in the Literature Review section, though still infrequent. Very few hedges were used when discussing limitations, suggesting low awareness of rhetorical expectations for cautious interpretation. Qualitative analysis showed that students often used boosters in contexts that required caution, such as interpreting correlational data as causal relationships. In some cases, hedging devices were used redundantly or incorrectly, for example combining multiple hedges unnecessarily, which reduced clarity. Some stance markers were also used inappropriately due to literal translation from the first language.

Discussion

The findings indicate that EFL students exhibit limited pragmatic competence in managing academic stance. The dominance of boosting devices suggests that students equate academic authority with strong, confident assertions. This may stem from educational traditions that value certainty and teacher-centered knowledge transmission, where questioning and tentative claims are less emphasized. The restricted range of hedging expressions further reflects limited exposure to authentic academic texts and insufficient instruction in discourse-level features of writing. While students may possess grammatical knowledge of modal verbs, they appear to lack awareness of their rhetorical functions in argumentation.

Additionally, cultural rhetorical norms may influence students' reluctance to express uncertainty, as cautious claims could be perceived as weakness. This supports intercultural rhetoric perspectives that academic conventions are socially constructed and must be explicitly taught. The misuse of boosters in result interpretation raises concerns about students' understanding of research ethics and responsible reporting. Overstated claims can misrepresent findings and reduce the credibility of academic work. Therefore, teaching stance markers is not merely a linguistic issue but also an epistemological one related to research literacy.

Conclusion

This corpus-based study examined the use of hedging and boosting devices in EFL undergraduate students' research writing. The results revealed an overuse of boosting devices and insufficient use of hedging strategies, indicating limited awareness of academic stance conventions. Students relied on a narrow range of

lexical items and frequently employed strong assertions even in contexts requiring cautious interpretation. These findings highlight the necessity of integrating explicit instruction on stance and metadiscourse into academic writing curricula. Teaching should include analysis of authentic research articles, contrastive comparison between student and expert writing, and guided practice in rewriting claims with appropriate levels of certainty. Corpus-based pedagogical tools may also help students notice and internalize disciplinary conventions. The study contributes to learner corpus research by providing empirical evidence from an under-researched educational context. However, the study is limited by its focus on a single institution and academic level. Future research should include cross-disciplinary comparisons, longitudinal designs to track developmental changes, and intervention studies to evaluate the effectiveness of instructional approaches in improving stance control. Ultimately, developing students' ability to balance caution and confidence is essential for producing credible and ethically responsible academic writing, and this competence should be regarded as a core component of EFL research writing instruction.

References

1. Ädel, A., & Erman, B. (2012). Recurrent word combinations in academic writing by native and non-native speakers of English. *English for Specific Purposes*, 31(2), 81–92.
2. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). *Corpus linguistics: Investigating language structure and use*. Cambridge: CUP.
3. Hyland, K. (1998). Hedging in scientific research articles. Amsterdam: John Benjamins.
4. Hyland, K. (2005). *Metadiscourse: Exploring interaction in writing*. London: Continuum.
5. Hyland, K., & Milton, J. (1997). Qualification and certainty in L1 and L2 students' writing. *Journal of Second Language Writing*, 6(2), 183–205.
6. Salager-Meyer, F. (1994). Hedges and textual communicative function in medical English written discourse. *English for Specific Purposes*, 13(2), 149–170.
7. Vassileva, I. (2001). Commitment and detachment in English and Bulgarian academic writing. *English for Specific Purposes*, 20(1), 83–102.

CHET TILINI O'QITISHDA TASK-BASED LEARNING (VAZIFAGA ASOSLANGAN) YONDASHUVINING SAMARADORLIGI

Abdujabborova Marjona Odiljon qizi

NamDCHTI talabasi

marjonaabdujabborova445@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda vazifaga asoslangan ta'lim (task-based learning) yondashuvining nazariy asoslari va amaliyotda qo'llash usullari tahlil qilinadi. TBLT metodikasi amaliy vazifalar orqali o'quvchilarga til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvning an'anaviy

grammatika markazlashgan metodlarga nisbatan samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vazifaga asoslangan o'qitish yondashuvi o'quvchilarning til o'rganishdagi motivatsiyasini oshiradi va tilni real hayotga yaqin kontekstda qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, talabalarning yozma va nutqiy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: *chet tili, vazifaga asoslangan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, til o'rganish, interaktiv metodlar.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты применения метода обучения иностранным языкам на основе выполнения задач (Task-Based Learning). Методика TBLT способствует развитию языковых навыков учащихся посредством выполнения практико-ориентированных заданий. В работе также анализируется эффективность данного подхода по сравнению с традиционными грамматико-ориентированными методами обучения. Результаты исследования показывают, что использование задачного подхода повышает мотивацию учащихся к изучению языка и способствует его применению в условиях, приближенных к реальной жизни. Кроме того, данный метод оказывает значительное влияние на развитие письменных и устных навыков обучающихся.

Ключевые слова: *иностраный язык, обучение на основе задач, коммуникативная компетенция, изучение языка, интерактивные методы.*

ABSTRACT. This article examines the theoretical foundations and practical implementation of Task-Based Learning (TBL) in foreign language teaching. The TBLT methodology facilitates the development of learners' language skills through the use of practical tasks. The study also discusses the effectiveness of this approach in comparison with traditional grammar-focused teaching methods. The findings indicate that task-based instruction increases learners' motivation and enables them to use the language in real-life contexts. Furthermore, this approach significantly enhances both written and spoken language skills of students.

Keywords: *foreign language, task-based learning, communicative competence, language learning, interactive methods.*

Kirish.

So'nggi yillarda chet tillarini o'rganish nafaqat shaxsiy bilimni oshirish, balki xalqaro munosabatlar va global darajada rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. An'anaviy grammatik-tarjima yondashuvlari tilni nazariy jihatdan o'rgatishga asoslangan bo'lsa, zamonaviy metodlar esa o'quvchini mulohaza ko'nikmasini rivojlantirishni va nutqni amaliy qo'llashni asosiy maqsad sifatida ko'radi (Richards & Rodgers, 2014). Shu jumladan, vazifaga asoslangan ta'lim (Task-based learning, TBL) metodikasi tilni kontekstual holatga o'rganishga imkon berib, o'quvchilarni mavzuga oid topshiriqni bajarishga jalb qiladi (Prabhu, 1987). Ushbu yondashuv til o'rganishni aniq maqsadga yo'naltiradi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va o'rganish jarayonini samarali qilishga yordam beradi. TBL yondashuvi zamonaviy chet tili ta'limining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi, chunki u nafaqat til ko'nikmalarini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil faoliyat olib borish, tanqidiy fikrlash va muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Vazifaga Asoslangan Ta'limning Nazariy Asoslari

Vazifaga asoslangan ta'lim – bu til o'rganish jarayonida real hayotga yaqin vaziyatlarda vazifalarni bajarishga asoslangan yondashuvdir (Ellis, 2003). Bu yondashuvda, til o'rganish faqatgina grammatika qoidalarini o'rganish yoki so'z yodlash emas, balki tilni real hayotiy kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Vazifaga asoslangan ta'lim yondashuvi o'quv jarayonini va natijasini o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etishga xizmat qiladi. Ya'ni talabalar vazifa bajarish davomida tildan tabiiy ravishda foydalanadi, natijada bilimlar chuqurroq o'rganiladi va uzoq muddatli xotirada qolishi ta'minlanadi.

Vazifaga asoslangan ta'lim yondashuvi pedagogik va psixologik nazariyalarga tayanadi. Xususan, **kommunikativ yondashuv** – til o'rganishning asosiy maqsadi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi. **Konstruktivistik ta'lim nazariyasi** – o'quvchi bilimni mustaqil tarzda o'zlashtirishi ta'kidlanadi. **Faoliyatga asoslangan o'rganish modeli** – ta'lim jarayonida o'quvchining faol ishtiroki ta'minlanib, o'rganish jarayoni samarali amalga oshirishini ko'rsatadi. Mazkur nazariy asoslar, vazifaga asoslangan yondashuvni ilmiy asoslaydi hamda o'quvchilarning tilni tabiiy ravishda faol o'rganish va real hayotda qo'llay olish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Amaliy qo'llash usullari

Vazifaga asoslangan ta'limni samarali tashkil etish odatda uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv dars jarayonini tizimli tashkil etishni talab qiladi va o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik jarayoni (pre—task) bo'lib, unda yangi mavzu tanishtiriladi va vazifani bajarish uchun kerakli grammatik va leksik birliklar o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilarda vazifa haqida dastlabki tasavvur hosil bo'ladi.

Ikkinchi bosqich – asosiy faoliyat jarayoni (task – cycle) da o'quvchilar berilgan vazifani bajarish uchun faol muloqotda bo'ladi. Ushbu jarayon o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim hisoblanadi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarga yechim topish, o'z fikrlarini erkin ifodalash hamda o'rgangan til birliklarini tabiiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich – yakuniy tahlil va baholash (post – task) jarayoni bo'lib, bajarilgan topshiriq natijalari tahlil qilinadi, xatolar ustida ishlanadi va yakuniy xulosa chiqariladi. Bu bosqich o'quvchilarda o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash ko'nikmalari shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, vazifaga asoslangan o'qitish jarayonida turli interaktiv metodlar, xususan rolli o'yinlar, loyiha ishlari, muhokamalar hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan vazifalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va darsdagi faolligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari

Olib borilgan kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki, vazifaga asoslangan ta'lim o'quvchilarning chet tili o'rganishi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatib ularning faolligini va motivatsiyasini oshiradi. TBL yondashuvi o'quvchilarning nafaqat og'zaki nutqini, balki yozma nutq ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ushbu

yondashuv o'quvchilarni muloqotga kirishishini ta'minlab, tilni real kommunikativ vaziyatlarda erkin foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umuman olganda, TBL yondashuvi an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan yuqori samarali ekanligi bilan ajralib turadi va zamonaviy chet tili ta'limida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, chet tilini o'qitish ta'lim tizimida vazifaga asoslangan o'qitish zamonaviy va samarali yondashuvlardan bir hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi, ularning motivatsiyasini oshiradi hamda tilni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi.

Shu sababli, TBL metodikasini ta'lim jarayoniga keng joriy etish zamonaviy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
2. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.
3. Willis, J. (1996). *A Framework for Task-Based Learning*. Longman.
4. Skehan, P. (1998). *A Cognitive Approach to Language Learning*. Oxford University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Long, M. H. (2015). *Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching*. Wiley-Blackwell.
7. Bygate, M., Skehan, P., & Swain, M. (2001). *Researching Pedagogic Tasks: Second Language Learning, Teaching, and Testing*. Longman.
8. Prabhu, N. S. (1987). *Second Language Pedagogy*. Oxford University Press.
9. Willis, D., & Willis, J. (2007). *Doing Task-Based Teaching*. Oxford University Press.
10. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.

CHET TILLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA AMALIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Vasliddinova Gulsora Faxriddin qizi

NamDCHTI talabasi

Madmusayev Jaxongir Muxtorali o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd), v.b dotsent

Namangan davlat chet tillar instituti

katta o'qituvchisi

e-mail: madmusayevjahongir@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy interaktiv metodlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik, fiziologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, darslarda o'yin texnologiyalari, jismoniy harakat usullari (TPR) hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaralari yoritilgan. Maqolada leksik va grammatik materiallarni interaktiv usulda tushuntirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan hamda ushbu yondashuvning o'quvchilar motivatsiyasiga ta'siri ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tili, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, TPR metodi, AKT, muloqot ko'nikmalari, ta'lim samaradorligi, motivatsiya.

АННОТАЦИЯ. В данной научной статье анализируется значение современных интерактивных методов в обучении английскому языку учащихся начальных классов. Исходя из психологических, физиологических и когнитивных особенностей развития детей младшего школьного возраста, освещается эффективность использования на уроках игровых технологий, методов физического реагирования (TPR) и информационно-коммуникационных технологий. В статье даны практические рекомендации по интерактивному объяснению лексического и грамматического материала, а также научно обосновано влияние данного подхода на мотивацию учащихся.

Ключевые слова: начальные классы, английский язык, интерактивные методы, игровые технологии, метод TPR, ИКТ, коммуникативные навыки, эффективность обучения, мотивация.

ABSTRACT. This scientific article analyzes the importance of modern interactive methods in teaching English to primary school students. Based on the psychological, physiological, and cognitive development characteristics of young learners, the effectiveness of using game technologies, physical response methods (TPR), and information and communication technologies in lessons is highlighted. The article provides practical recommendations for interactive explanation of lexical and grammatical materials and scientifically proves the impact of this approach on student motivation.

Keywords: primary school, English language, interactive methods, game-based learning, TPR method, ICT, communication skills, teaching effectiveness, motivation.

KIRISH

XXI asrda xorijiy tillarni o'rganish shaxs kamolotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, ingliz tilini xalqaro muloqot tili sifatidagi o'rni uning boshlang'ich maktab davridanoq o'qitilishini taqozo etmoqda. Yosh bolalar yangi tillarni o'zlashtirishga nisbatan yuqori moyillikka ega bo'lsalar-da, ularning o'quv faoliyatini tashkil etish o'qituvchidan alohida pedagogik mahorat talab etadi (Cameron, 2001).

Kichik yoshdagi bolalarning diqqati beqaror bo'lib, ular uzoq vaqt davomida bir xil faoliyat bilan shug'ullana olmaydilar. Shuning uchun an'anaviy avtoritar dars usullari kutilgan natijani bermaydi (Jalolov, 2012). Bugungi kunda darslarni interaktiv tarzda tashkil etish nafaqat qiziqarli, balki tilni chuqur o'zlashtirishning yagona kafolatidir. Interaktiv metodlar deganda o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek,

o'quvchilarning o'zaro faol muloqotiga asoslangan, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi ta'lim usullari tushuniladi (Passov, 1989).

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ingliz tili darslarida qo'llaniladigan eng samarali interaktiv metodlarni ochib berish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING PSIXOLOGIK, FIZIOLOGIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI.

Muvaffaqiyatli dars mashg'ulotini rejalashtirish va munosib interaktiv metodni tanlash uchun o'qituvchi o'quvchilarning yosh davrlari psixologiyasi hamda fiziologiyasini mukammal bilishi shart. 7-9 yoshli bolalar bog'cha yoshidan maktab davriga o'tishning krizisli va ayni paytda eng mas'uliyatli pallalarini boshdan kechiradilar. Ushbu davrda ularning organizmida va ruhiyatida keskin o'zgarishlar ro'y beradi (Zimnyaya, 2000).

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining xorijiy tilni o'zlashtirishiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy xususiyatlarni batafsil ko'rib chiqamiz:

Fiziologik rivojlanish va jismoniy harakatga bo'lgan ehtiyoj

Bu yoshda bolalarning suyak va mushak tizimi jadal rivojlanadi, biroq mayda motorika (qo'l barmoqlari harakati) hali to'liq shakllanmagan bo'ladi.

-Harakat faolligi: Bolalar uzoq vaqt davomida bir joyda qo'zg'almay o'tira olmaydilar. Ularning qon aylanish tizimi harakatda bo'lishni talab qiladi. Agar o'qituvchi ularni dars davomida faqat partada o'tirib yozishga majburlasa, bolalarda tezda charchoq, tajovuzkorlik yoki darsga nisbatan qiziqish so'nishi yuzaga keladi.

-Pedagogik yechim: Aynan shu fiziologik ehtiyojni qondirish uchun darslarda jismoniy harakatlar bilan bog'liq o'yinlar va TPR (Total Physical Response) metodidan keng foydalaniladi (Brewster et al., 2002).

Diqqatning beqarorligi va "ixtiyorsiz diqqat" ustunligi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtiyoriy diqqat (ya'ni o'zi xohlamasa ham diqqatni majburan jamlash) hali sust rivojlangan bo'ladi.

- Diqqat muddati: Ularning ixtiyoriy diqqat bilan ishlash muddati o'rtacha 10-12 daqiqani tashkil etadi. Shundan so'ng bolaning xayoli chalg'iydi.

-Ixtiyorsiz diqqat: Bolalar faqat yorqin, noodatiy, harakatlanuvchi va hissiyot uyg'otuvchi narsalargagina beixtiyor diqqat qaratadilar (Galskova & Nikitenko, 2004). Shuning uchun darsda qo'llaniladigan rang-barang rasmlar, o'yinchoqlar va kutilmagan syurprizlar darsning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ustuvorligi

Jan Piajening intellektual rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bu yoshdagi bolalar "aniq amallar" (concrete operations) bosqichida bo'ladilar.

-Pedagogik yechim: Grammatikani o'rgatishda qoidalarni yodlatish emas, balki real narsalar yordamida nutqiy namunalar ko'rsatish kerak. Masalan, "olma" so'zini o'rgatishda nafaqat rasm, balki imkon bo'lsa mevaning o'zini ko'rsatish, hidlatish va ushlab ko'rishga ruxsat berish so'zning xotirada umrbod muhrlanib qolishiga yordam beradi.

ASOSIY INTERAKTIV METODLARNING TAVSIFI VA TURLARI

Boshlang'ich sinflarda xorijiy tilni o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv metodlar shunchaki ko'ngilochar o'yinlardan iborat emas. Ularning zamirida chuqur psixolingvistik qonuniyatlar va ta'limiy nazariyalar yotadi. Quyida boshlang'ich sinf amaliyotida eng yuqori samara beruvchi interaktiv metodlar va ularning ilmiy asoslarini ko'rib chiqamiz:

To'liq jismoniy harakat metodi (Total Physical Response — TPR)

Ushbu metod 1960-yillarda amerikalik psixolog Jeyms Asher tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u til o'rganishni inson miyasining tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga bog'laydi (Asher, 1977). Asherning fikricha, bola ona tilini o'rganayotganda dastlab faqat eshitadi va jismoniy harakatlar orqali javob qaytaradi (masalan, "menga o'yinchoqni ber" desa, bola so'zlamasdan harakat qiladi).

-Amaliyotda qo'llanishi: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga fe'llarni (jump, run, sleep, swim) va tana a'zolarini o'rgatishda o'qituvchining buyruqlarni harakat bilan ko'rsatishi va bolalarning buni so'zsiz qaytarishi dars samaradorligini keskin oshiradi. Bu usul bolalarda xorijiy tildan qo'rqish (affektiv filtr) darajasini pasaytiradi (Krashen, 1982).

Kommunikativ va rolli o'yinlar metodi (Communicative and Role-play methods)

Til o'rganishdan asosiy maqsad — muloqot qilishdir. Rolli o'yinlar bolalarda hayoliy tasavvurni haqiqiy hayotiy vaziyatlarga bog'lash imkonini beradi (Littlewood, 1981).

-Ilmiy asosi: Ushbu metod kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching) konsepsiyasiga asoslangan. Unga ko'ra, til qoidalar yig'indisi emas, balki ijtimoiy muloqot qurolidir. Bolalar rolli o'yinlar orqali tilni sun'iy darslik matnlarida emas, balki tirik muloqot kontekstida o'zlashtiradilar (Richards & Rodgers, 2014).

O'yin orqali o'qitish texnologiyasi (Game-Based Learning)

O'yin — kichik maktab yoshidagi bolaning yetakchi faoliyati va dunyoni anglash vositasidir. Lev Vigotskiyning ta'kidlashicha, bola o'yin jarayonida doimo o'zining real yoshidan va kundalik xulq-atvoridan bir pog'ona yuqoriga ko'tariladi (Vygotsky, 1978).

Ilmiy asosi: O'yin jarayonida bolada kuchli ichki motivatsiya paydo bo'ladi. U o'qituvchi majburlagani uchun emas, balki o'yinda g'olib bo'lish yoki jarayondan zavq olish uchun til birliklarini eslab qolishga harakat qiladi. Bu esa o'zlashtirish darajasini bir necha barobarga oshiradi.

**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT)NING
O'RNI**

Gamifikatsiya va interaktiv onlayn platformalar.

Darsni o'yinlashtirish (gamification) bolalarda zerikish hissini yo'qotadi. Hozirgi kunda o'qituvchi uchun juda ko'p bepul va interaktiv platformalar mavjud:

-Wordwall platformasi: Bu sayt orqali o'qituvchi bir necha daqiqa ichida turli xil interaktiv o'yinlar yaratishi mumkin. Masalan, "Sanaladigan va sanalmaydigan otlar" (Countable/Uncountable nouns) mavzusini o'tishda bolalar interaktiv doskada rasmlarni kerakli savatchalarga barmog'i bilan sudrab o'tkazishlari (drag and drop) mumkin. Bu ham vizual, ham harakat xotirasini kuchaytiradi.

Multimedia materiallari orqali tabiiy til muhitini yaratish

Chet tilini o'rganishda eshitish (listening) va ko'rish (visualizing) qobiliyatlarining uyg'unligi juda muhim.

-Audio va video qo'shiqlar: Kichik yoshdagi bolalar musiqiy ritmni juda tez qabul qilishadi. "Super Simple Songs" yoki "Pinkfong" kabi YouTube kanallaridagi quvnoq inglizcha qo'shiqlar orqali bolalar yangi so'zlarni qanday talaffuz qilinishini tabiiy ravishda o'rganadilar. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalar o'zlaridagi uyatchanlik va til gapirishdagi qo'rquvni yengib o'tadilar (Larsen-Freeman, 2000).

-O'rgatuvchi animatsion multfilmlar: "Gogo Loves English" yoki "Muzzy" kabi maxsus o'rgatuvchi multfilmlar orqali bolalar kundalik muloqot iboralarini oson o'rganishadi. Masalan, biror qahramonning narsalarni ko'rsatib "This is my cat", uzoqdagi narsaga esa "That is a tree" deganini ko'rgan bola, qoidani yodlamasdan turib ham uning ma'nosini rasm orqali tushunib oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlar shunchaki darsning "bezagi" emas, balki ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy poydevor hisoblanadi. O'yinlar, TPR metodi, AKT va muloqotga asoslangan darslar bolalarda xorijiy tilga nisbatan ijobiy munosabat va muhabbatni shakllantiradi.

O'qituvchilar dars jarayonida bitta metodga bog'lanib qolmasdan, har xil metodlarni uyg'unlashtirib borishlari, bolalarni xato qilishdan qo'rqmaydigan erkin muhitga olib kirishlari maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Asher, J. J. (1977). Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook. Sky Oaks Productions.
2. Askarova, M. (2022). Ingliz tili darslarida o'yin texnologiyalarining o'rni. Xalq ta'limi, 3-son, 45-48 b.
3. Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). The Primary English Teacher's Guide. Penguin English.
4. Brown, H. D. (2014). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
5. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.
6. Galskova, N. D., & Nikitenko, Z. N. (2004). Teoriya i praktika obucheniya inostrannim yazikam v nachalnoy shkole. Moskva: Prosveshchenie.
7. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson.
8. Hasanova, G. (2021). Boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
9. Jalolov, J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
10. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
11. Larsen-Freeman, D. (2000). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.
12. Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching. Cambridge University Press.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Махаммадзулупова Наргиза Мухамадишуккур кизи

*Студентка направления «Филология и обучение языкам: английский язык»,
группа Eng-AU-24, Наманганский государственный институт иностранных
языков имени Исхокхона Ибрата*

АННОТАЦИЯ. В данной работе анализируется эффективность методики геймификации при обучении иностранному языку учащихся начальных классов. С учетом психологических и когнитивных особенностей развития детей в возрасте 7–11 лет раскрываются преимущества образовательного процесса, основанного на игровых элементах. Также на основе научных теорий объясняется роль TPR-игр, цифровых платформ, ролевых игр и интерактивных методов в развитии коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: *геймификация, иностранный язык, начальное образование, TPR, коммуникативная компетенция, мотивация, интерактивные методы.*

ABSTRACT. This thesis analyzes the effectiveness of gamification in teaching foreign languages to primary school students. Considering the psychological and cognitive characteristics of children aged 7–11, the advantages of game-based learning are discussed. In addition, the role of TPR games, digital platforms, role-play activities, and interactive methods in developing communicative competence is explained on the basis of scientific theories.

Keywords: *gamification, foreign language, primary education, TPR, communicative competence, motivation, interactive methods.*

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda gamifikatsiya, ya'ni o'yinlashtirish metodikasining samaradorligi tahlil qilinadi. 7–11 yoshli bolalarning psixologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlari inobatga olingan holda o'yin elementlariga asoslangan ta'lim jarayonining afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, TPR o'yinlari, raqamli platformalar, rolli o'yinlar hamda interaktiv metodlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni ilmiy nazariyalar asosida izohlanadi.

Kalit so'zlar: *gamifikatsiya, o'yinlashtirish, chet tili, boshlang'ich ta'lim, TPR, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, interaktiv metodlar.*

Введение

В современную эпоху, когда процессы глобализации ускоряются, а межкультурное общение становится все более интенсивным, свободное владение иностранными языками превращается в требование времени. Особенно важное научно-практическое значение приобретает совершенствование методики эффективного преподавания иностранных языков для укрепления социальных, экономических и культурных связей между Западом и Востоком. Сегодня международное сотрудничество, академические программы обмена, цифровая коммуникация и глобальный рынок труда

сделали знание иностранных языков одним из ключевых факторов профессиональной конкурентоспособности личности.

В педагогике и психологии особо подчеркивается, что основа изучения языка формируется именно в младшем школьном возрасте, то есть в период от 7 до 11 лет. Именно в этом возрасте у детей особенно высока способность к подражанию, хорошо развита фонетическая чувствительность, а также способность быстро воспринимать новые языковые единицы. Вместе с тем данный период характеризуется активным развитием речевого аппарата и эффективной работой механизмов обучения через слуховое восприятие.

Однако психологические особенности детей этого возраста, в частности недостаточная устойчивость произвольного внимания, быстрая утомляемость и высокая потребность в игре, могут ограничивать эффективность традиционных методов обучения. Поэтому в современной образовательной методике возникает необходимость использования инновационных подходов, соответствующих возрастным и индивидуальным особенностям учащихся. Одним из таких подходов является геймификация, то есть внедрение игровых технологий в учебный процесс.

Основная часть

Геймификация — это внедрение в образовательный процесс игровых элементов и механизмов, таких как накопление баллов, прохождение уровней, получение наград, соревнования, рейтинговые системы и поощрительные значки, с целью сделать учебную деятельность более интересной и мотивирующей. С педагогической точки зрения игра является эффективным средством, развивающим интеллектуальный потенциал ребенка, повышающим речевую активность, снижающим психологические барьеры и формирующим творческое мышление.

Эффективность геймификации при обучении иностранному языку учащихся начальных классов обосновывается рядом научных теорий. Так, согласно теории "Input Hypothesis" американского лингвиста Стивена Крашена, изучающий язык усваивает новые знания эффективнее в условиях низкого эмоционального напряжения. Учёный объясняет этот процесс через понятие "affective filter" — эмоционального фильтра. Если у ученика высок уровень страха, стыда или тревожности, новый языковой материал, даже поступая в мозг, не усваивается активно. Во время игровых занятий ребенок не боится ошибаться, естественно вступает в коммуникацию и свободно воспринимает язык.

Также значение геймификации объясняется теорией "Zone of Proximal Development", предложенной русским психологом Львом Выготским. По мнению Выготского, ребенок способен выполнять задания, которые самостоятельно пока не может выполнить, с помощью сверстников или взрослых. Интерактивные и коллективные игры создают именно такое социальное взаимодействие, расширяя зону развития ребенка.

Представитель узбекской методической школы Дж. Дж. Жалолов подчеркивает приоритет устной речи при обучении языку детей младшего возраста. По его мнению, у детей прежде всего необходимо развивать навыки слушания и

говорения. Песни, стихи, диалоговые игры и устные задания как раз служат реализации этого принципа.

Согласно теории когнитивного развития швейцарского психолога Жана Пиаже, дети 7–11 лет находятся на стадии конкретных операций. Поэтому они лучше усваивают материал через наглядные средства, предметы, рисунки, карточки и интерактивную деятельность, чем через абстрактные грамматические правила.

Особенно эффективными при обучении иностранному языку учащихся начальных классов являются следующие методы геймификации:

TPR-игры (Total Physical Response)

В данном методе дети усваивают новые слова через физические движения. Например, с помощью игры “Simon Says” легко запоминаются глаголы повелительного наклонения, части тела и повседневные действия. Обучение через движение активизирует кинестетическую память и формирует прочную связь между словом и действием.

Цифровая геймификация

Такие платформы, как Kahoot, Quizizz, Wordwall, превращают обычные тестовые задания в соревнование. В результате усиливаются чувство соперничества, интерес и активное участие учащихся. Кроме того, цифровые инструменты визуально обогащают урок.

Ролевые игры (Role-play)

Инсценировка жизненных ситуаций, таких как магазин, школа, больница, прием гостей, формирует у детей реальные коммуникативные навыки. Данный метод особенно эффективен для развития устной речи.

Песни и ритмические упражнения

Обучение с помощью музыки развивает произношение, память и навыки аудирования. Особенно полезны рифмованные песни для закрепления новой лексики.

Научные наблюдения показывают, что информация, усвоенная в игровой форме, эффективнее сохраняется в долговременной памяти. Это объясняется тем, что во время игры ребенок активно участвует в процессе, эмоционально вовлекается и приобретает знания через практический опыт.

Заключение

Таким образом, геймификация является высокоэффективным педагогическим средством при обучении иностранному языку учащихся начальных классов. Уроки, организованные с использованием игровых элементов, повышают мотивацию детей, снижают психологические барьеры, развивают коммуникативную компетенцию и способствуют долговременному сохранению языкового материала в памяти.

Научную основу методики геймификации составляют идеи Стивена Крашена о свободной психологической среде, теория социального взаимодействия Льва Выготского, принцип приоритета устной речи Дж. Дж. Жалолова и концепция когнитивного развития Жана Пиаже. Поэтому широкое применение данных методов в начальном образовании способствует не только

эффективному усвоению иностранного языка, но и общему интеллектуальному и социальному развитию детей.

Использованная литература.

1. Жалолов Дж. Дж. Методика обучения иностранному языку. Ташкент: Ўқитувчи, 2012.
2. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press, 1982.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Piaget J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1969.
5. Бекмуратова У.Б. Инновационные технологии в преподавании английского языка. Ташкент, 2012.

OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI KOMMUNIKATIV METOD ORQALI RIVOJLANTIRISH

*Abdullajonova Akifa Shuhrat qizi
Namangan davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada chet tilini o'qitish jarayonida og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishda kommunikativ metodning ahamiyati yoritilgan. Kommunikativ metod o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unda interaktiv mashqlar, dialoglar, rolli o'yinlar va guruhli ishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada speaking ko'nikmasining asosiy jihatlari, uni rivojlantirishda uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, kommunikativ metod orqali o'quvchilarning nutq faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlari: *Chet tili o'qitish metodikasi, kommunikativ metod, og'zaki nutq ko'nikmasi, nutq faoliyati, interaktiv metodlar, muloqot kompetensiyasi, dialog, rolli o'yinlar, til o'rganish jarayoni.*

ABSTRACT. This article highlights the importance of the communicative method in developing speaking skills in the process of foreign language teaching. The communicative method is aimed at forming students' ability to communicate freely in real-life situations, placing special emphasis on interactive exercises, dialogues, role-plays, and group work. The article analyzes the main aspects of speaking skills, the challenges encountered in their development, and ways to overcome them. It also examines how the communicative method can increase students' speaking activity, encourage independent thinking, and enhance their motivation to learn a language.

Keywords: *foreign language teaching methodology, communicative method, speaking skills, speech activity, interactive methods, communicative competence, dialogue, role-play, language learning process.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье освещается значение коммуникативного метода в развитии навыков устной речи в процессе обучения иностранному языку. Коммуникативный метод направлен на формирование у учащихся способности свободно общаться в реальных жизненных ситуациях и предполагает активное использование интерактивных упражнений, диалогов, ролевых игр и групповой работы. В статье проанализированы основные аспекты навыков говорения, трудности, возникающие при их развитии, а также пути их преодоления. Кроме того, рассматриваются вопросы повышения речевой активности учащихся, стимулирования их самостоятельного мышления и усиления интереса к изучению языка посредством коммуникативного метода.

Ключевые слова: методика преподавания иностранных языков, коммуникативный метод, навыки устной речи, речевая деятельность, интерактивные методы, коммуникативная компетенция, диалог, ролевые игры, процесс изучения языка.

Kirish. Bugungi kunda chet tillarini o'rganish jarayoni global ahamiyat kasb etib, zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda tilni amaliy qo'llash, ya'ni erkin muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish chet tilini o'qitish jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. An'anaviy metodlar ko'proq grammatik bilimlarni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar, xususan, kommunikativ metod o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda muloqot jarayonida til birliklaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — og'zaki nutq ko'nikmasini kommunikativ metod asosida rivojlantirishning samarali usullarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonda qo'llaniladigan interaktiv yondashuvlarning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot tahlili. Og'zaki nutq ko'nikmasini kommunikativ metod orqali rivojlantirish — bu tilni grammatik qoidalarni yodlash orqali emas, balki real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish, interaktiv o'yinlar, rolli o'yinlar va suhbat klublari (Speaking Club) orqali shakllantirishdir. Bu yondashuv nutqiy faollikni oshiradi, xatolardan qo'rqmaslikni o'rgatadi va til o'rganish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Kommunikativ metodning asosiy tamoyillari:

- Real vaziyatlar (Authentic situations): Darsda o'quvchilar hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni (do'konda, aeroportda, mehmonxonada) modellashtirish.

- Interaktivlik: Juftlikda yoki guruhda ishlash, kichik loyihalar (pair work/group work) ustida ishlash orqali o'zaro fikr almashish.

- Xatolarga munosabat: Asosiy e'tibor grammatik to'g'rilikka emas, balki fikrni tushunarli yetkazishga (fluency over accuracy) qaratiladi.

•Nutqiy-fikrlash faoliyati: O'quvchi tildan vosita sifatida foydalanib, mazmunli fikr bildiradi.

Samarali usullar:

- 1.Rolli o'yinlar (Role-play): Muayyan obrazga kirib gapirish.
- 2."Speaking Club": Erkin mavzularda suhbatlashish.
- 3.Interaktiv o'yinlar: "Case study", "Debat" va "Brainstorming".
- 4.Axborot almashish (Information Gap): Sherigi bilmagan ma'lumotni savol-javob orqali aniqlash.

Kommunikativ metod o'quvchilarning psixologik to'siqlarini yengishga va nutqiy faollikka erishishga yordam beradi.

Og'zaki nutq ko'nikmasini kommunikativ metod (CLT) orqali oshirish — bu o'quvchini real muloqotga jalb qilish, ya'ni tilni amalda ishlatishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Quyidagi usullar bilan speaking ko'nikmasini oshirish mumkin:

1. Juftlik va guruhda ishlash (Pair & Group Work) — kengaytirilgan

Juftlik va guruhda ishlash kommunikativ metodning eng samarali usullaridan biri bo'lib, o'quvchilarni faol muloqotga jalb qiladi. Bu usulda o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashadi va tilni real muloqot jarayonida qo'llaydi.

Mazmuni va tashkil etilishi

O'qituvchi sinfni 2–4 kishilik kichik guruhlariga ajratadi. Har bir guruhga yoki juftlikka aniq vazifa (task) beriladi. Vazifa shunday bo'lishi kerakki, uni bajarish uchun o'quvchilar ingliz tilida gaplashishga majbur bo'lsin.

Masalan:

- Bir-biriga savollar berib suhbatlashish (interview)
 - Berilgan mavzu bo'yicha fikr almashish (discussion)
 - Biror muammoni birgalikda hal qilish (problem-solving)
- 2.Rolli o'yinlar (Role-play) — kengaytirilgan
 - O'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarni rollarga kirib ijro etadi
 - Har bir o'quvchiga aniq rol beriladi (sotuvchi–xaridor, mijoz–administrator va h.k.)

- Vazifa bajarish jarayonida ular ingliz tilida muloqot qilishga majbur bo'ladi
- 3.Erkin muloqot (Free discussion) — kengaytirilgan
 - O'qituvchi umumiy va qiziqarli mavzu beradi, o'quvchilar shu mavzu asosida erkin fikr almashadi

•O'quvchilar o'z fikrini mustaqil ravishda ifodalaydi, boshqalarning fikriga munosabat bildiradi

- Oldindan aniq javob yo'q — asosiy maqsad muloqot qilish

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqot davomida gapirish ko'nikmasini kommunikativ metod asosida rivojlantirishning samaradorligi aniqlandi. Dars jarayonida juftlik va guruhda ishlash, rolli o'yinlar hamda erkin muloqot kabi faol metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshirdi. O'quvchilar dars davomida ko'proq ingliz tilida muloqot qilishga jalb etildi va bu ularning gapirish tezligi hamda ravonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, kommunikativ metod o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalash qobiliyatini rivojlantirdi. Dastlab gapirishda qiynalgan o'quvchilar ham asta-sekin faol ishtirok eta boshladi va ularda nutqiy ishonch shakllandi. Xatolardan qo'rqmasdan gapirish muhiti yaratilgani sababli, o'quvchilar tilni amaliy qo'llashga ko'proq intildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, kommunikativ metod asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki ularning kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, real hayotga yaqin vaziyatlarda tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali o'quvchilar tilni tabiiy muhitda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ldi.

Xulosa. Umuman olganda, kommunikativ metod orqali og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirdi, ularning mustaqil fikrlash va muloqot qilish qobiliyatini shakllantirdi hamda samarali natijalarga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
2. Brown, H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Longman.
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
4. Harmer, J. (2001). How to Teach English. Longman.
5. Thornbury, S. (2005). How to Teach Speaking. Pearson Education.
6. Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge University Press.
7. Savignon, S. J. (2002). Interpreting Communicative Language Teaching. Yale University Press.
8. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics Journal.
9. <https://journalss.org>
10. <https://lingvospektr.uz>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH: ISLOHOTLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Hasanova Nafosatxon Lazizjon qizi,

Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti

I bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim islohotlarining konseptual asoslari, ularning bosqichma-bosqich rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotidagi strategik o'rni yoritiladi. Maktabgacha, umumiy o'rta va oliy

ta'lim tizimlarida amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlar, kredit-modul tizimining joriy etilishi hamda raqamli ta'lim texnologiyalarining keng tatbiqi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lim islohotlari bo'yicha xalqaro (Fullan, Schleicher, Hallinger) va mahalliy olimlar qarashlari integrativ yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimining modernizatsiyasi inson kapitali sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *ta'lim islohoti, modernizatsiya, ta'lim siyosati, kredit-modul tizimi, raqamli ta'lim, kompetensiya.*

ABSTRACT. This article provides a systematic analysis of the processes of modernization of the education system in the Republic of Uzbekistan. The study examines the conceptual foundations of educational reforms, their gradual development, and their strategic role in societal progress. Institutional changes implemented in preschool, general secondary, and higher education systems, the introduction of the credit-module system, and the wide application of digital educational technologies are analyzed on a scientific basis. In addition, the views of international and local scholars, such as Michael Fullan, Andreas Schleicher, and Philip Hallinger, are examined through an integrative approach. The results of the study demonstrate that the modernization of the education system plays a decisive role in improving the quality of human capital.

Keywords: *educational reform, modernization, education policy, credit-module system, digital education, competence.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье системно анализируются процессы модернизации системы образования в Республике Узбекистан. В исследовании рассматриваются концептуальные основы образовательных реформ, их поэтапное развитие, а также их стратегическая роль в развитии общества. Научно обоснованно анализируются институциональные изменения, осуществляемые в системах дошкольного, общего среднего и высшего образования, внедрение кредитно-модульной системы, а также широкое применение цифровых образовательных технологий. Кроме того, взгляды международных и отечественных ученых, таких как Майкл Фуллан, Андреас Шлейхер и Филип Халлингер, анализируются на основе интегративного подхода. Результаты исследования показывают, что модернизация системы образования играет решающую роль в повышении качества человеческого капитала.

Ключевые слова: *образовательная реформа, модернизация, образовательная политика, кредитно-модульная система, цифровое образование, компетенция.*

KIRISH. Ta'lim tizimi har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishida asosiy tayanch ustunlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy global rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish, innovatsion salohiyat va ijtimoiy barqarorlik bevosita ta'lim sifati bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli ta'lim islohotlari ko'plab davlatlarda strategik siyosat darajasiga ko'tarilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ta'lim islohoti ko'pincha tizimni yangilash emas, balki chuqur transformatsiya jarayoni sifatida talqin qilinadi. Masalan, Fullan (2007, 18-bet) ta'limdagi o'zgarishlarni faqat struktura emas, balki madaniy va institutsional

yangilanish sifatida izohlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish murakkab va ko'p qatlamli jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'limni jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, uning sifatini oshirish milliy rivojlanishning hal qiluvchi omili ekanini ta'kidlaydi (Mirziyoyev, 2021, 34-bet).

Mahalliy ilmiy ishlarda ham ta'lim sifati va institutsional islohotlar o'rtasidagi bog'liqlik alohida qayd etiladi. Jumladan, Karimov (2020, 56-bet) ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv va metodik yangilanishlarga bog'liqligini asoslaydi.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda sifatli (qualitative) va analitik yondashuv qo'llanildi. Tahlil quyidagi manbalarga asoslandi: normativ-huquqiy hujjatlar va davlat strategiyalari, UNESCO va World Bank hisobotlari, xalqaro olimlar (Fullan, Schleicher, Hallinger) ilmiy konsepsiyalari, o'zbek olimlari (Karimov, Jo'rayev, Abdullayeva) tadqiqotlari. Tadqiqot davomida ta'lim tizimi uch asosiy bosqich doirasida ko'rib chiqildi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim. Har bir bosqich bo'yicha o'zgarishlar tizimli va qiyosiy tahlil asosida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Maktabgacha ta'lim bosqichi shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida poydevor bosqich hisoblanadi. Shu sababli ushbu yo'nalishdagi islohotlar ta'lim siyosatining muhim qismi sifatida qaraladi.

Abdullayeva (2021, 41-bet) ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim sifati bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi akademik muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaytirilib, bolalarni qamrab olish darajasi sezilarli darajada oshdi. Bu esa erta rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi muhim metodologik o'zgarishlardan biridir. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Schleicher (2018, 62-bet) fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim tizimi global raqobatga moslashgan kompetensiyalarni shakllantirishi kerak. Shu asosda O'zbekistonda STEAM yondashuvi, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga keng joriy etilmoqda. Karimov (2020, 88-bet) ham ta'limda innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etadi.

Oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda eng chuqur institutsional o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Kredit-modul tizimining joriy etilishi ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshirdi va talabalar mustaqil ta'limini kuchaytirdi. Hallinger (2011, 103-bet) ta'lim islohotlarining samaradorligi akademik yetakchilik va boshqaruv sifatiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini kengaytirish muhim strategik ahamiyatga ega.

Jo'rayev (2022, 61-bet) kredit-modul tizimi talabalarda mustaqil o'qish madaniyatini shakllantirishini alohida ta'kidlaydi.

Raqamli transformatsiya ta'lim tizimining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Elektron platformalar, masofaviy ta'lim va raqamli resurslar

ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan va individual yondashuvga asoslangan tizimga aylantirmoqda.

Christensen (2011, 74-bet) raqamli innovatsiyalar an'anaviy ta'lim modelini tubdan o'zgartirishini ta'kidlaydi. O'zbekistonda ham ushbu jarayon bosqichma-bosqich kengayib bormoqda va ta'lim sifati hamda qulayligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish global ta'lim tendensiyalari bilan uyg'un rivojlanmoqda. Fullan (2007, 45-bet) ta'lim islohotlarida tizimli va kompleks yondashuv muhimligini ta'kidlaydi.

O'zbek olimlari ham ta'lim sifati oshirishda institutsional islohotlar va raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutishini qayd etadi (Karimov, 2020, 90-bet). Shu bilan birga, Hallinger (2011, 105-bet) ta'lim tizimida boshqaruv sifati islohotlarning barqaror natijasini belgilashini ta'kidlaydi.

XULOSA. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda olib borilayotgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdullayeva, N. (2021). *Maktabgacha ta'lim sifati va rivojlanish tendensiyalari*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Christensen, C. M. (2011). *Disrupting class: How disruptive innovation will change the way the world learns*. New York, NY: McGraw-Hill.
3. Fullan, M. (2007). *The new meaning of educational change* (4th ed.). New York, NY: Teachers College Press.
4. Hallinger, P. (2011). Leadership for learning: Lessons from 40 years of empirical research. *Journal of Educational Administration*, 49(2), 125–142. <https://doi.org/10.1108/09578231111116699>
5. Karimov, A. (2020). *Ta'limda innovatsion texnologiyalar va pedagogik jarayon*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Jo'rayev, B. (2022). *Oliy ta'lim tizimini boshqarish va modernizatsiya jarayonlari*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
7. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha rasmiy ma'lumotlar*.
9. Schleicher, A. (2018). *World class: How to build a 21st-century school system*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/publications/world-class/>

O'YINLAR VA QO'SHIQLAR YORDAMIDA BOSHLANG'ICH MAKTABDA CHET TILINI O'QITISHNING SAMARALI USULI

Anvarova Barnoxon Dilshodbek qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi

Eng- AU -24 guruhi talabasi, // +998930712684

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisda boshlang'ich maktab o'quvchilariga, ya'ni 7-11 yoshdagi o'quvchilarga o'yinlar va qo'shiqlar yordamida boshlang'ich maktabda chet tilini o'qitishning samarali usullari bayon etilgan. Ushbu yondashuv o'quvchilarning faolligini oshiradi, tilni o'zlashtirishga va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *chet tili, boshlang'ich maktab, o'yinlar, musiqalar, tilni egallash, tilni o'rganish*

АННОТАЦИЯ. В данной работе рассматриваются эффективные методы обучения иностранному языку младших школьников, то есть детей в возрасте 7–11 лет, с использованием игр и песен. Такой подход способствует повышению интереса учащихся, облегчает усвоение языкового материала и развитие коммуникативных навыков.

Ключевые слова: *иностраннный язык, начальная школа, игры, музыка, овладение языком, изучение языка.*

ABSTRACT. This thesis presents effective methods for teaching a foreign language in primary school to students aged 7–11 using games and songs. This method improves student engagement, helps them master the language and develops communication skills.

Keywords: foreign language, primary school, games, music, language acquisition, language learning.

Kirish qism. Til o'rganish shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar avj olgan paytda ma'lum chet tilini bilish va so'zlasha olish ulkan ahamiyat kasb etmoqda. E'tiborlisi shundaki, O'zbekiston Respublikasida tahsil olayotgan talabalarning ko'p qismi odatda uch tilni chuqur o'rganadilar va aholining ma'lum qismi ham shu tillarda muloqotga kirisha olishadi. Bu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi til va chet tili. Maktab o'quvchilarida chet tilini o'rganishga qiziqish uyg'otish o'qituvchilarning ham ota-onalarning ham mas'uliyatli ishlaridan biridir. Ammo, chet tilini o'rgatish-o'rganish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan keskin farqlanadi. Bu o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi.

Bu borada ta'lim tizimidagi fundamental rivojlanishlardan biri davlatimiz birinchi prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875 farmonidir. Qarorga ko'ra chet tillari, asosan ingliz tili 1-sinfdan turli o'yinlarga asoslangan holda o'tilishi tasdiqlangan.

Asosiy qism. Ushbu yangilikni ta'lim tizimiga joriy etishning asosiy sababi bolalarda boshqa tillarga, an'alariga va madaniyatiga qiziqishni

uyg'otishdir. Qolaversa, bu yoshdagi bolalarning yangilikka bo'lgan qiziqishi kuchli va albatta xotirasi mustahkam bo'ladi. Ammo, chet tili xorijiy mamlakat tili bo'lganligi uchun ham o'rganish jarayonida bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Respublikamizda asosan G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy va hind) tillari o'qitilmoqda. Barcha tillarni o'qitish-o'rganish muhiti turlicha bo'lishi tabiiy hol. Chunki, odatda o'quvchilar o'z ona tilida fikr yuritib muloqot qilishga o'rganishgan. Chet tilini o'rganish paytida esa ular umuman boshqacha so'zlar, o'z ona tilisida mavjud bo'lmagan harf talaffuzi, o'zgacha ohang va albatta grammatikaga duch kelishadi. Masalan, chet tilidagi artikl tushunchasi o'zbek tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli o'quvchida yangilikni shakllantiradi. Natijada, o'quvchida til tajribasi yangiliklar bilan boyiydi. Shuning uchun chet tilidagi muloqot darsda muallim rahbarligida kechadi. Bu o'z navbatida, tegishli chet tili o'qitish texnologiyasini qo'llashni talab qiladi. Qolaversa, chet tilini o'qitish metodikasi, Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir.

Boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatish bir paytning o'zida ham oson ham qiyin bo'lishi mumkin. Bolalar 12 yoshgacha bo'lgan davrda tilni ona tili kabi tabiiy ravishda o'zlashtirish qobiliyatiga ega, chunki miya bu davrda til o'rganishga maksimal darajada moslashgan bo'ladi. Krashen bunday davrni kritik davr deb atagan. Krashen nazariyasiga ko'ra, "Til o'rganuvchi qanchalik yosh bo'lsa, u shunchalik ona tiliga o'xshash talaffuzga erishadi" (Krashen, 1982). Bu gipoteza kritik davrdan keyin grammatika va talaffuzni mukammal darajada egallash qiyinlashadi, ammo lug'at boyligi va semantikani o'rganish davom etishi mumkinligini ko'rsatadi.

Barchaga ma'lumki, boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishning bir qancha samarali usullari mavjud. Boshlang'ich maktab o'quvchilarini turli xil interaktiv o'yinlar va qiziqarli qo'shiqlar orqali o'qitish eng yaxshi uslublardan biri hisoblanadi. Til o'rganish jarayoni tushunarli input orqali sodir bo'ladi. Bunda turli xil o'yinlar, qo'shiqlar tabiiy input manbaidir. Vizual yordamlar ya'ni, rasm, imo-ishora inputni yanada tushunarli qiladi.

Ma'lumki, chet tilini o'rganishda o'quvchilar musiqa orqali o'rganishsa, ularda nafaqat tinglab tushunish rivojlanadi, balki til o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ham ortadi. Musiqani quyidagi metodlar orqali darsda qo'llash mumkin: qo'shiq matnidagi bo'sh joylarni to'ldirish, yangi so'zlarni ajratish, mazmunini muhokama qilish, qo'shiq asosida oddiy gaplar tuzish. Bu usullar tinglab tushunishni rivojlantirish bilan birgalikda darsni yanada erkin va motivatsiyali bo'lishini ta'minlaydi. Musiqa orqali dars o'tkazilsa, bu shubhasiz, ularning psixologiyasiga ham ta'sir o'tkazadi. Birinchi navbatda, stressni kamaytiradi. Agar o'zlari yaxshi ko'rgan multfilm qo'shiqlaridan foydalanilsa, yangi so'zlarni eslab qolishi osonlashadi. Mashhur olim Lev Vigotskiy aytganidek, o'yin bolalarning kognitiv rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va ijtimoiy muloqotni rivojlantiradi.

O'quvchilarga o'yin orqali chet tilini o'rgatish yangi tilni o'zlashtirish jarayonini ancha tezlashtiradi. Chunki bolalar tabiatan o'yin o'ynashga qiziqishadi. Mavzuga oid o'yinlar til o'rganishda interaktiv muhit yaratadi. Bu o'quvchilarda

jamoada ishlash, tez qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlay olish kabi mahoratlarni shakllantiradi. Masalan, sinf xona sharoitida "Back to back" nomli o'yinni o'ynash mumkin. Bunda ikkita o'quvchi qatnashadi. Biri berilgan suratni kerakli sifatlar orqali ifodalab bersa, ikkinchi o'quvchi nima ekanligini topadi.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun maxsus interaktiv o'yinlardan yana biri "Change" o'yinidir. Bu o'yin yosh o'quvchilar uchun yangi so'z o'rganish yoki yodlangan so'zlarni qayta takrorlashda ancha qo'l keladi. Ushbu o'yinda barcha o'quvchilar aylana shaklda stullarga o'tirishadi. O'qituvchi ularga o'zlarida mavjud bo'lgan narsalarni (qizil ruchka, oq ko'ylak, opa-singil) aytganida, o'z o'rinlarini almashtirishadi. Bu o'yin oxirida bitta g'olib o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bu o'yinning asosiy maqsadi o'quvchida tez fikrlashni rivojlantirish, tez va chaqqon tarzda harakat qila olishni o'rgatishdir. Qisqa qilib aytganda, o'yinlar o'quvchilarning ijtimoiy va intellektual rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, o'quvchilarni darsga qiziqitira olish uchun pedagogdan o'ziga xos yondashuv va metodlar talab etiladi. Ularning orasida eng muhimi individual yondashuvdir. Kuchli pedagog har bir o'quvchiga qanday yondasha olishni, ularni dars mobaynida erkin va qo'rquvsiz gapirtira olishni bilishi kerak. Krashen til o'rganishda psixologik omillar muhimligini ta'kidlagan. O'quvchilarda affective filter, ya'ni hissiy to'siq mavjud. Bu so'zsiz motivatsiya, o'ziga ishonch va xavotir darajasiga bog'liq. Agar pedagog o'quvchidagi hissiy to'siqni uyalishni, xato qilishdan qo'rqishni, xavotirlanishni yengishga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam bera olsa, o'rganish jarayoni ancha oson bo'ladi. O'quvchida qanchalik affective filter past bo'lsa, shuncha tushunarli inputni qabul qilish osonlashadi va til egallash samaraliroq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich maktab o'quvchilariga til o'rgatishda turli innovatsion metodlardan foydalanish mumkin. O'yin va qo'shiqlardan foydalanish o'rganishni osonlashtiradi. Eng asosiysi, bu yondashuv yosh o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos keladi. Ular qiyin grammatika va topshiriqlardan ko'ra musiqa va o'yinlarga ko'proq qiziqishadi va esda saqlab qolishadi. Musiqa ritmi va o'yinlarning qiziqarliligi bir vaqtning o'zida o'quvchilarga chet tilini o'rganishga ham vaqtni maroqli o'tkazishga ham qulay muhit yaratib beradi. Tilni majburiy emas, qiziqarli faoliyat sifatida qabul qilish shakllanadi. Mazkur metodlardan boshlang'ich ta'limda keng foydalanish chet tilini samarali egallashga xizmat qiladi va kelgusida amaliy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irisqulov A.T. 2-sinf ingliz kitobi – Toshkent -O'zbekiston;2014
2. Bekmuratova U.B "Ingliz tili o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012
3. Hoshimov O'.Yoqubov.Ingliz tili o'qitish metodlari.-2003
4. Universal publishings(Elektron resurs)
5. Jalolov J. Chet tillar oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. "O'qituvchi" Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi. Toshkent 2012

INGLIZ TILINI O'QITISHDA LEKSIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Shohsanam Tursunova

Qoraboyev Mirzoxid Xoshimovich

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni shakllantirishning zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Leksik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiyadagi o'rni yoritilib, lug'at boyligini rivojlantirishda interfaol va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Shuningdek, kontekst asosida o'rgatish hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metod tanlash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *leksik ko'nikma, leksik kompetensiya, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, kontekstual o'rgatish.*

ABSTRACT. This article analyzes modern methods of developing lexical skills in teaching English. The role of lexical competence in communicative competence is discussed, and the importance of interactive and communicative approaches in vocabulary development is highlighted. The study also emphasizes contextual teaching and the importance of selecting teaching methods according to learners' age characteristics.

Keywords: *lexical skills, lexical competence, interactive methods, communicative approach, contextual teaching.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются современные методы формирования лексических навыков при обучении английскому языку. Рассматривается роль лексической компетенции в структуре коммуникативной компетенции, а также подчеркивается значение интерактивных и коммуникативных подходов в развитии словарного запаса. Особое внимание уделяется контекстному обучению и учету возрастных особенностей учащихся.

Ключевые слова: *лексические навыки, лексическая компетенция, интерактивные методы, коммуникативный подход, контекстное обучение.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni egallash shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biriga aylandi. Ayniqsa ingliz tili xalqaro muloqot, ilm-fan, texnologiya va iqtisodiyot sohalarida yetakchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday sharoitda yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning chet tillarini mukammal egallashini ta'minlash har bir ta'lim tizimining ustuvor vazifasiga aylangan.

Mamlakatimizda ham ta'lim modernizatsiya qilish, chet tillarini o'qitish sifatini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz tomonidan yoshlarning xorijiy tillarni puxta egallashi, ularning xalqaro maydonda raqobatdosh bo'lishi va zamonaviy kasblarni egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish zarurligi alohida ta'kidlab kelinmoqda. Bu esa chet tillarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish va dars jarayonini samarali tashkil etishni talab etadi.

Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Biroq kommunikativ kompetensiyani shakllanishi bevosita leksik kompetensiyaga bog'liq. Lug'at boyligi yetarli bo'lmagan o'quvchi grammatik bilimga ega bo'lsa ham, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaydi. Shu bois leksik ko'nikmalarni rivojlantirish til o'qitish metodikasining markaziy muammolaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy metodik qarashlarga ko'ra, so'zlarni faqat tarjima asosida yodlash samarali natija bermaydi. Leksik birliklarni kontekst asosida, muloqot jarayonida va interfaol mashg'ulotlar orqali o'rgatish ularning faol lug'at tarkibiga o'tishini tezlashtiradi. Demak, o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi metodlar lug'at boyligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni shakllantirishning zamonaviy metodlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Ayniqsa boshlang'ich va o'rta bosqich o'quvchilari bilan ishlashda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metod tanlash, interfaol va kommunikativ yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurati mavjud.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda zamonaviy metodlarning pedagogik samaradorligini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot doirasida leksik kompetensiya tushunchasi, leksik birliklarni tanlash tamoyillari va ularni samarali o'rgatish usullari ko'rib chiqiladi. Maqola muallifining bitiruv malakaviy ishi doirasida olib borilgan nazariy izlanishlari mazkur tadqiqotning metodik asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchini faol muloqotga jalb etuvchi metodlar lug'at boyligini oshirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni shakllantirish masalasi zamonaviy til o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda leksik kompetensiya kommunikativ kompetensiyani ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Tilni o'zlashtirish jarayonida lug'at boyligi yetarli darajada rivojlanmagan o'quvchi muloqot jarayonida faol ishtirok eta olmaydi.

Til o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bunda o'quvchi grammatik qoidalarni bilish bilan cheklanib qolmasdan, o'z fikrini ifodalash uchun zarur bo'lgan leksik birliklardan ham erkin foydalanishi zarur. Chunki til birliklari orqali mazmunli muloqot yuzaga keladi va fikr almashinuvi amalga oshadi [Brown, 2014].

Leksik birliklarni samarali o'zlashtirish jarayonida ularni turli kontekstlarda uchratish muhim ahamiyatga ega. So'zlarni faqat tarjima asosida yodlash ko'pincha ularning tez unutib yuborishiga olib keladi. Shu sababli yangi birliklarni turli muloqot vaziyatlarda qo'llash va takroriy uchrashuvlar orqali mustahkamlash zarur. Bunday yondashuv so'zlarning faol lug'at tarkibiga o'tishiga yordam beradi [Nation, 2008].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, leksik birliklarni o'rgatish jarayoni faqat so'z tarjimasini o'rgatish emas, balki o'quvchilarga yangi birliklarni turli kontekslarda qo'llagan holda, boshqa so'zlar bilan birgalikda o'rgatishni talab qiladi. Shundagina o'quvchi tabiiy ravishda yangi so'zlarni muloqotda qo'llay olishi mumkin. Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, leksik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni tizimli, kontekstual va kommunikativ yondashuvlarga asoslanishi lozim. Ushbu nazariy qarashlar mazkur maqolaning metodik asosini tashkil etadi.

NAZARIY ASOSLAR

Leksik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni til o'qitish metodikasida murakkab va ko'p bosqichli jarayon sifatida talqin etiladi. Leksik kompetensiya nafaqat so'z ma'nosini bilishni, balki uni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik jihatdan moslashtirish, kollokatsiyalarini anglash hamda nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo'llay olishni ham o'z ichiga oladi.

Yangi leksik birliklarni o'rgatish jarayoni izchil bosqichlar asosida tashkil etilishi lozim. Dastlab so'zlar taqdim etiladi, keyin mashqlar orqali mustahkamlanadi va nihoyat nutq jarayonida mustaqil qo'llash orqali faol lug'at tarkibiga o'tadi. Agar yangi birliklar faqat bir marta taqdim etilib, keyinchalik amaliy qo'llash orqali mustahkamlanmasa, ular tezda unutilishi mumkin [Harmer, 2007].

Leksik birliklarni o'rgatishda kontekst muhim rol o'ynaydi. So'zlarni alohida ro'yxat shaklida yodlash o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Aksincha, ularni real nutqiy vaziyat yoki matn asosida o'rganish so'zlarning ma'nosini chuqurroq anglash imkonini beradi. Kontekst asosida o'rganish so'zlarning ma'nosini chuqurroq anglash imkonini beradi. Kontekst asosida o'rganilgan birliklar o'quvchilarning faol lug'at boyligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [Thornbury, 2002]

Leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda psixologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Bilimning mustahkam shakllanishi takror, emotsional ishtirok va faol qo'llash orqali yuzaga keladi. O'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etganida va yangi birliklarni mustaqil qo'llaganida, ular uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Bu jihat o'quvchini markazga qo'ygan metodlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yosh xususiyatlarini hisobga olish leksik ko'nikmalarni shakllantirishda muhim metodik talab hisoblanadi. Boshlang'ich bosqich o'quvchilari ko'proq vizual va harakatli faoliyat orqali o'rganadi. Rasm, kartochka, rolli o'yin va qisqa dialoglar ular uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. O'rta bosqichda esa muammoli vaziyat va muloqotga asoslangan mashg'ulotlar ustunlik qiladi. Bu jarayon o'quvchilarning psixologik rivojlanish bosqichiga mos keladi.

Nazariy jihatdan lug'at boyligini rivojlantirishda ikki yo'nalish ajratiladi: passiv va aktiv lug'at. Passiv lug'at o'quvchi tushuna oladigan, ammo faol qo'llay olmaydigan birliklardan iborat bo'lsa, aktiv lug'at muloqot jarayonida mustaqil qo'llaniladigan birliklarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy metodlar aynan passiv birliklarni aktiv lug'at tarkibiga o'tkazishga qaratilgan.

Umuman olganda, nazariy manbalar leksik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni tizimli, kontekstual va o'quvchi faolligiga asoslangan holda tashkil etilishi lozimligini ko'rsatadi. So'zlarni izolyatsiya qilingan shaklda emas, balki real nutqiy

vaziyat bilan bog'lab o'rgatish samaradorlikni oshiradi. Ushbu nazariy qarashlar zamonaviy interfaol metodlarning pedagogik asosini tashkil etadi.

ZAMONAVIY METODLAR TAHLILI

Ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni samarali shakllantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni maqsadga muvofiq qo'llashni talab etadi. Nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, lug'at boyligini rivojlantirish jarayoni izchil va kontekstga asoslangan bo'lishi zarur. Amaliyotda esa bu tamoyillar interfaol, kommunikativ va muammoli metodlar orqali amalga oshiriladi.

Avvalo, interfaol metodlar o'quvchini dars jarayonining faol sub'ektiga aylantiradi. Guruhli va juftlik mashg'ulotlari orqali o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishadi, savol-javob qiladi va o'rganilgan leksik birliklarni nutq jarayonida qo'llaydi. Bunday faoliyat passiv yodlashdan farqli ravishda so'zlarni amaliy kontekstga olib kiradi.

Kommunikativ mashg'ulotlar lug'at boyligini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Dialog tuzish, rol o'yinlar, vaziyatli topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy mustaqilligini oshiradi. Masalan, "Shopping", "At the doctor", "Planning a trip" kabi mavzularga oid mashg'ulotlarda o'quvchilar ma'lum vaziyat asosida so'zlardan foydalanib dialoglar, rol namoyishlar ko'rsatishadi. Bu jarayon leksik birliklarning aktiv lug'at tarkibiga o'tishiga yordam beradi.

O'yin texnologiyalari ayniqsa boshlang'ich bosqichda samarali hisoblanadi. "Word chain", "Guess the word", "Find someone who", "Memory game" kabi mashqlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni dars jarayoniga faol jalb etadi. O'yin elementlari mavjud bo'lgan mashg'ulotlarda o'quvchilar topshiriqlarni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida qabul qiladi. Bu esa motivatsiyaning ortishiga va lug'at boyligining tezroq rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kontekstual yondashuv zamonaviy metodlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, qisqa hikoya tuzish, rasm asosida gap tuzish yoki berilgan vaziyatni tasvirlash kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu jarayonda leksik birliklar mazmuniy bog'lanish orqali mustahkamlanadi.

Muammoli vaziyatga asoslangan metodlar ham lug'at boyligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga ma'lum bir muammo yoki topshiriq berilib, ular o'rganilgan birliklar yordamida yechim topishi talab etiladi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va leksik birliklarning amaliy qo'llanishini ta'minlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Multimedia taqdimotlar, interaktiv platformalar, onlayn lug'at mashqlari o'quvchilarning vizual va eshitish orqali qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Rasm, audio va video materiallar asosida o'rgatilgan so'zlar ko'proq esda qoladi. Ayniqsa boshlang'ich va o'rta bosqichda vizual materiallardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Zamonaviy metodlarning yana bir muhim jihati differensial yondashuvni ta'minlashidir. Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgani sababli, guruhli va juftlik mashg'ulotlari orqali o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Bu

jarayon sustroq o'quvchilarning ham faol ishtirok etishiga yordam beradi. Natijada umumiy o'zlashtirish darajasi oshadi.

Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy metodlar samaradorligi ularni tizimli va maqsadga muvofiq qo'llash bilan bog'liq. Har bir mashg'ulot aniq metodik maqsadga ega bo'lishi lozim. Leksik birliklarni tanishtirish, mustahkamlash va qo'llash bosqichlari izchil tashkil etilgandagina yuqori natija kuzatiladi. Interfaol metodlar an'anaviy usullarni inkor etmaydi, balki ularni boyitadi va samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, zamonaviy metodlar ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi va lug'at boyligini kengaytiradi.

MUHOKAMA

Olib borilgan nazariy tahlillar va metodik qarashlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda leksik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni an'anaviy yodlash usullaridan ko'ra interfaol va kommunikativ yondashuvlar orqali samaraliroq amalga oshiriladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi faol sub'ekt sifatida ishtirok etganida, lug'at boyligi tezroq va mustahkamroq rivojlanadi.

Adabiyotlar sharhida ko'rib chiqilgan ilmiy qarashlar leksik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi ekanini tasdiqlaydi. Bu esa lug'at o'rgatish jarayonini mustaqil, lekin grammatik va nutqiy faoliyat bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishni talab etadi. Nazariy asoslar bo'limida tahlil qilingan kontekstual yondashuv, bosqichma-bosqich mustahkamlash va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari zamonaviy metodlarning pedagogik poydevorini tashkil etadi.

Zamonaviy metodlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interfaol mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Ayniqsa, so'zlarni real nutqiy vaziyat asosida qo'llash ularning passiv lug'atdan faol lug'at tarkibiga o'tishiga yordam beradi. Bu jarayon leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, differensial yondashuvning ahamiyati ham muhimdir. Guruhli va juftlik mashg'ulotlari o'quvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytiradi, sustroq o'quvchilarning ham faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Bu esa umumiy o'zlashtirish darajasining oshishiga xizmat qiladi. Demak, zamonaviy metodlar nafaqat leksik ko'nikmalarni, balki o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ faolligini ham rivojlantiradi.

Ijtimoiy fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini bilish ularning kasbiy rivoji va ilmiy faoliyati uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki ushbu sohada yaratilayotgan ilmiy ishlarning katta qismi aynan ingliz tilida chop etiladi. Shu sababli, xorijiy manbalarni o'rganish, ularni tahlil qilish va tarjima qilish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [2].

Bundan tashqari, G'arb va Sharq ilmiy maktablari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishda til vositasida amalga oshiriladigan tarjima jarayoni alohida ahamiyatga ega bo'lib, u ilmiy tafakkur integratsiyasini ta'minlaydi [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Ijtimoiy fanlarda ingliz tilining ahamiyati

Ijtimoiy fanlar sohasida yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlarning katta qismi ingliz tilida chop etilishi mazkur tilning global ilmiy makondagi yetakchi o'rnini belgilab bermoqda. Bu esa talabalar va tadqiqotchilar uchun ingliz tilini bilishni muhim kasbiy kompetensiyaga aylantiradi.

Ingliz tilini bilish orqali talabalar:

22. xalqaro ilmiy jurnallar va bazalardan foydalanish,
23. G'arb ilmiy maktablarining ilg'or tajribasini o'rganish,
24. ilmiy muloqotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

B. Hasanov (2020) ta'kidlaganidek, sohaga yo'naltirilgan til o'qitish ta'lim jarayonini real kasbiy ehtiyojlar bilan bog'lash imkonini beradi. Bu esa talabalarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tayyorlaydi [1].

Shu bilan birga, ingliz tili G'arb va Sharq ilmiy tafakkuri o'rtasida vositachi til sifatida xizmat qilib, ilmiy bilimlarning global miqyosda almashinishini ta'minlaydi.

2. ESP yondashuvi va kasbiy rivojlanish

Zamonaviy ta'lim tizimida ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi ijtimoiy fanlar talabalari uchun eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning aniq kasbiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, tilni real kontekstda o'rganishga imkon yaratadi.

J. Richards va T. Rodgers (2014) fikriga ko'ra, til o'qitish metodlari o'quvchilarning ehtiyojlari va maqsadlariga moslashtirilishi lozim. ESP yondashuvi esa aynan shu tamoyilga asoslanadi.

Bu yondashuv orqali talabalar:

10. sohaga oid terminologiyani chuqur o'zlashtiradi,
11. ilmiy matnlarni tahlil qilishni o'rganadi,
12. tarjima qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi,
13. kasbiy muloqotga tayyorlanadi.

J. Harmer (2007) ta'kidlaganidek, autentik materiallardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, G'arb va Sharq manbalarini taqqoslab o'rganish talabalar tafakkurini kengaytiradi [2].

3. Tarjima jarayoni va madaniyatlararo omillar

Ijtimoiy fanlar doirasida ingliz tilini o'rganish bevosita tarjima faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki talabalar ko'pincha xorijiy ilmiy matnlarni o'zlashtirish jarayonida tarjimaga murojaat qiladi.

Tarjima jarayonida quyidagi muammolar yuzaga keladi:

24. terminologik noaniqliklar,
25. madaniy farqlar,
26. kontekstual tafovutlar,
27. stilistik xususiyatlar.

M. Niyozova (2021) ta'kidlaganidek, kasbiy yo'nalishda ingliz tilini o'qitishda tarjima ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

G'arb va Sharq ilmiy maktablari o'rtasidagi farqlarni to'g'ri anglash va ularni adekvat tarzda tarjima qilish talabalar uchun nafaqat til, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi [3].

4. MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlarni kompleks tarzda qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Agar o'qitish jarayonida:

- sohaga yo'naltirilgan metodlar,
- autentik materiallar,
- tarjima mashqlari,
- lingvometodik tahlil

integratsiyalashgan holda qo'llansa, talabalar bilimini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Bu esa ularning mustaqil fikrlashini, ilmiy tahlil qilish qobiliyatini va xalqaro maydonda samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv ilmiy va madaniy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi [5].

Mazkur yondashuvni joriy etish innovatsion metodik yechim sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy fanlar yo'nalishida ingliz tilining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. U nafaqat aloqa vositasi, balki

ilmiy faoliyatni tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va bilimlar almashinuvini ta'minlashning muhim omilidir.

Sohaga yo'naltirilgan o'qitish, ayniqsa ESP yondashuvi orqali talabalarni kasbiy jihatdan tayyorlash, ularning tarjima va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa ularni global ilmiy makonga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Shuningdek, ingliz tilini chuqur o'rganish va uni amaliy faoliyatda qo'llash orqali G'arb va Sharq o'rtasidagi ilmiy-adabiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Natijada, zamonaviy talablar darajasida fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov, B. (2020). *Oliy ta'limda chet tilini sohaga yo'naltirib o'qitishning metodik asoslari*. Toshkent.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Longman.
4. Niyozova, M. (2021). *Kasbiy yo'nalishda ingliz tili o'qitishning dolzarb masalalari*. TDPU ilmiy to'plami.
5. Maxsudov, M. I., & Maxsudova, M. S. (2025). *Bridging Foreign Language and Literature with Business Development: A Pathway to Global Success*. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

INGLIZ TILI DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHNI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Abdulaxatova Shohsanam Adhamjon qizi

University of Business and Science

Filologiya fakulteti

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası

stajyor-o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Shu maqolada ingliz tili darslarida talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Fanlararo integratsiya, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *kreativ fikrlash, integrativ yondashuv, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, fanlararo integratsiya.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются педагогические возможности интегративного подхода в развитии креативного мышления студентов на занятиях по английскому языку. Проанализирована эффективность образовательного процесса, организованного на основе междисциплинарной интеграции, создания проблемных ситуаций, интерактивных методов и системы творческих заданий.

Ключевые слова: *креативное мышление, интегративный подход, интерактивные методы, проблемное обучение, междисциплинарная интеграция.*

ABSTRACT: This article examines the pedagogical potential of an integrative approach in developing students' creative thinking skills in English language classes. The effectiveness of the educational process organized on the basis of interdisciplinary integration, problem-based situations, interactive methods, and a system of creative tasks is analyzed.

Keywords: *creative thinking, integrative approach, interactive methods, problem-based learning, interdisciplinary integration.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa uning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatda bilim olish jarayoni faqat ma'lumotni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini rivojlantirishni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish jarayoni nafaqat kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, balki talabalarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni qaror toptirishga xizmat qilishi zarur.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari ko'proq tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish uchun yetarli imkoniyat yaratmaydi. Natijada o'quv jarayonida faollik, mustaqillik va yangicha fikrlash darajasi past bo'lib qolishi mumkin. Shu bois ingliz tili darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvga tayanish, ya'ni turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, o'quv materialini real hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish hamda talabalarning faol ishtirokiga asoslangan ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ingliz tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning samarali qo'llanish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Kreativ fikrlash muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan bo'lib, u shaxsning mavjud bilim va tajribaga tayangan holda muammolarga noodatiy yondashishi, yangi g'oyalar ilgari surishi hamda original yechimlar ishlab chiqish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur tushuncha ilk bor ilmiy jihatdan J. P. Guilford tomonidan asoslab berilgan bo'lib, u kreativlikni tafakkurning divergent shakli bilan bog'laydi. Keyinchalik E. P. Torrance kreativ fikrlashni rivojlantirishning mezonlari va diagnostik usullarini ishlab chiqib, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yanada kengroq ochib bergan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kreativlikni rivojlantirishda faol va interfaol ta'lim metodlarining ustuvorligi ta'kidlanadi. Jumladan, J. Dewey ta'limni faoliyat bilan bog'lash zarurligini asoslab, o'quvchining mustaqil fikrlashi aynan amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. L. S. Vygotsky esa ijtimoiy muhit va hamkorlikdagi o'qitish orqali yuqori darajadagi tafakkur rivojlanishini izohlaydi. Shuningdek, M. A. Danilov va B. P. Yesipovlar muammoli ta'lim metodlari orqali o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatib o'tgan.

Integrativ yondashuv masalasi ham ta'lim nazariyasida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida turli fanlar, bilimlar va faoliyat turlarini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslanadi. Integratsiyani bilimlarni tizimli o'zlashtirishning muhim omili sifatida baholagan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda u o'quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, bilimlarni turli kontekstlarda qo'llash va kognitiv faollikni oshirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Chet tilini o'qitish metodikasida integrativ yondashuvni qo'llash kommunikativ, kognitiv va kreativ kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish imkonini yaratadi. Bu borada E. I. Passov kommunikativ yondashuv asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarning nutqiy faoliyati bilan bir qatorda ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, D. Nunan ta'lim jarayonini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, ingliz tili darslari o'zining kommunikativ yo'naltirilganligi, interfaol metodlarga boyligi va turli mazmundagi materiallarni qamrab olishi bilan kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhit yaratadi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar esa talabalarning nafaqat til kompetensiyalarini, balki ularning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Integrativ yondashuv asosida ingliz tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat tizimi ishlab chiqildi. Tadqiqot olib jarayonida quyidagi metodlardan foydalandik: pedagogik kuzatuv; tajriba-sinov ishlari; taqqoslash va tahlil; interfaol metodlarni amaliy qo'llash; natijalarni diagnostik baholash. Talabalarning kreativ fikrlash darajasi kognitiv-anglash, tahliliy-integrativ va ijodiy-refleksiv mezonlar asosida baholandi.

Integrativ yondashuv asosida ingliz tili darslarini tashkil etish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirildi:

Ta'lim jarayonida ingliz tili boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rgatildi. Xususan, tarix, madaniyat, axborot texnologiyalari va ijtimoiy fanlarga oid materiallardan foydalanish orqali o'quv mazmuni boyitildi. Bu esa talabalarning bilimlarni turli kontekstlarda qo'llashiga, voqelikni kengroq idrok etishiga hamda mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga imkon yaratdi.

Dars jarayonida talabalarning fikrlash faolligini oshirish maqsadida muammoli vaziyatlar tizimli ravishda tashkil etildi. Bunda real hayotga yaqin vaziyatlar asosida savol va topshiriqlar berilib, talabalar mustaqil yechim izlashga yo'naltirildi. Masalan, "Global muammolar", "Kelajak kasblari", "Sun'iy intellektning jamiyatga ta'siri" kabi mavzular asosida munozaralar tashkil etildi. Bu yondashuv talabalarda noodatiy fikrlash va innovatsion qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida ingliz tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba jarayonida talabalar ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (integrativ yondashuv asosida ta'lim tashkil etilgan) va nazorat guruhi (an'anaviy metodlar asosida ta'lim olib borilgan).

Tajriba boshlanishida har ikki guruh talabalari kreativ fikrlash darajasi bo'yicha deyarli bir xil ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Dastlabki diagnostika

natijalariga ko'ra, talabalar orasida reproduktiv daraja ustunlik qilgan bo'lib, tahliliy va ijodiy-refleksiv darajadagi ko'rsatkichlar nisbatan past bo'lgan.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan ancha samarali hisoblanadi. Bu esa mazkur yondashuvni ingliz tili ta'limi jarayoniga keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz tili darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuvning yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning nafaqat til kompetensiyalarini, balki ularning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Integrativ yondashuvning qo'llanilishi natijasida talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, yangi g'oyalar ilgari surish hamda o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa ta'lim jarayonining faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini ochib berishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ijodiy topshiriqlar tizimi, interfaol metodlar va fanlararo integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etish mexanizmi ingliz tili ta'limining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu yondashuv talabalarning o'quv faolligini kuchaytirib, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltiradi. Umuman olganda, ingliz tili darslarida integrativ yondashuvni joriy etish zamonaviy ta'lim talablariga mos bo'lib, talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yondashuv asosida ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, uni turli ta'lim bosqichlarida keng qo'llash hamda metodik jihatdan boyitish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Yusupov L. S. Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar // *Maktab ta'limi jurnali*. – 2025. – №12. – B. 190–195.

2.Matkarimova M. O'quvchilarga kreativ yondashuv asosida ingliz tili o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari // *Yosh olimlar ilmiy jurnali*. – 2024. – №2(6). – B. 46–47.

3.Istamova G. U. Xorijiy tilni o'qitishda inkluziv metodlar va innovatsion yondashuvlar // *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari*. – 2024.

4.Yusupov L. S. Kreativ pedagogikaning ingliz tilini o'rganishdagi o'rni // *CyberLeninka ilmiy platformasi*. – 2023.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. *Chet tillarini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi*. – Toshkent, 2021.

6.Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. *Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi*. – Toshkent, 2025.

INGLIZ TILINI INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA O'QITISH ORQALI TALABALARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Abdulaxatova Shohsanam Adxamjon qizi

UBS Filologiya fakulteti,

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

@abdulaxatovashosanam94.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini innovatsion ta'lim muhitida o'qitish orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlar, raqamli ta'lim platformalari hamda talaba markazli yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada kreativ fikrlashni shakllantirishda kommunikativ yondashuv, task-based learning (TBLT), project-based learning (PBL) hamda kollaborativ o'qitish metodlarining samaradorligi asoslab beriladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish (Kahoot, Quizlet, Google Classroom va boshqalar) orqali ta'lim jarayonini faollashtirish, talabalar motivatsiyasini oshirish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *innovatsion ta'lim, kreativ fikrlash, ingliz tilini o'qitish, didaktik imkoniyatlar, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, TBLT, PBL, kommunikativ yondashuv, talaba markazli ta'lim*

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of developing students' creative thinking skills through teaching English in an innovative educational environment. The study highlights modern pedagogical technologies, in particular the didactic potential of interactive methods, digital learning platforms, and student-centered approaches. The article substantiates the effectiveness of communicative approaches, task-based learning (TBLT), project-based learning (PBL), and collaborative teaching methods in fostering creative thinking. It also demonstrates the possibilities of enhancing the educational process, increasing student motivation, and developing independent thinking through the use of digital tools (Kahoot, Quizlet, Google Classroom, etc.).

Keywords: innovative education, creative thinking, English language teaching, didactic potential, digital technologies, interactive methods, TBLT, PBL, communicative approach, student-centered learning.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются теоретические и практические аспекты развития креативного мышления студентов посредством обучения английскому языку в инновационной образовательной среде. В исследовании освещаются современные педагогические технологии, в частности дидактический потенциал интерактивных методов, цифровых образовательных платформ и студентоцентрированного подхода. В статье обосновывается эффективность коммуникативного подхода, обучения на основе заданий (TBLT), проектного обучения (PBL), а также коллаборативных методов обучения в формировании креативного мышления. Также показаны

возможности активизации образовательного процесса, повышения мотивации студентов и развития их самостоятельного мышления с использованием цифровых инструментов (Kahoot, Quizlet, Google Classroom и др.).

Ключевые слова: инновационное образование, креативное мышление, обучение английскому языку, дидактический потенциал, цифровые технологии, интерактивные методы, TBLT, PBL, коммуникативный подход, студентоцентрированное обучение.

Kirish: Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda xalqaro hamkorlikning kengayishi chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, biznes va ta'lim sohalarida asosiy kommunikativ platformaga aylangan. Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimi oldida faqatgina tilni o'rgatish emas, balki uni samarali qo'llay oladigan, mustaqil va kreativ fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. An'anaviy ta'lim metodlari ko'pincha bilimlarni reproduktiv tarzda o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, talabalar ijodiy fikrlashini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Bunday yondashuvda talabalar ko'proq passiv tinglovchi sifatida ishtirok etadi va real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois, zamonaviy pedagogikada innovatsion ta'lim muhitini yaratish, ya'ni interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va talaba markazli yondashuvlarni integratsiya qilish dolzarb masalaga aylangan. Innovatsion ta'lim muhiti — bu o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, interfaol metodlarni qo'llash hamda o'quvchini faol subyekt sifatida jalb etishga asoslangan tizimdir. Bunday muhit talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, kreativ yechimlar ishlab chiqishga undaydi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda bu yondashuv kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan birga, talabalar tafakkurining moslashuvchanligi va ijodkorligini oshirishga xizmat qiladi. Kreativ fikrlash bugungi ta'lim tizimining muhim komponentlaridan biri bo'lib, u talabalarning yangi g'oyalarni yaratish, muammolarga noodatiy yondashish hamda turli vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun task-based learning (TBLT), project-based learning (PBL), problem-based learning kabi metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, innovatsion ta'lim muhitida ingliz tilini o'qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi hali to'liq o'rganilmagan va amaliy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli, ushbu maqolada innovatsion yondashuvlarning didaktik imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri aniqlanadi.

Tadqiqotning maqsadi — ingliz tilini innovatsion ta'lim muhitida o'qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslarini o'rganish;

kreativ fikrlash tushunchasining pedagogik mohiyatini tahlil qilish;

ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metodlarning samaradorligini aniqlash;
interfaol va raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini baholash.

Metodologiya Mazkur tadqiqot ingliz tilini innovatsion ta'lim muhitida o'qitish orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda aralash metodologik yondashuv (mixed-methods approach) qo'llanildi. Ushbu yondashuv sifat va miqdoriy tahlil usullarini uyg'unlashtirish orqali tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqqoniyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot dizayn Tadqiqot eksperimental va kuzatuv xarakteriga ega bo'lib, unda an'anaviy va innovatsion ta'lim yondashuvlari taqqoslab o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ikki guruh shakllantirildi: nazorat guruhi (an'anaviy metodlar asosida o'qitilgan) va eksperimental guruh (innovatsion metodlar asosida o'qitilgan). Bu yondashuv orqali innovatsion metodlarning samaradorligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot ishtirokchilari Tadqiqotda oliy ta'lim muassasasining 1–2-bosqich talabalari ishtirok etdi. Umumiy ishtirokchilar soni 40 nafar bo'lib, ular teng ravishda ikki guruhga taqsimlandi. Talabalar ingliz tilini bilish darajasiga ko'ra o'rta (B1–B2) darajada bo'lib, bu ularning kommunikativ faoliyatda faol ishtirok etishiga imkon yaratdi.

Tadqiqot metodlari Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tahliliy metod – mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar, maqolalar va tadqiqotlarni o'rganish va umumlashtirish;

Taqqoslash metodi – an'anaviy va innovatsion o'qitish usullarining samaradorligini solishtirish;

Kuzatish metodi – dars jarayonida talabalarning faolligi, ishtiroki va kreativ yondashuvlarini tahlil qilish;

So'rovnoma (survey) – talabalar fikri va motivatsiyasini aniqlash;

Test sinovlari – talabalar bilim darajasi va kreativ fikrlash ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni baholash.

Ta'lim jarayonida qo'llanilgan innovatsion metodlar Eksperimental guruhda quyidagi zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo'llanildi:

Task-Based Language Teaching (TBLT) – real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali til o'rganish;

Project-Based Learning (PBL) – talabalarni mustaqil loyiha ishlari orqali izlanishga undash;

Problem-Based Learning – muammoli vaziyatlar orqali tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish;

Gamification (o'yinlashtirish) – dars jarayoniga o'yin elementlarini kiritish orqali motivatsiyani oshirish.

Shuningdek, quyidagi raqamli vositalardan foydalanildi:

Kahoot – test va viktorinalar orqali bilimni mustahkamlash;

Quizlet – yangi so'zlarni o'rganish va takrorlash;

Google Classroom – topshiriqlarni boshqarish va feedback berish;

Padlet – g'oyalar almashish va kollaborativ ishlash

Wordwall – quiz o'yinlaridan.

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari Yig'ilgan ma'lumotlar sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. Statistik tahlil orqali eksperimental va nazorat guruhleri natijalari solishtirildi. Sifat tahlili esa talabalarning kreativ fikrlash darajasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va darsdagi faolligini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotning ishonchliligi va cheklovlari Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun turli metodlar kombinatsiyasi qo'llanildi. Biroq ayrim cheklovlar ham mavjud:

ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi;

tadqiqotning qisqa muddatda olib borilgani;

texnik imkoniyatlarning barcha joyda bir xil emasligi.

Shunga qaramay, olingan natijalar innovatsion ta'lim muhitining samaradorligini aniqlash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi. Natijalar Innovatsion ta'lim muhiti joriy etilgach, o'quv jarayonida bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Avvalo, talabalarning kreativ fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlandi. Zamonaviy interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va loyiha ishlari orqali talabalar nafaqat berilgan ma'lumotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va mustaqil yechim topish ko'nikmalarini ham rivojlantirdilar. Bu esa ularning ijodiy yondashuvini kuchaytirib, original fikr bildirish imkoniyatini oshirdi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya darajasi oshgani aniqlandi. Guruhli ishlar, juftlikda bajariladigan mashqlar, munozaralar va taqdimotlar orqali talabalar o'z fikrlarini aniq va izchil ifoda etishga o'rgandilar. Ular tinglab tushunish, fikrga munosabat bildirish, savol berish va javob qaytarish kabi nutqiy ko'nikmalarni faol ravishda rivojlantirdilar. Natijada, talabalar o'rtasidagi o'zaro muloqot sifati yaxshilandi va ular ingliz tilida erkinroq gapira boshladilar.

Yana bir muhim natija sifatida **raqamli savodxonlikning shakllangani** qayd etildi. Ta'lim jarayonida turli raqamli vositalar va platformalardan foydalanish (masalan, onlayn testlar, taqdimot dasturlari, interaktiv platformalar) talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatdi. Talabalar axborotni izlash, tanlash, qayta ishlash va taqdim etish jarayonida raqamli resurslardan samarali foydalanishni o'zlashtirdilar. Bu esa ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham mustahkamladi.

Bundan tashqari, **talabalar motivatsiyasining oshgani** ham muhim natijalardan biri bo'ldi. Innovatsion va interaktiv yondashuv darslarni yanada qiziqarli va dinamik qildi. O'quvchilarning faol ishtiroki, baholashning shaffofligi hamda tezkor feedback tizimi ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etishga intildilar, topshiriqlarni bajarishda mas'uliyatni his qildilar va o'z natijalarini yaxshilashga harakat qildilar.

Umuman olganda, innovatsion ta'lim muhiti talabalarning nafaqat akademik bilim va ko'nikmalarini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday yondashuv o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama (Discussion)

Innovatsion yondashuv ta'lim jarayonida talabalarning rolini sezilarli darajada o'zgartirib, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va talabaga yo'naltirilgan o'qitish strategiyalari orqali o'quvchilar dars jarayonida faol qatnashish, o'z fikrini bildirish, muammolarni mustaqil hal qilish hamda hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va o'quv jarayoniga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Natijada, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni yanada chuqur va samarali kechadi.

Shu bilan birga, innovatsion yondashuvni samarali joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, **texnik muammolar** — internet aloqasining barqaror emasligi, zarur texnologik vositalarning yetarli emasligi yoki dasturiy ta'minot bilan bog'liq nosozliklar — dars jarayonining uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlar o'quv faoliyatini sekinlashtiradi va rejalashtirilgan topshiriqlarning to'liq bajarilmasligiga olib keladi.

Bundan tashqari, **o'qituvchilarning tayyorgarligi** ham muhim omillardan biridir. Innovatsion metodlar va raqamli vositalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar yetarli darajada metodik va texnik bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Agar o'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda qiynalsa yoki innovatsion yondashuvlarni yetarlicha bilmasa, bu ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilarni muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, treninglar va amaliy seminarlar orqali qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, innovatsion yondashuv ta'lim samaradorligini oshiradi, biroq uning muvaffaqiyatli joriy etilishi texnik infratuzilma va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga bevosita bog'liqdir.

Xulosa (Conclusion)

Ingliz tilini innovatsion ta'lim muhiti sharoitida o'qitish talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va talabaga yo'naltirilgan qiladi. Bunday muhitda talabalar nafaqat til bilimlarini egallaydilar, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash va o'z fikrini erkin ifoda etish kabi muhim ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda yanada keng qamrovli va chuqur tadqiqotlar olib borish zarur. Kelajakdagi izlanishlarda turli innovatsion metodlarning samaradorligini solishtirish, ularning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish hamda turli ta'lim sharoitlarida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Bu esa ingliz tilini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Richards, J. C. & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson.
3. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.

4. Willis, J. (1996). *A Framework for Task-Based Learning*. Longman.
5. Chapelle, C. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.
6. **O'zbek va internet manbalari:**
7. Xolbekov, M. (2019). O'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
8. G'afforov, A. (2020). Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish. Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti:
10. Ziyonet ta'lim portali:
11. Google Scholar ilmiy maqolalar bazasi:

ENHANCING FOREIGN LANGUAGE LEARNING THROUGH DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS

Shakhnoza Ismatova

PhD, Associate Professor

Uzbek State University of World Languages

Abstract: The rapid advancement of digital technologies has significantly transformed foreign language education, introducing innovative tools that enhance teaching and learning processes. This article examines the role of digital educational tools in foreign language learning, focusing on conceptual foundations, types of tools, pedagogical benefits, implementation strategies, and empirical evidence. The study synthesizes existing literature and highlights both opportunities and challenges associated with integrating digital tools into language education. The findings suggest that digital tools improve learner engagement, autonomy, and language proficiency when applied effectively.

Keywords: Digital learning, foreign language education, e-learning, mobile-assisted language learning, educational technology

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi chet tilidagi ta'limni sezilarli darajada o'zgartirdi, o'qitish va o'qitish jarayonlarini yaxshilaydigan innovatsion vositalarni joriy qildi. Ushbu maqolada kontseptual asoslar, vositalar turlari, pedagogik imtiyozlar, amalga oshirish strategiyalari va empirik dalillarga e'tibor qaratilib, xorijiy tillarni o'rganishda raqamli ta'lim vositalarining roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot mavjud adabiyotlarni sintez qiladi va raqamli vositalarni til ta'limiga integratsiya qilish bilan bog'liq imkoniyatlar va muammolarni ta'kidlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar samarali qo'llanilganda o'quvchilarning faolligini, avtonomiyasini va tilni bilish darajasini oshiradi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, chet tilini o'qitish, elektron ta'lim, mobil yordam tillarini o'rganish, ta'lim texnologiyasi

Аннотация: Быстрое развитие цифровых технологий значительно изменило преподавание иностранных языков, внедрив инновационные

инструменты, которые улучшают процессы обучения. В данной статье рассматривается роль цифровых образовательных инструментов в изучении иностранных языков, с акцентом на концептуальные основы, типы инструментов, педагогические преимущества, стратегии внедрения и эмпирические данные. Исследование обобщает существующую литературу и освещает как возможности, так и проблемы, связанные с интеграцией цифровых инструментов в языковое образование. Результаты показывают, что цифровые инструменты при эффективном применении повышают вовлеченность учащихся, их самостоятельность и уровень владения языком.

Ключевые слова: Цифровое обучение, изучение иностранных языков, электронное обучение, изучение языков с помощью мобильных устройств, образовательные технологии.

Introduction

In the era of globalization and digital transformation, foreign language learning has become an essential competency. The integration of digital technologies into education has reshaped traditional teaching methods, enabling more interactive, flexible, and learner-centered approaches. Digital educational tools provide learners with access to authentic materials, real-time communication, and personalized learning experiences.

The increasing demand for multilingual communication in academic, professional, and social contexts necessitates the adoption of innovative teaching strategies. Digital tools such as mobile applications, learning management systems (LMS), and artificial intelligence-based platforms play a crucial role in modern language education.

This article aims to explore the theoretical and practical aspects of digital educational tools in foreign language learning, analyze their effectiveness, and identify challenges and future directions.

Research on digital language learning has expanded significantly over the past two decades. Early studies emphasized computer-assisted language learning (CALL), while recent research focuses on mobile-assisted language learning (MALL) and AI-driven tools.

Chapelle [1] highlighted the importance of interaction and feedback in technology-enhanced language learning. Warschauer [7] emphasized the role of technology in facilitating communication and collaboration. More recent studies [4] demonstrate the effectiveness of mobile technologies in improving vocabulary acquisition and learner motivation.

Empirical research indicates that digital tools enhance learner autonomy and engagement. However, challenges such as digital divide, lack of teacher training, and technological limitations remain significant. Based on international experiences, modernization of higher education and advanced educational technologies, the use of various taxonomies in the evaluation of students' educational results has been systematically established [3; p.384].

Digital educational tools refer to technological resources designed to support teaching and learning processes. These tools are grounded in constructivist and

connectivism learning theories, which emphasize active learning, collaboration, and knowledge construction.

Constructivism. Constructivist theory suggests that learners actively construct knowledge through interaction and experience. Digital tools support this by providing interactive environments and problem-solving tasks.

Connectivism. Connectivism focuses on learning through networks and digital connections. Online platforms and social media enable learners to engage in authentic communication.

Table.1.

4. Types of Digital Educational Tools

Pedagogical Benefits. Digital tools offer several advantages:

- Increased learner engagement through interactive content
- Personalized learning experiences
- Immediate feedback and assessment
- Access to authentic language resources
- Development of communicative competence

Studies show that students using digital tools demonstrate higher motivation and improved language skills.

Picture 1. Effective integration of digital tools.

Implementation Strategies shows that Blended learning models combining traditional and digital methods are particularly effective. Mind maps aid learners in visualizing information more effectively by capturing key points and their connections, thus simplifying the understanding of complex topics [5; p. 341.]

Challenges and Limitations. Despite their benefits, digital tools present challenges:

- Digital divide and unequal access
- Technical issues
- Lack of pedagogical training
- Overdependence on technology

Addressing these challenges is essential for successful implementation.

Empirical Evidence. Empirical studies demonstrate positive outcomes of digital tools in language learning. Mobile learning improves vocabulary retention, while online platforms enhance speaking and listening skills.

However, results vary depending on context, tool design, and implementation quality.

The integration of digital tools represents a paradigm shift in language education. While technology enhances learning, it should complement rather than replace traditional methods.

Future research should focus on long-term effects, AI integration, and inclusive education.

Conclusion

Digital educational tools have transformed foreign language learning by providing innovative, flexible, and effective learning environments. Their successful

implementation depends on pedagogical design, teacher training, and infrastructure support.

REFERENCES:

1. Chapelle, C. A. (2001). Computer applications in second language acquisition. Cambridge University Press.
2. Ismatova, S. M., & Mukhamedjanova, N. D. (1899). *TEACHING ENGLISH IN INCLUSIVE EDUCATION BASED ON SMART TECHNOLOGY. Results of National Scientific Research International Journal*, 2 (2), 101-106.
3. Ismatova, Sh. M. (2022). The example of foreign countries on the improvement of assessment technologies in English language teaching. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 08 (112), 383-387. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-112-40> Doi:
4. Kukulska-Hulme, A., & Shield, L. (2008). An overview of mobile-assisted language learning. *ReCALL*, 20(3), 271–289.
5. Shakhnoza, I., Laziza, R., & Feruza, B. (2024). The Role of Mind Mapping to Improve Reading Skill in A2 Learners. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(5), 340-343.
6. Stockwell, G. (2013). Mobile-assisted language learning. *Language Learning & Technology*, 17(3), 1–15.
7. Warschauer, M. (2004). Technological change and the future of CALL.

AN EXPERIMENTAL STUDY OF TEACHING VOCABULARY USING INTERACTIVE TECHNIQUES IN PRIMARY AND SECONDARY ENGLISH CLASSES

Tursunova Shohsana

Mirzokhid Khoraboev

Associate Professor of the Department of English Language and Literature

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda leksik birliklarni interfaol metodlar yordamida o'rgatish samaradorligi o'rganiladi. Tadqiqot 52-maktabning 3 va 5-sinf o'quvchilari ishtirokida bir oy davomida olib borildi. Tajriba jarayonida turli interfaol mashg'ulotlar, jumladan, rolli o'yinlar, juftlikdagi ishlash va rasm asosida so'z o'rgatish usullaridan foydalanildi. Natijalar interfaol metodlar o'quvchilarning lug'at boyligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: leksik ko'nikma, interfaol metodlar, ingliz tilini o'qitish, tajriba tadqiqoti, lug'at boyligini rivojlantirish, dars jarayonidagi faollik

ABSTRACT. This article investigates the effectiveness of interactive techniques in teaching vocabulary in English classes. The study was conducted with 3rd and 5th grade students at School No. 52 during a one-month experiment. Various interactive activities such as pair work, role play and picture-based vocabulary tasks were used in the lessons. The results demonstrate that interactive techniques improve vocabulary learning and increase students' classroom participation.

Keywords: *vocabulary teaching, interactive techniques, English language learning, experimental study, vocabulary development, classroom participation.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается эффективность применения интерактивных методов при обучении лексике на уроках английского языка. Исследование проводилось в школе №52 среди учащихся 3 и 5 классов в течение одного месяца. В процессе обучения использовались различные интерактивные задания: работа в парах, ролевые игры и упражнения на основе изображений. Результаты показали положительное влияние данных методов на развитие словарного запаса учащихся.

Ключевые слова: лексические навыки, интерактивные методы, обучение английскому языку, экспериментальное исследование, развитие словарного запаса, активность учащихся.

Introduction.

In recent years, the role of foreign language learning has significantly increased in modern education systems. English, in particular, has become an international language used in science, technology, education, and global communication. Therefore, teaching English effectively at school has become an important task for language teachers. One of the main goals of English language teaching is to develop students' communicative competence, which enables learners to express their thoughts and ideas in a foreign language.

Vocabulary plays a central role in language learning because it forms the basis of communication. Without sufficient vocabulary knowledge, learners cannot effectively express their thoughts even if they know grammatical structures. For this reason, developing students' vocabulary skills is considered one of the most important aspects of teaching English. Teachers need to use effective teaching methods that help students understand, remember, and use new words in real communication.

Traditional vocabulary teaching methods often focus on memorizing word lists and translating new words. However, such approaches may not always lead to effective learning outcomes because students may quickly forget the words they memorize without using them in practice. Modern language teaching methodology emphasizes the importance of using interactive and communicative techniques that encourage students to actively participate in the learning process.

Interactive techniques create a more engaging learning environment where students are involved in different classroom activities such as pair work, group discussions, role plays, games, and problem-solving tasks. These activities provide opportunities for students to practice new vocabulary in meaningful contexts. As a result, learners not only remember new words more easily but also learn how to use them appropriately in communication.

The effectiveness of interactive methods in language teaching has attracted the attention of many researchers and educators. Studies show that interactive activities increase students' motivation, participation, and overall engagement in classroom learning. When students are actively involved in the learning process, they tend to develop better language skills and retain vocabulary more successfully.

Based on these considerations, the present study aims to investigate the effectiveness of interactive techniques in teaching vocabulary to English learners. The experiment was conducted with 3rd and 5th grade students at School No. 52.

During the experiment, various interactive activities were used in order to improve students' vocabulary skills and increase their participation in English lessons.

Methodology

The present study was conducted to examine the effectiveness of interactive techniques in teaching vocabulary to young learners. The research was carried out at School No. 52 with students of the 3rd and 5th grades. A total of 30 students participated in the experiment. The students were divided into two groups consisting of 15 learners in each group. The experiment lasted for one month during regular English lessons.

The research was designed as a classroom-based experimental study. During the experiment various interactive teaching techniques were applied in order to improve students' vocabulary skills. These techniques included pair work activities, role plays, vocabulary games, and picture description tasks. Such activities encouraged students to actively participate in the lesson and use new lexical items in meaningful contexts.

Interactive language teaching focuses on creating opportunities for students to communicate and practice language through collaborative activities. According to Harmer (2007), interactive classroom activities such as pair work and group discussions provide learners with more chances to practice language and improve their communication skills. These techniques help students become more confident and actively involved in the learning process.

Another important aspect of vocabulary learning is the repeated exposure to new lexical items in different contexts. When students encounter new words several times in meaningful situations, they are more likely to remember and use them in communication. Nation (2008) emphasizes that repeated encounters with vocabulary items and their contextual use play a crucial role in developing learners' vocabulary knowledge.

During the experimental lessons different interactive tasks were introduced to help students practice newly learned words. For example, students worked in pairs to create short dialogues using new vocabulary, participated in vocabulary games, and described pictures using newly learned words. These activities aimed to provide students with opportunities to practice vocabulary in communicative situations.

The effectiveness of these techniques was observed through students' classroom participation, their ability to use new vocabulary in speaking activities, and their overall engagement during lessons. The results of the experiment were later analyzed to determine the impact of interactive techniques on students' vocabulary learning.

Results and Discussion

The results of the experimental study demonstrated that the use of interactive techniques had a positive impact on students' vocabulary development and classroom participation. During the one-month experiment students showed greater interest in English lessons and became more actively involved in classroom activities. Compared to traditional vocabulary teaching methods, interactive activities created a more engaging learning environment where students were motivated to use new words in communication.

One of the most noticeable outcomes of the experiment was the improvement in students' participation during English lessons. Activities such as pair work, role plays, vocabulary games and picture description encouraged learners to communicate with each other and practice newly learned words. When students were given opportunities to use vocabulary in real communicative situations, they were more confident and willing to speak during the lessons.

The results also indicated that interactive activities helped students remember new vocabulary more effectively. When learners used new lexical items in different classroom tasks, the words were repeated several times in meaningful contexts. Such repeated exposure is considered an important factor in vocabulary acquisition because learners are more likely to retain words that they encounter frequently in communication (Nation, 2008).

Another important finding of the study was the increase in students' motivation. Interactive activities created a dynamic classroom atmosphere where learners were actively involved in the learning process. Students appeared more interested in completing vocabulary tasks when they were presented in the form of games or communicative activities. According to Harmer (2007), interactive classroom activities encourage student participation and help create a supportive learning environment in which learners feel more confident using a foreign language.

Furthermore, the experiment showed that contextual learning played a significant role in helping students understand and use new vocabulary. Instead of memorizing isolated word lists, students practiced vocabulary through dialogues, picture-based activities, and communicative tasks. Such contextualized learning helps students understand how words function in real language use and improves their ability to apply vocabulary in different situations. Thornbury (2002) notes that vocabulary is learned more effectively when it is presented and practiced within meaningful contexts rather than as isolated items.

Overall, the findings of the experiment suggest that interactive techniques are an effective tool for teaching vocabulary in English classes. The use of communicative activities not only improves vocabulary learning but also increases students' engagement and confidence in using the language. These results confirm that interactive teaching approaches can significantly enhance vocabulary development in primary and secondary English classrooms.

Conclusion

The present study examined the effectiveness of interactive techniques in teaching vocabulary to English learners in primary and secondary school classes. The results of the experimental lessons showed that the use of interactive activities can significantly improve students' vocabulary learning and classroom participation. When students were involved in communicative tasks such as pair work, role plays, vocabulary games and picture description activities, they were more motivated to participate in the learning process and actively use newly learned words.

One of the important outcomes of the study is that interactive techniques help create a learner-centered classroom environment. In such an environment students are not passive listeners but active participants in the learning process. This type of classroom interaction allows learners to practice vocabulary in meaningful situations

and encourages them to communicate with their classmates. As a result, students gradually develop confidence in using English during classroom activities.

The findings also suggest that contextual learning plays a key role in vocabulary acquisition. When new lexical items are introduced through communicative activities rather than simple memorization, students are able to understand the meaning and usage of words more clearly. Repeated exposure to vocabulary in different tasks helps learners remember words for a longer period of time and apply them in various communicative situations.

Another important aspect revealed by the experiment is the positive influence of interactive activities on students' motivation. Learners showed greater interest in English lessons when vocabulary tasks were presented in an engaging and dynamic format. Activities such as games and collaborative tasks created a supportive classroom atmosphere where students felt comfortable expressing their ideas in English.

Based on the results of the study, it can be concluded that the integration of interactive techniques into English lessons can significantly enhance vocabulary learning among young learners. Teachers are encouraged to incorporate communicative and interactive activities into their teaching practice in order to create more effective and engaging language learning environments.

Future studies may focus on conducting longer experimental research with larger groups of students in order to further investigate the impact of interactive methods on vocabulary acquisition. Such studies could provide deeper insights into effective strategies for improving vocabulary teaching in English language classrooms.

References.

1. Brown, H. D. (2014). Principles of Language Learning and Teaching (6th ed.). Pearson Education.
2. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Longman.
3. Nation, I. S. P. (2008). Teaching Vocabulary: Strategies and Techniques. Heinle Cengage Learning.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Thornbury, S. (2002). How to Teach Vocabulary. Longman.
6. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford University Press.

METAKOGNITIV YONDASHUV TUSHUNCHASI VA UNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MOHIYATI

Mamadjanova Shoxida Nemat qizi
Namangan davlat universiteti doktoranti
@mamadjanovashohida545gmail.com
Tel: +998975930039

Annotatsiya: Mazkur tezisda metakognitiv yondashuv tushunchasi va uning psixologik-pedagogik mohiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Metakognitsiyaning

tarkibiy komponentlari, ya'ni metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat jarayonlari yoritilib, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, metakognitiv strategiyalarning talabalarda mustaqil o'rganish, refleksiya va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Chet tillarini o'qitish jarayonida metakognitiv yondashuvning yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *metakognitsiya, metakognitiv yondashuv, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish, nutq ko'nikmalari, yozma nutq, og'zaki nutq, ta'lim samaradorligi*

Abstract: This thesis analyzes the concept of the metacognitive approach and its psychological and pedagogical essence. The structural components of metacognition, including metacognitive knowledge and metacognitive regulation, are examined in detail, and their impact on learning effectiveness is revealed. The role of metacognitive strategies in developing students' independent learning, reflection, and self-regulation skills is substantiated. Furthermore, the importance of the metacognitive approach in improving written and oral communication skills in foreign language teaching is highlighted.

Keywords: *metacognition, metacognitive approach, reflection, self-regulation, language skills, writing, speaking, learning effectiveness*

Аннотация: В данном тезисе анализируется понятие метакогнитивного подхода и его психолого-педагогическая сущность. Раскрываются структурные компоненты метакогниции, включая метакогнитивные знания и метакогнитивный контроль, а также их влияние на эффективность обучения. Обосновывается роль метакогнитивных стратегий в формировании у студентов навыков самостоятельного обучения, рефлексии и саморегуляции. Особое внимание уделяется значению метакогнитивного подхода в развитии письменной и устной речи при обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: *метакогниция, метакогнитивный подход, рефлексия, саморегуляция, речевые навыки, письменная речь, устная речь, эффективность обучения*

KIRISH

Globalashuv, raqamli texnologiyalar rivoji hamda bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Endilikda ta'lim jarayonining asosiy maqsadi faqat tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki talabaning mustaqil fikrlashi, o'z-o'zini boshqarishi va o'rganish strategiyalarini ongli ravishda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu jihatdan, metakognitiv yondashuv zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv o'quvchining bilish jarayonlarini chuqur anglash, ularni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash kabi murakkab kognitiv faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Metakognitsiya tushunchasi ilmiy muomalaga amerikalik psixolog John Flavell tomonidan kiritilgan bo'lib, u shaxsning "o'z fikrlash jarayoni haqida fikrlashi" sifatida izohlanadi [1]. Ushbu yondashuv keyinchalik psixologiya va pedagogika sohalarida keng rivojlanib, ayniqsa o'quvchilarning o'rganish strategiyalarini takomillashtirishda muhim nazariy asosga aylandi. Metakognitiv yondashuvning markazida o'z-o'zini anglash (self-awareness), o'z-o'zini boshqarish

(self-regulation) va refleksiya (reflection) kabi jarayonlar turadi, bu esa talabaning faqat bilim egallashini emas, balki qanday o'rganayotganini ham anglashiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitish metodikasida ham metakognitiv yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. An'anaviy yondashuvlarda o'quv jarayoni ko'proq o'qituvchi faoliyatiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, metakognitiv yondashuvda talaba faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu ayniqsa yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir, chunki nutq faoliyati doimiy ravishda rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilishni talab etadi. Shuningdek, metakognitiv strategiyalarni qo'llash talabalarda kommunikativ kompetensiya, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi [2].

Mazkur muammo ayniqsa iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarda dolzarb hisoblanadi. Chunki ular kelgusida professional faoliyatida ingliz tilida samarali muloqot qilish, iqtisodiy diskursni tushunish va undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lishlari zarur. Shu bois, metakognitiv yondashuv asosida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat lingvistik, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning ham muhim omili sifatida qaraladi.

Shu nuqtai nazardan, metakognitiv yondashuvning psixologik-pedagogik mohiyatini ilmiy asosda o'rganish hamda uni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tezisda metakognitiv yondashuvning nazariy asoslari, uning psixologik mexanizmlari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi hamda ta'lim jarayonida qo'llashning samarali yo'llari yoritiladi.

ASOSIY QISM

Metakognitiv yondashuvning nazariy asoslari zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan nuqtasida shakllangan bo'lib, u bilish jarayonlarini chuqurroq tahlil qilish va samarali boshqarishga qaratilgan konseptual tizimni ifodalaydi. Metakognitsiya tushunchasi John Flavell tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u shaxsning o'z kognitiv faoliyatini anglash va nazorat qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi [1]. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'rganish jarayoni faqat bilimni qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki uni qanday o'zlashtirish, qay darajada samarali qo'llash va qanday strategiyalar orqali boshqarish masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Metakognitiv yondashuvning psixologik mohiyati uning tarkibiy komponentlari orqali ochib beriladi. Ilmiy adabiyotlarda metakognitsiya odatda ikki asosiy komponentga ajratiladi: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat [2]. Metakognitiv bilim o'z navbatida deklarativ (nima bilaman), protsedural (qanday bajaraman) va shartli (qachon va nima uchun qo'llayman) bilimlarga bo'linadi. Metakognitiv nazorat esa rejalashtirish (planning), monitoring (jarayonni kuzatish) va baholash (evaluation) kabi bosqichlarni qamrab oladi. Ushbu bosqichlar o'quvchining o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarishiga imkon beradi va o'rganish samaradorligini oshiradi.

Psixologik jihatdan metakognitiv yondashuv o'z-o'zini boshqarish nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Bu nazariya doirasida o'quvchi faol subyekt sifatida o'z

o'rganish jarayonini mustaqil ravishda tashkil etadi, maqsad qo'yadi, natijalarni baholaydi va zarur hollarda strategiyalarini o'zgartiradi [3]. Bunda refleksiya markaziy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiya orqali talaba o'z xatolarini aniqlaydi, ularni tahlil qiladi va kelgusida samaraliroq yondashuvlarni ishlab chiqadi. Shu jihatdan, metakognitiv yondashuv shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, metakognitiv yondashuv ta'lim jarayonini talaba markaziga yo'naltirishni talab qiladi. Bu yondashuvda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Metakognitiv strategiyalarni o'qitish orqali talabalar o'z o'rganish faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o'rganadilar. Natijada ularda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi shakllanadi [4].

Chet tillarini o'qitish metodikasida metakognitiv yondashuv ayniqsa yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Yozma nutq jarayonida talaba matnni oldindan rejalashtiradi, yozish davomida o'z fikrlarini monitoring qiladi va yakunda o'z ishini tahlil qiladi. Bu jarayon self-editing va peer-review kabi metodlar orqali yanada takomillashtiriladi. Og'zaki nutqda esa metakognitiv strategiyalar talabaning kommunikativ vaziyatni tahlil qilish, nutqni moslashtirish va o'z chiqishini baholash imkonini beradi. Bu esa nutqning ravonligi va aniqligini oshiradi [5].

Xususan, iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar uchun metakognitiv yondashuvning ahamiyati yanada ortadi. Chunki bu sohada ingliz tili faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki professional faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Iqtisodiy matnlar bilan ishlash, tahliliy yozuvlar tayyorlash, muzokaralar olib borish kabi faoliyatlar yuqori darajadagi metakognitiv nazoratni talab qiladi. Metakognitiv strategiyalar yordamida talabalar murakkab terminologiyani samarali o'zlashtiradi, matnni chuqur tahlil qiladi va o'z fikrini aniq ifodalashga erishadi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, raqamli vositalar va sun'iy intellekt platformalari metakognitiv yondashuvni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, avtomatik tahrirlovchi dasturlar, reflektiv platformalar va interaktiv ilovalar talabalarga o'z bilimlarini mustaqil nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Bu esa metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida talabaning bilish faoliyatini chuqur anglash va samarali boshqarishga xizmat qiluvchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Uning psixologik mohiyati shaxsning o'z fikrlash jarayonlarini anglash, nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa, pedagogik mohiyati ta'lim jarayonini talaba markazli yondashuv asosida tashkil etishda namoyon bo'ladi.

Metakognitiv strategiyalar – rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlari orqali talabalar o'z o'rganish faoliyatini ongli ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirish, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, chet tillarini o'qitish jarayonida metakognitiv yondashuv yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalar misolida qaralganda, metakognitiv yondashuv professional kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bu sohada ingliz tilidan foydalanish analitik fikrlash, aniq va mantiqiy nutq qurish hamda murakkab axborotni qayta ishlashni talab qiladi. Metakognitiv yondashuv orqali talabalar o'z nutq faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o'rganib, samarali kommunikatsiya olib borish kompetensiyasini shakllantiradilar.

Shunday qilib, metakognitiv yondashuvni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish talabalarining mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning akademik va kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring. – American Psychologist, 1979. – Vol. 34, No. 10. – pp. 906–911.
2. Brown A.L. Metacognitive Development and Learning. – Educational Psychologist, 1987. – Vol. 22. – pp. 65–116.
3. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement. – New York: Springer, 2000. – pp. 13–39.
4. Oxford R.L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. – New York: Routledge, 2011. – pp. 136–150.
5. Anderson N.J. Metacognition and Good Language Learners. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – pp. 1–25.
6. Schraw G., Moshman D. Metacognitive Theories. – Educational Psychology Review, 1995. – Vol. 7. – pp. 351–371.

INGLIZ TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Xoldorova Nozima Axmadjon kizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: +998993239485

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada o'yinli texnologiyalarning o'quvchilar darsga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi roli hamda ularni dars bosqichlarida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, maktab ta'limi, metodik yondashuv, motivatsiya, lug'at boyligi, kommunikativ faollik, interfaol muhit.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и методические основы использования дидактических игр для повышения эффективности уроков английского языка в общеобразовательных школах. В работе рассматривается роль игровых технологий в повышении интереса

учащихся к уроку, а также представлены практические рекомендации по их применению на различных этапах занятия.

Ключевые слова: дидактическая игра, школьное образование, методический подход, мотивация, словарный запас, коммуникативная активность, интерактивная среда.

Annotation: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using didactic games to enhance the effectiveness of English language lessons in general secondary schools. The paper highlights the role of game-based technologies in increasing students' interest in lessons and provides practical recommendations for their application at different stages of the teaching process.

Keywords: didactic game, school education, methodological approach, motivation, vocabulary, communicative activity, interactive environment.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni faol fikrlashga undash va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi[1]. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda interfaol yondashuvlardan foydalanish samarali natija beradi[2]. Shu nuqtai nazardan, didaktik o'yinlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari ulardan doimiy harakat va yangilikni talab etadi. Ingliz tilini o'rganish jarayoni murakkab leksik va grammatik qoidalardan iborat bo'lgani sababli, o'quvchilarda darsga nisbatan zerikish yoki qo'rquv hissi uyg'onishi mumkin. Didaktik o'yinlar ana shu to'siqlarni bartaraf etishning eng maqbul metodik vositasi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holati va ehtiyojlariga mos holda tashkil etilib, bilimlarni mustahkamlash, lug'at boyligini oshirish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik o'yinlarning nazariy asoslari

Didaktik o'yin – bu ma'lum bir o'quv maqsadiga yo'naltirilgan, o'quv faoliyatini o'yin shaklida tashkil etuvchi metodik vositadir. U o'zida ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi funksiyalarni mujassamlashtiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, didaktik o'yinlar quyidagi nazariy asoslarga tayanadi:

- Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchi bilimni tayyor holda emas, balki faol ishtirok orqali egallaydi;
- Kommunikativ yondashuv – til o'rganish jarayonida muloqot markaziy o'rin egallaydi;
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – har bir o'quvchining individual xususiyatlari hisobga olinadi;
- Motivatsion nazariya – o'yin orqali ichki motivatsiya kuchayadi[3].

Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar faqat bilim egallabgina qolmay, balki ijtimoiylashuv, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Ingliz tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

-Birinchidan, o'quvchilarning darsga qiziqishi oshadi. Oddiy mashqlar o'rniga o'yinli topshiriqlar qo'llanganda, o'quvchilar faolroq ishtirok etadi.

-Ikkinchidan, lug'at boyligi kengayadi. O'yin jarayonida yangi so'zlar tabiiy muhitda qo'llanadi va tezroq yodda qoladi.

-Uchinchidan, kommunikativ faollik rivojlanadi. Rolli o'yinlar, dialoglar va guruhli mashg'ulotlar orqali o'quvchilar erkin gapirishga o'rganadi.

-To'rtinchidan, psixologik to'siqlar kamayadi. O'yin muhiti xatodan qo'rqish hissini kamaytiradi va o'ziga ishonchni oshiradi[5].

Didaktik o'yinlarni qo'llashning metodik asoslari

Didaktik o'yinlarni samarali qo'llash uchun quyidagi metodik talablar muhim hisoblanadi:

1. Maqsadga yo'naltirilganlik. Har bir o'yin aniq o'quv maqsadiga xizmat qilishi kerak (masalan, yangi so'zlarni o'rganish, grammatikani mustahkamlash)[2].

2. Yosh va darajaga moslik. O'yin o'quvchilarning yosh xususiyatlari va til bilish darajasiga mos bo'lishi lozim.

3. Qoidalar aniqligi. O'yin qoidalari sodda va tushunarli bo'lishi, ortiqcha murakkablikdan xoli bo'lishi zarur.

4. Faollikni ta'minlash. Barcha o'quvchilar o'yinda ishtirok etishi uchun sharoit yaratilishi kerak.

5. Natijani baholash. O'yin yakunida o'quvchilarning faoliyati tahlil qilinib, rag'batlantiriladi.

Didaktik o'yinlarning **metodik vazifalari**. O'yin darsda shunchaki ko'ngilochar vosita emas, balki aniq pedagogik vazifalarni bajarishi lozim:

Ta'limiy vazifa: Yangi so'zlarni o'rgatish va grammatik strukturalarni nutqqa olib chiqish.

Tarbiyaviy vazifa: Jamoada ishlash, o'zgalar fikrini hurmat qilish va sog'lom raqobatni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi vazifa: O'quvchining mantiqiy fikrlash, xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini o'stirish[11].

Bunga biz amaliy misol sifatida quyidagi interfaol o'yinlarni keltirishimiz mumkin: Masalan, "Step by step" didaktik o'yini orqali o'quvchilarning yodlangan so'zlari tekshiriladi. Bu o'yinda o'quvchilar bosqichma-bosqich savollarga javob berib, oldinga siljiydi. Ushbu metod o'quvchilarni raqobat ruhida ishlashga undaydi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi[11].

Maktab darslarida "Marketplace" (Bozor) didaktik o'yinini qo'llash namunasi:

Ushbu o'yin o'quvchilarning muloqotga kirishish va kundalik hayotda kerak bo'ladigan nutq iboralarini mustahkamlashga qaratilgan. "Shopping" yoki "Food and Drinks" kabi mavzularda qo'llash mumkin. Ushbu didaktik o'yindan maqsad: ingliz tilida narx-navoni so'rash, narsalarni ta'riflash va xushmuomalalik bilan muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Kerakli jihozlar: Turli buyumlar rasmlari (yoki o'yinchoq mevalar), o'yin uchun tayyorlangan "dollar" pullari.

O'yinning borishi:

Tayyorgarlik: Sinf ikki guruhga bo'linadi: Sellers (Sotuvchilar) va Buyers (Xaridorlar). Har bir "Sotuvchi"ga o'z rasta (stol)si va sotish uchun mahsulotlar beriladi.

Jarayon: Xaridorlar bozor bo'ylab aylanib, o'zlariga kerakli mahsulotlarni topishlari kerak. Ular "How much is it?", "Can I have a discount?", "It's too expensive" kabi iboralarni qo'llagan holda savdolashadilar.

Metodik natija: O'yin davomida o'quvchi o'zini erkin his qiladi va grammatik qoidalarini (masalan, much/many, is/are) tabiiy ravishda ishlatishni o'rganadi.

Baholash: Eng ko'p mahsulot sotgan sotuvchi va eng tejamkor xaridor "g'olib" deb e'lon qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi hamda dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shu sababli, zamonaviy o'qituvchi didaktik o'yinlarni dars jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda joriy etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- 2.Jalolov J.J. Chet tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
- 3.Passov E.I. Kommunikativ metod obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
- 4.Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
- 5.Scrivener J. Learning Teaching. – Oxford: Macmillan, 2011.
- 6.Wright A., Betteridge D., Buckby M. Games for Language Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
- 7.Ur P. A Course in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996.
- 8.Nation I.S.P. Teaching Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
- 9.Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
- 10.Nunan D. Language Teaching Methodology. – London: Prentice Hall, 1991.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili fanidan o'quv dasturi. – Toshkent, 2020

РАЗВИТИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ИНТЕГРАТИВНОГО И КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДОВ К ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Жалгасбаева Гулназ Жетесбаевна

ассистент преподаватель

кафедра английского языка и литературы

Нукусский государственный педагогический Институт

91-304-07-77

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития лексической компетенции студентов в условиях интегративного и компетентностного подходов к обучению английскому языку. Раскрывается сущность лексической компетенции как ключевого компонента коммуникативной компетенции, анализируются современные методы и технологии ее формирования. Особое внимание уделяется интеграции языковых навыков и междисциплинарному взаимодействию как эффективному средству повышения качества обучения.

Ключевые слова: лексическая компетенция, компетентностный подход, интегративный подход, английский язык, коммуникативная компетенция, методика обучения.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations for the development of students' lexical competence within integrative and competency-based approaches to teaching English. It reveals the essence of lexical competence as a key component of communicative competence and analyzes modern methods and technologies for its formation. Special attention is given to the integration of language skills and interdisciplinary interaction as effective means of improving the quality of education.

Keywords: lexical competence, competency-based approach, integrative approach, English language, communicative competence, teaching methodology.

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilini o'qitishda integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari ko'rib chiqiladi. Leksik kompetensiyaning kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatidagi mohiyati ochib beriladi hamda uni shakllantirishning zamonaviy usul va texnologiyalari tahlil qilinadi. Til ko'nikmalarini integratsiyalash va fanlararo hamkorlik ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, integrativ yondashuv, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, o'qitish metodikasi.

Современные тенденции развития высшего образования ориентированы на формирование у студентов ключевых компетенций, обеспечивающих их успешную профессиональную и коммуникативную деятельность. В этом контексте особую значимость приобретает развитие иноязычной лексической компетенции как важнейшей составляющей коммуникативной компетенции.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью совершенствования методики обучения английскому языку в условиях интеграции знаний и компетентностной направленности образования. Традиционные методы обучения лексике не всегда обеспечивают достаточный уровень владения языком в реальных коммуникативных ситуациях, что требует поиска новых подходов и технологий.

Понятие лексической компетенции

Лексическая компетенция представляет собой способность обучающихся эффективно использовать словарный запас языка в процессе коммуникации с учетом контекста, ситуации общения и коммуникативной задачи. Она включает знание лексических единиц, их семантики, сочетаемости, стилистических особенностей, а также умение применять их в устной и письменной речи.

Лексическая компетенция тесно связана с другими компонентами иноязычной коммуникативной компетенции: грамматической, социокультурной и дискурсивной. Ее развитие предполагает не только усвоение новых слов, но и формирование навыков их активного использования.

Компетентностный подход в обучении лексике

Компетентностный подход ориентирован на формирование у студентов способности применять знания на практике. В рамках данного подхода обучение лексике направлено не на механическое запоминание слов, а на развитие умений использовать их в реальных коммуникативных ситуациях.

Основными принципами компетентностного подхода являются:

- практико-ориентированность обучения;
- активизация речевой деятельности студентов;
- развитие самостоятельности и критического мышления;
- учет профессиональной направленности обучения.

Использование данного подхода способствует формированию устойчивых лексических навыков и повышает мотивацию студентов к изучению языка.

Интегративный подход и его роль

Интегративный подход предполагает объединение различных аспектов обучения: языковых навыков (чтение, аудирование, говорение, письмо), а также интеграцию содержания различных дисциплин. Это позволяет создать условия для более глубокого усвоения лексического материала.

В рамках интегративного подхода лексика изучается:

- в контексте реальных коммуникативных ситуаций;
- через междисциплинарные темы;
- с использованием аутентичных материалов.

Интеграция способствует формированию целостного представления о языке и развивает способность использовать лексику в различных сферах общения.

Методы и технологии развития лексической компетенции

Для эффективного развития лексической компетенции целесообразно использовать современные педагогические технологии:

- Коммуникативные методы (ролевые игры, дискуссии, проекты);

- Интерактивные технологии (работа в группах, кейс-метод);
 - Цифровые ресурсы (онлайн-платформы, мобильные приложения);
 - Контекстуальное обучение (работа с текстами, видео, аудио);
 - Лексические упражнения (кластеризация, семантические карты, коллокации).
- Особую роль играет работа с аутентичными материалами, которая способствует развитию языковой догадки и расширению словарного запаса.

Заклучение

Таким образом, развитие лексической компетенции студентов в условиях интегративного и компетентностного подходов является важной задачей современного языкового образования. Применение данных подходов позволяет повысить эффективность обучения, сформировать у студентов устойчивые навыки использования лексики и подготовить их к реальной коммуникативной деятельности.

Интеграция различных видов речевой деятельности и ориентация на практическое применение знаний обеспечивают более глубокое усвоение лексического материала и способствуют развитию профессиональной компетентности студентов.

Список литературы:

1. Бим И.Л. Теория и практика обучения иностранным языкам. – М., 2002.
2. Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 2012.
3. Harmer J. How to Teach English. – Longman, 2007.
4. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. – Т., 2003.
5. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – 1982.
6. Lewis M. The Lexical Approach. – Hove: Language Teaching Publications, 1993.
7. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge University Press, 2001.
8. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2001.
9. Scrivener J. Learning Teaching. – Macmillan, 2011
10. Шамо́в А.Н. Формирование лексической компетенции при обучении иностранному языку. – Пятигорск, 2007.

NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARIGA CHET TILI O'RGATISHNING INNOVATSION METODLARI

Mirzamahmudova Sarvinoz Shavkatjon qizi

Is'hoqxon To'ra Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarga chet tilini o'rgatishning innovatsion yondashuvlari va samarali metodlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar asosida til o'qitish jarayonini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilib, ularning amaliy samaradorligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: nofilologik yo'nalish, chet tili, ESP, CLIL, task-based learning, innovatsion metodlar, texnologiya

Annotation. This article analyzes innovative approaches and effective methods of teaching foreign languages to students of non-philological fields based on scientific and theoretical foundations. It also examines ways to improve the language teaching process through modern pedagogical technologies and highlights their practical effectiveness.

Keywords: non-philological fields, foreign language, ESP, CLIL, task-based learning, innovation, technology

Аннотация. В статье рассматриваются инновационные подходы и эффективные методы обучения иностранным языкам студентов нефилологических направлений на основе научно-теоретического анализа. Также изучаются пути совершенствования процесса обучения с применением современных педагогических технологий и раскрывается их практическая эффективность.

Ключевые слова: нефилологические направления, иностранный язык, ESP, CLIL, task-based learning, инновации, технологии

Asosiy qism

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatib, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, chet tilini o'rganish jarayoni avvalgiga nisbatan ancha moslashuvchan va samarali tus olgan. Bugungi kunda ilg'or texnologiyalar nafaqat filologik, balki nofilologik yo'nalishdagi talabalarga ham qulay ta'lim muhitini yaratmoqda. Onlayn va oflayn ta'lim shakllarining integratsiyasi esa o'quvchilarga individual ehtiyoj va sharoitlardan kelib chiqib bilim olish imkonini beradi.

Hozirgi globalizatsiya sharoitida chet tillarini bilish muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Xususan, ingliz tili xalqaro aloqa vositasi sifatida yetakchi o'rin egallaydi. IT, tibbiyot, iqtisodiyot, biznes, turizm va boshqa ko'plab sohalarda asosiy ilmiy va amaliy manbalar ingliz tilida yuritiladi. Shu sababli nofilologik yo'nalish talabalari uchun ham chet tilini o'rganish zaruriy talabga aylangan.

Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, til o'qitishda ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Ushbu metod tilni ma'lum kasbiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan holda o'qitishni nazarda tutadi (Jalolov, n.d.). ESP yondashuvi orqali talabalar o'z mutaxassisligiga oid terminologiya va kommunikativ ko'nikmalarni samarali egallaydilar.

Til o'rganish nazariyalari orasida S. Krashen tomonidan ilgari surilgan "tushunarli kirish" (comprehensible input) nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, til o'zlashtirish jarayoni o'quvchi uchun tushunarli bo'lgan til materiallari orqali amalga oshadi (Krashen, 1982). Nofilologik yo'nalish talabalari uchun bu yondashuv ayniqsa muhim bo'lib, ular murakkab grammatik qoidalarni yodlashdan ko'ra, o'z kasbiy sohasiga oid autentik materiallar orqali tilni samaraliroq o'zlashtiradilar.

Bundan tashqari, D. Nunan tomonidan ishlab chiqilgan Task-Based Language Teaching (TBLT) yondashuvi ham amaliy jihatdan samarali hisoblanadi. Ushbu

yondashuvda asosiy e'tibor til shakliga emas, balki uning kommunikativ funksiyasiga qaratiladi (Nunan, 2004). Talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo'lgan topshiriqlar orqali tilni amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, kasbiy muloqot, taqdimot qilish yoki muzokara olib borish kabi faoliyatlar orqali til kompetensiyasi rivojlanadi.

Shuningdek, CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ham nofilologik yo'nalish talabalari uchun samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvda til va kontent birgalikda o'qitilib, talaba bir vaqtning o'zida ham ixtisoslik fanlarini, ham chet tilini o'zlashtiradi (Clyne, 2008). Bu esa ularning kasbiy va lingvistik kompetensiyalarini parallel ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar til o'qitish jarayonini yanada boyitmoqda. Xususan, mobil ilovalar (masalan, Duolingo, Quizlet), sun'iy intellektga asoslangan platformalar hamda multimediya vositalari talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, gamification (o'yin elementlari asosida o'qitish), rol o'yinlari, microlearning, video va podkastlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning tinglab tushunish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nofilologik yo'nalish talabalariga chet tilini o'rgatishda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. ESP, TBLT va CLIL kabi yondashuvlar hamda zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Krashen, Nunan va Clyne tomonidan ilgari surilgan nazariyalarni uyg'unlashtirish orqali talabalarning lingvistik va kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish mumkin. Natijada, zamonaviy mehnat bozoriga mos, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov, J. Metodikaga kirish.
2. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
3. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
4. Clyne, M. (2008). The Monolingual Mindset as an Impediment to the Development of Plurilingual Potential in Australia. Sociolinguistic Studies.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING SPEAKING SKILLS AMONG SCHOOL CHILDREN

Mamadaliyeva Roziya Davlatali qizi

student of Namangan State Institute of

Foreign languages named after Is'hoqxon Ibrat

+998940485030

Abstract. The development of speaking skills among school children is widely recognized as a crucial component of language learning and overall educational

success. This study aims to explore the importance of enhancing speaking abilities among primary school learners, with a particular focus on classroom practices and student participation. The research was conducted at School No. 61, located in Namangan region, Uzbekistan, and involved 12 fourth-grade the improvement of students' speaking students as participants. The primary objective of the study was to examine how interactive teaching methods influence skills in an English language classroom.

A qualitative research approach was adopted to collect and analyze data. Various methods such as classroom observation, group activities, and simple speaking tasks were used to assess students' progress. During the lessons, learners were encouraged to participate in pair work, role-plays, and short dialogues to promote active communication. These activities were designed to create a supportive learning environment where students could express their ideas without fear of making mistakes.

Keywords: Speaking skills, Primary school learners, Classroom participation, Communicative activities, Promote active communication, Classroom observation, Assess students' progress

Annotatsiya. Maktab o'quvchilari orasida nutq (gapirish) ko'nikmalarini rivojlantirish til o'rganish va umumiy ta'limiy muvaffaqiyatning muhim qismi sifatida keng e'tirof etiladi. Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining gapirish qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa sinfdagi faoliyat va o'quvchilarning ishtirokiga e'tibor qaratadi. Tadqiqot O'zbekistonning Namangan viloyatidagi 61-maktabda o'tkazildi va unda 4-sinfning 12 nafar o'quvchisi ishtirok etdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi interaktiv o'qitish usullarining ingliz tili darslarida o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat edi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun sifat (qualitative) tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. O'quvchilarning rivojlanishini baholash uchun sinf kuzatuvi, guruh ishlari va oddiy nutq mashqlari kabi turli usullardan foydalanildi. Darslar davomida o'quvchilar juftlikda ishlash, rolli o'yinlar va qisqa dialoglarda qatnashishga rag'batlantirildi. Ushbu faoliyatlar o'quvchilarga xatodan qo'rqmasdan o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari uchun qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga xizmat qildi.

Kalit so'zlar: Nutq ko'nikmalari, Boshlang'ich sinf o'quvchilari, Sinfdagi ishtirok etish, Kommunikativ faoliyatlari, Faol muloqotni rivojlantirish, Sinf kuzatuvi, O'quvchilarning rivojlanishini baholash

Развитие навыков устной речи у школьников широко признаётся важным компонентом изучения языка и общего образовательного успеха. Данное исследование направлено на изучение значимости развития навыков говорения у учащихся начальной школы с особым вниманием к учебным практикам и участию учеников на уроках. Исследование было проведено в школе №61, расположенной в Наманганской области Узбекистана, с участием 12 учеников 4 класса. Основная цель исследования заключалась в изучении того, как интерактивные методы обучения влияют на развитие навыков говорения на уроках английского языка.

Для сбора и анализа данных был использован качественный (qualitative) подход. Для оценки прогресса учащихся применялись различные методы, такие как наблюдение за уроком, групповая работа и простые задания на устную речь. Во время занятий учащихся поощряли участвовать в работе в парах, ролевых играх и коротких диалогах с целью развития активного общения. Эти виды деятельности были направлены на создание поддерживающей учебной среды, в которой учащиеся могли свободно выражать свои мысли, не боясь совершать ошибки.

Keywords: Навыки говорения, Ученики начальной школы, Участие в классе, Коммуникативные виды деятельности, Развитие активного общения, Наблюдение за уроком, Оценка прогресса учащихся

Introduction

The development of speaking skills among school children has become an increasingly important focus in modern education systems around the world. In an era characterized by rapid globalization, technological advancement, and intercultural communication, the ability to express thoughts clearly and confidently is no longer optional but essential. Speaking is not merely a tool for communication; it is also a fundamental component of cognitive development, social interaction, and academic success. Therefore, fostering effective speaking skills at an early stage of education plays a critical role in shaping well-rounded, competent individuals.

Numerous researchers have emphasized the significance of speaking skills in children's overall development. For instance, Brown (2004) argues that speaking is a productive skill that directly reflects a learner's language competence. Similarly, Harmer (2007) states that the ability to speak fluently and accurately is often considered the primary goal of language learning. According to Vygotsky (1978), social interaction, particularly through spoken language, is central to cognitive development, highlighting how communication influences thinking processes. In addition, Cameron (2001) notes that young learners acquire language more effectively when they actively engage in spoken communication.

Furthermore, Thornbury (2005) emphasizes that speaking helps learners to organize their thoughts and develop critical thinking skills. Ur (1996) also points out that many learners measure their success in language learning based on how well they can speak. This perspective is supported by Nunan (2003), who explains that speaking provides learners with opportunities to practice real-life communication, making learning more meaningful and practical. Likewise, Bygate (1987) suggests that speaking requires not only knowledge of language but also the ability to use it spontaneously in different contexts.

Research by Lightbown and Spada (2013) indicates that frequent speaking practice enhances both fluency and confidence among learners. In the same vein, Nation and Newton (2009) argue that spoken interaction allows learners to notice gaps in their knowledge and improve their language proficiency. Additionally, Richards (2008) highlights that developing speaking skills contributes to better participation in classroom activities and improves overall academic performance.

In primary and secondary education, speaking skills are particularly important because they lay the foundation for future communication abilities. Children who

develop strong speaking skills are more likely to express their ideas clearly, participate actively in discussions, and build positive relationships with peers and teachers. On the other hand, students with limited speaking abilities may struggle with self-expression, leading to reduced confidence and academic challenges.

Moreover, the importance of speaking skills extends beyond the classroom. In real-life situations, individuals are often required to present ideas, engage in conversations, and collaborate with others. Therefore, equipping children with effective speaking skills prepares them for future academic, professional, and social environments. It also helps them become active participants in society, capable of sharing their perspectives and contributing to discussions.

In conclusion, the development of speaking skills among school children is a crucial aspect of education that should not be overlooked. As supported by various researchers, speaking plays a vital role in language acquisition, cognitive development, and social interaction. By creating opportunities for children to practice and improve their speaking abilities, educators can help them build confidence, enhance their communication skills, and achieve greater success in both academic and real-world contexts.

Literature review

Vocabulary is very important for developing speaking skills among school children. Without enough vocabulary, students cannot express their ideas clearly or communicate effectively. Therefore, learning vocabulary is a key part of improving speaking ability.

Many researchers have studied the relationship between vocabulary and speaking skills. Wilkins (1972) states that without vocabulary, it is difficult to communicate meaning. This shows how important vocabulary is in language learning. In addition, Nation (2001) explains that vocabulary knowledge helps learners speak more fluently and confidently. Thornbury (2002) also believes that students with more vocabulary can speak better and use language more easily. Furthermore, Schmitt (2000) says that vocabulary is necessary for both understanding and speaking. Cameron (2001) adds that young learners improve their speaking when they practice new words many times.

The study was guided by the following three research questions:

1. How do interactive teaching methods help improve speaking skills among primary school students?
2. How does classroom participation affect students' speaking ability, such as pair work and role play?
3. How do speaking activities influence student's confidence in using English in the classroom?

These aligned questions clearly show how each data collection method (observation, tests, questionnaire) contributes to answering your research objectives, making your study more structured and academically strong.

In conclusion, these studies show that vocabulary is very important for speaking development in school children. However, more research is needed to find simple and effective ways to teach vocabulary in classrooms. Teachers should focus on helping students learn and use new words in speaking activities.

Research Methodology

This study employed a qualitative research design to investigate the importance of developing speaking skills among primary school students. The research was conducted at School No. 61 in Namangan region, Uzbekistan, with the participation of 12 fourth-grade students. The selection of participants was based on convenience sampling, as the researcher had direct access to the class and aimed to observe natural classroom interactions.

To collect relevant data, two main research instruments were used: vocabulary comprehension tests and a questionnaire. In total, 12 vocabulary comprehension tests were administered throughout the study. These tests were designed to evaluate students' understanding of basic English vocabulary and their ability to use newly learned words in speaking activities. Each test included simple tasks such as matching words with pictures, completing sentences, and using target vocabulary in short oral responses. The purpose of these tests was to monitor students' progress over time and to identify any improvements in their speaking performance linked to vocabulary acquisition.

In addition to the tests, a questionnaire consisting of 6 questions was used to gather students' attitudes and perceptions toward speaking activities in the classroom. The questionnaire was designed in a simple and age-appropriate format to ensure that fourth-grade students could understand and respond easily. It included both closed-ended and short open-ended questions focusing on students' confidence, interest, and challenges related to speaking in English. The questionnaire was administered at the end of the study to evaluate changes in students' motivation and self-confidence.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari ta'lim tizimiga yangicha talablarni qo'yimoqda. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari nafaqat til ko'nikmalariga, balki interkultural kompetentsiyaga ham ega bo'lishlari zarur. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xalqaro akademik mobillik imkoniyatlarining kengayishi va madaniyatlararo muloqot zarurati pedagoglardan yangicha kasbiy sifatlarni talab etmoqda.

G'arb va Sharq adabiy aloqalari — bu madaniyatlararo dialog uchun boy material hisoblanadi. Ushbu aloqalarni o'rganish orqali talabalar turli madaniyatlarning qadriyatlari, dunyoqarashlari va badiiy tafakkur xususiyatlarini chuqur anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Raqamli ta'lim muhiti esa bu jarayonni yanada samarali va interaktiv tarzda amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Globallashuv sharoitida interkultural kompetentsiya pedagogning muhim kasbiy sifatiga aylanmoqda

Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirib, yangi metodologik yondashuvlarni talab qilmoqda G'arb va Sharq adabiy aloqalarini qiyosiy o'rganish madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini oshirish ularning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Interkultural kompetentsiya tushunchasi va tarkibiy qismlari

Interkultural kompetentsiya — bu turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati bo'lib, u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Kognitiv komponent turli madaniyatlar haqida bilimlar, madaniy stereotiplar va ularning nisbiyligini anglash, madaniyatlararo farqlar va o'xshashliklarni tushunishni o'z ichiga oladi.

Affektiv komponent boshqa madaniyatlarga qiziqish va hurmat, madaniy xilma-xillikni qabul qilish, empatiya va madaniy sezgirlikni nazarda tutadi.

Pragmatik komponent madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari, madaniy kontekstga moslashish qobiliyati, konfliktlarni hal qilish strategiyalari bilan bog'liq. Byram modeli bo'yicha interkultural kommunikativ kompetentsiya beshta saviyani qamrab oladi: bilimlar (*savoirs*), munosabatlar (*savoir être*), kashfiyot ko'nikmalari

(*savoir comprendre*), o'zaro ta'sir ko'nikmalari (*savoir apprendre/faire*) va tanqidiy madaniy anglash (*savoir s'engager*).

Kasbiy mobillik va uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati

Kasbiy mobillik — bu mutaxassisning o'zgaruvchan kasbiy sharoitlarga moslashish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, turli ish muhitlarida samarali faoliyat yuritish qobiliyati. Pedagoglar uchun kasbiy mobillik quyidagi aspektlarni qamrab oladi:

Gorizontali mobillik: turli ta'lim muassasalari va mamlakatlarida ishlash imkoniyati

Vertikal mobillik: kasbiy o'sish va malaka oshirish

Funksional mobillik: turli pedagogik rollarni bajarish qobiliyati

Raqamli mobillik: zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari

G'arb va Sharq adabiy aloqalarining interkultural ta'limdagi o'rni

G'arb va Sharq adabiyotlari o'rtasidagi aloqalar qadimdan mavjud bo'lib, ular turli shakllarda namoyon bo'lgan. Sharq motivlari G'arb adabiyotida Gyotening "G'arb-Sharq devoni", Bayronning sharqona asarlari, O. Xayyom ruboiylarining G'arbda tarqalishi orqali o'z ifodasini topgan. G'arb ta'siri Sharq adabiyotida esa yangi janrlarning kirib kelishi (roman, drama), realistik tasvir usullarining o'zlashtirilishi, individual qahramon kontseptsiyasining shakllanishida ko'rinadi.

Bu aloqalarni o'rganish talabalarga madaniy universalialar va o'ziga xosliklarni anglash, stereotiplarni tanqidiy baholash va dialog madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli platformalar va resurslar

Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti interkultural kompetentsiyani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi:

Virtual kutubxonalar va arxivlar orqali Project Gutenberg, Internet Archive kabi platformalarda G'arb va Sharq adabiyoti namunalariga keng kirish imkoni mavjud. Digital Silk Road loyihasi Sharq va G'arb madaniy aloqalari haqida boy material taqdim etadi.

Interaktiv o'quv platformalari qatoriga Coursera, edX, FutureLearn platformalaridagi adabiyot va madaniyatshunoslik kurslari, Khan Academy va TED-Ed'dagi ta'limiy videolar, Padlet, Miro kabi hamkorlikdagi o'quv vositalari kiradi.

Virtual reallik va kengaytirilgan reallik texnologiyalari G'arb va Sharq muzeylarining virtual turlari, adabiy asarlar sahnalashtirish simulyatsiyalari, tarixiy-madaniy kontekstlarni vizualizatsiya qilish imkonini beradi.

Raqamli vositalarning metodologik afzalliklari

Raqamli ta'lim muhitining metodologik afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Interaktivlik: faol o'qish va dialogik ta'lim imkoniyatlari

Moslashuvchanlik: individual o'quv traektoriyalarini shakllantirish

Multimodallik: turli kanallar orqali ma'lumot taqdim etish

Hamkorlik: xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyati

Doimiy yangilanish: eng so'nggi ilmiy va metodik materiallardan foydalanish

Qiyosiy-kontrastiv tamoyil G'arb va Sharq adabiy an'alarini qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, madaniy universal va o'ziga xos elementlarni ajratishni nazarda tutadi.

Dialogik tamoyil turli madaniy nuqtai nazarlarni tenglikda ko'rib chiqish, muloqot va munozara orqali o'qish, o'z pozitsiyasini shakllantirish va asoslashni talab qiladi.

Kontekstual tamoyil adabiy asarlarni madaniy-tarixiy kontekstda o'rganish, ijtimoiy va siyosiy omillar ta'sirini anglash, intertekstual aloqalarni tadqiq qilishni o'z ichiga oladi.

Refleksiv tamoyil esa o'z madaniy pozitsiyasini anglash, stereotiplarni tanqidiy baholash, shaxsiy interkultural tajribani tahlil qilishni nazarda tutadi.

3.2. Metodlar va texnikalar tizimi

Qiyosiy adabiy tahlil usuli doirasida turli madaniyatlardagi o'xshash mavzu va motivlarni tahlil qilish, obrazlar tizimini qiyosiy o'rganish, badiiy vositalarning madaniy xususiyatlarini aniqlash amalga oshiriladi.

Case-study metodi orqali madaniyatlararo adabiy aloqalar tarixidan aniq misollarni o'rganish, tarjimon va vositachilarning rolini tahlil qilish, muvaffaqiyatli va muammoli madaniyatlararo dialog namunalarini ko'rib chiqish mumkin.

Loyiha metodi individual va guruhli tadqiqot loyihalari, raqamli mahsulotlar yaratish (podcast, blog, videokontent), xalqaro hamkorlik loyihalarida ishtirok etishni qamrab oladi.

Simulyatsiya va rol o'yinlari G'arb va Sharq yozuvchilari o'rtasidagi xayoliy dialoglar, adabiy munozaralar va debatlar, madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

O'quv jarayonini tashkil etish bosqichlari

Birinchi bosqich — motivatsion-dagnostik bosqich bo'lib, u talabalarning interkultural kompetentsiya darajasini aniqlash, o'quv maqsadlari va kutilmalarini belgilash, G'arb va Sharq adabiyotlariga qiziqishni uyg'otishdan iborat.

Ikkinchi bosqich — informatsion-kognitiv bosqich bo'lib, G'arb va Sharq adabiy aloqalari tarixi bilan tanishish, asosiy konseptual tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy matnlarni madaniy kontekstda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich — amaliy-operatsional bosqich qiyosiy adabiy tahlil ko'nikmalarini amalda qo'llash, guruhli loyihalarda ishtirok etish, raqamli vositalardan foydalangan holda ijodiy mahsulotlar yaratishdan iborat.

To'rtinchi bosqich — refleksiv-baholash bosqichi bo'lib, erishilgan natijalarni tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va hamkorlikda baholash, keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashni qamrab oladi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy mobilligini oshirishda xalqaro dasturlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Erasmus+ dasturi Yevropa universitetlarida tahsil olish va stajirovka o'tash, xalqaro loyihalarda ishtirok etish, G'arb adabiyoti va madaniyatini bevosita o'rganish imkonini beradi. Fulbright dasturi AQSh universitetlarida tadqiqot olib borish, ingliz tilida o'qitish metodikasini o'zlashtirish, professional tarmoqlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Mintaqaviy dasturlar, jumladan, Markaziy Osiyo universitetlari o'rtasidagi almashish dasturlari, Sharq madaniyati va adabiyotini chuqur o'rganish, mintaqaviy hamkorlik tarmoqlarini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli muhitda kasbiy mobillikni oshirish uchun onlayn sertifikatlash dasturlari — TESOL, CELTA, xalqaro miqyosda tan olingan malaka sertifikatlash dasturlari, raqamli pedagogika ko'nikmalari sertifikatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Professional onlayn jamiyatlar, ya'ni xalqaro pedagogik tarmoqlar (TESOL International, IATEFL), adabiyot o'qituvchilari uyushmalari, raqamli hamkorlik platformalari kasbiy o'sishga xizmat qiladi. Shaxsiy raqamli portfel yaratish — bu elektron portfolio shakllantirish, kasbiy blog va ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etish, raqamli o'quv materiallari yaratish va tarqatish orqali amalga oshiriladi.

4.3. Til va madaniy kompetentsiyalarni kengaytirish

Til kompetentsiyasini rivojlantirish IELTS, TOEFL, Cambridge sertifikatlash, akademik yozuv va nutq ko'nikmalari, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) orqali amalga oshiriladi. Madaniy kompetentsiyani chuqurlashtirish G'arb va Sharq mamlakatlariga ilmiy safarlar, madaniy immersiya dasturlari, virtual madaniyatlararo tadbirlar orqali ta'minlanadi.

Kurs dasturini integratsiyalash uchun mavjud "Xorijiy adabiyot", "Lingvomadaniyatshunoslik" kurslariga interkultural komponentni kiritish, maxsus fanlararo modul ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarda raqamli vositalardan muntazam foydalanish zarur.

O'qituvchilarning malakasini oshirish doirasida raqamli pedagogika bo'yicha treninglar, interkultural kompetentsiya bo'yicha seminarlar, xalqaro tajriba almashish dasturlari tashkil etish lozim.

Ta'lim muhitini boyitish maqsadida virtual kutubxona va resurslar bazasini shakllantirish, xalqaro partnyorlik aloqalarini o'rnatish, talabalar uchun xalqaro tadbirlarda ishtirok imkoniyatlarini yaratish zarur.

Shaxsiy darajada talabalar interkultural kompetentsiyaning barcha komponentlarini rivojlantiradilar, G'arb va Sharq adabiy aloqalari bo'yicha chuqur bilimlar egaladilar, raqamli ta'lim vositalaridan professional foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Kasbiy darajada xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshlik oshadi, turli madaniy muhitlarda samarali o'qitish qobiliyati shakllanadi, kasbiy o'sish va mobillik imkoniyatlari kengayadi.

Institutsional darajada ta'lim sifatining yaxshilanishi, xalqaro reytinglarda pozitsiyalarning mustahkamlanishi, global ta'lim hamjamiyatiga integratsiyaning chuqurlashuvi kuzatiladi.

Interkultural kompetentsiya darajasini baholash uchun standartlashtirilgan testlar, portfel baholash, refleksiv kundalik tahlili, amaliy topshiriqlar baholashi qo'llaniladi. Kasbiy mobillik ko'rsatkichlari xalqaro dasturlarda ishtirok statistikasi, xalqaro sertifikatlar soni, xorijda ish tajribasi, professional tarmoqlarga integratsiya orqali o'lchanadi.

Xulosa

Raqamli ta'lim muhitida G'arb va Sharq adabiy aloqalari asosida bo'lajak ingliz tili pedagoglarining interkultural kompetentsiyasini rivojlantirish va kasbiy mobilligini oshirish — bu zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifasi hisoblanadi. Taklif etilayotgan metodika quyidagi asosiy g'oyalarga tayanadi:

G'arb va Sharq adabiy aloqalarini qiyosiy o'rganish madaniyatlararo dialog ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Raqamli ta'lim muhiti interaktiv, moslashuvchan va xalqaro miqyosda hamkorlikka asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi

Interkultural kompetentsiya va kasbiy mobillik o'zaro bog'liq bo'lib, ularni kompleks rivojlantirish zarur. Nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalar va refleksiv amaliyot bilan uyg'unlashtirilishi lozim

Ushbu metodikani tatbiq etish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini globallashtirish davrining talablariga javob beradigan, madaniyatlararo muloqotga qodir, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadigan va xalqaro miqyosda raqobatbardosh pedagoglar sifatida tayyorlash imkonini beradi. G'arb va Sharq adabiy aloqalarini chuqur o'rganish orqali talabalar nafaqat madaniy bilimlarini boyitadilar, balki turli madaniyatlar o'rtasida ko'priklarni bo'lish salohiyatini rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Multilingual Matters.
2. Kramsch, C. (2013). *Culture in Foreign Language Teaching*. Iranian Journal of Language Teaching Research.
3. Said, E. (1978). *Orientalism*. Pantheon Books.
4. Deardorff, D. K. (2009). *The SAGE Handbook of Intercultural Competence*. SAGE Publications.
5. Quajada, G. va Gonzalez, R. (2022). Digital Tools for Intercultural Competence Development. *Journal of Intercultural Education*, 33(4), 412-428.
6. Holliday, A. (2011). *Intercultural Communication and Ideology*. SAGE Publications.
7. Abdullayev, B. (2020). O'zbek va ingliz adabiyotlarida madaniyatlararo aloqalar. *Filologiya masalalari*, 3, 45-52.

TIL O'RAGATISHDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Nimatova Malika Akmaljon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Turg'unova Dilnoza G'ofurjon qizi

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

dilnozaturgunova0797@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola til o'qitish jarayonida foydalaniladigan ikki metodning ilmiy-nazariy asoslari hamda ularning amaliyotda qo'llanish darajasini tahlil qiladi. Ularning yosh avlodni samarali o'qitishdagi o'rni, hozirgi zamon bilan uyg'unlashuvi ko'rib chiqiladi va klassifikatsiyalanadi. O'quv jarayoniga metodlardan kompleks va moslashuvchan foydalanish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: An'anaviy metod, zamoniy metod, til o'rgatish, interfaollik, innovatsion ta'lim, dars jarayoni, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of two methods used in language teaching, as well as the level of their practical application. Their role in effectively educating the younger generation and their compatibility with modern trends are examined and classified. The article also discusses the comprehensive and flexible use of these methods in the educational process.

Keywords: Traditional method, modern method, language teaching, interactivity, innovative education, lesson process, educational effectiveness.

Аннотация: Данная статья анализирует научно-теоретические основы двух методов, используемых в процессе обучения языку, а также уровень их практического применения. Рассматривается и классифицируется их роль в эффективном обучении молодого поколения и их соответствие современным требованиям. Также обсуждается комплексное и гибкое использование этих методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Традиционный метод, современный метод, обучение языку, интерактивность, инновационное образование, учебный процесс, эффективность обучения.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning o'zgarishi, texnologiyalarning kirib kelishi va yangi avlodning ehtiyojlari ta'lim usullarini ham yangilashni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy va zamonaviy o'qitish metodlari o'rtasidagi farqlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ular orasida an'anaviy va zamonaviy o'qitish metodlari eng ko'p muhokama qilinadigan yondashuvlar hisoblanadi. Har ikki metod o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli sharoitlarda samarali qo'llanilishi mumkin.

An'anaviy o'qitish metodlari ko'proq uzoq yillardan beri shakllanib kelgan bo'lib, bugungi kunda ham keng qo'llanadi. Zamonaviy metodlar esa yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. Bugungi o'quvchi bilimni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, til o'rgatishda metod tanlash masalasi o'quvchilarning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va ta'lim maqsadlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

ASOSIY QISM

An'anaviy o'qitish metodlari asosan o'qituvchi markaziga asoslanib, bilimlarni tartibli va tizimli ravishda yetkazishga qaratilgan. Dars jarayonida o'qituvchi asosiy ma'lumot beruvchi rolini bajaradi, o'quvchilar esa tinglovchi va ijrochi sifatida qatnashadi. Ma'ruza, tushuntirish, savol-javob va yozma mashqlar an'anaviy metodlarning asosiy shakllari sanaladi.

Mazkur metodlarning afzalligi shundaki, ular orqali katta hajmdagi nazariy bilimlarni qisqa vaqt ichida yetkazish mumkin. Bundan tashqari, intizomni saqlash va dars jarayonini nazorat qilish osonlashadi. Biroq, bu metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faol ishtirokini yetarli darajada rivojlantirmasligi mumkin. Fikrimcha, bu metodlar bilan dars olib borish o'quvchilarni passiv ishtirokchi sifatida qatnashtiradi.

Zamonaviy o'qitish metodlari ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni olib kirib, o'quvchini markazga qo'yadi. Bu metodlarda o'quvchilar faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida qaraladi va ularning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish qobiliyati hamda ijodkorligi rivojlantiriladi. Vizuallashgan darslar, rolli o'yinlar guruhlab ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish va loyiha asosida o'qitish zamonaviy metodlarning muhim ko'rinishlaridir.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va multimedia vositalari bu metodlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Onlayn platformalar, test tizimlari va vizual materiallar orqali darslar yanada qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Zamonaviy metodlar o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ularni mustaqil o'rganishga undaydi. Biroq, bu metodlarni samarali qo'llash uchun texnik vositalar va o'qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik talab etiladi.

Tajribam va kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, til o'rgatishda yagona universal metod mavjud emas. Har bir metod muayyan sharoitda, muayyan guruh yoki o'quvchi uchun samarali bo'lishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy va zamonaviy o'qitish metodlari har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. An'anaviy metodlar o'quvchilarga mustahkam nazariy bilim berishda samarali bo'lsa, zamonaviy metodlar ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Menimcha, ta'lim samaradorligi faqat yangi usullardan foydalanishda emas, balki an'anaviy tajriba va zamonaviy texnologiyalarni pedagogik maqsadga muvofiq uyg'unlashtirishda (gibrid ta'lim) namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi an'anaviy metodlarning kuchli tomonlarini saqlab qolgan holda, zamonaviy vositalar bilan ularni boyitadi. Masalan, ma'ruza jarayonida taqdimotlardan foydalanish, savol-javoblarni interaktiv shaklda tashkil etish yoki amaliy mashg'ulotlarda raqamli resurslardan foydalanish mumkin. Integratsiyalashgan yondashuv o'quvchining bilim olish jarayonidagi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aniev B. Innovatsion metodlar orqali chet tillarni o'rgatish. Toshkent: O'qituvchi 2020. – 312 b.

INGLIZ TILIDAGI MATNLARNI O'QIB TUSHUNISHNI O'RGANISH STRATEGIYALARI HAQIDA

Azamat Muxriddinovich Qodirov

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda muallif nutq faoliyati turlaridan biri bo'lmish o'qishga nisbatan yetakchi metodist olimlarning ta'riflari, o'qishning nutq faoliyat turi sifatida psixologik, psixolingvistik, lingvodidaktik xususiyatlari haqida fikrlarini bildiradi.

Kalit so'zlar: o'qish, sxema nazariyasi, yuqoridan quyiga yondashuv, quyidan yuqoriga yondashuv, ravon o'qish, retseptiv malaka

Annotation: In this thesis, the author presents the definitions of reading—as one of the types of speech activity—given by leading methodologist scholars, and expresses views on the psychological, psycholinguistic, and linguodidactic characteristics of reading as a form of speech activity.

Keywords: reading, schema theory, top-down approach, bottom-up approach, fluent reading, receptive skill

Аннотация: В данной тезисной работе автор приводит определения чтения как одного из видов речевой деятельности, данные ведущими учёными-методистами, а также излагает свои взгляды на психологические, психолингвистические и лингводидактические особенности чтения как вида речевой деятельности.

Ключевые слова: чтение, теория схем, подход “сверху вниз”, подход “снизу вверх”, беглое чтение, рецептивный навык

Ingliz tili darslarida umumiy kommunikativ kompetensiya tarkibidagi o'qish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari borasida mamlakatimiz va jahon metodist olimlari tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'qishni matn muallifi va uni o'quvchi o'rtasida sodir bo'luvchi kommunikatsiya va interaksiya tarzida tushunish mumkin. O'qish sahifada yozilgan harfiy belgilardagi axborotni olish jarayonigina emas, balki o'quvchining mazkur axborotni tushunishi, u bo'yicha shaxsiy xulosalarga kelishi va yozuvchi nimani yozgani, bu bilan u nimani nazarda tutganini anglash jarayoni ekanligi bilan ham murakkab jarayon hisoblanadi. O'qish faoliyatini tadqiq etish ham uning o'zi singari nozik masala bo'lib, bunda agar ovoz chiqarib o'qilmasa biz o'zimiz kuzata olmaydigan (chunki odatiy o'qish ichda, ong orqali sodir bo'ladi) aqliy hodisani o'rganamiz. O'qish axborot qabul qilishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u mutolaa chog'ida nafaqat zarur ma'lumotni olish, balki o'quvchining shaxsiy, bilishga doir ehtiyojlarini qondirishga ham xizmat qiladi. O'qish ingliz tilini o'qitishda mustaqil nutq faoliyati turlaridan biri sifatida qaraladi. O'qish utq faoliyati yozma nutqqa doir bo'lib, tinglab tushunish singari retseptiv malakalar sirasiga kiradi, ya'ni bunda insonlar o'zlari ko'rgan yoki eshitgan matn-diskursdan mazmunni ajratib olishadi. O'qish ko'ruv sezgisining bevosita ishtiroki orqali amalga oshiriluvchi yozma matnni tushunish orqali undan ma'lumot olish, olingan axborotni qayta ishlash jarayonidir. J. Jalolov o'qishni mazmunni (axborotni) yozma matndan olish jarayoni sifatida izohlaydi [1:254]. U o'qishni izohlashda I.Berman va V.Buxbinderlardan quyidagi iqtibosni keltiradi: “O'qish-harfiy (grafik) belgilarda ifodalangan axborotni idrok etish va mazmunini payqash jarayoni” [1:252]. O'qish - grafik koddagi axborotni tovush kodiga o'tkazish jarayonidir. A.Kuchiboyev o'qishni harfiy belgilarda ifodalangan nutq axborotini idrok etish, uning mazmunini tushunish jarayoni sifatida tushuntiradi [2:88]. R.Milrud o'qishni vizual-kognitiv jarayon sifatida tasvirlaydi [6:253]. Ya'ni, o'qish uchun o'quvchi ko'ruv sezgisi orqali harfiy belgilarni qabul qiladi va ongda uni ma'lumot sifatida qayta ishlaydi. Matn qaysidir o'quvchilar ommasiga qarata yoziladi va u orqali axborot uzatuvchi bo'lmish yozuvchi ko'zlangan o'quvchilar guruhiga o'z xabarini mazkur matn orqali yetib borishini xohlaydi. Muloqotning ushbu turi ommaviy muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qish - matndan olingan ma'lumotlarni shaxsiy bilim va tajribalar bilan uyg'unlashtirib, yangi mazmun

yaratish jarayonidir [7:68]. Ya'ni ayni matndan turli yosh va soha vakillari turlicha mazmun yaratadilar. O'qishning asosiy maqsadi o'qib tushunishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun turli o'qish strategiyalaridan foydalanish muhimdir. Strategik o'qish o'quvchining o'qish maqsadiga erishish uchun turli xil o'qish usullaridan foydalana olish malakasidir. Strategik o'qish o'quvchi malakasi sifatida belgilanadi. O'qish malakasini egallagan o'quvchilar matnni o'qishda qiyinchiliklarga duch kelganda nima qilishni, qaysi strategiyalar orqali ushbu qiyinchilikni oqilona yengish tajribasiga ega bo'lishadi.

K. Gudman va K. Nattellar matn bilan ishlashda "Quyidan-Yuqoriga" (Bottom-Up) va "Yuqoridan-Quyiga" (Top-Down) o'qish usullarini taqdim etishgan. Matnni tushunishda quyidan-yuqoriga o'qish usulidan foydalanish asosida matn bilan ishlash matnning ichki darajasidan, ya'ni matndagi harflar, morfemalar, bo'g'inlar, so'zlar, iboralar, gaplar, grammatik tuzilish va diskursiv ishoralarini aniqlashdan boshlanadi. Bunda matndagi ichki (yashirin) ma'lumotlarga asoslanish va tilga oid kompetensiyalarni (grammatika, leksika, imlo, talaffuz) yuqori darajada egallagan bo'lish talab etiladi. O'quvchi matndagi ma'lumotlar oqimidan o'zi uchun zaruriy bo'lgan diskursiv ishoralarni tanlaydi. Matn bilan ishlashning yuqoridan-quyiga yondashuvida o'quvchi oldindan mavjud bazaviy bilimlari (fon bilimlari) va taxminlariga tayanadi, bu esa umumiy, kengroq tushunchalardan matn ichidagi aniq tafsilotlarga o'tishni anglatadi.

O'qish jarayoni ma'lum darajada o'quvchining matnni o'qishda matn muallifi fikrini tushunishdagi noaniqliklarni ham o'z ichiga oladi. K. Gudman o'qish jarayonini "psixolingvistik taxmin o'yini" deya tasvirlaydi [8:126]. O'quvchilar matn mazmunini anglash va idrok etish uchun matndagi ma'lumotlarga va o'zlarining oldindan mavjud tayanch bilimlariga (background knowledge) asoslanib taxmin qiladi yoki bashorat qilishadi. Keyinchalik, o'qish natijasida o'quvchi o'z taxminlarining to'g'riligini tekshirib tasdiqlaydi yoki to'g'rilaydi va shu tariqa xabarni ongida qayta tiklaydi. Bu jarayon o'qishning faqatgina dekodlashgina emas, balki interaktiv va kognitiv jarayon ekanligini dalillaydi. Bu jarayonda yuqoridan-quyiga (top-down) yondashuvni qo'llash juda muhim bo'lib, u o'quvchilarga o'z aqliy salohiyati va oldingi to'plagan hayotiy tajribasi, boshqa fanlardan egallagan bilimlaridan foydalanib ingliz tilidagi matn mazmunini to'g'ri anglash imkonini beradi. K. Nattel quyidan-yuqoriga (bottom up) ishlov berishni mayda detallarni lupa yoki mikroskop yordamida diqqat bilan o'rganayotgan olimning ishiga o'xshatgan. Aksincha, yuqoridan-quyiga ishlov berishni keng manzarani yuqoridan kuzatayotgan burgutning nazariga qiyoslaydi [4:5]. Xorijiy adabiyotlardagi ushbu atamalar o'zbek tilidagi manbalarda kuzatuv o'qish va o'rganuv o'qish nomlari bilan yuritiladi.

O'qish jarayonida matndan tashqari omillarni hisobga olish zarurati 1980-yillarning ahamiyatli nazariyalaridan bo'lmish sxema nazariyasining paydo bo'lishiga olib keldi. Sxema nazariyasi 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida, o'quvchilarning matnga oid oldindan mavjud, tayanch bilimlari (background knowledge) va matnni tushunish jarayoni o'rtasidagi aloqani o'rganish maqsadida ishlab chiqilgan. O'qish jarayonidagi qolip-sxemalar – o'quvchining xotirasida mavjud bo'lgan oldindan, hayoti mobaynida shakllanib kelgan bilimlar tizimi bo'lib, bu nafaqat ma'lumotni saqlash, balki yangi bilimlarni egallash uchun

tayyor tuzilma sifatida ham ishlaydi. Faol jarayon sifatida sxema: o'quvchi matn yuzasidan uni o'qishdan avval o'z oldiga qanday savollar qo'yishi, mazmunini avvaldan taxmin qilishi va ularga matn o'qish davomida qanday javob topishi mumkinligini belgilaydi. Sxemalar turli shakllarda bo'lishi mumkin: a) tushunchalar - o'quvchiga tanish bo'lgan tushunchalar; b) faktlar- o'quvchiga ma'lum bo'lgan voqealar, hayotiy qonuniyatlar; d) tasvirlar- o'quvchining ongida shakllangan ruhiy, hissiy tasvirlar; e) til bilimlari- leksik va grammatik bilimlar; f) farazlar (assumptions)- fikrlar formulasi; g) ramkalar, qoliplar (frames) - narsalar, odamlar va vaziyatlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan tushunchalar va stereotiplar; h) senariylar -xatti-harakatlar ketma-ketligi; i) hissiyot va tuyg'ular-o'quvchining o'tmishidagi, hayotidagi kechirgan his-tuyg'ulariga asoslangan emotsional tanishlik [6:165]. Sxema nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri shundaki, har qanday matn, yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, o'zida tayyor ma'noni tashimaydi. Aksincha, u o'quvchilarga o'z kognitiv tuzilmasidan foydalanib, ya'ni ilgari egallangan bilimlaridan foydalangan holda ma'no yaratish uchun yo'nalish beradi [6:255].

Ravon o'qish - bu zaruriy tezlikda va yetarli darajada tushunish bilan o'qish ko'nikmasidir. Bunda bilim, ko'nikma (skill) malakaga (habit formation) aylangan bo'ladi. Matndagi tugal ma'no na matnning o'zida, na o'quvchining ongida emas, balki o'quvchining ushbu matn mavzusiga oid bazaviy bilimlari matn mazmuni bilan birlashib, yangi ma'no yaratishida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayoni, bilamizki og'zaki va yozma shakllarda sodir bo'lishi mumkin, quyidagi rasmda muloqot jarayoni tasvirlangan bo'lib, bunda xabarni uzatuvchi shaxs (yozuvchi) xabar matnini so'zlar yoki harfiy belgilar vositasida kodlaydi va uni og'zaki yohud yozma matn shaklida qabul qiluvchiga uzatadi (1-rasmga qaralsin). Xabarni qabul qiluvchi shaxs uni tovushlar, harfiy belgilardan iborat kodini ochib, ongida qayta ishlab tushunadi va shu bilan muloqot amalga oshadi. Qabul qiluvchi shaxs uzatilgan matn xabarini nechog'lik darajada tushungani uzatuvchiga qorong'u ekanli tufayli qabul qiluvchida so'roq alomati berilmoqda [4:4, 10].

1-rasm. O'qishdagi muloqot jarayoni

J.Jalolov ta'rifiga ko'ra o'qishni uch qirrali jarayon sifatida tasvirlashimiz mumkin [1:255] (2-rasmga qaralsin).

2-rasm. O'qish jarayoni.

O'qish faoliyat turi sifatida motiv, ya'ni nutqqa undovchi sabab sifatida muloqot yuritish, maqsad bo'lib ma'lumot, axborot olish, sharoit sifatida matn tilidagi harf-tovush munosabatlari, yozuv tizimidan xabardorlik va natija sifatida esa o'qilganni tushunish, anglash kabilardan tashkil topadi. O'quvchida o'qish malaka va ko'nikmalari matn bilan ishlashga doir mashqlar bajarilishi orqali shakllantiriladi, rivojlantiriladi va takomillashtiriladi. Ilk bosqichlarda o'qish mexanizmini rivojlantirish uchun tovush-harf munosabatini tushuntirish, o'qish tezligini oshirish, so'z tanish avtomatizmiga erishish mashqlari bajariladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar yuqori sinflarida asosan bevosita matn bilan ishlash, matnni o'qib tushunish uchun mos o'qish strategiyalarini qo'llash mashqlarini taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir.

O'qish mashqlari matn o'qishdan oldingi tayyorlov mashqlari, bevosita matn o'qish jarayonida bajariladigan mashqlar va matnni tushunganlikni tekshirish, matndagi ifodalangan fikrga o'zining munosabatini bildirish uchun matndan keyin bajariluvchi mashqlarga ajratiladi. O'qishdan oldin bajariladigan mashqlar o'quvchilarni matnga leksik va grammatik tayyorlash, qiziqtirish, matn mavzusi bo'yicha tayanch, bazaviy bilimlarini faollashtirish, matnni o'qishdan ko'zlangan maqsad va sababni tushuntirish uchun o'tkaziladi. Matn o'qish chog'ida bajariladigan mashqlar o'quvchilarni matnni diqqat bilan o'qishga yo'naltirish, undagi asosiy g'oya va muhim ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmasini rivojlantirish, o'qish davomida tushunmovchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish, o'quvchilarning o'qish jarayonida faol ishtirokini ta'minlashni maqsad qiladi. O'qishdan keyingi bosqichda bajariladigan mashqlar matn mazmunini chuqur, batafsil tushunishni ta'minlash, matndan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, analiz, sintez qilish, xulosalar yasash, matn asosida o'z fikrlarini ifodalash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zlab o'tkaziladi.

O'qish jarayonini maqsad, strategiya va natija ketma-ketligida tushunish mumkin. O'qish maqsadi o'quvchining matn o'qish uchun sababi, o'qish uchun motivini ifodalaydi. O'quvchilarda matn o'qishdan kerakli ma'lumotni olish, hordiq chiqarish, test topshirig'ini bajarish kabi maqsadlar ko'zlanadi. O'qish maqsadlariga ko'ra mos o'qish strategiyalari, o'qish turi tanlanadi. Adabiyotlar tahlili orqali o'qish turi, o'qish strategiyasi, o'qish texnikasi tushunchalari izohlarida chalkashliklarga duch keldik. Ingliz tilli metodistlar o'qishni maqsadiga ko'ra "skimming", "scanning", "intensiv o'qish", "ekstensiv o'qish" turlariga bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Toshkent. O'qituvchi. 2012. – 431 b.
2. Ko'chiboyev A.K. Xorijiy tillarga o'rgatishning kommunikativ metodikasi. - Samarqand.: SamDChTI NMM, 2010. – 145b.
3. Xoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. - T. Sharq NMAK. 2003. – 304 b.
4. Nuttall Ch., Alderson Ch. Teaching Reading skills in a foreign language. - London.: Macmillan Heinemann publishing house, 1996. – 282 b.
5. Anderson N., Richard C., and P. David Pearson 1984 A schema-theoretic view of basic processes in reading comprehension. In Handbook of reading research, P. David Pearson (ed.). White Plains, NY: Longman, 1984. – 292 b.
6. Milrud R. P. Методика преподавания английского языка. English Teaching Methodology: учеб. Пособие для вузов. - М.: Дрофа, 2005. — 253 b.
7. Nunan D. Practical English language teaching, first edition- UK.: International Edition, 2003. – 268 b.
8. Goodman K. S. Reading: A psycholinguistic guessing game. // Journal of the Reading Specialist, 6(4), 126-135 bb. .

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA CHET TILINI O'QITISH

Abdujalilova Xurshidabonu Abdulnosir qizi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Abdujabborova Sarvinoz Mirzohid qizi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

+998905542208

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tilini o'qitish metodikasining zamonaviy yondashuvlari, xususan, kommunikativ va interaktiv usullarning o'zni o'rganib chiqiladi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularning amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metod va vositalardan foydalanish masalalari ko'zda tutiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati va ularni qo'llash imkoniyatlari va foydali taraflari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalariga ko'ra, zamonaviy metodlardan foydalanish chet tilini o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kuzatilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, xorijiy tillar, mobil ilovalar, metodika, uslub, zamonaviy ta'lim*

Kirish: Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchi nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni turli amaliy vaziyatlarda qo'llash tajribasiga ham ega bo'lishi lozim. Hozirgi kunda inson hayotining vaziyatlardan chetda qolmay, an'anaviy yondashuvlardan asta-sekin raqamli muhitga o'tib bormoqda. Bu esa o'quv jarayonini nafaqat zamonaviylashtirmoqda, balki uni yanada samarali va qiziqarli shaklga keltirib, ta'lim sifatini yangi darajaga ko'tarmoqda. Chet tilini o'rganish ko'plab o'rganuvchilar uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiy holat. Biroq raqamli vositalar — interaktiv platformalar, onlayn darslar va darsliklar, mobil ilovalar va multimedia resurslari — bu jarayonni sezilarli darajada osonlashtirib, tilga bo'lgan ichki motivatsiya va xohishni oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar yordamida chet tilini o'qitish bugungi ta'lim tizimida nafaqat yangi metodika, balki zaruriy ehtiyoj sifatida shakllanmoqda va dars jarayonlarida qo'llanmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli texnologiyalarning dars samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarni tahlil qilish va ularni ta'lim bosqichlariga integratsiya qilish yo'llarini yoritishdan iborat.

Metodlar: Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularga fanlardan chuqur bilim berish, dunyoqarashini kengaytirish hamda estetik ruhda tarbiyalash lozim. Bularni amalga oshirishda chet tili ham o'z hissasini qo'shadi. Tillarni zamonaviy o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari fani chet tili bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda yetakchi o'rinda turadi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarning chet tilini o'qitishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida bir-birini to'ldiruvchi quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

1. Tizimli tahlil va qiyosiy-pedagogik metod:

Tadqiqotning nazariy asoslarini yaratish uchun so'nggi 5 yillikdagi xalqaro onlayn ta'lim platformalari (Coursera, Duolingo, Khan Academy) va ilmiy

ma'lumotlar to'plamlaridagi (Google Scholar, Scopus) mavjud adabiyotlar o'rganib, tahlil qilindi. An'anaviy dars berish uslubi bilan raqamli dars berish formatining afzalliklari va kamchiliklari bir-biriga qiyoslab o'rganildi.

2. Empirik metod: Kuzatish va tajriba-sinov:

Elektron vositalarning (masalan, Quizlet, Kahoot, Wordwall) dars jarayonidagi ta'sirini o'rganish uchun pedagogik kuzatish o'tkazildi. Tajriba jarayonida o'quvchilarning yangi so'zlarni eslab qolishi va talaffuzi "raqamli o'yinlashtirish" (gamification) yordamida va usiz (faqat kitob orqali) tekshirildi.

3. Sotsiologik metod: So'rovnoma va intervyu:

Tadqiqot doirasida 50 dan ortiq til o'rganuvchilar o'rtasida onlayn so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada so'rovnomada qatnashuvchilarning raqamli resurslarga bo'lgan munosabati, ulardan foydalanish uslubi va o'z bilimlaridagi o'sishni baholashlari tahlil qilindi.

4. Kontent-analiz (Content Analysis):

Chet tilini o'qitishga mo'ljallangan eng ommabop 5 ta mobil ilovaning metodologik tuzilishi tahlil qilindi. Bunda ilovalarning "To'rt ko'nikma" (Reading, Writing, Listening, Speaking)ni qay darajada qamrab olgani va saviyali tarzda ekanligi o'rganildi.

5. Psixofiziologik yondashuv: Raqamli modellashtirish (ranglar, harakatlanuvchi tasvirlar)ning o'quvchi xotirasiga ta'sirini baholash so'rovnomasi talabalar orqali o'tkazildi.

NATIJALAR: O'tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zlashtirish ko'rsatkichlarining o'sishi:

An'anaviy metod bilan dars o'tilgan guruhi va raqamli texnologiyalar qo'llanilgan tajriba guruhi natijalari solishtirilganda, tajriba guruhida materialni o'zlashtirish darajasi 15-20% yuqori ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, yangi so'zlarni (vocabulary) xotirada saqlash ko'rsatkichi va audio resur va manbalar yordamida 30% ga tezlashgani kuzatildi.

2. Ko'nikmalar kesimidagi natijalar:

Raqamli vositalarning til ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilinganda quyidagi ijobiy ko'rsatkich qayd etildi:

Listening (Tinglab tushunish): Podkastlar va video-kontentlar yordamida o'quvchilarning jonli nutqni tushunish darajasi sezilarli darajada oshdi.

Speaking (Gapirish): Mobil ilovalardagi nutqni aniqlash funksiyasi o'quvchilardagi hayajon va qo'rquvni kamaytirishga va talaffuzni to'g'rilashga xizmat qildi.

Grammar (Grammatika): Avtomatik tekshiruvchi onlayn testlar va boshqa turdagi mustahkamlash savollari orqali o'quvchilar o'z xatolarini ko'rib, ularni tuzatish ustida ishlashni o'rgandilar.

3. Motivatsiya va faollik darajasi:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'rganuvchilarning 85 foizi raqamli o'yinlar qo'llanilgan darslarda o'zlarini erkinroq his qilishlarini va darsga tayyorgarlik ko'rish ishtiyoqi ortganini bildirishgan. Raqamli muhit o'quvchilarning darsdagi ishtirokini o'stirishi isbotlandi.

MUHOKAMA: Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, chet tilini o'rganishda kompyuter va telefonlardan to'g'ri foydalanish dars sifatini sezilarli darajada oshiradi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin:

Qiziqishning ortishi: O'quvchilar kitobdan ko'ra ekran orqali rangli tasvirlar va videolar bilan ishlashni ko'proq yoqtirishadi. Bu ularning darsda zerikmasligi va darsga e'tiborini ta'minlaydi.

Xotirada yaxshi saqlanishi: Yangi so'zlarni shunchaki yodlamasdan, balki maxsus o'yinlar orqali o'rganish o'quvchi xotirasida uzoqroq saqlanib qolishiga yordam beradi. Chunki bunda o'quvchi ham eshitadi, ham ko'radi.

Qo'rqmasdan gapirish: Ko'pchilik til o'rganuvchilar odamlar oldida xato qilishdan qo'rqishadi. Mobil ilovalar bilan ishlaganda esa hech kim ularni tanqid qilmaydi. Bu esa ularga o'z ustida ishlash va talaffuzni to'g'rilash uchun imkoniyat beradi.

Vaqtдан yutish: Avval lug'at titkilab so'z qidirishga ko'p vaqt ketgan bo'lsa, hozirgi onlayn lug'atlar va tarjimonlar vaqtни tejab, ko'proq amaliy mashqlar bilan shug'ullanishga sharoit yaratmoqda.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yordamida chet tilini o'qitish zamon talabidir. Raqamli texnologiyalar o'qituvchining o'rnini bosmaydi, balki uning eng yaqin yordamchisiga aylanadi. Agar darslarda texnologiya va an'anaviy darslar to'g'ri birlashtirilsa, kutilgan natijaga tezroq va samarali usulda erishish mumkin. Raqamli texnologiyalar darsni jonlantiradi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va o'rganish jarayonini tezlashtiradi. Kelajakda har bir dars jarayoniga bunday zamonaviy vositalarni ko'proq kiritish ta'lim sifatini yangi darajaga olib chiqishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Hoshimov O'., Yoqubov I. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" (o'quv qo'llanma). – Toshkent: "Sharq", 2003.
- 2) Chapelle, Carol A. "Computer Applications in Second Language Acquisition". – Cambridge University Press, 2001.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2021-yil 19-may).
- 4) Baxromova N. (2023). "Kommunikativ yondashuv asosida chet tilini o'qitish samaradorligi."Filologiya fanlari jurnali.
- 5) Larsen-Freeman D. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching.Oxford University Press.

HOW TO IMPROVE ACADEMIC WRITING OF STUDENTS

Abdullayeva Iroda Murotovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili integrallashgan kursi №3 kafedrasi
stajor o'qituvchisi

Email: irodaabdullayeva079@gmail.com

Sotvoldiyeva Diyora Muzaffar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Email: doraamuza@gmail.com

Abstract: Academic writing is an essential skill for students in higher education. It allows learners to express ideas clearly, develop critical thinking, and participate in academic discussions. However, many students experience difficulties in organizing their thoughts, using appropriate vocabulary, and following academic conventions. This article explores effective strategies for improving students' academic writing skills. The study analyzes common challenges students face and suggests practical methods that teachers and institutions can use to support writing development. These strategies include explicit instruction, practice with feedback, reading academic texts, and the use of modern educational technologies. The article also highlights the importance of motivation and consistent practice in developing strong academic writing abilities. The findings suggest that systematic instruction and supportive learning environments significantly improve students' writing competence.

Keywords: *academic writing, higher education, writing skills, language learning, teaching strategies*

Introduction. Academic writing plays a crucial role in education, especially in universities and research institutions. Students are expected to present ideas logically, support arguments with evidence, and follow academic standards. Strong writing skills help students communicate knowledge effectively and succeed in their studies.

Despite its importance, many students struggle with academic writing. They often find it difficult to structure their essays, develop clear arguments, or use appropriate academic language. These problems are particularly common among students who study in a second language. Limited vocabulary, lack of experience with academic texts, and insufficient writing practice can create barriers to effective communication.

Improving academic writing is therefore an important task for educators. Teachers must provide guidance, resources, and opportunities for students to develop their writing skills gradually. This article discusses the main difficulties students face in academic writing and suggests practical strategies that can help improve their performance.

The purpose of this article is to analyze the factors that influence students' academic writing abilities and to present effective methods that support the development of these skills in higher education.

Literature Review: Many researchers have studied the development of academic writing skills among students. Academic writing is generally defined as a formal style of writing used in universities and scholarly publications. It requires clarity, coherence, and evidence-based arguments.

According to Hyland (2004), academic writing is not only about grammar and vocabulary but also about understanding how knowledge is constructed in academic communities. Students must learn how to present arguments, cite sources, and organize ideas logically.

Another important aspect of academic writing is critical thinking. Bailey (2015) emphasizes that students should not simply repeat information from sources. Instead, they should analyze, compare, and evaluate different perspectives. This process helps them develop independent ideas and stronger arguments.

Research also shows that regular practice significantly improves writing skills. Harmer (2007) suggests that writing should be treated as a process rather than a single activity. The writing process usually includes planning, drafting, revising, and editing. Through these stages, students can gradually improve their work.

Feedback from teachers and peers is also an important factor. Studies indicate that constructive feedback helps students identify mistakes and understand how to improve their writing. In addition, reading academic texts allows students to observe how experienced writers structure arguments and use academic language. Recent studies highlight the role of technology in writing instruction. Digital tools such as grammar checkers, online dictionaries, and writing platforms provide students with immediate support and help them refine their texts.

Methodology: This study uses a qualitative approach to explore effective strategies for improving academic writing. The research is based on the analysis of existing literature, observations from teaching practice, and discussions with university students. The participants in the study included undergraduate students who were learning English as a foreign language. These students often needed to write essays, reports, and research papers as part of their academic programs.

Data were collected through classroom observations, analysis of student writing samples, and informal interviews with students about their writing experiences. The purpose of these methods was to identify the most common challenges students face and the strategies that help them improve their writing.

The collected data were analyzed thematically. The analysis focused on identifying patterns in students' writing difficulties and evaluating the effectiveness of different instructional approaches.

Common Difficulties in Academic Writing

The analysis revealed several common problems students experience in academic writing. One of the main difficulties is organizing ideas logically. Many students begin writing without clear planning, which results in disorganized paragraphs and weak arguments. Without a clear structure, readers may find it difficult to understand the writer's main message. Another challenge is limited academic vocabulary. Students often rely on simple or repetitive words, which reduces the quality of their writing. Academic texts usually require more precise and formal language. Grammar and sentence structure also create difficulties. Errors in tense usage, sentence

agreement, and punctuation can affect the clarity of a text. While minor mistakes are common in language learning, frequent errors may weaken the credibility of academic writing. Students also struggle with referencing and citation. Many learners are unfamiliar with citation styles such as APA or MLA, and they sometimes copy information from sources without proper acknowledgement. Finally, lack of confidence can influence students' writing performance. Some students feel anxious about writing in a second language and hesitate to express their ideas.

Strategies for Improving Academic Writing

Several effective strategies can help students develop stronger academic writing skills. **Explicit Instruction:** Teachers should provide clear explanations of academic writing conventions. Students need to understand the structure of essays, research papers, and reports. Instruction should include guidance on thesis statements, paragraph organization, and argument development. **The Writing Process Approach:** Encouraging students to follow the writing process helps them produce better texts. This approach includes planning, drafting, revising, and editing. During the planning stage, students can create outlines and organize their ideas. Drafting allows them to develop their arguments, while revision helps improve clarity and coherence. **Reading Academic Texts:** Reading plays an important role in writing development. When students read academic articles, they learn how arguments are presented and supported with evidence. This exposure helps them understand the style and structure of academic writing.

Feedback and Peer Review: Constructive feedback is essential for improvement. Teachers should provide detailed comments on students' work and explain how they can correct mistakes. Peer review activities also encourage collaboration and help students evaluate writing from different perspectives. **Vocabulary Development:** Expanding academic vocabulary improves the quality of students' writing. Teachers can introduce academic word lists and encourage students to practice using new terms in their essays. Learning synonyms and transitional phrases also helps students create more sophisticated texts. **Use of Technology:** Modern technology provides valuable tools for writing development. Grammar-checking software, online dictionaries, and writing platforms can help students identify mistakes and improve their language use. However, these tools should be used as support rather than a replacement for learning. **Regular Writing Practice:** Consistent practice is one of the most effective ways to improve writing. Short writing tasks, reflective journals, and essay assignments allow students to practice organizing ideas and expressing arguments clearly.

Discussion: The findings of this study suggest that improving academic writing requires a combination of instructional strategies and student motivation. Writing skills develop gradually through practice, feedback, and exposure to academic texts. Teachers play an important role in guiding students through the writing process. By providing clear instructions and supportive feedback, educators can help students build confidence and improve their performance. In addition, universities should create environments that encourage writing development. Writing centers, workshops, and academic support programs can provide students with additional opportunities to practice and receive guidance. Technology also offers new

possibilities for writing instruction. Digital tools can assist students in editing their texts and expanding their vocabulary. However, students must still develop independent writing skills and critical thinking abilities.

Conclusion: Academic writing is a fundamental skill for success in higher education. Many students experience difficulties in organizing ideas, using appropriate vocabulary, and following academic conventions. These challenges can be addressed through systematic instruction and supportive learning environments. This article highlights several strategies that can improve students' academic writing skills, including explicit instruction, the writing process approach, reading academic texts, feedback, vocabulary development, and the use of technology. The study concludes that consistent practice and constructive guidance are key factors in developing strong academic writing abilities. By implementing these strategies, educators can help students become more confident and effective academic writers.

References:

1. Bailey, S. (2015). *Academic Writing: A Handbook for International Students*. Routledge.
2. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Longman.
3. Hyland, K. (2004). *Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing*. University of Michigan Press.
4. Swales, J., & Feak, C. (2012). *Academic Writing for Graduate Students*. University of Michigan Press.

OLIY TA'LIM TALABALARIGA CHET TILI O'QITISHDA PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI (FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: INGLIZ TILI YO'NALISHI MISOLIDA)

Ahmadaliyeva Gulsanam Elmurodjon qizi

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillar instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi oliy ta'lim muassasalarida chet tili, xususan ingliz tilini o'qitish jarayonida psixolingvistika fanining nazariy va amaliy ahamiyati tadqiq etiladi. Tezisdagi filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar misolida psixolingvistik yondashuvning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Psixolingvistika, chet tili o'qitish, oliy ta'lim, ingliz tili, nutq faoliyati, motivatsiya, kognitiv jarayonlar, tili o'rgatish xavotiri.*

Abstract: This thesis examines the theoretical and practical significance of psycholinguistics in teaching foreign languages, particularly English, in higher education institutions. The research analyzes the effectiveness of the psycholinguistic approach based on the example of students majoring in philology and languages teaching (English languages).

Keywords: *Psycholinguistics, foreign language teaching, higher education, English language, speech activity, motivation, cognitive processes, foreign language anxiety.*

Аннотация: В статье исследуется теоретическая и практическая значимость психолингвистики в процессе преподавания иностранных языков, в частности английского языка, в высших учебных заведениях. На примере студентов филологического направления и направления обучения языкам автор анализирует эффективность психолингвистического подхода.

Ключевые слова: психолингвистика, преподавание иностранных языков, высшее образование, английский язык, речевая деятельность, мотивация, когнитивные процессы, языковая тревожность.

Kirish: Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida chet larini, xususan ingliz tilini mukammal egallash oliy ta'lim talabalarning kasbiy rivoji uchun muhim omil hisoblanadi. xalqaro hamkorlik va raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimini isloh qilish strategiyasida xorijiy tillarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitish jarayonida talabalar ko'pincha psixologik va lingvistik qiyinchiliklarga duch kelmoqda: nutq ishlab chiqarishdagi qo'rquv, motivatsiya pasayishi, leksik va grammatik birliklarni eslab qolishdagi muammolar hamda til o'rganishning kognitiv jarayonlarini tushunmaslik natijasida samaradorlik pasaymoqda. Psixolingvistika fani ana shu muammolarni hal etishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'plab xorijiy tadqiqotlarda psixolingvistikaning chet tili o'qitishdagi ahamiyati yuqori baholanmoqda. Masalan, psixolingvistik nazariyalar talabalarning formulali iboralaridan (formulatic sequences) foydalanish orqali og'zaki nutq ravonligini oshirishga yordam berishini ko'rsatgan. Shuningdek, psixolingvistika til o'rganishdagi xavotir (foreign language anxiety), motivatsiya va kognitiv yuklamani boshqarish mexanizmlarini ochib beradi. Ingliz tili yo'nalishidagi talabalar misolida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, psixolingvistik yondashuvlarni qo'llash orqali talabalarning tinglash, o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalarini uyg'un rivojlantirish mumkin.

O'zbekistonda filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishida psixolingvistik tadqiqotlar hali yetarli darajada rivojlanmagan, Shu bois mazkur tezisda oliy ta'lim talabalariga ingliz tili o'qitishda psixolingvistik nazariy asoslari, amaliy usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari chet tili o'qituvchilari uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlari

Ushbu tadqiqotda oliy ta'lim talabalariga ingliz tilini o'qitishda psixolingvistik nazariy asoslari ahamiyatini o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlarning chuqur tahlili amalga oshirildi. Chet el va mahalliy olimlarning ishlarini tizimli ravishda o'rganish orqali mavzuning nazariy asoslari shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida chet tili, xususan ingliz tilini o'qitish jarayonida psixolingvistika fani muhim o'rin tutadi. Psixolingvistika tilni idrok etish, xotiraga joylash, nutqni ishlab chiqarish va til o'rganishning psixologik mexanizmlarini o'rganuvchi fan sifatida o'quv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu fan til o'rganishni faqat grammatik qoidalarni yodlash deb emas, balki inson

ongining kognitiv, emotsional va ijtimoiy jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi.

Psixolingvistikaning chet tili o'qitishdagi birinchi muhim jihati — til o'rganishning kognitiv mexanizmlarini hisobga olishdir. Noam Chomsky ning "Universal Grammar" nazariyasiga ko'ra, inson miyasida til o'rganishga xos tug'ma mexanizmlar mavjud bo'lib, ular ikkinchi tilni egallash jarayonida ham faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, Stephen Krashen ning "Input Hypothesis" va "Affective Filter Hypothesis" nazariyalari talabalarning til materialini tushunish va qabul qilish darajasini emotsional holatga bog'laydi. Agar talabada chet tilini o'rganishga nisbatan yuqori xavotir (foreign language anxiety) mavjud bo'lsa, "affective filter" yuqori bo'lib, kiruvchi ma'lumotni qabul qilish qiyinlashadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — nutq faoliyatining to'rtta asosiy komponentini (tinglash, o'qish, gapirish, yozish) psixolingvistik yondashuv asosida uyg'un rivojlantirishdir. Willem Levelt ning nutq ishlab chiqarish modeli bo'yicha nutq jarayoni kontseptualizatsiya, formulalashtirish va artikulyatsiya bosqichlaridan iborat. Ingliz tili darslarida bu modelni qo'llash orqali talabalarga avval ichki nutqni (inner speech) faollashtirish, keyin esa vizual va assotsiativ bog'lanishlar yordamida og'zaki nutqni rivojlantirish tavsiya etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, formulaic sequences (tayyor iboralar) dan foydalanish talabalarning og'zaki nutq ravonligini sezilarli darajada oshiradi.

Uchinchi jihat — talabalarning individual psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olishdir. Har bir talabaning xotira hajmi, diqqat muddati, motivatsiya darajasi va kognitiv uslubi turlicha bo'ladi. Psixolingvistik yondashuv bu farqlarni aniqlash va shunga mos o'quv materiallarini tanlash imkonini beradi. Masalan, vizual auditor tipidagi talabalar uchun multimedia vositalari, kinestetik tipdagilar uchun rol o'yinlari va interaktiv mashqlar samaraliroq natija beradi. Z.Dornyei ning motivatsiya nazariyasiga asoslanib, integrativ motivatsiya (madaniyat va odamlarni tushunishga qiziqish) instrumental motivatsiyadan (faqat imtihon yoki ish uchun) ko'ra uzoq muddatli natijaga olib kelishi isbotlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'limda ingliz tili o'qitishda psixolingvistik yondashuvni qo'llash talabalarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv va emotsional rivojlanishini ham ta'minlaydi. Bu innovatsion usullar chet tili o'qitish sifatini oshirish va talabalarni zamonaviy globallashtirgan jamiyat talablariga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 352 b.
2. Chomsky N. Language and Mind. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
3. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.
4. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. – Cambridge: MIT Press, 1989.
5. Dörnyei Z. The Psychology of the Language Learner. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 2005.

6. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – 6th Edition. – Pearson, 2014.

7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 5th Edition. – Pearson, 2015

8 Internet manbalari: Google Scholar, ScienceDirect platformalaridagi psixolingvistika va chet tili o'qitish bo'yicha ilmiy maqolalar (2018–2025 yillar)

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI BILISH DARAJALARINI RIVOJLANTIRISH VA UNING SAT KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Azizova Habiba Abdulhamid qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti

1-kurs talabasi

2-

Annotation. Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tili kompetensiyasini rivojlantirish va uning SAT natijalariga ta'siri ilmiy-tahliliy asosda o'rganiladi. Unda innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar hamda differensial yondashuvning o'quvchilarning kommunikativ va akademik ko'nikmalariga ta'siri, shuningdek til muhiti va o'rganish strategiyalarining roli tahlil qilinadi. Natijalar ingliz tilini tizimli o'rganish SAT ko'rsatkichlarini oshirishini ko'rsatadi hamda til ta'limini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: *ixtisoslashtirilgan ta'lim, ingliz tili kompetensiyasi, SAT ko'rsatkichlari, innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar, differensial yondashuv, kommunikativ kompetensiya*

Annotation. This article examines, through a scientific and analytical approach, the development of English language competence in specialized schools and its impact on SAT performance. It analyzes the influence of innovative methods, interactive technologies, and differentiated instruction on students' communicative and academic skills, as well as the role of language environment and learning strategies. The findings indicate that systematic English language learning contributes to higher SAT scores and provide practical recommendations for improving language education.

Keywords: *specialized education, English language competence, SAT scores, innovative methods, interactive technologies, differentiated approach, communicative competence*

Kirish: Globallashtirish sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri — o'quvchilarning xalqaro baholash tizimlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlay oladigan kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tili ta'limi nafaqat kommunikativ vosita, balki akademik bilimlarni egallash, xalqaro test tizimlariga tayyorgarlik ko'rish va global ta'lim muhitiga moslashishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili kompetensiyasining rivojlanish darajasi bilan xalqaro SAT imtihoni natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

So'nggi yillarda ixtisoslashtirilgan maktablarda til o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar, o'yinlashtirish elementlari hamda individual yondashuv strategiyalari keng joriy etilmoqda. Bu metodlar o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning analitik fikrlashi, matnni tushunish, mantiqiy xulosa chiqarish kabi akademik kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi. Mazkur ko'nikmalar esa SAT kabi standartlashtirilgan testlarda yuqori natija ko'rsatish uchun zarur asosiy omillar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Til ta'limi nazariyasida kommunikativ kompetensiya tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Kanale va Sveyn (1980) kommunikativ kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida izohlaydi hamda tilni samarali qo'llash aynan shu komponentlarning uyg'un rivojlanishiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini o'qitish jarayonini faqat grammatik bilim bilan cheklamasdan, funksional nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Zamonaviy metodik tadqiqotlarda til o'qitish yondashuvlari evolyutsiyasi keng tahlil qilingan. Richards va Rodgers (2014) til o'qitish metodlari tarixiy rivojini tahlil qilib, kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar samaradorligi yuqoriligini ko'rsatadi. Harmer (2007) esa samarali dars modeli o'quvchini markazga qo'ygan interaktiv mashg'ulotlar, autentik materiallar va refleksiya jarayonlari orqali shakllanishini qayd etadi. Brown (2001) interaktiv yondashuvni til o'rganishda motivatsiya, psixologik qulay muhit va faol ishtirokni ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholaydi.

Integratsiyalashgan ta'lim konsepsiyasi ham til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Coyle, Hood va Marsh (2010) tomonidan ishlab chiqilgan CLIL modeli (Content and Language Integrated Learning) mazmun va tilni birgalikda o'qitish orqali o'quvchilarning ham predmet bilimlari, ham til ko'nikmalarini parallel rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuv ayniqsa xalqaro baholash tizimlariga tayyorlashda samarali metodik vosita sifatida qaraladi.

Milliy pedagogik adabiyotlarda ham innovatsion texnologiyalarning til ta'limidagi ahamiyati keng yoritilgan. Nazarov (2020) innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va kreativ faoliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida tavsiflaydi. Hamidova (2021) zamonaviy metodlar, xususan, raqamli platformalar va interaktiv topshiriqlar ingliz tilini o'zlashtirish samaradorligini sezilarli oshirishini ta'kidlaydi. Axmedov va Yunusova (2022) esa chuqurlashtirilgan ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning til kompetensiyasini tezroq shakllantirishga xizmat qilishini empirik misollar orqali asoslaydi.

Tilning global ahamiyati masalasida Crystal (2003) ingliz tilining xalqaro kommunikatsiya, ilm-fan va akademik almashinuv tili sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Bu holat ingliz tilini yuqori darajada egallashni nafaqat lingvistik maqsad, balki akademik va professional muvaffaqiyat omili sifatida ham ko'rib chiqish zarurligini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini chuqur o'rganish va akademik

test natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim yo'nalish hisoblanadi.

Tahlil va natijalar: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonini takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogika va lingvodidaktikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni ilmiy jihatdan tahlil qilish avvalo kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodika hamda chuqurlashtirilgan ta'lim muhiti kabi tushunchalarning mazmunini aniqlashni talab etadi. Kommunikativ kompetensiya nazariy jihatdan tilni bilish darajasini emas, balki uni real ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotlarda bu kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik tarkibiy qismlardan tashkil topgan kompleks tizim sifatida izohlanadi. Ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi o'quvchilarning nafaqat kundalik muloqot, balki akademik matnlar bilan ishlash, mantiqiy xulosa chiqarish va test topshiriqlarini samarali bajarish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Chuqurlashtirilgan ta'lim tizimida o'quvchilarga qo'yiladigan talablar yuqori bo'lgani sababli til kompetensiyasini rivojlantirish ham tizimli va metodik jihatdan asoslangan bo'lishi zarur. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy reproduktiv usullar o'rniga innovatsion metodlarni qo'llash o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va o'zlashtirish samaradorligini kuchaytiradi. Xususan, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar tilni real muloqot vositasi sifatida qo'llashga yo'naltirilgani bois o'quvchilarda nutqiy tezkorlik va tushunish darajasi sezilarli oshadi. Rolli o'yinlar, juftlik va guruh ishlari, muammoli vaziyatli topshiriqlar kabi metodlar o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirib, ularning til tajribasini boyitadi.

Teskari sinfxona modeli asosida olib borilgan darslar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar nazariy materialni mustaqil o'zlashtirib kelganida sinfdagi vaqt asosan amaliy nutqiy faoliyatga sarflanadi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'yinlashtirish elementlari qo'llanilgan mashg'ulotlarda esa o'quvchilarning motivatsiyasi ortib, dars jarayonidagi psixologik to'siqlar kamayadi. Interaktiv platformalar yordamida o'tkazilgan mashqlar natijasida o'quvchilarning lug'at boyligi kengaygani, tezkor fikrlash va to'g'ri javobni tanlash ko'nikmalari shakllangani kuzatildi.

Fan va til integratsiyasiga asoslangan yondashuv ham samarali natija beradi. Mazkur metodda o'quvchilar boshqa fanlarni ingliz tilida o'rganish orqali tilni tabiiy akademik muhitda qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon leksik zaxirani kengaytirish, terminologik savodxonlikni oshirish hamda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Natijada o'quvchilar murakkab matnlarni tahlil qilish, ma'lumotni taqqoslash va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni egallaydi, bu esa standartlashtirilgan test topshiriqlarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim vositalari ham til o'rganish samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Multimediali resurslar, mobil ilovalar, virtual platformalar va interaktiv doskalar yordamida tashkil etilgan darslar ko'pkanalli qabul jarayonini faollashtirib, bilimni mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bunday texnologiyalar individual

yondashuvni kuchaytirib, har bir o'quvchining ehtiyojiga mos topshiriqlar berish imkonini yaratadi.

Tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tiliga ajratilgan soat hajmining ko'pligi, dastur murakkabligi va metodik resurslarning boyligi innovatsion metodlarni samarali joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Biroq bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va raqamli savodxonligiga bog'liq. Yuqori malakali pedagoglar innovatsion yondashuvlarni to'g'ri tanlab qo'llagan hollarda o'quvchilarning til ko'nikmalari sezilarli rivojlanadi.

Olingan natijalar umumlashtirilganda quyidagi ilmiy xulosalar shakllandi:

- ingliz tili kompetensiyasi darajasi oshgani sari o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari ham ortadi;
- innovatsion metodlar qo'llangan darslarda o'zlashtirish ko'rsatkichi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'ladi;
- integrativ va interaktiv yondashuvlar o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirib, test topshiriqlarini bajarish tezligi va aniqligini oshiradi;
- chuqurlashtirilgan ta'lim muhiti xalqaro baholash tizimlariga tayyorgarlik uchun samarali pedagogik platforma vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari ingliz tili kompetensiyasini tizimli rivojlantirish ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining xalqaro standartlashtirilgan testlar, jumladan SAT ko'rsatkichlarini yaxshilashda muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Bu esa ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni keng joriy etish va metodik tizimni takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mulohaza (discussion): Tadqiqot natijalari ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tili kompetensiyasi o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanini ko'rsatdi. Ingliz tilini yuqori darajada egallagan o'quvchilar murakkab ilmiy tushunchalarni tezroq anglaydi, mantiqiy izohlaydi va o'z fikrini akademik uslubda aniq ifodalash qobiliyatini shakllantiradi. Bu holat ularning nafaqat til o'rganish fanlarida, balki matematika, tabiiy fanlar va analitik fikrlashni talab qiluvchi boshqa yo'nalishlarda ham yuqori natija ko'rsatishiga xizmat qiladi. Demak, til kompetensiyasi faqat lingvistik ko'nikma emas, balki umumiy akademik salohiyatni shakllantiruvchi integrativ omil sifatida namoyon bo'ladi.

Sifat tahlillari o'quvchilarning til darajasiga ta'sir etuvchi muhim omillarni aniqladi. Eng avvalo, til muhiti va til bilan muntazam aloqa qilish imkoniyati asosiy determinantlardan biri hisoblanadi. Darsdan tashqari ingliz tilida o'qish, suhbatlashish, media resurslardan foydalanish kabi faoliyatlar bilan shug'ullangan o'quvchilarda til kompetensiyasi yuqoriroq shakllanganligi kuzatildi. Shuningdek, samarali o'rganish strategiyalaridan foydalanish — masalan, muntazam o'qish, yozma mashqlar bajarish, savol berish, o'z-o'zini nazorat qilish — til rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari hamda innovatsion o'qitish metodlarining ilmiy jihatdan asoslanganligi ularni ixtisoslashtirilgan ta'lim tizimida samarali qo'llash imkonini beradi va bu holat tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiqot natijalari ingliz tili

kompetensiyasi o'quvchilarning umumiy akademik muvaffaqiyati, ayniqsa xalqaro standartlashtirilgan baholash natijalari bilan uzviy bog'liqligini tasdiqladi. Til darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar murakkab matnlarni tezroq tushunadi, mantiqiy xulosa chiqaradi, test topshiriqlarini aniq va tez bajaradi hamda akademik muhitda samarali muloqot qila oladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot ingliz tili kompetensiyasi va akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ixtisoslashtirilgan ta'lim kontekstida chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi. Ushbu bog'liqlikni anglash pedagoglarga yanada samarali metodik strategiyalarni ishlab chiqish, ta'lim muhitini takomillashtirish va o'quvchilarning ilmiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat tilni mukammal egallaydi, balki global ta'lim va ilmiy makonda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Axmedov, & Yunusova, M. (2022). Chuqurlashtirilgan ta'limda chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'рни. // Pedagogik mahorat, No4(32), –B. 23–27.
2. X.Braun, (2001). Принципы обучения иностранным языкам: интерактивный подход. –Nyu-York: Pearson Education.
3. D.Coyle, P.Hood, & D.Marsh, (2010). Content and Language Integrated Learning. –Cambridge: Cambridge University Press.
4. D.Fakeye and Y.Ogunsiji, "English language proficiency as a predictor of academic achievement among ELF students in Nigeria," Journal of Science Research, vol. 37, pp. 490- 495, March 2009.
5. Global English Corporation, "Philippines: World's best country in Business English," Business English Index (BEI), vol. 23, no. 4. pp. 35-40, September 2014.
6. D.Hamidova, (2021). Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. // Filologiya masalalari, No2(10), –B. 85–89.
7. J.Cummins, Language Proficiency, Bilingualism and Academic Achievement, White Plains, NY: Longman, 1992, pp. 58-70.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TINGLOVCHILARNI SOG'LOM TURMUSH TARZI HAYOTIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Baxavadinova Zamira Muxamattairovna

Andijon davlat tibbiyot instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Tinglovchilarga sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, inson salomatligining eng muhim qadriyatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, aholi orasida sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish, uning aholi hayotidagi eng muhim ustuvorligi, shaxsiy va ijtimoiy intilishlarini amalga oshirish imkoniyatini belgilaydigan ustuvor vazifa sifatida qadrlanib kelinmoqda. Bugungi kunda insonlar sog'liq va sog'lom turmush tarzini zamonaviy hayotning ustuvor yo'nalishlari

sifatida qay darajada anglab yetayotganliklari buning sababi haqida o'ylashga majbur qiladi.

Kalit so'zlar: *sog'lom turmush tarzi, hayotiy ko'nikma, ekologiya, demografiya, ekologik jarayonlar, integratsiya, globallashtiruv, metodik ta'minot, metodika, innovatsiya.*

Hamma davrlarda ham sog'lom turmush tarzi sog'liqni saqlashning asosiy omillaridan, talablaridan hisoblanib kelgan. Shuningdek, Har qanday jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri sanaladi.

Sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish muammosi yechimi tinglovchilarining sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish muammosini o'rganish katta ahamiyatga ega xisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzini o'zining kundalik turmush tarzi odatiga aylantirgan odam sog'lig'ini saqlashi va yaxshilashi mumkin. Ishchilarning sog'lig'iga e'tiborli bo'lish, nazorat qilish juda muhimdir.

Tadqiqot davomidagi ilmiy izlanishlarimiz asosida quyidagilarni aniqlagan: turli xil kasalliklarga moyilligi bo'lgan tinglovchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik darajasi aniqlangan; zamonaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya turlari kompleksidan foydalanishga asoslangan va tinglovchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda salomatligini yaxshilashga qaratilgan dastur ishlab chiqilgan; noan'anaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya turlarini o'z ichiga olgan, kasalliklarga moyilligi bo'lgan tinglovchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirishga yordam beradigan dastur tajribada tekshirilgan. Shunga ko'ra, turli xil kasalliklarga moyilligi bo'lgan tinglovchilarning tabaqalashtirilgan sog'lomlashtirish tizimi mazmuni ishlab chiqilgan va uni asoslab berishga bo'lgan yondashuvlar aniqlangan.

Insonning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish tabiati uning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq degan fikr ham juda asosli. Masalan, talabalarda sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish sog'liqqa yo'naltirilganlik eksternal yoki internal nazorat lokusi turi bilan bog'liq. Sog'lom odamlarning sog'lig'iga internal yo'naltirilganligini ta'kidlash mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqotda talabalarda sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirishning shaxsiy omillarini qadriyat yo'nalishlari, dunyoqarash, o'ziga bo'lgan munosabat xususiyatlari va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Sog'lom turmush tarzi tushunchasi yomon odatlarning mavjud emasligi, ish va dam olish rejimi, ovqatlanish tizimi, turli xil chiniqtirish va rivojlanish mashqlaridan ancha kengroqdir. Biroq, taklif qilayotgan, o'ziga va boshqa shaxsga, umuman hayotga bo'lgan munosabatlar tizimi sifatida, shuningdek, borliqning mazmuni, hayotiy maqsadlari va qadriyatlari jihatlarni unga kiritish uchun hozirgi tadqiqotlarda yetarlicha asoslar mavjud. Shubhasiz tinglovchilarda sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish shaxsning umumiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi, uning o'z sog'lig'iga bo'lgan e'tibori munosabatini tavsiflash sifatida talqin qilish mumkin. Shuni ham inobatga olish

kerakki, talabalarda sog'lom turmush tarzi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish – inson faoliyatining ijtimoiy jihatdan aniqlangan va ijtimoiy jihatdan maqbul shakllari va usullari, organizmning adaptiv imkoniyatlarini mustahkamlashda va takomillashtirishda, farovonligini ta'minlash uchun mo'ljallangan, o'z ichiga olgan yaxlit tizimdir.

Salomatlik muammolari bilan bog'liq eng muhim muammolardan biri bu uning omillarini izlashdir. Ushbu ma'lumot yuqori amaliy ahamiyatga ega, chunki u individual shaxsning ham, turli o'lchamdagi ijtimoiy guruhlarning salomatligini maqsadli boshqarish imkonini beradi. Bu muammo ham ancha murakkab va uning holati to'liq yechimdan yiroqdir. Bu o'z navbatida, inson salomatligi juda murakkab, kompleks, ko'p qirrali ta'lim ekanligi bilan hamda uning hayotning turli jabhalari xususiyatlariga ko'ra izohlanadi. Turli omillar bo'lmish ekologik, ijtimoiy va boshqalarning salomatlikka ta'siri bo'yicha ilmiy adabiyotlarda juda ko'p ma'lumotlar to'plangan. Biroq, eng keng tarqalgani ekspertlari tomonidan taklif qilingan yondashuv bo'lib, ular turli omillarning (guruhlariga birlashtirilgan) inson salomatligiga qo'shgan hissasining quyidagi taxminiy nisbatini aniqladik: genetik, ekologik, tibbiy, sharoit va turmush tarzi shular jumlasidandir. Ko'pgina tadqiqot mualliflari biz tomonimizdan berilgan nuqtai nazarga qo'shiladilar. Shunday qilib, inson salomatligidagi og'ishlarning sabablari juda ko'p bo'lishi mumkin, ammo yetakchisi nosog'lom turmush tarzidir

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Атанасян С.Л. Формирование информационной образовательной среды педагогического вуза: автореф. дисс. д-ра пед. наук. – М., 2009. – 49 с.
2. Ахметов Л.Г. Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии; дисс.. д-ра пед.наук. – Казань, 2009. – 52 с.
3. Бородина В А. Психологические основы интерактивных технологий обучения и учения // .
4. Бершадский Б.Е., Гузеев В.В. Дидактические и психологические основания образовательной технологии. [Текст] / Бершадский Б.Е., Гузеев В.В. /- М. 2003. -С.144-146.

TURLI YOSHDAGI O'QUVCHILAR BILAN CHET TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING USTUVORLIGI

Abduvoxidova Durdona Ixtiyorjon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan
davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda turli yoshdagi o'quvchilarda zamonaviy texnologiyalarning ustuvorligini kompleks tahlil etiladi. Tadqiqot zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning yoshga xos xususiyatlar bilan o'zaro bog'liqligi hamda pedagogik samaradorligini o'rganadi. Bobda texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishning nazariy asoslari, amaliy yondashuvlar va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari muhokama qilinadi. Asosiy

e'tibor texnologiyalarning o'quv motivatsiyasini oshirish, bilimlarni chuqurlashtirish va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi salohiyatiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Zamonaviy texnologiyalar, ta'lim, yosh xususiyatlari, pedagogika, raqamli savodxonlik, o'quv motivatsiyasi, integratsiya*

Abstract: This work comprehensively analyzes the prevalence of modern technologies among students of different ages. The study investigates the role of modern technologies in the educational process, their interrelationship with age-specific characteristics, and their pedagogical effectiveness. The chapter discusses theoretical foundations, practical approaches, and future research directions for integrating technologies into education. Primary focus is given to the potential of technologies in enhancing learning motivation, deepening knowledge, and developing skills.

Keywords: *Modern technologies, education, age characteristics, pedagogy, digital literacy, learning motivation, integration*

Аннотация: Данная глава комплексно анализирует приоритетность современных технологий среди учащихся различных возрастных групп. Исследование изучает роль современных технологий в образовательном процессе, их взаимосвязь с возрастными особенностями и педагогическую эффективность. В главе обсуждаются теоретические основы, практические подходы и направления будущих исследований по интеграции технологий в образование. Основное внимание уделяется потенциалу технологий в повышении учебной мотивации, углублении знаний и развитии навыков.

Ключевые слова: *современные технологии, образование, возрастные особенности, педагогика, цифровая грамотность, учебная мотивация, интеграция*

Kirish: XXI asr ta'lim tizimida misli ko'rilmagan o'zgarishlar davrini boshlab berdi, bu o'zgarishlarning markazida zamonaviy texnologiyalar turibdi. Internet, mobil qurilmalar, sun'iy intellekt va virtual reallik kabi vositalar o'quv jarayonini tubdan o'zgartirib, an'anaviy o'qitish usullariga yangi imkoniyatlar qo'shmoqda [1]. Biroq, bu texnologiyalarning ta'limdagi ustuvorligi va samaradorligi turli yoshdagi o'quvchilar kontekstida bir xil emas. Yoshga xos kognitiv rivojlanish, psixologik ehtiyojlar va o'rganish uslublari texnologiyalarni qabul qilish va ulardan foydalanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, zamonaviy texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishda yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi: Zamonaviy texnologiyalarning ta'limdagi o'rni bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular asosan texnologik determinizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalariga asoslanadi. Texnologik determinizm texnologiyalarni ta'limdagi o'zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rsa, ijtimoiy konstruktivizm texnologiyalarning ta'sirini ijtimoiy va pedagogik kontekst bilan bog'liq holda tushuntiradi [3]. Ushbu bobda ikkala yondashuv ham hisobga olinadi, chunki texnologiyalar o'z-o'zidan samarali emas, balki ularning qo'llanilish usuli va konteksti muhimdir. 2.1. Ta'limda zamonaviy texnologiyalar kontseptual asoslari. Zamonaviy ta'limda texnologiyalar nafaqat ma'lumot uzatish vositasi, balki faol o'rganish muhitini yaratish, hamkorlikni rivojlantirish va

shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi [4]. Konnektivizm nazariyasi raqamli asrda bilimlarni o'zlashtirish tarmoqlar orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi, bu esa texnologiyalarning markaziy rolini ko'rsatadi [5]. Mobil o'rganish (m-learning), elektron o'rganish (e-learning), geymifikatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) kabi texnologiyalar o'quvchilarga interaktiv va immersiv tajribalar taqdim etadi. 2.2. Yoshga xos jalb qilish va ta'lim texnologiyalarini ustuvorlashtirish. Turli yoshdagi o'quvchilarning texnologiyalarga bo'lgan munosabati va ularni qabul qilish darajasi sezilarli farq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar (3-6 yosh): Bu yoshdagi bolalar uchun interaktiv o'yinlar, animatsion dasturlar va sensorli ekranli qurilmalar ustuvor hisoblanadi.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda zamonaviy texnologiyalarning turli yoshdagi o'quvchilarda ustuvorligini o'rganish uchun aralash usullar yondashuvi (mixed methods approach) qo'llaniladi. Bu yondashuv miqdoriy va sifat tadqiqot usullarini birlashtirib, muammoni har tomonlama tushunish imkonini beradi [10]. 3.1. Tadqiqot yondashuvi. Tadqiqotning asosiy yondashuvi – deskriptiv va korrelyatsion tahlilga asoslangan bo'lib, u texnologiyalardan foydalanish chastotasi, afzalliklar va o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, fenomenologik yondashuv orqali o'quvchilarning texnologiyalardan foydalanish tajribalari va ularning subyektiv idroki o'rganiladi. 3.2. Ma'lumotlar to'plash. Ma'lumotlar to'plash uchun quyidagi usullar taklif etiladi: So'rovnomalar: Turli yoshdagi o'quvchilar (boshlang'ich, o'rta, yuqori sinf va talabalar) orasida texnologiyalardan foydalanish odatlari, afzal ko'rilgan texnologiyalar turlari, ularning ta'limga ta'siri haqida miqdoriy ma'lumotlar to'plash uchun standartlashtirilgan so'rovnomalar o'tkaziladi. So'rovnomalar yoshga mos tilda va formatda ishlab chiqiladi.

Natijalar va tahlil: Tadqiqot natijalari zamonaviy texnologiyalarning turli yoshdagi o'quvchilar orasida ustuvorligini tasdiqladi va yoshga xos farqlarni aniqlashga ko'rsatdi. 4.1. Yoshga xos texnologik afzalliklar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari: So'rovnomalar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida interaktiv ta'limiy o'yinlar (75%), animatsion videolar (68%) va sensorli ekranli ilovalar (60%) eng ustuvor hisoblanadi. Fokus guruhlarida bolalar bu texnologiyalarni "qiziqarli" va "tushunarli" deb ta'riflashdi, bu esa ularning vizual va kinestetik o'rganish uslublariga mos kelishini ko'rsatadi [12]. O'rta maktab o'quvchilari: Bu guruhda ijtimoiy tarmoqlar (80%), onlayn hamkorlik platformalari (65%) va qisqa video kontentlar (TikTok, YouTube Shorts) (70%) yuqori ustuvorlikka ega. Ular texnologiyalarni nafaqat o'rganish, balki muloqot qilish, loyihalar ustida ishlash va ma'lumot almashish uchun ham faol ishlatishadi. Bu yoshdagi o'quvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va tengdoshlar bilan aloqa qilish istagi texnologiya tanloviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [13]. Yuqori sinf o'quvchilari va talabalar: Bu guruhda onlayn kurslar (Coursera, Khan Academy) (70%), ilmiy ma'lumotlar bazalari (60%), professional dasturlar (masalan, CAD, dasturlash muhitlari) (55%) va virtual laboratoriyalar (45%) ustuvor hisoblanadi. Ular texnologiyalarni chuqur akademik tadqiqotlar, kasbiy rivojlanish va murakkab muammolarni hal qilish uchun vosita sifatida ko'rishadi.

Muhokama: Tadqiqot natijalari zamonaviy texnologiyalarning turli yoshdagi o'quvchilarda ustuvorligini tasdiqladi va ularni ta'limga integratsiya qilishda yoshga xos yondashuvlarning muhimligini ko'rsatdi. Bu topilmalar Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi bilan hamohang bo'lib, texnologiyalar o'quvchilarning rivojlanish darajasiga mos kelishi va ularning ijtimoiy o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlashi kerakligini ta'kidlaydi [16]. 5.1. Pedagogik implikatsiyalar va eng yaxshi amaliyotlar. O'qituvchilar har bir yosh guruhining ehtiyojlari va afzalliklariga mos keladigan texnologik vositalarni tanlashi va ularni o'quv dasturiga integratsiya qilishi lozim. Masalan, boshlang'ich sinflarda geymifikatsiya va interaktiv ilovalarga, yuqori sinflarda esa tadqiqot va hamkorlik platformalariga e'tibor qaratish kerak. O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha doimiy ravishda o'qitilishi va ularga yangi vositalarni o'zlashtirish uchun resurslar taqdim etilishi zarur. Bu nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki pedagogik-didaktik yondashuvlarni ham o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa: Ushbu bob zamonaviy texnologiyalarning turli yoshdagi o'quvchilarda ustuvorligini kompleks tahlil qildi. Asosiy natijalar shuni ko'rsatdiki, texnologik afzalliklar yoshga qarab sezilarli darajada farq qiladi, boshlang'ich sinf o'quvchilari interaktiv o'yinlarni, o'rta maktab o'quvchilari ijtimoiy va hamkorlik platformalarini, yuqori sinf o'quvchilari va talabalar esa chuqur akademik va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan vositalarni afzal ko'radi. Texnologiyalarning to'g'ri integratsiyasi o'quv motivatsiyasini va natijalarini oshirishga yordam beradi, biroq raqamli tafovut va etik masalalar jiddiy e'tiborni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamol Jalolov . Chet tili oqitish metodikasi. Toshkent , 2012.
2. Bennett, S., Maton, K., & Kervin, L. "Raqamli avlod' munozarasi: Dalillarga tanqidiy sharh." Britaniya Ta'lim Texnologiyasi Jurnal, vol. 39, no. 5, 2008, pp. 775-786.
3. Sawyer, R. K. (Ed.). Kembrij Ta'lim Fanlari Qo'llanmasi. New York: Cambridge University Press, 2014.

O'ZBEK TILI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARNING MUHIM AHAMIYATI HAQIDA

Ergasheva Yulduzxon Sobitovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

MMT bo'limiga qarashli 23-sonli umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayoni uchun eng muhim metodlardan biri sifatida namoyon bo'luvchi metodning tanqidiy fikrlash jarayonidagi ahamiyati hamda uni rivojlantirish borasidagi ilmiy qarashlari atroflicha talqin qilingan. Asosan, ona tili va adabiyoti fanlarini o'qitish jarayonidagi uslublar va metodlardan unumli foydalangan holda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish bo'yicha bir qancha fikrlar hamda takliflar bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: *tanqidiy fikrlash, til birliklari, interaktiv suhbat, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar.*

"Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib, kamolga yetishi bilan bog'liqdir. Odamlar, eng avvalo, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir."

Shavkat Mirziyoyev

Metod aslida yunoncha, "metodos" soʻzidan olingan boʻlib, „bilish va tadqiqot yoʻli“, „nazariya“, „taʼlimot“ kabi maʼnolarni bildiradi. Metodika (yurt, „methodike“) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yigʻindisi yoki oʻqitish usullari haqidagi taʼlimot — taʼlim berish metodlari, yoʻllari va vositalari haqidagi fandir.

Ona tili va adabiyot fanlarini oʻqitish metodikasi fanning predmeti oʻquvchilarga ona tili va adabiyot fanini oʻrgatish yoʻllari va vositalari, ona tilini egallash, yaʼni nutqni, oʻqish va yozishni, grammatika va imloni oʻzlashtirib olish toʻgʻrisidagi ilmdir. Metodika maktab oldiga qoʻyilgan taʼlim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini oʻrgatishning vazifalarini va mazm unini belgilaydi, taʼlim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va taʼlim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Metodika fani quyidagi masalalarni oʻrganadi:

1. Oʻqitishning vazifalari va mazm unini aniqlaydi. Nimani oʻqitish kerak? savoliga javob beradi, yaʼni boshlangʻich sinflar ona tili kursining dasturlarini, taʼlim mazmunini belgilab beradi, oʻquvchilar uchun darsliklar va qoʻllanmalar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.
2. Oʻqitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, oʻquvchilar amaliy ishlari - mashqlar va yozma ishlarning izchil tizimini ishlab chiqadi, yaʼni „Qanday oʻqitish kerak?“ savoliga javob tayyorlab beradi.
3. Oʻquvchilarga ona tilidan bilim berish va koʻnikma hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni hal qiladi, yaʼni „Nega xuddi mana shunday oʻqitish kerak?“ savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, metodlarni oʻrganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, taʼlimning jahon taʼlim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar oʻz navbatida oʻquv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy oʻzgarishlar olib kirmoqdaki, ularning koʻpchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bogʻliq. Har bir darsni oʻziga xos usul asosida oʻtish, oʻquvchining fanga boʻlgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uygʻotish oʻqituvchining mahoratiga bogʻliq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni oʻz darslarida qoʻllasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun oʻqituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta taʼlim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan taʼminlash, mustaqil fikrlashga oʻrgatish, bilim va hayotiy

ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Interaktiv metodlar – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interaktiv metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini borttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interaktiv metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi.

Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqqidmot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?",

“Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiradilar;
- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;
- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Taqqidmot” usuli. Ushbu usulda ma'lum bir mavzu yoki bo'limlar yakunida o'tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanib, materiallar to'playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib taqqidmot qiladi. Masalan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqqidmot darsi o'tkazilganda o'quvchilarni avvaldan guruhlariga bo'lib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqqidmot qilish topshiriladi:

- 1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.
- 2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring.
- 3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini “Kungaboqar” usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo'nalishlar bo'yicha darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumot to'playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

"Taqdimot" darslari orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;
- axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yarata olishadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday yaratuvchanlik zahirida o'ziga xos kamolot va intellektual salohiyatning mahsuli yotadi. Yani o'quvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni amaliy tarzda qo'llay olish imkoniyatining o'ziga xosligi nafaqat tilshunolar, balki jamiki pedagog jamoasi tomonidan amaliyotga tadbiq etilayotgan zamonaviy metodlar hamda strategiyalarning keng ravishda qo'llanilishidan iboratdir. Zero, aql va tafakkur hamisha bir tan-u, bir jon bolib xizmat qilishini unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev "Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 72 - sessiyasidagi nutqini o'rganish boyicha "ilmiy -ommabop risola. Toshkent -2017, "Ma'naviyat " nashriyoti, 130 -bet.

2. A. Xoliqov " Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent - 2017 312 -bet.

3. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , "Sharq", 2013.

4. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , "Iqtisodiyot", 2012.

INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FRENCH AS A FOREIGN LANGUAGE

Gafurova Sevara Orifjanovna

*UzSWLU Teacher of the Department of
Practical Science of the French Language*

Hamroqulova Hosila Sharofiddin qizi

*UzSWLU First Faculty of English Language
and Literature 3rd-year student*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuz tilini chet tili sifatida o'qitishda zamonaviy metodlarning samaradorligi, ayniqsa speaking gapirish ko'nikmasini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Hozirgi zamon til o'qitish tizimida an'anaviy metodlar o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini to'liq qondira olmayotgani sababli, innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Maqolada kommunikativ yondashuv, shadowing metodi, interaktiv usullar hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi zamonaviy metodlar ko'rib

chiqiladi. Shuningdek, kommunikativ metodning maktab sharoitida qo'llanilishi va uning o'quvchilarning faolligi hamda og'zaki nutq ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion va o'quvchiga yo'naltirilgan metodlar talaffuz, ravonlik va umumiy kommunikativ kompetensiyani sezilarli darajada rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy metodlarni fransuz tilini o'qitishda qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: *Fransuz tili, zamonaviy metodlar, kommunikativ yondashuv, shadowing metodi, gapirish ko'nikmasi, interaktiv ta'lim, raqamli texnologiyalar, til o'zlashtirish*

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность инновационных методов обучения французскому языку как иностранному, с особым акцентом на развитие навыков устной речи. В условиях современной системы языкового образования традиционные методы обучения уже не в полной мере удовлетворяют коммуникативные потребности учащихся, что обуславливает необходимость внедрения современных подходов.

В статье анализируются такие методы, как коммуникативный подход (CLT), метод shadowing, интерактивные формы обучения, а также использование цифровых технологий. Кроме того, рассматривается практическое применение коммуникативного подхода в школьной среде и его влияние на активность учащихся и развитие их речевых навыков.

Результаты исследования показывают, что инновационные и ориентированные на учащегося методы способствуют значительному улучшению произношения, беглости речи и общей коммуникативной компетенции. В заключение подчеркивается, что внедрение современных методов в процесс обучения французскому языку повышает эффективность обучения и мотивацию учащихся.

Ключевые слова: французский язык, инновационные методы, коммуникативный подход, метод shadowing, навыки устной речи, интерактивное обучение, цифровые технологии, усвоение языка.

Abstract: This article explores the effectiveness of innovative methods in teaching French as a foreign language, with a particular focus on developing speaking skills. In the context of modern language education, traditional teaching approaches are no longer sufficient to meet learners' communicative needs. Therefore, methods such as Communicative Language Teaching (CLT), shadowing, interactive activities, and the use of digital tools are analyzed in this study.

The article also examines the practical implementation of the communicative approach in a school setting, highlighting its impact on students' engagement and speaking performance. The findings indicate that innovative and learner-centered methods significantly improve pronunciation, fluency, and overall communicative competence.

The study concludes that integrating modern teaching techniques into French language instruction enhances both the effectiveness of teaching and students' motivation, making the learning process more dynamic and meaningful.

Keywords: *French language, interactive methods, communicative language teaching, shadowing, speaking skills, interactive learning, digital tools, language acquisition.*

In today's globalized world, the ability to communicate in foreign languages has become a key competence for academic, professional, and social success. Among the widely spoken international languages, French occupies a significant position as it is used in diplomacy, international organizations, education, and intercultural communication. As a result, the demand for effective French language teaching has increased worldwide.

However, traditional methods of teaching foreign languages, particularly the Grammar-Translation Method, have proven insufficient in developing learners' communicative competence. These approaches often emphasize memorization of grammar rules and translation exercises, while neglecting essential skills such as speaking and listening. Consequently, students may have strong theoretical knowledge but struggle to communicate effectively in real-life situations.

In response to these challenges, modern language education has shifted towards innovative and learner-centered approaches. These methods focus on active participation, interaction, and meaningful communication. Therefore, this article aims to analyze innovative methods in teaching French as a foreign language and evaluate their effectiveness in developing students' speaking skills.

Theoretical background. The evolution of foreign language teaching methodology reflects the changing goals of education. While earlier approaches prioritized accuracy and linguistic knowledge, modern methodologies emphasize communication, fluency, and practical language use.

One of the most influential approaches in contemporary language teaching is Communicative Language Teaching (CLT). This approach is based on the idea that language is primarily a tool for communication. It encourages learners to use the target language in authentic contexts and to focus on meaning rather than form. Through interaction, learners develop not only linguistic competence but also sociolinguistic and strategic competence.

Another important approach is Task-Based Learning (TBL), which involves completing meaningful tasks using the target language. These tasks simulate real-life situations, such as making reservations, asking for information, or participating in discussions. TBL promotes active learning and helps learners develop problem-solving and communication skills.

In addition, modern language teaching is influenced by constructivist theories, which emphasize the role of learners in constructing their own knowledge through experience and interaction. This theoretical foundation supports the use of interactive and innovative teaching methods.

Innovative Methods In Teaching French

1. Communicative Language Teaching (CLT)

Communicative Language Teaching is one of the most effective and widely applied methods in teaching French as a foreign language. Its primary goal is to develop learners' communicative competence, which includes the ability to use language appropriately in different contexts.

In the context of French language teaching, CLT encourages students to engage in conversations, role-plays, and group discussions. For example, learners may practice dialogues related to everyday situations such as shopping, traveling, or ordering food. These activities help students use the language in meaningful ways and increase their confidence in speaking.

Moreover, CLT shifts the role of the teacher from a knowledge provider to a facilitator of communication. Students become active participants in the learning process, which leads to higher motivation and better learning outcomes.

2. Shadowing Method

The shadowing method is an innovative and highly effective technique for improving pronunciation, listening comprehension, and speaking fluency. It involves listening to spoken language and immediately repeating it with minimal delay.

This method is particularly beneficial for learning French due to its complex phonetic system, including nasal vowels, silent letters, and specific intonation patterns. By imitating native speakers, learners develop more accurate pronunciation and natural speech rhythm.

Furthermore, shadowing enhances learners' ability to process language in real time, which is essential for effective communication. Regular practice of shadowing can significantly improve both fluency and confidence in speaking.

3. Interactive Methods

Interactive methods play a crucial role in modern language teaching by promoting active engagement and collaboration among learners. These methods include role-plays, debates, simulations, and group discussions.

In French language classrooms, interactive activities allow students to practice communication in realistic contexts. For instance, students may simulate situations such as visiting a restaurant, attending a job interview, or participating in a cultural exchange.

Such activities not only improve speaking skills but also develop critical thinking, creativity, and teamwork. In addition, interactive methods create a supportive learning environment where students feel comfortable expressing themselves.

4. Use of Digital Tools

The integration of digital technologies has revolutionized language education. Digital tools such as mobile applications, online platforms, and multimedia resources provide learners with access to authentic language input and interactive learning opportunities.

In teaching French, digital tools can be used to enhance all language skills. For example, video content helps improve listening comprehension, while interactive exercises support vocabulary acquisition.

Moreover, technology enables personalized learning, allowing students to learn at their own pace and according to their individual needs. It also increases motivation, as digital tools are often engaging and accessible.

Discussion. The analysis of innovative methods demonstrates that they significantly enhance the effectiveness of teaching French as a foreign language.

Unlike traditional approaches, these methods focus on communication, interaction, and practical application of language.

Among the methods discussed, Communicative Language Teaching and interactive techniques are particularly effective in developing speaking skills. They provide learners with opportunities to practice language in meaningful contexts and improve their confidence.

The shadowing method, on the other hand, plays a key role in improving pronunciation and fluency, which are essential components of communicative competence. Meanwhile, digital tools support independent learning and provide continuous exposure to the language.

The communicative approach was also implemented in a school context, where students participated in role-plays, pair work, and group discussions. The results showed increased student engagement, improved participation, and better speaking performance. These findings confirm that innovative methods are more effective in real classroom environments.

Overall, the integration of these methods creates a dynamic, learner-centered, and effective learning environment that meets the needs of modern language learners.

Conclusion. In conclusion, the integration of innovative methods in teaching French as a foreign language plays a crucial role in improving the overall quality of language education. Unlike traditional approaches that mainly focus on grammar and translation, modern methods emphasize communication, interaction, and practical language use, which are essential for real-life situations.

The findings of this study demonstrate that Communicative Language Teaching (CLT) is highly effective in developing learners' ability to express themselves confidently and appropriately in various contexts. Through meaningful communication and interaction, students become active participants in the learning process, which significantly increases their motivation and engagement.

In addition, the shadowing method proves to be particularly beneficial for improving pronunciation, listening comprehension, and fluency. Given the phonetic complexity of the French language, consistent practice through shadowing helps learners internalize correct pronunciation patterns and develop a more natural speaking style.

Interactive methods such as role-plays, group discussions, and simulations further contribute to the development of communicative competence. These activities create a supportive and dynamic classroom environment where students can practice language in realistic contexts. As a result, learners not only improve their speaking skills but also develop critical thinking, collaboration, and problem-solving abilities.

Moreover, the use of digital tools enhances the learning process by providing access to authentic materials and enabling flexible, personalized learning. Technology allows students to practice language skills beyond the classroom, increasing exposure to the target language and fostering learner autonomy.

The practical implementation of communicative methods in a school setting also confirms their effectiveness. Students who participated in interactive and communicative activities demonstrated higher levels of engagement, improved

fluency, and greater confidence in speaking. This highlights the importance of applying innovative methods in real educational contexts.

Overall, it can be concluded that the combination of innovative, learner-centered approaches significantly enhances the development of speaking skills in French. Therefore, educators are strongly encouraged to integrate these methods into their teaching practices. By doing so, they can create a more effective, engaging, and meaningful learning environment that meets the demands of modern education and prepares students for real-life communication in a globalized world.

References:

1. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press. P. 153–179.
2. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Longman. P. 84–96.
3. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching*. Macmillan Education. P. 62–78.
4. Nation, I.S.P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press. P. 45–60.
5. Brown, H.D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education. P. 241–260.
6. Lightbown, P.M., & Spada, N. (2013). *How Languages are Learned*. Oxford University Press. P. 104–120.
7. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press. P. 121–140.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA CHET TILINI O'QITISHDA O'YIN METODLARINING AHAMIYATI

Kenjaboyeva Gulsanam Akmaljon qizi

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillari instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu tezis boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishda o'yin metodlarining nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qiladi. Unda o'yinlarning bolalar psixologiyasi va kognitiv rivojlanishiga ta'siri, ikkinchi tilni egallash jarayonidagi roli hamda motivatsiya, kommunikativ ko'nikmalar va affektiv to'siqlarni kamaytirishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Bobda o'yinlarning turli shakllari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish usullari muhokama qilinadi va O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida amaliy tavsiyalar beriladi. Tadqiqot nazariy-analitik yondashuvga asoslangan bo'lib, mavjud adabiyotlar sintezi orqali o'yin metodlarining pedagogik qimmatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, chet tili, o'yin metodlari, til o'qitish, bolalar psixologiyasi, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya*

Abstract : This theses analyzes the theoretical and practical significance of game methods in teaching foreign languages to primary school students. It examines the impact of games on child psychology and cognitive development, their role in second language acquisition, and their effectiveness in enhancing motivation, communicative skills, and reducing affective barriers. The chapter discusses various

forms of games, methods for integrating them into lessons, and provides practical recommendations within the context of the Uzbekistan education system. The research employs a theoretical-analytical approach, substantiating the pedagogical value of game methods through a synthesis of existing literature.

Keywords: *primary school, foreign language, game methods, language teaching, child psychology, motivation, communicative competence*

Аннотация: В данной главе анализируется теоретическое и практическое значение игровых методов в обучении иностранному языку учащихся начальных классов. Рассматривается влияние игр на детскую психологию и когнитивное развитие, их роль в процессе овладения вторым языком, а также эффективность в повышении мотивации, развитии коммуникативных навыков и снижении аффективных барьеров. В главе обсуждаются различные формы игр, методы их интеграции в учебный процесс и даются практические рекомендации в контексте системы образования Узбекистана. Исследование основано на теоретико-аналитическом подходе, обосновывающем педагогическую ценность игровых методов через синтез существующей литературы.

Ключевые слова: *начальная школа, иностранный язык, игровые методы, обучение языку, детская психология, мотивация, коммуникативная компетенция.*

Kirish: Globalizatsiya sharoitida chet tillarini bilish shaxsning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatning intellektual salohiyati uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatish ularning kelajakdagi til o'zlashtirish jarayonlariga mustahkam poydevor yaratadi. Biroq, bu yoshdagi o'quvchilarning kognitiv va psixologik xususiyatlari, diqqatni jamlash qobiliyatining cheklanganligi an'anaviy o'qitish metodlarini samarasiz qilib qo'yishi mumkin. Shu bois, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli, interaktiv va samarali qilish zarurati yuzaga keladi. Ushbu muammoni hal etishda o'yin metodlari muhim pedagogik vosita sifatida ajralib turadi.

Adabiyotlar sharhi: O'yinning bolalar rivojlanishidagi o'rni pedagogika va psixologiyada uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinadi. Lev Vygotskiy o'zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida o'yinni bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni yaratuvchi markaziy faoliyat turi sifatida ta'riflagan. Uning fikricha, o'yin orqali bola real hayotda bajara olmaydigan rollarni sinab ko'radi, ijtimoiy qoidalarni o'rganadi va o'zining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Chet tilini o'rganishda bu nazariya bolalarning o'yin muhitida yangi til strukturalarini sinab ko'rishi va o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratishini anglatadi. Jan Piaget esa kognitiv rivojlanish nazariyasida o'yinni bolaning dunyoni tushunish va unga moslashish jarayonining ajralmas qismi deb hisoblagan. Uning "assimilyatsiya" (yangi ma'lumotni mavjud sxemalarga moslashtirish) va "akkomodatsiya" (mavjud sxemalarni yangi ma'lumotga moslashtirish) tushunchalari til o'rganishda, xususan, o'yin orqali yangi lug'at va grammatik qoidalarni o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ikkinchi tilni egallash nazariyalarida ham o'yin metodlarining ahamiyati keng e'tirof etilgan.

Metodologiya: Ushbu bobda olib borilgan tadqiqot nazariy-analitik yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishda o'yin metodlarining ahamiyatini chuqur tahlil qilish va nazariy jihatdan asoslashdir. Tadqiqot yondashuvi: Tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuvga mansub bo'lib, mavjud pedagogik, psixologik va lingvistik adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish, sintez qilish va tizimlashtirishga qaratilgan. Empirik ma'lumotlar to'plash o'rniga, mavjud nazariyalar va ilg'or pedagogik tajribalar (umumlashtirilgan holda) asosida argumentlar shakllantiriladi. Ma'lumotlar manbalari: Ushbu bobda birlamchi ma'lumotlar (masalan, so'rovnomalar, intervyular, eksperimentlar) to'planmagan. Tadqiqot quyidagi manbalarga asoslanadi: Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar (Vygotskiy, Piaget). Ikkinchi tilni egallash nazariyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar (Krashen, CLT). Pedagogik metodika va didaktika bo'yicha ilmiy ishlar.

Natijalar va tahlil: O'yin metodlarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishdagi ahamiyati ko'plab pedagogik va psixologik afzalliklar bilan izohlanadi. O'tkazilgan nazariy tahlil quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi: O'yinlar bolalarning tabiiy qiziqishini uyg'otadi va ularni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi. Zerikarli mashg'ulotlar o'rniga, o'yinlar orqali til o'rganish bolalar uchun ko'ngilochar va yoqimli tajribaga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, tilni o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi. Bolalar o'yin orqali o'zlarini erkin his qiladilar va yangi materialni o'zlashtirishga intiladilar.

Krashenning "Affektiv filtr" nazariyasiga ko'ra, xavotir, qo'rquv va stress til o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. O'yinlar esa xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratib, bolalardagi xato qilishdan qo'rqish hissini kamaytiradi. Ular o'yin jarayonida xatosiz muloqot qilishga intilish o'rniga, tilni erkin sinab ko'rishga va amaliyotda qo'llashga moyil bo'ladilar. Bu esa tilni ongsiz ravishda egallash uchun qulay sharoit yaratadi. O'yinlar bolalarni tabiiy muloqotga undaydi. Rolli o'yinlar, dialoglar, hikoya to'qish kabi o'yin turlari o'quvchilarga tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa ularning og'zaki nutq, tinglab tushunish va hatto yozma nutq ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi.

Muhokama: O'yin metodlarining boshlang'ich sinf chet tili ta'limidagi ahamiyati nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo'lsa-da, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish bir qator muhim jihatlarni hisobga olishni talab qiladi. O'yinning maqsadga muvofiqligi: Har bir o'yin aniq bir o'quv maqsadiga xizmat qilishi kerak. O'yin shunchaki vaqt o'tkazish vositasi bo'lmasdan, lug'atni o'zlashtirish, grammatikani mustahkamlash yoki kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish kabi aniq didaktik vazifalarni bajarishi lozim.

Yoshga va til darajasiga moslik: O'yinlar o'quvchilarning yoshiga, kognitiv rivojlanish darajasiga va til bilish darajasiga mos bo'lishi shart. Juda murakkab yoki juda sodda o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini yo'qotishi mumkin.

O'qituvchining roli: O'qituvchi o'yin jarayonida shunchaki kuzatuvchi emas, balki fasilitator, yo'naltiruvchi va motivator bo'lishi kerak. U o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi, o'quvchilarni faollikka undashi va zarur bo'lganda yordam berishi

lozim. O'yin tugagach, o'qituvchi o'yin natijalarini umumlashtirib, o'rganilgan til materialini mustahkamlashi muhim.

O'yin va jiddiy o'rganish o'rtasidagi muvozanat: O'yinlar butun darsni egallamasligi kerak. Ular an'anaviy o'qitish metodlari bilan uyg'unlashgan holda, o'quv jarayonining bir qismi sifatida qo'llanilishi lozim. O'yinlar orqali o'rganilgan bilimlarni keyinchalik boshqa mashqlar orqali mustahkamlash zarur.

Xulosa: Ushbu bob boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishda o'yin metodlarining beqiyos ahamiyatini nazariy jihatdan asosladi va tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga to'liq mos keladigan, ularning kognitiv, affektiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan samarali pedagogik vositadir.

O'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya va qiziqishni sezilarli darajada oshiradi.

Ular affektiv filtrni pasaytirib, bolalarning xato qilishdan qo'rqmasdan tilni erkin sinab ko'rishiga imkon beradi. O'yinlar orqali kommunikativ ko'nikmalar (nutq, tinglash) tabiiy va mazmunli muhitda rivojlanadi. O'yinlar bolalarning kognitiv qobiliyatlarini (xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash) mustahkamlaydi. Ular ijtimoiy-emotsional rivojlanishga (hamkorlik, empatiya) yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamol Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
2. Pinter, A. (2017). Yosh til o'rganuvchilarini o'qitish (2-nashr). Oxford: Oxford University Press.
3. Rixon, P. (2016). "O'yin va til o'rganish: Adabiyot sharhi." Ingliz tili o'qitish jurnali, jild 70, son 4, betlar 439-448.
4. Moon, J. (2000). "Bolalarning ingliz tilini o'rganishi: O'yinga e'tibor." Ingliz tili o'qitish jurnali, jild. 54, son. 4, bet. 343-350.
5. Lantolf, J. P. (2000). Sotsiomadaniy nazariya va ikkinchi tilni o'rganish. Oxford: Oxford University Press.

A COMPARATIVE STUDY OF AUDIO-LINGUAL AND COMMUNICATIVE APPROACHES IN TEACHING ENGLISH PRONUNCIATION TO UZBEK SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Hamidova Mukambarbonu Odiljon qizi

Turan International University

M.LIN-AU-24

Abstract: This thesis investigates the comparative effectiveness of the Audio-Lingual Method (ALM) and the Communicative Approach (CA) in teaching English pronunciation to secondary school students in Uzbekistan. Pronunciation remains one of the most challenging areas for Uzbek learners of English due to phonological differences between Uzbek and English. The study employs an experimental design with two groups of 7th-grade students: one instructed through audio-lingual drills and the other through communicative pronunciation activities. Data were collected through pre-tests, post-tests, classroom observations, and student reflections.

Findings reveal that while audio-lingual drills contributed to greater accuracy in isolated sound production, the communicative approach facilitated better fluency, stress, and intonation in real-life speech contexts. The study concludes that a hybrid model integrating both methods could be particularly effective for Uzbek learners.

Keywords: *method, EFL, teaching, audiolingual method, communicative approach*

Introduction: The teaching of English pronunciation in Uzbekistan has long been a central issue in language education, as pronunciation directly influences intelligibility, communication, and learners' confidence (Saidova, 2019). Uzbek learners often struggle with problematic English sounds such as /θ/, /ð/, and /w/, which are absent in the Uzbek phonological system (Usmonov, 2021). Teachers in Uzbek schools have traditionally relied on the Audio-Lingual Method, which emphasizes repetition, mimicry, and drilling to instill accurate sound production (Richards & Rodgers, 2014). However, the rise of communicative language teaching (CLT) has shifted attention toward the use of language in real-life contexts, highlighting fluency, interaction, and communicative competence (Littlewood, 2013). Despite these developments, little research has been conducted in Uzbekistan comparing the effectiveness of these two methods in pronunciation instruction. This study seeks to address this gap by comparing audio-lingual and communicative approaches in improving Uzbek secondary school students' pronunciation, focusing on both accuracy and communicative fluency.

Literature Review

The Audio-Lingual Method, rooted in behaviorist psychology, prioritizes habit formation through repetition and drilling (Skinner, 1957). It has been widely applied in pronunciation teaching, particularly for learners who require intensive practice with unfamiliar phonemes. Studies in Russian and CIS contexts (Karpova, 2017; Kurbanov, 2020) have demonstrated that ALM can effectively reduce pronunciation errors in controlled classroom environments.

On the other hand, the Communicative Approach emphasizes meaningful interaction, authentic communication, and the integration of pronunciation into broader communicative activities (Hymes, 1972; Celce-Murcia et al., 2010). Research in Uzbekistan and Russia indicates that CLT fosters greater learner motivation and improves prosodic features such as stress, rhythm, and intonation (Shukurova, 2020; Petrova, 2018). While ALM is more effective in drilling specific problematic sounds, CA encourages learners to apply pronunciation skills in spontaneous speech, thereby enhancing communicative competence.

Comparative studies in CIS countries suggest that neither approach alone is sufficient; rather, a blended model combining the precision of ALM and the communicative focus of CA yields optimal results (Rakhimova, 2019). This study builds upon these findings to explore their applicability in the Uzbek secondary school context.

Methodology

The study was conducted with 60 seventh-grade students from two secondary schools in Tashkent. Participants were divided into two groups of 30 each. The experimental group was taught using communicative pronunciation activities such as

role-plays, dialogues, and pronunciation games, while the control group received instruction through audio-lingual drills including repetition, minimal pairs, and choral practice. The intervention lasted eight weeks, with three lessons per week devoted to pronunciation.

Data collection methods included pre-tests and post-tests measuring both segmental (individual sounds) and suprasegmental (stress, intonation) accuracy, classroom observations to record learner engagement, and student reflections to capture attitudes toward the methods. Statistical analysis was used to compare quantitative test results, while qualitative data from reflections and observations were analyzed thematically.

Results

The pre-test results indicated no significant difference between the two groups in their pronunciation accuracy or fluency. However, post-test results demonstrated notable distinctions. The audio-lingual group showed higher accuracy in producing problematic phonemes such as /θ/, /ð/, and /w/, with error rates reduced by 35% compared to only 20% in the communicative group. Conversely, the communicative group demonstrated greater improvement in fluency, stress, and intonation, with 40% of students showing marked progress in natural speech rhythm compared to 18% in the audio-lingual group.

Observations also revealed that students in the communicative group were more engaged and enthusiastic, often participating actively in pronunciation games and dialogues. Meanwhile, students in the audio-lingual group displayed more discipline during drills but reported lower motivation levels in their reflections.

Discussion

The findings suggest that while the Audio-Lingual Method is more effective in achieving accuracy in isolated sound production, it lacks the communicative dimension necessary for fluent and natural speech. The Communicative Approach, on the other hand, provides opportunities for learners to apply pronunciation skills in real-life contexts, enhancing fluency and prosody. These results are consistent with previous studies in Russia and Uzbekistan, which indicate that learners benefit from exposure to both methods (Petrova, 2018; Shukurova, 2020).

In the Uzbek educational context, where learners often face limited opportunities for authentic English communication, reliance solely on audio-lingual drills may restrict the development of communicative competence. However, the complete dismissal of drilling could undermine accuracy in problematic sounds. Thus, a hybrid pedagogical approach is recommended, combining audio-lingual drills for accuracy with communicative activities for fluency and naturalness.

Conclusion

This study highlights the comparative strengths and limitations of the Audio-Lingual Method and the Communicative Approach in teaching English pronunciation to Uzbek secondary school students. The results indicate that ALM fosters greater accuracy in segmental pronunciation, while CA enhances fluency, stress, and intonation in communicative contexts. For effective pronunciation instruction in Uzbekistan, a blended model that integrates both methods is proposed. Such an

approach aligns with contemporary trends in language pedagogy and addresses the dual challenges of accuracy and communicative competence in EFL classrooms.

References

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., Goodwin, J. M., & Griner, B. (2010). *Teaching pronunciation: A course book and reference guide*. Cambridge University Press.
2. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Penguin.
3. Karpova, T. (2017). The role of audio-lingual drills in Russian EFL classrooms. *Inostrannye Yazyki v Shkole*, 8(2), 45–51.
4. Kurbanov, S. (2020). Effective methods of teaching English phonetics to Uzbek learners. *Til va Ta'lim*, 12(3), 55–62.
5. Littlewood, W. (2013). *Communicative language teaching: An introduction*. Cambridge University Press.
6. Petrova, N. (2018). Communicative pronunciation teaching in Russian schools: Prospects and challenges. *Obrazovanie i Nauka*, 20(5), 118–132.
7. Rakhimova, D. (2019). Blended approaches in pronunciation teaching: Lessons from Uzbekistan. *Uzbek Journal of Pedagogical Studies*, 7(1), 34–42.
8. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
9. Saidova, N. A. (2019). *Metodika obucheniya inostrannym yazykam v nachal'noi shkole*. Tashkent: Fan va Texnologiya.
10. Usmonov, A. (2021). Common phonological difficulties of Uzbek EFL learners. *Philology and Language Teaching*, 9(2), 77–85.
11. Shukurova, M. (2020). The role of communicative tasks in improving students' English pronunciation. *Inostrannye Yazyki v Shkole*, 15(4), 99–105.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI O'QITISH: O'ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA

Hatamova Barchinoy Shokirjonovna

Namangan viloyati Uychi tumani

6-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Email: xatamovabarchinoy@gmail.com

Telefon: +998 94 272 46 88

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishning dolzarb muammolari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kommunikativ yondashuv (CLT) va vazifaga asoslangan o'qitish (TBLT) metodlarining o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari xorijiy davlatlar tajribasi bilan taqqoslanadi. Xususan, CEFR darajalari asosida baholash tizimi hamda PISA xalqaro tadqiqotlari doirasidagi

yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ingliz tilini samarali o'qitish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, ingliz tili o'qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan o'qitish, kompetensiyaviy ta'lim, CEFR, PISA, interaktiv metodlar.*

Annotation: This article explores current issues in teaching English within the system of lifelong education, focusing on modern pedagogical approaches and their effectiveness. Special attention is paid to Communicative Language Teaching (CLT) and Task-Based Language Teaching (TBLT), which enhance students' communicative competence. The paper also analyzes educational reforms in Uzbekistan and compares them with international practices. Furthermore, it highlights the role of global frameworks such as CEFR and PISA in improving language education quality. Practical recommendations for effective English language teaching are provided.

Key words: *lifelong education, English language teaching methodology, communicative approach, task-based learning, competency-based education, CEFR, PISA, interactive methods.*

В данной статье анализируются актуальные проблемы преподавания английского языка в системе непрерывного образования, а также современные педагогические подходы и их практическая эффективность. В ходе исследования раскрывается значение коммуникативного подхода (CLT) и обучения на основе заданий (TBLT) в развитии речевой компетенции учащихся. Также рассматриваются реформы, реализуемые в Узбекистане в сфере преподавания английского языка, и их результаты в сравнении с опытом зарубежных стран. В частности, изучаются системы оценивания на основе уровней CEFR, а также подходы, применяемые в рамках международных исследований PISA.

По результатам исследования разработаны практические рекомендации для эффективного преподавания английского языка.

Ключевые слова: *непрерывное образование, методика преподавания английского языка, коммуникативный подход, обучение на основе заданий (task-based learning), компетентностно-ориентированное образование, CEFR (Общеввропейские компетенции владения иностранным языком), PISA, интерактивные методы.*

KIRISH: Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda chet tillarini, xususan ingliz tilini bilish zamon talabi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ingliz tili xalqaro muloqot vositasi, ilm-fan, texnologiya, biznes va ta'lim sohalarida yetakchi til sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan O'zbekistonda ham, chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, uzluksiz ta'lim konsepsiyasini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Ushbu tizim maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim va undan keyingi kasbiy rivojlanish bosqichlarigacha bo'lgan uzviy jarayonni o'z ichiga oladi. Ayniqsa,

umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishni erta yoshdan boshlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Bugungi kunda chet tillarni o'qitishda an'anaviy grammatik yondashuvdan voz kechib, kommunikativ va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar, xususan kommunikativ til o'qitish (Communicative Language Teaching) va vazifaga asoslangan o'qitish (Task-Based Language Teaching) keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda tilni erkin qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro baholash tizimlari va standartlari, jumladan CEFR hamda PISA kabi dasturlar ta'lim sifatini baholash va rivojlantirishda muhim mezon bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy islohotlarni o'rganish hamda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari bilan taqqoslash orqali samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Asosiy qism: Uzluksiz ta'lim tizimi (lifelong education) zamonaviy ta'lim falsafasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonning butun hayoti davomida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim faqat maktab yoki universitet bosqichi bilan cheklanib qolmaydi, balki shaxsning hayoti davomida davom etadigan doimiy o'qish jarayonini qamrab oladi. Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi birinchi navbatda jamiyatning tez o'zgarib borayotgan iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy ehtiyojlariga javob sifatida shakllangan. Bugungi kunda mehnat bozori tez yangilanayotgan sharoitda eski bilimlar tez eskiradi, shuning uchun insonlar o'z malakasini doimiy yangilab borishga majbur bo'ladi. Shu jihatdan uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi odatda quyidagi bosqichlardan iborat:

- maktabgacha ta'lim
- umumiy o'rta ta'lim
- o'rta maxsus ta'lim
- oliy ta'lim
- kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish
- mustaqil ta'lim (self-learning)

Bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, yagona ta'lim zanjirini tashkil etadi.

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish metodikasi an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy, interaktiv va kompetensiyaga yo'naltirilgan modellarga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning asosiy maqsadi — o'quvchilarning tilni real hayotiy vaziyatlarda erkin qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

1. Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT)

Kommunikativ yondashuv ingliz tilini o'qitishda eng keng tarqalgan zamonaviy metodlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuvda tilni o'rganishning asosiy maqsadi grammatik qoidalarni yodlash emas, balki muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishdir.

CLT metodining asosiy xususiyatlari:

- o'quvchi markaziy subyekt hisoblanadi
- real hayotiy dialoglar asosida o'qitiladi
- juftlik va guruh ishlari keng qo'llaniladi
- kommunikativ vazifalar bajariladi

Bu yondashuv o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

2.Vazifaga asoslangan o'qitish (Task-Based Language Teaching – TBLT)

TBLT yondashuvi o'quvchilarning tilni real vazifalarni bajarish orqali o'zlashtirishiga asoslanadi. Bu metodda o'quvchi grammatikani alohida o'rganmaydi, balki vazifani bajarish jarayonida tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradi.

TBLT bosqichlari:

- vazifa berish (pre-task)
- bajarish jarayoni (task cycle)
- tahlil va muhokama (post-task)

Bu metod tanqidiy fikrlash, muammo yechish va ijodkorlikni rivojlantiradi.

3.Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy modeli hisoblanadi.

Bu yondashuvda asosiy e'tibor bilimga emas, balki uni amaliyotda qo'llash qobiliyatiga qaratiladi.

Ushbu model CEFR tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarning til bilish darajasini aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

4.Interaktiv yondashuv

Interaktiv yondashuvda o'quvchilar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Bu yondashuvda:

- o'yinlar (games)
- rol o'yinlar (role-play)
- loyiha ishlari (project work)
- muhokamalar (discussion)

keng qo'llaniladi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va darsni qiziqarli qiladi.

5.Raqamli va texnologik yondashuv

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda.

Ingliz tilini o'qitishda:

- onlayn platformalar
- mobil ilovalar
- multimedia resurslar
- virtual sinflar

keng qo'llanilmoqda.

Bu yondashuv o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba

Xalqaro ta'lim tizimida rivojlangan davlatlar o'zining innovatsion yondashuvlari va yuqori ta'lim sifati bilan ajralib turadi. Xususan, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi dunyo miqyosida eng samarali ta'lim modellari sifatida tan olingan.

Finlandiya ta'lim tizimi erkin ta'lim tamoyiliga asoslanadi. Bu davlatda o'quvchilarga ortiqcha bosim o'tkazilmaydi, baholash tizimi yumshoq va qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega. O'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oladi, ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu sababli Finlandiya ta'limi dunyoda eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi.

Singapur ta'lim tizimi esa texnologik va strategik yondashuvi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va interaktiv platformalar keng qo'llaniladi. O'quv dasturlari aniq rejalashtirilgan bo'lib, yuqori akademik natijalarga erishishga yo'naltirilgan. O'qitish jarayonida muammoli vaziyatlarni hal qilish va tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi esa raqamli ta'lim va yuqori intizomga asoslangan. Bu mamlakatda elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari va smart sinflar keng joriy etilgan. O'quvchilar bilimini doimiy monitoring qilish tizimi mavjud bo'lib, bu yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Ushbu mamlakatlar ta'lim tizimlarining samaradorligi xalqaro PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari natijalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. PISA ko'rsatkichlariga ko'ra, Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya o'quvchilari o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha eng yuqori natijalarni qayd etgan. Bu esa ularning ta'lim tizimi sifatining yuqoriligini va innovatsion yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirishda erkinlik, texnologiya va raqamli yondashuv uyg'unligi eng muhim omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida zamonaviy metodlarni keng joriy etish bugungi kunning eng muhim talablaridan biridir. Chunki an'anaviy yondashuvlar har doim ham o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va zamonaviy kompetensiyalarini to'liq rivojlantirib bera olmaydi.

Innovatsion va interaktiv metodlar esa o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga integratsiya qilish ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqadi.

Shu sababli, o'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishi va ularni mahalliy ta'lim tizimiga mos holda tatbiq etishi zarur. Faqat shundagina raqobatbardosh, bilimli va zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Harmer, J. (2007). How to Teach English. London: Longman.
2. Richards, J. C. (2006). Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. New York: Longman.
Rasm orqali o'qitish - "Oqimli ranglar" mavzusi asosida "Olxo'ri gullari" she'rini tasvirlash o'quvchilarning nutqiy va estetik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Rasmlil kundalik - O'quvchilar kundalik voqealarni rasm va qisqa matn orqali ifodalaydi. Bu usul yozishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Sxematik tasvirlar - Matnni sxema orqali ifodalash o'quvchilarning tushunishini kuchaytiradi va diqqatini jamlaydi.

Matnni tasvirlash - Masalan, "Sisha orollari" haqidagi matnda baliqlar va dengiz hayvonlari tasvirlanadi. Ushbu tasvirlarni chizish orqali o'quvchilar matnni chuqurroq anglaydi.

Rasm asosida yozish - O'quvchilar avval rasm chizadi, keyin shu asosida matn yozadi. Bu usul ijodiy yozishni rivojlantiradi.

Og'zaki nutqni rivojlantirish - Rasm chizishdan oldin o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki ifodalaydi, bu esa tasvir sifatini oshiradi.

Rasm orqali yodlash - Murakkab matnlar rasmga aylantiriladi, bu esa eslab qolishni osonlashtiradi.

Ilyustratsiya va hikoya - "Kichkina qurbaqa onasini qidiradi" kabi matnlar rasm orqali jonlantiriladi.

O'qituvchi faoliyatining roli

O'qituvchilar: darsni integrativ tarzda rejalashtiradi, jamoaviy ishlaydi, teskari aloqani tahlil qiladi, metodlarni takomillashtiradi

O'quvchilar rivojlanishi

Integratsiya orqali: nutq rivojlanadi, tasavvur kengayadi, ijodiy fikrlash oshadi, estetik did shakllanadi

Madaniyat orqali tarbiya

Rasm va matn uyg'unligi o'quvchilarda: milliy qadriyatlarni, estetik didni, ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

XULOSA: Xitoy tili va tasviriy san'at fanlarini integratsiya qilish boshlang'ich ta'limda samarali metod hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rasm va matn integratsiyasi o'quvchilarning materialni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, rasmlar kundalik, illyustratsiya, sxematik tasvirlar va ijodiy yozish metodlari yuqori samaradorlikka ega. Shu bilan birga, bu metodlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Biroq ushbu yondashuvni qo'llashda o'qituvchilardan yuqori darajadagi tayyorgarlik, kreativlik va metodik bilim talab etiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham ushbu metodlarni joriy etish katta samara berishi mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani kengaytirish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida innovatsion integratsiya metodlarini qo'llash — zamonaviy ta'limning muhim talabi bo'lib, u kelajak avlodni ijodiy, mustaqil va keng fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ministry of Education of the PRC. *义务教育语文课程标准 (2021 年版)*. Beijing: People's Education Press, 2021.
2. Xodjayev B.X. *Umumiy pedagogika nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2019.
3. Polat E.S. *Современные педагогические технологии*. Moskva: Akademiya, 2020.
4. Davletshin M.G., Tojiboeva D. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. *Pedagogika ilmiy jurnali*. Toshkent: O'zbekiston Pedagogika instituti, 2022–2025.
6. Jacobs H.H. *Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation*. Alexandria: ASCD, 2019.
7. Craft A. *Creativity in the Primary Classroom*. London: Routledge, 2020.
8. Mayer R.E. *Multimedia Learning*. Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

9. Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
10. Efland A.D. *Art and Cognition*. New York: Teachers College Press, 2018.
11. Piaget J. *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books, 2019 (reprint).
12. Drake S.M., Reid J. *Integrated Curriculum*. Canada: Portage & Main Press, 2018.
13. OECD. *Innovative Learning Environments*. Paris: OECD Publishing, 2021.
14. Baidu Baike (百度百科).
15. Baidu Wenku.
16. CyberLeninka Scientific Library.
17. Wikipedia – Free Encyclopedia. <https://wikipedia.org>

TURLI YOSHDAGILARGA CHET TILI O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISH (INGLIZ TILI MISOLIDA)

Voxobova Xayotxon Nozimjon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan
Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda turli yoshdagilarga ingliz tili o'qitish jarayonida qo'llaniladigan turli zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda samarali o'qitishning bir necha usullari haqida so'z yuritilgan. Bugungi kundagi ta'lim tizimida interaktiv vositalardan foydalanishning ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *til, ingliz tili, ta'lim texnologiyalari, interaktiv vositalar, dars samaradorligi, multimedia vositalari, interaktiv doska.*

ABSTRACT: This thesis discusses various modern educational technologies and several effective teaching methods used in the process of teaching English to learners of different ages. It highlights the importance of using interactive tools in today's educational system.

Keywords: *Language, English language, educational technologies, interactive tools, lesson effectiveness, multimedia tools, interactive whiteboard.*

АННОТАЦИЯ: В данной тезисе рассматриваются различные современные образовательные технологии и несколько эффективных методов обучения, используемых в процессе преподавания английского языка учащимся разных возрастов. Освещается важность использования интерактивных средств в современной системе образования.

Ключевые слова: *Язык, английский язык, образовательные технологии, интерактивные средства, эффективность урока, мультимедийные средства, интерактивная доска.*

KIRISH. Bugungi kunda o'quvchilarga chet tilini o'qitish mobaynida turli xil interaktiv vositalarda foydalanish ta'lim tizimida dolzarb mavzuga aylanib ulgurdi. Chunki asosiy e'tibor o'quvchi, uning shaxsiyati, qiziqishlari hamda o'ziga xos ichki dunyosiga qaratilgan. So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida yangi axborot

texnologiyalariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Buning sababi o'quvchilar va talabalarni kommunikativ kompensatsiyasini shakllantirish, chet tilini amaliy tarzda o'zlashtirishga erishishdir. Ushbu jarayonda turli yoshdagi o'quvchilarga texnologik vositalar yordamida yondashish alohida e'tibor talab qiladi, ya'ni har bir yosh ishtirokchilariga o'ziga xos va mos bo'lgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Ushbu tadqiqot jarayonida interaktiv vositalar yordamida ingliz tilini o'qitishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Tezisni yozish davomida analiz va sintez, umumlashtirish, xulosa chiqarish, mantiqiylik tomoyillaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quv yurtlarida o'qituvchining vazifasi har bir talaba, o'quvchiga tilni amaliy usullar orqali o'zlashtirish uchun sharoit yaratish va o'quvchining o'z faolligi, kreativligini namoyish etishga imkon berish, hamkorlikda ishlashni rivojlantirish, o'z fikrlarini erkin ravishda bayon eta olishini ta'minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Bu jarayonda, albatta, turli xil texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki "ko'hna zamonlardayoq ota-bobolarimiz farzandlarini hisobga o'rgatish chog'ida rangli toshlar, hayvon suyaklari kabi narsalardan foydalanilgani insoniyat tarixidan ma'lum. qadimgi "hisob o'rgatish" vositalaridan tortib, to o'qitishning texnika vositalari ixtiro qilingunga qadar (XX asrning boshida gramplastinka chiqarilgan) ming yilliklar davomida odam bolasi ta'lim oldi, o'rgandi, tarbiyalandi. XX ars texnika inqilobi zamoni deyiladi. Chet tillarni o'rgatishda ham tovush yozish asboblari (fonograf)dan foydalanish davri boshlandi. O'tgan asr o'quv-tarbiya jarayonini texnikalashtirish bilan tarixiy ahamiyatga molik". Shunday ekan, hozirgi kunda ham an'anaviy ta'lim tizimi bilan birgalikda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish amaliy metodlardan biri bo'libgina qolmay, zamon bilan hamnafas o'qituvchining asosiy belgilaridan bir hamdir. Sir emas, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, nafaqat, darsning samaradorligini oshiradi, balki yurtimizda amalga oshirilayotgan ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali har tomonlama yetuk shaxslarni yetishtirishda yordam beradi.

Har bir o'quvchi o'ziga xos xususiyat va xarakterga ega hisoblanadi va bu xususiyatlar har bir yosh chegarasida o'zgarib boradi. Chet tilini o'qitish metodlari va unda foydalaniladigan har bir vosita o'quvchining yoshiga qarab ham o'zgarib boradi. Masalan, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga (3-6 yosh) deyarli matnlar, ma'ruzalarsiz o'quv jarayonini tashkillashtirish talab etiladi. Bu yoshdagi bolalarning diqqat jamlash darajasi ham oz bo'lganligi sababli zamonaviy metodlardan foydalanish eng to'g'ri yo'llardan biri hisoblanadi. Ular uchun multimedia vositalari, rangli animatsiyalar, qo'shiqlar, qisqa videolar va mobil ilovalardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bolalarning diqqatini uzoqroq muddat jamlash uchun interaktiv doska hamda audio kolonkalardan foydalanish tavsiya etiladi. Misol uchun, elektron doska va TPR(Total Physical Response) metodini birgalikda taqdim etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularga ekranda multfilm formatidagi bolalarni turli xil badantarbiya mashqlarini bajarayotganini yoki oddiy

harakatlar bilan raqsga tushayotganini ko'rsatiladi, bolalar bunga javoban shu harakatlarni takrorlashadi. Ushbu texnika o'rganuvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga (7-11 yosh) keladigan bo'lsak, ularda ta'lim jarayonida ko'proq vizual va eshitish orqali qabul qilish ustunlik qiladi. Shuning uchun ularga o'yin metodidan foydalanib dars jarayonlarini olib borish tavsiya etiladi. "Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi".. Ushbu jarayonda kompyuter yoki elektron doskadan samarali ravishda foydalanish mumkin.

O'rta yoshdagi bolalarga (12-17 yosh) esa ko'proq o'zlarini namoyish qilish, erkin fikr bildirish olish va mustaqil ishlay olish imkonini beruvchi vositalardan keng qo'llaniladi. Bu bosqichda o'quvchilar planshet yoki kompyuterlar orqali psixologik holatlaridan kelib chiqib onlayn testlar yoki video darslardan foydalanishga undaladilar. Bu ularga guruh bo'lib yoki alohida tarzda ishlash va darslarni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Katta yoshdagi, ya'ni oliy ta'lim talabalariga (18+ yosh) esa kompyuter, elektron doska, televizor, proyektor kabi internetga ulanadigan vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, ular bilan birga o'yin metodini qo'llash ham samarali hisoblanadi, lekin bu bosqichda boshlang'ich ta'lim ishtirokchilarida o'tkaziladigandan ancha murakkabroq bo'ladi. Chunki ulardan tanqidiy, analitik va mantiqiy fikrlash talab etiladi.

Har bir yosh toifasidagi o'quvchilar har xil yondashuvni talab qiladi va, shubhasiz, intellektual yondashuvlar xilma-xilligi dars jarayonida interaktivlikni qo'llab quvvatlash, kommunikativ salohiyatni shakllantirish, dars samaradorligini oshirish kabi qator xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Internet resurslaridan foydalangan holda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish va xohishlarini oshirish darsning asosiy maqsadlaridan biridir.

XULOSA VATAKLIFLAR

Darslarda axborot texnologiya vositalaridan foydalanish o'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash faoliyatlarini osonlashtirishga yordam beradi. O'tilgan mavzularni mustahkamlash, savol-javob qilish kabi jarayonlarda qo'llash samarali dars o'tishni ta'minlaydi. Turli yoshdagilarga ingliz tilini o'rgatishda asosiy tirgak vazifasini bajaradi, chunki hozirgi texnika asrida hech bir o'rganuvchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi bilimlardan holi emas. Bu ular bilan yanada yaqinroq ishlash va kognitiv xususiyatlarini rivojlantirishdagi muhim poydevor deyish mumkin. Albatta, mavzuga oid tushunchalarni anglashni yengillashtiribgina qolmay, ularni uzoq muddatli xotiraga joylanishiga ham o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1]. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
- [2]. N.N. Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2006.
- [3]. Internet manbalar.

KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'YINLI METODLAR

Tohirova Zuhra Izzatbekovna

NamDCHTII-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Zarnigor Ismoilova Raximjon qizi

E-mail: tohirovazizbek1022@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda o'yinli metodlardan foydalanishning ahamiyati, ularning o'quv jarayoniga ta'siri va samaradorligi yoritilgan. Maqolada o'yin faoliyati orqali bolalarda nutq, eshitish, fikirlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli xil didaktik o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida dars jarayonini qiziqarli tashkil etish usullari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yinli metodlardan foydalanish kichik yoshdagi o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda tilni oson va tabiiy ravishda o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *bolalar, ingliz tili, o'yinli metodlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, tadqiqotlar, bilim, kichik yoshdagi o'quvchilar, psixologiyasi, tabiiy qiziqishlar, ijodiy faoliyati, yondashuv, ko'nikma.*

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается значение использования игровых методов при обучении английскому языку младших школьников, а также их влияние на учебный процесс и эффективность обучения. В статье анализируются возможности развития у детей речевых, слуховых, мыслительных и творческих способностей посредством игровой деятельности. Кроме того, представлены способы организации интересного и эффективного учебного процесса с использованием различных дидактических игр, интерактивных занятий и современных технологий. Результаты исследования показывают, что применение игровых методов повышает интерес младших школьников к английскому языку, стимулирует их активное участие и способствует более лёгкому и естественному усвоению языка.

Ключевые слова: *дети, английский язык, игровые методы, дошкольные образовательные учреждения, исследования, знания, младшие школьники, психология, естественный интерес, творческая деятельность, подход, навыки.*

ABSTRACT. This article examines the importance of using game-based methods in teaching English to young learners, as well as their impact on the learning process and overall effectiveness. The study analyzes how игровая деятельность (play-based activities) contributes to the development of children's speaking, listening, thinking, and creative abilities. It also highlights various ways of organizing engaging lessons through didactic games, interactive activities, and modern technologies. The results indicate that the use of game-based methods increases young learners' interest in English, encourages their active participation, and helps them acquire the language more easily and naturally.

Keywords: *children, English language, game-based methods, preschool educational institutions, research, knowledge, young learners, psychology, natural interest, creative activity, approach, skills.*

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab ortib bormoqda, ayniqsa ingliz tili xalqaro aloqa, ta'lim va kasbiy rivojlanish sohalarida muhim o'rin tutgani sababli unga bo'lgan qiziqish yanada oshmoqda. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Bu borada bolalarga chet tilini o'rgatishning o'z metod va yondashuv usullari bor.

Bu metodlar ularning qobiliyatlarini namoyon qila olishi va rivojlantirishiga yordam berishi, eng muhimi murakkab va noyob bo'lmagan usullarni izlash va yaratishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda o'yinli metodlardan foydalanish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, o'yin faoliyati bolalarning yoshiga, psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos bo'lgani sababli, bu metod ularning til o'rganish jarayonida eng samarali vositalardan biridir. Chet tilining psixologik, didaktik, amaliy, ta'limiy-tarbiyaviy asoslaridan kelib chiqib bir necha olimlar o'z fikrlarini ifoda etishgan (A. F. Turakulova, K. N. Normatova, O. Abiyirova, U. Xolbo'tayeva, I. V. Rahmanov, G.H. Bakiyeva, F. R. Kadirova, V. S. Setlin va boshqalar). Ammo yurtimizda ko'plab maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini, jumladan ingliz tilini o'rgatish xususida ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli tadqiqotchilar bolalarning yosh davriga qarab ingliz tilini o'rgatish metodlari boyicha ilmiy izlanishlar orqali o'rganib chiqishdi. Jumladan, o'yin orqali o'qitish bolalarning tabiiy qiziqishini saqlab qoladi va ularni faol muloqotga undaydi (J. Bolen), tilni o'rganish jarayonida o'yinli faoliyatlar bolaning nutqiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga yordam beadi (C. Chavez, A. Graham, W. Superfine), visual va interaktiv o'yinlar bolalarning xotirasini mustahkamlaydi, talaffuzni yaxshilaydi va eslab qolish jarayonini tabiylashtiradi (Ch. Martin), bolalar uchun o'yinlarni tanlashda madaniy moslik va motivatsiyani inobatga olish zarurligini qayd etishgan (J. Loh, K. Kaur, S.A. Jones) va o'yin - bu faqat vaqt o'tkazish emas, balki o'rganish jarayonining strukturaviy qismi bo'lishi kerak. U o'yinlarni darsning maqsadiga mos ravishda tuzish, ularni grammatika, talaffuz va so'z boyligini mustahkamlash uchun ishlatish zarurligini (Ch. Roland) bo'yicha ilmiy ishlari bilan tanishib chiqildi. Ammo bular orasidan: maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarida muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik yondashuvlari (Negnevitskaya. Ye.N.), maktabgacha ta'lim muassasalari bolalariga chet tilini o'rgatishning asoslari, qo'llaniladigan mashqlar turlari, o'qitish metodikasi, ertaklarni qo'llagan holda og'zaki nutqni shakllantirish va syujetlashtirilgan roller orqali 6-7 yoshli bolalarga muloqotni o'rgatish (Koliyeva. N.F, Grigoreva V.V,

Dolnikova R.A, Futerman Z.Ya, Chistyakova T.A, Denisenko O.A, Rebakova N.V, Malkina N.A, Ponimatkova. P) kabilar ajratib olindi. Jean.P va Lev.V nazaryalarida o'yin bolalarning tafakkuri, ijtimoiy aloqalari va til qobiliyatlarini rivojlantiruvchi asosiy faoliyat turi sifatida qaraladi. Bruner (1983) esa o'yin jarayonida bola yangi bilimni tajriba asosida o'zlashtirishni takidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, Cameron, 2001; Phillips, 1993) kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda "learning through play" tamoyili eng samarali yondashuvlardan biri ekanligi qayd etilgan. O'yinli metodlar orasida didaktik o'yinlar, rol o'yinlari, interaktiv mashg'ulotlar, ijodiy topshiriqlar, visual va harakatli o'yinlar keng qo'llaniladi. Bu metodlar bolalarda so'z boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash, tinglab tushinish ko'nikmasini rivojlantirish hamda nutqiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. A. Zimnyayaning fikriga ko'ra esa, bolalar ta'lim jarayonida ona tili tajribalariga tayangan holda, chat tilini o'rganishlari kerak, faqat shundagina xorijiy so'zlarni xotirasida saqlash oson kechadi.

Til o'rgatish jarayonida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim omil hisoblanadi. Professor N.A. Bonk ta'kidlaganidek, yosh o'rganuvchilarga chet tilini o'rgatishda ularning psixologiyasini e'tiborga olish zarur. Chunki kichik yoshdagi bolalar tabiatan qiziquvchan, harakatchan va tez zerikuvchan bo'ladilar. Shu sababli, ularga ingliz tilini o'rgatishda an'anaviy usullar emas, balki o'yinli va interfaol metodlardan foydalanish samaraliroqdir.

O'yin faoliyati bolalarning tabiiy qiziqishlariga mos keladi hamda ularni ta'lim jarayoniga faol jalb etadi. O'yin orqali o'rganilgan bilimlar bolalarda uzoq muddatli eslab qolish, so'z boyligini kengaytirish va nutqni faol ishlatish imkonini yaratadi. Masalan, hayvonlar, oila, maktab, bog'cha yoki uy hayoti bilan bog'liq o'yinlar bolalarga o'zari uchun tanish mavzularda ingliz tilida fikr bildirishni osonlashtiradi. Bu esa ularning muloqotga kirishish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, erta yoshda chet tilini o'rganish nafaqat lingvistik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki bolaning umumiy tafakkuri, xotirasi va diqqatini ham kuchaytiradi. K.D. Ushinskiy o'z tadqiqotlarida til o'rganish jarayoni yosh bolalarda tabiiy tarzda, o'yin va qiziqarli mashg'ulotlar orqali amalga oshirilsa, ularning miyyasida mustahkam bilim asoslari shakllanishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, til o'rganish jarayoni bolani xalq ijodi, madaniyati va mantiqiy fikirlash doirasi bilan tanishtirib, uning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, o'yinli metodlar yordamida o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayoni ham jadallashadi – ular bir-biri bilan hamkorlikda ishlashni, fikr almashishni, o'z fikrini ifoda etishni o'rganadilar. Natijada, o'yinlar nafaqat til o'rgatish vositasi, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogic texnologiya sifatida ham e'tirof etiladi.

NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish jarayoni majburiyat sifatida emas, balki ular uchun qiziqarli va tabiiy kechadigan mashg'ulot tarzida tashkil etilishi lozim. Bolalar o'yin orqali, harakat, nutq va his-tuyg'ular bilan birga o'rganishganda, o'zlashtirish jarayoni samaraliroq bo'ladi. Shuning uchun darslar bolalarning tabiiy ehtiyojlari – o'yin, harakat va muloqotga bo'lgan qiziqishlariga asoslanib tashkil qilinishi zarur. Bu borada Total Physical Response (TPR) metodi

eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur metodda o'qituvchi so'z bilan birga harakatni ham qo'llaydi, natijada bola eshitganini jismoniy harakat orqali ifodalab, esda saqlashni osonlashtiradi. Bu usul orqali dars jarayoni o'yinga o'xshab ketadi va bolalar o'zlarini erkin his qilishadi. Shu sababli ular chet tilini o'rganishda yanada faolroq bo'ladilar hamda so'zlarni tabiiy tarzda yodlaydilar. Shuningdek, "Last Man Standing" (Oxirgi qolgan o'yinchi) va "Pictionary" kabi o'yinlar ham bolalarda tez fikrlash, so'z boyligini oshirish va nutqni faol qo'llashga yordam beradi. "Last Man Standing" o'yinida bolalar inglizcha so'zlarni tez-tez eslab, bir-birlariga aytib o'tishadi, bu esa ularning xotira va talaffuzini mustahkamlaydi. "Pictionary" esa bolalarning tasavvurini kengaytiradi – ular rasm orqali so'zlarni esda saqlab qolishadi, shuningdek, jamoada ishlash ko'nikmasini ham rivojlantiradi. Kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatishda o'qituvchi darsni jonli, qiziqarli va interaktiv tarzda olib borishi juda muhim. Qo'shiqlar, she'rlar, multfilmlar, topishmoqlar va turli amaliy mashg'ulotlar orqali so'zlarni o'rgatish bolalarga yanada yoqimli bo'ladi. Masalan, multfilmlar orqali ular eshitish va tushunish qobiliyatini rivojlantiradi, qo'shiqlar esa talaffuzni yaxshilaydi. Shuningdek, mevalar, sabzavotlar yoki uy-ro'zg'or buyumlarini dars jarayonida ishlatish orqali bolalar yangi so'zlarni hayotiy tajribasi bilan bog'lab oladi. Topishmoqlar bolalarning fikrlashini faollashtiradi, chunki ular javobni topishga harakat qiladi. Agar o'qituvchi topishmoqlarni inglizcha aytib, bolalardan ham ingliz tilida javob kutsa, bu ularni so'zlarni eslab qolishga undaydi. Shuningdek, turli amaliy mashg'ulotlar – masalan, ovqatlar yoki sabzavotlarni tatib ko'rish, ularning rangini yoki shaklini tasvirlash – bolalarda sezgi asosida o'rganish jarayonini kuchaytiradi. Bunday o'yin va mashg'ulotlar orqali bolalar so'zlarni o'zlari bilmagan holda, tabiiy tarzda o'zlashtiradilar. Natijada, ularning lug'at boyligi kengayadi, talaffuzi yaxshilanadi, shuningdek, o'z fikrini chet tilida ifodalash qobiliyati rivojlanadi. Bu esa o'quvchilarning muloqot qilish, eshitish va tushunish ko'nikmalarini mustahkamlab, kelgusida chet tilini osonroq o'zlashtirishiga zamin yaratadi. Umuman olganda, bolalarning o'yin, harakat, qo'shiq va ijodiy faoliyat orqali til o'rganishi eng samarali yo'ldir. Bu usul bolalarning tabiiy qiziqishini rag'batlantirib, ularni faol, ijodkor va ishtirokchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlar va interaktiv yondashuvlardan foydalanish nafaqat o'quv jarayonini samarali qiladi, balki ularning dunyoqarashini kengaytirib, til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

MUHOKAMA

Kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda o'yinli metodlardan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli, jonli va samarali qiladi. Chunki bu yoshda bola o'yin orqali fikrlaydi, eslab qoladi va yangi so'zlarni tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Shuning uchun o'yin elementlari qo'llanilgan darslarda bolalar faolroq ishtirok etadi, o'qituvchi bilan muloqot osonlashadi va o'rganilgan bilimlar mustahkamroq bo'ladi. Masalan, TPR (Total Physical Response), "Pictionary", yoki "Last Man Standing" kabi o'yinlar bolalarni harakatga chorlab, eshitish, tushunish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday usullar bolalarda til o'rganishga ijobiy munosabat, o'z fikrini erkin ifoda etish va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Umuman olganda, o'yinli metodlar o'quvchini majburlamasdan, tabiiy tarzda chet

tilini o'zlashtirishga undaydi va ta'lim jarayonini yanada samarali hamda mazmunli qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda o'yinli metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali, qiziqarli va tabiiy holga keltiradi. O'yin orqali bola o'rganish jarayonida faol ishtirok etadi, yangi so'zlarni osonroq eslab qoladi hamda o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganadi. Bunday yondashuv bolalarda chet tilini o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularni muloqotga, hamkorlikka va mustaqil fikrlashga undaydi. Eng muhimi, o'yin asosidagi darslar bolani zo'riqtirmasdan, tabiiy tarzda o'rgatadi. Shuning uchun o'yinli metodlar nafaqat samarali ta'lim usuli, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishi va tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turakulova A. F., Normatova K. N. Chet tilini o'qitish metodikasi masalalari. – Toshkent, 2020.
2. Abiyirova O., Xolbo'tayeva U. Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'qitish usullari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Rahmonov I. V., Bakiyeva G. H. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent, 2021.
4. Kadirova F. R. Ta'lim jarayonida o'yinli metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2022.
5. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge University Press, 2001.
6. Phillips, S. Young Learners. – Oxford University Press, 1993.

TURLI YOSHDAGI O'QUVCHILARGA CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARNING AHAMIYATI

Ne'matova Dildora Baxtiyor qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Filologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli yoshdagi o'quvchilarga chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlarning ahamiyati keng yoritilgan. Har bir yosh guruhining psixologik va kognitiv xususiyatlari tahlil qilinib, ularga mos samarali o'qitish usullari asoslab berilgan. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *chet tili, yosh xususiyatlari, zamonaviy metodlar, kommunikativ yondashuv, interaktiv usullar, AKT, ta'lim samaradorligi, innovatsion texnologiyalar*

Аннотация: В данной статье рассматривается значение современных методов обучения иностранным языкам для учащихся разных возрастных групп. Анализируются психологические и когнитивные особенности каждой возрастной категории, а также предлагаются эффективные подходы к обучению. Особое внимание уделяется коммуникативному подходу,

интерактивным методам и использованию информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: *иностранный язык, возрастные особенности, методы обучения, коммуникативный подход, интерактивное обучение, информационные технологии, эффективность обучения, инновационные технологии*

Abstract: This article provides a detailed analysis of the importance of modern methods in teaching foreign languages to learners of different age groups. The psychological and cognitive characteristics of each group are examined, and effective teaching strategies are suggested. The role of communicative approach, interactive methods, and information technologies in improving the learning process is also discussed.

Keywords: *foreign language, age characteristics, modern methods, communicative approach, interactive learning, ICT, teaching effectiveness, innovative technologies*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida chet tillarini bilish har bir shaxs uchun muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Xususan, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishda chet tilini o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi[3]. Shu bilan birga, turli yoshdagi o'quvchilarga til o'rgatish jarayoni bir xil yondashuvni emas, balki differensial va individual yondashuvni talab qiladi.

Har bir yosh bosqichi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, bu o'quvchilarning bilimni qabul qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy metodlardan foydalanish orqali o'qitish samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

1. Turli yosh guruhlarining psixologik xususiyatlari

Chet tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim metodik talab hisoblanadi.

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar (6–10 yosh) ko'proq vizual va eshitish orqali o'rganadi[2]. Ularning xotirasi mexanik bo'lib, ular yangi so'zlarni tez yodlaydi, ammo tez unutishi ham mumkin. Shu sababli takrorlash, o'yin va qo'shiqlar orqali o'qitish samarali hisoblanadi[5].

O'smirlar (11–16 yosh) esa mantiqiy fikrlashga o'ta boshlaydi. Ular o'z fikrini bildirishga intiladi va muloqot orqali o'rganishga moyil bo'ladi. Shu bois bahsmunozara, dialog va rolli o'yinlar bu yosh guruhida samarali natija beradi[1].

Kattalar esa ongli ravishda o'rganadi, maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi va o'rganilgan bilimni darhol amaliyotda qo'llashni xohlaydi. Ular uchun real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar muhim hisoblanadi.

2. Zamonaviy metodlarning tasnifi va ularning samaradorligi

Bugungi kunda chet tilini o'qitishda turli innovatsion metodlar keng qo'llanilmoqda.

Kommunikativ metod

Ushbu metod tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishga asoslanadi[7]. O'quvchilar grammatik qoidalarni yodlashdan ko'ra, tilni amaliy qo'llash orqali o'zlashtiradi. Bu metod ayniqsa o'smirlar va kattalar uchun samarali hisoblanadi.

Interaktiv metodlar

Interaktiv metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Guruhli ishlash, "brainstorming", "role play" kabi usullar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashni o'rganadi[4]. Bu esa ularning nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'yin texnologiyalari

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun o'yin asosidagi metodlar eng samarali usullardan biri hisoblanadi. O'yin orqali o'quvchilar tilni sezmagan holda o'rganadi, bu esa stresssiz va tabiiy o'rganishni ta'minlaydi[8].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

Zamonaviy ta'limda AKTdan foydalanish muhim o'rin tutadi[9]. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, video va audio materiallar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3. Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni

Multimedia vositalari, xususan video materiallar, til o'rganishda katta ahamiyatga ega. Video orqali o'quvchilar tilni tabiiy muhitda eshitadi, talaffuzni o'rganadi va nutqni yaxshiroq tushunadi[6].

Bundan tashqari, video materiallar o'quvchilarning vizual va eshitish qobiliyatlarini bir vaqtda ishga soladi. Bu esa bilimni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi.

4. Differensial yondashuv va individual ta'lim

Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyat va o'rganish tezligiga ega. Shu sababli differensial yondashuv qo'llanilishi zarur. Bu yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ularga mos topshiriqlar berishni nazarda tutadi[10].

Natijada o'quvchilarning bilim darajasi tenglashadi va har bir o'quvchi o'z imkoniyatlari doirasida rivojlanadi.

5. Zamonaviy metodlarning amaliy natijalari

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy metodlardan foydalanish:

- < o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi;
- < dars jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi;
- < o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- < tilni amaliy qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa.Xulosa qilib aytganda, turli yoshdagi o'quvchilarga chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Har bir yosh guruhining xususiyatlarini hisobga olib, mos metodlarni tanlash orqali o'quvchilarning bilim darajasini va til ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007.
2. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
3. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Larsen-Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2000.
5. Lightbown P.M., Spada N. How Languages are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
6. Nunan D. Language Teaching Methodology. – London: Prentice Hall, 1991.

7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Scrivener J. Learning Teaching. – Oxford: Macmillan Education, 2011.
9. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
10. Ur P. A Course in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar va internet manbalari.

PLANNING THE ASSESSMENT OF LEARNING PROFICIENCY

Olimova Durdonaxon Abdupatto qizi

a student of Namangan state institute of Foreign languages,

Mirzokhid Khoshimovich Koraboyev

Associate professor of the Department of English Language and Literature

Abstract: This article explores the planning of reading proficiency assessments in language learning. It discusses the key components of reading skills, including decoding, comprehension and critical thinking, and emphasizes the importance of clearly defining assessment objectives. Various assessment methods, such as standardized tests, informal evaluations and performance-based tasks are examined. The article also provides guidance on designing valid and reliable assessments, selecting appropriate texts and offering meaningful feedback to learners. Finally, it highlights the significance of continuous evaluation in supporting students' reading development and promoting lifelong literacy.

Keywords: *Reading proficiency, assessment planning, comprehension, language learning, evaluation strategies*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qish malakasini baholashni rejalashtirish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada o'qish ko'nikmalarining asosiy komponentlari, jumladan so'zlarni aniqlash (decoding), matnni tushunish (comprehension) va tanqidiy fikrlash (critical thinking) muhokama qilinadi hamda baholashning maqsadlarini aniq belgilashning ahamiyati ta'kidlanadi. Standart testlar, norasmiy baholash va amaliy vazifalar kabi turli baholash usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ishonchli va haqiqiy baholash vositalarini yaratish, mos matnlarni tanlash va o'quvchilarga foydali fikr-mulohaza berish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Nihoyat, doimiy baholashning o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish va umr bo'yi savodxonlikni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: *o'qish malakasi, baholash rejalashtirish, tushunish, til o'rganish, baholash strategiyalari*

Аннотация: В данной статье рассматривается планирование оценки навыков чтения в процессе изучения языка. Обсуждаются ключевые компоненты навыков чтения, включая декодирование, понимание текста и критическое мышление, и подчеркивается важность четкого определения целей оценки. Рассматриваются различные методы оценки, такие как стандартизированные тесты, неформальные задания и практические проекты.

Также приводятся рекомендации по созданию надежных и достоверных инструментов оценки, подбору подходящих текстов и предоставлению полезной обратной связи учащимся. В заключение подчеркивается значение постоянной оценки для развития навыков чтения и поддержки пожизненной грамотности.

Ключевые слова: *навыки чтения, планирование оценки, понимание текста, изучение языка, стратегии оценки*

Reading proficiency plays a central role in language learning and academic achievement. It serves as a gateway to knowledge acquisition, intellectual development and effective communication. In both first and second language contexts, reading enables learners to interact with texts, interpret information and construct meaning based on linguistic and contextual clues. Therefore, assessing reading proficiency is not merely a formal requirement but a pedagogical necessity that confirms learners are progressing toward educational goals. In modern education systems, reading is considered a complex cognitive process rather than a simple mechanical skill. It involves decoding written symbols, understanding vocabulary, processing syntactic structures and integrating background knowledge with textual information. Consequently, the assessment of reading proficiency must reflect this complexity. Poorly designed assessments may measure only surface-level skills, such as word recognition, without capturing deeper comprehension and analytical abilities. Planning an effective reading assessment requires careful consideration of instructional objectives, learner characteristics, text selection and evaluation criteria. Teachers must check that assessment tasks situate curriculum standards and learning outcomes. Moreover, assessments should provide meaningful data that can guide instructional improvements and support learners' individual development. Eventually, well-planned reading assessments contribute to building confident, strategic and independent readers.

Reading proficiency consists of multiple interconnected components that operate simultaneously during the reading process. The first level involves decoding, which refers to the ability to recognize written words and associate them with their correct pronunciation and meaning. Without strong decoding skills, learners struggle to process text fluently. Another essential component is vocabulary knowledge. A reader's understanding of word meanings significantly influences comprehension. Limited vocabulary restricts the ability to understand main ideas, recognize details, and interpret gradation in meaning. Therefore, vocabulary assessment is often combine into reading evaluation. Comprehension operates at different levels. Literal comprehension focuses on identifying explicitly stated information, while inferential comprehension requires readers to read between the lines and draw logical conclusions. At a higher level, critical reading involves analyzing arguments, evaluating evidence and forming independent judgments about the text. In addition, proficient reading requires strategic competence. Skilled readers apply strategies such as predicting, questioning, summarizing and clarifying misunderstandings. Effective assessment must therefore consider not only outcomes but also the strategies learners use during reading.

Clear objectives form the foundation of any successful assessment plan. Before constructing tasks, educators must determine what specific aspects of reading they intend to measure. Objectives may include assessing reading fluency, identifying main ideas, evaluating interpretative skills or measuring the ability to analyze contrary texts. Objectives should line up curriculum standards and learning outcomes. For example, if the instructional goal emphasizes critical thinking, assessment tasks should require analysis and evaluation rather than simple recall. Clearly defined objectives also ensure accountability and fairness, as learners understand what is expected of them. Furthermore, objectives influence the selection of scoring rubrics and performance criteria. When assessment goals are specific, teachers can design more accurate marking schemes that reflect different levels of achievement.

A variety of assessment methods can be employed to measure reading proficiency effectively. Standardized tests are widely used because they provide objective and equivalent results. These assessments often include multiple-choice questions, matching exercises and cloze tests. While standardized tests are efficient, they may not fully capture higher-order thinking skills. Informal classroom-based assessments offer greater flexibility. Teachers can evaluate reading through verbal questioning, group discussions, summaries and reflective journals. Such methods provide deeper understanding of students' comprehension processes and allow for primary feedback. Performance-based assessments represent another valuable approach. Projects, presentations, research assignments and portfolio work require learners to synthesize information from texts and demonstrate understanding in practical ways. These methods assess comprehension, interpretation and communication skills simultaneously. Combining different assessment methods ensures a more comprehensive evaluation of reading proficiency.

Effective assessment design requires attention to validity, reliability and fairness. Validity ensures that the test measures what it is intended to measure, while reliability guarantees consistency in scoring and results. Poorly constructed questions can bend outcomes and provide specious information about learners' abilities. Text selection is another crucial factor. Texts should match learners' proficiency levels and reflect authentic language use. Including a range of genres-narrative, descriptive, expository and argumentative provides a balanced assessment of reading skills. Question design should also vary in cognitive command. Lower-level questions may focus on factual recall, whereas higher-level tasks require analysis, synthesis, and evaluation. Clear instructions and appropriate timing help learners demonstrate their abilities without unnecessary stress or confusion.

Assessment is most effective when accompanied by constructive feedback. Feedback transforms assessment from a judgmental tool into a developmental instrument. Instead of simply assigning grades, teachers should explain errors, highlight strengths, and provide recommendations for improvement. Effective feedback encourages learners to reflect on their reading strategies and identify areas that require further practice. Personalized comments, targeted exercises, and follow-up discussions can significantly enhance reading development. Moreover, formative feedback during the learning process is often more beneficial than summative feedback at the end of instruction. Reading proficiency develops gradually over time.

Therefore, assessment should not be a one-time event but an ongoing process. Continuous evaluation allows educators to monitor progress, identify trends, and adjust instructional approaches accordingly. Regular assessment also promotes learner autonomy. When students track their own progress, they become more motivated and responsible for their learning. Continuous evaluation fosters long-term literacy development and prepares learners for academic and professional success.

References:

1. Alderson, J. C. (2000). Assessing reading. Cambridge University Press.
2. Brown, H. D. (2004). Language assessment: Principles and classroom practices. Pearson Education.
3. Grabe, W. (2009). Reading in a second language: Moving from theory to practice. Cambridge University Press.
4. Hughes, A. (2003). Testing for language teachers (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Weir, C. J. (2005). Language testing and validation: An evidence-based approach. Palgrave Macmillan.

A1 DARAJADAGI O'QUVCHILARNI QISQA MUDDATDA GAPIRTIRISH METODIKASI (NEMIS TILI MISOLIDA)

Rahmonova Malohat Abdulhamid qizi

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillari instituti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tili o'qitishda boshlang'ich darajadagi talabalarni qisqa muddatda og'zaki nutqqa o'rgatish metodikasi nemis tili misolida tahlil qilingan. Tadqiqot zamonaviy kommunikativ yondashuv asosida A1 darajasidagi o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini tezkor rivojlantirish strategiyalarini ko'rib chiqadi. Maqolada intensiv o'qitish tamoyillari, leksik-grammatik minimum tanlash mezonlari hamda interaktiv mashqlar tizimi muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: *og'zaki nutq, A1 daraja, intensiv ta'lim, nemis tili, kommunikativ yondashuv, leksik minimum, boshlang'ich daraja*

Аннотация: В данной статье анализируется методика обучения устной речи студентов начального уровня в краткосрочный период на примере немецкого языка. Исследование рассматривает стратегии ускоренного развития навыков устной речи учащихся уровня А1 на основе современного коммуникативного подхода. В статье обсуждаются принципы интенсивного обучения, критерии отбора лексико-грамматического минимума и система интерактивных упражнений.

Ключевые слова: *устная речь, уровень А1, интенсивное обучение, немецкий язык, коммуникативный подход, лексический минимум, начальный уровень*

Abstract: This article analyzes the methodology of teaching oral speech to beginner-level students in a short period using German language as an example. The

research examines strategies for accelerated development of oral speech skills of A1 level learners based on modern communicative approach. The article discusses principles of intensive teaching, criteria for selecting lexical-grammatical minimum, and system of interactive exercises.

Keywords: *oral speech, A1 level, intensive learning, German language, communicative approach, lexical minimum, beginner level*

KIRISH: Zamonaviy globallashuv sharoitida chet tillarni egallash zarurati tobora ortib bormoqda va bu jarayon nafaqat professional maqsadlar, balki shaxsiy rivojlanish ehtiyojlari bilan ham bog'liqdir. Yevropa Kengashining umumiy til kompetensiyalari bo'yicha standartlari (CEFR) tizimida A1 daraja chet tilni o'rganishning eng asosiy bosqichi hisoblanadi va bu darajada o'quvchilar oddiy kundalik vaziyatlarda elementar muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kutiladi [1]. Nemis tili dunyodagi eng muhim biznes va fan tillari qatoriga kiradi, Germaniya, Avstriya va Shveytsariyaning rasmiy tili sifatida millionlab odamlar tomonidan qo'llaniladi [2]. Shu bilan birga, ko'plab ta'lim muassasalari va til o'rganuvchilar qisqa muddatda, masalan, 3-4 oylik intensiv kurslar davomida asosiy muloqot ko'nikmalariga erishish maqsadini qo'yishadi.

Qisqa muddatda A1 darajasidagi o'quvchilarni gapirtirish masalasi pedagogik amaliyotda jiddiy e'tiborni talab qiladi, chunki an'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha uzoq muddatli dasturlarga mo'ljallangan va tez natijaga erishish uchun maxsus strategiyalar talab etiladi. Tadqiqot maqsadi boshlang'ich darajadagi nemis tili o'quvchilarini qisqa muddatda og'zaki nutqqa tayyorlashning samarali metodologik yondashuvlarini aniqlash va asoslashdan iboratdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: zamonaviy adabiyotlarda A1 darajasida og'zaki nutq rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, qisqa muddatli intensiv o'qitish tamoyillarini aniqlash, leksik-grammatik minimumni tanlash mezonlarini ishlab chiqish hamda amaliy mashqlar tizimini loyihalash. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim tizimida til o'rganishga ajratiladigan vaqt cheklanganligi va samaradorlikka bo'lgan talabning ortib borayotganligi bilan belgilanadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tahliliy va deskriptiv usullardan foydalanildi, ya'ni til o'qitish sohasidagi nazariy adabiyotlar, o'quv dasturlar va metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. Kommunikativ yondashuv zamonaviy chet tili o'qitishning asosiy metodologik paradigmasi hisoblanadi va uning mohiyati tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishga qaratilganligida namoyon bo'ladi [3]. Yevropadagi CEFR standartlari A1 darajasini "boshlang'ich daraja" deb belgilaydi va bu darajada o'quvchilar o'zlari va boshqalar haqida oddiy savollar berishlari, javob berishlari, tanish mavzularda qisqa dialog yuritishlari kutiladi [1]. Nemis tili grammatikasi murakkabligi bilan ajralib turadi - to'rt kelishik tizimi, fe'l tuslanishi va gap tuzilishidagi qat'iy tartib boshlang'ich o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi [4]. Shu sababli, A1 darajasida leksik-grammatik materialni tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar qisqa muddatli ta'limda "leksik yondashuv" (Lexical Approach) samarali ekanligini ta'kidlaydilar, bunda alohida so'zlar emas, balki tayyor iboralar va kollokatsiyalar o'rgatiladi [5]. Masalan, "Wie geht es Ihnen?" (Ahvolingiz qalay?)

kabi formulalar grammatik tahlilsiz, tayyor konstruktsiya sifatida esda qoldiriladi. Qisqa muddatli intensiv o'qitishning nazariy asoslari Lozanov va Kitaygorodskaya tomonidan ishlab chiqilgan suggestopediya konsepsiyasiga borib taqaladi, bunda psixologik to'siqlarni bartaraf etish, ritmik-musiqiy elementlar va faol kommunikativ amaliyot birlashtiriladi [6]. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til o'rganishda input (kirish materiallari) miqdori va sifati hal qiluvchi ahamiyatga ega, lekin boshlang'ich darajada "tushunarli input" (comprehensible input) prinsipi qo'llanilishi kerak - material o'quvchi darajasidan ozgina yuqoriroq bo'lishi lozim [7]. Nemis tilida A1 daraja uchun 500-700 leksik birlik minimal lug'at hajmi sifatida belgilangan, biroq so'z tanlashda chastotali prinsip qo'llanilishi muhimdir [8].

Og'zaki nutq rivojlantirishda mashqlar ierarxiyasi muhim o'rin tutadi: reproduktiv (takrorlash, taqlid qilish), reproduktiv-produktiv (namuna bo'yicha almashtirib gapirish) va produktiv (erkin nutq) mashqlar ketma-ketligi ta'minlanishi kerak [9]. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, audio va video materiallar, til o'rganish ilovalari qisqa muddatli o'qitishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi va "uy vazifasi" kontsepsiyasini "doimiy mashq" kontsepsiyasiga aylantiradi [10]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qisqa muddatda gapirtirish uchun uchta asosiy shart zarur: yuqori motivatsiya, intensiv nutqiy amaliyot va maqsadli leksik-grammatik minimum. Biroq, mavjud tadqiqotlarda nemis tili misolida A1 darajasida qisqa muddatli o'qitishning konkret metodologik tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan va bu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili va metodik-amaliy tajriba asosida A1 darajadagi o'quvchilarni qisqa muddatda gapirtirish uchun quyidagi metodologik tizim ishlab chiqildi. Birinchidan, leksik-grammatik minimumni tanlash mezonlari belgilandi: kommunikativ zarurlik (kundalik vaziyatlarda eng zarur konstruktsiyalar), chastotalilik (nemis tilida eng ko'p qo'llaniladigan 500 so'z va 50 grammatik struktura), funksionallik (ma'lum kommunikativ vazifani bajarish imkoniyati) va o'zlashtiruvchanlik (boshlang'ich darajada qabul qilish qulayligi). Nemis tili uchun A1 darajasidagi asosiy leksik-tematik bloklarga quyidagilar kiradi: tanishish va shaxsiy ma'lumotlar (ich heiße, ich komme aus, ich bin Jahre alt), oila va yaqinlar (meine Familie, mein Vater/Mutter), kundalik tartib va vaqt (aufstehen, frühstücken, Uhr), ovqatlanish va xarid qilish (essen, trinken, kaufen, Brot, Milch), shahar va transport (fahren, Bahnhof, Straße), kasblar va ish (arbeiten, Arzt, Lehrer).

Grammatik minimumga present tense (Präsens), haben va sein fe'llari, modal fe'llar (können, müssen, mögen), akkuzativ kelishigi asoslari, oddiy gap tuzilishi va savol shakllari kiritildi. Ikkinchidan, intensiv o'qitish tamoyillari qo'llanildi: har kuni 2-3 soatlik mashg'ulotlar, maksimal nutqiy amaliyot ulushi (dars vaqtining kamida 60%), repetitsiya prinsipi (har 3-4 darsda oldingi material takrorlanadi), "til muhiti yaratish" (faqat nemis tilida muloqot rejimi), emotsional-psixologik qulay atmosfera (xatolarga yo'l qo'yish tabiiy jarayon sifatida qabul qilinadi). Uchinchidan, amaliy mashqlar tizimi yaratildi. Reproductiv bosqichda (1-2 hafta) o'qituvchi audioli nutq namunalari bilan ishlash, xorli va individual takrorlash, mimika va jestlar bilan qo'shib gapirish mashqlari qo'llanildi. Reproductiv-produktiv bosqichda (3-5 hafta) dialog-namunalar bilan ishlash, gap tuzish uchun ramka konstruktsiyalar (Ich

möchte... kaufen, Können Sie mir... zeigen?), rol o'yinlari va vaziyatli mashqlar (do'konda, restoranda, yo'lni so'rash) joriy etildi. Produktiv bosqichda (6-8 hafta) mini-monologlar (o'zim haqimda, mening shahrim, mening oilam), erkin dialoglar, muammoli vaziyatlar (berilgan vaziyatdan chiqish yo'lini topish), loyiha ishlari (video-taqdimot, poster) ishlatildi. To'rtinchidan, axborot-kommunikativ texnologiyalar qo'llash strategiyasi ishlab chiqildi: mobil ilovalar orqali leksika mashq qilish (Duolingo, Memrise), podcast va video materiallarni tinglash (Deutsche Welle "Langsam gesprochene Nachrichten"), onlayn tandem platformalarda nemis tilida suhbatlashish, autentik materiallar bilan ishlash (oddiy retseptlar, transport jadvallari, xarita). Beshinchidan, baholash va monitoring tizimi yaratildi: haftalik og'zaki nazorat (dialog yoki monolog), o'z-o'zini baholash anketa (men nima qila olaman), video-yozuv portfoliosi (boshlang'ich va yakuniy nutq namunalari taqqoslash). Muhokama jarayonida quyidagi muhim xulosalar olindi: qisqa muddatda A1 darajasida gapirtirish to'liq tilni egallash emas, balki asosiy kommunikativ vazifalarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi; grammatik to'g'rilik emas, kommunikativ samaradorlik ustuvor hisoblanadi (Ich gestern gehen Kino - noto'g'ri, lekin tushunarli); leksik zapas cheklangan bo'lsa ham, parafraz va kompensatsion strategiyalar qo'llash orqali muloqot ta'minlanadi; doimiy motivatsiya va maqsad aniqligisiz qisqa muddatli natija barqaror bo'lmaydi, shuning uchun o'quvchilar aniq kommunikativ maqsadga ega bo'lishlari kerak (sayohat, ish, o'qish). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agar yuqorida tavsiya etilgan metodologik tizim qo'llanilsa, 3-4 oylik intensiv kursda o'quvchilar A1 darajasining asosiy talablariga javob beradigan og'zaki nutq ko'nikmalariga erishishlari mumkin: o'zlari haqida qisqa hikoya qilish, oddiy savollarga javob berish, kundalik vaziyatlarda elementar dialog yuritish.

XULOSA

A1 darajadagi o'quvchilarni qisqa muddatda nemis tilida gapirtirish metodikasi maqsadli leksik-grammatik minimum, intensiv nutqiy amaliyot, motivatsion muhit va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasiga asoslanishi kerak. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qisqa muddatli o'qitishda leksik yondashuv va kommunikativ metodning birlashishi eng samarali strategiya hisoblanadi. Asosiy metodologik tamoyillar quyidagilardan iborat: funksional-kommunikativ prinsip (har bir leksik yoki grammatik birlik aniq kommunikativ vazifaga xizmat qiladi), intensivlik prinsipi (yuqori chastotali mashqlar va doimiy til amaliyoti), pog'onalik prinsipi (oddiydan murakkabga ketma-ketlik), shaxsiy yondoshuv (o'quvchining individual ehtiyojlari va maqsadlarini hisobga olish). Amaliy jihatlari: o'quv dasturlarida 500-700 leksik birlik va 50 asosiy grammatik konstruksiyaga e'tibor qaratish, dars vaqtining kamida 60% nutqiy amaliyotga ajratish, har hafta oldingi materiallarni takrorlash tizimini joriy etish, raqamli resurslar va autentik materiallardan keng foydalanish. Tadqiqotning cheklanganligi: faqat nazariy-metodik tahlil amalga oshirildi, empirik tajriba o'tkazilmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press, 2001. 260 p.

2. Ammon U. Die deutsche Sprache in Deutschland, Österreich und der Schweiz: Das Problem der nationalen Varietäten. Berlin: De Gruyter, 1995. 575 S.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. 410 p.
4. Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin: Langenscheidt, 2001. 654 S.
5. Lewis M. The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. London: Language Teaching Publications, 1993. 200 p.
6. Китайгородская Г.А. Методика интенсивного обучения иностранным языкам. Москва: Высшая школа, 1982. 141 с.
7. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press, 1982. 202 p.
8. Tschirner E. Wortschatz im Deutschen als Fremdsprache: Lernpsychologische und didaktische Aspekte // Deutsch als Fremdsprache. 2004. №1. S. 27-34.
9. Bimmel P., Kast B., Neuner G. Deutschunterricht planen: Arbeit mit Lehrwerkslektionen. Berlin: Langenscheidt, 2003. 192 S.
10. Қодирова Д.А. Замоновий педагогик технологиялар асосида чет тилини ўқитиш. Тошкент: Фан, 2019. 156 б.

BOOSTING ENGLISH VOCABULARY IN PRIMARY SCHOOL: TECHNIQUES AND STUDENT PERSPECTIVES

Rano Sohataliyeva Shokirjon qizi
Undergraduate student of NamSIFL

Abstract: This article explores effective techniques for boosting English vocabulary among primary school students and examines learners' perspectives on these methods. Emphasis is placed on interactive and student-centered approaches, including the use of games, visual aids, and storytelling. The findings indicate that such methods contribute to improved vocabulary retention and increased learner motivation. The study concludes that the implementation of age-appropriate and engaging strategies is essential for effective vocabulary development in primary education.

Key words: *vocabulary acquisition, teaching techniques, student perspective, interactive learning, primary school students, ESL, gamification.*

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tili lug'at boyligini oshirishning samarali usullarini o'rganadi hamda o'quvchilarning ushbu usullarga bo'lgan munosabatini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor interaktiv va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlarga qaratilgan bo'lib, ular o'yinlar, vizual materiallar va hikoya qilish usullarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday metodlar so'zlarni yaxshiroq eslab qolishga va o'quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi. Shu bois, samarali lug'atni rivojlantirish uchun qiziqarli va jalb qiluvchi strategiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: *lugʻatni oʻzlashtirish, oʻqitish usullari, oʻquvchi nuqtai nafari, interaktiv taʼlim, boshlangʻich sinf oʻquvchilari, ingliz tilini ikkinchi til sifatida oʻrganish (ESL), oʻyinlashtirish (gamifikatsiya).*

Аннотация: Данная статья исследует эффективные методы расширения словарного запаса английского языка у учащихся начальной школы, а также рассматривает мнение обучающихся об этих методах. Особое внимание уделяется интерактивным и ориентированным на ученика подходам, включая использование игр, наглядных материалов и рассказывания историй. Результаты показывают, что такие методы способствуют лучшему запоминанию слов и повышению вовлеченности учащихся. Таким образом, использование увлекательных и интерактивных стратегий является важным для эффективного развития словарного запаса в начальном образовании.

Ключевые слова: *усвоение словарного запаса, методы обучения, точка зрения учащихся, интерактивное обучение, учащиеся начальной школы, английский как второй язык (ESL), геймификация.*

Introduction: The development of a comprehensive English vocabulary during primary education is a critical factor that determines students future linguistic competence and academic performance. At this formative stage, learners are not only acquiring new words but are also developing the cognitive tools necessary to navigate complex communication. While traditional methods of rote memorization have long dominated the classroom, contemporary pedagogical shifts emphasize the integration of more interactive and context-based techniques. These include gamification, digital storytelling, and visual aids, all aimed at enhancing lexical retention and learner motivation. Educators must also consider the learners' psychological and emotional response to these activities. According to Paul Nation(2001), **"To learn a word, a learner needs to experience it in a variety of ways"** (p.24). these highlights the necessity of diverse, student-centered approaches that align with the perspectives of young learners. This article investigates modern pedagogical techniques and incorporates feedback from primary students to identify the most successful strategies for long-term vocabulary retention.

Methodology: Research Design and Participants

This study employed a practical action research design, which allowed the researcher to observe, implement, and evaluate different vocabulary teaching strategies within a real classroom setting. Action research is particularly useful in educational contexts because it enables teachers to reflect on their own practices and make improvements based on direct experience. The research was conducted in a primary school classroom consisting of 20 students aged between 8 and 10 years old. The participants were beginner-level learners of English as a second language (ESL). This age group was selected because young learners are at a crucial stage of language development, and their vocabulary acquisition strongly influences their overall language proficiency. According to Norbert Schmitt (2000), vocabulary knowledge forms the foundation of language competence, and the way vocabulary is taught plays a significant role in how effectively learners retain and use new words. Therefore, this study aimed to compare traditional and modern teaching approaches in order to identify more effective strategies for young learners.

Phase 1: Traditional Methods (Weeks 1–2)

During the first phase of the research, traditional vocabulary teaching methods were applied. These included rote memorization, repetition, and translation techniques. Students were provided with lists of English words along with their equivalents in their native language, and they were asked to memorize them through repetition. In addition, classroom activities were mostly teacher-centered, with limited student interaction. The teacher explained meanings, and students were expected to remember the words individually without much contextual support.

Observations:

The results of this phase indicated that students had difficulty retaining the vocabulary items for more than a short period. Many learners forgot previously learned words within a few days. The primary issues identified were:

Lack of meaningful context

Limited student engagement

Insufficient revision and reinforcement

As noted by Scott Thornbury (2002), vocabulary learned in isolation is less likely to be transferred into long-term memory. Without context and active use, the brain struggles to store and retrieve new lexical items effectively.

Phase 2: Interactive and Student-Centered Techniques (Weeks 3–4)

In the second phase, the teaching methodology was modified to incorporate interactive, student-centered, and communicative approaches. The aim was to create a more engaging learning environment that would encourage active participation and deeper processing of vocabulary.

The following strategies were implemented:

Games and Role-plays:

Vocabulary was practiced through communicative games and role-playing activities. These activities encouraged movement, collaboration, and real-life language use. As a result, students became more motivated and less anxious, which positively influenced their learning outcomes.

Visual Aids and Multimedia:

A variety of visual materials such as pictures, flashcards, real objects (realia), and short videos were used to support vocabulary learning. These tools helped students form mental images and associations, which are particularly important for young learners who tend to rely on visual and concrete representations.

Regular Revision:

Each lesson began with a brief review of previously learned vocabulary. This systematic revision helped reinforce memory and counteract the effects of the forgetting curve, ensuring that students retained information over a longer period.

Vocabulary Notebooks:

Students were encouraged to maintain personal vocabulary notebooks where they recorded new words, meanings, and examples. This practice promoted learner autonomy and responsibility, enabling students to review and consolidate their knowledge independently.

Data Collection and Evaluation

Data for this study was collected through direct classroom observation, informal assessment, and analysis of student participation levels. The researcher carefully monitored how actively students engaged in different activities and how effectively they used newly learned vocabulary in practice. To evaluate the effectiveness of the teaching methods, a comparative analysis was conducted between Phase 1 (traditional methods) and Phase 2 (interactive techniques). Student performance, retention rates, and participation levels were used as key indicators. The findings revealed a significant improvement in vocabulary retention and student engagement during Phase 2. When learners were actively involved in the learning process and exposed to multimedia resources, they demonstrated better understanding, longer retention, and greater confidence in using new words.

Research Findings

Vocabulary retention is a common challenge for many students, particularly young learners. During my research, I identified several reasons why students struggle to remember new words. Firstly, many students rely on simple memorization without using vocabulary in context. As a result, they tend to forget what they have learned very quickly. Secondly, a lack of regular revision plays a significant role. Students often fail to review vocabulary after lessons, which negatively affects their long-term memory. Another important factor is the teaching method. When vocabulary is taught only through translation, students may understand the meaning but are unable to use the words effectively in real communication. However, I observed that students became more interested and actively engaged when lessons included games, visuals, and real-life examples. To address these issues, I implemented interactive activities such as group work, role-plays, and vocabulary games. I also encouraged students to maintain vocabulary notebooks and introduced regular revision sessions at the beginning of each lesson. In addition, I incorporated multimedia tools, including videos and images, to make learning more engaging and effective. As a result, students became more motivated and demonstrated noticeable improvement in both remembering and using new vocabulary.

Final Reflection and Conclusion: This exploratory action research demonstrated that vocabulary learning is not effective when students rely solely on passive memorization. The findings revealed that learners retain vocabulary more successfully when they actively use new words in communication and engage in regular practice. It also became evident that teaching methods play a crucial role in supporting vocabulary retention.

Through this study, the importance of incorporating interactive activities, systematic revision, and multimedia resources into vocabulary instruction was clearly identified. These strategies not only make the learning process more engaging but also enhance students' ability to store and recall vocabulary in their long-term memory. Furthermore, this research contributed to my professional development as a future teacher. It encouraged me to adopt a more reflective approach to teaching and to continuously evaluate and improve my instructional methods. In the future, I aim to create a supportive and student-centered classroom environment where learners feel motivated, confident, and actively involved in the learning process. By applying

creative and interactive techniques, I hope to help students develop stronger vocabulary knowledge and achieve greater success in their English language learning.

References:

1. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
2. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge University Press.
3. Thornbury, S. (2002). *How to Teach Vocabulary*. Pearson Education Limited.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PRIMARY ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Tadjibayeva Albina Alisherovna,

Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi
+998936779755

Jo'rayeva Shahnoza Kamolxon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti III-kurs talabasi
+998913657594

Annotation: This article examines the integration of artificial intelligence (AI) technologies in teaching English to primary school students. It explores how AI-based platforms enhance lesson interactivity, provide personalized learning paths, and improve speaking, vocabulary, and grammar skills. The study emphasizes practical classroom applications, including adaptive exercises, AI-generated speaking prompts, and formative assessment tools. The research highlights pedagogical advantages, such as increased student motivation, individualized instruction, and efficient lesson management. Findings suggest that thoughtful implementation of AI supports early language acquisition, strengthens communicative competence, and contributes to higher overall learning outcomes in primary English classrooms.

Key words: *artificial intelligence, primary education, English language teaching, adaptive learning, digital pedagogy, formative assessment, personalized instruction, communicative competence, interactive learning.*

Аннотация: В данной статье рассматривается интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в обучение английскому языку младших школьников. Исследуется, как платформы на основе ИИ повышают интерактивность уроков, обеспечивают персонализированные траектории обучения и способствуют развитию навыков говорения, словарного запаса и грамматики. В работе подчёркивается практическое применение в классе, включая адаптивные упражнения, генерируемые ИИ речевые задания и инструменты формирующего оценивания. Исследование выделяет педагогические преимущества, такие как повышение мотивации учащихся, индивидуализация обучения и эффективное управление уроком. Результаты показывают, что продуманное внедрение ИИ поддерживает раннее усвоение языка, укрепляет коммуникативную компетенцию и способствует более высоким общим результатам обучения в начальных классах английского языка.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, начальное образование, преподавание английского языка, адаптивное обучение, цифровая педагогика, формирующее оценивание, персонализированное обучение, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение.*

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining integratsiyasini ko'rib chiqadi. SI-ga asoslangan platformalar darslarning interaktivligini qanday oshirishi, shaxsiylashtirilgan o'quv yo'nalishlarini taqdim etishi hamda gapirish, so'z boyligi va grammatika ko'nikmalarini rivojlantirishi o'rganiladi. Tadqiqotda adaptiv mashqlar, SI tomonidan yaratilgan nutqiy topshiriqlar va shakllantiruvchi baholash vositalarini o'z ichiga olgan amaliy sinf qo'llanmalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ta'limni individuallashtirish va darsni samarali boshqarish kabi pedagogik afzalliklarni yoritadi. Xulosalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni o'ylangan holda joriy etish erta til o'zlashtirilishini qo'llab-quvvatlaydi, kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydi va boshlang'ich ingliz tili darslarida umumiy o'quv natijalarining yuqori bo'lishiga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, ingliz tilini o'qitish, adaptiv o'qitish, raqamli pedagogika, shakllantiruvchi baholash, shaxsiylashtirilgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, interaktiv o'qitish.*

Introduction: Modern education is rapidly evolving due to technological advancements, particularly in foreign language teaching. In primary education, English instruction must cater to young learners' cognitive abilities and attention spans while maintaining engagement. Traditional methods often fall short in providing individualized support. Artificial intelligence offers innovative solutions by enabling adaptive learning, interactive exercises, and real-time feedback. This study explores AI's potential to improve teaching effectiveness, enhance student motivation, and develop communicative competence in primary school English classes [1].

AI technologies facilitate personalized learning by analyzing student performance and generating tailored exercises. Key applications in primary English classrooms include speech recognition tools for pronunciation and speaking practice, adaptive grammar and vocabulary exercises, real-time formative feedback, and interactive digital activities designed to maintain engagement.

In the modern era, education is undergoing a profound digital transformation, with artificial intelligence (AI) emerging as a key driver of change. Mastering a foreign language is a cornerstone of functional literacy; however, teaching English to primary school students presents unique challenges. Traditional pedagogical methods, often characterized by mechanical memorization and repetitive exercises, frequently fail to maintain the motivation of young learners and do not account for their individual learning paces and styles.

METHODS

The integration of AI into the primary classroom offers innovative solutions to these hurdles by providing personalized learning trajectories. Unlike traditional uniform approaches, AI-based platforms can analyze a student's progress in real time, automatically adjusting the difficulty of materials and focusing on specific areas of

difficulty, such as grammar or vocabulary. This shift transforms language learning from a routine task into an interactive and engaging experience, which is particularly vital for the current generation of digital natives.

AI-driven tools, including intelligent speech recognition and adaptive learning systems, significantly strengthen foundational language skills. From providing immediate feedback on pronunciation to offering automated corrections for grammatical structures, these technologies facilitate a safe, stress-free environment for students to practice. Crucially, the sources emphasize that AI is not a replacement for the teacher but rather an efficient ally. By automating routine tasks such as grading and lesson management, AI frees educators to focus on creative instructional design, mentorship, and providing individualized emotional support to their students.

This article examines the practical classroom applications and pedagogical advantages of AI integration in primary English education. We will explore how thoughtful implementation of these technologies supports early language acquisition, strengthens communicative competence, and contributes to superior learning outcomes by creating a synergy between human expertise and artificial intelligence

RESULTS

The results of the study on the integration of Artificial Intelligence (AI) in teaching English to primary school students, synthesized from the sources, reveal significant impacts on language skills, pedagogical efficiency, and student motivation, while also identifying critical barriers to implementation.

AI integration has demonstrated measurable benefits across the core language competencies:

Speaking and Pronunciation: Teachers report that AI is highly effective in improving pronunciation through visual feedback, such as spectrograms that represent pitch and intonation. AI-driven conversational agents and voice assistants (e.g., Alexa) provide a “safe” environment for students to practice dialogues, which significantly enhances fluency and reduces speaking anxiety.

Writing and Grammar: Automated grammar checkers (e.g., Grammarly) and writing assistants enable students to produce texts with greater lexical variation and fewer errors. Furthermore, machine translation tools help lower-proficiency students engage with more complex syntax and vocabulary, though there are concerns regarding long-term independent skill retention.

Reading and Vocabulary: Gamified AI environments (e.g., quest-based games) provide meaningful context for vocabulary acquisition that often surpasses traditional textbook methods. AI tools support memory retention through multimodal learning, combining text, images, and audio.

DISCUSSION

While AI provides clear advantages, successful integration requires careful planning. Teachers must possess digital literacy skills and select suitable platforms that align with pedagogical objectives. Ethical concerns, including data privacy and equitable access, must also be considered. Balancing AI-supported learning with authentic interpersonal communication remains crucial for fostering meaningful language acquisition [2].

The integration of Artificial Intelligence (AI) in primary English classrooms represents a fundamental shift from traditional "one-size-fits-all" methodologies to highly individualized learning pathways. By utilizing adaptive learning systems, educators can now offer customized resources that address the unique cognitive levels and learning styles of each student [3]. These systems effectively transform the student from a passive receptor of information into an active collaborator in the educational process. Predictive models play a crucial role here, as they anticipate a learner's future trajectory and optimize the difficulty level to maximize efficiency and motivation.

CONCLUSION

Evidence suggests that AI integration has its most profound impact on productive skills, specifically speaking and writing. Speech recognition technologies and AI-driven conversational agents provide a low-stress environment that reduces speaking anxiety and improves pronunciation through immediate visual and phonetic feedback. However, a significant gap remains in the literature regarding receptive skills; current research shows that AI tools are not yet extensively utilized for developing listening comprehension in primary settings. This suggests that while AI can simulate a conversational partner, its role in a holistic four-skill language curriculum is still evolving [4].

The study concludes that AI integration in primary English language teaching significantly enhances educational outcomes. By supporting adaptive instruction, interactive exercises, and formative assessment, AI promotes motivation, skill development, and learner autonomy [5].

Effective implementation relies on pedagogical knowledge, teacher readiness, and careful tool selection, ensuring that AI complements rather than replaces traditional instructional methods. Future research should explore long-term impacts on language proficiency and classroom engagement.

USED LITERATURE

1. Ayala-Pazmiño, M. F., & Alvarado-Lucas, K. I. (2023). Integrating Artificial Intelligence into English Language Education in Ecuador: A Pathway to Improved Learning Outcomes. 593 Digital Publisher CEIT, 8(3-1), 679-687.
2. British Council. (2023). Artificial intelligence and English language teaching: A systematic literature review (Authors: Dr Helen Crompton, Dr Adam Edmett, Neenaz Ichaporia).
3. British Council. (2024). Artificial intelligence and English language teaching: Preparing for the future (Case studies, insights and research).
4. Lin, X. (2023). Exploring How English Teachers Can Integrate Generative AI into English Language Teaching. Dean & Francis.
5. Macias Llor, M. A., Alcivar Solorzano, D. M., & Vera Moreira, A. K. (2024). Integration of Artificial Intelligence in English Teaching. CID - Centro de Investigación y Desarrollo.

TURLI YOSHDAGILARGA CHET TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI (INGLIZ TILI MISOLIDA)

Tursunova Madinabonu Murodjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya fakulteti ENG-AU-2024 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi chet tilini har bir yosh guruhlariga o'rganuvchilariga o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuvning ahamiyati hamda uning ta'lim tizimida tutgan o'rni va samaradorligi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Til, ingliz tili, faollik, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, dars samaradorligi, interaktiv vositalar, kommunikativ kompetensiya.*

Abstract: This thesis highlights the importance of the communicative approach in teaching foreign languages to learners of different age groups, as well as its role and effectiveness in the education system.

Key words: *Language, English language, activeness, communication culture, critical thinking, lesson effectiveness, interactive tools, communicative competence.*

Аннотация: В данной тезисе освещается значимость коммуникативного подхода в обучении иностранным языкам учащихся различных возрастных групп, а также его роль и эффективность в системе образования.

Ключевые слова: *Язык, английский язык, активность, культура общения, критическое мышление, эффективность урока, интерактивные средства, коммуникативная компетенция.*

Kirish. Bugungi kundagi takomillashgan ta'lim tizimida asosiy e'tibor o'rganuvchi, uning shaxsiyati va o'ziga xos dunyo qarashiga qaratilgan. Bundan tashqari, hozirgi kundagi chet tili o'qitish jarayonida ham asta-sekin an'anaviy usullardan voz kechilib, zamonaviy yondashuvlarga o'tib borilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri kommunikativ yondashuvdir. So'nggi yillarda turli xil ta'lim muassasalarida yangi, samarali o'qitish yondashuvlaridan, shu jumladan, kommunikativ yondashuvdan foydalanish masalasi tobora ko'tarilib bormoqda. Bu nafaqat o'qitish tizimidagi yangicha usul, balki o'qitish jarayonini yanada faolligini ta'minlab beruvchi yondashuvdir. Bu yondashuvni ta'lim berish jarayoniga olib kirishning asosiy maqsadi turli yoshdagi o'rganuvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va yanada rivojlantirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o'qitish va o'rgatish jarayonida kommunikativ yondashuvdan foydalanish usullari hamda internet manbalaridan foydalanildi. Tезis yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar: Turli yoshdagilarga chet tilini o'qitishda o'qituvchining asosiy vazifasi har bir til o'rganuvchiga tilni yetarlicha amaliy o'zlashtirish uchun shart sharoitlar yaratish va bu jarayon mobaynida turli xil samarali usullardan foydalanish hisoblanadi. Bunday samarali usullar har bir o'rganuvchiga o'z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon berishi lozim. Chet tilini o'qitish jarayonida har bir til o'rgatuvchi mutaxassis o'rganuvchining

bilish jarayonini faollashtirish va muloqot(kommunikativ) madaniyatini rivojlantirish yo'lida xizmat qiladigan texnika va yondashuvlardan foydalanishi o'z o'quvchi va talabalariga tilni yanada tez va mukammal o'rganishiga yordam beradi. "Chet tilini o'qitishda asosiy maqsad – o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir."

Har bir yosh guruhlaridagi o'rganuvchilarga chet tilini o'qitish davomida kommunikativ yondashuv jarayoni o'ziga xos xususiyatlarni tashkil qiladi. Chunki kommunikativ yondashuvga asoslangan metodlar o'rganuvchilarning muloqot madaniyati hamda o'z ijodkorliklarini yanada ochib beruvchi asosiy omillardan biridir. Bu yondashuv har bir yosh toifasi uchun moslashuvchan bo'lib, o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llaniladi.. Masalan, kichik yoshdagi o'rganuvchilar(6-11 yosh) tilni o'yin orqali tez o'rganishi va diqqat jamlash davomiyligi qisqa bo'lganligi sababli ularga kommunikativ yondashuvni interaktiv usullar orqali qo'llash lozim. Misol uchun, dars davomida o'qituvchilarga o'quvchilarni qiziqtirishi uchun mashg'ulotni turli xil o'yinlar, qo'shiq va she'rlar hamda oddiy dialoglar va takrorlash kabi texnikalardan foydalish tavsiya etiladi. Ushbu vositalar dars jarayoni samaradorligi va sifatini oshirishi ko'zda tutiladi.

O'rta yoshdagi o'quvchilarga (12-17 yosh) keladigan bo'lsak, ularga chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning baxs-munozara, guruh ishlari va juftlikda suhbat kabi usullari orqali o'rgatish unumli hisoblanadi. Bu usullardan fodalanish ularda mustaqil fikrlash hamda nutqini rivojlantirish kabi aspektlarga yordam beradi. Bu ularga guruh bo'lib yoki alohida tarzda ishlash va darslarni o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Katta yoshdagi o'rganuvchilar (18+ yosh) uchun esa kommunikativ yondashuv ko'proq amaliy maqsadlarga yo'naltiriladi. Chunki ular chet tilini ish faoliyati, sayohat yoki kundalik hayotda qo'llash uchun o'rganadi.Shu bois darslarda real hayotiy suhbatlar, intervyular, ish suhbatlari va yozma muloqot mashqlari hamda muhokama va prezentatsiyalar qo'llanadi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi talabalarning tanqidiy, mantiqiy hamda analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Har bir yosh toifasidagi o'quvchilar har xil yondashuvni talab qiladi va, shubhasiz, intellektual yondashuvlar xilma-xilligi dars jarayonida interaktivlikni qo'llab quvvatlash, kommunikativ salohiyatni shakllantirish, dars samaradorligini oshirish kabi qator xususiyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ yondashuvdan foydalalangan holda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqish va xohishlarini oshirish darsning asosiy maqsadlaridan biridir. "Chet tilini o'qitish jarayoni avvalo muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi zarur."

Xulosa va takliflar: Chet tillarini o'rganish butun dunyo bo'ylab talab bo'lgani uchun uni o'rgatishning ko'plab usullari mavjud. O'qituvchilarning dars jarayoniga passiv yondashuvlar bilan tayyorgarliklari tufayli o'rganuvchilarning nutq madaniyati yetarlicha yaxshilanmadi. Shuning uchun, hozirgi kunda ko'plab zamonaviy o'qituvchilarning dars jarayonini yanada samaraliroq va qiziqarliroq davom ettirish maqsadida turli interaktiv vositalarga asoslangan yondashuvlardan, shu jumladan, kommunikativ yondashuvdan foydalanish holatlari ko'payib

bormoqda. Shunday qilib, turli yoshdagilarga chet tillarini o'qitishning kommunikativ yondashuvi o'qituvchilarga o'zlarining haqiqiy hayotidan tasavvurga ega bo'lgan talabalar uchun qiziqarli suhbat mavzularidan foydalangan holda o'z darslarini mazmunli qurishga, talabalarni jonli tilni o'rganishga, har qanday tilda muloqot qilishga undashga imkon beradi. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, turli yoshdagilarga chet tilini o'qitishning kommunikativ yondashuvi eng samarali usullardan biri deb aytishimiz mumkin va buning o'ziga xos bir necha sabablari mavjud. Masalan, bu orqali o'rganuvchilarning muloqot madaniyati, tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi, darslarni yanada samaraliroq va sifatli o'tishishiga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
2. Saidaliyev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan, 2004.
3. Internet manbalari.

THE ADVANTAGES OF ONLINE EDUCATION

Umarjonova Dilnoza Ilhomjon qizi

Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi

ENG-EU-25 guruh talabasi:

Phone number: +998 88 886 49 02

Email: umarovadilnoza571@gmail.com

Annotation: This article analyzes the role of distance learning in the modern education system and its main advantages over traditional education. It highlights factors such as time saving, absence of geographical restrictions, and adaptation to individual learning pace. The article provides conclusions on the effectiveness of online platforms and the convenience created for students.

Keywords: *distance learning, cost-effectiveness, educational efficiency, distance courses*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida masofaviy o'qitishning tutgan o'rne va uning an'anaviy ta'limdan asosiy afzalliklarini tahlil qiladi. Vaqtni tejash, geografik cheklavlarning yo'qligi va individual o'qish tezligiga moslashish kabi omillarni yoritib o'tgan. Maqola davomida onlayn platformalarning samaradorligi va talabalar uchun yaratilgan qulayliklar bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *masofaviy o'qitish, iqtisodiy tejamkorlik, ta'lim samaradorligi, masofaviy kurslar*

Аннотация. В данной статье анализируется роль дистанционного обучения в современной системе образования и его основные преимущества перед традиционным образованием. Выделяются такие факторы, как экономия времени, отсутствие географических ограничений и адаптация к индивидуальному темпу обучения. В статье приводятся выводы об эффективности онлайн-платформ и удобстве, создаваемом для студентов.

Ключевые слова: *дистанционное обучение, экономическая эффективность, эффективность образования, дистанционные курсы*

Introduction. The 21st century - the era of information technology - has radically changed the education system. The transition from traditional classrooms to digital platforms has become not just a temporary need, but a necessity of the times. While humanity's need for knowledge is growing, time and geographical distances remain the main obstacles to obtaining knowledge. Therefore, along with traditional forms of education, it is becoming increasingly important to study and implement the possibilities of online education. The purpose of this article is to analyze the advantages of online education in modern society, to highlight its role in increasing the efficiency of the educational process, and to identify the specific features of this system.

LITERATURE REVIEW

To understand the nature of education in the digital age, it is appropriate to turn to the theory of connectivism, put forward by George Siemens and Stephen Downs. This theory describes modern education in relation to infinite information networks, unlike traditional approaches. According to connectivism, knowledge is no longer a concept stored only in the memory of an individual, but is the product of connections between various technological nodes, databases and online communities. [2,5] In this approach, the learning process moves from simply absorbing information to the ability to find the necessary sources of information and systematically connect them with each other. As Siemens noted, in the current information age, knowing where and how to find that knowledge is becoming more important than remembering a particular fact. [5] Online education differs from traditional classes precisely in that it develops these search and analysis skills in students. The global transformation observed during the pandemic has been a practical demonstration of the theory of connectivism. Students have moved beyond the confines of a closed classroom and become part of a global network. In this process, technology has emerged as more than just a tool, but as a key factor guiding the flow of vast amounts of knowledge that humans cannot absorb. In this context, online education can be seen not simply as distance learning, but as a process of integrating human intelligence with the capabilities of the digital world.

The development of educational technologies in the last decade has brought the concept of distance learning to the forefront of academic circles. In particular, the extraordinary digital transformation of the global education system during the COVID-19 pandemic has dramatically expanded the scope of research in this area. As many scholars have noted, Hodges, C., Moore, S., Lockee, B., Trust, T., & Bond, A. (2020). "Emergency Remote Teaching" in the context of a pandemic has created a rich empirical base for analyzing the methodological and technical advantages of online education. Effectiveness and cognitive advantages of online education Academic sources often mention the speed of learning and flexibility as advantages of online education over traditional formats. [3] Studies conducted by the Research Institute of America show that online learning increases retention rates from 25% to 60%, compared to only 8-10% in traditional classroom learning. [4] This is due to the fact that students can control their learning process according to their personal needs (self-paced learning).

Optimization of economic and time resources

In the literature, online education is studied not only as a method of imparting knowledge, but also as a resource-saving model. The Open University Clow, D. (2013). According to research, distance courses take an average of 40-60% less time than traditional classes. [1] This is due to the fact that the student is freed from transport and organizational issues and can focus on the content.

Environmental and sustainable development factors

In modern literature, the contribution of online education to environmental sustainability has also been formed as a separate direction. Studies have shown that the distance learning model reduces energy consumption per student by 90% and carbon dioxide (CO₂) emissions by 85% (Britain's Open University). These indicators characterize online education as an important component of the "green economy" and sustainable educational development.

In conclusion, the evolution of online education is not just a technological innovation, but a change in the fundamental approach of society to learning. The COVID-19 pandemic has transformed the global education system into an unexpected "digital laboratory". This period has shown us that traditional classrooms surrounded by walls are not the only place to learn. Firstly, online education has become a tool for the democratization of education. Previously, exclusive knowledge that was only available in the territory of prestigious universities is now reaching the most remote corners of the world via the Internet. Secondly, economic and environmental sustainability. The lower energy consumption and time savings of distance education make it a strategic model that is not only educational, but also in line with the global Sustainable Development Goals (SDGs).

As a final conclusion, it is worth noting that online education does not completely replace traditional education, but rather enriches and transforms it. The future is a hybrid education model that combines technology and the human factor.

Reference

1. Clow, D. (2013). The Open University: Online learning and energy consumption studies. *Open Learning: The Journal of Open, Distance and e-Learning*.
2. Downes, S. (2012). *Connectivism and Connective Knowledge: Essays on meaning and learning networks*. National Research Council Canada.
3. Hodges, C., Moore, S., Lockee, B., Trust, T., & Bond, A. (2020). The difference between emergency remote teaching and online learning. *Educause Review*, 27, 1-12.
4. Research Institute of America. (2013). *The Retention of Learning in Corporate and Higher Education*.
5. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3–

TINGLOVCHILARDA KOGNITIV, REFLEKSIV KO'NIKMALARNI BAHOLASH

Usmanaliyeva Orzigul

*Andijon viloyati pedagogik mahorat
markazi metodisti, tadqiqotchi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin egallayotgan kognitiv, refleksiv va psixomotor sohalarni baholash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ta'lim tizimiga keng joriy etilayotgan formativ baholash yondashuvi doirasida tinglovchining nafaqat bilim darajasi, balki uning hissiy munosabatlari, qadriyatlari hamda amaliy faoliyatdagi ko'nikmalarini uzviy birlikda baholash zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, B. Bloom tomonidan taklif etilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasiga tayangan holda uchta o'rganish sohasining mazmuni, ularning o'zaro bog'liqligi hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari formativ baholash orqali tinglovchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Formativ baholash, taksonomiya, kognitiv soha, refleksiv soha, psixomotor soha, ta'lim natijalari, motivatsiya, boshlang'ich ta'lim.

Scientific novelty:

This research provides practical and experimental evidence on integrating cooperative learning into ESP teaching.

Practical significance:

The results can help teachers design more interactive and effective ESP lessons.

Chapter I. Theoretical Foundations of Teaching English in ESP (Expanded)

1.1. Concept and Characteristics of ESP

English for Specific Purposes (ESP) is a learner-centered approach that focuses on developing language skills based on specific needs. According to Hutchinson and Waters, ESP is defined as an approach rather than a product, meaning that it prioritizes learners' goals over general language instruction.

ESP differs from General English in several ways:

It is **needs-driven**, focusing on learners' goals

It uses **specialized vocabulary and discourse**

It emphasizes **practical communication**

For example, medical students learn terminology related to healthcare, while business students focus on communication in corporate environments.

ESP can be categorized into:

EAP (English for Academic Purposes): Used in universities

EOP (English for Occupational Purposes): Used in workplaces

This distinction highlights the flexibility and adaptability of ESP.

1.2. Challenges of Teaching ESP

Teaching ESP involves several pedagogical and practical challenges:

1. Learner diversity:

Students often have different levels of English proficiency and professional knowledge.

2. Terminology difficulty:

Specialized vocabulary can be complex and difficult to teach effectively.

3. Motivation issues:

Some students may lack interest if lessons are not engaging or relevant.

4. Lack of materials:

In many contexts, suitable ESP materials are limited or outdated.

To address these challenges, teachers must adopt flexible and interactive teaching methods.

1.3. Modern Approaches to Teaching ESP

Modern ESP teaching incorporates several innovative approaches:

Communicative Language Teaching (CLT):

Focuses on real-life communication and interaction.

Task-Based Learning (TBL):

Encourages students to complete meaningful tasks using language.

Student-centered approach:

Gives learners more responsibility for their own learning.

These approaches emphasize active participation, making learning more effective and engaging.

Chapter II. Theoretical Foundations of Cooperative Learning (Expanded)

2.1. Concept and Principles of Cooperative Learning

Cooperative learning is an instructional method where students work in small groups to achieve shared learning goals. It is based on the idea that learning is more effective when students collaborate.

The key principles include:

Positive interdependence: Students rely on each other to succeed

Individual accountability: Each student is responsible for their contribution

Face-to-face interaction: Direct communication enhances learning

Social skills development: Students learn teamwork and communication

Unlike traditional methods, cooperative learning transforms students from passive listeners into active participants.

2.2. Models of Cooperative Learning

Several cooperative learning models are widely used:

Jigsaw method:

Each student learns a part of the material and teaches it to others.

Think–Pair–Share:

Students think individually, discuss with a partner, and share with the class.

Group Investigation:

Students work together to research and present a topic.

STAD (Student Teams Achievement Division):

Students work in teams and are assessed individually.

These models provide structured ways to implement cooperative learning in classrooms.

2.3. Advantages of Cooperative Learning

Cooperative learning offers numerous advantages:

1. Language development:

Students practice speaking, listening, reading, and writing.

2. Social skill improvement:

They learn teamwork, leadership, and communication.

3. Increased motivation:

Group work makes learning more enjoyable.

4. Active participation:

All students are involved in the learning process.

Overall, cooperative learning creates a dynamic and interactive learning environment.

Chapter III. Experimental Study on the Effectiveness of Cooperative Learning (Expanded)

3.1. Research Methodology

The study was conducted using an experimental design.

Participants:

Students from ESP classes were divided into two groups:

Control group (traditional teaching)

Experimental group (cooperative learning)

Research stages:

Pre-test

Implementation of cooperative learning

Post-test

Data analysis

Data collection methods:

Tests

Questionnaires

Classroom observations

3.2. Organization of Experimental Lessons

During the experiment, the following strategies were used:

Students were divided into small groups

Tasks were designed based on real-life situations

Cooperative methods like Jigsaw and Think–Pair–Share were applied

The teacher acted as a facilitator rather than a lecturer, guiding students through the learning process.

3.3. Results and Analysis

The results showed significant improvement in the experimental group:

Higher test scores compared to the control group

Increased participation and interaction

Positive student feedback

Questionnaire results indicated that students preferred cooperative learning because it made lessons more interesting and interactive.

These findings confirm that cooperative learning is more effective than traditional teaching methods in ESP classrooms.

Conclusion (Expanded)

This study demonstrates that cooperative learning is a highly effective approach in teaching English for Specific Purposes. It enhances not only language proficiency but also social and cognitive skills.

Main conclusions:

Cooperative learning improves academic performance

It increases student motivation and engagement

It promotes collaborative and communicative skills

Practical recommendations:

Teachers should integrate cooperative activities regularly

ESP materials should be adapted to real-life contexts

Technology can be used to support collaborative learning

Future research directions:

Integration of digital tools with cooperative learning

Application in different educational contexts

Long-term impact studies

References

1. Hutchinson, T., & Waters, A. *English for Specific Purposes*

2. Richards, J. C. *Communicative Language Teaching Today*
3. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. *Cooperative Learning Methods*
4. Harmer, J. *How to Teach English*
5. Slavin, R. E. *Cooperative Learning Theory*
- 6.

BO'LAJAK YO'L MUHANDISLARINING INGLIZ TILI YORDAMIDA KASBIY MULOQOT (SPEAKING) KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ermatova Yulduzxon Alisher qizi

Namangan davlat texnika universiteti

3- bosqich doktoranti

E-mail: yulduzermatova5929@gmail.com

Tel: +998934775929

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tili orqali kasbiy muloqot ko'nikmalarini, xususan, speaking kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv, kasbiy yo'naltirilgan til o'qitish (ESP) hamda interaktiv metodlarning o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, real kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar orqali talabalar nutq faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy muloqot, speaking ko'nikmasi, yo'l muhandislari, ESP, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, ingliz tili o'qitish

Аннотация: В данной работе рассматриваются методические основы развития навыков профессионального общения будущих дорожных инженеров на английском языке. Особое внимание уделяется развитию устной речи (speaking) на основе коммуникативного подхода, ESP и интерактивных методов обучения. Анализируются эффективные способы формирования речевой компетенции в профессиональной среде.

Ключевые слова: профессиональное общение, навыки говорения, дорожные инженеры, ESP, коммуникативная компетенция, интерактивные методы

Abstract: This thesis explores methodological approaches to developing professional communication skills, particularly speaking competence, among future road engineers through English language instruction. The study emphasizes the role of communicative language teaching, ESP (English for Specific Purposes), and interactive methods. It also highlights the importance of real-life professional scenarios in enhancing students' speaking abilities.

Key words: professional communication, speaking skills, road engineers, ESP, communicative competence, interactive methods.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida muhandislik sohasi, xususan, yo'l qurilishi va transport infratuzilmasi tizimi jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur jarayon esa nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni, balki xalqaro miqyosda samarali muloqot qila olish kompetensiyasini ham talab etadi. Ayniqsa, ingliz tili

bugungi kunda ilm-fan, texnologiya va muhandislik sohalarida asosiy kommunikativ vosita sifatida shakllangan bo'lib, yo'l muhandislari uchun kasbiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bois, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ingliz tilida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, bunda talabalarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy kommunikativ faoliyatga tayyorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, speaking (og'zaki nutq) ko'nikmasi tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkonini beruvchi asosiy komponent hisoblanadi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab texnik yo'nalish talabalari, jumladan, yo'l muhandisligi yo'nalishida tahsil olayotganlar ingliz tilida erkin va mazmunli fikr bildirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat ko'pincha o'qitish jarayonida grammatika va o'qish (reading) ko'nikmalariga ortiqcha urg'u berilib, speaking kompetensiyasining yetarlicha rivojlantirilmasligi bilan izohlanadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ingliz tilini kasbiy yo'naltirilgan holda (ESP – English for Specific Purposes) o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. ESP yondashuvi talabalarni aynan o'z mutaxassisligi doirasida zarur bo'lgan terminologiya, nutq modellari va kommunikativ strategiyalar bilan ta'minlaydi [2]. Shu bilan birga, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning nutqiy faolligini oshirib, ularni real hayotga yaqin vaziyatlarda muloqot qilishga undaydi [1].

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv metodlar, muammoli o'qitish (problem-based learning), rol o'ynash (role-play) hamda loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilgan darslar speaking ko'nikmasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali talabalar nafaqat tilni o'rganadi, balki uni kasbiy vazifalarni bajarishda qo'llashni ham o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tilida kasbiy muloqot (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish va ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida speaking kompetensiyasining tarkibiy komponentlari, uni rivojlantirish usullari hamda kasbiy kontekstda qo'llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mazkur metodikaning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar ham aniqlanadi.

Natijada, ishlab chiqilgan metodik yondashuv bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tilida erkin, aniq va kasbiy jihatdan asoslangan nutq yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashga imkon yaratadi.

ASOSIY QISM

Bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tilida kasbiy muloqot (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirish murakkab va ko'p komponentli pedagogik jarayon bo'lib, u tilshunoslik, metodika va kasbiy tayyorgarlikning integratsiyasini talab etadi. Tadqiqotimizga ko'ra, mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun kommunikativ

yondashuv, ESP (English for Specific Purposes) modeli hamda interaktiv o'qitish texnologiyalarini kompleks qo'llash zarur.

Birinchidan, kommunikativ yondashuv speaking kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til o'rganish jarayoni real kommunikativ ehtiyojlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim va bunda til vositalari emas, balki muloqot natijasi ustuvor ahamiyat kasb etadi [1]. Yo'l muhandislari uchun bu – loyiha muhokamasi, texnik muammolarni hal qilish, jamoaviy qaror qabul qilish kabi vaziyatlarda faol nutqiy ishtirokni anglatadi. Shu bois, dars jarayonida sun'iy grammatik mashqlardan ko'ra, real kasbiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlar ustuvor bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, ESP yondashuvi orqali talabalarning kasbiy yo'naltirilgan nutqiy kompetensiyasi rivojlantiriladi. ESP metodikasida o'quv material talabalar ehtiyojlari va kelajak kasbiy faoliyati asosida tanlanadi [2]. Masalan, yo'l muhandisligi yo'nalishida quyidagi nutqiy vaziyatlar asosiy o'rinni egallaydi:

10. yo'l qurilishi loyihalarini taqdim etish;
11. texnik chizmalar va hujjatlarni tushuntirish;
12. qurilish jarayonidagi muammolarni muhokama qilish;
13. xalqaro hamkorlar bilan muzokaralar olib borish.

Bu jarayonda terminologik lug'atni o'zlashtirish alohida ahamiyatga ega bo'lib, leksik birliklar kontekstual asosda, ya'ni nutq jarayonida qo'llash orqali o'rgatilishi samarali hisoblanadi.

Uchinchidan, speaking ko'nikmasini rivojlantirishda interaktiv metodlar muhim o'rin tutadi. Xususan, role-play, debat, case-study va problem-based learning kabi metodlar talabalarni faol nutqiy faoliyatga jalb etadi. Masalan, role-play jarayonida talabalar "muhandis – buyurtmachi", "loyiha menejeri – quruvchi" kabi rollarni bajarib, real kommunikativ vaziyatlarni modellashtiradi. Bu esa ularning nutqiy ishonchini oshiradi va muloqot strategiyalarini shakllantiradi [3].

Shuningdek, problem-based learning (muammoli o'qitish) texnologiyasi orqali talabalar aniq muammolarni hal qilish jarayonida ingliz tilida fikr yuritishga o'rganadi. Masalan, "yo'l qoplamasining tez buzilish sabablari" yoki "transport oqimini optimallashtirish" kabi muammolar muhokamasi talabalarning analitik fikrlashini va nutqiy faolligini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, speaking kompetensiyasini rivojlantirishda multimodal vositalar (video materiallar, simulyatsiyalar, virtual platformalar)dan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday vositalar orqali talabalar real kasbiy muhitga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda tilni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, qurilish jarayoniga oid videolarni tahlil qilish va ular asosida og'zaki izoh berish talabalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Bundan tashqari, speaking ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida quyidagi metodik bosqichlarni ajratish mumkin:

13. Motivatsion bosqich – talabalarda kasbiy muloqotga ehtiyojni shakllantirish;
14. Model yaratish bosqichi – namunaviy dialog va nutq shakllarini o'rganish;

15. Amaliy mashq bosqichi – o'zlashtirilgan bilimlarni interaktiv topshiriqlar orqali mustahkamlash;

16. Mustaqil nutq bosqichi – talabalarning erkin va ijodiy nutqini rivojlantirish.

Mazkur bosqichlar izchillik asosida amalga oshirilganda speaking kompetensiyasi tizimli ravishda shakllanadi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, ayniqsa, kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar talabalar nutqining aniqligi, ravonligi va mazmunan boyligini oshiradi.

Shu bilan birga, baholash jarayonida ham an'anaviy testlardan ko'ra, kommunikativ baholash mezonlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda talabalar nutqi quyidagi mezonlar asosida baholanadi: mazmunning aniqligi, terminologik to'g'rilik, grammatik kompetensiya, nutq ravonligi va kommunikativ strategiyalarni qo'llash darajasi.

Umuman olganda, bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tilida speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda integrativ, kasbiy yo'naltirilgan va interaktiv yondashuvlar uyg'unligi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tilida kasbiy muloqot (speaking) ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun an'anaviy til o'qitish yondashuvlari yetarli emas, balki kommunikativ, kasbiy yo'naltirilgan (ESP) va interaktiv metodlarning integratsiyasi zarur.

Mazkur ish doirasida aniqlanishicha, speaking kompetensiyasini rivojlantirishda real kasbiy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, rol o'ynash, muammoli o'qitish va guruhli muhokamalar yuqori samaradorlik beradi. Ayniqsa, talabalarning kasbiy faoliyatiga bevosita bog'langan kommunikativ topshiriqlar ularning nutqiy faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ingliz tilida erkin va mazmunli muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, terminologik leksikani kontekst asosida o'rgatish, multimodal vositalardan foydalanish hamda bosqichma-bosqich metodik tizimni joriy etish speaking ko'nikmasining sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa talabalarni nafaqat til bilimiga ega mutaxassis, balki xalqaro professional muhitda samarali faoliyat yurita oladigan raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishga imkon beradi.

Natijada, ishlab chiqilgan metodik yondashuv bo'lajak yo'l muhandislarining ingliz tilida kasbiy muloqot kompetensiyasini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali talabalar xalqaro loyihalarda faol ishtirok eta oladigan, texnik axborotni aniq va ravon ifoda etadigan hamda samarali kommunikatsiya olib boradigan mutaxassislar sifatida tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – pp. 153–160.

2. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – pp. 19–25.

3. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007. – pp. 123–130.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – pp. 45–50.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – pp. 241–250.
6. Thornbury S. How to Teach Speaking. – London: Longman, 2005. – pp. 9–20.

YANGILIKLAR MATERIALLARI ASOSIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Abduraxmonova Marjona

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Hasanova Nafosat

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda yangiliklar materiallaridan (xabarlar, intervyular, reportajlar, tahliliy ko'rsatuvlar) foydalanishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada OAV matnlarining og'zaki nutqni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, ular bilan ishlash bosqichlari, nutqiy vaziyatlar yaratishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar va tajribalar asosida o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, yangiliklar materiallari, OAV matnlari, monologik nutq, dialogik nutq, kommunikativ kompetensiya, umumta'lim maktabi.

Kirish

Zamonaviy til ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini, xususan, og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Og'zaki nutq – bu insonning fikrlarini og'zaki shaklda ifoda etish, suhbat olib borish, o'z nuqtai nazarini asoslash, tinglovchini ishontirish qobiliyatidir. Umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning monologik va dialogik nutqini rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) materiallariga murojaat qilish keng tarqalmoqda. Yangiliklar materiallari – teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, internet nashrlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar – real hayotdagi tilni, zamonaviy nutqiy vaziyatlarni, turli uslub va janrlarni o'zida aks ettiradi. Ushbu maqolada aynan shu masala yuzasidan mavjud ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Og'zaki nutq ko'nikmalari tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Pedagogik va psixolingvistik adabiyotlarda og'zaki nutq ko'nikmalari odatda quyidagi komponentlar orqali tavsiflanadi:

fonetik komponent – tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, intonatsiya, urg'u, ritm;

leksik komponent – so'z boyligi, so'zlarni vaziyatga mos qo'llay olish;

grammatik komponent – og'zaki nutqda grammatik tuzilmalarni to'g'ri qo'llash;

dialogik nutq ko'nikmasi – suhbat boshlash, davom ettirish, savol berish, javob qaytarish, suhbatdosh fikrini tinglash va unga munosabat bildirish;

monologik nutq ko'nikmasi – biror mavzu yuzasidan izchil, mantiqli va ifodali gapira olish;

pragmatik komponent – nutqiy vaziyatni, suhbatdoshning ijtimoiy rolini, muloqot maqsadini hisobga olib gapira olish.

Maktab amaliyotida og'zaki nutqni rivojlantirish ko'pincha darslikdagi matnlarni o'qish, savollarga javob berish, mavzu yuzasidan suhbatlashish bilan chegaralanib qolmoqda. Bu esa o'quvchilarda real hayotiy vaziyatlarga moslashgan, tabiiy va erkin muloqot qilish ko'nikmasining sust shakllanishiga olib keladi.

Yangiliklar materiallari – og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida

Yangiliklar materiallari (ingl. news materials, rus. новостные материалы) – bu kundalik hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan OAV mahsulotlari. Ularning til o'qitishdagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

Aktuallik – yangiliklar o'quvchilarning yashab turgan davri, jamiyati, dunyosi bilan bog'liq bo'lib, ularning qiziqishini oshiradi va motivatsiyani kuchaytiradi.

Janr xilma-xilligi – yangiliklar materiallari xabar, reportaj, intervyu, sharh, tahliliy maqola, tok-shou, debat kabi turli janrlarda bo'lib, har bir janr o'ziga xos nutqiy xususiyatlarga ega.

Tilning zamonaviyligi – OAV matnlarida tilning jonli, real holati, neologizmlar, qisqartmalar, frazeologizmlar, publitsistik uslubning ifoda vositalari aks etadi.

Kommunikativ vaziyatlarning boyligi – yangiliklar asosida turli rolli o'yinlar, munozaralar, intervyular, press-konferensiyalar tashkil etish imkoniyati mavjud.

Audial va vizual qo'llab-quvvatlash – teleko'rsatuvlar, videoroliklar, podkastlar o'quvchilarning eshitib tushunish va ko'rib tushunish ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi.

Turdiyev (2021) ta'kidlaganidek, OAV materiallari o'quvchilarni real hayotdagi til bilan tanishtirish, ularning nutqiy faolligini oshirish va mavzular doirasini kengaytirishda darslik matnlariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchidan, umumiy metodik tadqiqotlar (Q.Yo'ldoshev, N.Mahmudov, M.Sobirova) og'zaki nutqni rivojlantirishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqqan. Ularning fikricha, og'zaki nutqni rivojlantirish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi kerak: nutqiy vaziyatni yaratish, nutq materialini tanlash, nutqiy mashqlar tizimi, erkin nutqiy faoliyat.

Ikkinchidan, OAV materiallarini til o'qitishda qo'llash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar (G.Nigmatova, Sh.Saidova, A.Karimov) yangiliklar matnlarining

lingvodidaktik imkoniyatlarini yoritgan. Ular OAV matnlarini tanlash mezonlari, ular bilan ishlash bosqichlari, mashqlar tizimini ishlab chiqqan.

Uchinchidan, amaliy tajribalarni umumlashtiruvchi tadqiqotlarda (M.Xasanova, D.Rahmatullayeva) yangiliklar materiallari asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari keltirilgan. Ushbu tadqiqotlarda tajriba guruhlarida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'rsatkichlari (ayniqsa, monologik nutqning izchilligi, dialogik nutqda faollik, nutqiy vaziyatga moslashish ko'nikmalari) nazorat guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Yangiliklar materiallari asosida og'zaki nutqni rivojlantirish metodikasi

Adabiyotlar tahlili va maktab amaliyoti asosida quyidagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin:

Material tanlash mezonlari:

o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va til tayyorgarligi darajasiga mosligi;
materialning mazmunan tarbiyaviy va axloqiy qiymati;
materialda turli nutqiy modellarning namoyish etilishi;
material hajmining bir yoki ikki darsda o'tish imkoniyati;
audio/video materiallarning texnik sifati.

Ish bosqichlari:

1. Matn oldi bosqichi:

mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilim va tajribalarini faollashtirish (assotsiatsiyalar, bashoratlar);

asosiy lug'at va atamalar bilan tanishish;

materialni ko'rish/eshitish oldidan savollar berish, maqsadni belgilash.

2. Material ustida ishlash bosqichi:

yangilik materialini segmentlarga bo'lib ko'rish/eshitish;

mazmunni tushunish yuzasidan savollar;

materialdagi asosiy ma'lumotlarni ajratib olish (kim? nima? qayerda? qachon? nima uchun?);

materialdagi nutqiy modellarni (savol-javob, argumentatsiya, tavsif) tahlil qilish;

materialda qo'llangan ekspressiv vositalarni aniqlash.

3. Matndan keyingi bosqich:

ko'rilgan/eshitilgan material mazmunini qayta hikoyalash (monologik nutq);

material asosida rolli o'yinlar (jurnalist va suhbatdosh, mutaxassis va tomoshabin);

munozara, debat, davra suhbatini tashkil etish;

o'quvchilarning o'z yangilik materialini tayyorlashlari (sinf gazetasi, video reportaj, podkast);

material yuzasidan intervyu olish va berish mashqlari.

Tajriba-sinov ishlari natijalarining qisqacha tahlili

Ayrim maktablarda (To'raqo'rg'on tumanidagi 7-, 13-, 16-umumta'lim maktablari, Namangan shahridagi 38-umumta'lim maktabi) o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, yangiliklar materiallari asosida tashkil etilgan tajriba guruhlarida o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalari darajasi nazorat guruhlariga qaraganda o'rtacha 25-30 foizga yuqori bo'lgan. Ayniqsa, o'quvchilarning monologik nutqining mantiqiyliigi va izchilligi, dialogik nutqda faolliigi, nutqiy vaziyatga mos ravishda til vositalarini tanlay olish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan.

Xulosa va tavsiyalar

Yangiliklar materiallari asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarining og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish – bu nafaqat nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, balki o'quvchilarni zamonaviy axborot muhitida faol va tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiluvchi samarali yo'ldir. Mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Og'zaki nutqni rivojlantirishda yangiliklar materiallaridan foydalanish an'anaviy darslik matnlari bilan ishlashga nisbatan yuqori samaradorlikka ega.

Yangiliklar materiallari bilan ishlash maxsus metodik tizim (bosqichma-bosqich ishlash, material tanlash mezonlari, interfaol mashqlar tizimi) asosida tashkil etilishi lozim.

Ushbu metodika o'quvchilarning kognitiv faolligini, tanqidiy tafakkurini, nutqiy ijodkorligini va tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Amaliyotchi o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalar beriladi:

dars rejalarida yangiliklar materiallarini tizimli ravishda (har chorakda kamida 3-4 marta) qo'llash;

turli janrdagi yangiliklar materiallaridan (xabar, intervyu, reportaj, tahliliy ko'rsatuv) teng foydalanish;

o'quvchilarning yosh va qiziqishlariga mos, mahalliy va xalqaro yangiliklar manbalaridan foydalanish;

og'zaki nutqni baholashda fonetik, leksik, grammatik jihatlar bilan birga kommunikativ samaradorlikni ham mezon sifatida belgilash;

o'quvchilarni o'zlarining yangilik materiallarini tayyorlashga (sinf radiosi, videojurnalistika) undash.

Kelgusida ushbu mavzu bo'yicha turli sinflar (5-9-sinflar) va turli fanlar (ona tili, adabiyot, xorijiy til) misolida qiyosiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, sun'iy intellekt vositalari (yangiliklarni avtomatik soddalashtirish, transkripsiya) bilan integratsiyalashgan metodikani ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. Og'zaki nutq o'stirish metodikasi. – T.: Fan, 2018.
2. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. – T.: O'qituvchi, 2019.
3. Nigmatova G. OAV materiallaridan til o'qitishda foydalanish. // Til va adabiyot ta'limi, 2020, №2. – B. 35-38.
4. Saidova Sh. Yangiliklar matnlari asosida talabalar nutqini rivojlantirish. – T.: Fan va texnologiya, 2021.
5. Turdiyev B. Ommaviy axborot vositalari tilining lingvodidaktik imkoniyatlari. // Xalq ta'limi, 2021, №4. – B. 52-56.
6. Xasanova M. OAV materiallari asosida o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish tajribasidan. // Pedagogik mahorat, 2022, №3. – B. 41-44.
7. Rahmatullayeva D. Yangiliklar janrlari asosida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish. – T.: Innovatsiya, 2023.

JADID MA'RIFATPARVARLARI TA'LIMIY QARASHLARI ASOSIDA TALABALARDA MILLIY IDENTITETNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o'g'li
Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy-pedagogik qarashlari asosida zamonaviy oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy identitetni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, mezonlari, darajalari, hozirgi holati va pedagogik modeli yaxlit tizim sifatida tadqiq etilgan. Tadqiqotda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ismoilbek Gaspirali, Cho'lpon kabi jadid namoyandalarining pedagogik merosi tahlil qilingan. Talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulq-atvor komponentlaridan iborat strukturasi asoslangan hamda u uch darajada (boshlang'ich, o'rta, yuqori) baholash imkoniyati ko'rsatilgan. Maqolada hozirgi globallashuv sharoitida talabalarda milliy identitetni shakllantirishning amaliy modeli va uning tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, milliy identitet, talaba, pedagogik model, usuli jadid, milliy g'oya, tarbiya, oliy ta'lim, ma'naviy meros, milliy o'zlikni anglash.

Аннотация: В статье на основе целостной системы исследуются научно-теоретические основы, критерии, уровни, современное состояние и педагогическая модель развития национальной идентичности у студентов высших учебных заведений на основе образовательно-педагогических взглядов джадидских просветителей. Проанализировано педагогическое наследие таких представителей джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди, Мунаввар кори Абдурашидханов, Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат, Исмаилбек Гаспринский, Чулпан. Обоснована структура развития национальной идентичности студентов, состоящая из когнитивного, эмоционально-ценностного и поведенческого компонентов.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, национальная идентичность, студент, педагогическая модель, новый метод, национальная идея, воспитание, высшее образование, духовное наследие.

Abstract: This article presents a comprehensive study of the scientific and theoretical foundations, criteria, levels, current state, and pedagogical model of developing national identity among university students, based on the educational and pedagogical views of Jadid enlighteners. The pedagogical legacy of such Jadid figures as Mahmudkhodja Behbudi, Munavvar qori Abdurashidkhonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ismail Gasprinski, and Cholpon has been analyzed. The structure of national identity development, consisting of cognitive, emotional-value, and behavioral components, is justified, along with a three-level assessment framework (initial, intermediate, advanced). The practical model and educational significance of developing national identity in students under modern globalization conditions are revealed.

Keywords: jadidism, enlightenment, national identity, student, pedagogical model, new method (usuli jadid), national idea, education, higher education, spiritual heritage.

KIRISH

Hozirgi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo ta'sirning kuchayishi sharoitida yosh avlodda milliy identitetni shakllantirish va rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "2019–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi", shuningdek, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi" hujjatlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy o'zligini anglashi va vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Bu vazifani amalga oshirishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan jadidchilik harakati va uning yorqin namoyandalarining pedagogik-ma'rifiy merosi nihoyatda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Jadid ma'rifatparvarlari o'z davrida xalqning ma'naviy uyg'onishi, milliy o'zligini anglashi, jaholat va qoloqlikdan qutulishi uchun ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilishga, milliy maktab va matbuotni rivojlantirishga, milliy adabiyot, til va madaniyatni tiklashga harakat qildilar. Bugungi kunda ularning g'oyaviy-pedagogik merosi talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asosi sifatida xizmat qila oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – jadid ma'rifatparvarlari ta'limiy qarashlari asosida talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish, uning mezonlari, darajalari, hozirgi holati va tarbiyaviy ahamiyatini yaxlit tizimda ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot mavzusi bo'yicha bir qator yo'nalishlardagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Jadidchilik harakati va uning ma'rifiy faoliyati B. Qosimov, S. Ahmedov, N. Karimov, H. Boltaboyev, D. Alimova, R. Shamsutdinov kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. Milliy identitet muammosi falsafiy-psixologik nuqtai nazardan E. Erikson, J. Marsia, H. Tajfel, J. Berry kabi xorijiy olimlarning, milliy g'oya va ma'naviyat tushunchasi esa I. Karimov, A. Erkayev, Q. Nazarov, S. Otamurodov kabi mahalliy mualliflarning asarlarida tahlil qilingan. Talabalarda vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglashni shakllantirish masalalari M. Quronov, O. Musurmonova, R. Mavlonova, U. Mahkamov, O. Hasanboyeva tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: nazariy adabiyotlarni qiyosiy-tarixiy tahlil qilish, jadidlarning asl asarlarini germeneytik talqin etish, pedagogik kuzatish, anketa va so'rovnoma, suhbat, eksperiment va matematik-statistik tahlil. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekistonning bir necha oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida o'tkazilgan so'rov natijalari tashkil etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy-pedagogik qarashlari

Jadidchilik – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro va Xorazmda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy-madaniy harakat bo'lib, uning markazida xalqni jaholat va qoloqlikdan ozod qilish, milliy uyg'onish va taraqqiyotga erishish g'oyasi turgan. Harakatning g'oyaviy ilhomchisi qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoilbek Gaspirali bo'lib, uning "Dilda, fikrda, ishda birlik" shiori va "usuli jadid" (yangi usul) ta'lim tizimi butun turkiy xalqlar uchun yo'l-yo'riq vazifasini bajardi.

Turkiston jadidchiligining yetakchi namoyandalari – Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919), Munavvar qori Abdurashidxonov (1878–1931), Abdulla Avloniy (1878–1934), Abdurauf Fitrat (1886–1938), Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon, 1897–1938), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929), Sadriddin Ayniy (1878–1954) va boshqalarning ta'limiy qarashlari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lgan:

Birinchidan, ta'lim mazmunini tubdan yangilash. Jadidlar an'anaviy maktab va madrasalarning qotib qolgan, faqat yodlashga asoslangan usulini tanqid qilib, ularda dunyoviy fanlar – tarix, geografiya, matematika, tabiiy fanlar, ona tili va adabiyot, chet tillarini o'qitishni taklif etishgan.

Ikkinchidan, usuli jadid – yangi ta'lim metodikasi. Bu usul bolalarni harf-tovush metodi orqali tez va ongli o'qitishga, darslarni tushuntirib o'rgatishga, ko'rgazmali qurollar va didaktik vositalardan foydalanishga asoslangan edi.

Uchinchidan, ona tilining o'rni. Munavvar qori "Adibi avval", "Adibi soniy" darsliklarini, Behbudiy "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy", "Kitobat ul-atfol" asarlarini yaratib, ta'limning ona tilida olib borilishi milliy o'zlikni saqlashning eng muhim sharti ekanligini asoslab berdilar.

To'rtinchidan, milliy axloq va tarbiya. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asari milliy pedagogikaning durdona namunalaridan biri sanaladi. Unda muallif: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" – deb yozadi va bu fikr bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Beshinchidan, milliy tarix va o'zlikni anglash. Fitratning "Hind sayyohi bayonoti", "Munozara", Behbudiyning "Padarkush" dramasi yoshlarni jaholatdan qutqarish, milliy o'zlikni anglashga undash maqsadida yozilgan.

Oltinchidan, matbuot, teatr va adabiyotning tarbiyaviy roli. "Tarjimon", "Sadoi Turkiston", "Oyna", "Hurriyat" gazeta-jurnallari, milliy teatr va dramaturgiya ommaviy ta'lim-tarbiya vositasiga aylantirildi.

Yettinchidan, qiz bolalar ta'limi va ayollar huquqi. Jadidlar ayollarni o'qitish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishni milliy taraqqiyotning zaruriy sharti deb bildilar.

Demak, jadidlarning ta'limiy qarashlari ma'rifat, milliy ong, axloq, vatanparvarlik va taraqqiyot g'oyalarining uzviy birligiga asoslangan yaxlit pedagogik tizimni tashkil etadi va u bugungi kunda talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning manbai bo'la oladi.

2. Milliy identitetni rivojlantirish mezonlari va darajalari

Milliy identitet – shaxsning o'zini muayyan millat vakili sifatida anglashi, mazkur millatning tili, tarixi, madaniyati, qadriyatlari, an'analari va istiqboli bilan o'zini bog'liq deb his etishi va shu asosda xulq-atvor namunalarini namoyon etishidir. Jadid ma'rifatparvarlari qarashlari asosida talabalarda milliy identitetni

rivojlantirishning tarkibiy tuzilishi quyidagi uch komponentdan iborat ekanligi asoslangan:

1-jadval. Talabalarda milliy identitetni rivojlantirish komponentlari va mezonlari

Komponent	Mezonlar	Ko'rsatkichlar
Kognitiv (bilim)	Milliy tarix, til, madaniyat, jadidchilik merosi haqidagi bilimlar	Milliy qadriyatlarni bilish, jadidlar g'oyalarini tushunish, milliy adabiyot va tarixdan xabardorlik
Emotsional-qadriyatli (munosabat)	Milliy g'ururni his etish, ma'naviy merosga sodiqlik	Vatanga muhabbat, milliy ramzlarga hurmat, milliy madaniyatga qiziqish
Xulq-atvor (faollik)	Milliy g'oyani namoyon etish	Ona tilini saqlash, milliy an'analarni davom ettirish, ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatda ishtirok

Mazkur komponentlarning rivojlanish darajasini baholashda quyidagi uch daraja tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

Boshlang'ich (past) daraja – talabada milliy qadriyatlar haqidagi bilim parcha-parcha, milliy o'zlikka munosabat befarq, milliy xulq-atvor amaliyotda kam namoyon bo'ladi.

O'rta (yetarli) daraja – talaba milliy tarix, til, madaniyat haqida ma'lum bilimga ega, milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatda, lekin faolligi vaziyatga qarab o'zgaruvchan.

Yuqori (ijodiy) daraja – talabada milliy o'zlikni anglash chuqur, jadidlar pedagogik merosini ijodiy o'zlashtirgan, milliy g'oyani targ'ib etadi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda faol ishtirok etadi.

3. Talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning hozirgi holati

Tadqiqot doirasida bir necha oliy ta'lim muassasasi talabalari (300 nafar) ishtirokida o'tkazilgan anketa va so'rovnomalar talabalarda milliy identitetning hozirgi holati to'g'risida quyidagi manzarani ko'rsatdi:

- respondentlarning 32,5%da milliy identitet **yuqori darajada** (jadidlar merosini biladi, milliy g'oyani targ'ib etadi, vatanparvarlik faolligi yuqori);
- 49,3% talabada **o'rta darajada** shakllangan (asosiy bilimga ega, ammo amaliy faollik yetarli emas);
- 18,2% talabada esa **boshlang'ich darajada** (milliy qadriyatlar, jadidchilik merosi haqida tasavvurlari yuzaki, ommaviy madaniyat ta'siri kuchli).

So'rov natijalari talabalarda milliy identitet shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi quyidagi omillarni ham aniqladi: globallashtiruvchi va ommaviy madaniyatning bostiruvchi ta'siri (68%), ijtimoiy tarmoqlardagi g'oyaviy bo'shliq (54%), milliy tarix va jadidchilik merosini chuqur o'rganishga oid o'quv kurslarining yetarli

emasligi (47%), oilada milliy tarbiya an'alarining zaiflashuvi (39%), milliy adabiyot va san'atga qiziqishning susayishi (35%).

Bu raqamlar talabalarda milliy identitetni rivojlantirishga qaratilgan yaxlit, ilmiy asoslangan pedagogik tizimga, ayniqsa, jadid ma'rifatparvarlari g'oyaviy-pedagogik merosini hozirgi ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishga shoshilinch zarurat borligini ko'rsatadi.

4. Jadid g'oyalari asosida milliy identitetni rivojlantirish modeli

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar asosida talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning yaxlit pedagogik modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi tarkibiy bloklardan iborat:

Maqsadli blok: talabalarda jadid ma'rifatparvarlari ta'limiy qarashlari asosida milliy identitetni rivojlantirish va uni yuqori darajaga ko'tarish.

Metodologik blok: milliylik, tarixiylik, vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'rifiylik, uzviylik, faollik, individual yondashuv tamoyillari; aksiologik, madaniy-tarixiy, kompetentlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar.

Mazmuniy blok: jadid ma'rifatparvarlari hayoti va ijodi, ularning "usuli jadid" pedagogikasi, milliy g'oya va ma'naviyat, o'zbek xalqi tarixi va madaniyati, milliy adabiyot, ona tilining qadr-qimmat, milliy axloq va vatanparvarlik mavzulari bo'yicha integrativ o'quv materiallari.

Texnologik blok: interfaol metodlar (muhoqama, munozara, keys-stadi, loyiha metodi, davra suhbat), an'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllari (ma'ruza, seminar, ilmiy to'garak, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ekskursiyalar, milliy bayramlar, jadidshunoslik kechalari, teatr va san'at studiyalari, raqamli ta'lim platformalari).

Diagnostik blok: milliy identitetning kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulq-atvor komponentlari bo'yicha mezonlar va darajalarni baholash mexanizmi (test, anketa, suhbat, kuzatish, portfoliyo).

Natijaviy blok: talabada jadidlar pedagogik merosi asosida shakllangan, mustahkam milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ma'naviy yetuklik va ijtimoiy faollik bilan tavsiflanuvchi milliy identitetning yuqori darajasiga erishish.

Modelning samarali ishlashi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi: jadidshunoslikka oid maxsus kurs va modullarning o'quv jarayoniga kiritilishi; professor-o'qituvchilarning jadid pedagogik merosini bilish darajasini oshirish; auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarning uzviy bog'lanishi; oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligi; raqamli ta'lim resurslari (e-kutubxonalar, jadidlar asarlarining elektron versiyalari, multimediya darsliklari) bilan ta'minlash.

5. Modelning tarbiyaviy ahamiyati

Jadid ma'rifatparvarlari ta'limiy qarashlari asosida ishlab chiqilgan milliy identitetni rivojlantirish modelining tarbiyaviy ahamiyati ko'p qirralidir va u quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ma'naviy-axloqiy tarbiya. Jadidlarning "ilm va axloq birga bo'lmasa, kishini saodatga eltmaydi" (A. Avloniy) degan g'oyasi talabada halollik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Ikkinchidan, vatanparvarlik tarbiyasi. Behbudiyning "Vatanni bilmagan, sevmagan kishi insonmi?" degan da'vati, Fitratning ozodlik va mustaqillik g'oyalari talabada Vatanga sadoqat tuyg'usini chuqurlashtiradi.

Uchinchidan, intellektual-ma'rifiy tarbiya. Jadidlarning ilm-fan, taraqqiyot, dunyoviy bilimlarga intilish ruhi talabada o'qish, izlanish, hayot davomida o'rganish madaniyatini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, estetik va madaniy tarbiya. Cho'lpon she'riyati, Hamza dramalari, Behbudiy va Avloniyning matbuot maqolalari talabada milliy adabiyot va san'atga muhabbat, badiiy didni shakllantiradi.

Beshinchidan, fuqarolik va ijtimoiy faollik tarbiyasi. Jadidlar yoshlarni ijtimoiy hayotda faol qatnashishga, xayriya va ma'rifiy tashabbuslarga undagani singari, hozirgi model ham talabada ijtimoiy javobgarlik va liderlik sifatlarini rivojlantiradi.

Oltinchidan, interkultural muloqot madaniyati. Jadidlarning "usuli savob" (haqiqat usuli) g'oyasi, boshqa madaniyatlarning ilg'or yutuqlarini o'zlashtirib, milliylikni saqlab qolish tamoyili talabada zamonaviy globallashuv sharoitida o'z milliy o'zligini yo'qotmagan holda umumbashariy qadriyatlarga sherikchilik qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Demak, model nafaqat talabada bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki uni butun shaxs sifatida – milliy o'zligini chuqur anglagan, vatanparvar, ma'nan yetuk, ijtimoiy faol va dunyoga ochiq fuqaro sifatida tarbiyalaydi. Bu esa, o'z navbatida, davlat va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi inson kapitalini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy-pedagogik qarashlari (Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Gaspirali) yaxlit milliy pedagogik tizimni tashkil etib, unda ma'rifat, ona tili, milliy axloq, vatanparvarlik, ilm-fan va taraqqiyot g'oyalari uyg'un bog'langan. Bu meros bugungi kunda talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning g'oyaviy-nazariy asosi bo'la oladi.

2. Talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning tarkibiy strukturasi kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulq-atvor komponentlaridan iborat bo'lib, ularning shakllanish darajasi boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalar bo'yicha aniq mezonlar asosida baholanadi.

3. Empirik tadqiqotlar natijalari talabalarining katta qismida (taxminan 67,5%) milliy identitet o'rta yoki past darajada shakllanganini ko'rsatdi, bu esa maxsus pedagogik aralashuvga ehtiyoj borligini tasdiqlaydi.

4. Ishlab chiqilgan pedagogik model maqsadli, metodologik, mazmuniy, texnologik, diagnostik va natijaviy bloklardan iborat bo'lib, jadidlar merosini zamonaviy oliy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

5. Modelning tarbiyaviy ahamiyati talabada ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, intellektual, estetik va fuqarolik fazilatlarini kompleks tarzda shakllantirishi bilan belgilanadi. U yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, mustahkam qadriyatlar tizimi va dunyoga ochiq dunyoqarashni uyg'un birlikda kamol toptirishga imkon beradi.

Kelgusi tadqiqotlarda jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini turli yo'nalishdagi mutaxassislik fanlari mazmuniga integratsiya qilishning xususiyatlari, raqamli ta'lim muhitida bu meroslardan foydalanishning innovatsion shakl va

metodlari hamda model samaradorligini uzoq muddatli kuzatishlar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2022. – 416 b.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 224 b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. I jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 256 b.
5. Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 304 b.
6. Cho'lpon. Asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.
8. Alimova D.A. Jadidchilik harakati va Markaziy Osiyo tarixshunosligi. – Toshkent: Akademiya, 2017. – 320 b.
9. Karimov N.F. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 480 b.
10. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 192 b.
11. Quronov M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: "Tafakkur", 2007. – 416 b.
12. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 1993.
13. Mahkamov U. Axloq va ta'lim. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 192 b.
14. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968. – 336 p.
15. Tajfel H., Turner J.C. The Social Identity Theory of Intergroup Behavior // Psychology of Intergroup Relations. – Chicago: Nelson-Hall, 1986. – P. 7–24.
16. Berry J.W. Acculturation: Living successfully in two cultures // International Journal of Intercultural Relations. – 2005. – Vol. 29. – P. 697–712.

MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILAR ELITASINING ROLI

Sodiqov Abduhalil Abduqahhor o'g'li

*Mustaqil tadqiqotchi, Namangan davlat pedagogika instituti
O'qituvchi-stajyor, "Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrası,
Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
+998 99 973 17 39; E-mail: sodiqovabduhalil1993@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot globallashuv va o'sib borayotgan axborot tahdidlari sharoitida jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ziyolilar elitesining muhim rolini o'rganadi. Ziyolilar bilan sifatli intervyular va miqdoriy so'rovnoma ma'lumotlarini birlashtirgan aralash usullar yondashuvidan foydalangan holda, tadqiqot ziyolilarning tanqidiy fikrlashni shakllantirish, qadriyatlarni saqlash va buzg'unchi mafkuralarga

qarshilik ko'rsatishga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ziyolilar global g'oyalar va mahalliy madaniy kontekstlar o'rtasida muhim vositachilar sifatida xizmat qiladi, ularning samaradorligi ishonchliligi, kommunikatsiya strategiyalari va ta'lim muassasalari bilan integratsiyasiga bog'liq. Tadqiqot faol ishtirok etuvchi ziyolilarga ega bo'lgan jamiyatlar ancha yuqori darajadagi mafkuraviy barqarorlikni namoyish etishini isbotlaydi.

Kalit so'zlar: ziyolilar elitasi, mafkuraviy immunitet, tanqidiy fikrlash, madaniy qadriyatlar, axborot xavfsizligi, globallashuv, mafkuraviy barqarorlik

АННОТАЦИЯ

Данное исследование рассматривает ключевую роль интеллектуальной элиты в формировании идеологического иммунитета в обществе, особенно в контексте глобализации и растущих информационных угроз. Используя комбинированный методологический подход, включающий качественные интервью с представителями интеллектуальной элиты и количественные данные опросов, исследование изучает, как интеллектуалы влияют на формирование критического мышления, сохранение ценностей и сопротивление деструктивным идеологиям. Результаты показывают, что интеллектуалы выступают важными посредниками между глобальными идеями и местным культурным контекстом, при этом их эффективность зависит от авторитета, стратегий коммуникации и интеграции с образовательными учреждениями. Исследование демонстрирует, что общества с активно вовлечённой интеллектуальной элитой проявляют значительно более высокие уровни идеологической устойчивости по сравнению с теми, где интеллектуалы остаются изолированными от общественного дискурса.

Ключевые слова: интеллектуальная элита, идеологический иммунитет, критическое мышление, культурные ценности, информационная безопасность, глобализация, идеологическая устойчивость

ABSTRACT

This research examines the crucial role of the intellectual elite in shaping ideological immunity within society, particularly in the context of globalization and increasing information threats. Using a mixed-methods approach combining qualitative interviews with intellectuals and quantitative survey data, the study explores how intellectuals influence the formation of critical thinking, values preservation, and resistance to destructive ideologies. The findings reveal that intellectuals serve as essential mediators between global ideas and local cultural contexts, with their effectiveness depending on their credibility, communication strategies, and integration with educational institutions. The research demonstrates that societies with actively engaged intellectual elites demonstrate significantly higher levels of ideological resilience compared to those where intellectuals remain isolated from public discourse.

Keywords: intellectual elite, ideological immunity, critical thinking, cultural values, information security, globalization, ideological resilience

KIRISH

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish axborot oqimlari intensiv ravishda kuchayib, an'anaviy hokimiyat tuzilmalari zaiflashib, raqobatchi mafkuraviy

narrativlar ko'payib borayotgan zamonaviy jamiyatlar oldidagi eng muhim muammolardan birini ifodalaydi [1]. Ushbu murakkab vaziyatda ziyolilar elitasi — akademiklar, madaniyat arboblari, yozuvchilar, jurnalistlar va fikr yetakchilari — jamiyatning qadriyatlar va e'tiqod tizimlari me'morlari sifatida noyob ta'sir o'rnini egallaydi [2].

"Mafkuraviy immunitet" tushunchasi jamiyatning tashqi ta'sirlar va potensial zararli mafkuraviy konstruktsiyalar bilan tanqidiy munosabatda bo'lgan holda o'zining asosiy qadriyatlari, identiteti va barqarorligini saqlash qobiliyatini anglatadi [3]. Bu faqat o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish emas, balki yangi g'oyalarni o'ylab baholash va foydali elementlarni qabul qilgan holda zararli ta'sirlarni rad etish demakdir [4]. Karimov ta'kidlaganidek, "Odamlar, ayniqsa yoshlarning qalbi va aqlini zabt etish uchun kurash zamonaviy dunyoda to'xtamasdan davom etmoqda" [7].

Tadqiqot quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: ziyolilarning jamiyat qadriyatlar tizimi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ta'sir ko'rsatishning asosiy mexanizmlarini aniqlash; ziyolilarning mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi samaradorligini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi omillarni tahlil qilish; buzg'unchi mafkuralarga qarshi jamiyatning chidamliligini rivojlantirishda ziyolilar elitasining roliga oid integratsiyalashgan nazariy tizimni yaratish [5, 6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ketma-ket tushuntiruvchi aralash metodlar dizayni qo'llandi [8], u mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ziyolilar elitasining rolini o'rganish uchun miqdoriy va sifatiy yondashuvlarni o'z ichiga oldi. Tadqiqot 2023-yil sentabridan 2024-yil fevralgacha amalga oshirildi; turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kontekstlarni ifodalovchi beshta viloyatdan ma'lumotlar to'plandi.

Miqdoriy komponent: so'rovnoma 5 balllik Likert shkalasi, semantik differensial o'lchovlar va to'rt o'lchamga bo'lingan ko'p tanlovli savollardan iborat 42 ta bandni o'z ichiga oldi: ziyolilar elitasi ta'sirini idrok etish (11 ta band, $\alpha=0.87$); mafkuraviy axborot manbalari va ishonch (9 ta band, $\alpha=0.82$); tanqidiy fikrlash ko'nikmalari (12 ta band, $\alpha=0.85$); destruktiv mafkuraviy narrativlarga qarshilik (10 ta band, $\alpha=0.89$). Ishtirokchilar ($n=386$) stratifikatsiyalangan tasodifiy tanlov yordamida tanlandi.

Sifatiy komponent: 42 nafar ziyoli vakili bilan yarim tuzilgan chuqur intervyular o'tkazildi. Intervyular o'rtacha 75 daqiqa davom etdi va yozib olindi, so'ngra transkripsiya qilindi. Bundan tashqari, 112 ta fikr maqolasi, 87 ta ommaviy ma'ruza va 48 ta ijtimoiy tarmoq akkauntlari tizimli kontent tahlilga tortildi [9]. Miqdoriy ma'lumotlar SPSS v27 dasturida tahlil qilindi; sifatiy ma'lumotlar uchun Braun va Klark ning 6 bosqichli tematik tahlil yondashuvi qo'llandi [10].

TADQIQOT NATIJALARI

Miqdoriy natijalar. So'rovnoma natijalari ko'rsatishicha, respondentlarning 68.2 foizi ziyoli shaxslarni dunyoqarashlarini shakllantirishda "muhim" yoki "juda muhim" ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Bu ta'sir o'quv darajasi ($r=0.63$, $p<0.001$) va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish naqshlari ($r=0.58$, $p<0.001$) bilan kuchli korrelyatsiya qiladi. Ko'p o'zgaruvchili regressiya tahlili mafkuraviy immunitetni bashorat qiluvchi to'rtta asosiy omilni aniqladi: tanqidiy fikrlash qobiliyati ($\beta=0.42$, $p<0.001$); madaniy qadriyatlarni integratsiya ($\beta=0.38$, $p<0.001$); ijtimoiy tarmoqlarda

savodxonlik ($\beta=0.29$, $p<0.001$); ziyoli vakolatlilarga ishonch ($\beta=0.24$, $p<0.01$). Bu omillar birgalikda dispersiyaning 72.3 foizini tushuntirdi.

Sifatiy natijalar. Suhbat ma'lumotlarining tematik tahlili ziyolilardagi to'rtta asosiy o'z-o'zini anglash turini aniqladi: madaniy qo'riqchilar (ishtirokchilarning 38 foizi) — an'ana va qadriyatlarni saqlashni ta'kidlaydi; tanqidiy katalizatorlar (27 foiz) — mavjud narrativlarni so'roq qilishga e'tibor qaratadi; ta'lim fasilitatorlari (21 foiz) — ko'nikma rivojlantirish va bilim uzatishni ustuvor qo'yadi; jamoatchilik tarjimonlari (14 foiz) — murakkab masalalarni tushunarli qilishga e'tibor beradi [11, 12].

Integratsiyalashgan tahlil ko'p tomonlama samaradorlikni ko'rsatadi: eng samarali yondashuvlar madaniy rezonans (31 foiz) va zamonaviy dolzarblikni (26 foiz) birlashtirgan holda eng keng demografik qamrovni ta'minladi. Asosiy to'siqlar sifatida institutsional cheklovlar (76 foiz), kommunikatsiya muhiti parchalanishi (64 foiz), iqtisodiy bosim (59 foiz), siyosiy sezgirliklar (52 foiz) va texnologik moslashish qiyinchiliklari (47 foiz) aniqlandi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari mafkuraviy immunitet shakllanishining nazariy tushunchalariga bir necha muhim hissa qo'shadi. Birinchidan, ular intellektual ta'sirning sodda uzatish modellarini [11] rad etib, samarali mafkuraviy immunitetni rivojlantirish ziyolilar va auditoriya o'rtasida murakkab ikki tomonlama aloqa jarayonlarini o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Bu Habermasning ommaviy soha kontseptsiyasini [12] qo'llab-quvvatlaydi, shu bilan birga axborot muhitining tobora parchalanib borishini e'tirof etadi.

Ikkinchidan, tadqiqot Castellsning tarmoq jamiyati nazariyasini [13] empirik jihatdan tasdiqlaydi. Biroq bizning natijalarimiz muhim nuanslarni ham ko'rsatadi: intellektual ta'sirning samarali amalga oshirilishi nafaqat tarmoqdagi mavqega, balki an'anaviy vakolat bilan kommunikatsion innovatsiyani birlashtirish — "moslashuvchan intellektual kapital" — ga bog'liq. Uchinchidan, avlodlar bo'yicha farqlanish modellari ijtimoiy uzatishning keskin o'zgarishini ko'rsatmoqda: ayniqsa yoshlar o'rtasida gorizontaal tengdoshlar ta'siri vertikalidan ustun kela boshladi [14].

Amaliy jihatdan quyidagi yondashuvlar mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda ziyolilarning hissasini oshirishi mumkin: ta'lim va madaniy muassasalarni isloh qilish; ziyolilarda zamonaviy kommunikatsiya strategiyalari bo'yicha salohiyatni rivojlantirish; mustaqil intellektual almashinuv uchun makonlarni saqlash; an'anaviy bilimlar zaminini tanqidiy fikrlash bilan bog'lovchi integratsiyalash ta'lim modellarini joriy etish; ziyolilar o'rtasida strategik hamkorlikni kuchaytirish [18, 19].

XULOSA

Ushbu tadqiqot ziyolilar elitesining zamonaviy jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ko'p qirrali hissasini ko'rsatib berdi. Natijalar shuni aniqladiki, ziyolilar nafaqat bilim uzatuvchilar, balki axborotning global oqimlari va mahalliy madaniy kontekstlar o'rtasida hal qiluvchi vositachilar sifatida xizmat qiladi. Ularning samaradorligi sezilgan ishonchliligi, kommunikatsiya strategiyalari, institutsional joylashuvi va auditoriya ehtiyojlari bilan uyg'unligining murakkab o'zaro ta'siriga bog'liq.

Ayniqsa muhim natija shuki, faol ishtirok etuvchi intellektual hamjamiyatlarga ega bo'lgan jamiyatlar destruktiv mafkuraviy narrativlarga qarshilik darajasi o'lchanadigan tarzda yuqoriroq bo'ladi. Bu intellektual infratuzilmaga investitsiya kiritish ijtimoiy chidamliligining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Axborot muhiti rivojlanishda davom etar ekan, ziyolilarning sog'lom mafkuraviy rivojlanishga ko'maklashdagi roli tobora muhim, lekin tobora murakkab bo'lib bormoqda. Mustahkam mafkuraviy immunitetni — g'oyalar bozori bilan tanqidiy va konstruktiv munosabatda bo'lish qobiliyatini — rivojlantirish zamonaviy jamiyatlar oldidagi asosiy muammolardan birini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Carothers, T., & O'Donohue, A. (2019). *Democracies Divided: The Global Challenge of Political Polarization*. Brookings Institution Press.
2. Etzioni, A., & Bowditch, A. (2021). "Public Intellectuals in the Digital Age: New Roles and Responsibilities." *Journal of Public Discourse*, 43(2), 187-209.
3. Rahman, K. (2022). "Conceptualizing Ideological Immunity: Beyond Resilience and Resistance." *International Journal of Social Theory*, 18(4), 412-436.
4. Chen, L., & Starosta, W. J. (2022). "Cultural Identity and Ideological Resilience in the Digital Age." *International Journal of Intercultural Relations*, 89, 102-118.
5. Kustova, L. (2023). "The Understudied Nexus: Intellectual Elites and Societal Value Formation." *European Journal of Cultural Studies*, 26(3), 352-371.
6. Aliyev, H. (2022). "Ideological Vulnerabilities in Transitional Societies." *Communist and Post-Communist Studies*, 55(1), 77-96.
7. Karimov, I. (2008). *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. O'zbekiston nashriyoti.
8. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches* (5th ed.). SAGE Publications.
9. Glaser, B. G., & Strauss, A. L. (2017). *The Discovery of Grounded Theory: Strategies for Qualitative Research*. Routledge.
10. Braun, V., & Clarke, V. (2021). "Thematic Analysis: A Practical Guide." *Qualitative Research in Psychology*, 18(1), 12-39.
11. Shannon, C. E., & Weaver, W. (1949). *The Mathematical Theory of Communication*. University of Illinois Press.
12. Habermas, J. (1989). *The Structural Transformation of the Public Sphere*. MIT Press.
13. Castells, M. (2011). *The Rise of the Network Society* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
14. Cavalli-Sforza, L. L., & Feldman, M. W. (1981). *Cultural Transmission and Evolution*. Princeton University Press.
15. McLuhan, M. (1964). *Understanding Media: The Extensions of Man*. MIT Press.
16. Giddens, A. (1991). *Modernity and Self-Identity*. Stanford University Press.
17. Giddens, A. (1984). *The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration*. University of California Press.

18. Park, S. J., & Cho, M. (2023). "Reorienting Public Intellectuals in East Asian Democracies." *Asian Journal of Communication*, 33(2), 141-163.
19. Benhabib, S., & Kaul, V. (2022). "Public Reason and Democratic Legitimacy." *Political Studies*, 70(3), 584-603.

IJTIMOIIY JARAYONLAR: MOHIYATI, TURLARI VA METODOLOGIK ASOSLARI

Mansurov A.S.

NamDTU ijtimoiy fanlar
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy jarayonlarning mohiyati, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, asosiy turlari hamda nazariy-metodologik asoslari IMRAD yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy jarayonlarning tarixiy shakllanishi, falsafiy talqinlari va zamonaviy ilmiy qarashlar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy jarayonlar jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ular obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri orqali shakllanadi. Shuningdek, ijtimoiy jarayonlarni tizimli o'rganish jamiyatni boshqarish va prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ijtimoiy jarayon, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy o'zgarish, tizim, evolyutsiya, metodologiya, ijtimoiy dinamika, modernizatsiya.

Zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar ijtimoiy jarayonlarni chuqur o'rganishni talab etmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji va ijtimoiy tizimlarning murakkablashuvi natijasida jamiyatni an'anaviy yondashuvlar asosida tushuntirish yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu bois ijtimoiy fanlarda asosiy e'tibor ijtimoiy hodisalardan ko'ra, aynan jarayonlarga qaratilmoqda. Ijtimoiy jarayonlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, uning rivojlanish yo'nalishini belgilaydi. Ular orqali jamiyatdagi o'zgarishlar, yangilanishlar va transformatsiyalarni tushuntirish mumkin.

Mazkur tadqiqotda ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda tahlil va sintez, tarixiy yondashuv, tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali turli ilmiy manbalarda ilgari surilgan qarashlar umumlashtirildi va ijtimoiy jarayonlarning mohiyati kompleks tarzda yoritildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy jarayon — bu jamiyatda sodir bo'ladigan uzluksiz o'zgarishlar, harakatlar va rivojlanishlarning izchil ketma-ketligidir. U ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, jamiyat tizimining shakllanishi, faoliyati va yangilanishini ifodalaydi. Ijtimoiy jarayonlar inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni qamrab oladi hamda jamiyatni bir sifat holatidan boshqa sifat holatiga olib o'tadi.

Ijtimoiy jarayonlarning asosiy xususiyatlari sifatida ularning uzluksizligi, yo'nalganligi, dinamikligi, tizimlilik va tarixiyli ajratib ko'rsatildi. Ular doimiy ravishda davom etadi, muayyan maqsadga yo'naltiriladi, o'zgaruvchanlikni o'zida

mujassam etadi va tizim elementlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy jarayonlar vaqt va makon bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi.

Tahlillar natijasida ijtimoiy jarayonlar turli mezonlarga ko'ra tasniflandi. Miqyosiga ko'ra ular mikro, makro va mega darajadagi jarayonlarga bo'linadi. Mikrojarayonlar individual darajadagi o'zgarishlarni ifodalasa, makrojarayonlar jamiyat yoki davlat miqyosidagi jarayonlarni qamrab oladi, megajarayonlar esa global miqyosdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Sohalarga ko'ra esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ajratildi. Xarakteriga ko'ra esa ijtimoiy jarayonlar evolyutsion, inqilobiy va islohot jarayonlariga bo'linadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy jarayonlar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat rivojlanish yo'nalishini belgilaydi, yangi ijtimoiy institutlarning shakllanishiga olib keladi va ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlaydi yoki aksincha, beqarorlikka sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy jarayonlar inson ehtiyojlari va manfaatlarini aks ettiradi hamda jamiyatda innovatsiyalar va modernizatsiya jarayonlarining yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ijtimoiy jarayonlar turli davrlarda turlicha talqin etilgan. Antik davr faylasuflari o'zgarishni borliqning asosiy xususiyati sifatida baholagan bo'lsa, zamonaviy olimlar uni murakkab va ko'p omilli tizim sifatida izohlaydi. Xususan, L. Gumplovich ijtimoiy jarayonlarni ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir sifatida talqin etgan, P. Sorokin esa uni har qanday o'zgarish va transformatsiya sifatida tushuntirgan. P. Shtompka esa ijtimoiy jarayonlarni ijtimoiy o'zgarishlar tizimi sifatida ko'rib chiqqan. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy jarayonlarning ko'p qirrali va murakkab hodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ijtimoiy jarayonlar rivojida obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri muhim rol o'ynashi aniqlandi. Obyektiv omillar iqtisodiy sharoitlar, tarixiy zaruriyat va tashqi muhit bilan bog'liq bo'lsa, subyektiv omillar inson faoliyati, ong, maqsad va manfaatlar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu omillarning uyg'unligi jamiyat rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy jarayonlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo'lib, ular jamiyatning rivojlanish yo'nalishini belgilaydi, ijtimoiy tizimlarning yangilanishiga xizmat qiladi va barqarorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy jarayonlarni chuqur o'rganish jamiyatni samarali boshqarish, ijtimoiy muammolarni hal qilish hamda kelajak taraqqiyotini prognoz qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy ilm-fanda ijtimoiy jarayonlarni tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021;
2. Sorokin P. Social and Cultural Dynamics. SPb., 2000;
3. Haydarov X.F. Jamiyat qonunlari – jarayonlarini bilish va boshqarish omili. Toshkent, 2002;
4. Morev M.V., Kaminskiy V.S. Social Processes: Classical Theory and Modern Relevance. 2016;
5. Petrova S.I. Social processes as a specific form of social transformation. 2021;
6. Gvishiani D.M. Izbrannye trudy. Moskva, 2007;
7. Tadevosyan E.V. Sotsiologiya. Moskva, 2001;

8. Shtompka P. Sotsiologiya sotsialnyx izmeneniy. Moskva, 1996;
9. Gumplovich L. Ocherk istorii sotsiologii. 1899;
10. Karsavin L.P. Filosofiya istorii. 1993; Boskov A. Socialnye izmeneniya. Moskva, 1961;
11. Small A. General Sociology. Chicago, 1905;
12. Panarin A. Rossiya v tsivilizatsionnom protsesse. 1993;
13. Becker G., Boskov A. Modern Sociological Theory. Moskva, 1961; Kratkiy slovar po sotsiologii. Moskva, 1958.

VAQTNi TO'G'RI BOSHQARISH SIRLARI: MUVAFFAQIYAT OMILI VA SHAXSIY SAMARADORLIK ASOSI

Jo'rayeva Yoqut Shavkatjon qizi

University of business and science filologiya fakulteti
xorijiy filologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada vaqtni to'g'ri boshqarishning inson hayotidagi o'rni, uning shaxsiy samaradorlik va muvaffaqiyatga ta'siri ilmiy hamda publitsistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, jahonning mashhur tadbirkorlari, olimlari va muvaffaqiyatli insonlarining vaqt menejmentiga oid qarashlari muallifning shaxsiy kuzatuv va ilmiy mulohazalari bilan uyg'unlashtirilgan. Maqolada vaqtni rejalashtirish, intizom, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat hamda yoshlar hayotida vaqt qadri masalalari yoritiladi.

Kalitso'zlar: vaqt menejmenti, samaradorlik, rejalashtirish, motivatsiya, intizom, muvaffaqiyat, shaxsiy rivojlanish, unumdorlik, maqsad, kun tartibi.

Bugungi tezkor va raqamli davr insondan nafaqat bilim va iste'dod, balki vaqtni to'g'ri boshqarish ko'nikmasini ham talab qilmoqda. Inson hayotidagi eng cheklangan resurs bu — vaqt. Uni ortga qaytarishning ham, yig'ib qo'yishning ham imkoni yo'q. Shu sababli vaqtga bo'lgan munosabat insonning hayotdagi o'rni va muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Vaqtni boshqarish oddiy kun tartibini tuzish emas, balki insonning o'z hayotiga nisbatan mas'uliyatli munosabatidir. Chunki vaqtni qadrlagan inson o'z maqsadlarini ham qadrlaydi. Ayniqsa, bugungi yoshlar orasida vaqtni samarasiz sarflash holatlari ko'payib borayotgani ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Ilmiy manbalarda vaqt menejmenti insonning kunlik faoliyatini maqsadli tashkil etish, vazifalarni ustuvorlik asosida bajarish va vaqt resursidan maksimal samarali foydalanish jarayoni sifatida izohlanadi.

Psixologik tadqiqotlar vaqtini rejalashtiradigan insonlarda stress kamroq, natijadorlik esa yuqoriroq bo'lishini ko'rsatadi. Vaqt menejmenti nazariyasida Stephen Covey tomonidan ishlab chiqilgan "vaqtni boshqarish matrastsasi" alohida o'rin tutadi. Ushbu yondashuv insonning kundalik vazifalarini muhimlik va shoshilinchlik darajasiga qarab to'rt toifaga ajratadi.

Coveyning vaqtni boshqarish matrastsasi

Toifa	Tavsif	Strategik yondashuv
I	Muhim va shoshilinch	Zudlik bilan bajarish
II	Muhim, lekin shoshilinch emas	Rejalashtirish va rivojlanish
III	Shoshilinch, lekin muhim emas	Delegatsiya qilish
IV	Muhim ham emas, shoshilinch ham emas	Bekor qilish

Ushbu matratsaning eng muhim jihati insonni doimiy shoshilinchlik holatidan chiqarib, uzoq muddatli maqsadlar sari yo'naltirishidir. Ayniqsa, ikkinchi toifadagi — muhim, ammo shoshilinch bo'lmagan vazifalarga e'tibor qaratish insonning bilim olishi, o'z ustida ishlashi va kelajak rejalari uchun mustahkam asos yaratadi. Shu sababli muvaffaqiyatli insonlar ko'proq vaqtini aynan rejalashtirish, rivojlanish va strategik maqsadlarga sarflaydilar.

Shuningdek ilmiy tadqiqot larshuni ko'rsatadiki, vaqtni samarali boshqarish insonning shaxsiy samaradorligini oshirish bilan birga, faoliyatining umumiy natijadorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Vaqtni boshqarish nazariyasi boshqaruv fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda rivojlana boshladi. Ushbu yo'nalishda bir qator yetakchi olimlar muhim ilmiy xulosalar ilgari surgan. Xususan, P.Drucker o'zining boshqaruv konsepsiyasida vaqtni eng muhim va qaytarib bo'lmaydigan resurs sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, samarali rahbar avvalo o'z vaqtini tahlil qilishi, keyin esa uni ustuvor vazifalarga yo'naltira olishi lozim. P.Drucker vaqtni "nazorat qilib bo'lmaydigan, ammo boshqarilishi zarur bo'lgan resurs" sifatida baholaydi.

Mashhur motivatsion trener Brian Tracy "Har kuni eng muhim ishni birinchi bajarish muvaffaqiyat odatidir", deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrning mazmuni shundaki, insonning muvaffaqiyati mayda ishlarga emas, asosiy maqsadlarga qaratilgan harakatlariga bog'liq.

Mening kuzatishlarimga ko'ra, inson ko'pincha vaqt yetishmasligidan emas, vaqtni noto'g'ri taqsimlaganidan ortda qoladi. Chunki bir kun barcha uchun bir xil — 24 soat. Farq esa ushbu vaqtning qanday sarflanishidadir. Rejalashtirish inson faoliyatida aniqlik va tartibni shakllantiradi. Kunlik maqsadlarni yozib borish inson ongida mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Masalan dunyoning mashhur tadbirkori Bill Gates vaqtni nazorat qilishni muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatgan. Shuningdek, Elon Musk kunni aniq vaqt bloklariga bo'lib ishlashi bilan mashhur. Bu usul insonni tartibsiz faoliyatdan saqlab, har bir vazifaga alohida e'tibor qaratishga yordam beradi.

Shuning uchun vaqtni boshqarishda motivatsiyadan ko'ra intizom muhimroq. Chunki motivatsiya vaqtinchalik hissiyot bo'lishi mumkin, ammo intizom insonni har kuni harakatga undovchi ichki kuch hisoblanadi. Inson o'z oldiga maqsad qo'ya olsa va unga qat'iy amal qilsa, vaqt uning eng katta yordamchisiga aylanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, keraksiz axborot oqimi va virtual dunyoga haddan tashqari berilish inson vaqtining asosiy "yutuvchilari"ga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida mobil telefon va internetga qaramlik samaradorlikni pasaytirayotgan omillardan biri hisoblanadi.

Mashhur investor Warren Buffett "Muvaffaqiyatli insonlar ko'p narsaga 'yo'q' deya oladigan insonlardir", degan edi. Bu fikr aslida vaqtni boshqarishning eng muhim tamoyillaridan biridir. Chunki inson o'z vaqtini qadrlasa, foydasiz mashg'ulotlarga ortiqcha vaqt sarflamaydi.

Mening ilmiy yondashuvimga ko'ra, vaqtni boshqarish insonning nafaqat ish faoliyatiga, balki ruhiy holatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Rejali va tartibli hayot kechiradigan insonda ichki bosim, tushkunlik va shoshqaloqlik kamroq kuzatiladi. Demak, vaqt menejmenti inson psixologik barqarorligining ham muhim omilidir.

Yoshlar hayotida vaqt eng katta kapital hisoblanadi. Talabalik davri esa inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Ushbu davrda olingan bilim, shakllangan odatlar va vaqtga bo'lgan munosabat kelajakdagi muvaffaqiyat poydevorini yaratadi.

Mening fikrimcha, yoshlar orasida vaqtni qadrlash madaniyatini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Chunki vaqtni boshqara olgan yosh kelajakda jamiyatni ham samarali boshqara oladi.

Vaqtni to'g'ri boshqarish insonning muvaffaqiyat sari olib boruvchi eng muhim hayotiy ko'nikmalaridan biridir. Insonning bilimli yoki iste'dodli bo'lishi yetarli emas, u o'z vaqtini ham boshqara olishi kerak. Chunki vaqt — inson hayotining ortga qaytmaydigan va eng qimmat boyligidir. Vaqtni qadrlash aslida hayotni qadrlashdir. Har bir inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, vaqtini reja asosida sarflasa, nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki jamiyat rivojiga ham hissa qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The 7 Habits of Highly Effective People – Stephen Covey.
2. Eat That Frog! – Brian Tracy.
3. Deep Work – Cal Newport.
4. Atomic Habits – James Clear.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2023.
6. Zamonaviy psixologiya va shaxsiy rivojlanish bo'yicha ilmiy maqolalar hamda internet manbalari.

IJTIMOIIY TARMOQLARNING FOYDASI VA ZARARI

Xoliqova Ziyodaxon Nodirbek qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari insituti

Filalogiya va tillarni o'qitish: ingliz tili

2-kurs talabasi

[*xoliqovshohidbek@gmail.com*](mailto:xoliqovshohidbek@gmail.com)

Tel raqami: 88 828 48 18

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotidagi o'rni, ularning foydali va zararli jihatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi muloqotni tezlashtirishi, axborot almashinuvi va ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, ularning ortiqcha foydalanilishi vaqtni behuda sarflash,

psixologik muammolar va noto'g'ri axborot tarqalishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Maqolada ushbu jihatlar muvozanatli tarzda yoritilgan.

Kalit so'zlar (o'zbekcha): ijtimoiy tarmoqlar, internet, axborot, muloqot, foyda, zarar, yoshlar, texnologiya

Аннотация : В данной статье анализируется роль социальных сетей в жизни общества, а также их положительные и отрицательные стороны. Социальные сети способствуют быстрому обмену информацией, улучшению коммуникации и развитию образования. Однако чрезмерное использование социальных сетей может привести к потере времени, психологическим проблемам и распространению недостоверной информации. В статье рассматриваются эти аспекты в сбалансированном виде.

Ключевые слова: социальные сети, интернет, информация, коммуникация, польза, вред, молодежь, технологии

Abstract: This article analyzes the role of social media in modern society and discusses both its positive and negative aspects. Social media helps to improve communication, speed up information exchange, and support education. However, excessive use may lead to time loss, psychological issues, and the spread of false information. The article presents a balanced view of these advantages and disadvantages.

Key words: social media, internet, communication, information, advantages, disadvantages, youth, technology

Kirish: Bugungi kunda odamlar, asosan, yoshlar feysbuk, telegram, odnoklassiki, instagram, twitter, vkontakte kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqdalar. Bularning ichida feysbuk, telegram, twitter va instagram juda ommalashdi. Aslida ijtimoiy tarmoqlar ilk bor 1995 yilda paydo bo'lgan. Rendi Konrad ismli shaxs Classmates.com saytini ishga tushiradi. Dunyoning turli burchaklarida ta'lim olayotgan yoshlar bir-biri bilan tanishishi, do'stlar o'zaro bir-birini topib, hol-ahvol so'rab turishlari uchun mazkur sayt tashkil etilgan edi. Bu sayt o'sha paytda talabalar, yoshlar tomonidan qiziqish bilan kutib olingan.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda ulardan foydalanuvchilar soni ham ko'paydi. Bugungi kunda saytlarga kiruvchi, internetdan foydalanuvchilarning uchdan ikki qismi mazkur tarmoqlardan foydalanadi. Albatta, bu tarmoqlarning foydali va zararli tomonlari bor.

Foydali tomonlarini ko'radigan bo'lsak juda kop.[1]Asosan, ijtimoiy tarmoq uzoq masofadagi insonlarni birlashtiradi. Ya'ni ular uzoqdan turib ijtimoiy tarmoq orqali muloqot qila oladi. O'quvchilar uy topshiriqlari bajarishda va kerakli va foydali ma'lumotlarni internet tarmoqlaridan izlaydilar. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq insonlarning eng yaqin do'sti desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar Alloh taoloning diniga da'vat qilish vositalaridan biriga aylandi. Diniy idora va uning tizimidagi masjid, madrasa, ilmiy tadqiqot markazlari va ziyoratgohlarning rasmiy veb-saytlari ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalarini ochib, o'sha orqali xalqimizga va butun dunyodagi o'zbekzabon musulmonlarga diniy-ma'rifiy ma'lumotlarni yetkazish imkoniga ega bo'lyaptilar. Qolaversa, ko'plab imom domlalarimiz tarmoqlarda o'z sahifalarini tashkil etib, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ma'lumotlarni taqdim etib, dinimizni sof holda yetkazish ishiga

katta hissa qo'shmoqdalar.[2]Faqirlar, boquvchisini yo'qotganlar, bemorlarga moddiy ko'mak berish maqsadida e'lonlar berish, xayriya tadbirlari tashkil etish, yoshlarni uyushtirish, imkoniyati bor kishilarni shu ishga jalb etishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni katta. Bunga misol qilib "Saxovat" ko'mak guruhini keltirishimiz mumkin.

Maslahat so'rash maydoni. Turli kasb vakillari o'zlariga tegishli mavzularda tarmoq foydalanuvchilaridan maslahat so'raydilar va kerakli maslahat va g'oyalar oladilar.[3]Ijtimoiy tarmoqlarning zararli tomonlari ham yo'q emas.Ko'plab insonlar ijimoiy tarmoqqa mukkasidan ketganlar,albatta bu yaxshi emas.Axloqsizlik, fahsh, buzuqlikni targ'ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani.

Mish-mish, yolg'on, uydirmalar, buzg'unchi g'oyalar, soxtalashtirish, tarafkashlikning yoyilgani. Ayrim foydalanuvchilar o'z sahifalariga soxta rasmlar qo'yib olishi, ma'lumotlarni soxtalashtirishi, asosi yo'q, yolg'on xabarlarini tarqatishi, bir guruhdagi kishilar o'zlariga teskari fikr bildirgan tarafga (aslida barchalari musulmonlar) nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishlari, faqat o'zlarining fikrlarini haq deb, boshqalarning fikrini mensimasliklari bunga misol bo'ladi.Ushbu tarmoqlarda insoniy aloqalar zaiflashadi, yuzma-yuz ko'rishish bo'lmagani uchun o'zaro mehr kamayadi, voqelikdan uzilib qolish yuz beradi, oilaviy ahillikka, er-xotin o'rtasidagi totuvlikka salbiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarga e'tiborni qaratib, oilasiga, ayoliga, ota-onasiga, farzandlariga vaqt ajratolmaslik natijasida o'rtaga sovuqchilik tushadi.Tarmoqlardan noto'g'ri foydalanish vaqtning isrof bo'lishiga, keragidan ortiq foydalanish esa, unga o'rganib qolishga sabab bo'ladi. [4]Keyin unday kishilar xuddi tamaki, spirtli ichimlik, nos va giyohvand moddalarga o'rganib qolgan kimsalarga o'xshab internetsiz, ijtimoiy tarmoqlarsiz turolmaydigan bo'lib qoladi.Turli oqimlar o'z mafkuralarini yoshlar ongiga singdirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan keng ko'lamda foydalanmoqdalar. Bu ham yoshlar, umuman, dindan, diniy ma'rifatdan yaxshi xabardor bo'lmagan kishilarni sof aqidadan og'ib ketishiga, fiqhiy mazhablar borasida noto'g'ri fikr va tushunchaga ega bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ahli ilm, imom, ulamo kishilar haqida bo'hton uyushtiruvchi, ularni obro'sizlantirishga urinuvchi guruhlarining ko'pligi. Ulamolar, imom domlarni yaqindan tanimagan, ular haqida aniq ma'lumotga ega bo'lmagan kishilar mazkur bo'htonchi guruhlarining ta'siriga tushib, so'zlariga ishonib, ulkan gunoh bo'lgan – g'iybat balosiga muhtalo bo'lmoqdalar.[5]Eng dolzarb masala shundaki,ijtimoiy tarmoqlarning foyda va ziyoni ham bor,ammo bu insonlar uchun juda ham.Turli xil ilovalar,qurilmalar,tarmoqlar va biz foydalanadigan platformalar biz uchun juda foydali bo'lishi mumkin.Qachonki biz undan foydali maqsadda foydalansak.Agar biz ijtimoiy tarmoqdan keraksiz narsalarni tortib,undan zavqlansak va doimo qiladigan ishimizga ijtimoiy tarmoqdan foydalanishni haddan ziyod qo'shsak bu juda yomon natijadir.Shuning uchun,biz tanganing ikkinchi tomonini ham ko'rishim darkor.Xulosa sifatida shuni aytish joizki,ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular insonlarga tezkor axborot almashish, bilim olish va muloqot qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ortiqcha foydalanish insonning vaqtini behuda sarflashiga, ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan oqilona va me'yorida

foydalanish muhim ahamiyatga ega. Foydali tomonlaridan unumli foydalanib, zararli jihatlaridan ehtiyot bo'lish orqali inson o'z hayot sifatini yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz. Toshkent, 2017.
3. To'rayev B. Axborot texnologiyalari asoslari. Toshkent, 2020.
4. Xoliqov A. Internet va ijtimoiy tarmoqlar psixologiyasi. Toshkent, 2021.
5. UNICEF. The State of the World's Children Report. 2021.
6. World Health Organization. Public Health and Social Media Use. 2022.

**LEARNING CENTERED APPROACH OF TEACHING ENGLISH AS A
FOREIGN LANGUAGE IN PRIMARY CLASSROOMS**

Tajibayev Gayratjon Shovdorovich,

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti,
Namangan, O'zbekiston*

Annotattion: This article adopts a qualitative approach based on a review of current pedagogical practices and empirical studies. Classroom observations, teacher interviews, and analysis of lesson plans were used to identify effective strategies in promoting speaking skills among young learners using a learning-centered framework.

Key words: learning centered approach, young learner, speaking, activity, modeling, feedback

In recent years, the focus of English language teaching has shifted from traditional teacher-centered practices to more dynamic, learning-centered approaches. This paradigm emphasizes learners' active participation, autonomy, and contextual learning, particularly important for young learners who are at a crucial stage of cognitive and linguistic development. Teaching speaking in English to young learners requires strategies that not only build linguistic competence but also foster confidence, motivation, and interaction. This article explores the learning-centered approach to teaching spoken English to young learners, examining its theoretical basis, practical methods, and potential outcomes.

The learning-centered approach draws heavily from constructivist theories of education, particularly those of Vygotsky (1978), who emphasized the social nature of learning and the importance of the Zone of Proximal Development (ZPD). According to Cameron (2001), young learners benefit from meaningful interaction in the target language, where speaking activities are integrated into familiar contexts. Ellis (2003) highlights the importance of comprehensible input and output, noting that young learners acquire language best through activities that are both engaging and cognitively appropriate.

Studies by Pinter (2006) and Moon (2005) support the idea that task-based and communicative activities enhance spoken language development in children. These approaches allow learners to use language for real purposes in authentic situations, rather than merely repeating memorized phrases. Moreover, a learning-centered approach considers individual learning styles, preferences, and developmental stages, ensuring that each learner can access and produce language meaningfully.

Solutions and Strategies

Interactive Speaking Tasks: Role-plays, storytelling, and games foster interaction and spontaneous language use. These tasks encourage learners to use English in social contexts, building fluency and confidence.

Scaffolding Techniques: Teachers support learners by modeling language, providing sentence starters, and using visual aids. Gradual removal of support helps learners become independent speakers.

Learner Autonomy: Offering choices in topics and tasks increases motivation. Letting learners select stories, games, or discussion topics gives them a sense of ownership over their learning.

Collaborative Learning: Pair and group activities help learners practice turn-taking, asking questions, and negotiating meaning, all of which are vital for speaking development.

Formative Feedback: Ongoing, constructive feedback helps learners improve pronunciation, vocabulary usage, and grammatical accuracy without discouraging their willingness to speak.

Examples of Interactive Speaking Tasks for Young Learners

Role-Plays

Description: Learners act out real-life or imaginative scenarios using English.

Examples:

Going to a shop and buying something.

Visiting the doctor or going to the zoo.

Playing teacher and student.

Benefits: Builds vocabulary, encourages turn-taking, and gives context for using functional language.

Show and Tell

Description: Each student brings an object from home and talks about it.

Prompt examples:

"This is my favorite toy. It is a robot. It can move!"

"This is my pet photo. Her name is Bella."

Benefits: Boosts confidence, personalizes language use, and encourages descriptive language.

Storytelling with Pictures

Description: Students are given a series of pictures and asked to create a story.

Variation: Group storytelling - each student adds one part to the story.

Benefits: Enhances imagination, narrative skills, and sequencing vocabulary.

Information Gap Activities

Description: Students are given different pieces of information and must speak to complete the task.

Examples:

One student has a map with missing locations, and another gives directions.

"Find the Difference" picture pairs where students describe their images to find differences.

Benefits: Encourages use of descriptive phrases, question forms, and listening skills.

Guessing Games

Description: One student describes something, and others guess what it is.

Examples:

"I spy" games using classroom objects.

"Who am I?" using famous characters or animals.

Benefits: Reinforces vocabulary and encourages use of adjectives and question forms.

Class Surveys

Description: Students ask classmates questions and collect answers.

Examples:

"What's your favorite color/food/game?"

"How many pets do you have?"

Benefits: Practices question forms, encourages movement and interaction.

Songs and Chants with Actions

Description: Learners sing songs and chants that include simple language and actions.

Examples:

"Head, Shoulders, Knees, and Toes"

"What's the weather like today?"

Benefits: Builds rhythm, pronunciation, and vocabulary in a fun way.

Puppet Conversations

Description: Students use puppets to have simple conversations.

Example dialogue:

Puppet A: "Hello! What's your name?"

Puppet B: "My name is Max. I like bananas!"

Benefits: Reduces anxiety, encourages speaking through imaginative play.

These tasks align with the learning-centered approach as they are:

Learner-focused

Interactive

Contextual and meaningful

Supportive of different learning styles

Teacher Instructions: Show and Tell Activity

Objective: To help students practice speaking in English by describing and sharing something personal or meaningful.

Age Group: 6–10 years old

Level: Beginner to Lower-Intermediate

Skills Practiced: Speaking, listening, vocabulary, sentence structure

Preparation

Ask students in advance to bring a small item from home (e.g., toy, book, picture, pet photo).

Prepare a simple worksheet (see below).

Model the activity by showing your own object and speaking about it.

Procedure

1. Warm-up: Ask questions like:
 - "What do you have at home that is special?"
 - "Can you tell me about your favorite toy?"
2. Model: Show your object and say:

"This is my teddy bear. His name is Teddy. He is brown and soft. I got him on my birthday. I sleep with him every night."
3. Student Presentations:

Each student takes turns showing their object and speaking.
Use the worksheet as a guide.
Encourage classmates to ask simple questions like "What is it?", "Where did you get it?", "Do you like it?"
4. Feedback:

Praise students for effort and correct gently only if needed.
Use thumbs-up, stickers, or simple compliments to motivate.

Tips for Success

- Keep the atmosphere relaxed and supportive.
- Allow students to use their first language if they struggle, but gently guide them back to English.
- Record the presentations (with permission) to show progress over time.

A learning-centered approach to teaching speaking in English empowers young learners by placing their needs, interests, and developmental stages at the heart of instruction. By employing interactive, scaffolded, and meaningful speaking activities, educators can create an environment where children feel confident and motivated to speak. This approach not only improves linguistic skills but also nurtures a lifelong interest in language learning.

References

Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 326 p.

Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – London: Oxford University Press, 2003. – 286 p.

Moon J. Children Learning English. – London: Macmillan Education, 2005. – 296 p.

Pinter A. Teaching Young Language Learners. - London: Oxford University Press, 2006. – 346 p.

Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard, 1978. – 480 p.

THE CONTRIBUTION OF EXTENSIVE READING TO THE IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOAL 4 (SDG 4) THROUGH THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN EFL STUDENTS

Rakhmonova Munirabonu Gulomjon kizi

PhD student, Gulistan State University

E-mail: rachonova98@gmail.com

Tel: +998972481114

ORCID iD: 0009-0002-0828-8195

Abstract: Sustainable Development Goal 4 (SDG 4) emphasizes the importance of ensuring inclusive and equitable quality education while promoting lifelong learning opportunities for all. Within the context of English as a Foreign Language (EFL) in higher education, fostering students' critical thinking has become a primary objective in preparing graduates capable of meeting the intellectual and professional demands of the 21st century. However, traditional reading instruction often prioritizes linguistic accuracy over higher-order cognitive development, thereby limiting students' ability to critically analyze, evaluate, and synthesize information. This study explores the potential of Extensive Reading (ER) as a pedagogical approach to foster critical thinking among university EFL students in support of SDG 4. Grounded in learner-centered and constructivist learning principles, the study integrates ER into undergraduate philology courses through level-appropriate reading materials, learner choice, sustained reading practice, and structured post-reading reflective activities. Critical thinking is fostered through analytical discussions, reflective journals, book reports, and evidence-based assessment tasks that encourage students to interpret, question, and substantiate ideas presented in authentic texts.

Key words: Extensive Reading; Critical Thinking, Sustainable Development Goal 4 (SDG 4), Sustainable Quality Education, Philology Students.

Annotatsiya: Barqaror rivojlanish maqsadi 4 (SDG 4) barcha uchun muntazam o'qish imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga inklyuziv va teng sifatli ta'limni ta'minlash muhimligiga urg'u beradi. Oliy ta'limda chet tili sifatida ingliz tili (EFL)ni o'qitishda talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish 21-asrning aqliy va kasbiy talablariga javob beradigan bitiruvchilarni tayyorlashda asosiy maqsadga hisoblanadi. Biroq, an'anaviy o'qitish tizimida ko'pincha yuqori darajadagi kognitiv fikrlashdan ko'ra lingvistik ko'nikmalarni o'zlashtirish ustuvor sanaladi va talabalarning ma'lumotni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish qobiliyatlarini takomillashtirishda cheklovlar yuzaga keladi. Ushbu tadqiqot SDG 4 ni qo'llab-quvvatlash uchun universitet EFL talabalari orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuv sifatida ekstensiv o'qish (ER) ning ahamiyatini tadqiqi qiladi.

Kalit so'zlar: Ekstensiv o'qish, tanqidiy fikrlash, barqaror rivojlanishning 4-maqsadi, (SDG 4), barqaror sifatli ta'lim, filolog talabalar.

The concept of sustainable quality education has become a central focus of educational reforms worldwide, particularly following the adoption of the United

Nations Sustainable Development Goal 4 (SDG 4), which seeks to ensure inclusive, equitable, and quality education while promoting lifelong learning opportunities for all. Within higher education, achieving this goal requires pedagogical approaches that not only enhance language proficiency but also foster higher-order cognitive skills, including critical thinking, problem-solving, and independent learning. Critical thinking has long been recognized as an essential educational outcome. J. Dewey described reflective thinking as a disciplined process of active inquiry¹, while R. Ennis defined critical thinking as reasonable and reflective thinking focused on deciding what to believe or do². Similarly, P. Facione identified core critical thinking skills, including interpretation, analysis, evaluation, inference, explanation and self-regulation³. These theoretical perspectives emphasize that effective language instruction should extend beyond linguistic competence to cultivate learners' intellectual abilities.

The increasing emphasis on Sustainable Development Goal 4 (SDG 4) has shifted the focus of higher education from language proficiency alone to the development of higher-order competencies that enable learners to think critically, solve problems, and engage in lifelong learning. Within English as a Foreign Language (EFL) education, fostering critical thinking has become an essential component of quality education, as graduates are expected to evaluate information, make informed decisions, and adapt to rapidly changing academic and professional environments (UNESCO, 2021).

Extensive Reading (ER) has been widely recognized as an effective learner-centered approach that promotes language acquisition through reading large amounts of level-appropriate and self-selected materials. While earlier studies established the positive effects of ER on reading fluency, vocabulary acquisition, and learner motivation, recent research by E. Jeon and R. Day has demonstrated its broader contribution to academic literacy and higher-order thinking⁴. T. Taye and G. Teshome reported that sustained engagement with extensive reading significantly improves EFL students' reading comprehension and academic writing performance, suggesting that regular exposure to authentic texts enhances learners' analytical processing and comprehension abilities⁵.

Recent evidence also indicates that ER creates favorable conditions for the development of critical thinking. Y. Lin found that extensive reading, combined with reflective learning activities, strengthens learners' motivation, self-assessment, and critical thinking while contributing to their academic well-being⁶. Likewise, A. Yang, N. Sulaiman and N. Yacob in a systematic review, concluded that structured English

¹ Dewey, J. (1910). *How We Think*. D. C. Heath & Co.

² Ennis, R. H. (1996). *Critical Thinking*. Prentice Hall.

³ Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report)*. American Philosophical Association.

⁴ Jeon, E. Y., & Day, R. R. (2016). The effectiveness of extensive reading on reading proficiency: A meta-analysis. *Reading in a Foreign Language*, 28(2), 246–265.

⁵ Taye, T., & Teshome, G. (2025). The efficacy of extensive reading strategies for enhancing reading comprehension among 4th year EFL students at Mizan Tepi University. *Social Sciences & Humanities Open*, 11, 101616.

⁶ Lin, Y. (2025). A reflection of learners' motivation to read, self-assessment, critical thinking, and academic well-being in extensive and intensive reading offline instruction: A focus on self-determination theory. *Learning and Motivation*, 89, 102093.

reading programs effectively promote critical thinking skills in higher education by encouraging learners to analyze, evaluate, interpret, and synthesize information from multiple sources⁷.

From the perspective of sustainable education, UNESCO highlights that quality education should cultivate independent learning, critical inquiry, and lifelong learning competencies. Extensive Reading supports these objectives by encouraging learner autonomy, reflective reading habits, and meaningful interaction with authentic texts. Therefore, integrating ER into university EFL curricula not only improves language proficiency but also contributes to the achievement of SDG 4 by developing critical thinking and promoting sustainable quality education. Despite growing international evidence, empirical studies examining the relationship between Extensive Reading, critical thinking, and SDG 4 in university EFL contexts remain limited, particularly in Central Asian higher education. This study addresses this gap by investigating the contribution of Extensive Reading to the development of critical thinking among university EFL learners within the framework of sustainable quality education.

Conclusion. Extensive Reading offers a sustainable and learner-centered approach to improving the quality of university EFL education while contributing to the achievement of Sustainable Development Goal 4 (SDG 4). Beyond enhancing language proficiency, ER creates meaningful opportunities for developing critical thinking by engaging students in analytical reading, reflection, evaluation, and evidence-based reasoning. Recent research and theoretical perspectives indicate that integrating Extensive Reading into EFL curricula supports learner autonomy, academic literacy, and higher-order cognitive skills that are essential for lifelong learning. The findings of this study suggest that systematic implementation of Extensive Reading can significantly foster critical thinking among university EFL learners, thereby promoting sustainable quality education. Consequently, higher education institutions should consider incorporating Extensive Reading into EFL programs as a practical pedagogical strategy to equip students with the intellectual competencies required for academic success and responsible participation in a knowledge-based society. Future research may further examine the long-term effects of Extensive Reading on critical thinking across diverse educational contexts and learner populations.

REFERENCES

1. Dewey, J. (1910). *How We Think*. D. C. Heath & Co.
2. Ennis, R. H. (1996). *Critical Thinking*. Prentice Hall.
3. Facione, P. A. (1990). *Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report)*. American Philosophical Association.

⁷ Yang, A., Sulaiman, N. A., & Yaccob, N. S. (2025). Enhancing critical thinking skills for higher education students through English reading modules: A systematic review. *Cogent Education*, 12(1).

4. Jeon, E. Y., & Day, R. R. (2016). The effectiveness of extensive reading on reading proficiency: A meta-analysis. *Reading in a Foreign Language*, 28(2), 246–265.
5. Lin, Y. (2025). A reflection of learners' motivation to read, self-assessment, critical thinking, and academic well-being in extensive and intensive reading offline instruction: A focus on self-determination theory. *Learning and Motivation*, 89, 102093.
6. Taye, T., & Teshome, G. (2025). The efficacy of extensive reading strategies for enhancing reading comprehension among 4th year EFL students at Mizan Tepi University. *Social Sciences & Humanities Open*, 11, 101616.
7. Yang, A., Sulaiman, N. A., & Yaccob, N. S. (2025). Enhancing critical thinking skills for higher education students through English reading modules: A systematic review. *Cogent Education*, 12(1).

V-SHO'BA:FALSAFA VA TARIX

**SHARQ FALSAFIY TAFAKKURINING G'ARB ADABIY TAFAKKURIGA
TA'SIRI: IBN SINO, FAROBIY VA BERUNIY G'OYALARI ASOSIDA**

Abdukarimova Marjona

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Abdurahimova Rayhona

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Sharq falsafiy tafakkurining, xususan Ibn Sino (Avitsenna), Farobiy (Alfarabi) va Beruniy kabi mutafakkirlar g'oyalarining G'arb adabiy va falsafiy tafakkuriga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu allomalarning asarlari G'arbga o'tkazilish yo'llari, ularning G'arb humanizmi shakllanishidagi o'рни hamda axloqiy-estetik qarashlarning transferi masalalari yoritiladi. Maqolada XII-XIII asrlardagi tarjima harakatlari, Ispaniya va Sitsiliyadagi ilmiy markazlar faoliyati, shuningdek, Avitsennizm va Averroizm kabi falsafiy oqimlarning Yevropa intellektual an'anasiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Sharq falsafasi, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, G'arb gumanizmi, axloqiy-estetik qarashlar, madaniy transfer, O'rta asr falsafasi.*

Аннотация: В данной статье анализируется влияние восточной философской мысли, в частности идей таких мыслителей, как Ибн Сина (Авиценна), Аль-Фараби и Беруни, на западную литературную и философскую мысль. В исследовании освещаются пути передачи трудов этих ученых на Запад, их роль в формировании западного гуманизма, а также вопросы трансфера этико-эстетических взглядов. В статье анализируются переводческие движения XII–XIII веков, деятельность научных центров в Испании и Сицилии, а также вклад таких философских течений, как авиценнизм и аверроизм, в европейскую интеллектуальную традицию.

Ключевые слова: *восточная философия, Ибн Сина, Аль-Фараби, Беруни, западный гуманизм, этико-эстетические взгляды, культурный трансфер, средневековая философия.*

Abstract: This article analyzes the influence of Eastern philosophical thought, specifically the ideas of thinkers such as Ibn Sina (Avicenna), Al-Farabi, and Beruni, on Western literary and philosophical discourse. The study highlights the pathways through which the works of these scholars reached the West, their role in the formation of Western humanism, and the transfer of ethical-aesthetic views. The article examines the translation movements of the 12th and 13th centuries, the activities of scientific centers in Spain and Sicily, and the contribution of philosophical trends such as Avicennism and Averroism to the European intellectual tradition.

Keywords: *Eastern philosophy, Ibn Sina, Al-Farabi, Beruni, Western humanism, ethical-aesthetic views, cultural transfer, medieval philosophy.*

Kirish

Sharq va G'arb tafakkuri o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi falsafa tarixidagi eng muhim va qiziqarli mavzulardan biridir. Ko'pchilik tadqiqotchilar Uyg'onish davri Yevropasining intellektual yuksalishini bevosita antik merosga qaytish bilan bog'lasa-da, so'nggi ilmiy tadqiqotlar Sharq falsafasining, xususan IX-XII asrlardagi arab-fors falsafiy an'anasining G'arb tafakkuriga ta'sirini e'tirof etmoqda. Bu jarayonda Abu Nasr Farobiy (870-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va Abu Rayhon Beruniy (973-1050) kabi Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan allomalarning g'oyalari alohida o'rin tutadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – ushbu mutafakkirlar falsafasining G'arbga o'tish yo'llari, ularning G'arb humanistik an'anasining shakllanishiga ta'siri hamda axloqiy-estetik qarashlarning madaniyatlararo transferini tizimli ravishda tahlil qilishdir. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy usullardan foydalaniladi.

Sharq falsafasining G'arbga o'tish tarixiy yo'llari

Tarjima harakatlari va ilmiy markazlar

Sharq falsafiy merosining G'arbga o'tishida asosiy rol o'ynagan ikki muhim mintqa – Ispaniyadagi Toledo shahri va Sitsiliya oroli bo'lgan. Toledo 714-yilda arablar tomonidan bosib olingan va 350 yil davomida arab madaniyatining muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. 1085-yilda ispanlar shaharni qaytarib olgach, bu yerda musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar birga yashab, uch tilda – arab, lotin va ibroniy tillarida ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan.

Sitsiliya oroli esa Normanlar hukmronligi davrida (XI asr) arab, norman va vizantiya madaniyatlari sinteziga asoslangan o'ziga xos madaniy muhitni yaratgan. Qirol Roger II davrida (1095-1154) bu yerda mashhur arab geografi Muhammad al-Idrisiy faoliyat olib borgan.

Bu ikki markazda XII-XIII asrlarda arab tilidan lotin tiliga ko'plab falsafiy, ilmiy va tibbiy asarlar tarjima qilingan. Jerald Kremonenskiy (1114-1187) Toledo shahrida 87 ga yaqin arab tilidagi asarni lotin tiliga o'g'irgan. Ushbu tarjimalar orqali Yevropa o'rta asr falsafasining shakllanishiga zamin yaratilgan.

Antik merosning saqlanishi va uzatilishi

Sharq mutafakkirlari nafaqat o'ziga xos falsafiy tizimlarni yaratgan, balki antik Yunon falsafasini saqlab qolish va rivojlantirish vazifasini ham bajargan. IX asrda Bag'dodda tashkil etilgan "Hikmat uyi" (Bayt al-Hikma)da Aristotel, Aflotun va boshqa yunon mutafakkirlarining asarlari arab tiliga tarjima qilingan. Farobiy Aristotel asarlariga yozgan sharhlari bilan nafaqat Sharqda, balki keyinchalik G'arbda ham peripatetik an'ananing saqlanishiga xizmat qilgan.

Kembrij universiteti professori Jeyms Xankins ta'kidlashicha, "arab falsafasining klassik davri (IX-XII asrlar) antik yunon falsafasining deyarli to'liq to'plami arab tiliga tarjima qilingan davrga to'g'ri keladi". Ushbu meros keyinchalik Toledo va Sitsiliya orqali lotin dunyosiga o'tkazilgan.

Farobiy, Ibn Sino va Beruniy falsafasining asosiy g'oyalari

Farobiy – "Ikkinchi muallim"ning falsafiy tizimi

Abu Nasr Farobiy Sharq falsafasida Aristotel sharhi sifatida "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin) nomi bilan mashhur. Uning falsafiy tizimida quyidagi asosiy g'oyalar markaziy o'rin tutadi:

- Aql nazariyasi: Farobiy aqlni moddiy, faol va erishilgan aql turlariga ajratib, ularning o'zaro munosabatini tahlil qilgan. Uning "aqlning ma'nolari haqida"gi risolasi keyinchalik lotincha tarjimalar orqali sxolastik falsafaga katta ta'sir ko'rsatgan.

- Fozil shahar konsepsiyasi: Farobiyning "Fozil shahar aholisining qarashlari haqida"gi asari ideal jamiyat va axloqiy kamolot masalalarini yoritadi. Ushbu asarda insonning jamiyatdagi o'rnini, axloqiy fazilatlar va siyosiy boshqaruv masalalari falsafiy tahlil qilingan.

- Fanlar tasnifi: Farobiy fanlarni tizimli ravishda tasniflab, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatgan. Uning "Fanlar tasnifi" (Kitab ihso al-ulum) asari XII asrda lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropada ilm-fan tasnifiga ta'sir ko'rsatgan.

Ibn Sino – "Shayx ar-ra'is"ning falsafiy va tibbiy merosi

Ibn Sino Sharq falsafasining eng nufuzli vakillaridan biri bo'lib, uning ta'siri nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham juda keng bo'lgan. Uning asosiy g'oyalari:

- Borliq va mohiyat masalasi: Ibn Sino borliq (vujud) va mohiyat (mahiyya) o'rtasidagi farqni falsafiy jihatdan asoslab bergan. Uning "mohiyat borliqdan oldin emas, balki borliq orqali mavjud bo'ladi" degan g'oyasi keyinchalik Tomas Akvinskiy va Duns Skot kabi sxolastiklarga katta ta'sir ko'rsatgan.

- Ruh nazariyasi: Ibn Sinoning ruhning o'lmasligi, uning jismdan farqli substansiya ekanligi haqidagi ta'limoti G'arb falsafasida keng muhokama qilingan. J.Yanssens ta'kidlashicha, "Ibn Sinoning psixologiyasi va gnoseologiyasining ta'siri Uilyam Overnskiy va Albert Magnus asarlarida yaqqol ko'rinadi".

- Tibbiy meros: "Tibbiyot qonunlari" (al-Qanun fi at-tibb) asari XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan va keyingi 600 yil davomida Yevropaning yetakchi tibbiyot maktablarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan.

Beruniy – fanlararo sintez va ilmiy metodologiya

Abu Rayhon Beruniy o'zining ilmiy-falsafiy merosida tabiatshunoslik va gumanitar fanlar sinteziga erishgan alloma sifatida alohida o'rin tutadi:

- Ilmiy metodologiya: Beruniy zamonaviy ilmiy metodning elementlarini ishlab chiqqan, tajriba va kuzatishga asoslangan bilish nazariyasini rivojlantirgan. U suyuqliklarning zichligini aniqlashda gidrostatik muvozanatdan foydalangan holda eksperimental usullarni takomillashtirgan.

- Qiyosiy din va madaniyatlar tadqiqi: Beruniy "Hindiston tarixi" (Tarix al-Hind) asarida hind dini, falsafasi va madaniyatini ob'ektiv va ilmiy nuqtai nazardan o'rgangan. Ushbu asar unga "qiyosiy dinlar otasi" nomini olib kelgan.

- Ilmiy munozara madaniyati: Beruniy va Ibn Sino o'rtasidagi ilmiy munozaralar (masalan, olamning abadiyligi, vakuumning mavjudligi masalalari bo'yicha) O'rta asr ilm-fanida tanqidiy tafakkurning rivojiga turtki bo'lgan.

G'arb humanizmi shakllanishiga Sharq falsafasining ta'siri

"Yangi humanizm" konsepsiyasida Sharq omili

XX asr o'rtalarida, ayniqsa 1952-yilda YuNESKO va Arab Ligasi tashabbusi bilan Ibn Sinoning ming yillik tavallud yubileyi munosabati bilan bir qator xalqaro konferensiyalar o'tkazilgan. Ushbu tadbirlar Sharq falsafasining G'arb humanizmi rivojida rolini qayta ko'rib chiqishga turtki bo'lgan. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, "ushbu ilmiy forumni boshqarayotgan musulmon dunyosining islohotchi

olimlari Ibn Sino va uning izdoshlarini 'yangi humanizm' namunalari sifatida ilgari surganlar".

Ushbu "yangi humanizm" konsepsiyasi Yevropa humanizmidan quyidagi jihatlari bilan farq qilgan:

- Ko'p madaniyatli genealogiya: Sharq falsafasi yunon, fors, hind va islomiy manbalarning sinteziga asoslangan bo'lib, bu uni universal xususiyatga ega qilgan;
- Diniy e'tiqod bilan uyg'unlik: Sharq falsafasi din va falsafani uyg'unlashtirishga intilgan, bu esa Yevropada keyinchalik "ikki haqiqat" nazariyasining shakllanishiga yo'l ochgan.

Avitsennizm va Averroizmning Yevropa intellektual an'anasidagi o'rni

XIII asr Yevropa falsafasida Avitsennizm (Ibn Sino ta'limotiga asoslangan oqim) va Averroizm (Ibn Rushd ta'limotiga asoslangan oqim) muhim o'rin tutgan. Parij universitetida bu oqimlarning ta'siri shu qadar kuchli bo'lganki, 1210-yilda arab falsafasini o'qitish vaqtincha taqiqlangan.

Ibn Sinoning lotincha tarjimalari, xususan uning Shifo kitobi" (Kitab ash-shifo)ning psixologiya va metafizikaga oid qismlari, Albert Magnus, Tomas Akvinskiy va Genrix Gentlik kabi sxolastik mutafakkirlarning asarlarida keng qo'llanilgan. J.Yanssensning ta'kidlashicha, "Genrix Gentlik psixologiyasida Avitsennian ta'sirining elementlari yaqqol ko'rinadi".

Averroizm esa, ayniqsa, "ikki haqiqat" nazariyasi bilan Yevropa falsafasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, falsafiy haqiqat va diniy haqiqat bir-biridan mustaqil bo'lib, ular ziddiyatli bo'lganda falsafiy haqiqatga ustunlik berilishi mumkin. Bu g'oya keyinchalik Uyg'onish davri va Yangi davr falsafasining shakllanishiga zamin yaratgan.

Dante va Uyg'onish davri adabiyotida Sharq izlari

Italiyaning buyuk shoiri Dante Aligyeri (1265-1321) "Ilohiy komediya" asarida Ibn Rushdni (Averroes) "Aristotel sharhi" sifatida alohida tilga oladi va unga o'z asarida muhim o'rin beradi. Dante ijodida Averroizm ta'sirining izlari, xususan, uning "Monarxiya" asarida dunyoviy davlat nazariyasini asoslashda yaqqol ko'rinadi.

Uyg'onish davri adabiyotida Sharq falsafasining ta'siri nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham namoyon bo'lgan. Jorj Makdisiy (1989) tadqiqotlariga ko'ra, "Uyg'onish davri humanizmining ikki muhim elementi – diktat san'ati (ars dictaminis) va mumtoz tilga bo'lgan munosabat – o'z ildizlarini o'rta asr islom madaniyatidan oladi".

Axloqiy-estetik qarashlar transferi

Axloqiy fazilatlar tizimining o'zlashtirilishi

Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari G'arbda asosan ikki yo'nalishda o'zlashtirilgan:

Farobiyning axloqiy konsepsiyasi: Farobiyning "Fozil shahar" konsepsiyasida axloqiy fazilatlar jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida talqin qilinadi. Uning ta'limotiga ko'ra, insonning baxt-saodati – "kamolotning eng yuqori darajasi"ga erishishdir. Bu g'oyalar Tomas Akvinskiyning "axloqiy fazilatlar" haqidagi ta'limotiga ta'sir ko'rsatgan.

Ibn Sinoning axloqiy qarashlari: Ibn Sino axloqni amaliy falsafaning bir qismi sifatida o'rganib, uni "nafsni poklash va kamolotga erishish yo'li" deb ta'riflagan.

Uning ruh tarbiyasi, odob-axloq va iroda erkinligi haqidagi g'oyalari G'arb sxolastikasida keng muhokama qilingan.

Estetik qarashlar va badiiy ijodga ta'sir

Sharq falsafiy-estetik qarashlarining G'arb adabiy tafakkuriga ta'siri quyidagi jihatlarida namoyon bo'lgan:

- Go'zallik nazariyasi: Sharq mutafakkirlari go'zallikni nafaqat hissiy, balki aqliy va ma'naviy darajada ham talqin qilgan. Farobiyning "musiqa haqida katta kitob"i musiqa estetikasiga oid nazariy qarashlari bilan Yevropa musiqa nazariyasiga ta'sir ko'rsatgan.

- Poetik til va obraz: O'rta asr Yevropasida arab adabiyoti va she'riyatining ta'siri, ayniqsa, Ispaniya va Sitsiliya orqali sezilgan. "Xat yozish san'ati" (Ars dictaminis)– musulmon dunyosida rivojlangan xat yozish an'analari asosida shakllangan bo'lib, bu Yevropa humanistik adabiyotining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Madaniyatlararo transfer mexanizmlari

Sharq axloqiy-estetik qarashlarining G'arbg'a o'tishida quyidagi mexanizmlar muhim rol o'ynagan:

1. Tarjima faoliyati: Toledo, Sitsiliya va Antokiya kabi shaharlardagi tarjima markazlarida arab tilidan lotin, ibroniy va ispan tillariga ko'plab falsafiy asarlar o'girilgan.

2. Madaniy sintez muhiti: Andalusiya (Ispaniya) va Sitsiliyada musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar birga yashagan muhitda madaniyatlararo dialoglar rivojlangan. Ushbu hududlarda "birga yashash" (convivencia) an'anasi intellektual almashuv uchun qulay zamin yaratgan.

3. Ta'lim tizimlari ta'siri: XI-XIV asrlarda ko'plab Yevropa talabalari musulmon dunyosidagi oliy ta'lim markazlarida (Kordova, Granada, Bag'dod) tahsil olgan.

Xulosa

O'rta asr Sharq falsafiy tafakkuri, xususan Farobiy, Ibn Sino va Beruniy g'oyalari G'arb adabiy va falsafiy tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ushbu ta'sir quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lgan:

1. Antik merosni saqlash va uzatish: Sharq mutafakkirlari yunon falsafasini nafaqat saqlab qolgan, balki uni o'ziga xos falsafiy tizimlar doirasida rivojlantirgan. Ushbu boy meros Toledo va Sitsiliya orqali lotin dunyosiga o'tkazilgan.

2. Falsafiy tizimlarning ta'siri: Ibn Sinoning metafizikasi, Farobiyning siyosiy falsafasi va Beruniyning ilmiy metodologiyasi Yevropa intellektual an'anasining rivojiga katta hissa qo'shgan. Avitsennizm va Averroizm kabi oqimlar XIII-XIV asr Yevropa falsafasining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

3. Humanizm shakllanishidagi o'rni: Sharq falsafasi "yangi humanizm" konsepsiyasining shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Uning ko'p madaniyatli genealogiyasi va din bilan falsafani uyg'unlashtirishga intilishi Yevropa humanizmiga yangicha yondashuvlarni taklif etgan.

4. Axloqiy-estetik transfer: Sharq axloqiy qarashlari va estetik nazariyalari turli mexanizmlar orqali G'arbda o'zlashtirilgan va Uyg'onish davri adabiy-estetik tafakkurining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri o'rtasidagi o'zaro ta'sir madaniyatlararo dialogning yorqin namunasi bo'lib, bu jarayon ikki sivilizatsiya vakillarining umuminsoniy qadriyatlar va bilimlarni boyitishdagi hamkorligini ko'rsatadi. Ushbu tarixiy tajriba bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning muhim namunasidir.

ADABIYOTLAR

1. The Postwar Avicenna: Islamic Philosophy Answers the Crisis of Humanism. myMESA.
2. Macquire, K. The Genius of their Age: Ibn Sina, Biruni, and the Lost Enlightenment. World History Encyclopedia. 2023-10-24.
3. Islamic world contributions to Medieval Europe. Wikipedia.
4. Sharq falsafasi. inLIBRARY.
5. Janssens, J. Ibn Sina and his Influence on the Arabic and Latin World. Routledge, 2006.
6. Hankins, J. Arabic philosophy and Averroism. The Cambridge Companion to Renaissance Philosophy, 2007.
7. Abu Rayhan Biruni (life). Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022-10-25.

ISLOM AQIDASINING SHAKLLANISH TARIXI VA ASOSIY MANBALARI

Ergashev Jaxongir Abdurasul o'g'li

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi

Jaxongirmirzoergashev@gmail.com +998943037121

Abdug'aniyeva Dilnavoz Zafarjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

1-kurs talabasi e-mail: dilnavozabduganiyeva783@gmail.com

Annotatsiya: Islom aqidasi bo'yicha turli xil kitoblarni o'qigan holda, ushbu maqolada Islom e'tiqod tizimi — aqidaning shakllanish bosqichlari va uning fundamental manbalari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi Islom dinining ilk davrlaridan boshlab e'tiqodiy qarashlarning tizimlashish jarayonini va bu jarayonda asosiy tayanch hisoblangan manbalarning o'rnini ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat. Ishda aqidaviy tushunchalarning paydo bo'lishi, turli kalom maktablarining shakllanishiga sabab bo'lgan omillar hamda Qur'oni Karim va Sunnatning ushbu tizimdagi o'rni atroflicha o'rganganildi. Shuningdek, maqolada aqidaning sof islomiy mohiyatini saqlashda ulamolarning xizmatlari va manbalarga yondashuv metodologiyasi ochib berishga harakat qilindi. Tadqiqot natijasida Islom aqidasi shunchaki nazariy qarashlar to'plami emas, balki aniq vahy va aqliy dalillarga asoslangan mukammal tizim ekanligi xususida xulosalar chiqarildi. Maqola Islom tarixi va ilmi kalom bilan qiziquvchi mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun nazariy manba bo'lib xizmat qila oladi deb hisoblaniladi.

Kalit so'zlar: *Islom dini, Qur'oni karim, e'tiqod, Islom tarixi, tavhid, vahiy, kalom ilmi.*

Abstract: Drawing upon an extensive review of literature on Islamic theology, this article systematically analyzes the evolutionary stages of the Islamic belief system – Aqidah - and its fundamental sources. The primary objective of the research is to scientifically elucidate the systematization of theological views since the early days of Islam and the role of foundational sources as pillars of this process. The study examines the emergence of dogmatic concepts, the factors leading to the formation of various schools of Kalam, and the pivotal role of the Holy Qur'an and Sunnah within this framework. Furthermore, the article explores the contributions of scholars in preserving the authentic essence of Islamic creed and the methodology of approaching these primary sources. The research concludes that Islamic Aqidah is not merely a collection of theoretical perspectives, but a comprehensive system grounded in divine revelation and rational evidence. This article serves as a theoretical resource for specialists in Islamic history and Kalam, as well as for the general readership.

Keywords: *Islamic religion, Holy Qur'an, creed, Islamic history, Tawhid, Wahy, science of Kalam.*

Аннотация: На основе изучения различных трудов по исламскому вероучению, в данной статье проводится системный анализ этапов формирования исламской системы верований — акиды, а также её фундаментальных источников. Целью исследования является научное освещение процесса систематизации теологических взглядов, начиная с раннего периода ислама, и определение роли первоисточников, послуживших основой для этого процесса. В работе подробно рассматриваются возникновение догматических концепций, факторы, способствовавшие формированию различных богословских школ, а также место Священного Корана и Сунны в этой системе. Кроме того, в статье раскрываются заслуги ученых-богословов в сохранении подлинной сути исламского вероучения и методология подхода к источникам. В результате исследования сделан вывод о том, что исламская акида является не просто совокупностью теоретических взглядов, а совершенной системой, основанной на божественном откровении и рациональных доказательствах. Данная статья может служить теоретическим ресурсом для специалистов, интересующихся историей ислама и наукой калам, а также для широкого круга читателей.

Ключевые слова: *Исламская религия, Священный Коран, вероучение, история ислама, тавхид, откровение, наука калам.*

KIRISH

O'quv yilimiz boshlangandan beri menda dinshunoslikka qiziqish paydo bo'la boshlagan edi va men Islom aqidalariga e'tibor qarata boshladim va bu o'rganganlarimni maqolamda aks ettirdim. Islom dini nafaqat huquqiy va axloqiy tizim, balki eng avvalo mustahkam aqidaviy asoslarga ega bo'lgan e'tiqod tizimidir. Aqida — bu insonning qalban tasdiqlaydigan va shubha qilmaydigan mustahkam e'tiqodiy qonuniyatlaridir. Bugungi globallashuv davrida turli yot g'oyalar va radikal oqimlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda islom aqidasi asl mohiyatini o'rganish har qachongidan ham dolzarbroqdir.

Tadqiqotning maqsadi islom aqidasi shakllanish jarayonini tarixiy izchillikda tahlil qilish va uning asosiy manbalarini ilmiy asoslab berishdan iborat. Shuningdek, yurtimiz allomalarining, xususan, Imom Moturidiy kabi buyuk mutafakkirlarning islom ilohiyoti rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini yoritib berish muhimdir. Tadqiqot obyekti sifatida islomning ilk davridagi aqidaviy jarayonlar va Movarounnahr hududidagi ilmiy muhit olindi.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiylik va mantiqiylik: Islom aqidasi paydo bo'lishidan to bugungi kungi tizimlashgan holatiga qadar bo'lgan jarayon tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil: Sunniylikdagi moturudiylik va ash'ariylik maktablari, shuningdek, boshqa aqidaviy yo'nalishlarning (mu'taziliylar, xorijiyalar) qarashlari o'zaro solishtirildi.

Manbashunoslik tahlili: "Dinshunoslik" o'quv-uslubiy majmuasi va jahon islomshunos olimlari (V. Madelung, U. Rudolf)ning asarlari asosiy manba sifatida o'rganildi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

1. Islom aqidasi shakllanish bosqichlari

Islom aqidasi (aqoid ilmi) bir necha bosqichda shakllangan. Ilk bosqich Payg'ambarimiz (s.a.v.) davrini qamrab olib, bunda aqida sof vahyga asoslangan edi. Keyinchalik, xalifalikning kengayishi va turli madaniyatlar bilan to'qnashuv natijasida aqidaviy masalalarda turli bahslar vujudga keldi. VIII-IX asrlarga kelib, ratsionalistik (mu'taziliylar) va traditsionalistik (ahl al-hadis) qarashlar o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi.

2. Asosiy manbalar tahlili

Islom aqidasi asosi ikki buyuk manbaga tayanadi:

Qur'oni Karim: Mutloq va o'zgarmas manba bo'lib, unda Allohning birligi, sifatleri, oxirat va farishtalarga bo'lgan imon asoslari bayon etilgan.

Sunnat (Hadis): Qur'on oyatlarini sharhlovchi va amaliyotga tatbiq etuvchi manba. Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi muhaddislarning xizmatlari tufayli sahih hadislar aqidaviy asos sifatida mustahkamlandi.

3. Movarounnahr aqida maktabi va Imom Moturidiy

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Movarounnahr hududida islom aqidasi o'ziga xos ratsionalizm va an'anaviylik uyg'unligida rivojlandi. Abu Mansur al-Moturidiy (vaf. 944 y.) tomonidan asos solingan moturudiylik maktabi islom aqidasi mantiqiy va aqliy dalillar bilan boyitdi. Moturudiylikning quyidagi xususiyatlari aniqlandiki:

Inson irodasi va amallari masalasida o'rtacha yo'lni (kasb) tutishi.

Aql va naql (vahy) o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi.

4. Diniy bag'rikenglik va aqida

Aqida faqat quruq qoidalar majmui emas, balki ijtimoiy barqarorlik omilidir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, to'g'ri shakllangan aqidaviy tushuncha ekstremizm va fanatizm kabi illatlarga qarshi qalqon vazifasini o'taydi. Bugungi O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaning tinch-totuv yashashi islom aqidasi bag'rikenglik tamoyillarining amaldagi in'ikosidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom aqidasi Qur'on va Sunnatga asoslangan holda, tarixiy jarayonlar va ilmiy bahslar natijasida sayqallanib borgan. Movarounnahr mutafakkirlarining xizmati bilan islom ilohiyoti o'zining mukammal va mo'tadil shakliga ega bo'ldi. Islom aqidasi ilmiy asosda o'rganish yoshlarda yot g'oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy himoyani yaratishda asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Xo'jamov M.R., Mirzaxalov S. Dinshunoslik: O'quv-uslubiy majmua. — To'raqo'rg'on: NamDCHI, 2024.
3. Rudolf Ulrich. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. (O'zbek tilidagi tarjimasi). — Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro markazi.
4. Madelung Wilferd. Religious Trends in Early Islamic Iran. — Columbia Lectures on Iranian Studies, No. 4.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. — Toshkent: Hilol Nashr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — 2018-yil 16-aprel.
7. Ziyouz portalining islom bo'limi

ИСҲОҚХОН ИБРАТ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Бахром Джалолов

Наманган давлат чет тиллари институти ўқитувчиси

Мубина Нёматжоновна,

Минаввархон Мусаева

Наманган давлат чет тиллари институти талабалари

Анотация: Ушбу мақолада Исҳоқхон тўра Ибратнинг ҳаётида содир бўлган энг муҳим воқеалар ва дунё мамлакатларига қилган сайёҳатлари ҳамда ўз она ватанига қайтганидан сўнг, Туркистон ижтимоий-иқтисодий ҳаётида ишти-роки ҳақида баён қилинади. Шунингдек, совет ҳукуматининг Исҳоқхон тўра Ибратга бўлган муносабати, хусусан уни тазйикқа олиш, Тўрақўрғондан Анжижонга сургун қилиниши ҳамда ўша ерда қатагон қилиниши ҳақида танқидий-таҳлилий фикр юритилади.

Таянч сўз-иборалар: *жадидчилик, миллий уйғониш, ватан, халқ истиқлоли, тахаллус, шеър, шажара, ҳужжат, ҳуснихат, наққошлик, литография, қулоқ, сургун, қатагон, мактаб-интернат, хиёбон.*

Аннотация: В этой статье описываются наиболее важные события в жизни Исхакхана Туры Ибрата, его путешествия по миру и его участие в социально-экономической жизни Туркестана после возвращения на родину. В нем также критически анализируется отношение советского правительства к

Исхақхона Туры Ибрата, в частности, его преследования, ссылки из Туракур-гана в Андижан и репрессий там.

Ключевые слова: *борьба, национальное возрождение, родина, народная независимость, прозвище, стихотворение, генеалогическое древо, документ, панегирик, живопись, литография, кулак, изгнание, репрессии, школа-интернат, переулок.*

Abstract: This article describes the most important events in the life of Is'haqhan Tura Ibrat, his travels around the world, and his participation in the socio-economic life of Turkestan after returning to his homeland. It also critically analyzes the Soviet government's attitude towards Is'haqhan Tura Ibrat, in particular his persecution, exile from Turakurgan to Andijan, and repression there.

Key words: *struggle, national revival, homeland, people's independence, nickname, poem, family tree, document, eulogy, painting, lithography, kulak, exile, repression, boarding school, alley.*

Бугунги кунда илмий жамоатчилик ва иқтидорли ёшлар орасида Наманган фарзанди, жадидчиик ҳаракатининг йирик намояндаси Исҳоқхон Ибрат ҳаёти ва фаолияти тарихига бўлган қизиқиш кундан-кунга ортиб бораётганлиги ҳеч кимга сир эмас албатта. Айниқса, бу борада Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг “Миллий уйғониш даврининг етук намояндаларидан бири, Ватан ва халқ истиқлоли учун жонини фидо этган улуғ бобомиз Ибрат домла XIX асрда Тўраўрғон заминида туғилиб ўсган ноёб истеъдодли бу инсон араб, рус, ҳинд, урду, инглиз, француз тилларини яхши билганлиги, бундай фидоий инсонлар ўзбек халқининг фахри-ифтихоридир[1.:75]” дея таъкид-лаган фикрлари мавзунини ёритишда муҳим аҳамият касб этади.

Фарғона водийсининг кўзга кўринган жадидларидан бири бўлган Исҳоқхон Ибрат 1862 йил 21 мартда Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Сайрам қишлоғида дунёга келди. Исҳоқхон тўранинг отаси Жунайдуллохон тўра соҳибкор боғбонларидан бўлиб, “Ходим” тахаллуси билан шеърлар ёзган.

Онаси Ҳурбиби мактабдор бўлиб, ўз уйида қизларни ўқитган. Исҳоқхон Ибратнинг насл-насаби Аҳмад Яссавийга дахлдорлиги ҳақида 20 киши муҳр урган шажара-хужжат ҳозир ҳам сақланиб қолинганлиги ҳақида маълумотлар келтирилади[2.:82].

Исҳоқхон Ибрат дастлабки билимни онаси Ҳурбибидан ўрганиб, 1878-1879 йилларда Қўқондаги Тунқатор мадрасасида таҳсил олади ҳамда араб, форс тилларини ўрганади. Тарих, тилшунослик каби фанлар билан жиддий шуғулланиб, ҳуснихат ва нақш чизишни эгаллашга жиддий қизиқади.

Тўрақўрғонга қайтган Ибрат 1886 йил янги усул мактабини очиб муаллимлик қила бошлайди. Мактабда дунёвий фанларни ўқитишга алоҳида эътибор берилган эди, бироқ чор маъмурлари томонидан турли иғволар туфайли мактабни ёпиб қўйилади [3.:191].

1887 йил Ибрат чет эл сайёҳатида отланиб, Туркия, Эрон, Миср ва Арабистонга боради ва ҳаж маросимини бажаётган чоғида онаси вафот этади.

Онасини Маккада дафн этган Ибрат у ердан Европага интилади ҳамда Болгария, Греция ва Италияда бўлади. Сўнгра Ҳиндистон ва Афғонистонда ҳам бўлгач, Қошғарга боради ва 1895 йил Тўрақўрғонга қайтиб келади. [4.:192].

1907 йил Россиянинг Оренбург шахрига бориб, Гафман исмли матбаачидан пулини 10 йил мобайнида тўлаш шарти билан литография, яъни китоб босиш дастгоҳини сотиб олади[5.:128].

Нашриёт ускуналари Оренбургдан катта машаққатлар билан поездда Кўконга, у ердан Тўрақўрғонга туяларда олиб келиниб, ўз фаолиятини бошлайди. Ушбу босмахона Тўрақўрғонда Матбааи Исҳоқия” номи билан шуҳрат топган[6.:128].

1917 йил давлат тўнтариши туфайли ҳокимиятини қўлга киритган совет ҳукумати ўз давридаги юқори фикрлайдиган, ўз шахсий мулоҳазаларига эга бўлган, зиёли ва олим одамларни таъқиб эта бошлади ва уларга нибатан катагончилик сиёсатини олиб борди. Бу мудҳиш сиёсат туфайли, албатта Ибрат ҳам назорат остига олинган, ҳар қадамда ундан шубҳаланиш, уни тазйик остига олиш бошланган эди. Унга нисбатан очилган “жиной иш” ҳужжатларида маълумоти олий эканлиги, араб, форс, турк, ҳинд, ва рус тилларини билиши, “инқилобгача” 10 йил давомида қозилик мансабида турганлиги, 1926 йилдаёқ ер майдонини сотиб олгани учун суд ҳукми билан 1 йилга озодликдан маҳрум этилгани айтиб ўтилади[7.:128].

Исҳоқхон Ибрат оиласи билан 1930 йил кулоқ қилиниб, Андижон вилояти Шаҳрихон ҳудудидаги Тумор қишлоғига сургун қилинади. Бироқ у ерда ҳам уни тинч қўйишмайди, эндиликда унга ўзи ва оила аъзолари колхозга аъзо эмаслиги, ўзи эса қишлоқ имоми бўлганлиги ва бошқа айблар билан билан уни қамоққа олиш ишлари бошланган эди. Хусусан, Исҳоқхон Ибратга 1937 йилги катагонларга совет ҳукумати томонидан турли айбловлар қўйилди, жумладан, 1937 йил 8 феврал да Андижон вилояти, Шаҳрихон тумани ички ишлар бўлими томонидан қамоққа олиш ҳақидаги ҳужжат тайёрланган.

75 ёшли Исҳоқхон Ибратни гўёки “шу атрофдаги колхозчилар орасида аксилинқилобий тарғибот олиб боргани, ссовет ҳокимиятига қарши чиқишлар ташкил этиш борасида тарғибот-ташвиқот ишлари олиб борганлиги”, айблари билан 1937 йил 10 февралда Андижон турмасига қамаб қўйилади[8.:183].

Тергов жараёнида маҳбусни “айби”ни бўйнига олувчи кўрсатма, маълумот олиш ва тергов материалларини сохталаштириш мақсадида унга азоб берувчи жисмонан қийнаганлиги, оқибатда кексайиб қолган Ибрат домла 1937 йилининг 19 июнида қийноқларга чидаолмай турма камерасида жон таслим қилганлиги, шунингдек, жаносасиз, кафансиз ярим кечаси яширинча кўмилганлиги ҳақида айтилади.[9.:190].

Ноҳақ айбланиб, катагон қилинган Ибрат 22 йил ўтиб, 1959 йил 2 октябрь да оқланади ва бу тўғрисида Тўрақўрғон туманига Андижон вилояти прокурорининг ўринбосари Мирзаалимов имзоси билан расмий №3326-сонли хат келади. Унда Исҳоқхон Ибратга алоқадор жиноят иши жорий йилининг 30 сентябрида қайта кўриб чиқилиб, айблаш учун далил-исбот бўлмагани учун иш тўхтатилиб, Ибрат домла оқлангани ҳақида хабар беради.[10.:89].

Узоқ вақтлар давомида халқ эътиборидан четда қолиб келинган Исҳоқхон Ибрат номини ва унинг илмий меросини ўрганиш ва халққа тақдим қилиш ташаббуси Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилди ҳамда унинг номини абадийлаштириш борасида чора-

тадбирлар амалга оширилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси-нинг 2017 йил 13 апрелдаги “Наманган вилояти Тўрақўрғон туманида атоқли маърифатпарвар Исҳоқхон Ибрат номидаги ёдгорлик мажмуасини ташкил этиш тўғрисидаги” ҳамда 2017 йил 5 сентябрда “Исҳоқхон Ибрат номидаги хорижий тилларга ихтисослаштирилган мактаб-интернатни ташкил этиш тўғрисида”ги қарорлари қабул қилинди.[11.:8]

2018 йилда Наманган вилояти ҳокими Хайрулло Бозоровнинг “Исҳоқхон тўра Ибратга муносиб бўлайлик” деб вилоят аҳлига мурожаати оммавий ахборот воситаларида эълон қилинди. Унда вилоят ҳокими “Исҳоқхон Ибрат ғояларини амалга ошириш, бугунги тез ўзгарувчан замонда давр талабалрига жавоб берувчи, ҳар томонлама баркамол, билимдон авлодлар бўлиб етишишга қаратиш, жумладан, глобал шароитда юз бераётган ўзгаришларга теран кўз ва соғлом ақл билан ёндошиш, бир неча хорижий тилларни мукамал ўрганиш, техника ва турли технологияларни пухта ўзлаштиришга ёшлар даъват этилган эди.

Ушбу мурожаатдан сўнг, Ибрат мажмуасини бунёд этиш умумхалқ ҳаракати тусини олиши натижасида Тўрақўрғонда 2 гектардан ошиқ майдонни ташкил этган Исҳоқхон Ибрат номидаги ёдгорлик мажмуаси, лойиҳа қиймати 15 миллиард сўмдан иборат боғ-ҳиёбон, унинг ўртасида Ибрат домла сиймоси, миллий меъморчилик услубидаги айвон, чет тилларга ихтисослаштирилган 400 ўринли мактаб-интернат тарихий меъморчилик йўналигида барпо этилган музей ташкил қилинди.[12.:13].

2018 йилнинг 3 май кунида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Исҳоқхон Ибрат мажмуасини очилишда қатнашиб, мактаб-интернатга ташриф буюрди ҳамда ўқитувчи ва ўқувчилар билан мулоқот қилдилар. Давлатимиз раҳбари Ибрат номи аталувчи мактаб ҳар томонлама намунали бўлиши, бир неча хорижий тилни билган замонвий кадрларни тарбиялаш муҳимлигини таъкидлаб, “Ибрат домланинг Ватан ва юрт тараққиёти йўлидаги фидокорона ҳаёти нафақат ўз даврида, балки бугунги кунда ҳам барчамиз учун ибрат намунаси бўлиб қолмоқда” дея таъкидлаган эдилар.[13.:211].

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Исҳоқхон Ибратнинг келажак авлодга қолдирган бой ва унитилмас илмий меросини ўрганиш ва тадқиқ қилиш, унга муносиб фарзанд бўлишга интилиш бугунги кун ёшларига намунали бўлиш учун дастурамал бўлиб хизмат қилади. Ибрат номидаги Наманган давлат чет тиллари институти талабалари ҳа бу борада кўплаб хайрли ишларни амалга ошириб, Ибрат издошлари каби илм олишдан ҳамда бир неча тилларини ўрганишга, шунингдек, жуда катта маъсулият билан қараб келмоқдалар.

Манбалар ва адабиётлар

1. Мирзиёев. Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Тошкент.:Ўзбекистон. 2019.
2. Лутфулло Маҳмуд. Исҳоқхон Ибрат яратган боғ. Наманган.:2018.
3. Халилбеков. А. Наманган адабий гулшани. Наманган.:2007.
4. Халилбеков. А. Наманган адабий гулшани.....

5. Садриддинов. А. Туркистон ўлкасида босмахоналар тарихига доир. (Матбааи Исҳоқия"). Тарих тилга кирганда. Даврий тўплам. №7. Илмий мақолалар тўплами. Наманган.:2015.
6. Садриддинов. А. Туркистон ўлкасида босмахоналар тарихига доир. ("Матбааи Исҳоқия"). Тарих тилга кирганда. Даврий тўплам. №7.
7. Шамсутдинов. Р. Қатағон қилинган юртдошларни хотирлаб. Тошкент.: Akademnashr. 2018.
8. Шамсутдинов. Р. Қатағон қилинган юртдошларни хотирлаб...
9. Шамсутдинов. Р. Қатағон қилинган юртдошларни хотирлаб...
10. Шамсутдинов. Р. Қатағон қилинган юртдошларни хотирлаб...
11. Лутфулло Маҳмуд. Исҳоқхон Ибрат яратган боғ...
12. Ибрат нигоҳидаги Ахсикент. /Қозоқов Т ва бошқ...Тошкент.: "Наврўз" нашриёти. 2018.
13. Солнома. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев
14. фаолияти хроникаси. Тошкент.:Ўзбекистон. 2022.

CREATING FEAR FROM WITHIN: PSYCHO-POETIC PATTERNS IN MARY SHELLEY'S FRANKENSTEIN

Mahmudova Munira Murodjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi NDChTI magistranti

E-mail: makhmudovaam7@gmail.com

UO'K 159.9(575.1)

Annotation: Fear is a central theme in Gothic fiction (Punter, 2015); however, it is often examined as an external source of terror rather than as an internal psychological experience. The psycho-poetic mechanisms through which fear arises from the characters' inner emotional states remain underexplored (Botting, 1996). This article investigates the psycho-poetic patterns of fear in Mary Shelley's *Frankenstein* (Shelley, 1818/2018), focusing on how guilt, alienation, and moral anxiety are transformed into literary structures that shape the novel's Gothic atmosphere. Employing a psycho-poetic and interpretative approach informed by psychoanalytic theory (Freud, 1919/1960), the study highlights the interplay between psychological tension and narrative form. The analysis demonstrates that fear in *Frankenstein* emerges primarily from internalized emotions rather than conventional Gothic horror, illustrating the novel's distinctive contribution to psychological Gothic fiction. This research enhances the understanding of the role of psycho-poetics in literary analysis and the ways in which literature can effectively depict the complexities of human fear (Hogle, 2002).

Keywords: Gothic fiction, psycho-poetics, fear, Mary Shelley, *Frankenstein*, psychological analysis

Annotatsiya: Qo'rquv Gothic fiction janrining markaziy mavzularidan biri hisoblanadi (Punter, 2015); biroq u ko'pincha tashqi dahshat manbai sifatida talqin etilib, ichki psixologik tajriba sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Qahramonlarning ichki emotsional holatlaridan kelib chiqadigan qo'rquvning psixo-poetik

mexanizmlari hanuz to'liq tadqiq etilmagan (Botting, 1996). Ushbu maqola Frankenstein romanida qo'rquvning psixo-poetik naqshlarini o'rganadi hamda ayb hissi, begonalashuv va axloqiy tashvishlarning adabiy strukturalarga aylanish jarayonini tahlil qiladi, bu esa asarning gotik muhitini shakllantiradi. Psixoanalitik nazariya (Sigmund Freud, 1919/1960) asosida ishlab chiqilgan psixo-poetik va interpretativ yondashuvdan foydalangan holda, tadqiqot psixologik keskinlik va narrativ shakl o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, "Frankenstein" asarida qo'rquv an'anaviy gotik dahshatdan ko'ra ko'proq ichki hissiyotlardan kelib chiqadi va bu roman psixologik gotik adabiyotga o'ziga xos hissa qo'shadi. Mazkur tadqiqot adabiy tahlilda psixo-poetikaning o'rni hamda adabiyot inson qo'rquvining murakkab jihatlarini qanday aks ettirishini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi (Hogle, 2002).

Kalit so'zlar: Gotik adabiyot, psixo-poetika, qo'rquv, Mary Shelley, Frankenstein, psixologik tahlil.

Аннотация: Страх является одной из центральных тем Gothic fiction (Punter, 2015); однако чаще всего он рассматривается как внешний источник ужаса, а не как внутренний психологический опыт. Психопоэтические механизмы возникновения страха из внутренних эмоциональных состояний персонажей остаются недостаточно изученными (Botting, 1996). В данной статье исследуются психопоэтические модели страха в романе Frankenstein, с акцентом на то, как чувство вины, отчуждение и моральная тревога трансформируются в литературные структуры, формирующие готическую атмосферу произведения. Используя психопоэтический и интерпретативный подходы, основанные на психоаналитической теории Sigmund Freud (1919/1960), исследование выявляет взаимосвязь между психологическим напряжением и нарративной формой. Анализ показывает, что страх в «Frankenstein» возникает преимущественно из внутренних эмоций, а не из традиционного готического ужаса, что подчеркивает уникальный вклад романа в психологическую готику. Данное исследование углубляет понимание роли психопоэтики в литературном анализе и демонстрирует, каким образом литература способна передавать сложность человеческого страха (Hogle, 2002).

Ключевые слова: Готическая литература, психопоэтика, страх, Mary Shelley, Frankenstein, психологический анализ.

Introduction

Fear has long been recognized as a defining element of Gothic literature (Punter & Byron, 2004), functioning not only as a means of attracting readers but also as a powerful instrument for evoking intense emotional responses. In Gothic novels, fear is articulated through a combination of external events, a mysterious and oppressive atmosphere, and the internal psychological states of characters (Hogle, 2002). This dual representation allows Gothic fiction to explore fear both as a narrative device and as a complex emotional experience.

Mary Shelley's Frankenstein occupies a significant position within the Gothic literary tradition (Mellor, 1988), as the novel reconfigures conventional Gothic fear by emphasizing inner psychological experience alongside external Gothic motifs. Rather than relying solely on supernatural or sensational elements, Shelley presents

fear as a product of guilt, isolation, and moral anxiety. Analyzing Frankenstein through a psycho-poetic approach enables a deeper understanding of how fear emerges from the characters' inner emotional states and how these psychological processes are embedded within the novel's narrative and structural design (Botting, 1996; Freud, 1919/1960).

The primary aim of this research is to identify and examine the psycho-poetic models of fear in Frankenstein. By doing so, the study demonstrates that fear in the novel originates predominantly from internal psychological processes rather than from external sources alone. Furthermore, this research contributes to a more nuanced understanding of the role of psycho-poetics in literary analysis and highlights its significance in the interpretation of Gothic literature.

Methodology

Fear has long been regarded as one of the central concepts in Gothic literature, and it has attracted the attention of literary scholars for many decades. Early studies of Gothic fiction primarily focused on external elements of fear, such as dark settings, supernatural events, and mysterious atmospheres. These studies viewed fear mainly as an aesthetic and narrative tool used to create suspense and emotional impact on readers. However, such approaches often overlooked the inner psychological dimensions of fear experienced by literary characters.

From the second half of the twentieth century, literary criticism began to shift toward psychological interpretations of Gothic literature. Scholars such as Punter (1996) emphasized that Gothic fiction reflects deep psychological and social anxieties, suggesting that fear often arises from internal conflicts rather than external threats. Similarly, Botting (1996) argued that Gothic fear is closely connected to repression, moral uncertainty, and emotional tension, which are expressed through symbolic imagery and narrative structures. These perspectives marked an important transition from purely atmospheric interpretations of Gothic fear to more psychologically grounded analyses.

Another significant contribution to Gothic studies was made by Hogle (2002), who highlighted the role of internal struggle, guilt, and alienation in shaping Gothic narratives. According to Hogle, Gothic texts frequently portray characters who are psychologically fragmented and emotionally displaced, and fear emerges as a result of unresolved inner conflicts. This view supports the idea that Gothic literature functions not only as a genre of horror but also as a medium for exploring the complexities of the human mind.

Mary Shelley's Frankenstein has been widely discussed within this psychological and ethical framework. Numerous scholars have examined the novel in relation to themes such as responsibility, isolation, and moral transgression (Shelley, 1818/2008). Psychoanalytic interpretations, influenced by the theories of Freud (1919), suggest that fear in Gothic literature often stems from guilt, repression, and unconscious anxiety. In Frankenstein, fear is closely associated with Victor Frankenstein's sense of guilt and the Creature's experience of social rejection, which reinforces the novel's psychological depth.

In more recent literary studies, the concept of psychopoetics has been introduced as an effective analytical framework for examining the relationship

between psychological states and literary form. Psychopoetic approaches focus on how emotions, including fear, are represented through language, narrative structure, and imagery (Tsur, 2008). This approach allows scholars to analyze not only the emotional content of a literary text but also the artistic mechanisms through which these emotions are conveyed.

Despite the extensive research on *Frankenstein*, the specific psychopoetic patterns through which fear is internally constructed remain insufficiently explored. Therefore, this study adopts a psychopoetic and interpretative approach to analyze how fear is shaped through guilt, alienation, and moral anxiety in the novel. By building upon previous scholarly work and applying psychopoetic analysis, the present research aims to contribute to a deeper understanding of psychological fear in Gothic literature.

This research was conducted using a qualitative research method (Creswell, 2013). Mary Shelley's *Frankenstein* was selected as the primary research material because it represents one of the most significant examples of Gothic literature, revealing the inner psychological models of fear (Mellor, 1988; Punter, 2015). The novel was analyzed thoroughly to examine how fear emerges within the characters' minds and how it is manifested through the literary structure.

The study primarily employs a psycho-poetic approach, which enables an interpretation of how psychological states are reflected through poetic and narrative structures (Freud, 1919/1960; Botting, 1996). In addition, several core concepts from psychoanalytic theory, including guilt, alienation, and moral anxiety, were applied to guide the analysis. Through these categories, the research demonstrates that fear originates from internal psychological processes rather than from external events alone.

The analysis was carried out using an interpretative method. Important episodes and linguistic elements were carefully selected, and their meanings and functions were examined within their contextual framework. Illustrations of fear, inner monologues, and aspects of narrative structure were identified through close reading. This methodological approach allows for the identification of psycho-poetic models of fear and elucidates the role of these elements in shaping the Gothic atmosphere of the novel.

Results

The aim of this research was to identify the inner psycho-poetic models of fear in Mary Shelley's *Frankenstein*. The analysis revealed that fear manifests through three primary models: guilt, alienation, and moral anxiety. Each of these models plays a significant role in shaping both the Gothic atmosphere and the psychological states of the characters.

3.1 Guilt

Victor Frankenstein's inner fear is predominantly associated with his mistakes and sense of irresponsibility. Throughout the novel, Victor experiences guilt for his scientific experiments and for his attempts to create the Creature, which in turn generates intense fear within his emotional state. For example, he perceives himself as responsible for the Creature's negative actions, and this feeling of guilt leads to

constant anxiety and distress. Consequently, guilt functions as an internal psychological source of fear, rather than as a mere external Gothic terror.

3.2 Alienation

The Creature's fear and internal anxiety are closely linked to social alienation. He experiences profound loneliness and isolation due to being rejected by human society. His encounters with other people intensify his fear and anxiety, aligning his psychological state with the Gothic atmosphere throughout the novel. Therefore, alienation not only amplifies the character's internal fear but also strengthens the overall Gothic ambiance of the narrative.

3.3 Moral Anxiety

Victor Frankenstein's attempts to transcend scientific boundaries and circumvent natural laws give rise to profound internal fear. The Creature he creates disrupts the moral and natural limits of humanity, thereby intensifying the psycho-poetic forms of Gothic fear. Moral anxiety affects Victor's inner psychological tension and simultaneously plays a crucial role in shaping the Gothic atmosphere of the novel.

The results indicate that fear in Frankenstein primarily emerges from internal psychological processes. Psycho-poetic elements, such as guilt, alienation, and moral anxiety, serve as key mechanisms for generating the Gothic atmosphere. While the novel depicts fear through external events, it is equally reflected in the inner psychological states of the characters, demonstrating the intricate interplay between Gothic narrative and human emotion.

Discussion

The findings of this study highlight the complex interplay between internal psychological states and Gothic narrative techniques in Mary Shelley's Frankenstein (Shelley, 1818/2018). The analysis demonstrates that fear in the novel is not merely a product of external Gothic elements, such as dark settings or supernatural events, but is primarily generated through internalized emotions, including guilt, alienation, and moral anxiety. This insight reinforces the idea that Gothic fiction operates as both a literary and psychological exploration of fear.

The first psycho-poetic model, guilt, illustrates how personal responsibility and ethical transgressions shape the internal emotional landscape of a Gothic character. Victor Frankenstein's sense of culpability and the persistent anxiety it generates exemplify how the Gothic genre can translate moral and psychological tension into narrative suspense. Unlike traditional Gothic horror, which often relies on external terror to evoke fear, Shelley emphasizes the inner workings of the mind, thereby creating a more nuanced and psychologically grounded form of Gothic fear.

The second model, alienation, underscores the role of social and emotional exclusion in the development of fear. The Creature's profound isolation and rejection by human society illustrate how social estrangement intensifies psychological distress. By embedding alienation within the Gothic narrative, Shelley not only emphasizes the emotional suffering of her characters but also heightens the novel's atmospheric tension. This demonstrates that Gothic literature (Punter & Byron, 2004) can reflect real human experiences of loneliness and otherness while simultaneously producing literary suspense.

Finally, moral anxiety emerges as a central mechanism by which Gothic fear is intensified. Victor's transgression of natural and scientific boundaries, and the resulting consequences, highlight the ethical and existential dimensions of Gothic terror. The novel suggests that fear arises not only from immediate danger but also from the awareness of violating moral or natural laws, thereby adding a philosophical depth to Gothic literature (Punter, 2015). In this sense, Shelley's work illustrates the capacity of Gothic fiction to interrogate the moral and psychological consequences of human ambition.

Taken together, these findings emphasize the significance of psycho-poetics in Gothic literature. By analyzing the interplay of guilt, alienation, and moral anxiety, this study demonstrates that Gothic fear is as much a product of the mind as it is of external narrative elements. Shelley's *Frankenstein* exemplifies how Gothic fiction can integrate psychological complexity into its aesthetic framework, producing a literary experience that is both emotionally compelling and intellectually rich.

In conclusion, the discussion highlights that the Gothic mode is not limited to external terror but extends into the inner lives of characters, revealing the intricate ways in which literature can represent the complexities of human fear. This perspective contributes to a deeper understanding of psychopoetics and underscores its importance in the study of Gothic narratives and literary analysis more broadly.

Conclusion

This study has examined the psycho-poetic models of fear in Mary Shelley's *Frankenstein*, highlighting how fear in Gothic literature extends beyond external terror to the inner psychological experiences of characters. The analysis demonstrates that fear in the novel primarily emerges through three interrelated mechanisms: guilt, alienation, and moral anxiety. Each of these elements contributes not only to the psychological development of the characters but also to the creation of the novel's Gothic atmosphere.

By focusing on the internalized nature of fear, this research underscores the importance of psychopoetic analysis in understanding Gothic fiction. Shelley's *Frankenstein* illustrates that Gothic terror is most powerful when it reflects the characters' emotional and moral struggles, rather than relying solely on external events or supernatural phenomena. In this way, the novel bridges the gap between psychological realism and Gothic aesthetic, offering readers a deeply nuanced exploration of human fear.

Overall, this study contributes to a more comprehensive understanding of the role of psychopoetics in literary analysis and highlights the ways in which Gothic literature can depict complex emotional and moral experiences. Future research may further explore how psycho-poetic mechanisms operate in other Gothic works, or how similar internalized fears manifest across different literary genres.

Reference List

1. Botting, F. (1996). *Gothic*. London: Routledge.
2. Creswell, J. W. (2013). *Qualitative inquiry & research design: Choosing among five approaches* (3rd ed.). Thousand Oaks, CA: Sage.
3. Freud, S. (1960). *Beyond the pleasure principle* (J. Strachey, Trans.; Original work published 1919). New York, NY: W. W. Norton.

- 4.Hogle, J. E. (Ed.). (2002). The Cambridge companion to Gothic fiction. Cambridge: Cambridge University Press.
- 5.Mellor, A. K. (1988). Mary Shelley: Her life, her fiction, her monsters. London: Routledge.
- 6.Punter, D. (2015). The literature of terror: A history of Gothic fiction. London: Routledge.
- 7.Punter, D., & Byron, G. (2004). The Gothic. Malden, MA: Blackwell Publishing.
- 8.Shelley, M. (2018). Frankenstein (Annotated edition). London: Penguin Classics. (Original work published 1818)

RAQAMLI DISKURSDA MA'NO SHAKLLANISHI VA EMOJI SEMANTIKASINING ASOSIY TURLARI

Jalilova Nilufar Toxirjonovna

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada emojilar zamonaviy raqamli diskursning ajralmas komponenti sifatida lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Emoji semantikasi yozma nutqning vizual kengaytmasi sifatida baholanib, uning ma'no hosil qilish jarayonidagi o'rni funksional-semantik yondashuv asosida ochib beriladi. Emojilarning emotsional, referensial, pragmatik, simvolik va kontekstual semantik turlari tizimli ravishda tavsiflanadi hamda ularning muloqot samaradorligiga ta'siri batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: emoji, raqamli diskurs, semantika, pragmatika, vizual lingvistika, referensial semantika

Abstract: This article linguistically analyzes emoji as an integral component of modern digital discourse. The semantics of emoji are considered as a visual extension of written speech, and its role in the process of meaning formation is revealed based on a functional-semantic approach. The emotional, referential, pragmatic, symbolic, and contextual semantic types of emoji are systematically described, and their impact on communication effectiveness is detailed.

Key words: emoji, digital discourse, semantics, pragmatics, visual linguistics, referential semantics

Аннотация: В данной статье эмодзи рассматриваются с лингвистической точки зрения как неотъемлемый компонент современного цифрового дискурса. Семантика эмодзи рассматривается как визуальное расширение письменной речи, а его роль в процессе смоллообразования раскрывается на основе функционально-семантического подхода. Эмоциональные, рефератные, прагматические, символические и контекстуальные семантические типы эмодзи описываются систематически, а их влияние на эффективность коммуникации подробно рассматривается.

Ключевые слова: эмодзи, рекламный дискурс, семантика, прагматика, визуальная лингвистика, референциальная семантика

Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji insoniyat muloqotida yangi kommunikativ modellarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar doirasida yozma nutq ustuvor shaklga aylandi. Ushbu muhitda noverbal vositalarning cheklanganligi hozirgi kunda emojilar orqali kompensatsiya qilinmoqda. Emojilar dastlab hissiy belgilar sifatida qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ular murakkab semantik yuklama olib, nutq mazmunini shakllantiruvchi mustaqil birlik darajasiga ko'tarildi. Shu bois emojilarni ilmiy tadqiq etish, xususan ularning semantik va pragmatik imkoniyatlarini aniqlash tilshunoslik doirasida dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylandi. Ta'kidlash joizki, raqamli diskurs tushunchasi internet va elektron muloqot muhiti doirasida yuzaga keladigan nutqiy faoliyatni ifodalaydi. Ushbu diskurs turi multimodalligi bilan ajralib turadi, ya'ni unda matn, tasvir va belgilar o'zaro uyg'unlashadi. Emoji ana shu multimodal diskursning markaziy unsurlaridan biri bo'lib, u til va tasvir o'rtasidagi chegarani yumshatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Lingvistik nuqtayi nazardan emoji yozma nutqning paralingvistik elementi sifatida baholanadi. Tilshunos Bijan Torkzadeh emoji yuqori darajada kontekstga bog'liq bo'lgan belgilar bo'lib, ularning ma'nosi muloqot jarayonida shakllanadi deya ta'kidlagan [1]. Mazkur fikr emoji semantikasi dinamik va kontekstual ekanligini ko'rsatadi. Tilshunos Francisco Yus esa emoji multimodal kommunikatsiya tizimining bir qismi deya hisoblagan. Unga ko'ra, emoji matn bilan birgalikda ishlaganda kommunikativ ma'no yanada to'liq ifodalanadi [2]. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, tadqiqotchi Lauren Gawne [3] emoji talqinida madaniy omillar muhim rol o'ynashini ta'kidlagan bo'lsa, Disa Sauter emojilar emotsional ma'no uzatishdagi rolini o'rgangan. Uning fikricha, emoji insonning hissiy holatini tez va samarali ifodalash imkonini beradi [4]. Keltirilgan fikrlarni umumiy ravishda aytish mumkinki, emoji semantikasi tilshunoslikda ko'p qirrali fenomen hisoblanadi. Guvohi bo'lganimizdek, turli tadqiqotchilar emojilarni pragmatik kommunikativ vosita, multimodal belgilar tizimi, emotsional semantik birlik, madaniy kontekstga bog'liq belgi sifatida talqin qiladilar. Bu esa emoji zamonaviy raqamli kommunikatsiya tizimining muhim lingvistik elementi ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda emojilar xususida olib borilgan izlanishlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki emoji semantikasi besh asosiy turga bo'linadi:

1. *Emotsional semantika*- emojining hissiy holatni ifodalash xususiyati bilan belgilanadi. Tadqiqotchi Riordan emotsional emojilar haqida shunday yozadi: Emoji emotsiyalarni vizual tarzda ifodalash imkonini beradi va raqamli xabarlarining ohangini aniqlashtirishga yordam beradi [5]. Ushbu tur emojilarning eng keng tarqalgan va universal qatlamini tashkil etadi. Yozma muloqotda emotsional emojilar nutqning subyektiv munosabatini ochib berib, adresat tomonidan to'g'ri talqin qilinishiga xizmat qiladi. *Bugun imtihondan 5 oldim* misolida emoji quvonchni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. *Referensial semantika*- real obyekt va hodisalarning vizual ifodasi orqali yuzaga keladi. Bunday emojilar til birliklarining ixcham muqobili sifatida xizmat qiladi. Vizual nominatsiya jarayonida emoji so'z bilan tenglashib, axborotni tez va

aniq yetkazish imkonini yaratadi. Misol uchun *Bugun yog'adi* -emoji ob-havoni bildiradi.

3. *Pragmatik semantika*- emojiining nutq vaziyatiga moslashuvchanligi bilan izohlanadi. Emoji kommunikativ niyatni yumshatishi, kuchaytirishi yoki modifikatsiya qilishi mumkin. Ayniqsa, kinoya, hazil va baholash kabi nutq aktlarida pragmatik emojilarning roli yuqori. *Zo'r qilibsiz* misolida kontekstga qarab emoji ham samimiy, ham kinoyali bo'lishi mumkin.

4. *Simvolik semantika*- emojiining aniq predmetdan tashqari, ijtimoiy va madaniy ma'nolarni ifodalashiga asoslanadi. Bunday emojilar madaniy kodlar bilan bog'liq bo'lib, ularning talqini jamiyatga qarab farqlanishi mumkin. *Bu qo'shiq* misolida haqiqiy olov emas, juda zo' degan ma'no anglashiladi.

5. *Kontekstual semantika*- emojilarning ko'p ma'noliligini namoyon etadi. Bir emoji turli diskurslarda turlicha semantik yuklama kasb etadi. Bu holat emojilarni tahlil qilishda kontekst omilining muhimligini tasdiqlaydi. Misol uchun, *U nima dedi* - qiziqish yoki shubha bildirishi mumkin.

1-rasm. Emoji semantikasining asosiy turlari majmuasi

Emojilarning keng qo'llanilishi til me'yorlari bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayrim holatlarda emoji so'z o'rnini to'liq egallab, an'anaviy yozma nutq strukturasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, emojilar tilning yemirilishiga emas, balki uning yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashuviga xizmat qilayotganini ta'kidlash lozim. Xulosa qilib aytish mumkinki, emoji semantikasi zamonaviy raqamli muloqotning murakkab va ko'p qatlamli hodisasi hisoblanadi. Emojilar yozma nutqning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirib, diskursning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Torkzadeh B. Emoji and Digital Communication: Context and Meaning. *Journal of Digital Linguistics*. 2018. Vol. 4. P. 70–85.
2. Yus F. Not All Emoticons Are Created Equal. *Linguistic and Communicative Functions of Emoticons and Emoji*. – *Journal of Pragmatics*. 2014. Vol. 59. P. 133.
3. Gawne L., McCulloch G. *Emoji as Digital Gestures*. – *Language@Internet*. 2020. Vol. 17
4. Sauter D. *The Nonverbal Communication of Emotion*. – Oxford: Oxford University Press, 2017. 21 p.
5. Riordan M. *The Communicative Role of Non-Face Emoji // Computers in Human Behavior*. 2017. Vol. 76. P. 75–86.

"ERKINLIK" KONSEPTINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI

Abdullayeva Nilufar Ramazanovna

Ilmiy rahbar, PhD, Termiz davlat universiteti

Qurbonmurodov Sardor Mansur o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-kurs magistranti

Angor tumani 1-sonli texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada "erkinlik" konseptining ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar orqali ifodalanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida har ikki tilga xos bo'lgan idiomalar, iboralar va barqaror birikmalar semantik, lingvokognitiv hamda madaniy jihatdan o'rganiladi. Frazeologik vositalar orqali erkinlik tushunchasining ifodalanishida milliy mentalitet, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlarning aks etishi asoslab beriladi. Ingliz tilidagi frazeologizmlar ko'proq individual erkinlik, mustaqillik va shaxsiy tanlovni ifodalasa, o'zbek tilida erkinlik tushunchasi ko'proq ijtimoiy uyg'unlik, ichki xotirjamlik va axloqiy me'yorlar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklar orqali konseptual mazmunni ochishda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: erkinlik konsepti, frazeologik birliklar, idiomalar, lingvokognitiv tahlil, qiyosiy tilshunoslik, semantika, madaniyat, konseptosfera

Annotation: This article examines the expression of the concept of "freedom" in English and Uzbek through phraseological units from a comparative perspective. The study focuses on idioms, fixed expressions, and phraseological constructions that reflect the semantic, linguocognitive, and cultural dimensions of the concept. It is argued that phraseological means encode culturally specific interpretations of freedom shaped by historical experience and social values. English phraseological units tend to emphasize individual liberty, autonomy, and personal choice, whereas Uzbek expressions more often highlight social harmony, inner balance, and moral responsibility. The findings demonstrate that phraseology serves as a key linguistic mechanism for representing conceptual meanings and reveals the deep interconnection between language and culture.

Keywords: concept of freedom, phraseological units, idioms, linguocognitive analysis, comparative linguistics, semantics, culture, conceptual sphere

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ выражения концепта «свобода» в английском и узбекском языках посредством фразеологических единиц. В центре внимания находятся идиомы, устойчивые выражения и фразеологические конструкции, отражающие семантические, лингвокогнитивные и культурные аспекты концепта. Обосновывается, что фразеологические средства передают национально-культурные особенности понимания свободы, сформированные под влиянием исторического опыта и социальных ценностей. В английском языке преобладает акцент на индивидуальной свободе и автономии, тогда как в узбекском языке свобода чаще связывается с социальной гармонией, внутренним равновесием и

нравственными нормами. Результаты исследования подтверждают важную роль фразеологии в репрезентации концептуального содержания и выявляют тесную связь языка и культуры.

Ключевые слова: концепт свободы, фразеологические единицы, идиомы, лингвокогнитивный анализ, сопоставительное языкознание, семантика, культура, концептосфера

Kirish. Til inson tafakkurining eng muhim ifoda vositasi sifatida nafaqat borliqni aks ettiradi, balki undagi tushunchalar va qadriyatlarning konseptual tizimini ham shakllantiradi. Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida keng o'rganilib, u orqali milliy ong, mentalitet va madaniy qadriyatlar tizimi tahlil qilinadi. Shu nuqtai nazardan, "erkinlik" konsepti insoniyat tafakkurida muhim o'rin egallovchi, murakkab va ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega bo'lgan universal kategoriyalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda erkinlik tushunchasining mazmuniy talqini yanada kengayib, turli madaniyatlar doirasida turlicha ifodalanishi kuzatilmoqda. Bu esa mazkur konseptni qiyosiy tilshunoslik asosida o'rganishni dolzarb masalaga aylantiradi. Ayniqsa, frazeologik birliklar orqali konseptual mazmunning ifodalanishi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi, chunki aynan barqaror iboralar til egalarining tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy stereotiplarini o'zida mujassam etadi. Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularda "erkinlik" konseptining ifodalanishi o'xshash va farqli jihatlarni namoyon etadi. Ingliz tilida erkinlik ko'proq individualizm, shaxsiy mustaqillik va huquqiy erkinlik bilan bog'liq holda frazeologik birliklarda ifodalansa, o'zbek tilida ushbu tushuncha ko'pincha ijtimoiy uyg'unlik, ichki erkinlik va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Bu farqlar har ikki xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy tuzilishi va madaniy an'analari bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida "erkinlik" konseptining frazeologik vositalar orqali ifodalanishini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: frazeologik birliklarning nazariy asoslarini yoritish, har ikki tilga xos erkinlikni ifodalovchi idiomatik birliklarni aniqlash va tasniflash, ularning semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini tahlil qilish hamda madaniy komponentlarini ochib berish. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda "erkinlik" konsepti frazeologik birliklar kesimida tizimli ravishda qiyosiy o'rganilib, ingliz va o'zbek tillaridagi konseptual tafovutlar va o'xshashliklar lingvokognitiv hamda lingvokulturologik nuqtai nazardan asoslab beriladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur ishning nazariy ahamiyati konseptologiya va frazeologiya sohalarini boyitishda namoyon bo'lsa, amaliy ahamiyati tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va chet tilini o'qitish jarayonida samarali qo'llanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Frazeologik birliklar tilning eng boy va madaniy jihatdan yuklangan qatlamlaridan biri bo'lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va konseptual tafakkuri ifodalanadi. "Erkinlik" konsepti ham aynan frazeologik vositalar orqali chuqur va ko'p qirrali tarzda namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek

tillarida ushbu konseptning ifodalanishi semantik, lingvokognitiv hamda lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlilni talab etadi.

Ingliz tilida "freedom" konseptining frazeologik ifodalanishi

Ingliz tilida erkinlik tushunchasi ko'pincha harakat erkinligi, mustaqillik va cheklovlardan xoli bo'lish kabi semantik komponentlar orqali ifodalanadi. Bu esa ingliz tilidagi frazeologizmlarda individualizm va shaxsiy tanlov ustuvorligini aks ettiradi. Masalan: "as free as a bird" – mutlaqo erkin, hech qanday to'siqsiz.

→ Bu ibora insonning har qanday chegaradan xoli holatini ifodalaydi. "Qush" obrazi erkinlikning universal ramzi sifatida qo'llanadi.

"break free from something" – qaramlikdan yoki cheklovdan qutulmoq.

→ Bu yerda erkinlik jarayon sifatida talqin qilinadi, ya'ni inson ma'lum bosim yoki tizimdan chiqib ketadi.

"give someone free rein" – kimnidir to'liq erkin qo'yish.

→ Ot minish metaforasi asosida shakllangan bu ibora nazoratning yo'qligini bildiradi.

"at liberty" – erkin, ixtiyoriy holatda.

→ Huquqiy va rasmiy kontekstda ishlatiladi, bu ingliz madaniyatida erkinlikning qonuniy asos bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Ushbu misollar ingliz tilida erkinlik ko'proq tashqi cheklovlarning yo'qligi va shaxsning mustaqil harakati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Frazeologik birliklar metaforik asosda shakllanib, "parvoz", "harakat", "nazoratdan chiqish" kabi obrazlar orqali ifodalanadi.

O'zbek tilida "erkinlik" konseptining frazeologik ifodalanishi

O'zbek tilida erkinlik tushunchasi ko'proq ichki holat, ijtimoiy muvozanat va ruhiy yengillik bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu esa milliy mentalitetda erkinlik faqat tashqi emas, balki ichki ozodlik sifatida ham talqin qilinishini ko'rsatadi. Masalan: "ko'ngli tog'dek keng" – ruhiy jihatdan erkin, bag'rikeng inson.

→ Bu ibora erkinlikni ichki holat sifatida talqin qiladi.

"ko'ngli joyiga tushdi" – ichki xotirjamlikka erishdi.

→ Erkinlik bu yerda ruhiy bosimdan xalos bo'lish sifatida ifodalanadi.

"bo'ynidan yuk tushdi" – og'ir mas'uliyatdan qutuldi.

→ Erkinlik "yuk" metaforasi orqali, ya'ni bosimdan xalos bo'lish orqali ifodalanadi.

"erkin nafas oldi" – yengillik his qildi, bosimdan chiqdi.

→ Nafas olish obrazining qo'llanilishi erkinlikni hayotiy zarurat sifatida ko'rsatadi.

Bu misollar o'zbek tilida erkinlik tushunchasi ko'proq hissiy va ruhiy tajriba bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Frazeologik birliklarda "ko'ngil", "yuk", "nafas" kabi obrazlar orqali ichki erkinlik konsepti ochib beriladi.

Qiyosiy tahlil: umumiylik va tafovutlar

Har ikki tilda ham erkinlik konsepti frazeologik vositalar orqali metaforik asosda ifodalanadi, ammo ularning semantik yo'nalishida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilida: erkinlik = harakat + mustaqillik + tashqi cheklovlarning yo'qligi

asosiy metaforalar: parvoz, yo'l, nazoratdan chiqish

O'zbek tilida: erkinlik = ruhiy yengillik + ichki muvozanat + ijtimoiy uyg'unlik

asosiy metaforalar: ko'ngil, yuk, nafas

Masalan, ingliz tilidagi "as free as a bird" iborasi tashqi erkinlikni ifodalasa, o'zbek tilidagi "erkin nafas oldi" iborasi ichki yengillikni aks ettiradi. Shu orqali har ikki til vakillarining erkinlikni idrok etishida konseptual tafovut mavjudligi ko'rinadi. Shu bilan birga, umumiy jihat ham mavjud: har ikki til frazeologiyasida erkinlik cheklovdan xalos bo'lish g'oyasi bilan bog'liq. Bu esa erkinlikning universal konsept ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida "erkinlik" konseptining frazeologik vositalar orqali ifodalanishi har ikki tilning lingvokognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini yaqqol aks ettirishini ko'rsatdi. Frazeologik birliklar nafaqat tilning badiiy imkoniyatlarini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy tajribasini ham o'zida mujassam etuvchi muhim lingvistik vosita ekanligi isbotlandi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ingliz tilida erkinlik tushunchasi ko'proq individualizm, shaxsiy mustaqillik va tashqi cheklovlardan xoli bo'lish bilan bog'liq holda frazeologik birliklarda ifodalanadi. Bu esa ingliz til egalarining erkinlikni faol harakat, tanlov imkoniyati va mustaqil qaror qabul qilish bilan bog'lashini ko'rsatadi. Aksincha, o'zbek tilida erkinlik konsepti ko'proq ichki holat, ruhiy yengillik va ijtimoiy uyg'unlik bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lib, bunda insonning ichki dunyosi va ma'naviy muvozanati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda erkinlik konsepti umumiy semantik asosga ega bo'lib, u cheklovlardan xalos bo'lish g'oyasi bilan bog'lanadi. Shu bilan birga, uning ifodalanishida madaniy tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi: ingliz tilida tashqi erkinlik modeli ustunlik qilsa, o'zbek tilida ichki erkinlik modeli yetakchi o'rin egallaydi. Bu esa har ikki xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimi va mentaliteti bilan bevosita bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning konseptual mazmunni ochishda muhim vosita ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Ular orqali abstrakt tushunchalar aniq obrazlar, metaforalar va madaniy kodlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, "erkinlik" kabi murakkab konseptning frazeologik darajada o'rganilishi til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur ishning natijalari nazariy jihatdan konseptologiya, frazeologiya va qiyosiy tilshunoslik sohalarini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. George Lakoff, Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Ronald W. Langacker. *Foundations of Cognitive Grammar*. Stanford: Stanford University Press, 1987.
3. Anna Wierzbicka. *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press, 1997.
4. Charles J. Fillmore. "Frame Semantics." In: *Linguistics in the Morning Calm*. Seoul: Hanshin Publishing, 1982.
5. Teun A. van Dijk. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
6. V. Kunin. *English Phraseology: Theoretical and Practical Aspects*. Moscow: Higher School, 1984.

7. N. M. Shansky. Frazeologiya sovremennogo russkogo yazyka. Moscow: Vysshaya shkola, 1985.
8. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
9. B. Yo'ldoshev. O'zbek frazeologiyasining asoslari. Toshkent: Fan, 2006.
10. E. V. Kubryakova. Kratkiy slovar kognitivnyx terminov. Moscow: Filologiya, 1996.

NON-VERBAL COMMUNICATION DIFFERENCES BETWEEN ENGLISH AND UZBEK SPEAKERS

Vasliddinova Gulsora

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish

ingliz tili yo'nalishi

1-bosqich ENG-EU-25 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'zlashuvchilar o'rtasidagi noverbal (nutqsiz) muloqot tizimlarining qiyosiy tahlili ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda madaniy muhitning tana tili, yuz ifodalari, imo-ishoralar, ko'z muloqoti va proksimika (shaxsiy hudud) kabi jihatlariga ta'siri har ikki xalq misolida keng yoritilgan. Muallif ushbu madaniyatlarga xos bo'lgan yuqori va past kontekstli muloqot uslublarining farqlarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida so'zlashuvchilar o'zaro ishonch va ochiqlik belgisi sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'z muloqotiga va o'rtacha shaxsiy masofaga tayansalar, o'zbek xalqi noverbal muloqotida kattalarga hurmat, ibo va mehmondo'stlik kabi an'anaviy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

Kalit so'zlar: Noverbal muloqot, madaniy farqlar, imo-ishoralar, ko'z muloqoti, proksimika, tana tili, ingliz tilida so'zlashuvchilar, o'zbek tilida so'zlashuvchilar, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация Данная статья посвящена сравнительному анализу систем невербальной коммуникации между носителями английского и узбекского языков. В исследовании рассматривается, как культурная среда формирует язык тела, мимику, жесты, зрительный контакт и проксемику (личное пространство) в обеих лингвистических общностях. Автор анализирует различия в высококонтекстных и низкоконтекстных стилях общения, присущих этим культурам. Результаты показывают, что если для англоговорящих прямой зрительный контакт и умеренное личное пространство являются признаками уверенности, искренности и открытости, то невербальное поведение узбеков глубоко укоренено в традиционных ценностях, таких как уважение к старшим, скромность и гостеприимство.

Ключевые слова: Невербальная коммуникация, культурные различия, жесты, зрительный контакт, проксемика, язык тела, англоговорящие, узбекоговорящие, межкультурная коммуникация.

Annotation: This article explores a comparative analysis of non-verbal communication systems between English and Uzbek speakers. The study highlights how cultural backgrounds shape body language, facial expressions, gestures, eye contact, and proxemics (personal space) in both linguistic communities. The author analyzes the differences in high-context and low-context communication styles inherent to these cultures. The findings reveal that while English speakers often emphasize direct eye contact and moderate personal space as signs of confidence, sincerity, and openness, Uzbek non-verbal behavior is deeply rooted in traditional values such as respect for elders, modesty, and hospitality.

Keywords: Non-verbal communication, cultural differences, gestures, eye contact, proxemics, body language, English speakers, Uzbek speakers, intercultural communication.

1. Introduction: The Silent Language of Culture

The study of non-verbal communication is a cornerstone of modern philology and intercultural pragmatics. While verbal language carries the explicit message, non-verbal cues—often referred to as the "silent language"—provide the emotional and social context necessary for full comprehension (Hall, 1966). For a philology student, understanding these differences is vital because linguistic competence alone is insufficient for successful communication; one must also possess "intercultural communicative competence" (Gudykunst, 2003).

The famous "7%-38%-55% rule" by Mehrabian (1971) suggests that in the communication of feelings and attitudes, only 7% of the message is verbal, while 55% is conveyed through facial expressions and body language. This highlights the potential for "pragmatic failure" when an English speaker and an Uzbek speaker interact without knowing each other's non-verbal codes.

2. Kinesics: Gestures, Body Movements, and Cultural Semantics

Kinesics refers to the study of hand gestures, facial expressions, and body posture as communicative tools (Knapp & Hall, 2010). In the comparative analysis of English and Uzbek speakers, kinesics reveals the deepest contrast between Western individualism and Eastern collectivism.

2.1. Hand Gestures and Greetings

In English-speaking cultures, the standard greeting is a firm handshake. According to Pease & Pease (2004), the "palm-to-palm" contact in a handshake signals equality and confidence. A weak handshake might be interpreted as a lack of character. However, in Uzbek culture, the handshake is governed by the principles of "Odob" (etiquette). A younger person or a student often uses both hands to clasp the elder's hand, a gesture known as the "two-handed greeting," which symbolizes total respect and humility (Ismoilov, 2012). Furthermore, the unique Uzbek gesture of placing the right hand over the heart while slightly bowing is a non-verbal "honorific" that has no direct equivalent in English. This gesture serves to bridge the gap between social classes and genders without the need for physical contact (Yusupov, 2015).

2.2. Facial Expressions and Emotional Regulation

While basic emotions like happiness or anger are universal (Matsumoto, 2006), the "display rules"—when and how much to show—vary. English speakers

tend to be more expressive with their smiles, using them as a "social lubricant" even among strangers to signal friendliness (Argyle, 1988). In contrast, the Uzbek concept of "ibo" (modesty) often dictates more restrained facial expressions, particularly in formal or hierarchical settings. As Mahmudov (2009) notes, a loud laugh or an overly wide grin in the presence of elders or in a classroom might be viewed as "yengiltaklik" (frivolity), whereas an English speaker might simply see it as a sign of positive engagement.

2.3. Posture and Seating Etiquette

The way an individual carries their body—their "posture"—communicates status and attitude (Goffman, 1963).

- **English Norms:** A relaxed posture, such as leaning back or crossing legs in a meeting, can signal comfort and a "low-power distance" between the participants (Hofstede, 2001).
- **Uzbek Norms:** Posture is a matter of "andisha" (social decorum). In a traditional Uzbek "mehmonxona" (guest room), sitting with your legs pointed toward another person is a major non-verbal insult (Ismoilov, 2012). Maintaining a straight, attentive posture when an elder is speaking is a silent sign of obedience that is deeply ingrained in the Uzbek upbringing.

3. Oculistics: The Power and Meaning of the Gaze

Oculistics, or the study of eye behavior, is perhaps the most sensitive area of non-verbal communication. Misinterpreting eye contact can lead to serious cultural misunderstandings (Samovar & Porter, 2004).

3.1. The "Honesty" Gaze in English Culture

For a native English speaker, direct eye contact is a sign of attentiveness, sincerity, and confidence. In Western pedagogical and business settings, a lack of eye contact is often equated with "shyness," "deception," or "boredom" (Knapp & Hall, 2010). There is a cultural expectation that if you are listening to someone, you must "look them in the eye" to validate their presence (Argyle, 1988).

3.2. The "Respectful Aversion" in Uzbek Culture

The Uzbek approach to eye contact is hierarchical. While peers maintain steady eye contact, the rules change when there is an age or status difference.

- **Averted Gaze as Respect:** Lowering one's eyes while being addressed by a teacher, parent, or elder is a sign of deep respect and "andisha." This is a high-context signal of being "quloq soluvchi" (an attentive listener) who accepts the authority of the speaker (Safarov, 2008).
- **Intercultural Conflict:** A British teacher might see an Uzbek student's lowered gaze as a sign that the student is not paying attention or is hiding something. Conversely, the Uzbek student might find the teacher's constant, piercing eye contact to be aggressive or "beodob" (impolite) (Yusupov, 2015). This "oculesic mismatch" is a classic example of how cultural values dictate non-verbal behavior.

4. Proxemics: The Spatial Dimension of Interaction

The study of how people use space during communication, known as proxemics, reveals significant cultural boundaries. According to Hall (1966),

individuals maintain four distinct zones of space: intimate, personal, social, and public.

- **The English "Bubble":** In English-speaking cultures, which are generally individualistic (Hofstede, 2001), the "personal zone" is strictly guarded. Entering someone's space (closer than 60-90 cm) without a social invitation is often perceived as an act of aggression or unwanted intimacy (Knapp & Hall, 2010). In London or New York, people in crowded elevators or trains will often go to great lengths to avoid physical contact or even eye contact to maintain a "psychological" space (Goffman, 1963).
- **The Uzbek "Sufra" and Collectivist Space:** Uzbek culture, being collectivist, exhibits a different approach. Physical closeness often correlates with social warmth and trust (Yusupov, 2015). In traditional Uzbek gatherings, guests sit closely on "ko'rpachas," and physical proximity is seen as a sign of "mehmondo'stlik" (hospitality). However, a strict gender-based proxemic rule applies: while men may sit very close to men, and women to women, a significant "respectful distance" is maintained between unrelated genders (Ismoilov, 2012).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Argyle, M. (1988). *Bodily Communication*. London: Methuen.
2. Goffman, E. (1963). *Behavior in Public Places*. New York: Free Press.
3. Gudykunst, W. B. (2003). *Cross-Cultural and Intercultural Communication*. Sage Publications.
4. Lewis, R. D. (2006). *When Cultures Collide: Leading Across Cultures*. Nicholas Brealey International.
5. Mahmudov, N. (2009). *Til va madaniyat*. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Matsumoto, D. (2006). *Culture and Nonverbal Behavior*. Journal of Cross-Cultural Psychology.
7. Mehrabian, A. (1971). *Silent Messages*. Belmont, CA: Wadsworth.
8. Pease, A., & Pease, B. (2004). *The Definitive Book of Body Language*. Orion.
9. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. Samovar, L. A., & Porter, R. E. (2004). *Communication Between Cultures*. Wadsworth.
11. Yusupov, O. (2015). *Etno-psixolingvistika va muloqot tizimi*. Toshkent: Akadernashr.

G'AZZOLIYNING QALB KASHFIYOTI NAZARIYASIDA MODDIY DUNYO VA RUHIY BORLIQ UYG'UNLIGI

Axatova Dildora Axtamovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: axatovadildora795@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Abu Homid al-G'azzoliy (1058–1111)ning qalb kashfiyoti nazariyasida moddiy dunyo va ruhiy borliq o'rtasidagi munosabat masalasini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan. G'azzoliy uchun moddiy dunyo ruhiy kamolotning inkor etiladigan to'sig'i emas, balki uning zaruriy va o'tkinchi vositasidir. Qalbning to'rt yuzli tabiati — moddiy olamga, ruhiy olamga, xayolga va ilohiy nurga qarab turuvchi yuzlar — ushbu ikki borliq o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Tadqiqotda germenevtik va analitik metodologiya qo'llanilgan; asosiy birlamchi manbalar sifatida "Ihyo' ulum id-din", "Mishkot ul-anvor" va "Kimyo-yi sa'odat" tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, G'azzoliy uchun uyg'unlik — moddiy va ruhiyni teng ko'rish emas, balki moddiy narsalarni ruhiy maqsad sari yo'naltirish orqali erishiladigan dinamik holat.

Kalit so'zlar: G'azzoliy, qalb kashfiyoti, moddiy dunyo, ruhiy borliq, Ihyo' ulum id-din, tasavvuf epistemologiyasi, uyg'unlik, tazkiyatun-nafs, kashf, ma'rifat.

Аннотация. Данная статья посвящена систематическому анализу взаимосвязи материального мира и духовного бытия в теории сердечного познания (кашф) аль-Газали (1058–1111). Для аль-Газали материальный мир не является препятствием, подлежащим отрицанию, но необходимым и преходящим средством духовного совершенства. Четырёхстороннее строение сердца — грани, обращённые к материальному миру, к духовному бытию, к воображению и к Божественному Свету — выполняет функцию моста между двумя видами бытия. В исследовании применялись герменевтический и аналитический методы; в качестве первичных источников анализировались "Ихья улум ад-дин", "Мишкат ал-Анвар" и "Кимийа-йи са'адат".

Ключевые слова: аль-Газали, познание сердца, материальный мир, духовное бытие, Ихья улум ад-дин, суфийская эпистемология, гармония, кашф, марифат.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the relationship between the material world and spiritual existence in al-Ghazali's (1058–1111) theory of heart cognition (kashf). For al-Ghazali, the material world is not an obstacle to be negated but a necessary and transient instrument of spiritual perfection. The four-sided nature of the heart — its faces toward the material world, spiritual existence, imagination, and Divine Light — functions as a bridge between the two orders of being. The study employs hermeneutic and analytical methodologies; primary sources analyzed include Ihya ulum al-din, Mishkat al-Anwar, and Kimiya-yi Sa'adat. Results

demonstrate that harmony, for al-Ghazali, is not an equation of material and spiritual, but a dynamic state achieved by orienting material things toward spiritual ends.

Keywords: al-Ghazali, heart cognition, material world, spiritual existence, Ihya ulum al-din, Sufi epistemology, harmony, kashf, ma'rifat.

Islom ma'naviy tafakkurida "qalb" tushunchasi oddiy biologik a'zo sifatida emas, balki insonning haqiqiy mohiyati, bilish va o'zgarishning markazi sifatida ko'riladi. Abu Homid al-G'azzoliy [1, 20-bet] bu an'anaviy tasavvurni o'zining ulkan akademik tizimi bilan boyitdi va qalb kashfiyoti nazariyasini — qalb yordamida yashirin haqiqatlarni anglash ta'limotini — islom ilm-fani markaziga ko'tardi. G'azzoliy uchun bu nazariya nafaqat sof ruhiy-ilohiy masala, balki insonning moddiy olamda yashab, u bilan munosabatda bo'la turib, qanday qilib ruhiy kamolotga erishishi mumkinligi haqidagi amaliy savol bilan ham chambarchas bog'langan.

Kashf [2, 17-bet] — qalbiy ochilish va ilohiy ma'lumot olish — G'azzoliy ta'limotining eng ko'p munozara qilingan jihatidir. Ko'plab tadqiqotchilar uni moddiy olamni butunlay rad etish va undan qochishga chaqiriq sifatida talqin etishgan. Biroq G'azzoliyning birlamchi asarlarini chuqur o'rganish bunday talqinni rad etadi: u moddiy dunyoni ruhiy yo'lda vosita sifatida ko'ruvchi, ikki borliqni qarama-qarshi emas, balki uyg'un holda tushunuvchi falsafiy tizim yaratgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi G'azzoliyning "Ihyo' ulum id-din", "Mishkot ul-anvor" [3] va "Kimyo-yi sa'odat" asarlari asosida qalb kashfiyoti nazariyasida moddiy dunyo va ruhiy borliqning uyg'unligini ochib berish, G'azzoliy epistemologiyasida bu ikki borliqning tutgan o'rni va o'zaro munosabatini tizimli tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarni ko'rib chiqadi:

- (1) G'azzoliy "kashf" tushunchasini qanday ta'riflaydi va uning epistemologik o'rni qanday?
- (2) Moddiy dunyo G'azzoliy ta'limotida qanday baholanadi — inkor etiladigan to'siq yoki vosita sifatidami?
- (3) Qalbning tuzilmasi ushbu ikki borliq o'rtasidagi uyg'unlikni qanday ta'minlaydi?
- (4) Ushbu uyg'unlik G'azzoliy axloqiy-amaliy ta'limotida qanday namoyon bo'ladi?

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u G'azzoliy qalb kashfiyoti nazariyasini odatdagi "dunyodan voz kechish" sxemasida emas, balki moddiy va ruhiy borliqni o'zaro uyg'unlashtiruvchi dinamik tizim sifatida talqin qiladi.

G'azzoliy tadqiqoti (G'azzoliyshunoslik) XX asrda yangi bosqichga kirdi. M.Vatt (1963) G'azzoliy hayoti va intellektual rivojlanishini keng tarixiy kontekstda tahlil qilib, uning islom tafakkuridagi o'rni bo'rttirib ko'rsatdi. R.J.Karzy (1980) "al-Munkiz min az-zolol"ni batafsil sharhlab, G'azzoliyning bilish inqirozi va kashfga o'tish jarayonini chuqur o'rganib chiqdi. K.Garden (2014) G'azzoliyni "birinchi islomiy tiklantiruvchi" sifatida tavsiflab, uning "Ihyo'" asarini zamonaviy akademik metodlar yordamida qayta o'rgandi.

Kashf va qalb bilishiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar orasida A.Treiger (2012)ning "Inspired Knowledge in Islamic Thought" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Treiger G'azzoliyning ilhomiy bilish nazariyasini Avitsenna ta'sirida

shakllangan va undan ulkan qadam olg'a borgan holda ko'rsatdi. Bu asar — G'azzoliy kashf nazariyasini falsafiy epistemologiya doirasida o'rganishning eng chuqur zamonaviy tadqiqoti sifatida tan olingan.

G'azzoliy ta'limotida dunyo va oxirat, moddiy va ruhiy munosabatini o'rganishga R.M.Frank (1994) muhim hissa qo'shdi. Franklar G'azzoliyning Ash'ariy ilohiyoti bilan sufiyona tajribasi o'rtasidagi muvozanatni ochib berib, uning moddiy olam haqidagi mujmal ko'rinishli pozitsiyasini yaxlitroq ko'rishga yo'l ochdi. O.Leaman (1985) esa G'azzoliyning falsafiy tizim doirasida ko'rib, uning epistemologiyasidagi moddiy-ruhiy dialektikani ko'rsatdi.

T.Izutsu (1983) G'azzoliy sufizmini Taoizm bilan qiyoslagan holda ikkala tizimda ham moddiy olamning rad etilmaganini, balki qayta baholanganini isbot qildi. Bu yondashuv G'azzoliy ta'limotini "dunyodan qochish" sifatida ko'ruvchi bir tomonlama talqinni inkor etadi. O'zbek ilmiy adabiyotida I.M.Mo'minov (1961) [4] G'azzoliy tasavvuf epistemologiyasiga murojaat qilgan bo'lsa-da, bu mavzuda maxsus o'zbek tadqiqotlari hali yetarlicha rivojlanmagan.

Adabiyot tahlili shuni ko'rsatadiki, G'azzoliy qalb kashfiyoti nazariyasida moddiy va ruhiy borliqning o'zaro uyg'unligi masalasi — ular ikkovini bir tizim ichida birgalikda ko'rish — hali yetarlicha o'rganilmagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar yoki ruhiy tomonni alohida, yoki moddiy tomonni alohida ko'radi. Ushbu bo'shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotning asosiy metodi birlamchi manbalarni chuqur matniy tushunish orqali tahlil qilishni ko'zda tutuvchi germenevtik yondashuv hisoblanadi. Bu metod G'azzoliyning o'z iboralari, ramzlari va dalillarini o'z ichki mantiqida anglashga imkon beradi. Xususan, "Mishkot ul-anvor"dagi yorug'lik ramzi, "Ihyo"dagi qalb tavsifi va "Kimyo-yi sa'odat"dagi amaliy yo'riqnomalar tahlilda markaziy o'rin egallaydi.

G'azzoliy tizimidagi asosiy tushunchalar — kashf, qalb, nafs, dunyo, ruhiy borliq (malakut), uyg'unlik (muvozana) — analitik-kontseptual metod yordamida tahlil qilindi. Bu metod tushunchalarning semantik doirasini aniqlab, ular o'rtasidagi munosabatlar tizimini ko'rsatishga imkon berdi.

G'azzoliyning turli asarlaridagi moddiy-ruhiy munosabat masalasi o'zaro qiyoslanib, uning fikriy rivojlanishi va asardan asarga o'zgarishi kuzatildi. Shuningdek, uning ta'limoti Neoplatonizm va Plotin ta'siri bilan qiyoslab tahlil qilindi [5].

Birlamchi manbalar: (1) G'azzoliy. "Ihyo' ulum id-din" (Bayrut, 1982, 4 jild) — asosiy manba; (2) G'azzoliy. "Mishkot ul-anvor" (Buchman tarjimasi, 1998); (3) G'azzoliy. "Kimyo-yi sa'odat" (Arberry tarjimasi, 1980); (4) G'azzoliy. "al-Munkiz min az-zolol" (Karzy tarjimasi, 1980). Ikkilamchi manbalar: Vatt, Treiger, Garden, Karzy, Frank, Leaman, Izusu zamonaviy tadqiqotlari.

G'azzoliy bilishning uch asosiy turi — hissiy, aqliy va kashf bilimini farqlaydi. Bu uch tur bir-birini inkor etmaydi, balki ierarxik tarzda bir-birini to'ldiradi. Hissiy bilim moddiy dunyo faktlarini bersa, aqliy bilim ularni mantiqiy tartibga solib tushuntiradi; kashf esa — qalb orqali olinadigan ilohiy ma'lumot — ikkala bosqichni ham ortda qoldirib, haqiqatni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatadi. Muhim jihati shundaki, G'azzoliy kashfni hissiy tajribadan keskin ajratmaydi: "Mishkot ul-anvor"da u

yorug'lik ramzini moddiy (sham, lampada) va ma'naviy (nur, ilohiy nur) qatlamlarda bir-biri bilan bog'lab tushuntiradi.

G'azzoliy "ilm-ul-mu'omal" (amaliy bilim, ya'ni kundalik hayot va ibodat ilmi) va "ilm-ul-mukoshafa" (kashf yoki ochilish ilmi) o'rtasidagi farqni ta'kidlaydi. Birinchisi — kundalik hayotda moddiy dunyo bilan ishlashda zarur bilim. Ikkinchisi — qalbning poklanishi natijasida olinadigan to'g'ridan-to'g'ri ilohiy bilim. Muhimi — G'azzoliy uchun bu ikki bilim turi raqib emas. Ilm-ul-mu'omala ilm-ul-mukoshafaga yo'l ochuvchi vosita bo'lib, ular birgalikda kamolot yo'lini tashkil etadi.

G'azzoliyning qalb tavsifida eng muhim metafora — qalbning to'rt yuzli tabiati [6]. Qalb to'rtta tomonga qaragan "yuz"ga ega: birinchi yuz moddiy va jismoniy olamga (olam ul-mulk) qaragan, hissiy idrok va jismoniy tajribani qabul qiladi; ikkinchi yuz ilohiy va ruhiy olamga (olam ul-malakut) qaragan, ilohiy nurni qabul qilishga moyil; uchinchi yuz ichki kuchlar — xayol, xotira, tafakkur — tomon; to'rtinchi yuz esa mutlaq ilohiy huzurga, ilohiy sirlarni qabul qilishga tayyor. Bu tuzilma G'azzoliy uchun moddiy va ruhiy borliq o'rtasidagi uyg'unlikning anatomik asosi hisoblanadi: qalb bir vaqtning o'zida ikkala olamga ham ochiq.

Qalbning bu ko'p yuzliligi G'azzoliy ta'limotida insonning unikal ontologik maqomini belgilaydi. Inson — moddiy olamda yashaydi, undan oziqlanadi, lekin ruhiy olam bilan aloqa qilish salohiyatiga ham ega. Qalb bu ikki olamni birlashtiruvchi ko'priq bo'lib, unda hissiy tajriba va ilohiy kashf bir-birini to'ldiruvchi tarzda yonma-yon mavjud. Bu kontsepsiya moddiy va ruhiy olamni bir-biridan keskin ajratuvchi dualistik (ikki asosli) tasavvurni rad etadi.

G'azzoliyning moddiy olamga munosabati ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. U dunyoparast bo'lishni qoralasa-da, moddiy dunyo o'zi salbiy emas deb hisoblaydi [7]. "Ihyo"ning "Kitob zammid-dunya" (Dunyo qoralanishi kitobi) bobida u moddiy boylik maqom va lazzatlarning o'zini emas, balki ularga haddan ziyod bog'lanishni qoralaydi. Moddiy ne'matlar — oziq-ovqat, kiyim-bosh, uy-joy, oila — ulardan foydalanish yo'li ruhiy yoki nafsiy ekanligiga qarab baholanadi. Agar ular insonga ibodatga kuch bersa va axloqiy kamolotga xizmat qilsa, ular ma'qullanadi; agar ulardan oshib-toshib foydalanilsa va ruhiy rivojlanishga to'siq bo'lsa, qoralanadi.

Tavakkul (Allohgga tayanish) tushunchasida ham G'azzoliyning moddiy olam bilan munosabati yaqqol ko'rinadi. G'azzoliy tavakkul sabablar olamini inkor etishni anglatmaydi deb ta'kidlaydi. Dehqon urug' ekishi, savdogar yo'lga chiqishi, tabib davo buyurishi — bularning barchasi sabablar qonuni bilan ishlash, ya'ni moddiy dunyo bilan to'la munosabatda bo'lishdir. Tavakkul — bu sabablar ustida turib, natijani Allohga topshirish. Demak, moddiy dunyo bilan munosabat ruhiy kamolotni inkor etmaydi, aksincha, uni amalga oshirish maydoniga aylanadi.

G'azzoliy qalbni moddiy dunyo va ruhiy borliq o'rtasidagi muvozanatda tutadigan ikki asosiy amaliy vositani ta'kidlaydi: tafakkur (chuqur mulohaza) va zikr (Allohnin eslab turish) [8]. Tafakkur moddiy voqealardan ma'naviy saboq olishni ko'zda tutadi: tabiatni kuzatib Allohning buyukligini anglash, insonlarning qismatini ko'rib o'zlikni anglash, moddiy ne'matlar haqida o'ylab shukr qilish — bular moddiy tajribani ruhiy rivojlanishning manbaiga aylantiruvchi aqliy-qalbiy jarayonlar. Zikr esa — moddiy dunyo ovora-sarsonligida ham qalbni ilohiy aloqada tutuvchi uzluksiz amaliyot.

Bu ikki amaliyot birgalikda G'azzoliy tasvirlaydigan "uyg'un inson" — dunyoda yashab, undan bahramand bo'la turib, qalbi doimo Alloh bilan bog'liq bo'lgan — idealini yaratadi. Bunday inson moddiy dunyo talablarini bajara turib, ruhiy olamning nuridan mahrum bo'lmaydi. G'azzoliy bu idealning timsoli sifatida Payg'ambarlar va sahobalarni keltiradi — ular dunyoviy ishlar bilan band bo'la turib, qalblari ilohiy nur bilan to'la bo'lgan.

G'azzoliy nafs ta'limotida inson ichki hayotini uch bosqichda ko'radi [9]. Nafs ul-ammora (buyuradigan nafs) — insonni moddiy lazzatlar, nafsiy istaklar tomon tortuvchi kuch; u moddiy olamga to'la bog'liq holat. Nafs ul-lavvoma (qoralovchi nafs) — o'z-o'zini tanqid qiladigan, moddiy va ruhiy o'rtasidagi ziddiyatni his qiladigan holat; bu moddiy va ruhiy o'rtasidagi kurash maydoni. Nafs ul-mutmainna (tinch nafs) — ilohiy yo'nalishda barqarorlashgan, moddiy olamda bo'la turib, ruhiy olamga yo'nalgan holat; bu uyg'unlikning erishilgan holati.

Bu uch bosqich G'azzoliyning moddiy va ruhiy uyg'unligini dinamik jarayon sifatida ko'rishini ko'rsatadi. Uyg'unlik — bir martalik erishiladigan holat emas, balki nafs ul-mutmainna sari olib boradigan uzoq va bosqichli sayohat. Moddiy dunyo bu yo'lda ham to'siq, ham vosita bo'lishi mumkin — bu insonning qalb poklanishi darajasiga bog'liq.

G'azzoliy kamolotning oliy darajasi sifatida fano va baqoni bir-biridan ajratmaydi [10]. Fano — nafsning Allohda erishi — moddiy olamdan qochish emas, balki moddiy olamga bo'lgan haddan oshiq bog'liqlikdan ozod bo'lish. Baqa — bu erish holatida moddiy olamda xizmat davom etishi. G'azzoliy "Kimyo-yi sa'odat"da bu holatni quyidagicha ta'riflaydi: foni bo'lgan kishi dunyoda yuradi, gapiradi, ishlaydi — lekin bular hammasi Alloh uchun, nafs uchun emas. Demak, fano-baqa holati G'azzoliy uchun moddiy va ruhiy olamning eng oliy uyg'unlik darajasi hisoblanadi — bu yerda moddiy hayot ruhiy xizmat shakliga kiradi.

Ushbu tadqiqot G'azzoliyning qalb kashfiyoti nazariyasida moddiy dunyo va ruhiy borliq o'rtasida murakkab va ko'p qatlamli uyg'unlik tizimi mavjudligini ko'rsatdi. Besh asosiy xulosa ilgari suriladi:

1. G'azzoliy moddiy olamni rad etmaydi: u uni ruhiy kamolot uchun zaruriy vosita sifatida ko'radi. Dunyo o'zi salbiy emas, faqat unga haddan oshiq bog'lanish salbiydir.

2. Qalbning to'rt yuzli tuzilmasi anatomik-metafizik ko'pri bo'lib, u moddiy olamdan ma'lumot qabul qila turib, ruhiy olamga yo'nalgan holda uyg'unlikni ta'minlaydi.

3. Tafakkur va zikr — moddiy tajribani ruhiy rivojlanish manbaiga aylantiradigan amaliy vositalar — G'azzoliy axloqiy ta'limotining asosini tashkil etadi.

4. Nafsning uch holati modeli (ammora, lavvoma, mutmainna) uyg'unlikni statik emas, dinamik-bosqichli jarayon sifatida ko'rsatadi.

5. Fano-baqa holati G'azzoliy ta'limotida uyg'unlikning oliy darajasini ifodalaydi: moddiy hayot ruhiy xizmatga aylanadi.

Amaliy takliflar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: zamonaviy islomiy ta'lim va ma'naviyat dasturlarida G'azzoliyning ushbu uyg'unlik modelidan foydalanish, uni zamonaviy psixologiya va axloq fanlari bilan sintezlashtirish, va

O'zbekistonda G'azzoliy ta'limotini o'rganuvchi ixtisoslashgan ilmiy markazlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusi tadqiqotlar esa G'azzoliyning ushbu modelini Ibn Arabiy va Rumiy ta'limotlari bilan qiyoslashga yo'naltirilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Ihyo' ulum id-din (4 jild). — Bayrut: Dar ul-Ma'rifa, 1982. — 2400 b.
2. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Mishkot ul-Anvar (The Niche of Lights). Tarj. va sharh: D. Buchman. — Utah: Brigham Young University Press, 1998. — 104 b.
3. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Kimyo-yi Sa'odat (The Alchemy of Happiness). Tarj.: J. Arberry. — London: John Murray, 1980. — 214 b.
4. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Al-Munkiz min az-Zolol (Freedom and Fulfillment). Tarj. va sharh: R.J. McCarthy. — Boston: Twayne Publishers, 1980. — 392 b.
5. Al-G'azzoliy, Abu Homid. Maqosid ul-Falosofo. — Qohira: Dar ul-Ma'arif, 1961. — 290 b.
6. Frank, R.M. Al-Ghazali and the Ash'arite School. — Durham: Duke University Press, 1994. — 182 b.
7. Garden, K. The First Islamic Reviver: Abu Hamid al-Ghazali and His Revival of the Religious Sciences. — Oxford: Oxford University Press, 2014. — 256 b.
8. Izutsu, T. Sufism and Taoism: A Comparative Study of Key Philosophical Concepts. — Los Angeles: University of California Press, 1983. — 490 b.
9. Leaman, O. An Introduction to Medieval Islamic Philosophy. — Cambridge: Cambridge University Press, 1985. — 224 b.
10. Marmura, M.E. Probing in Islamic Philosophy: Studies in the Philosophies of Ibn Sina, al-Ghazali and Other Major Muslim Thinkers. — New York: SUNY Press, 2005. — 338 b.
11. McCarthy, R.J. Freedom and Fulfillment: An Annotated Translation of al-Ghazali's al-Munkidh min al-Dalal. — Boston: Twayne Publishers, 1980. — 392 b.
12. Nasr, S.H. An Introduction to Islamic Cosmological Doctrines. — Albany: SUNY Press, 1978. — 312 b.
13. Treiger, A. Inspired Knowledge in Islamic Thought: Al-Ghazali's Theory of Mystical Cognition and Its Avicennian Foundation. — London: Routledge, 2012. — 208 b.
14. Watt, W.M. Muslim Intellectual: A Study of al-Ghazali. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 1963. — 228 b.
15. Nakamura, K. Al-Ghazali on Prayer and Contemplation. — Tokyo: Institute of Middle Eastern Studies, 1973. — 214 b.
16. Abrahamov, B. Al-Ghazali's Theory of Causality. — Studia Islamica. — 1988. — Vol. 67. — P. 75–98.
17. Mo'minov, I.M. O'rta asrlar Sharq falsafasi tarixi. — Toshkent: O'zSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. — 310 b.
18. Mo'minov, I.M. O'rta Osiyoda ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotidan. — Toshkent: Fan, 1957. — 240 b.

QASHQADARYO HUDUDIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDAGI IJTIMOIIY-IQTISODIY JARAYONLAR (DEHQONOBOD TUMANI MISOLIDA)

Buxorov Jumma

QarDU tayanch doktoranti

+99890 864-44-95

Orcid- 0009-0004-1885-8934

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Dehqonobod tumanining Ikkinchi jahon urushidan so'ng tiklanish jarayonlari, tuman aholisining urush oqibatlarini yengib o'tish va tuman rahbarlarining aholi hayotini yaxshilash borasidagi amalga oshirgan ishlari, shuningdek, o'tgan asrning 60-70-yillarida hududning iqlim sharoitlarini hisobga olmasdan paxtaga ixtisoslashuvning boshlanishi va uning oqibatlari yoritib o'tiladi.

Tayanch so'zlar: Dehqonobod tumani, elektrlashtirish, yo'l qurilishi, chorvachilik, lalmikor dehqonchilik, maktablar qurilishi, paxta maydonlari, ekin turlari kamayishi, sun'iy qochirish.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает процессы восстановления Dehqonobod tumani после World War II, усилия местного населения по преодолению последствий войны, а также деятельность руководства района, направленную на улучшение условий жизни населения. Кроме того, освещается начало специализации региона на выращивании хлопка в 1960–1970-х годах без учета климатических условий территории и анализируются ее последствия.

Ключевые слова: Дехканабадский район, электрификация, строительство дорог, животноводство, богарное земледелие, строительство школ, хлопковые поля, сокращение видов сельскохозяйственных культур, искусственное орошение.

Abstract: This article examines the post-war reconstruction processes of Dehqonobod District following World War II. It analyzes the efforts of the local population to overcome the consequences of the war, as well as the activities carried out by district authorities to improve living conditions. Furthermore, the study highlights the beginning of cotton specialization in the 1960s–1970s without considering the region's climatic conditions and discusses its consequences.

Keywords: Dehqonobod District, electrification, road construction, livestock farming, rainfed agriculture, school construction, cotton fields, reduction of crop diversity, artificial irrigation.

Kirish

Dehqonobod tumani urushda asosan chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradigan markaz sifatida asosiy rol o'ynadi. Urushdan so'ng esa bu hudud o'zining tabiiy iqlim sharoiti hisobga olgan holda rivojlanish yo'nalishini davom ettirdi.

Arxiv manbaalari o'rganib chiqilganda, birinchi navbatda, 1950-yillarda tuman hududidagi yo'llar yaxshilanib, Dehqonobod tumani markazi bilan qishloq sovetlari o'rtasida aloqalar yo'lga qo'yiladi. Xususan, 1976-yilda rayonda kapital qurilish

ishlariga 15 million soʻmdan oshiq mablagʻ sarflangan, 160 kilometr yangi yoʻl qurilib, shundan 85 kilometriga asfalt yoqizilgan, 54 ta qishloq xonadoni, 5 ta chorvachilik fermasi, 2 ta parrandaxonalar bir necha ishlab chiqarish korxonalari elektrlashtirilgan, 194 xonadonga moʻljallangan 16 ming kv kilometr uy-joy qurilib foydalanishga topshirilgan[1;81].

Bundan tashqari, urushdan keying yillarda qishloq xoʻjaligida ham oldinga siljishlar koʻzga tashlanadi, yaʼni tumanga dastlabki traktorlar olib kelinib hosildorlik oshiriladi, MTS lar faoliyati yaxshilanishi ortidan yerlarning melorativ holati yashilanadi, oʻgʻitlarning turlari va sifati oshishi natijasida hosildorlik oshib, aholining ham yashash darajasi bir qadar yaxshilanadi.

Urushdan keying ijobiy oʻgarishlar bilan birgalikda hududning rivojlanishida baʼzi bir salbiy jihatlari ham koʻzga tashlanadi. Xususan, texnikalar hanuz yetishmas edi, ulardan foydalanish koʻnikmasi ham dehqonlarda yetarlicha boʻlmagan, mutaxassislar yetishmovchiligi ham yaqqol sezilar edi. Agar biror traktor buzilsa uni yana ishga qaytarish uzoq vaqtni talab qilar, dehqonlar esa ekish ishlarini ananaviy omochda amalga oshirishga majbur boʻlishar edi. Bu esa yerning unumdorligini va hosildorning yildan-yilga kamayishiga sabab boʻlgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

1968-yildan boshlab Dehqonobod atrofidagi hududlar ham elektirlashtirila boshlandi. Mazkur yilda 400 oʻrinli yozgi kinoteatr, 4 ta dala shiyponi, 11 ta koʻprik qurildi. 10 ta kolxozchi xoʻjaligi uchun uy-joy binolari, 50 oʻrinli bolalar yaslisi uchun bino, 20 kishi ishlaydigan maishiy kombinat binolari qurilib, foydalanishga topshirildi. 1967-1968 yillarda 15 kvartirali 7 ta, 2 kvartirali 14 ta uy qurildi. Ammo bu borada ham talaygina kamchiliklar mavjud edi. Jumladan, mazkur yillarda Dehqonobod posyolkasidagi yana 10 ta koʻcha qishloqlari toʻliq elektrlashtirildi[2;79].

1972 yilda yoʻl qurilishi va remont qilish ishlarida bir muncha sezilarli darajada natijalarga erishildi. Shu davr ichida Dehqonobod-Boshchorbogʻ yoʻliga 3 km shagʻal va 2 km asfalt, Dehqonobod-Boyqurgʻon yoʻlida 12 km masofada yoʻl zichlangan, shundan 6 kmga shagʻal, Boytemir-Leninizm yuliga 8,5 km ga shagal va rayon markazidan oʻtadigan davlat yoʻliga 3,4 km ni kengaytirilib shagʻal, asfalt va 10,6 km ga asfalt yotkizilgan. Dehqonobod rayon yoʻl qurish va remont qilish uchastkasining yillik plani 300 ming soʻm boʻlib, shundan 288 ming soʻm kapital remont 12000 soʻm joriy remont ishlari bajarilgan.

1976-yilda rayonda kapital qurilish ishlariga 15 million soʻmdan oshiq mablagʻ sarflangan, 160 kilometr yangi yoʻl qurilib, shundan 85 kilometriga asfalt yoqizilgan, 54 ta qishloq xonadoni, 5 ta chorvachilik fermasi, 2 ta parrandaxonalar bir necha ishlab chiqarish korxonalari elektrlashtirilgan, 194 xonadonga moʻljallangan 16 ming kv kilometr uy-joy kurilib foydalanishta topshirilgan.

Shu yili rayoning yangi markazida maʼmuriy, maishiy va boshqa sohalarga moʻljallangan kapital binolar qurishda ancha katta ishlar amalga oshirilgan. 140 oʻrinli bolalar kombinati, 640 oʻrinli "Uzbekiston" maktabi, 50 ishchi oʻrinli maishiy xizmat uyi, rayon partiya komitetining binosi, 91-koʻchma kolonna, 62 avtoxoʻjalik, "Uzselxoztexnika" rayon birlashmasi bazalari, 200 nomerli avtomat telefon stansiyasi, Oqrobot kishlogʻida 6 ishchi oʻrinli magazin, boshqa koʻpgina

chorva va ishlab chiqarish obekt binolari qurilib foydalanishga topshirildi. Savdo tarmoqlari 114 taga yetkazilgan 7 ta avtolavka rayon chorvadorlariga xizmat qilgan. Aholiga sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari, uy-ro'zg'or buyumlari, aholiga sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari, uy-ro'zg'or jihozlari, mebel, madaniy tovarlar sotish ancha yaxshilangan.

1975-yilda rayonda 30 ta o'rta, 32 ta 8 yillik, 7 ta boshlang'ich va bitta musiqa maktabi jami 17820 nafar o'zbek farzandiga tarbiya bergan. Yosh avlodga 829 ta oliy, 147 ta to'liqsiz oliy, 357 ta pedagogik o'rta, umumiy o'rta ma'lumotli pelagolar ta'lim-tarbiya berishgan. Shu yili rayonda 1 ta markaziy va 4 ta uchastka kasalxonalari, 44 ta feldsher-akkusherlik punktlari, 5 ta apteka, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi hamda profilaktik dizenfeksiyalash bo'limi xizmat qilgan. 12 xonalik zamonaviy poliklinika, Ko'kbuloq sovxozida Oqmachit kasalxonasi yangi bino bilan ta'minlangan meditsina muassasalariga 1975-yilda 462 ming so'm sarflangan.

1981-yilda rayon aholisiga qulaylik yaratish maqsadida transport va aloqa xizmatlarini yaxshilash borasida Dehqonobod-Chilgaz, Dehqonobod-Nayman-Dehqonobod-Qizilcha avtobus va taksi marshrutlari tashkil qilindi. Bir necha kilometr uzunlikdagi avtomobil yo'llari qurildi. Ko'kbuloq sovxozidagi Katta Ura daryosi, Beliboylidagi Kichik Ura daryosida va U. Yusupov sovxoz territoriyasida bir necha joyda ko'priklar qurilib ishga tushirilgan. Dehqonobod-Darxon, Dehqonobod-Qurg'ontosh, Dehqonobod-G'injak telefon liniyalari tortilib, ishga tushirildi.

1981-yilda maktablar soni 74 taga etkazildi. Rayonning yangi markazida 140 o'rinli G'uncha, 90 o'rinli Lola bolalar bog'cha yaslilari qurilib, foydalanishga topshirildi. G'ulom Yusupovu nomli kasalxonada, Dehqonobod sovxozining 1-may bo'imida Ko'kbuloq, Oqbosh, Leninizm, Krupskaya, Boshchorbog', Beliboyli sovxoz markazlarida bolalar bog'chalari tashkil qilinib, ular muntazam ravishda ishlab kelgan.

1980 yillar boshida rayon markazida katta obodonchilik qurilish ishlari olib borildi. Mazkur ishlarla o'sha vaqtda raykom kotibi bo'lib ishlagan Sulton Chegiboevning xizmatlari katta. Xullas, mustabid sovet tuzumi hukmronligi yillarida xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan mahrum etildi. Aholi turmush darajasi og'ir bo'lib, ularning uchdan ikki qismi qo'l uchida tirikchilik qilardi.

Mustabid tuzum hukmdorlari tomonidan ko'plab kishilar qatag'on qilindi. Majburiy ravishda ko'chirish siyosati amalga oshirildi. 50-yillardan boshlab u aholi yashash sharoitlari uchun biroz qulay sharoitlar yaratildi.

Tumanda Dehqonobod ijara xo'jaligi tuman tarixida dastlab tashkil etilgan xo'jaliklardan biri. 1950-yillar boshlariga qadar bu hududda o'nlab jamoa xo'jaliklari mavjud bo'lib, 1954-yilda ularni yiriklashtirish maqsadida davlat xo'jaligiga aylantirilgan. Bu yerda ilk marta Sobirjon Usmonov direktorlik qilgan. Shu o'rinda Dehqonobod davlat xo'jaligi taraqqiyotiga salmoqli hissasini qo'shgan Chori Qo'shoqovning faoliyatini alohida qayd etmoq darkor[4;23]. U yetakchilik qilgan yillarda bu yerda chorvachilikda ham dehqonchilikda ham xalqning madaniy hayotida ham ko'zga tashlanarli o'zgarishlar bo'lgan. Usha yillarda jamoa chorvachiligi keng rivojlandi. Chorva mollari soni 40 mingga yetdi. Yuzlab gektar

bog' barpo etildi. Ayniqsa suv omborlari barpo etilib lalmikor yerda yuzlab gektar yerga makkajo'xori, poliz ekinlari, beda va mevali daraxtlar ekildi.

Dehqonobod rayon sovetining 2-chaqiriq II sessiyasida rayon ijroiya komitetining raisi Norsaparovning dokladidan ko'chirma:

"Mehnatkashlar deputatlari rayon sovetiga o'tgan sayovdan buyon bir yil 5 oy vaqt o'tdi. Mehnatkashlar deputatlari Dehqonobod rayon soveti saylovdan buyon o'tgan davr ichida bosheviklar partiyasi rahbarligi ostida Markaziy komitetning fevral plenumi oldimizga qo'ygan ulug'vor vazifalarni amalga oshirish uchun kolxozchi, qishloq mehnatkashlari va butun mehnatkashlar ommasini safarbar qilish bilan, sanoatni xom-ashyo bilan ta'min etish va bundan keyin kolxozlarni tashkiliy xo'jalik tomonidan mustahkamlash va kolxozchilarning madaniy farovonligini hamda iqtisodiy ahvollarini yuqori darajaga ko'tarish bayrog'i ostida o'z ishimizni amalga oshirmoqdamiz".

Kolxozchi qishloq intellegentlari va MTS xizmatchilari o'z oldidagi ulug'vor vazifalarni amalga oshirib bajarish uchun sotsialistik musobaqa katta rol o'ynaydi.

Sotsialistik musobaqa natijasida qishloq sovetlarining va tashkilotchilik roli bir qadar oshgandek edi. 1943-yil 10 ta qishloq soveti, 48 ta kolxoz, 147 ta brigada va 497 ta zvenolar sotsialistik musobaqaga qo'shilgan edi. Bular ichida Boshchorbog' qishloq soveti rayonaro musoboqada yutib chiqdi. 1948-yilda davlatga don topshirish planlari o'z vaqtida oshig'i bilan bajarildi va kolxoz xo'jaligini tashkiliy jihatdan mustahkamladi. Kolxoz va MTS ichidan qishloq xo'jalik va chorvachilik ilg'orlari o'sib chiqdi. Ish davrida yaxshi xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jalik va chorva xodimlaridan 2 kishi "Lenin ordeni" bilan, 8 kishi "Mehnat qizil bayrog'i" ordeni bilan, 1 kishi medal bilan jami 11 kishi orden va medallar bilan oliy sovet prezidiumi tomonidan mukofotlandi. Keyingi yillar ichida rayonimiz kolxozlarida qishloq xo'jaligi ekinlarini hosili va jamoat chorvachiligini rivojlantirish kundan-kunga o'sib bordi.

Shuning natijasida kolxozchi xo'jaliklarning yaxshi yashashlariga qulay sharoit tug'ildi. Ko'p kolxozlarda va qishloq sovetlari qoshida yangi klublar, hammomlar, bibliotekalar, bog'cha va yaslilar tashkil qilingan. Rayon mehnatkashlarini davolash uchun rayonda 1 ta kasalxona va qishloq sovetlari qoshida 3 ta uchastka doktorlari bor. Bu yil rayonimizda ko'p binolik kasalxona qurilib bitishi kerak. Rayonda 1 ta o'rta maktab, 30 ta to'liksiz o'rta maktab va 7 ta boshlang'ich maktablar bo'lib, bu maktablarda 5193 ta bolalar o'qiydi. Rayonda usha davrda 1 ta MTS va 1 ta artel bo'lgan.

Qishloq sovetining qishloq xo'jalik organlarining va kolxoz pravleniyalarining bosh vazifasi 1949-yilgi xalq xo'jalik planlarini O'zbekiston Sovet sotsialistik respublikasining 25 yil to'lishiga qadar oshig'i bilan bajarish uchun umumxalq sotsialistik musobaqasini kuchaytirishdan iborat[5;112].

Bizning oldimizda bu yil qishloq xo'jaligini hamma turlari bo'yicha planni oshirib bajarishlik uchun og'ir vazifalar turadi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga rahbarlik qilishdagi xato-kamchiliklarni tez kunda tugatishdan iborat. Hozirgi vaqtda o'rish, yanchish va davlatga don topshirish, jamoat chorvachiligi planini rivojlantirish va davlatga chorvachilik mahsulotlari berishdek muhim vazifa turibdi.

Bunday muhim siyosiy xo'jalik vazifalarini o'z vaqtida bajarishlik uchun butun rayon mehnatkashlarini oyoqqa turg'izishdan iborat. Buning uchun qishloq xo'jalik organlari, kolxoz pravleniyalari ishda orqada qolishiga yo'l qo'ymasliklari kerak. Bizning rayon hammaga ma'lum, g'allachilik va chorvachilik xo'jaligidan iboratdir. Markaziy komitetning fevral plenumi qarori ekin maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishdek muhim vazifalarni oldimizga qo'ygan edik. Bu vazifalarni don ekinlarini o'z vaqtida agrotexnika qoidalariga muvofiq ekilishi va ob-havoning qulay sharoitda deyarli kelishligi orqasidan rayonimizning deyarli hamma kolxozlarida yuqori hosil yetishtirildi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xullas, sovet davlati hokimiyat tepasiga kelgach, qishloq xo'jaligi masalasiga katta e'tibor qaratdi. Kolxozlar, sovxozlar tashkil etilib, doimiy ravishda davlat tomonidan plan belgilanib mahsulotlarning topshirilishi qattiq nazorat ostiga olindi. Garchand o'ta murakkab sharoit bo'lsa ham Dehqonobod tumani yerlarining anchagina qismi paxta yetishtirishga moslashtirildi. Qo'l mehnatidan keng foydalanildi. Xalqning yashash sharoitlari, moddiy manfaatdorlikka e'tibor berilmadi.

Tumandagi mavjud sug'oriladigan yerlarda paxta monokulturasining o'rnatilishi ham ko'plab salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Xususan, tumandagi yerlarning qiyalik darajasi yuqori bo'lganligi ya'ni qiyaligi 2°-5° ba'zi joylarda bundan ham yuqori bo'lganligi tuproq yuvilishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, paxta uchun ajratilgan yerlarda almashlab ekishning yo'lga qo'yilmaganligi esa yerlarning tezda yaroqsiz holatga kelib qolishiga ham olib kelgan.

Chorvachilikda ham "sun'iy qochirish" deb atalgan usulning olib kirilishi hamda bu tadbirlarning ko'rsatilgan yo'riqnomaga mos tarzda amalga oshirilmaganligi sababli chorva mollarining genafoniga salbiy ta'sir ko'rsatib, sovliq qo'ylarning tirik vazni kichrayib qolishi ba'ziga esa bir necha yillik naslning nobut bo'lishiga ham olib kelgan.

Albatta bularning hammasi hudud tabiiy sharoitining yaxshi o'rganib chiqilmaganligi, buyruqlarni to'g'rida-to'g'ri, ko'rko'rona ijro etilishining, shu bilan birga, bu tadbirlarni amalga oshirishga yetarli e'tibor va masuliyat bilan yondashilmaganligining ham oqibatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 89 ish. B-81
2. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 26 jamg'arma 2-ro'yxat 89 ish. B-79
3. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at.-T.Sharq. 1998.-297 b., B.Maxmudov. Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo'li. Qarshi, Nasaf.1999-127 b., Резалюции и решения съездов КП Узбекистана.-Т., 1957., O'zbekistonning Yangi tarixi. K.2. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida.-Т.,- Sharq,2000., Q.Usmonov., M.Sodiqov. O'zbekiston tarixi.-Т.:Sharq.2001., O.Jo'raqulov., J.Ergasheva. Qashqadaryo sanoati tarixi. Karshi, Nasaf. 1996
4. X.Eshmurodov. Oltin beshigim. Т.: 1994.-23 b
5. Qashqadaryo VDA G'uzor bo'limi 8 jamg'arma 4-ro'yxat 53 ish. B-112

MUSTAQILLIKKA QADAR BO'LGAN DAVRDA BAXMAL TUMANIDA TA'LIM TIZIMI

Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi

JDPU tayanch doktranti

+998936133139

Annotatsiya. Baxmal tumani Jizzax viloyatida joylashgan tumanlardan biri bo'lib, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrda Baxmal tumanida ta'lim tizimining holati, xususan boshlang'ich ta'lim hisoblangan bog'chalarning ishlash jarayonlari kabi masalalar xususida ma'lumot keltiriladi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, Baxmal tumani, ijtimoiy hayot, ta'lim, bog'cha, sovxoz, maktab, ta'lim-tarbiya.

Аннотация. Бахмальский район является одним из районов Джизакской области. В данной статье приводится информация о состоянии системы образования в Бахмальском районе до обретения независимости Республикой Узбекистан, в частности рассматриваются вопросы функционирования дошкольных учреждений как начального звена образования.

Ключевые слова: Независимость, Бахмальский район, социальная жизнь, образование, детский сад, совхоз, школа, воспитание и обучение.

Abstract. Bakhmal district is one of the districts located in Jizzakh region. This article provides information about the state of the education system in Bakhmal district before the independence of the Republic of Uzbekistan, particularly focusing on the functioning of preschool institutions as a primary stage of education.

Keywords: Independence, Bakhmal district, social life, education, kindergarten, state farm (sovkhoz), school, teaching and upbringing.

Ijtimoiy hayotning yana bir muhim qismi bu - ta'lim sanaladi. Shuning uchun ham har bir davrda ta'lim rivoji jamiyatning yaxshi shakllanishi uchun asos bo'lib kelgan. Mustaqillikdan oldingi davrda ham yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashga oid ishlarga alohida e'tibor berilgan. Mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrda Baxmal tumanida ta'lim tizimi sobiq ittifoqning markazlashgan ta'lim siyosati asosida tashkil etilgan edi. Markazdan kelgan qarorlarni hayotga tadbiq etish uchun ish olib borayotgan tumandagi agrosanoat birlashmasi, rayijrokomning xalq maorifi bo'limi, xo'jaliklar va xalq deputatlari qishloq Sovetlari ijroiya komitetlari maktabgacha tarbiya muassasalari ishini talablar darajasida tashkil qilish maqsadida ma'lum darajada islohotlarni amalga oshirib turgan bo'lsada, bog'chalarning faoliyatini tashkil qilishda ko'plab jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lgan.

Xuddi shu davrga kelib tumanda jami 42 ta maktabgacha tarbiya muassasasi mavjud bo'lib, ularda ushbu jamiyatning 2410 nafar farzandi tarbiyalangan. Shuningdek ushbu yilning yoz fasliga kelib yana 780 nafar bolalar jalb qilingan[1].

1-jadval

**1988-yilga qadar Baxmal tumanidagi mavjud bog'chalar soni, ularning bola
qamrovi ko'rsatkichi va holati**

Keyingi yillar davomida ham Baxmal, Sangzor va Nurliquyosh nomli sovxozlarida yangi turdagi bolalar bog'chalari qurilib ishga tushirilgan. Tumandagi maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya sohasida olib borayotgan ishlarini, moddiy-texnika bazasini, jihozlar bilan to'liq ta'minlanishini yaxshilash borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilib borilgan. Ushbu yilga kelib respublikada bolalarni yasli [2] va bog'chaga tortish 40 foiz, tumanda 30 foizni tashkil etgan. Tumanlar miqyosida esa Baxmal sovxozida bu ko'rsatgich 4,5 foizni, Oyqor sovxozida 3,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ahvol boshqa xo'liklarda ham ijobiy ko'rsatgichni namoyon qilmagan [3].

1980–1990-yillarga kelib tumandagi maktablar soni ko'payib, maktabgacha ta'lim muassasalari ham faoliyat yurita boshladi. Masalan, 1999–2000 o'quv yiliga kelib Baxmal tumanida 63 ta umumiy ta'lim maktabi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda minglab o'quvchilar tahsil olgan. Shuningdek, 45 ta maktabgacha tarbiya muassasasida uch mingga yaqin bola tarbiyalangan. Bu esa hududda ta'lim tizimining keng qamrovli rivojlanganligini ko'rsatadi [4].

Yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish har bir jamiyatning to'g'ri rivojlanishi uchun eng muhim omillardan sanaladi. Bu paytda maktab muassasalari faoliyatiga ham yaxshi e'tibor berilishiga harakat qilinsada ko'plab kamchiliklarga ko'z yumib borilgan. Tumanda umumta'lim maktablari faoliyat yuritib, ular orqali o'quvchilarga boshlang'ich, to'liq bo'lmagan o'rta va o'rta ta'lim berilgan. Shuningdek, kasb-hunar ta'limiga ham e'tibor qaratilib, ayrim yoshlar o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlarida tahsil olgan. Bu muassasalar orqali qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari uchun zarur mutaxassislar tayyorlangan.

Mazkur davrda tumandagi maktablarning moddiy-texnik bazasi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa-da, ta'lim tizimi orqali aholining savodxonlik darajasini oshirishga katta e'tibor berilgan. O'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlari ham davlat tomonidan yo'lga qo'yilgan. Umumta'lim maktablarida mehnatkashlarning 19 mingga yaqin o'g'il-qizlari ta'lim-tarbiya olgan bo'lib, ularga 1668 nafar o'qituvchi va tarbiyachilar murabbiylik qilgan[5]. Davlat maktabdagi pedagogik xodimlarning sifat tarkibini yaxshilash orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan yaxshilashga intilib borgan. Mana shu davrda maktablarda boshlang'ich harbiy ta'lim eng ustuvor bo'lgan yo'nalishlardan bo'lganligi uchun boshlang'ich harbiy tayyorgarlik darslarini yuqori saviyaga ko'tarish borasida qator tadbirlar qilingan.

1988-yil davomida 2 ta yopiq TIR qurilgan hisoblanib, tumandagi 3 ta maktabda (1, 48, 50) barcha elementlarga ega harbiy kompleks faoliyat yuritgan. Shuningdek, ushbu soha rivoji uchun keltirilgan ko'rgazmali qurollar, ta'limning texnika vositalari o'rniga ko'plab yangidan fan kabinetlari qurilgan [6].

Mana shu kabi olib borilgan ishlarning samarasi yaxshilanib borganligi uchun, yildan-yilga maktabni bitirgan yoshlardan oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga kirib o'qiyotganlar soni ortib borgan. Birgina 1987-1988 o'quv yilida 1151 nafar maktab bitiruvchilaridan 250 tasi oily va o'rta maxsus bilim yurtlarining talabalari bo'lishga erishgan.

Umuman olganda, mustaqillikka qadar Baxmal tumanida ta'lim tizimi markazlashgan boshqaruv asosida faoliyat yuritib, hudud aholisi orasida

savodxonlikni oshirish va turli sohalar uchun kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'allaorol tuman arxivi. Fond-101, ro'yxat-1, yig'ma jild- 1483, 135 varoq.
2. Yasli - 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan tarbiya va parvarish muass asasi.
3. O'sha manba.
4. "Baxmal tumani haqida ma'lumotlar" milliycha.uz.
5. G'allaorol tuman arxivi. Fond-101, ro'yxat-1, yig'ma jild- 1500, 45 varoq.
6. O'sha manba.

